



ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

21-mart – mamlakatimizda Navro‘z
umumxalq bayramiga uyg‘un holda
xalqimizning ardoqli shoiri

ABDULLA ORIPOV

tavalludi kuni ham keng
nishonlanishi ezgu adabiy
an‘anaga aylangan. Bu yil ijodkor
tavalludining 85-yilligi munosabati
shoir yashab ijod qilgan xonadon
– Toshkent viloyatidagi “Do‘rmon”
ijod uyida O‘zbekiston Qahramoni,
O‘zbekiston xalq shoiri
Abdulla Oripovning uy-muzeyi
ochildi.





DOLZARB MAVZU

Mirfozil MIRZAAHMEDOV,
Turon fanlar akademiyasi akademigi

Sumbuloy SAIDOVA,
*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
 Ixtisoslashtirilgan maktab-internati metodisti*

ABJAD HISOBI — ADABIYOT VA TA'LIM INTEGRATSIYASINING TARIXIY ILDIZLARI

Annotatsiya: maqolada adabiyot va matematika fanlarini integratsiya qilish masalasi o'rganiladi. Xondamirning Alisher Navoiy o'limiga bag'ishlab yozgan marsiyasida keltirilgan "Anvori rahmat" so'zi abjad hisobida arab harflari bilan 848 raqamini berishi misolida klassik adabiyotdagi matematik elementlar tahlil etiladi. "Ta'rix" so'zining abjad qiymati zamonaviy ta'lim ruhini aks ettirishi ko'rsatiladi. Zamonaviy adabiyot ijodkorlari ijodida ham abjad integratsiyasi saqlanib qolganligi ta'kidlanadi. Demak, o'tmish ta'lim tizimi va adabiyoti o'zaro bog'liqlikda bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda bu an'ana zamonaviy pedagogikada davom etmoqda. Shu boisdan mazkur maqolada abjad hisobiga alohida urg'u berilib, adabiyot darslarida o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish uchun integratsion yondashuvlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *abjad hisobi, Alisher Navoiy, Hayratul-abror, Farhod va Shirin, adabiyot-algebra integratsiyasi, fanlararo integratsiya, zamonaviy o'zbek adabiyoti, matematika.*

Аннотация: в статье рассматривается проблема интеграции литературы и математики. Анализ математических элементов в классической литературе иллюстрируется примером слова «Анвори рахмат» в элегии Хондамира, посвященной смерти Алишера Навои, которое при подсчете по абджаду с использованием арабских букв дает число 848. Показано, что абджадная ценность слова «Та'рикс» отражает дух современного образования. Подчеркивается, что интеграция абджада сохранилась в творчестве современных литераторов. Таким образом, если в прошлом система образования и литература были взаимосвязаны, то эта традиция продолжается и в современной педагогике. Поэтому в данной статье особое внимание уделяется абджаду, предлагаются интегративные подходы к развитию литературного мышления учащихся на уроках литературы.

Ключевые слова: *абджадный расчет, Алишер Навои, «Хайрат-уль-абрар», «Фархад и Ширин», интеграция литературы и алгебры, междисциплинарная интеграция, современная узбекская литература, математика.*

Annotation: the article examines the issue of integrating literature and mathematics. The analysis of mathematical elements in classical literature is illustrated by the example of the word 'Anvori rahmat' in Khondamir's elegy on the death of Alisher Navoi, which, when counted in the abjad using Arabic letters, yields the number 848. It is shown that the abjad value of the word 'Ta'rix' reflects the spirit of modern education. It is emphasised that the integration of abjad has been preserved in the works of contemporary literary creators. Thus, whereas the educational system and literature of the past were interconnected, this tradition continues in modern pedagogy. Therefore, this article places particular emphasis on the abjad, proposing integrative approaches to develop pupils' literary thinking in literature lessons.

Key words: *abjad calculation, Alisher Navoi, Hayrat-ul-abrar, Farhad and Shirin, literature-algebra integration, interdisciplinary integration, modern Uzbek literature, mathematics.*

Kirish. Adabiyot ta'limining zamonaviy shakllari ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda o'quvchilarda badiiy tafakkur va mustaqil fikrlashni rivojlantirishni taqozo etadi. Bu jarayonda adabiyotning boshqa fanlar, xususan matematika bilan integratsiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan klassik va zamonaviy o'zbek adabiyotidagi matematik elementlarni, avvalo, **abjad hisobi orqali adabiyot-matematika bog'lanishini** o'rganish dolzarbdir. Ushbu yondashuv nafaqat o'tmish ta'lim tizimida fanlararo uyg'unlik mavjud bo'lganini ochib beradi, balki bu an'ananing bugungi kunda ham ilmiy ahamiyatini yo'qotmaganini isbotlaydi.

Abjad hisobi — arab alifbosidagi harflarning muayyan raqamiy qiymatga ega bo'lishiga asoslangan hisoblash usuli bo'lib, u o'rta asr Sharq adabiyotida muhim **matematik va estetik vosita** sifatida keng qo'llangan. Jumladan, Xondamirning Alisher Navoiy o'limiga bag'ishlab yozilgan marsiyasidagi **"Anvori rahmat"** iborasi abjad

hisobi asosida **848** raqamini beradi. Bu esa shoirning tug'ilgan yili — **848-hijriy (1441–1442-milodiy)** ga to'la mos keladi. Mazkur misol adabiy matnda so'z, son va vaqt tushunchalarining o'zaro uyg'unlashganini yaqqol namoyon etadi¹.

Shuningdek, "ta'rix" deb ataluvchi bunday abjadli iboralar orqali mualliflar muhim voqealar sanasini badiiy shaklda ifodalaganlar. Bu holat adabiyot faqat badiiy-estetik hodisa emas, balki **aniq matematik mantiqqa tayanuvchi murakkab tafakkur mahsuli** ekanini ko'rsatadi. Demak, adabiyot va matematika fanlari o'rtaasidagi integratsiya o'quvchilarning ham badiiy, ham mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida bu integratsiya yanada aniq namoyon bo'ladi. Dostonda Malika Mehinbonu Farhodni bog'da 10 ta qiz bilan tanishtiradi va

¹ Sh.Sirojiddinov. *Navoiy zamondoshlari e'tirofida. Zarafshon nashriyoti. – Samarqand. 1996-yil.*

ularning riyoziyot, mashshoqchilik, musiqa kabi jabhalar bo'yicha ustunliklarini sanaydi. Qizlar ismlari bir-biriga mosligi (*masalan, riyoziyot ustasi qizning ismi son va mantiqqa ishora*) orqali o'sha davr ta'lim tizimi va zamon ruhini aks ettiradi. Bu sahnada nafaqat sevgi motivlari, balki o'rta asr ta'limining ko'p qirraliligini ko'rish mumkin, ya'ni adabiyot orqali riyoziyot va boshqa fanlarni o'rgatishga guvoh bo'linadi.

ASOSIY QISM. Bundan ko'rinadiki, **abjad hisobi o'rta asr adabiyotida shifrlash va ramziy ma'no berish vositasi sifatida keng qo'llanilgan.** Abjad tizimida arab alifbosidagi har bir harf muayyan raqamiy qiymatga ega: alif – 1, bo – 2, jim – 3 va hokazo. Ushbu usul orqali shoirilar va mualliflar muhim tarixiy voqea yoki shaxs bilan bog'liq sanalarni yashirin tarzda ifodalab, o'quvchini nafaqat badiiy, balki matematik mantiq asosida fikrlashga undaganlar.

Jumladan, Xondamir Alisher Navoiy o'limiga atalgan marsiyasida keltirgan **"Anvori rahmat"** iborasi abjad hisobi asosida **848** raqamiga teng bo'ladi. Bu son buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning tug'ilgan yili — **848-hijriy** sanasini bildiradi. Ushbu misol so'z, son va tarixiy vaqt o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi.

"Tarix" so'zi (تارىخ = ta-vo-ri-xe = 400+1+200+10+20+5=636) ham shunday: bu raqam tarixiy voqealar yilini ifodalashi mumkin, adabiyot orqali tarix va matematikani bog'laydi. Bunday integratsiya o'quvchilarda analitik fikrlashni oshiradi, chunki ular matnni faqat o'qimasdan, hisoblaydi degan mulohazani beradi.

Bu fikrlarning amaliy tasdig'ini bugungi ta'lim jarayonida ham kuzatish mumkin. Jumladan, bundan kuzatish va ilmiy izlanish natijalari aksini topgan qator manbalarda Alisher Navoiy ijodidan namunalar asosida fanlararo integratsiya amalga oshirilgan. Birgina Navoiyning "Hayratul-abror" dostonidan parcha keltirish orqali hijriy va milodiy yil hisoblari o'rtasidagi nisbatni tushuntirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Alisher Navoiyning "Hayratul-abror" dostonida keltirilgan tarixiy ishora adabiyot va matematika o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatuvchi muhim dalillardan biridir. Dostondagi quyidagi baytlar shoir tomonidan asarning yozib tugallangan sanasini she'riy ifoda orqali berilganini ko'rsatadi:

Nutqayi ta'rixiki ahsan edi,

Sekiz-u sekiz yuz-u seksan edi.

Ushbu satrlarda bevosita "888" soni tilga olinmaydi, balki u so'z orqali ifodalanadi. Bu hijriy 888-yilni anglatadi. Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: milodiy 1441-yilda tug'ilgan Alisher Navoiy qanday qilib hijriy 888-yilda "Hayratul-abror"ni yozib tugatgan bo'lishi mumkin? Ushbu savolga javob hijriy va milodiy yil hisoblari o'rtasidagi matematik bog'lanishni tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Ma'lumki, hijriy yil hisobi Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ning 622-yil 16-iyulda Makkadan Madinaga hijrat qilgan kunidan boshlanadi va u oy taqvimiga asoslanadi. Milodiy yil esa quyosh taqvimiga tayanadi. Shu sababli bu ikki yil hisobi o'rtasida har doim muayyan tafovut mavjud bo'ladi. Zamonaviy matematika va algebra fanida ushbu tafovutni aniqlash uchun maxsus formulalardan foydalaniladi.

Hijriy yilni **H**, milodiy yilni esa **M** bilan belgilab, quyidagi bog'lanishlar qo'llaniladi:

Hijriy yildan milodiy yilni topish uchun:

$$M = H + 622 - [H:33]$$

$$M = H + 622 - [H:33]$$

Milodiy yildan hijriy yilni topish uchun:

$$H = M - 622 + [(M - 622) : 32]$$

$$H = M - 622 + [(M - 622) : 32]$$

Bu yerda **[x]** belgisi x sonining butun qismini bildiradi.

Masalan, hijriy 1445-yilni olaylik. Formula asosida hisoblanganda, u milodiy 2024-yilga mos keladi. Aksincha, milodiy 2024-yil hijriy hisobda 1445-yilni beradi. Bu misollar matematik risolalarda berilib, o'quvchilarga ikki xil taqvim tizimi o'rtasidagi matematik munosabatni tushuntirishga xizmat qiladi.

Xuddi shu matematik yondashuv asosida Alisher Navoiyning tug'ilgan sanasi ham aniqlashtiriladi. Ma'lumki, shoir milodiy 1441-yilda tavallud topgan. Hijriy va milodiy yil hisoblari o'rtasidagi bog'lanish formulasi asosida ushbu sana hijriy 844-yilga to'g'ri keladi. Bu holat Navoiyning hijriy 888-yilda yozib tugatgan "Hayratul-abror" dostoni bilan vaqt jihatidan ziddiyat hosil qilmaydi. Aksincha, asarning yozilgan sanasi shoir hayotining keyingi, yetuk ijodiy bosqichiga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Ya'ni, hijriy 888-yil bilan hijriy 844-yil o'rtasidagi farq Navoiyning taxminan qirq to'rt yoshida ushbu dostonni yakunlaganini anglatadi. Bu esa shoirning ijodiy kamolotga yetgan davrida asar yaratganini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Xuddi shunday, **Mahmud Koshg'ariy** ijodida ham **abjad hisobi va fanlararo integratsiya** elementlarini uchratish mumkin. **"Devonu lug'atit-turk"** asarida u nafaqat turk tillari va leksikasini to'plagan, balki **harflarning tartibi va raqamiy qiymatlarni** kuzatish orqali til va matematik mantiq o'rtasidagi uyg'unlikni ko'rsatgan. Bu holat shuni anglatadiki, Koshg'ariy ijodida **tilshunoslik va hisoblash tizimi integratsiyalashgan**, ya'ni har bir harf va so'z faqat lingvistik birlik sifatida emas, balki **ramziy va raqamiy qiymatga ega** bo'lgan ilmiy konstruktsiya sifatida qabul qilingan.

Natijada, o'quvchiga **abjad usuli orqali so'z va sonlarni bog'lash** va shu orqali **matematik mantiq bilan badiiy tafakkurni** uyg'unlashtirish imkoniyati yaratiladi. Shu sababli Koshg'ariy ijodi, Navoiy va zamonaviy matematika darslari o'rtasida **ilmiy va pedagogik uzviylikni** ko'rsatish, fanlararo integratsiyani tushuntirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi.

Aslida **Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit-turk"** asarida nafaqat lug'at so'zlari, balki **turk xalqlarining maqollar, aforizmlar va she'riy yoki og'zaki folklor namunalariga o'xshash qismlar** va albatta, bugungi kunda ham ta'limning asosiy bo'g'inlaridagi faol fanlar ham keltiriladi. Bu parcha va maqollar, fanlar orqali o'sha davrning fikr madaniyati, mantiqiy va hayotiy qarashlari aks ettirilganligi tadqiqotlarda qayd etilgan².

Xuddi shunday, Abdulla Oripov ijodida ham son va harf munosabatlari tayangan ramziy fikrlash unsurlari uchraydi. Shoirning vatan, millat, tarix va mas'uliyat kabi mavzularni yoritgan she'rlarida ayrim so'zlar mazmuniy yuk bilan birga yashirin raqamiy ma'noni ham o'zida mujassam etadi. Xususan, "Vatan" tushunchasining abjad tahlili orqali mazmuniy markaz sifatida talqin qilinishi Oripov poetikasida milliy qadriyatlar

2 Sh. Tulagonova. Semantic properties of stereotypical units in the poems of "Devonu lug'atit-turk". CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCE (ISSN –2767-3758). 2022. 74-78 p.

bilan ramziy tafakkur uyg'unlashganini ko'rsatadi. Bu holat shoir ijodida klassik adabiyotdan meros bo'lgan ma'naviy va intellektual usullarning zamonaviy shaklda davom etayotganidan dalolat beradi.

Amerika — sehrli diyor,
Uxlar edi Kolumb ham hali,
Dengiz ortin yoritdi ilk bor,
Beruniyning aql mash'ali.
Kolumbda bor alamim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim.

Mazkur she'riy parchada Abdulla Oripov tarixiy va ramziy tafakkurni uyg'unlashtirib, Sharq va G'arb ilmiy tafakkuri o'rtasidagi adolatsiz nisbatni ochib beradi. Shoir "Amerika — sehrli diyor" deya Yangi Dunyo kashfini eslatar ekan, darhol Kolumb obrazini passiv holatda — "uxlar edi" deya tasvirlaydi. Bu orqali shoir Kolumbdan ancha oldin Sharq olimlari, xususan Abu Rayhon Beruniy Yerning sharsimonligi va dengiz orti hududlari haqida ilmiy xulosalarga kelganini nazarda tutadi.

"Dengiz ortin yoritdi ilk bor,

Beruniyning aql mash'ali" satrlari Beruniyning ilmiy tafakkuri ramziy ma'noda kashfiyotchi nur sifatida talqin qilinishini ko'rsatadi. Bu yerda Beruniy nafaqat tarixiy shaxs, balki ilm-fan va aql timsoliga aylanadi. Shoir Kolumb nomi bilan bog'liq "alam"ni esa shaxsiy emas, balki **milliy alam** darajasiga ko'taradi, ya'ni ilmiy haqiqat Sharqda ancha avval mavjud bo'lgan bo'lsa-da, tarixiy e'tirof G'arbga nasib etgan.

"Kolumbda bor alamim manim" misrasi orqali lirik qahramon o'z xalqining ichki iztirobini ifodalaydi — bu alam tarixiy adolatning kech qaror topgani, milliy ilmiy merosning yetarlicha tan olinmaganligi bilan bog'liq. She'r "O'zbekiston, Vatanim manim" satri bilan yakunlanib, mazkur tarixiy-falsafiy mulohazani milliy o'zlik va vatanparvarlik g'oyasi bilan mustahkamlaydi.

Demak, ushbu she'riy parcha Abdulla Oripov ijodida **klassik ilmiy tafakkur (Beruniy an'anasi)** zamonaviy poetik shaklda davom etayotganini, shuningdek, so'z va tarix orqali chuqur falsafiy hamda milliy o'zlikni anglash g'oyasi ifodalanayotganini ko'rsatadi.

Shu jihatdan qaralganda, bir necha zamonaviy adabiyot ijodkorlari va aynan Abdulla Oripov ijodi zamonaviy adabiyotda

abjad va sonlar bilan bog'liq tafakkur butunlay uzilib ketmaganini, balki yangi badiiy kontekstda yashab kelayotganini ko'rsatadi. Mazkur an'ananing ta'lim jarayonida qo'llanilishi, xususan, she'riy matnlarni abjad hisobi asosida tahlil qilish orqali o'quvchilarda nafaqat badiiy didni, balki analitik va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Natijada adabiyot va algebra o'rtasidagi bog'liqlik o'tmishdan hozirgi kungacha uzviy ravishda davom etayotgan fanlararo integratsiya modeli sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Alisher Navoiy ijodida mazkur integratsiya tizimli xarakter kasb etadi. "Farhod va Shirin" dostonidagi ta'limga oid sahnalar hamda "Hayratul-abror" asarida tarixiy sananing she'riy ifoda vositasida berilishi adabiy tafakkur bilan matematik mantiqning uyg'unlashganini tasdiqlaydi. Xususan, hijriy 888-yilga ishora qiluvchi baytlarning zamonaviy algebra formulalari orqali sharhlanishi Navoiy asarlarining bugungi ta'lim tizimida ham metodik salohiyatga ega ekanini asoslaydi. Bu holat ayrim matematik risolalar mazmunida, aynan "Hayratul-abror"dan parcha kiritilishi kabi holatlarda tasodifiy emasligini, balki puxta ilmiy-pedagogik yondashuv mahsuli ekanini anglatadi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida ham ushbu tafakkur an'anasi uzluksiz davom etmoqda. Bir qator ijodkorlar ijodida abjad va ramziy sonlar poetik ma'no hosil qilish vositasi sifatida faol qo'llaniladi, xususan, Abdulla Oripov she'riyatida harf-son munosabatlariga tayangan ramziy fikrlash milliy qadriyatlar bilan uyg'un holda talqin etiladi. Bu holatlar matematik mantiq adabiy tafakkurdan uzilib ketmaganini, balki yangi badiiy shakllarda yashab kelayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, adabiy matnlarni matematik yondashuv asosida tahlil qilish o'quvchilarda nafaqat badiiy didni, balki analitik, mantiqiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini ham rivojlantirish imkonini beradi. Shu bois fanlararo integratsiyaga asoslangan bunday yondashuvlar zamonaviy ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ilmiy asosda keng tatbiq etilishi maqsadga muvofiqdir. Aynan mana shu uzviylik milliy adabiy merosning bugungi ta'lim makonida yashab qolishi va yangi avlod tafakkurida davom etishining muhim kafolatlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, Alisher. *Farhod va Shirin*. — Toshkent: Akademyanashr, 2015. 210-b.
2. Navoiy, Alisher. *Hayratul-abror*. — Toshkent: Sharq, 2019. 180-b.
3. Xondamir. *Razm va Rahmat asarlari*. — Toshkent: Fan, 2020. 220-b.
4. Oripov, Abdulla. *She'rlar*. — Toshkent: Akademynashr, 2020. 200 - b.
5. Riham H. Miqdadi. *ABJAD Numerals as an Absolute Dating Method*. Mediterranean Archaeology and Archaeometry, Vol. 20 No. 3. 2020.
6. Salameh S. Oudeh, Ahmed Hamed, Adel Shaqour. *Abjad Numerals between Arabic and Hebrew: Models and Comparisons*. Journal of Arabic Language Sciences and Literature, Vol. 2, No. 6. 2023.
7. Munavvarova, D., Yigitaliyeva, S. *Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida obrazlar talqini*. Tadqiqotlar.Uz, Vol. 37 No. 6. 2024.
8. Raxmonova N. Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostonidagi obrazlarning adabiy manbalardagi ildizlari. "Alisher Navoiy va XXI asr" 9-uluslararo konferensiyasi. — Toshkent_bursa, 2024-yil 8-fevral.
9. Sirojiddinov Sh. Navoiy zamondoshlari e'tirofida. Zarafshon nashriyoti. — Samarqand. 1996-yil.
10. Tulagonova Sh. Semantic properties of stereotypical units in the poems of "Devonu lug'atit-turk". CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCE (ISSN –2767-3758). 2022. 74-78 p.

O.S.ABDULLAYEVA,
Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Namangan davlat texnika universiteti
e-mail: ozoda.safibullayevna121620@gmail.com

M.T.NASRIDDINOVA,
Magistr Namangan davlat texnika universiteti
e-mail: mbrknasriddinova@gmail.com

OLIV TA'LIM MUASSASALARINI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA TA'LIM JARAYONLARINI BOSHQARISHNING INTELEKTUAL TIZIMINI YARATISH

Annotatsiya: mazkur maqolada oliy ta'lim muassasasi talabalarining intellektual salohiyatini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari hamda talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, intellektual boshqaruv tizimining asosiy tarkibiy qismlari, funksiyalari va oliy ta'lim muassasalaridagi amaliy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: oliy ta'lim, ta'lim jarayoni, sun'iy intellekt, intellektual salohiyat, ijodiy qobiliyat, ta'lim sifati, mustaqil ta'lim, ijodkor, kreativ, innovatsion texnologiya.

Аннотация: в данной статье анализируются специфические особенности развития интеллектуального потенциала студентов высшего учебного заведения и вопросы развития интеллектуального потенциала его студентов. Также освещаются основные компоненты, функции и практическое значение системы управления интеллектуальным потенциалом в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: высшее образование, образовательный процесс, искусственный интеллект, интеллектуальный потенциал, творческие способности, качество образования, самостоятельное обучение, креативность, инновационные технологии.

Annotation: this article analyzes the specific features of the development of the intellectual potential of students of a higher educational institution and the issues of developing the intellectual potential of its students. Also, the main components, functions and practical significance of the intellectual management system in higher educational institutions are highlighted.

Keywords: higher education, educational process, artificial intelligence, intellectual potential, creative ability, quality of education, independent education, creative, innovative technology.

Jamiyat rivojidadagi yangilanish zarurati va ehtiyoji zaminida ta'lim-tarbiya omili poydevordir. Shu bois har bir jamiyat kelajagi uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Ko'plab yangi oliy ta'lim muassasalarining tashkil etilishi, kadrlar tayyorlashning zamonaviy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda sirtqi va kechki bo'limlarning ochilishi, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarining oshirilishi mazkur yo'nalishdagi muhim islohotlardan biriga aylanmoqda.

Shu sababli zamonaviy oliy ta'lim tizimida intellektual boshqaruv tizimlarini yaratish va joriy etish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday tizimlar sun'iy intellekt, ma'lumotlar bazasi va analitik modellar yordamida ta'lim jarayonlarini samarali boshqarishga xizmat qiladi.

Hozirda oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri – ta'lim sifati muammosini hal qilishga imkon beradigan ta'lim muassasalari tashqi muhitining o'zgarishiga, jamiyatning ehtiyojlariga, ijtimoiy tartibga, qanchalik samarali va pedagogik jihatdan asoslangan uslub va texnologiyalar tanlanishiga munosib javob

beradigan usul va vositalarni joriy qilgan va amaliyotlarda tatbiq etadigan yangicha innovatsion yondashuvlarni iste'molga kiritishdir. Yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarida bo'layotgan tezkor o'zgarishlar ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lim tizimi orqali respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uning gullab-yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan etib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuning uchun ta'limda eng muhim strategik yo'nalish bo'lib, ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyati hisoblanadi. Bu esa barcha ta'lim muassasalarida, ayniqsa ijodkor, yuqori salohiyatli mutaxassis pedagog kadrlarni tayyorlovchi oliy ta'lim orqali intellektual mulkni tayyorlash va intellektual mulk tizimini innovatsion faoliyat ko'rinishida amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Rivojlantiruvchi maqsad: egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy qo'llash, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Innovatsion texnologiyalarning ta'lim taraqqiyotida tutgan roli. Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay

darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'ldan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayorlash milliy dasturi"ning qabul qilinishi bilan uzluksiz ta'lim tizimi orqali zamonaviy kadrlar tayyorlashning asosi yaratildi. Ma'lumki, uzluksizlik va uzviylik ta'lim tizimida, avvalo, jamiyatning ma'naviy va intellektual salohiyatini kengaytiradi, qolaversa, davlatning ijtimoiy va ilmiy taraqqiyotini takomillashtirish omili sifatida ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tezkor almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o'z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik vositalari, o'qituvchi (yoki o'quvchi)ning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o'qituvchi (yoki o'quvchi)larni fanlarga qiziqitirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda. Ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

OTMlardagi innovatsion faoliyatlar natijalarini tijoratlashtirishga qaratilgan tizimli tadbirlarni tashkil etish va rivojlantirish zaruriyati ushbu muassasalarining innovatsion tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishdagi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Innovatsion jarayonlar rivojlanishining hozirgi bosqichida tijoratlashtirish mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishga samarali joriy etishda, bozor kanallari orqali bilim va texnologiyalarga asoslangan

innovatsiyalarning tarqalishida muhim ahamiyat kasb etadigan asosiy omillardan biridir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim inson hayotining barcha sohalari bilan bog'liq, chunki savodli va ilmiy odamlar hayot uchun zarurdir. Shunday qilib, oliy ta'lim innovatsiyasi insoniyatning xilma-xil bilimlari tizimidagi eng ilmiy va amaliy yo'nalishlardan biridir. Oliy ta'lim va fan sohasidagi innovatsion faoliyat butun ta'lim sohasida ham jiddiy innovatsion o'zgarishlarga olib keladi. Har bir mamlakatda oliy ta'lim va fanni innovatsion boshqarish sohasidagi davlat tashabbuslari ushbu sohadagi innovatsiyalarning ijtimoiy, notijorat komponentini kuchaytirishga qaratilgan.

An'anaviy ta'limdan innovatsion ta'limga o'tish. Shu vaqt-gacha an'anaviy ta'limda o'qituvchi (yoki o'quvchi)larni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatib kelingan edi. Bunday usul o'qituvchi (yoki o'quvchi)larda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, tashabbuskorlikni so'ndirar edi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol uslublar (innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalari) dan foydalanib, ta'limning samaradorligini ko'tarishga bo'lgan qiziqish desak afzaldir. Ta'limga bo'lgan e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan mashg'ulotlar o'qituvchi (yoki o'quvchi)lar egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan.

O'qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Bunday o'quv jarayonida o'qituvchi (yoki o'quvchi) asosiy figuraga aylanadi. Intellektual boshqaruv tizimlarini joriy etish oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday tizimlar yordamida: ma'lumotlarni qayta ishlash tezligi oshadi; boshqaruv jarayonlari soddalashadi; ta'lim sifati yaxshilanadi.

Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yaratilgan intellektual tizimlar ta'lim jarayonini optimallashtirish va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kelajakda bunday tizimlarni yanada rivojlantirish va ularni barcha oliy ta'lim muassasalarida joriy etish ta'lim tizimining raqamli transformatsiyasini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi, Oliy ta'lim tizimida innovatsiyalarni boshqarishning asosiy xususiyatlari. International conference on educational innovations and applied sciences 2022/6
- 2.Nizametdinov A., Ahmedova H. Elektron ta'lim metodologiyasini rivojlantirishning usullari//Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollar. 2022. –T., 1. –No. 1. C. 29–31.
- 3.Raxmatov Sh. A Oliy ta'lim muassasalarining innovatsion tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish mexanizmi. УДК: 378:005.94(575.1) –Toshkent, 2022.
- 4.Zayniddinov Sh.N., Murakayev I.U., Shermuhamedov A.T., Sagdullayev D.T., Kucharov A.S. Menejment asoslari. O'quv qo'llanma. –T.: Moliya, 2001.
- 5.Toshniyozov M., Sharifboyev I., Obidov O., Korxonlarda boshqaruv faoliyati asoslari. Darslik. –T.: O'zbekiston, 1995. 134-b.
- 6.G'ulomov S.S., Dodobayev Y.T., Osmonov M.O., Xodimlarni boshqarish. O'quv qo'llanma. –Farg'ona: Quvasoy tadbirkorlik o'quv ilmiy ishlab chiqarish markazi, 2000. 252-b



TILSHUNOSLIK



Umida KABULOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti professori

FRAZELOGIZMLARNING MAZMUNYI YAXLITLIGINI TA'MINLOVCHI SEMANTIK ASOSLAR

Annotatsiya: frazeologik tizimda ma'noviy birliklarning taqsimlanishi ko'p bosqichli ierarxiyaga asoslanadi. Bunda yuqori darajadagi frazeosemantik guruhlarini o'zaro farqlovchi differensial sema, bo'linishning quyi pog'onasiga kelganda ularni birlashtiruvchi integral sema vazifasini o'taydi. Shu bois, frazeosemalarining birlashtiruvchilik (integrallik) funksiyasi mutlaq emas, balki nisbiy xarakter kasb etadi. Mazkur maqolamiz ana shular haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: integrallik, birlashtiruvchi sema, frazeologizm, funksiya, frazeosema, differensial sema.

Аннотация: распределение семантических единиц в фразеологической системе основано на многоуровневой иерархии. В этом случае дифференциальная sema, которая отличает фразеосемантические группы более высоких уровней друг от друга, действует как интегральная sema, объединяющая их при достижении ими более низкого уровня деления. Следовательно, объединяющая (интегральная) функция фразеосем является не абсолютной, а относительной. В данной статье представлена информация о них.

Ключевые слова: целостность, объединяющая sema, фразеологизм, функция, фразеосема, дифференциальная sema.

Annotation: the distribution of semantic units in the phraseological system is based on a multi-level hierarchy. In this case, the differential sema, which distinguishes the higher-level phraseosemantic groups from each other, acts as an integral sema, which unites them when they reach the lower level of division. Therefore, the unifying (integral) function of phraseosemas is not absolute, but relative. This article provides information about them.

Key words: integrality, unifying sema, phraseologism, function, phraseosema, differential sema.

Kirish. P.Jukovning fikricha, frazeologizmning mazmuniy tuzilishida frazeologik ma'noni birlashtiruvchilik belgilari alohida ajralib turadi. Bu belgilar frazeologizm ma'nolarining tarkibiy elementi sifatida turli xil frazeologizmlardan o'rin oladi[1].

Frazeologizmlarning mazmuniy yaxlitligini ta'minlovchi semantik asoslar Sh.G'aniyeva tadqiqotlarida quyidagi ichki ma'no turlari orqali yoritib beriladi:

1. Kategorial mazmun: iboraning muayyan so'z turkumiga xos bo'lgan umumiy grammatik va semantik xususiyatlari.

2. Aksiologik (baholash) mazmuni: ibora tarkibida ifodalangan ijobiy yoki salbiy munosabat, voqelikka berilgan emotsional baho.

3. Intensivlik (daraja va kuchaytirish) ma'nosi: harakat yoki belgining qay darajada kuchli yoki kuchsizligini ifodalash imkoniyati.


4. Antroposentrik (jonli-jonsizlik) ma'no va boshqalar: birlikning shaxsga yoki predmetga yo'naltirilganligini ko'rsatuvchi mazmuniy qirralar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko'rinadiki, integral

sema sifatida belgilanuvchi sema pog'onaviylik, ko'p bosqichlilik kasb etadi. Frazeologik tizimda ma'noviy birliklarning taqsimlanishi ko'p bosqichli ierarxiyaga asoslanadi. Bunda yuqori darajadagi frazeosemantik guruhlarini o'zaro farqlovchi differensial sema, bo'linishning quyi pog'onasiga kelganda ularni birlashtiruvchi integral sema vazifasini o'taydi. Shu bois, frazeosemalarining birlashtiruvchilik (integrallik) funksiyasi mutlaq emas, balki nisbiy xarakter kasb etadi. Ya'ni, bir tizim doirasida farqlovchi bo'lgan belgi, boshqa bir kichik guruh ichida umumlashtiruvchi asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Frazeologizmlarning mazmuniy tuzilishidagi bunday transformatsiya va ierarxik bog'lanishni quyidagi derivatsion shajara (ierarxik model) orqali yaqqol tasvirlash mumkin:[2]

2.4.2-chizma





J.Layonz tomonidan ilgari surilgan tilshunoslik konsepsiyalari frazeologik tizim tadqiqida ham muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi[3]. Xususan, frazeologik birliklar o'rtasidagi giponimik munosabatlar tilning idiomatik fondini tizimlashtirishda katta ahamiyatga ega. Frazeologik giponimiya hodisasi leksik tizimdagi kabi ierarxik tartibga asoslanadi. Bunda frazeologik giperonim (umumlashtiruvchi tushuncha) o'z atrofida bir qancha frazeologik giponimlarni (xususiy ifodalarni) assotsiativ tarzda birlashtiradi. Ushbu jarayonda integral (birlashtiruvchi) semantik belgi asosiy determinant vazifasini o'taydi. Jarayon kategorial semasining mazmuniy markazi atrofida mehnat faoliyatini ifodalovchi *peshona teri to'kmoq*, *ko'z nurini to'kmoq* kabi giponimlar guruhlanadi. Belgi kategorial semasi inson xarakteri yoki holatini tavsiflovchi *qovog'idan qor yog'ilmoq*, *tishining oqini ko'rsatmaslik* kabi birliklarni o'zida jamlaydi.

Tahlil va natijalar. Munosabatlarning namoyon bo'lishi bu giponimik ierarxiyada leksemalar va frazemalar giperonim bilan «ierarxik kiruvchanlik» (intensional bog'lanish) munosabatida bo'ladi. Bu aloqa tilning paradigmatic sathida shakllansa, giponimlarning o'zaro munosabati sintagmatik jarayonda diz'yunktiv (almashinuvchanlik) xususiyatiga ega bo'ladi. Ya'ni, nutqiy voqelanishda konkret vaziyat talabidan kelib chiqib, mavjud giponimdosh birliklardan faqat bittasi tanlab olinadi[4].

Tilshunoslikda **turg'un birikmalar** tushunchasi keng qamrovli, u gaplarga o'xshab nutq jarayonida hosil qilinmaydi[5]. Tadqiqotchi S.A.Abduqahhorov "Olamning lisoniy manzarasida milliy urf-odatlarining aks etishi" nomli tadqiqotida paremiologiya [frazzeologiya](#) bilan chambarchas bog'liq ekanligini ta'kidlaydi[6]. Tilshunoslikda paremiologiya tildagi barcha iboralarni o'rganishi, frazeologiya esa uning bir qismi sifatida faqat [ko'chma](#) ma'noli turg'un birikmalarni o'rganishi ma'lum.

Frazeologik butunlik. Ma'noni tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlash mumkin bo'lgan frazeologik birliklar. Mas., *misi chiqdi*, *xamir uchidan patir* kabi[7].

Frazeologik chatishma. Zid ma'no ifodalaydigan frazeologik birliklar. Mas., *oyog'ini qo'lga olmoq* (*juda tez yurmoq*, *yugurmoq*) kabi[8]. O'zbek tilshunoslari frazeologik chatishma, aynan, idiomaga teng deb hisoblaydilar.

Frazeologik qo'shilma. Tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nosi saqlanadigan, biri ikkinchisining bog'li ma'nosini reallashtiruvchi nutqiy matn vazifasini o'taydigan sintagma. Mas., *qo'l ko'tarmoq*, *ishtahasi ochilmoq* kabi.

Xulosa. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, tadqiqotchilar frazeologizmlarning turg'un birikmalar sistemasidagi o'rnini o'rganar ekan, bunday birikmalar tugalik belgilari bilan alohida ajralib turishini ko'rsatadi[9].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. – Москва: Просвещение, 1978. – С. 25–26.
2. Ғаниева Ш. Фразеологик маънода бирлаштирувчи сема//Илмий хабарнома. –№3, 2013. – Б. 81–82.
3. Лайонз Дж. Введение в теоретическую лингвистику. – Москва: Прогресс, 1978.
4. Ғаниева Ш. Фразеологик маънода бирлаштирувчи сема//Илмий хабарнома. –№3, 2013. – Б. 83.
5. Abduqahhorov S.A. Olamning lisoniy manzarasida milliy urf-odatlarining aks etishi: F.f.f.d-ri. (PhD) diss.... – Andijon, 2024. 86-bet.
6. Abduqahhorov S.A. Olamning lisoniy manzarasida milliy urf-odatlarining aks etishi: F.f.f.d-ri. (PhD) diss... – Andijon, 2024. 85-bet.
7. Abduqahhorov S.A. Olamning lisoniy manzarasida milliy urf-odatlarining aks etishi: F.f.f.d. (PhD) diss.... – Andijon, 2024. 84-bet.
8. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: ЎзМЭ нашриёти. 2009. – Б. 125
9. G'aniyeva Sh. Frazzeologizmlarning turg'un birikmalar sistemasidagi o'rnini/O'zbek tili va adabiyoti. – №1. – Toshkent, 2013. 90-bet.

Ma'rifat XUSANOVA,
FarDU katta o'qituvchisi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

IDIOSTILNING SHAKLLANISHIDA OKKAZIONAL BIRLIKLARNING O'RNI

Annotatsiya: antroposentrik tilshunoslikda poetik matn tahlili dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Lingvopoetik tadqiqotlarda idiosstil va uning markaziy tushunchalaridan biri hisoblangan okkazional birliklar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada idiosstil va uning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan idiolekt, okkazional birliklar masalasi xususida fikr yuritilgan. Okkazionallardan foydalanish bo'yicha xulosalar lisoniy dalillar tahlili orqali ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: idiosstil, lingvopoetika, idiolekt, okkazional birliklar, neologizm, poetik matn, adabiy til me'yori.

Annotation: in anthropocentric linguistics, the analysis of poetic text is one of the pressing issues. In linguopoetic research, idiostyle and occasional units, which are one of its central concepts, are of great importance. This article discusses idiostyle and its most important component – the idiolect and occasional units. Conclusions on the use of occasional words are presented through the analysis of linguistic evidence.

Key words: idiostyle, linguopoetics, idiolect, occasional units, neologism, poetic text, literary language norm.

Аннотация: в антропоцентрической лингвистике анализ поэтического текста является одним из актуальных вопросов. В лингвопоэтических исследованиях важное значение имеют идиостиль и окказиональные единицы, которые считаются одним из его центральных понятий. В данной статье рассматривается вопрос об идиостиле и его наиболее важной составляющей – идиолекте, окказиональных единицах. Выводы об использовании окказионалов представлены на основе анализа лингвистических доказательств.

Ключевые слова: идиостиль, лингвопоэтика, идиолект, окказиональные единицы, неологизм, поэтический текст, норма литературного языка.

Kirish (Introduction).

Jahon tilshunosligida “poetik til” masalasi atrofida turli bahs-munozaralar natijasi o'laroq XX asrning 30-yillaridayoq badiiy asar tiliga adabiy til uslublaridan biri sifatida qarash tilshunoslikning rivojidadagi to'siq sifatida baholangan edi. Poetik matnni o'rganish masalasi XX asrning ikkinchi yarmida uchta murakkab fan – tilshunoslik, poetika va estetikaning o'zaro ta'siri asosida yuzaga chiqqan lingvopoetika sohasining asosini tashkil etdi. R.A.Budagov bu haqida shunday xulosani aytadi: “Hozirgi davrda poetik til – badiiy tilning alohida turidir”¹.

Aslida, poetik til umumxalq tili bilan chambarchas bog'liq va doimiy aloqada. Chunki umumxalq tili poetik tilning rivojlanish manbayidir. S.T. Zolyan ta'biri bilan aytganda, poetik til umumlisoniy aloqani kuchaytiribgina qolmay, uni o'zgartiradi, matn yaratishning yangi turlarini kashf etadi. Shu bilan birga, me'yoriy til tuzilmalari me'yordan chetga chiquvchilarga qaraganda semantik tizimning o'zgarishini yanada aniqroq ko'rsatishi mumkin. Darhaqiqat, poetik tildagi o'ziga xosliklar, albatta umumxalq tiliga nisbatan, adabiy til me'yoriga nisbatan ang'lanadi va unga solishtirish asnosida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunday qilib, idiosstilni belgilash tilda me'yoriy va ijodiy nuqtayi nazar o'rtasidagi optimal muvozanatni qiyoslash orqali namoyon bo'ladi.

Bunda idiosstil alohida ahamiyatga molik bo'lib, idiolekt uni shakllantirishga xizmat qiladi. Idiolekt idiosstilga nisbatan birmuncha tor tushuncha ifoda etadi va adabiy tilda mavjud bo'lmagan, umumxalq tilida yoki yakka bir muallif tomonidan qo'llaniladigan til (leksik yoki frazeologik) birliklariga nisbatan ishlatiladi.² Idiolektni tanlashga bo'lgan munosabat – idiosinkraziya esa ijodkorning shakllanishidagi ijtimoiy, psixolingvistik, stilistik omillarni bevosita qamrab oladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Til vositalarini uslubiy tahlil etishda ularning nutq ichida ma'lum bir maqsad uchun funktsionallashuvi, so'z qo'llash me'yorlari, sintaktik qurilmalarning o'ziga xos tarzda shakllanishiga e'tibor bermay, bayon uslubiga diqqat qaratmay turib, muallif idiosstilini aniqlab bo'lmaydi. Muallif idiosstilini aniqlash tilshunoslikning barcha tadqiqot metodlaridan unumli foydalanib, unga turli aspektlarda yondashishni taqozo etadi, chunki muallif idiosstilida ona tilining lingvistik vositalari tizimi kompleksi to'la aks etadi. Shu bilan birga, muallif idiosstili tilning yangi birlik va vositalar bilan boyishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi.³ Idiosstil tadqiqida, eng avvalo, muallifning badiiy

² Абдулпаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Монография. – Фарғона, 2021. Б– 118.

³ Абдулпаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Монография. – Фарғона, 2021. Б– 118.

¹ Qarang: В.П.Григорьев. Будетлянин. Языки русской культуры. Москва, 2000 г. С – 709.

asar matnini yaratishda umumiy qonuniyat va tamoyillarga amal qilmaslik, grammatik qonuniyatlardan chetlashish, o'z falsafiy qarashlari bayonida "g'ayritabiiy" usul va vositalardan foydalanish darajasi diqqat markazida turadi. Lekin bu ijodkorlar doimo grammatik qonuniyatlarni chetlab o'tib asar yaratadilar, degani emas. Muallif doimo ma'lum bir tilning egasi sifatida shu tilga xos bo'lgan qonunlarga amal qiladi. Faqat bayon uslubi va so'z qo'llashda o'ziga xosliklar kuzatiladi.⁴ Idiolektni tashkil qiluvchi asosiy lisoniy birlik esa neologizm va okkazonalizm hisoblanadi. Neologizm va okkazonalizm tushunchalari bir-biriga juda o'xshash tuyulsa-da, aslida, alohida tushunchalarni ifodalaydi. O.To'xtasinova quyidagi belgilarni okkazonalizmlar bilan neologizmlarni farqlaydigan belgilar sifatida e'tirof etadi:

- 1) sinxron-diaxron qorishqlik;
- 2) muallifning borligi;
- 3) yangilik o'lchovi;
- 4) til lug'at tarkibiga kirishi yoki kirmasligi.

Bunday qarash nuqtayi nazaridan yondashilganda, okkazonalizmlarning eng muhim belgisi ularning zamonga munosabati, ya'ni prinsip jihatdan eskirmasligi, doimiy yangi so'zligicha qolishidir⁵, deb xulosa qiladi.

H.Abdurahmonov va N.Mahmudovlar okkazonal til birliklarini individual-stilistik neologizm atamasi bilan nomlaydilar va quyidagicha ta'riflaydilar: "Individual-stilistik neologizmlar yozuvchining tilda hali maxsus va aniq ifodasi bo'lmagan turli ma'no nozikliklari va o'ziga xos ekspressivlikni ifodalash, adabiy tilda yo'qolib ketgan semantik va stilistik xarakterdagi nozikliklarni qayta tiklash kabi maqsadlari bilan paydo bo'ladi"⁶. A.Hojiyev ham "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"da "individual-uslubiy neologizm" atamasini qo'llaydi: "Mahsulдор bo'lmish model asosida yasalgan va faqat shu nutqiy matnning o'zida qo'llangan so'z, individual-uslubiy neologizm"⁷.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Umuman olganda, okkazonalizm hodisasi idiostilni

4 O'sha monografiya. 118-bet.

5 Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дис. – Т., 2007.

6 Абдурахмонов Х, Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси – Т.: Фан, 1981. 31-б.

7 Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати, –Тошкент: 1985. 74-б.

belgilovchi, shakllantiruvchi eng asosiy vosita sifatida muhim rol o'ynaydi. Yuqorida aytilganidek, okkazonal birlikdan foydalanish, uni yaratish usuli har bir ijodkorda individualdir. Okkazonal birlikni yaratish usullari ham ijodkorlarda farqlidir. Xususan, Guljamol Asqarova ijodidan misol keltiramiz:

Yur, ketdik bu **zorxonadan**,
Oshiqqa **ozorxonadan**,
Haydashdi hushyorxonadan,
Joyim — mayxona-mayxona.

(Guljamol Asqarova, "Avrash")

Ushbu badiiy matnni Guljamol Asqarova ijodini kuzatuvchilar darhol "taniydi": hushyorxona, mayxona so'zlari qolipida ushbu leksemalarga ohangdosh **zorxona**, **ozorxona** leksik okkazonalizmlari qo'llangan. Adabiy tilda esa bu shakldagi leksema mavjud emas va semantik jihatdan yangilik bo'yog'iga ega mazkur lisoniy birlik muallif tuyg'ularini mukammal ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, matnda ajratilgan izoh bo'lakli gap (Yur, ketdik bu zorxonadan, Oshiqqa ozorxonadan) hamda takror (mayxona-mayxona) mavjud. Ushbu poetik matndagi badiiy yukka ega bo'lgan, shoir nutqini individuallashtirgan eng asosiy vosita leksik okkazonalizm hisoblanadi.

Shoira ijodidan yana namuna keltiramiz:

Qonlarda ne urdi jo'sh, har kun bir xabar noxush,
Oti qush-u, zoti qush, qushlari ham **odamko'sh**,
Jarang jarang qiladi — dutorning ichi bo'm-bo'sh,
Bir-biriga urib to'sh kalxatlar kelisholmas.

(Guljamol Asqarova, "Asr jarohatlari")

Ushbu matnda esa undoshlar takrori (sh), unilardagi takror (o') orqali "quyma qolipdek" ohangdoshlik hamda okkazonal birlik — **odamko'sh** birgalikda yaxlit holda badiiylik kuchini oshirgan bo'lib, ushbu okkazonal leksema ham semantik jihatdan yangiligi, ham shakliy jihatdan noodatiyligi bilan ekspressiyani oshirgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Ko'rinadiki, muallif idiostilini tahlil etishda okkazonal birliklar alohida o'rin tutadi. Okkazonal birliklar tilning qaysi sathiga tegishli bo'lmasin, badiiy matnda muhim rol o'ynaydi, uning ta'sir kuchini oshiradi, matn mazmunini semantik jihatdan yangi qirralar bilan boyitadi. Muallif idiostilini baholashda okkazonal birlik ma'lum darajada individuallik o'lchovi ham hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси. Монография. – Фарғона, 2021. Б– 200.
2. Абдурахмонов Х, Маҳмудов Н. Сўз эстетикаси – Т.: Фан, 1981.
3. В.П.Григорьев. Будетлянин. Языки русской культуры. – Москва, 2000 г.
4. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари:Филол. фанлари номзоди ... дис. – Т., 2007.
5. Худойбергенова Д. Матннинг антропоцентрик таҳлили. – Тошкент: "Фан", 2013.
6. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1985.

Munisa ISAQOVA,
*Qoʻqon DU, filologiya fanlari boʻyicha
falsafa doktori (PhD)*

XALQARO HUQUQIY TERMINLARNING QIYOSIY TADQIQI

Annotatsiya: jahon tilshunosligida tillarning qiyosiy-tipologiya nuqtayi nazaridan oʻrganilishi yuqori bosqichga koʻtarildi. Ushbu maqolada huquqshunoslik fanining muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan xalqaro yuridik terminologiyaning qiyosiy jihatdan tadqiqi masalasi bayon qilingan. Xalqaro yuridik terminlarning ingliz-tojik, rus-ingliz tizimlarida oʻziga xosliklari va farqlari tahlilga tortilgan.

Kalit soʻzlar: *xalqaro huquq, terminologiya, lingvistik tadqiqot, qiyosiy tipologiya, komprativistika.*

Annotation: in world linguistics, the study of languages from the point of view of comparative typology has reached a higher level. This article describes the comparative study of international legal terminology, which is considered one of the important branches of jurisprudence. The peculiarities and differences of international legal terms in English-Tajik, Russian-English systems are analyzed.

Key words: *international law, terminology, linguistic research, comparative typology, comprativistics*

Аннотация: изучение языков с сравнительно-типологической точки зрения достигло высокого уровня в мировой лингвистике. В данной статье рассматривается вопрос сравнительного изучения международной правовой терминологии, которая считается одной из важных отраслей юридической науки. Анализируются особенности и различия международных правовых терминов в англо-таджикской и русско-английской языковых системах.

Ключевые слова: *международное право, терминология, лингвистические исследования, сравнительная типология, компратизм*

Yuridik tilning turli muammolarini tadqiq etish uzoq tarixga ega. Ayniqsa, rus tilshunosligida bu sohaning soʻnggi oʻn yilligi yangi yoʻnalishning shakllanishi bilan ajralib turadi, uning markazida huquq tilini turli nuqtayi nazardan oʻrganish turadi. Xalqaro terminologiyaning til tizimidagi oʻrni va maʼnosi, “interleksik” tushunchasi, soʻz oʻzlashtirishning ekstralingvistik va lingvistik omillari bilan bogʻliq masalalar tilshunoslar tomonidan koʻrib chiqilgan. Til aloqalari doirasidagi lingvistik muammolarga koʻplab rus va xorijiy tadqiqotchilar eʼtibor qaratganlar. Rus tilshunosligida XVII–XIX asr oxirida rus tilidagi xalqaro terminlarning leksik va grammatik rivojlanishi professor Y.A.Belchikov tomonidan tadqiq etilgan. Dastlab, u tilshunoslikda turlicha talqin etiladigan “xalqaro terminologiya” tushunchasiga oʻz qarashlarini bayon etadi. V.V.Akulenko zamonaviy rus tilining xalqaro leksikasi va terminologiyasini tahlil qilish bilan shugʻullangan. Uning nazariyasiga koʻra, hozirgi tillar rivojlanishidagi baynalmilallashuv zamonaviy madaniyatning eng muhim tushunchalarini leksik-semantik ifodalash bilan bogʻliq tabiiy, umumeʼtirofdagi shakllaridir. Rus tilshunoslari L.L.Kutina, L.P.Krisin kabi tadqiqotchilar xalqaro leksika va terminologiyada, asosan, kelib chiqishi yunon-lotin tiliga oid baynalmilal terminlarni tadqiq qilgan.

Jahon tilshunosligida tillarni qiyosiy jihatdan oʻrganish hozirda keng qamrovli tadqiqotlarni oʻz ichiga olmoqda. Huquqiy fan nuqtayi nazaridan, milliy yuridik tillardagi xalqaro huquqiy terminlarni qiyosiy tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Mana shunday tadqiqotlardan biri ingliz va tojik tillari huquqiy terminologiyasini semantik-tarkibiy tahlilini amalga oshirish masalasidir. Aynan shu masala filologiya fanlari nomzodi L.M.Mamadjonovanning “Ingliz

va tojik yuridik terminlarining semantik-struktur tahlili” [1] nomli ilmiy tadqiqotida oʻrganilgan. Tadqiqotda rus, ingliz va tojik tillarining huquqiy termin tizimlari materiali boʻyicha terminologiyada nutqning nominal qismlari, feʼl va feʼl birikmalarning qoʻllanish xususiyatlari koʻrib chiqiladi. Tadqiqotchi aniq maʼlumotlarga asoslanib, tojik tilining huquqiy terminologiyasi shakllanishi va boyitishida asosiy manba tojik tilining ichki resurslari ekanligini aniqlaydi. Shuningdek, genetik va etimologik tahlil asosida tojik tilining yuridik leksikasida kelib chiqishi arab tiliga borib taqaladigan soʻzlar ham mavjud ekanligini koʻrsatib oʻtadi. L.M.Mamadjonovanning xulosalari tojik tili huquqiy terminologiyasida morfologik tuzilishi jihatidan feʼl soʻz turkumiga oid soʻzlar nisbatan koʻpligini koʻrsatadi.

Tojik va ingliz tillarida nafaqat yuridik terminologiya, balki xalqaro huquqiy terminologiya muammolari ham mufassal oʻrganilgan. Bu mavzu yuzasidan N.Saidmurodova tomonidan olib borilgan tadqiqot dolzarb ahamiyatga ega. Tadqiqotchi, qiyoslanayotgan ikki til xalqaro yuridik terminologik tizimda termin hosil qilish usullari, shakllanish manbalari va tizimning semantik xususiyatlarini monografik tarzda oʻrganadi. Tadqiqot obykti sifatida tahlil qilinayotgan tillarning xalqaro huquqiy terminologik tizimida faol qoʻllanuvchi terminlar, xalqaro huquqiy hujjatlar va xalqaro huquq terminlarining asosiy faoliyat sohasi boʻlgan maxsus matndan iborat oʻquv adabiyotlaridan foydalanadi. Umuman olganda, keng qamrovli tahlil davomida leksikografik manbalardan 1320 ta xalqaro huquq terminlarini tahlilga tortadi. Tahlil natijasida, tojik va ingliz tillarining xalqaro huquqiy terminlari semantik jihatdan, asosan, bir va ikki tarkibli leksik birliklar (umumiy hajmning mos ravishda 37,5%

va 47,4%) bilan ifodalanadi. Tahlil qilinayotgan tillarda qo'shma terminlardan tashqari ko'p komponentli (uch a'zoli 9,8%, to'rt a'zoli 2,5%, besh va olti komponentli 1,9%) birikmalar ham uchraydi.[2] Shuningdek, tojik tilida xalqaro huquq terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi jarayonlarining diaxron va sinxron tadqiqini amalga oshiradi.

Jahon tilshunosligida ingliz va rus huquqiy terminlar tizimini qiyosiy o'rganish mukammal darajada amalga oshirilgan deyish mumkin. V.D.Isazoda mazkur tillar terminologiyasini tadqiq etish asnosida qiyoslanayotgan ikki til tizimi o'rtasida chuqur farqlarning mavjudligi va bu jihat terminologiya doirasida ham o'zini namoyon qilishini aytib o'tadi. So'zlar moslashuvida ko'pincha leksik birlik haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lmalik natijasida ikki tildagi o'xshash terminlar turli xil tushunchalar yoki ma'no jihatdan tushunchalarning turli qirralari yuzaga keladi. Masalan, "prokuror" termini tarjima qilinganda ma'no jihatdan o'zgarishlari mumkin, ammo Amerika va Rossiya qonunlari tizimidagi funksiyalari bir-biriga mos kelmasligi sababidan, amerikalik *prokuror* so'zini eshitib, boshqa tushunchani tasavvur qilishi mumkin. Rus tilshunosligida xalqaro huquq terminologiyasining o'zlashtirilgan qatlamga oid terminlarining ba'zi jihatlari M.F.Sergeyevaning "Xalqaro huquq tarixidan" [3] asarida ham qayd etilgan.

O'zbek tilshunosligida ham turli tillarning terminologik tizimlarini o'rganishga doir tadqiqotlar bilan bir qatorda, o'zbek tili yuridik terminologiyasini boshqa tillar bilan qiyosiy-tipologik aspektida tadqiq etish yuzasidan ham qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Hozirgi kungacha o'zbek tilshunosligida yuridik terminlarni qiyosiy jihatdan o'rganishga bag'ishlangan, P.P.Nishonovning "Fransuz va o'zbek tillari yuridik terminlarning qiyosiy-tipologik tadqiqi" [4], M.R.Baxriddinovaning "Nemis-o'zbek yuridik terminlarining leksikografik tadqiqi"[5], U.S.Po'latovanning "Ingliz va o'zbek tillarida yuridik terminlarning chog'ishtirma tadqiqi" [6] mavzusida bajarilgan ilmiy ishlari mavjud.

P.P.Nishonov o'z tadqiqotida fransuz va o'zbek tillarida qo'llanuvchi yuridik terminlarning lisoniy xususiyatlarini qiyosiy-tipologik jihatdan o'rgangan. Qiyoslanayotgan

ikki tilda mavjud yuridik terminlarning leksik, semantik va struktur jihatlariga batafsil to'xtalib o'tgan. Tadqiqotda keltirilishicha fransuz va o'zbek tillarida yuridik terminlar, asosan, ot so'z turkumidagi so'zlar hisobiga shakllanadi. Fe'l, sifat, ravish so'z turkumlari mustaqil ravishda termin yasamaydi, balki birikma terminlarning elementlari sifatida maydonga chiqadi. Shuningdek, struktur jihatdan mazkur terminosistemalarda sinonimik, giponimik, antonimik munosabatlar keng uchraydi. Tadqiqot xulosalariga ko'ra, yuridik terminologiyani o'rganish kishilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muhim vazifa bajaradi. Shuni inobatga olib, kelgusida o'zbek yuridik terminologiyasining mukammal izohli lug'atini yaratish, ikki tili va ko'p tili yuridik lug'atlar yaratish muhim vazifa hisoblanadi[7].

So'nggi yillarda o'zbek tili va boshqa bir qator tillar doirasida yuridik terminologiyani tadqiq qilish, tillararo munosabatlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu zarurat natijasida R.M.Baxriddinova tomonidan "Nemis-o'zbek tillari yuridik terminlarining leksikografik tadqiqi" mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot dolzarb ahamiyatga ega. Tadqiqotda o'zbek va nemis yuridik terminologiyasining hozirgi bosqichdagi holati, semantikasi, yasali usullari, shakl va ma'no xususiyatlariga ko'ra yuridik lug'at tuzish yo'llari aniqlangan. Ayniqsa, yuridik terminlarni yaxlit bir sistema sifatida baholab, o'zbek va nemis yuridik terminlarini andozalash (standartlashtirish), ularning bir xilligi (unifikatsiyasi)ga erishish hamda yuridik leksika tizimini boyitish orqali har ikki til yuridik terminologiyasida tezaurus tuzish masalasi ilgari surilgan.

U.S.Po'latova "Ingliz va o'zbek tillarida yuridik terminlarning chog'ishtirma tadqiqi" deb nomlangan tadqiqotida, har ikki til yuridik terminologiyasini chog'ishtirish orqali soha terminologiyasining hozirgi holati, fondi-genofondi, ushbu soha terminologiyasining boyish yo'llari aniqlangan. Yuridik terminlarni adekvat tarjima qilish usullari va tamoyillari ishlab chiqilgan.

Bu tadqiqotlarda milliy yuridik tilimizda qo'llaniluvchi huquqiy terminlar umumiy tarzda o'rganilgan bo'lib, huquqning alohida bo'limlari bo'yicha tarmoqlarga ajratilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мамаджонова М.Л. Семантико-структурный анализ юридических терминов в английском и таджикском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2006. – С.39.
2. Саидмуродова. Н.Н. Структурно-семантический анализ терминов международного права в английском и таджикском языках: Дисс. ... канд. филол. наук. – Душанбе, 2014. – С.45
3. Сергеева М. Ф. Из истории международного право // Тезисы докладов межвузовской научной конференции. – Волгоград: Перемена, 1985. – С.17-18.
4. Нишонов П.П. Француз ва ўзбек юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б.146.
5. Baxriddinova M.R. Nemis va o'zbek tillari yuridik terminlarining leksikografik tadqiqi: Filol. fan. b. fals. d-ri (Phd) ... diss. – Andijon, 2023. 136-bet.
6. Po'latova U.S. Ingliz va o'zbek tillarida yuridik terminlarning chog'ishtirma tadqiqi: Filol. fan. b. fals. d-ri (Phd) ... diss. – Andijon, 2023. 140-bet.
7. Нишонов П.П. Француз ва ўзбек юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – Б.12

Guzal TURAYEVA,
Qarshi davlat universiteti
Lingvistika kafedrası dotsenti

TA'LIM TERMINOLOGIYASIDA INGLIZCHA NEOLOGIZMLARNING O'ZBEK TILIGA ADAPTATSIYASI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim terminologiyasida inglizcha neologizmlarning o'zbek tiliga adaptatsiya jarayoni lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida globalizatsiya va raqamlashtirish jarayonlari natijasida yuzaga kelgan yangi terminlarning kirib kelish sabablari, ularning fonetik, morfologik va semantik moslashuv xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, inglizcha neologizmlarning o'zbek tilidagi normativlashuv jarayoni va terminologik tizimga integratsiyasi masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim sohasida terminologik me'yorlashtirishni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *neologizm, ta'lim terminologiyasi, adaptatsiya, o'zlashma so'zlar, fonetik moslashuv, morfologik moslashuv, semantik o'zgarish, globalizatsiya.*

Annotation: this article analyzes the adaptation process of English neologisms in Uzbek educational terminology from a linguistic perspective. The study examines the reasons for the emergence of new terms in modern education under the influence of globalization and digitalization, as well as their phonetic, morphological, and semantic adaptation features. Furthermore, the integration and normalization of English educational neologisms in the Uzbek language are discussed. The findings contribute to the development and standardization of educational terminology in Uzbek linguistics.

Key words: *neologism, educational terminology, adaptation, loanwords, phonetic adaptation, morphological adaptation, semantic change, globalization.*

Аннотация: в данной статье анализируется процесс адаптации английских неологизмов в узбекской образовательной терминологии с лингвистической точки зрения. Рассматриваются причины появления новых терминов в системе современного образования под влиянием глобализации и цифровизации, а также их фонетические, морфологические и семантические особенности адаптации. Особое внимание уделяется вопросам интеграции и нормализации английских образовательных неологизмов в узбекском языке. Результаты исследования имеют значение для совершенствования терминологической системы в сфере образования.

Ключевые слова: *неологизм, образовательная терминология, адаптация, заимствованные слова, фонетическая адаптация, морфологическая адаптация, семантические изменения, глобализация.*

1. Introduction (Kirish)

XXI asr globallashtirish, raqamlashtirish va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, ta'lim tizimida yuz berayotgan transformatsion jarayonlar yangi tushunchalar va terminlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Ingliz tili xalqaro ilm-fan va ta'lim tili sifatida ko'plab yangi terminlarning manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Natijada o'zbek tilining ta'lim terminologiyasi inglizcha neologizmlar bilan faol boyimoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – inglizcha ta'lim neologizmlarining o'zbek tiliga adaptatsiya jarayonini lingvistik jihatdan tahlil qilishdir.

Tadqiqot vazifalari:

- ta'lim sohasiga oid inglizcha neologizmlarni aniqlash;
- ularning o'zbek tiliga kirib kelish usullarini tavsiflash;
- fonetik, morfologik va semantik moslashuv xususiyatlarini tahlil qilish.

2. Methods (Tadqiqot metodologiyasi)

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. **Deskriptiv metod** – inglizcha ta'lim neologizmlarini tavsiflash va tasniflash uchun.
2. **Qiyosiy-tahliliy metod** – ingliz va o'zbek tilidagi terminlarning strukturaviy va semantik farqlarini aniqlash uchun.

3. Korpusiy kuzatish metodi – zamonaviy ta’limga oid ilmiy maqolalar, rasmiy hujjatlar va OTM saytlaridagi terminlarni o’rganish asosida misollar yig’ish uchun.

4. Leksik-semantik tahlil – terminlarning ma’no o’zgarishini aniqlash uchun.

Tadqiqot materiali sifatida so’nggi yillarda qo’llanilayotgan 40 dan ortiq ta’lim terminlari tanlab olindi.

3. Results (Natijalar)

Tahlil natijalariga ko’ra inglizcha neologizmlarning o’zbek tiliga adaptatsiyasi quyidagi asosiy yo’nalishlarda amalga oshishi aniqlandi:

Fonetik adaptatsiya

So’zlar o’zbek fonetik tizimiga moslashtiriladi:

- online → onlayn
- hybrid → gibrid
- webinar → vebinar

Natijada inglizcha talaffuz o’zbek grafikasiga mos shaklga keladi.

Morfologik adaptatsiya

O’zlashgan terminlar o’zbek grammatik tizimiga to’liq integratsiyalashadi:

- vebinarlar
- grantlar
- onlayn darslar
- testlash jarayoni

Bu terminlar ko’plik, egalik va kelishik qo’shimchalarini qabul qilmoqda.

Semantik adaptatsiya

Ba’zi terminlar ma’no torayishi yoki kengayishiga uchramoqda:

- “assessment” ko’pincha “baholash” ma’nosida ishlatiladi;
- “soft skills” turlicha tarjima qilinmoqda: “yumshoq ko’nikmalar”, “shaxsiy kompetensiyalar”.

Adaptatsiya usullarining foiz ko’rsatkichi

Tahlil qilingan terminlarning taxminiy taqsimoti:

- 35% – transliteratsiya
- 30% – kalkalash
- 20% – gibrid shakllar
- 15% – to’g’ridan to’g’ri qo’llanish

Bu ingliz tilining kuchli leksik ta’sirini ko’rsatadi.

4. Discussion (Muhokama)

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, inglizcha neologizmlar o’zbek ta’lim diskursida faol integratsiyalashmoqda. Bu jarayon bir tomondan xalqaro ilmiy hamkorlikni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan milliy terminologiya rivojiga ta’sir ko’rsatmoqda.

Kalkalash usulining nisbatan yuqori ulushi o’zbek tilining ichki resurslari yetarli ekanligini ko’rsatadi. Biroq transliteratsiya orqali kirib kelayotgan terminlarning ko’pligi terminologik tartibga solish zaruratini yuzaga keltiradi. Shuningdek, ayrim terminlarning turlicha tarjima qilinishi (masalan, “soft skills”) normativ birlik yetishmasligini ko’rsatadi. Bu esa terminologik komissiyalar faoliyatini kuchaytirishni talab qiladi.

5. Conclusion (Xulosa)

Tadqiqot shuni ko’rsatdiki, inglizcha ta’lim neologizmlari o’zbek tiliga fonetik, morfologik va semantik jihatdan moslashmoqda. Adaptatsiya jarayoni asosan, transliteratsiya va kalkalash orqali amalga oshmoqda.

Zamonaviy ta’lim tizimining globallasuvi natijasida inglizcha terminlarning kirib kelishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Biroq milliy terminologiyani muvozanatli rivojlantirish va me’yorlashtirish muhim vazifa bo’lib qolmoqda.

Kelajakdagi tadqiqotlarda ta’lim terminlarining normativ lug’atini yaratish va ularning qo’llanish chastotasini korpus asosida o’rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Valeriy Danilenko. **Terminologiya nazariyasi asoslari**. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2010.
2. Abduaziz Abduazizov. **Tilshunoslik nazariyasiga kirish**. – Toshkent: O’qituvchi, 2012.
3. David Crystal. **English as a Global Language**. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003.
4. Peter Newmark. **A Textbook of Translation**. – London: Prentice Hall, 1988.
5. Michael Halliday. **Language as Social Semiotic**. – London: Edward Arnold, 1978.
6. Gafurjon Abdurahmonov. **Hozirgi o’zbek adabiy tili**. – Toshkent: O’qituvchi, 2008.

Tolkin MARDIYEV,
Associate Professor
Samarkand institute of economics and service
Olmos UMIRKULOV,
Student Faculty of economics
Samarkand institute of economics and service,

THE ROLE OF FOREIGN LANGUAGES IN THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR

Annotation: in the modern era of globalization, the service sector has emerged as a primary driver of economic growth, necessitating a shift in the competencies required for its workforce. This article explores the critical role of foreign language proficiency in enhancing the quality and efficiency of service delivery. By examining industries such as tourism, international hospitality, and global consulting, the study highlights how linguistic skills bridge cultural gaps and foster trust between service providers and international clients.

Key words: *service sector, foreign languages, global communication, customer satisfaction, multilingualism, international business.*

Аннотация: в современную эпоху глобализации сектор услуг стал одним из основных двигателей экономического роста, что обуславливает необходимость изменения компетенций, требуемых от его рабочей силы. В данной статье исследуется важнейшая роль владения иностранным языком в повышении качества и эффективности предоставления услуг. На примере таких отраслей, как туризм, международное гостиничное дело и глобальный консалтинг, исследование показывает, как языковые навыки преодолевают культурные барьеры и способствуют укреплению доверия между поставщиками услуг и международными клиентами.

Ключевые слова: *сектор услуг, иностранные языки, глобальная коммуникация, удовлетворенность клиентов, многоязычие, международный бизнес.*

Annotatsiya: zamonaviy globallashuv davrida xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida maydonga chiqdi va bu uning ishchi kuchi uchun zarur bo'lgan vakolatlarni o'zgartirishni talab qildi. Ushbu maqola xizmat ko'rsatish sifati va samaradorligini oshirishda chet tilini bilishning muhim rolini o'rganadi. Turizm, xalqaro mehmondo'stlik va global konsalting kabi sohalarni o'rganib, tadqiqot tilshunoslik ko'nikmalari madaniy bo'shliqlarni qanday ko'paytirishi va xizmat ko'rsatuvchi provayderlar va xalqaro mijozlar o'rtasida ishonchni kuchaytirishi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: *xizmat ko'rsatish sohasi, xorijiy tillar, global aloqa, mijozlar ehtiyojini qondirish, ko'p tillilik, xalqaro biznes.*

Introduction

We're living in a world where borders matter less and less every day. People, goods, and ideas flow across countries constantly, and in this environment, being able to communicate across languages has become incredibly valuable - especially in the service sector. Businesses today just can't afford to think in one language or one culture anymore. They're dealing with international clients, working with partners from other countries, and competing in markets that span the globe. Against this backdrop, knowing foreign languages isn't some fancy skill reserved

for diplomats or university professors anymore. For people working in service industries, it's becoming a daily necessity.

Think about what the service sector actually includes - tourism, hotels, banking, healthcare, education, retail. At its core, all of these fields are about human connection. Unlike manufacturing, where machines can sometimes fill the gaps, services live or die based on how well people communicate with each other. It's not just about getting information across - it's about doing it with empathy and cultural awareness. When a hotel receptionist

greet a Japanese guest in their own language, or when a banker explains investment options to a French-speaking client in French, something deeper happens. They're not just doing their job. They're building trust, showing genuine respect, and creating an experience that sticks with people long after they walk out the door.

What makes this especially timely right now is how fast the global service economy is growing. According to World Bank numbers, services already make up more than 65 percent of the world's GDP, and that figure keeps climbing. As more countries plug into international trade networks, the hunger for multilingual workers in service industries has exploded. And the companies paying attention? They're the ones seeing results. Businesses that invest in language training consistently report happier customers, wider reach into new markets, and a real edge over competitors who haven't caught on yet.

Literature review

One of the foundational contributions to this field comes from the work of François Grin, a Swiss economist who pioneered the concept of "language economics." Grin argued that language skills carry measurable economic value, both at the individual and institutional level. His research demonstrated that employees with proficiency in one or more foreign languages tend to earn higher wages and hold more senior positions, particularly in service-oriented industries where client interaction is central to the job. This economic framing of language laid the groundwork for subsequent studies that explored its implications for business strategy and human resource management.

Research methodology

This study employs a mixed-method research design that combines quantitative surveys and qualitative interviews to examine the role of foreign languages in the development of the service sector. All collected data was analyzed using descriptive statistics and thematic coding techniques, allowing for a thorough interpretation of both numerical trends and personal professional insights.

Analyzing of theme

The first is François Grin's economic perspective on language. His research basically changed how scholars view language in the workplace. What struck me most about Grin's work is how he moved the

conversation beyond just culture or education - areas where the economic impact feels kind of fuzzy - and showed that language has real, measurable financial consequences. This isn't just abstract theory either. Knowing a second language actually shows up in people's salaries and career progression, especially in service industries. Grin's approach reminds us that when companies invest in language training or hire multilingual staff, these aren't just nice-to-have policies. They're investments with tangible returns, both for workers and organizations.¹

That feels pretty valuable.²

First, my sample size was relatively small. The people who responded to my surveys and agreed to interviews gave me useful insights, but they can't possibly represent the entire service sector workforce. This industry is just too varied across different regions and job types. A larger, more diverse sample would have made my findings stronger and more applicable to different situations.

Second, there's the geographical limitation. I focused pretty heavily on one specific region, which means my conclusions might not hold up in other countries or cultural contexts. Language works differently depending on local business culture, education systems, and economic realities. As much as I tried to be aware of this, I couldn't fully capture all those nuances within the scope of this study.³

The third limitation only became clear to me as I got deeper into the research. Most of my data came from self-reports - surveys and interviews where people described their own language abilities and workplace experiences. The problem is, people aren't always objective about themselves. That would give a much clearer, more accurate picture.⁴

1 Grin, F. (2006). Economic considerations in language policy. In T. Ricento (Ed.), *An Introduction to Language Policy: Theory and Method* (pp. 77–94). Blackwell Publishing.

2 Mirzayev, F. A. (2015). Xorijiy til ta'limining iqtisodiy samaradorligi. *O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali*, 4(2), 45–52.

3 Piekkari, R., & Zander, L. (2005). Language and communication in international management. *International Studies of Management and Organization*, 35(1), 3–9.

4 Raximova, D. S. (2021). Xizmat sektorida ko'p tillilik va uning iqtisodiy ta'siri. *Iqtisodiyot va ta'lim*, 6(3), 112–118.

Service industry	Primary language need	Impact on customer satisfaction	Impact on business performance
<i>Tourism and hospitality</i>	English, Chinese, Arabic	Very high	Revenue growth, repeat visits
<i>Banking and finance</i>	English, French, German	High	Client retention, market expansion
<i>Healthcare</i>	English, Russian, local languages	Very high	Patient outcomes, trust building

The table indicates the importance of foreign language proficiency played a huge role in all levels of service sectors but differently depending on the type of industry. Tourism, healthcare and IT services come out on top — this is to be expected given that in both cases you're dealing with either a high degree of interpersonal contact or working within a globally homogenized language market where English wins every time. The issues of communications/translation that arise in these contexts are serious.⁵

Conclusion

What became clear throughout this research is that service industry professionals who invest in foreign language development do not simply

become better communicators - they become more confident, more competitive, and more capable of building genuine connections with the people they serve. At the same time, organizations that take language seriously at the institutional level, whether through targeted hiring, staff training, or inclusive workplace policies, tend to perform better and retain their clients more effectively.

Of course, this study has its limitations, and the conclusions drawn here should be understood as a contribution to an ongoing conversation rather than a final word on the matter. Much remains to be explored, particularly in regional contexts like Central Asia, where the intersection of language, culture, and economic development presents unique opportunities for future research.

⁵ Toshmatov, N. A. (2020). Turizm va mehmonxona biznesida tillararo muloqot. TDIU nashriyoti, Toshkent.

References:

1. Mirzayev, F. A. (2015). Xorijiy til ta'limining iqtisodiy samaradorligi. O'zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 4 (2), 45–52.
2. Toshmatov, N. A. (2020). Turizm va mehmonxona biznesida tillararo muloqot. TDIU nashriyoti, – Toshkent.
3. Piekkari, R., & Zander, L. (2005). Language and communication in international management. International Studies of Management and Organization, 35(1), 3–9.
4. Grin, F. (2006). Economic considerations in language policy. In T. Ricento (Ed.), An Introduction to Language Policy: Theory and Method (pp. 77–94). Blackwell Publishing.

Mamura SAIDOVA,
 Associate Professor (PhD)
 USWLU English language faculty -3
 Teaching English Methodology Department

THE ROLE OF CONTEXT IN ESTABLISHING THE COMMUNICATIVE FUNCTIONS OF INTERROGATIVE SENTENCES

Annotation: the article examines the role of context in establishing the communicative functions of interrogative sentences in modern language. The focus is on the idea that interrogative sentences are not limited to the function of requesting information, but realize a wide range of pragmatic and communicative meanings that are actualized in a specific communicative context.

Key words: *context, communicative functions, interrogative sentences, communicative context.*

Аннотация: в статье рассматривается роль контекста в установлении коммуникативных функций вопросительного предложения в современном языке. В центре внимания находится положение о том, что вопросительное предложение не ограничивается функцией запроса информации, а реализует широкий спектр прагматических и коммуникативных значений, актуализируемых в конкретном контексте общения.

Ключевые слова: *контекст, коммуникативные функции, вопросительные предложения, коммуникативный контекст.*

Annotatsiya: maqolada zamonaviy tilda so'roq gaplarining kommunikativ funksiyalarini belgilashda kontekstning roli o'rganiladi. Diqqat markazida so'roq gaplarining faqat ma'lumot so'rash funksiyasi bilan cheklanmay, balki ma'lum bir kommunikativ kontekstda amalga oshadigan keng ko'lamli pragmatik va kommunikativ ma'nolarni ifodalashi g'oyasi turadi.

Kalit so'zlar: *kontekst, kommunikativ funksiyalar, so'roq gaplari, kommunikativ kontekst.*

Interrogative sentences are traditionally considered in grammar as a means of requesting information. However, in modern linguistics, especially within the framework of pragmatic and communicative approaches, questions are interpreted much more broadly: their functional load is determined not only by their grammatical form, but also by the context in which they are used. The same interrogative sentence can perform various communicative functions — from requesting information to expressing reproach, irony, encouragement or evaluation.

Thus, context is a key factor in interpreting and realising the communicative potential of an interrogative utterance.

In structural grammar, interrogative sentences are defined by formal characteristics: inversion, the presence of interrogative words, and specific intonation. In English, questions are marked by auxiliary verbs and inversion

"Do you know?", while in Russian they are marked by intonation and interrogative particles "Разве ты не знаешь?".

However, in pragmatics and speech act theory (see John Searle's concept of speech acts), interrogative sentences are considered a type of directive speech act aimed at obtaining information or prompting the addressee to take action.

From the point of view of communicative linguistics (for example, Roman Jakobson's ideas about the functions of language), a question can perform various functions:

- referential (request for information),
- appealing (impact on the addressee),
- expressive (expression of emotions),
- phatic (maintaining contact).

Context is the mechanism that activates a particular function.

Context in linguistics is understood as the set of conditions in which a speech act takes place. There are several levels of context:

1. Linguistic context — the immediate linguistic environment (preceding and following utterances).
2. Situational context — a specific communicative situation.
3. Socio-cultural context — norms of communication, status of participants, cultural traditions.
4. Pragmatic context — the speaker's intentions and the addressee's expectations.

It is the interaction of these factors that allows us to determine the true communicative function of a question.

Informational question

In a neutral situation, an interrogative sentence fulfils its basic function - obtaining information:

Where are you going?

Куда ты идёшь?

Here, the context does not complicate interpretation: the question is aimed at filling an information gap.


A rhetorical question does not require an answer. Its communicative function is to express an assessment or emotional state:

Who cares?

Кому это нужно?

Depending on the context, this statement can express:

- Indifference,
- Irritation,
- Sarcasm.



Grammatically — a question, pragmatically — a request. In a formal context, this form is perceived as a polite encouragement. In an informal situation, the same structure can have a different connotation — from a gentle request to a



How could you do that?
Как ты мог так поступить?

Formally, this is a specific question, but in a certain context, it serves as an accusation or moral judgement.

The intonation, preceding events, and emotional background determine the interpretation of the statement.

Context allows us to identify implicit meanings that are not directly expressed. For example:

Is that your best idea?

Depending on the situation, this may mean:

- Genuine interest,
- Doubt,
- Ironic criticism.

The implicit meaning is formed based on the background knowledge of the participants in the communication and their previous interactions.

The role of context also differs in English and Russian communicative traditions. Indirect questions are widely used in English culture as a form of politeness. In Russian discourse, direct questions may be perceived as neutral, but in certain situations — as harsh or categorical.

For example:

Why didn't you call?

In an English-speaking environment, such a question may sound mild, whereas in a Russian context, the equivalent 'Why didn't you call?' is often interpreted as a reproach.

Consequently, the socio-cultural context significantly influences the communicative function of the question.

Intonation is a crucial element of situational context. The same grammatical structure can perform different functions depending on intonation:

- rising intonation — requesting information;
- falling intonation — doubt or reproach;
- emphasized expression — emotional reaction.

In spoken language, intonation often serves as an indicator of the pragmatic function of an interrogative sentence.

Thus, context plays a decisive role in determining the communicative functions of interrogative sentences. The grammatical form of the question only sets the potential direction of the utterance, while the specific communicative function is formed as a result of the interaction of linguistic, situational, social and pragmatic contexts.

Context can transform an interrogative sentence from a means of requesting information into a tool for expressing evaluation, emotion, motivation, or social influence.

Consequently, the analysis of an interrogative sentence outside of context is incomplete, since it is context that provides an adequate interpretation of its communicative purpose.

The list of used literature:

1. John Searle (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. – Cambridge: Cambridge University Press.
2. Roman Jakobson (1960). Closing statement: Linguistics and poetics. In T. A. Sebeok (Ed.), *Style in Language* (pp. 350–377). – Cambridge, MA: MIT Press.
3. H. P. Grice (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics* (Vol. 3, pp. 41–58). – New York: Academic Press.
4. Charles Morris (1938). *Foundations of the Theory of Signs*. – Chicago: University of Chicago Press.
5. Geoffrey Leech (1983). *Principles of Pragmatics*. – London: Longman.
6. Mukhamedova, N. A. "The role of modality contamination and negation in the interrogative sentence". *Novainfo. Ru*, (130), 59–61



ADABIYOTSHUNOSLIK

O'ktam MURODOV,
Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universiteti
katta o'qituvchisi

AMIR TEMUR, ABDULQODIR MAROG'İY VA TEMURIYLAR DAVRI MUSIQA MAJLISLARI

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqola Amir Temur va temuriylar saroyida qirq yil mobaynida xizmat qilgan betakror san'atkor Abdulqodir Marog'iy hayoti va ijodi hamda uning musiqiy majlislariga bag'ishlanadi.

Sohibqiron Temur qadrlagan musiqashunos Abdulqodir Marog'iy temuriylar davrida o'z musiqa maktabiga asos solib, musiqa san'ati rivojiga katta xizmat qilgan.

Kalit so'zlar: *temuriylar, nadim, musiqa majlislari, xonanda, saroy qo'shiqchisi.*

Аннотация: данная научная статья посвящена жизни и творчеству Абдулкадира Мараги, выдающегося артиста, сорока лет служившего при дворе Амира Тимура и династии Тимуридов, а также его музыкальным собраниям.

Абдулкадир Мараги, музыковед, пользовавшийся уважением Сахибкирана Темура, основал собственную музыкальную школу в эпоху Тимуридов и внес огромный вклад в развитие классической музыки.

Ключевые слова: *Тимуриды, надим, музыкальные собрания, певец, придворный певец.*

Annotation: this scientific article is devoted to the life and work of Abdulkadir Marogi, a unique artist who served for forty years at the court of Amir Temur and the Temurid dynasty, as well as his musical gatherings.

Abdulkadir Marogi, a musicologist respected by Sahibkiran Temur, founded his own music school during the Temurid era and made a great contribution to the development of classical music.

Key words: *Temurids, Nadim, musical gatherings, singer, court singer.*

Tarixdan ma'lumki, Sohobqiron Temur bobomiz qator she'rlarni, ruboiylarni yoddan bilgan. Yanada aniqroq qilib aytganda, Amir Temurdan qochib, Iroqda yashirib yurgan va o'limga hukm qilingan musiqashunos bastakor Xoja Abdulqodir Marog'iy Sohobqiron askarlari tomonidan qo'lga olinadi va o'zini devonalikka solishiga qaramasdan u buyuk sarkarda huzuriga olib kelinadi: Shundan so'ng Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da yozadi: "Xoja(Abdulqodir)ning kamolotidin biri Qur'on hifzi va qiroat ilmi erdi, filhol biyik un bila qur'on o'qumoq bunyod qildikim, ul hazrat (Amir Temur)ning g'azabi lutfqa mubaddal bo'lib, fazl va kamol ahli sori boqib, bu misrani (Ruboiyning to'rtinchi misrasi) ba vaqt o'qudikim:

Abdol zi bim chang bar mus'haf zad.

Ya'ni, "Abdollar qo'rqinchdan Qur'onga chang soldilar" misrasini o'qib, Amir Temur Yaratgan kalomidan najot izlagan Xoja Abdulqodirni avf etadi va oliy majlis (adabiy yig'ilish)ga nadim etib tayinlaydi: "Andin so'ngra Xojaga iltifot va tarbiyatlar qilib, o'z oliy majlisida nadim va mulozim qildi. Idrok va fahm ahli bilurkim, yillar, balki qarn(asr)larda mundaq latif so'z voqe' bo'lmas". Shundan so'ng Abdulqodir Marog'iy qirq yil mobaynida Amir Temur va temuriylarning musiqiy xonandalik majlislarida xizmat qiladi. Temuriylar davrida "aksar vaqt (majlisda) ud

chaluvchining o'zi qo'shiq aytgan, zotan, Sharq xalqlarining ma'naviy hayotida she'riyat ulkan rol o'ynaganiga bog'liq holda qo'shiqni bu davrning umuman musiqa madaniyatidan ajratib bo'lmagan. Qolaversa, bunda she'rning ohangdorligi musiqa jo'rligining ohangdorligini belgilab bergan".[1, 229]

Navoiy "Mahbub ul-qulub"da temuriylar saroyining mashhur xonandasi, yoqimli ovoz sohibi Yusuf Andijoniy [2, 57] nomini tilga olgan. "Tazkirat ush-shuaro"da Ibrohim Sulton akasi Boysunqur Mirzodan uning majlisiga mashhur xonanda va sozanda Yusuf Andujoniyni yuborishini so'raganligi haqida shunday yozilgan: "Sulton Boysunqur zamonida xoja Yusuf Andujoniy yetti iqlimda tengi yo'q xonanda va sozanda edi. Uning "Dovudiy"si Yusuf dilini tirnar. "Xusravoniy" ohangi jigarni poralab, tuz separd. Sulton Ibrohim ibn Shohruh Sherozdan bir necha bor odam yuborib, Boysunqur sultondan xoja Yusufni so'rattirdi. (Lekin) Boysunqur rad qilavergan.[3, 140-141]

XV asrning birinchi yarmida va o'rtasida yashab o'tgan eng mashhur musiqachilardan ayrimlarining nomi manbalarda saqlanib qolgan. Jumladan, Darvesh Ahmad Qonuniy qonun chalishda benazir bo'lgan, Sulton Ahmad nayda nom chiqargan. Samarqandda xivalik musiqachi Devonai Hisobiy mashhur edi. Sulton Muhammad bastakor

va ud ijrosida beqiyos bo'lgan, qonun asbobini chalishda samarqandlik Xojagin Ja'fariy dong taratgan. Samarqandga ko'chib kelgan Maxsumzodai Xorazmiy savt va naqsh kabi ohanglarni yaratishda, bastakor Hofizi Changiy esa peshrav ijod qilishda mohir edilar [1, 229]. Ibn Arabshoh "Amir Temur tarixi" kitobida Samarqandda Temur saroyida xizmat qilgan qo'shiqchilardan Abdulqodir al-Marog'iy va uning o'g'li Safiuddin, kuyovi Nasriy, Qutb al-Mousiliy, Ardasher al-Changiy [4, 33] nomlarini keltirgan.

Albatta temuriylar davri hofizi shoir ham bo'lgan. Hofizlar adabiy majlislarda qo'shiq aytishdan tashqari, mashhur shoirlar (Husayniy, Jomiy, Navoiy va boshqalar) ning g'azallarini ham o'qishgan. Bunday majlislar mumtoz adabiyot va milliy musiqa san'ati rivojiga bemisl hissa qo'shgan

Temuriylar davri musiqa maktabiga Sohibqiron nazari tushgan Abdulqodir Marog'iy asos solgan. Temuriylar davri madaniyati va san'ati taraqqiyotida Abdulqodir Marog'iy boshchiligidagi Markaziy Osiyo musiqasi nazariyasi va amaliyoti maktabi alohida o'rin tutadi. Abdulqodir Marog'iy bir qancha vaqt Bag'dodda Sulton Uvaysiy va Sulton Ahmad saroylarida xizmat qiladi. Bag'dod Amir Temur saltanatiga qo'shib olingandan so'ng Samarqandga kelib, Sohibqiron saroyida, so'ngra Hirotda Shohrux saroyida xizmatda bo'ladi. U Farobiy, ibn Sino, Sayfuddin Abdul Mo'min Urmaviy va boshqalarning Sharq musiqasiga oid asarlarini qunt bilan o'rganadi hamda XIV- XV asrlar Sharq musiqasi nazariy muammolariga bag'ishlangan asarlar yaratadi.

Saroy shoiri va xonanda, bastakor Abdulqodir Marog'iy Amir Temurning saroy bazmlari va adabiy majlislarda ishtirok etgan: "Amir Temur zabt etilgan mamlakatlardan madaniyat, adabiyot va san'at arboblari Samarqandga jo'natib turgan. Ular orasida Navoiy "Munshaot"ning 91-maktubida zikr etgan Abdulqodir (Marog'iy) (1353–1435) nihoyatda mashhur edi. Ozarbayjonning

yirik madaniyat markazi bo'lgan Marog'adan chiqqan Abdulqodir uyg'onish davriga mos tarzda xilma-xil bilim va iste'dodga ega: shoir, xonanda, qori, musiqa ijrochisi hamda nazariyotchisi edi. Samarqandda va keyin Hirotda ekanida uning ijodiy faoliyati ayniqsa sermahsul bo'ldi. Bu yerda Abdulqodir Marog'iy poytaxt musiqachilariga murabbiylik, saroy bazmlari va alohida majlislardagi musiqa dasturiga tashkilotchilik qilardi." Fors va turkiy tillarda she'r yozgan Xoja Abdulqodir Marog'iyning Amir Temur saroyida xizmat qilganligi Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida qayd etilgan: "(Konigilda) Yaxshi unluq mug'anniylar un tortib, g'azalu naqsh aytur erdilar. Va turku, mo'g'ulu, xitoyu, arabu, ajamdin har kim o'z rasmi bilan nima aytur erdi.

Ul jumladin Xoja Abdulqodirkim, benaziri olam erdi, qo'buz va yatug'on va udni shodliq mizrobi bila chala boshladi".

Sharq xalqlari musiqa madaniyati taraqqiyotida Abdulqodir Marog'iyning xizmatlari haqiqatan ham g'oyatda ulkan edi. Birinchidan, u anchagina muddat Bag'dodda yashaganligi sababli arab, fors, ozarbayjon xalqlari musiqasini mukammal bilib oladi. Samarqand va Hirotda yashagan vaqtlarida esa Markaziy Osiyo xalqlari musiqa nazariyasi va amaliyotini qunt bilan o'zlashtiradi. Bu esa, keyinchalik o'sha davr Markaziy Osiyo va O'rta Sharq xalqlari musiqalari yutuqlarini umumlashtiruvchi nazariy hamda amaliy asarlar yaratishga yordam beradi. Ikkinchidan, Abdulqodir Marog'iy tomonidan o'z davri musiqa nazariyasiga oid ko'pgina masalalarning hal etilishi keyingi asrlar Sharq xalqlari musiqasining rivojlanib ketishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, Abdulqodir Marog'iy boshchiligidagi Markaziy Osiyo musiqa maktabi faqat temuriylar davlatlari doirasida emas, keyinchalik butun musulmon Sharqi musiqasi ravnaqining g'oyatda muhim omili bo'lib xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temur va Ulug'bek davri tarixi. – T.: Qomuslar Bosh tahririyati, 1996. 229-b.
2. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub". – T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1983. 57-b.
3. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni. – T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1981. 140–145-b.
4. Amir Temur va Ulug'bek zamondoshlari xotirasida. – T.: "O'qituvchi", 1990. 33-b.
5. Zayniddin Vosifiy. Badoe'ul vaqoe'. – T.: G'.G'ulom nomidagi ASN, 1979. 10–11-b.
6. Kovusiy V. San'at va madaniyat homiysi. Jahon adabiyoti jurnali fevral. 2016. 152-b.
7. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'ninchi jild. – T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2012. 575–578-b.
8. Akram B. Fasohat mulkining sohibqironi. – T.: O'zbekiston, 2016. 180–181-b.

Gulrux IMAMOVA,
BuxDU tadqiqotchisi.



ERNEST XEMINGUEY IJODIDA ADABIY PORTRET VA INSON TASVIRIGA OID AYRIM MULOHAZALAR.

Annotatsiya: ushbu maqolada Ernest Xeminguey ijodida adabiy portret va inson tasviriga oid ayrim mulohazalar ilmiy – nazariy tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: badiiy tafakkur, Sharq va Gʻarb, adabiy jarayon, maʼnaviy talab, zamonamiz qahramonlari, obraz, asarlar, yaratish, jarayon, qardosh xalqlar, adabiyot, tajribalar, oʻzlashtirish, maʼnaviy ehtiyoj, sezgi va h.

Аннотация: в данной статье проведён научно-теоретический анализ некоторых размышлений о литературном портрете и изображении человека в творчестве Эрнеста Хемингуэя.

Ключевые слова: художественное мышление, Восток и Запад, литературный процесс, духовные потребности, герои нашего времени, образ, произведения, создание, процесс, братские народы, литература, опыт, освоение, духовная потребность, интуиция и др.

Annotation: this article provides a scientific and theoretical analysis of some considerations regarding the literary portrait and the depiction of the human character in the works of Ernest Hemingway.

Key words: artistic thinking, East and West, literary process, spiritual demand, heroes of our time, image (character), works, creation, process, fraternal peoples, literature, experiences, assimilation, spiritual need, intuition, etc.

Kirish. Badiiyat meʼzonlariga koʻra yozilgan asarlarda bir qancha talablarni ado etish zarur boʻladi. Muallif turli xil vaziyatlarni yoritishda oʻquvchilarni voqealarga nafaqat guvoh, balki hodisaning ishtirokchisiga aylantira olsagina, asarning muvaffaqiyatini taʼminlagan boʻladi. Bu esa poetik mahorat bilan bogʻliq. Shu nuqtayi nazardan yondashsak, badiiy asarda inson tasviri muhim adabiy tamoyil hisoblanadi.

Zamonaviy adabiyotning badiiy taraqqiyotida shaxs va inson konsepsiyasiga oid badiiy tasvirning munosib oʻrni mavjud. Xalqning oʻsib borayotgan koʻp qirrali maʼnaviy talabini qondirish, mustaqillikning ahamiyatini tushuntirish, estetik, maʼnaviy va badiiy tafakkurini taraqqiy qildirish, zamonamiz qahramoni obrazini ochib beruvchi yangi, original, kompozitsion jihatdan mukammal boʻlgan badiiy asarlarni yaratish jarayonida qardosh xalqlar adabiyoti tajribalarini oʻzlashtirishga maʼnaviy ehtiyoj sezamiz.

Adabiyotlar tahlili. Shu adabiy mantiqdan kelib chiqsak, dunyo miqyosida mashhur adib, “Nobel” mukofoti sovrindori Ernest Xemingueyning “Chol va dengiz” qissasi insonning ulugʻligi, undagi iroda va matonat, oqillik va azmu qaroridan ogʻishmaslik oʻzgacha talqinda ifodalanadi.

“Chol oriqlari va holdan toygan, ensasini chuqur ajinlar tilib oʻtgan, betlari esa quyosh nurining tropik dengiz yuzidan aks etib chiqishidan paydo boʻladigan beozor teri rakining jigarrang dogʻlari bilan qoplangan edi”¹.

Rus olimi L.I. Timofeyev sanʼatdagi ikkita tendensiya haqida gapiradi: koʻpaytirish va rekreatsiya, ularning birligi va oʻzaro

taʼsiri. Ijodning realistik turida reproduktiv prinsip va haqiqatga oʻxshashlik istagi ustunlik qiladi. Ijodning romantik turida “adibga bevosita voqelikdan uzoqlashishga imkon beruvchi” rekreativlik tamoyili ustunlik qiladi. Ijodkorlik turlari haqida gapirganda, L.I. Timofeyev “usul” tushunchalarini “butun voqelikni obrazli aks ettirishga xos boʻlgan” umumiy xususiyatlarni hisobga olgan holda, aniq hayotiy hodisa va ijodning “turi” ni ajratadi².

Agar badiiy tafakkurning realistik turi bilish jarayonida obyektiv tomoni bilan bogʻlangan boʻlsa (Chol oriqlari va holdan toygan, ensasini chuqur ajinlar tilib oʻtgan), romantik tip “gnoseologik maʼnoda inson bilish faoliyatida subyektiv tomonning bir tomonlama rivojlanishi natijasini ifodalaydi (...teri rakining jigarrang dogʻlari bilan qoplangan edi).

Ernest Xeminguey zamonaviy ijtimoiy hayotga va zamonaviy insonga diqqat bilan qaragan, jamiyatdagi har bir oʻzgarishlarni sinchkovlik bilan his qilgan holda, borliqning abadiy muammolariga bir xil darajada qiziqish koʻrsatadi va u qanday namoyon boʻlishidan qatʼiy nazar, goʻzallikni va insoniyat badiiy tasvirini birdek ifodalaydi.

“Chol oftobda qizarib ketgan, inonuvchan va mehribon koʻzlari bilan unga qaradi”³.

Ernest Xeminguey odamlar xarakteridagi oqilona tamoyilni qadrlagan, shuning uchun ham u romantik bolaga ham, faol obraz Santiyagoga ham yaqin edi. Ammo Xeminguey mantiqiy tamoyil buzilgan badiiy ifodalarni qoralaydi. Bola va chol Santiyago universal insoniy psixologik tiplari sifatida taqqoslanadi

2 Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971. 464с.

3 Oʻsha joyda. 8-b.

1 Xeminguey E. Chol va dengiz. I.Gʻofurov tarjimai. – Toshkent: Oʻqituvchi. 2018. B – 5.

va bu taqqoslash aniq ifodalangan anti-krepostnoylik yo'nalishiga ega bo'lsa, yozuvchi ijodida romantik va amaliy taqqoslash ham o'ziga xos tarixiy mazmunga ega ekani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ernest Xeminguey romantik va amaliy odamni realistlik aniqlik va xolislik bilan qiyoslab, fidoyilik va xoli amaliy odamning ham, real hayotda ojiz romantikning ham biryozlamaligini ko'rsatadi.

Inson tabiatidan, uning tabiiy, asl tuyg'ularidan, yaxshilik va go'zallikni adib asarlarida chiroyli estetik ruhda ifodalaydi. Xemingueyning estetik idealidagi antropologizmning namoyon bo'lishi uning ishida romantik tendensiyalarning manbai bo'lib, voqelikni aniq tarixiy, ijtimoiy tushunish dunyoga romantik qarashning xususiyatlari bilan murakkablashadi.

Ernest Xeminguey o'z ijodi bilan romantik va realistik tasodifiy tasvirning estetik ichki qiymatining illyuziyasini, ramziylikni, umumiy uslubga murojaat qilishni keltirib chiqardi. Boshqa tomondan, yetuk realizm alohida so'zning ma'nosi va ta'sir kuchini chuqurlashtirib, umuminsoniylashtirishning o'ziga xos vositalarini yaratadi, konkretlikni tiplashtiradi, inson tasvirining tobora kengroq badiiy sinteziga erishadi.

Qahramonning ajdodlar hayoti va butun insoniyat tajribasi bilan birlik hissi shundan kelib chiqadi. Biroq, Xemingueyning qahramoni suvga cho'mgan haqiqat haqida o'ylashi og'riqli hissiyotlarning cheksiz zanjirini buzishga yordam beradi.

"Qachonlardir devorga xotinining rangdor surati ham osig'liq turardi, ammo keyin chol uni berkitib qo'ydi, chunki ko'zi tushsa, juda – juda ezilib ketardi. Endi surat burchakdagi tokchada, toza ko'ylak ustida yotardi"⁴.

Aytish mumkinki, o'tmish va hozirgi rejalarining doimiy almashinishi ham metrik tartiblilik bilan o'xshashlikka intilib, o'ziga xos matn ichidagi ritmni yaratishda ishtirok etadi. Mafkuraviy jihatdan eng muhim daqiqalarda hissiy taranglik kuchayadi.

Ernest Xeminguey psixologizmni "badiiy shaxs (adabiy qahramon)ning his-tuyg'ulari, fikrlari va kechinmalarini badiiy adabiyotning o'ziga xos vositalaridan foydalangan holda yetarli darajada to'liq, batafsil va chuqur tasvirlash" deb tushunadi.

Psixologizm, deb yozadi V.Kompanets, "o'ziga xos vositalar to'plamiga" ega bo'lgan va majburiy ravishda "yo'naltirilishi kerak bo'lgan obyekt"ni nazarda tutuvchi psixologik tahlildan farqli o'laroq, "badiiy adabiyotning mulki", "muallif psixologiyasining aks etishi natijasidir"⁵.

Xemingueyning psixologik mahorati "o'quvchi empatiyasiga munosabat" bilan ajralib turadi, bu esa yozuvchiga o'zini tutib,

4 O'sha joyda 11-b.

5 Компанец В.В. Художественный психологизм в советской литературе (1920-е годы). – Л.: Наука, 1980. 112с.

hatto vositaga ziqnalik bilan o'quvchini muallif xohlagandek tushunish va his qilishga "majburlash" imkonini beradi (...keyin chol uni berkitib qo'ydi, chunki ko'zi tushsa, juda – juda ezilib ketardi).

Hikoyachining o'zi ko'rgan, eshitgan, boshidan kechirgan narsalariga o'quvchida ishonch, qiziqish, hamdardlik uyg'otish qobiliyati yaqqol namoyon bo'ladi (Bular unga marhum xotinidan qolgan edi). Badiiy xotiralar xarakteristikaning qisqaligiga hissa qo'shadi.

Qahramonning psixologik chizig'ini to'ldirishni ishonchli qilish uchun muallif turli usullardan foydalanadi: bilvosita tahlilning bevosita shakllari bilan to'ldiriladi: qahramon tomonidan aytilgan ibora; tushning tavsifi. Hammasi tushuntiriladi, lekin hayotning sirli kutilmagan natijasi tuyg'usi saqlanib qoladi, aytilmagan narsa bor, sukunatning psixologik texnikasi; sevgi, hayot va o'lim sirini to'liq tushunish uchun juda katta ifodasidir.

Ernest Xeminguey va uning adabiy qahramonlari ijtimoiy, aniq tarixiy xususiyatlarga ega, ba'zan romantik obrazlar kamroq aniq ifodalangan, ammo shu bilan birga bu yozuvchilarning qahramonlari universal, "abadiy" tamoyilning tashuvchilaridir.

Xeminguey ijodida adabiy taraqqiyotning turli davrlariga mansubligi, ijodiy shaxslarining o'ziga xosligi, obrazlarining umumiyliigi bilan belgilanadigan ishqiy prinsipdagi barcha farqlarga qaramay, yaqqol ko'zga tashlanadi. Xeminguey asarlari romantik yo'nalishga xos bo'lib, u romantik obrazni yaratishda, tabiatni tasvirlashda, san'at, sevgi mavzusini hal qilishda, syujetning ba'zi xususiyatlarida, kompozitsiyada, uslubiy va romantizmning boyligida o'z ifodasini topadi.

"Chol va dengiz" asarida Xemingueyning qahramonlari ularni o'rab turgan haqiqatga qarama-qarshidir. Ularning taqdiri dramatik tarzda ifodalanadi.

Xalqdan chiqqan qahramonlarning dramatik taqdiri muallifning obyektiv hayotga qarshi noroziligini ifodalaydi. Shu bilan birga, ularning ichki dunyosining go'zalligi va kuchi ingliz xalqi uchun buyuk kelajakka umid uyg'otadi.

Xulosa. Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Ernest Xeminguey asarlarida barcha hissiy e'tibor bir fikrga, bitta tuyg'uga qaratiladi, bu o'z-o'zidan syujetning ixtiyoriyligini ko'rsatadi. Uning nasrida oldindan aytib bo'lmaydiganlik, takrorlanuvchanlik – o'ziga xoslik, zaruriyat – erkinlik – bularning barchasi badiiy yaxlitlik sifatida adabiy asarning chuqur ritmik tuzilishining ichki qutblari hisoblanadi.

Muallifning siklni yaxlit semantik va estetik yaxlitlik sifatida ritmlashtirishi shu munosabat bilan alohida ma'no kasb etadi va shunga mos ravishda siklizatsiyaning o'zi ham adabiy portret janri xususiyatiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xeminguey E. Chol va dengiz. I.G'ofurov tarjimasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.5-bet.
2. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – М.: Просвещение, 1971. 464с.
3. Компанец В.В. Художественный психологизм в советской литературе (1920-е годы). – Л.: Наука, 1980. 112с.
4. Су Шву – Яньн. Концепция творческой личности в художественной системе К.Паустовского: Автореф. дис.... канд. филол. наук. – М., 1998. 24с.

М.Р. ТУРДЫЕВА,

Главный специалист отдела филологических наук
Национального института педагогического мастерства имени А.Авлони
madinaturdiyeva56@gmail.com

СПЕЦИФИКА ПОЗДНЕГО ТВОРЧЕСТВА В.С.ТОКАРЕВОЙ

Annotatsiya: ushbu maqolada V.S. Tokarevaning kechki ijod davrining o'ziga xos xususiyatlari XX–XXI asr rus adabiyoti kontekstida ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: kechki ijod davri, ayol obrazi, nasr, adabiy jarayon.

Аннотация: в данной статье рассматривается специфика позднего творчества В.С. Токаревой в контексте русской литературы XX–XXI веков.

Ключевые слова: поздний период творчества, женский образ, проза, литературный процесс.

Annotation: this article examines the specifics of V. S. Tokareva's late creative period in the context of Russian literature of the 20th–21st centuries.

Key words: late creative period, female image, prose, literary process.

Русская проза второй половины XX – начала XXI века характеризуется активным присутствием женщин-писателей, в творчестве которых формируется особый тип литературной героини и специфическая система ценностей. Значительное место в литературном процессе данного периода занимает творчество Виктории Самойловны Токаревой — одного из наиболее известных современных русских прозаиков, в произведениях которой представлена целая галерея женских образов. В частности, в ее поздней прозе можно отметить эволюцию взглядов автора на жизнь, что обуславливает формирование нового типа героини — образ Мудрой женщины, наделенной мудростью Софии и женским самосознанием Елены. В 2015 году в одном из своих интервью, писательница подмечает специфику рассказов раннего и позднего периода своего литературного пути: «Да, в моем раннем творчестве было слишком много несчастной любви, слишком много отношений мужчины и женщины. Сейчас мне кажется, что это уходит из моих книг, хотя... Любовь не стала счастливее, у моих героинь по-прежнему трудная судьба. Я стала писать более жесткие, безысходные вещи» [1].

Можно также отметить расширение авторского диапазона, привычный образ токаревской героини, познающей мир, Бога через Мужчину, сменяется образом Мудрой женщины, воспринимающей жизнь сквозь призму житейской мудрости, однако при этом вне зависимости от возраста, осознающей свое женское начало. Такая женщина уже не гонится за любовью, она сама становится воплощением любви и покоя: «Я всю жизнь чего-то добивалась: любви, славы, богатства. А сейчас мне ничего не надо. Я не хочу ничего. Видимо, я переросла свои желания. Наступил покой, как после бомбежки. Бомбежка — это молодость» [2]. Сама писательница в одном из своих последних интервью анализируя собственную литературную деятельность, выделяет специфические черты своей поздней прозы, при этом писательницей отмечается роль возраста в изменении вектора своего писательского фокуса: «То, что я пишу сейчас, это, как я называю, поздняя Токарева. Там

тоже есть много интересного. Все мои прежние вещи были о любви, в основном о несчастной. Счастливая любовь не поддается художественному осмыслению, интересно именно бурное течение. Если ты счастлив — иди домой. Я вдруг поняла, что помимо любви — счастливой и несчастной — есть много интересного в жизни, о чем можно думать и говорить. Это преимущество «третьего возраста»» [3]. Также по замечанию В.Токаревой, с годами жить стало легче, так как нет необходимости бегать за любовью и славой, и отпала нужда в любви-страсти, что в итоге принесло писательнице покой [4].

Ярким примером поздней прозы В.Токаревой является сборник рассказов «Ничем не интересуюсь, но всё знаю» (2020). Данный сборник, как и все произведения писательницы, отражает современную ей действительность — жизнь человечества в период пандемии, однако писательница умело переплетает настоящее и прошлое: в сборник включены рассказы о жизни знаменитых режиссеров, композиторов, художников, актеров и актрис (рассказы «Мой друг Ираклий Квирикадзе», «Ничем не интересуюсь, но все знаю»), воспоминания писательницы о своих современниках, при этом они имеют творчески переработанный характер. В сборнике поднимаются такие темы как цикличность жизни, взаимоотношения представителей разных поколений, человеческая беспомощность перед природной катастрофой и т.д., проблема нравственного падения творцов искусства (по мнению В.Токаревой именно гении больше подвержены порокам, так как они таким образом платят за свой талант). Сборник является своеобразной попыткой переосмысления прошлого, подведения итогов и состоит из размышлений писательницы о человеческой жизни: «Самое большое богатство человека — жизнь. А самое большое богатство жизни — молодость»; «Если разобраться, все люди живут по одной программе: детство, юность, зрелость, старость. Внутри этой программы люди переживают одно и то же: любовь, страдание, смерть» [5, С.110]. «Я недавно чистила шкафы, выгребла свои ранние рассказы. Набралась спортивная сумка. Читать невозможно.

Из этих ранних строчек не проглядывался будущий писатель. Так, кое-где», — такую характеристику своему раннему творчеству дает писательница в одном из рассказов данного сборника [5, С.14]. Такое восприятие себя и своего таланта, самоирония — специфические черты идиостиля В.Токаревой. Эволюционирует и центральная тема любви творчества В.Токаревой: токаревская героиня позднего периода не ищет любви в ком-то другом, не стремится достигнуть чужого признания, ей важно ощущение любви внутри себя, так как сама становится воплощением любви, как априори. Писательница не отрицает существования любви, подчеркивает первостепенную важность женского самоощущения и самолюбия, однако акцентирует внимание на быстротечности любви в отношениях мужчины и женщины: «...любовь придумал создатель. Но люди разные, и каждый любит, как умеет...Любовь к мужчине приходит и уходит, а дружба стоит вечно. Она не связана с физиологией, а только с душой. Совпадают не тела, а души» [5, С.102]. Также можно отметить противопоставление молодости и старости, прошлого и настоящего, однако Мудрая женщина принимает каждый из периодов человеческой жизни, осознавая цикличность жизни. В.Токарева не отрицает, а лишь констатирует и принимает происходящие изменения как в себе, так и в окружающей действительности: «Молодые и старые живут на разных скоростях. Ее тянет вперед, а я — тормоз. Мне кажется, что я все еще молодая, красивая и прогрессивная. Но я ошибаюсь. Я родилась в первой половине прошлого века. С тех пор мир изменился. Пришел интернет и все перевернул. Изменилась мораль...А старость тоже нужна — подведение итогов...Произошла смена поколений. Но это уже совсем другая страна и другая история. Прошлое ушло в прошлое» [5, С.79]. В поздней прозе писательницы художественное пространство передается через призму восприятия рассказчицы, которой характерны житейская мудрость и наблюдение. Постоянное сопоставление мира вещей рассказчицы и мира вещей других героинь служит взаимораскрытию персонажей рассказов позднего периода. Так в рассказе «Хрустальный башмачок», за основу сюжета которого взята сказка о Золушке, рассказчица, хотя и является пассивным участником в развитии действий рассказа,

однако именно ее размышления, выводы, сделанные путем сопоставления «своего» и «чужого», раскрывают токаревское видение мира. К примеру, если для главной героини формула счастья укладывается в житейское — «был бы милый рядом», то для рассказчицы счастье — это созерцание, гармония с окружающим миром, ощущение круговорота жизни: «Я шла ходо, наслаждаясь движением, — бессмертная, вечная и веселая. Мне нравилась моя жизнь в отсутствии любви и смерти. Полная свобода от всего» [6]. Натура творчески одаренная, она творит свой мир по законам творчества: созерцание и уединение. Творец свободен от прозы жизни. Ему скучна обыденность. Авторское мироощущение — это идеальная модель человеческого счастья, почти сказочного по своей сути осознания, что универсальной, подходящей для абсолютно каждого модели счастья просто нет. Для автора-повествователя счастье — это состояние свободы. Сама жизнь — сказка. Героиня Лиля воплощает в себе наиболее типичное представление человека о счастье, стремление иметь любовь и семью, и одновременно, раскрывает призрачность, недостижимость в современном мире такого банального, в некотором, смысле счастья. Обычная житейская формула — «был бы милый рядом» — не является нормой в реальной жизни, а в контексте всего рассказа, понимается как случайность [7].

Немного ироничный взгляд на мир помогает автору создать в своих произведениях систему ценностей, которая является органичным продолжением гуманистической традиции русской литературы XIX–XX вв. Типичность созданных писателем характеров неразрывно связана с постижением идейно-художественной концепции произведения прозы. Ярко, талантливо и искренне Виктория Токарева пишет о проблемах человека, его духовных терзаниях, поисках своего «Я» в нашем мире. Она не отходит от поисков вечных ценностей Истины, Добра и Красоты, но не замалчивает и реалии нашего времени: обострившееся социальное неравенство, национальный вопрос, этические проблемы современной действительности. Все это позволяет автору создать достоверный художественный мир, привлекающий к диалогу и размышлениям читателей.

Список литературы

1. Виктория Токарева, писательница: не люблю тех, кто доживает. С другой стороны, лучше быть старым, чем мертвым [Электронный ресурс]. URL: <https://74.ru/text/entertainment/2015/02/02/54054511/> (дата обращения: 11.02.2026).
2. Токарева В.С. Ничем не интересуюсь, но все знаю. — М.: Азбука-Аттикус. 2013. — С.57.
3. Мазурова С. Леди удача: Виктория Токарева о своих новых книгах, о женской прозе и жизни за забором Российская газета Федеральный выпуск № 43(6019) [Электронный ресурс]. URL: <https://rg.ru/2013/02/28/tokareva.html> (дата обращения: 10.02.2026).
4. Виктория Токарева: Мне стало лучше жить с годами [Электронный ресурс]. URL: <https://www.rewizor.ru/literature/interviews/viktoriya-tokareva-mne-stalo-luchshe-jit-s-godami/> (дата обращения: 11.02.2026).
5. Токарева В.С. Ничем не интересуюсь, но все знаю. — М.: Азбука-Аттикус, 2013.
6. Токарева В. Хрустальный башмачок // Токарева В. Короткие гудки. — М.: АСТ, 2005. — С.108.
7. Родина И.В. Хрустальный башмачок // XIII Виноградовские чтения. Сборник научных трудов Международной научно-практической конференции. Уральский государственный экономический университет (Екатеринбург) (2017). — С.159.

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



Sherzodbek ERMATOV,
Andijon davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi
Akramjon MIRZAYEV,
Andijon davlat pedagogika instituti dotsenti

MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI FANI KONTEKSTIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SUN'IY INTELLEKT SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada media savodxonlik va axborot madaniyati fani kontekstida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning pedagogik mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotda sun'iy intellekt savodxonligining media savodxonlik kompetensiyalari bilan uzviy bog'liqligi asoslab berilgan. Media makonida sun'iy intellekt texnologiyalarining keng qo'llanilishi pedagogika yo'nalishi talabalarida axborotni tanqidiy tahlil qilish, algoritmik jarayonlarni anglash hamda raqamli muhitda mas'uliyatli faoliyat yuritish kompetensiyalarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt savodxonligi, media savodxonlik, axborot madaniyati, pedagogik metodlar, kompetensiyaviy yondashuv, interfaol ta'lim, raqamli ta'lim.*

Аннотация: в статье рассматривается педагогическая сущность развития грамотности в области искусственного интеллекта у будущих учителей в контексте дисциплины «Медиаграмотность и информационная культура». Обоснована взаимосвязь медиаграмотности и компетенций, связанных с использованием технологий искусственного интеллекта. В условиях современного медиапространства, функционирующего на основе алгоритмов и автоматизированных систем распространения информации, возникает необходимость формирования у студентов педагогических направлений навыков критического анализа информации, понимания алгоритмических процессов и ответственного поведения в цифровой среде.

Ключевые слова: грамотность в области искусственного интеллекта, медиаграмотность, информационная культура, педагогические методы, компетентностный подход, интерактивное обучение, цифровое образование.

Annotation: this article examines the pedagogical foundations of developing artificial intelligence literacy among future teachers within the context of the course "Media Literacy and Information Culture." The study substantiates the close relationship between media literacy competencies and artificial intelligence literacy. In the modern media environment, which operates through algorithms and automated information dissemination systems, future teachers must develop competencies in critical information analysis, understanding algorithmic processes, and responsible behavior in the digital environment.

Keywords: *artificial intelligence literacy, media literacy, information culture, pedagogical methods, competency-based approach, interactive learning, digital education.*

Kirish. Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'ymoqda. Ayniqsa, sun'iy intellekt texnologiyalarining ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalarda keng qo'llanilishi media makonining tuzilishini tubdan o'zgartirib yubordi. Bugungi kunda axborot oqimining katta qismi sun'iy intellektga asoslangan algoritmlar, avtomatlashtirilgan tavsiya tizimlari hamda raqamli platformalar orqali tarqatilmoqda. Bu esa pedagogika yo'nalishi talabalarining nafaqat media savodxonligini, balki sun'iy intellekt savodxonligini ham rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu nuqtai nazardan, pedagogika yo'nalishi talabalarida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish media savodxonlik fani doirasida amalga oshirilishi mumkin

bo'lgan muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur jarayon talabalarda axborotni tanqidiy tahlil qilish, algoritmik manipulyatsiyalarni anglash hamda raqamli muhitda mas'uliyatli faoliyat yuritish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Media savodxonlikni rivojlantirish jarayoni axborotni tanqidiy tahlil qilish, baholash va undan ongli foydalanish kompetensiyalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalari bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, media savodxonlikni rivojlantirish jarayoni nafaqat axborotni qabul qilish, balki uni tahlil qilish, baholash va texnologik muhit kontekstida tushunish jarayoni sifatida talqin etiladi. Bu esa pedagogika yo'nalishi talabalar uchun sun'iy intellekt savodxonligini aynan media savodxonlik va

axborot madaniyati fani orqali shakllantirish ilmiy jihatdan asosli ekanligini ko'rsatadi.

Media va axborot savodxonligi talabalarning analitik, tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Sun'iy intellekt texnologiyalari bilan ishlash jarayoni ham aynan analitik fikrlash, tanqidiy baholash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini talab qiladi. Shu bois media savodxonlik fani sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish uchun muhim pedagogik platforma sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur metodlar talabalarning o'quv jarayonida faol subyekt sifatida ishtirok etishini ta'minlaydi, real media vaziyatlarni tahlil qilishga yo'naltiradi hamda tanqidiy fikrlash va kompetensiyaviy natijalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu metodlarning samaradorligi ularning faoliyatga yo'naltirilganligi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga imkon yaratishi hamda talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishi bilan izohlanadi.

Media savodxonlikni rivojlantirish samaradorligi interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar va reflektiv faoliyatga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, media savodxonlik fanida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish uchun bir qator didaktik shartlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, integratsiyalangan mazmun (media savodxonlik va sun'iy intellekt texnologiyalari uyg'unligi) didaktik shart sifatida qaraladi. Ushbu integratsiya natijasida talabalarda nafaqat media matnni tanqidiy o'qish, balki sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan yoki saralangan kontentni baholash kompetensiyasi ham shakllanadi.

Ikkinchidan, interfaol metodlar sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning muhim didaktik sharti hisoblanadi. Interfaol metodlar talabani passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida o'quv jarayoniga jalb etilishini ta'minlaydi. Uchinchidan, reflektiv tahlil talabani o'z faoliyatini anglash va baholashga xizmat qiladi. Refleksiya orqali talaba sun'iy intellekt yordamida bajarilgan tahliliy ishlarni qayta ko'rib chiqadi, xulosalarining ishonchliligini baholaydi hamda xatolarini aniqlaydi. To'rtinchidan, axloqiy muhokama sun'iy intellekt savodxonligining ajralmas didaktik sharti hisoblanadi. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda algoritmik tarafkashlik, shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va mualliflik huquqi kabi muammolar yuzaga keladi. Beshinchidan,

amaliy media faoliyat sun'iy intellekt savodxonligini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'laydi. Talabalar real media materiallarni sun'iy intellekt vositalari yordamida tahlil qilib, ularning ishonchliligini tekshiradilar hamda muqobil xulosalar ishlab chiqadilar.

1-rasmda media savodxonlik va axborot madaniyati fani doirasida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning asosiy didaktik shartlari ko'rsatilgan. Unga ko'ra, sun'iy intellekt savodxonligi integratsiyalangan mazmun (media savodxonlik va sun'iy intellekt texnologiyalari uyg'unligi), interfaol metodlar, reflektiv tahlil, axloqiy muhokama hamda amaliy media faoliyat asosida shakllanadi. Ushbu didaktik shartlarning o'zaro uyg'unligi talabalarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan ongli, tanqidiy va mas'uliyatli foydalanish kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.



1-rasm. Sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirishning didaktik shartlari

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy media makonining sun'iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiyalashuvi pedagogika yo'nalishi talabalarida yangi turdagi kompetensiyalarni shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Media savodxonlik va axborot madaniyati fani doirasida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish talabalarning axborotni tanqidiy tahlil qilish, algoritmik jarayonlarni anglash hamda raqamli muhitda mas'uliyatli faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, media savodxonlik va axborot madaniyati fani doirasida sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilishi zamonaviy pedagogik ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buckingham, D. (2003). *Media Education: Literacy, Learning and Contemporary Culture*. Polity Press.
2. Castells, M. (2010). *The Rise of the Network Society*. —Oxford: Wiley-Blackwell.
3. Hobbs, R. (2011). *Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom*. Corwin.
4. Mihailidis, P., & Thevenin, B. (2013). Media literacy as a core competency for engaged citizenship in participatory democracy. *American Behavioral Scientist*, 57(11), 1611–1622.
5. Potter, W. J. (2012). *Media Literacy*. SAGE Publications.

Lobar IBROXIMOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ingliz tili 3-fakulteti, ingliz tili amaliy fanlar 3
kafedrasida katta o'qituvchisi

KEYS-METOD ORQALI CHET TILI DARSLARIDA KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada chet tilini o'qitish jarayonida keys-metoddan foydalanishning metodik ahamiyati tahlil qilinadi. Keys-metod orqali talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish imkoniyatlari, uning pedagogik afzalliklari hamda o'quv jarayonida qo'llash usullari yoritiladi. Tadqiqot natijalari keys-metod talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati va kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *keys-metod, kommunikativ kompetensiya, chet tilini o'qitish metodikasi, kasbiy muloqot, interfaol ta'lim, pedagogik texnologiyalar.*

Annotation: this article analyzes the methodological significance of using the case method in the process of teaching foreign languages. The possibilities of developing students' professional communicative competence through the case method, its pedagogical advantages, and ways of applying it in the educational process are discussed. The results of the study show that the case method is an effective tool for developing students' independent thinking, problem-solving abilities, and professional communication skills.

Key words: *case method, communicative competence, foreign language teaching methodology, professional communication, interactive learning, pedagogical technologies.*

Zamonaviy ta'lim tizimida chet tilini o'qitish jarayoni faqat grammatik bilimlarni o'rgatish bilan cheklanmaydi. Bugungi kunda asosiy e'tibor talabalarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan. Ayniqsa, kasbiy faoliyat bilan bog'liq muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Globalizatsiya sharoitida mutaxassislar turli xalqaro muhitda ishlashlari, professional muloqot olib borishlari va muammoli vaziyatlarni chet tilida hal qila olishlari zarur. Shu sababli chet tilini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish dolzarb masalaga aylangan.

Ana shunday samarali pedagogik yondashuvlardan biri keys-metod hisoblanadi. Ushbu metod real yoki realga yaqin vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalarning fikrlash faoliyatini faollashtiradi hamda ularni amaliy qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.

Keys-metod (case study) ta'lim jarayonida muammoli vaziyatni tahlil qilishga asoslangan interfaol metodlardan biridir. Ushbu metod dastlab biznes ta'limi va menejment sohasida qo'llanilgan bo'lsa-da, keyinchalik boshqa fanlar, jumladan, chet tillarini o'qitishda ham keng tarqaldi.

Keys-metodning asosiy mohiyati shundan iboratki, talabalarga ma'lum bir vaziyat yoki muammo taqdim etiladi. Talabalar ushbu vaziyatni tahlil qilib, muammoning

sabablarini aniqlaydilar va turli yechim variantlarini taklif qiladilar.

Bu jarayon quyidagi kompetensiyalarni rivojlantiradi:

- tahliliy fikrlash
- muloqot madaniyati
- jamoada ishlash ko'nikmasi
- qaror qabul qilish qobiliyati
- kasbiy terminologiyadan foydalanish malakasi

Chet tilini o'qitishda keys-metoddan foydalanish talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Kasbiy kommunikativ kompetensiya deganda mutaxassisning o'z kasbiy faoliyati doirasida samarali muloqot olib borish qobiliyati tushuniladi.

Keys-metod jarayonida talabalar turli kasbiy vaziyatlarni muhokama qiladilar. Masalan, muzokara olib borish, muammoli vaziyatni hal qilish, loyiha taqdimoti yoki jamoaviy qaror qabul qilish kabi holatlar simulyatsiya qilinadi.

Bunday faoliyat natijasida talabalar:

- kasbiy leksikani faol qo'llashni o'rganadilar
- muloqot strategiyalarini rivojlantiradilar
- nutq faoliyatining barcha turlarini birgalikda qo'llaydilar

Shu bilan birga, keys-metod talabalarining motivatsiyasini oshiradi, chunki ular nazariy bilimlarni real vaziyatlar bilan bog'lash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Chet tili darslarida keys-metoddan foydalanish o'quv jarayonini yanada samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Ushbu metod real yoki realga yaqin vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalarining fikrlash faoliyatini faollashtiradi va ularni mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi. Keys-metoddan foydalanish odatda bir necha izchil bosqichlar asosida amalga oshiriladi va har bir bosqich o'quv jarayonining maqsadli tashkil etilishiga yordam beradi.

Birinchi bosqich vaziyatni taqdim etish bosqichidir. Bu bosqichda o'qituvchi talabalarga ma'lum bir muammoli vaziyatni tavsiflovchi matn, audio yoki video materialni taqdim etadi. Vaziyat odatda talabalarining kelajak kasbiy faoliyati bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, xalqaro hamkorlik, biznes muzokaralari, loyiha muhokamasi yoki xizmat ko'rsatish jarayoniga oid holatlar tasvirlanishi mumkin. Ushbu bosqichning asosiy vazifasi talabalarda muammoni tushunish va vaziyat mohiyatini anglash uchun zarur bo'lgan kontekstni yaratishdan iborat.

Ikkinchi bosqich vaziyatni tahlil qilish bosqichidir. Bu jarayonda talabalar kichik guruhlariga bo'linadi va berilgan vaziyatni muhokama qiladilar. Ular muammoning asosiy sabablarini aniqlashga, vaziyatning muhim jihatlarini tahlil qilishga hamda turli nuqtayi nazarlarni ko'rib chiqishga harakat qiladilar. Bu bosqichda talabalar faol muloqotga kirishadi, o'z fikrlarini chet tilida ifodalaydilar va boshqalarning fikrini tinglashni o'rganadilar. Natijada ular muammoning mohiyatini chuqurroq anglay boshlaydilar.

Uchinchi bosqich yechim variantlarini ishlab chiqish bosqichidir. Bu bosqichda talabalar vaziyatni hal qilishning turli strategiyalarini ishlab chiqadilar. Har bir guruh o'z takliflarini asoslashga harakat qiladi va tanlangan yechimning afzalliklarini ko'rsatadi. Talabalar bu jarayonda kasbiy terminologiyadan foydalanadilar, mantiqiy fikrlashni rivojlantiradilar hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini mustahkamlaydilar.

To'rtinchi bosqich natijalarni taqdim etish bosqichidir. Har bir guruh o'zining taklif etgan yechimlarini taqdim etadi va umumiy muhokama jarayoni tashkil etiladi. O'qituvchi va boshqa guruhlar tomonidan berilgan savollar

orqali taklif etilgan yechimlar yanada chuqurroq tahlil qilinadi. Bu jarayon talabalarining nutq faolligini oshiradi, taqdimot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda ularni professional muloqot muhitiga yaqinlashtiradi.

Keys-metoddan foydalanish bir qator pedagogik afzalliklarga ega. Avvalo, ushbu metod o'quv jarayonining amaliy yo'naltirilganligini ta'minlaydi. Talabalar nazariy bilimlarni real vaziyatlar bilan bog'lab o'rganadilar. Shuningdek, bu metod talabalarining mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, chunki ular muammoni mustaqil tahlil qilish va yechim topish jarayonida faol ishtirok etadilar.

Bundan tashqari, keys-metod jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Talabalar guruhlarda ishlash jarayonida fikr almashadilar, bir-birini tinglashni va murosaga kelishni o'rganadilar. Ushbu metod kommunikativ faoliyatni ham faollashtiradi, chunki talabalar o'z fikrlarini chet tilida erkin ifodalashga harakat qiladilar.

Keys-metodning yana bir muhim afzalligi shundaki, u kasbiy terminologiyani o'zlashtirishni osonlashtiradi. Talabalar real kasbiy vaziyatlarni muhokama qilish jarayonida tegishli terminlardan faol foydalanadilar va ularni amaliy nutqda qo'llashni o'rganadilar.

Umuman olganda, keys-metod talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi hamda ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Shu sababli ushbu metodni chet tili darslarida tizimli ravishda qo'llash ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Xulosa. Chet tilini o'qitish jarayonida keys-metoddan foydalanish talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim metodik vosita hisoblanadi. Ushbu metod real hayotga yaqin vaziyatlarni modellashtirish orqali talabalarining nutq faoliyatini faollashtiradi hamda ularni mustaqil fikrlashga undaydi.

Keys-metod talabalarga nafaqat til bilimlarini mustahkamlash, balki kasbiy faoliyatda zarur bo'lgan kommunikativ ko'nikmalarni ham rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli chet tili darslarida ushbu metoddan tizimli ravishda foydalanish ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jonassen D. H. Learning to solve problems with technology: A constructivist perspective. – New York: Routledge, 2004.
2. Johnson K. An introduction to foreign language learning and teaching. – London: Routledge, 2008.
3. Littlewood W. Communicative language teaching: An introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981.

Maxmuda YULDASHEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti o'qituvchisi
e-mail: mahmudauldaseva@gmail.com



ADABIYOT DARSLARIDA EVRISTIK XARAKTERDAGI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarni ijodkorlikka, tafakkur qilishga va mustaqil fikrlashga o'rgatish jarayonlari, o'qitishning evristik usullari, adabiy ta'lim jarayonida evristik usullarni qo'llashning asosiy mohiyati, shuningdek o'quvchilarning bilimlarini kashf etish bilan birgalikda ularni izlanishga o'rgatish usullari, evristik usullar asosida tuzilgan topshiriqlar va mashqlar o'quvchilarda tashabbuskorlik bilan birgalikda quyidagi layoqatlarni, ya'ni mustaqillik, epcchilik, qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlarini samarali shakllantirish imkonini berishi tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: *ijodkorlik, ijodiy faoliyat, evristik usul, evristik yondashuv, zamonaviy pedagogika, ijodiy faollik, evristik ta'lim, ijodiy topshiriq, o'yinlar.*

Аннотация: в статье анализируются процессы обучения учащихся творчеству, рефлексии и самостоятельности на уроках литературы, эвристические методы обучения, основная суть использования эвристических методов в процессе литературного образования, а также методы обучения учащихся поиску и открытию своих знаний, и то, как задания и упражнения, основанные на эвристических методах, эффективно формируют у учащихся такие компетенции, как инициативность, самостоятельность, ловкость и принятие решений.

Ключевые слова: *творчество, творческая деятельность, эвристический метод, эвристический подход, современная педагогика, творческая деятельность, эвристическое образование, творческое задание, игры.*

Annotation: the article analyzes the processes of teaching students creativity, reflection and independence in literature lessons, heuristic teaching methods, the main essence of using heuristic methods in the process of literary education, as well as methods of teaching students to search for and discover their knowledge, and how tasks and exercises based on heuristic methods effectively form such competencies in students as initiative, independence, dexterity and decision-making.

Key words: *creativity, creative activity, heuristic method, heuristic approach, modern pedagogy, creative activity, heuristic education, creative task, games.*

Mamlakatimizda o'quvchilarni erkin fikr bildirish, mutolaa madaniyatini shakllantirish, badiiy matn bilan ishlash jarayonida "o'z javobi"ni ayta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirish – adabiyot o'qitishning muhim jihatlardan hisoblanadi. Adabiyot darslarini tashkil etishda o'rganish va kashf qilishga asoslangan ta'lim jarayoni o'quvchilarning o'quv faolligini oshirish, ularda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirishga yordam beradi. Bu esa ularning har tomonlama raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1:14] – degan fikrlari yoshlarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish,

badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish, kuzatuvchanlik, tashkilotchilik, qiziquvchanlik, yangiliklarga intiluvchanlik sifatlarini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Respublikamiz adabiy ta'lim tizimida evristik metodlardan foydalanish A.Zunnunov, Q.Yo'ldoshev, S.Matchonov, M.Mirqosimova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, S.Kambarova [2:233; 3:306; 4:300; 5:253; 6:262; 7:150] kabi metodistlarning tadqiqot ishlarida o'qitishning hayot bilan aloqadorligi, ma'naviyat va estetik asoslarning ustuvorligi, mustaqil ishlarni uyushtirish, o'quvchilarning adabiy tahlil malakalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish, mutolaa madaniyatini shakllantirish masalalari doirasida yoritilgan. Evristik yondashuv orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga o'rgatish, ijodiy izlanuvchanlikka xos sifatlarini shakllantirish imkoniyatlari N.S.Mamatov, J.Tursunov, Sh.Hamdov,

D.J.Gaipov, I.G'.Abdullayeva, F.K.Razikova, O.O.Xallovqova, A.Turaqulova, K.A.Shokarimova, R.Xurramov [8:114; 9:4; 10:40] kabi pedagog olimlar tomonidan o'rganilgan.

Ta'lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyatli kechishi uchun o'qituvchi qanchalik mas'uliyat bilan yondashsa, o'quvchi ham xuddi shunday ishtiyoq bilan harakat qiladi. Bunda eng ma'qul yo'l asosiy e'tiborni metod va usullarni to'g'ri tanlashga qaratishdir. Shu nuqtayi nazardan ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatini shakllantirish yangi pog'onaga ko'tariladi. Inson tafakkurini rivojlantirishning eng yuqori darajasi yaratuvchanlik va ijodkorlikda yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan mana shu ijodiy faoliyat orqali o'quvchi o'z imkoniyatlarini mustaqil ko'rsata oladi.

O'quvchilarning ijodiy-intellektual salohiyati rivojida, avvalo, davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi va darsliklar kabi me'yoriy hujjatlar alohida o'rin tutadi. "Ijod maktablari uchun adabiyot fanidan ta'lim dasturi"da ijod maktablari o'quvchilarida milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tahlil qilish va ularga munosabat bildirish kompetensiyalarini shakllantirishga yondashilgan [11:33].

Ushbu dasturga e'tibor qilinsa, turli janr, mavzu va yo'nalishdagi asarlar o'quvchilarning bilish jarayonlariga mos holda tanlangani ayonlashadi. Xususan, epik va

dramatik turga mansub quyidagi asarlar kiritilganini o'quvchilarning qiziqishlari, zamon bilan hamnafasligi axborotlashuv davri talablari bilan muvofiqlashtirilgan ma'lum bo'ladi. Xususan, 7–8-sinflar dasturida, asosan, eposning kichik janrlari: ertak, hikoya, qissalar, ayrim dostonlar o'rganilishi ko'zda tutilgan. Yirik epik asarlarni o'rganish esa yuqori sinflar uchun rejalashtirilgan. Bu esa dasturning ilmiylik, kommunikativlik, shaxsga yo'naltirilganlik, integrativ va madaniy tamoyillar asosida tuzilganini ko'rsatadi.

Ayonlashadiki, dasturda epik va dramatik turga mansub deyarli barcha janrlarga murojaat qilingan. Ular tasvirda tafsilotlarning ustuvorligi, voqealarning izchil bayoni va bir qator obrazlar tizimiga egaligi bilan ham ijod maktabi o'quvchilarining bilish jarayonlariga mos keladi. Odatda, har bir darslik yoki qo'llanmalarda mavzuni mustahkamlash yoki takrorlash uchun savol-topshiriqlar beriladi. Quyida ijod maktablarining 8–9-sinf o'quv dasturidagi ayrim mavzularni o'rganish uchun tavsiya sifatida evristik xarakterdagi topshiriqlardan namunalar keltirilgan. Bu jihat o'quvchilarning intellektual salohiyati, ma'naviy sifatleri, estetik didi va tanqidiy tafakkuri rivojida ahamiyatlidir (1.6-, 1.7-jadvallarga qarang).

1.6-jadval

Ijod maktablari uchun adabiyot bo'yicha ta'lim dasturida berilgan 8-sinf mavzulari bo'yicha tavsiya sifatida ishlab chiqilgan evristik xarakterdagi topshiriqlar

8-sinf adabiyot darsligining I qismida berilgan mavzular [12:204]	
Mavzular	Ijodiy topshiriqlar namunasi
"Ravshan" dostoni	"Ravshan" dostoni mazmuniga doir peyzaj namunasini chizing. Ushbu san'at asaringizni qanday nomlagan bo'lar edingiz?
Antuan de Sent-Ekzyuperi. "Kichkina shahzoda" qissasi	Sayyoralar, baobab daraxti haqida nimalarni bilasiz? Bu haqda manbalardan ma'lumotlar tayyorlang va sinfda o'qib bering.
Chingiz Aytmatov. "Oq kema" qissasi	"Oq kema" qissasi qahramonlaridan intervyu olish vazifasi sizga yuklatilsa, kimlarga yuzlanar edingiz? Qahramonlarga beradigan savollaringizni qoralab chiqing va sinfdoshlaringizga o'qib bering.
Aleksandr Grin. "Alvon yelkanlar" qissasi	Aleksandr Grinning "Alvon yelkanlar" qissasida tabiat va odamlar tasvirida qanday mushtaraklik bor?
Xayriddin Sultonov. "Saodat sohili" qissasi	"Saodat sohili" qissasi haqida qisqa syujetli axborot tayyorlang.
Alfons Dode. "So'nggi saboq" hikoyasi	"Besh panja" usuli 1. Asar haqida 5 ta ma'lumot ayting. 2. Hikoyaning g'oyasi nimalardan iborat? 3. Asar personajlari ruhiy holatini o'rganing. 4. Hikoyada vatanga muhabbat tuyg'usi qaysi lavhalar orqali kuchliroq yoritilgan? 5. Hikoya so'ngida qanday xulosaga keldingiz?

8-sinf adabiyot darsligining 2-qismida o'rganilishi ko'zda tutilgan mavzular	
Xurshid Do'stmuhammad. "Mirkomilboyning qazo bo'lgan namozi" hikoyasi	1. Ushbu hikoya mazmuni asosida sahnalashtirilgan ko'rinishlar yarating. 2. Mirkomilboyning iztiroblariga monand kuy tanlang.
Maqsud Shayxzoda. "Jaloliddin Manguberdi" dramasi	Drama yuzasidan yozilgan maqolalar bilan tanishing. O'zingizga ma'qul bo'lgan maqolaga taqriz yozing.
O.Henri. "Yigirma yildan so'ng" hikoyasi	Xayolan asar qahramoni Jimmi bilan uchrashing. Unga qanday savollar bilan murojaat qilgan bo'lardingiz?
Shukur Xolmirzayev. "Ot egasi" hikoyasi	1. Asarning bosh qahramoniga 10 ta ta'rif bering. 2. Asarda keltirilgan daraxt, hayvon, taom va detal nomlaridan yodingizda qolganini yozing.
Robindranath Thakur. "Shubha" hikoyasi	"Zabonsiz qiz hayqirig'i" mavzusida taassurotlaringizni yozing. Uni sinfdoshlaringiz bilan muhokama qiling.
Isajon Sulton. "Shamolli kecha" hikoyasi	Tasavvur qiling, siz yozuvchisiz. Mazkur hikoyani qanday yakunlagan bo'lardingiz?
Sadriddin Ayniy. "Sudxo'rning o'limi" qissasi	Asarda uchragan maqollarni toping. Topgan maqollaringiz izohini matn asosida dalillang.

1.7-jadval

Ijod maktablari uchun adabiyot bo'yicha ta'lim dasturida berilgan
9-sinf mavzulari bo'yicha tavsiya sifatida ishlab chiqilgan evristik xarakterdagi topshiriqlar

9-sinf adabiyot darsligining I qismida berilgan mavzular	
Mavzular	Ijodiy topshiriqlar
Jek London. "Hayotga muhabbat" hikoyasi	Jek Londonning "Hayotga muhabbat" asari bilan Shukur Xolmirzayevning "Zov ostida adashuv" hikoyasini qiyosiy tadqiq qiling. Asarlar o'rtasidagi mavzu, mazmun, g'oyaviy qarashlar, badiiy tasvir va yozuvchilarning badiiy obraz yaratish mahorati jihatidan qanday yaqinliklarni kuzatdingiz?
Odil Yoqubov. "Ulug'bek xazinasi" romani	Roman bo'yicha qanday xulosaga kelganingiz haqida qisqacha matn tuzing.
Valentin Rasputin. "Fransuz tili saboqlari" hikoyasi	"Fransuz tili saboqlari" hikoyasi nomi va syujeti bir-biriga mos kelganmi? Siz hikoyani qanday nomlagan bo'lar edingiz?
9-sinf adabiyot darsligining 2-qismida o'rganilishi ko'zda tutilgan mavzular	
Shukrullo. "Kafansiz ko'milganlar" xotira-roman	Asardagi Shukrulloning uyini tintuv qilish jarayoni... Ushbu syujet yana qaysi asarlarda uchraydi?
Tohir Malik. "Alvido, bolalik" qissasi	"Agarda men yozuvchi bo'lsam..." mavzusida hikoya syujeti saqlangan holda ushbu hikoya yakunini o'z tasavvuringiz bo'yicha yakunlang.

Yuqoridagi namunalarda mantiqiylikka tayanish bilan birga fanlararo integratsiyaga alohida urg'u qaratilgani ham kuzatiladi. Bunday topshiriqlar orqali o'quvchilarda kreativlikni shakllantirish bilan birga ijodkorlik, obrazli tafakkurni rivojlantirish, tasavvuri, xayoloti va dunyoqarashini kengaytirishga erishiladi. Namunalar shakli va mazmuniga diqqat qilinsa, asarlarning janriy xususiyatlariga ko'ra topshiriqlar deyarli takrorlanmagani va qiziqarli tarzda qo'yilgani uchun ham o'quvchilar bu jarayonda zerikmaydi. Masalan, Ekzyuperining "Kichkina

shahzoda" qissasi bo'yicha berilgan sayyoralar, baobab daraxti haqida ma'lumotlar tayyorlash, A.Grinning "Alvon yelkanlar" qissasida tabiat va odamlar tasvirida qanday mushtaraklik borligini tadqiq etish, M.Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi yuzasidan yozilgan maqolalar bilan tanishish va ushbu maqolaga taqriz yozish, S.Ayniyning "Sudxo'rning o'limi" qissasida uchragan maqollarni topish va izohini matn asosida dalillash, J.Londonning "Hayotga muhabbat" asari bilan Sh.Xolmirzayevning "Zov ostida adashuv" hikoyasini

qiyosiy tadqiq qilish, Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” asaridagi tintuv jarayoni yana qaysi asarlarda uchrashini aniqlash topshiriqlari o‘quvchilarni izlanuvchanlik va tadqiqotchilikka o‘rgatadi.

R.Thakurning “Shubha” hikoyasi yuzasidan taassurot yozish, T.Malikning “Alvido, bolalik” qissasi va I.Sultonning “Shamolli kecha” hikoyasining yozuvchi sifatida o‘zgacha yakunini yozish, V.Rasputinning “Fransuz tili saboqlari” hikoyasi nomi va syujetini inobatga olgan holda boshqacha nomlash kabi topshiriqlar o‘quvchilarni ijodkorlikka va ijodiy fikrlashga undaydi.

Ch.Aytmatovning “Oq kema” qissasi qahramonlaridan intervyu olish vazifasi, X.Sultonovning “Saodat sohili” qissasi haqida qisqa syujetli axborot tayyorlash, O.Henrining “Yigirma yildan so‘ng” hikoyasi qahramoniga savol yo‘llash topshiriqlari o‘quvchilarning intellektual va

ijodiy salohiyatini rivojlantirishga va iqtidorli o‘quvchilarni kashf etishga xizmat qiladi. X.Do‘stmuhammadning “Mirkomilboyning qazo bo‘lgan namozi” hikoyasi asosida sahnalashtirilgan ko‘rinishlar yaratish va asar qahramoni iztiroblariga mos kuy tanlash kabi topshiriq orqali o‘quvchilar adabiyot fani nafaqat so‘z san‘ati, balki san‘atning ko‘plab turlari bilan aloqadorligini his qiladilar.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, evristik yondashuv asosida bilim berish –o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonining o‘z oldiga ta‘lim samaradorligini oshirish vazifasini qo‘yuvchi texnik hamda shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib qo‘llashning tizimli metodidir. Har qanday interfaol metod va usullar to‘g‘ri hamda maqsadli qo‘llanilganda o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIX, 2016. 14-b.
2. Зуннунов А. ва бошқ. Адабиёт ўқитиш методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. 333 б.
3. Йўлдошев Қ.Б. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1997. 306 б.
4. Матчинов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1998. 300 б.
5. Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1995. 253 б.
6. Ҳусанбоева Қ.П. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2006. 262 б.
7. Камбарова С.И. Умумий ўрта таълим тизимида ўқувчиларнинг мустақил мутолаа маданиятини шакллантириш технологияси. Пед. фан. фалс. док. (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2019. 150 б.
8. Маматов Н.С. Эвристик мезонлар асосида информатив белгилар фазосини шакллантириш усуллари ва алгоритмлари. Пед. фан. док. ... дисс. – Тошкент, 2010. 114 б.
9. Tursunov J. O‘quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirishda evristik ta‘lim metodlaridan foydalanish // Maktab va hayot. – Toshkent, 2013. № 3. 24–26-b.
10. Hamdamov Sh. “Evristik suhbat” usuli/ “Ma’rifat”. – Toshkent, 2020. – № 24. 4-b.
11. Ijod maktablari uchun adabiyot bo‘yicha ta‘lim dasturi. – Toshkent: Prezident ta‘lim muassasalari agentligi, 2022. 33-b.
12. Nurmuhammadov J., Qambarova S., Olimjanov O., Yuldasheva M., Inomjonova S. 8-sinf adabiyot darsligi (I qism) [Matn]: darslik / – Toshkent: Adast poligraf, 2022. 204-b.

ADABIYOTNI O'QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiyot fanini o'qitish jarayonida fanlararo integratsiya yondashuvining nazariy asoslari hamda metodik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Integratsiyalashgan ta'lim o'quvchilarning badiiy tafakkurini rivojlantirish, badiiy matnni chuqurroq anglash hamda turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni idrok etish jarayonida muhim pedagogik omil hisoblanadi. Tadqiqotda adabiyot darslarini tarix, ona tili, san'at va axborot texnologiyalari fanlari bilan integratsiya qilish usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, badiiy asarni o'rganishda integratsion yondashuvning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *adabiyot ta'limi, fanlararo integratsiya, integratsiyalashgan ta'lim, badiiy tafakkur, metodika, pedagogik texnologiyalar.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретические основы и методические возможности междисциплинарной интеграции в процессе преподавания литературы. Интегрированное обучение способствует развитию художественного мышления учащихся, более глубокому пониманию художественного текста и осознанию взаимосвязи различных учебных дисциплин. В исследовании анализируются методы интеграции уроков литературы с историей, родным языком, искусством и информационными технологиями.

Ключевые слова: *преподавание литературы, междисциплинарная интеграция, интегрированное обучение, художественное мышление, методика, педагогические технологии.*

Annotation: this article analyzes the theoretical foundations and methodological possibilities of interdisciplinary integration in teaching literature. Integrated education helps develop students' literary thinking, understand literary texts more deeply, and recognize relationships between different academic subjects. The study examines ways of integrating literature lessons with history, language studies, art, and information technologies.

Key words: *literature education, interdisciplinary integration, integrated learning, literary thinking, methodology, pedagogical technologies.*

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo integratsiya bilimlarni tizimli o'zlashtirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik yondashuvlardan biri sifatida qoraladi. Ta'lim jarayonida turli fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ta'minlash o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, ularning tahliliy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Shu jihatdan integratsiyalashgan ta'lim modeli bugungi pedagogika amaliyotida keng qo'llanilayotgan samarali metodik yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Adabiyot fanini o'qitishda integratsion yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki badiiy asar nafaqat estetik hodisa, balki tarixiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni aks ettiruvchi murakkab badiiy tizimdir. Badiiy matn mazmunini to'liq anglash uchun o'quvchi tarix, tilshunoslik, san'at va madaniyat kabi sohalar bilan bog'liq bilimlarga ham ega bo'lishi zarur. Shu sababli adabiyot darslarini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish o'quvchilarning badiiy asarni chuqurroq va kengroq kontekstda tushunishiga imkon yaratadi.

Fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan adabiyot darslari o'quvchilarda badiiy tafakkurni rivojlantirish, obrazlarni tahlil qilish, muallif g'oyasini anglash hamda badiiy matnni turli nuqtayi nazardan talqin qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bunday yondashuv o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi, ularning nutq madaniyati hamda estetik didini rivojlantiradi.

Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilayotgan ta'lim tizimi o'quvchilarning nafaqat bilim, balki amaliy ko'nikma va malakalarini ham shakllantirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan adabiyot ta'limida fanlararo

integratsiyadan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish hamda badiiy asarlarni chuqur anglashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning maqsadi adabiyot fanini o'qitishda fanlararo integratsiyaning nazariy asoslarini yoritish hamda integratsiyalashgan darslarning ta'lim jarayonidagi metodik imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida adabiyot darslarini tarix, ona tili, san'at va axborot texnologiyalari fanlari bilan integratsiya qilishning didaktik imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya masalasi pedagogika va metodika sohasida keng tadqiq etilgan muammolardan biridir. Integratsiya tushunchasi ta'lim mazmunini turli fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida tashkil etishni anglatadi. Ilmiy manbalarda integratsiya o'quvchilarning bilimlarini tizimli shakllantirishga xizmat qiluvchi didaktik tamoyil sifatida talqin qilinadi.

Pedagogik tadqiqotlarda fanlararo integratsiya o'quvchilarning tafakkur faoliyatini rivojlantirish, bilimlarni amaliyot bilan bog'lash hamda o'quv jarayonini samarali tashkil etish imkonini beruvchi muhim metodik vosita sifatida baholanadi. Integratsion ta'lim o'quvchilarning bilimlarni fragmentar tarzda emas, balki yaxlit tizim sifatida idrok etishiga yordam beradi.

Adabiyot fanini o'qitish metodikasida ham integratsiya muhim o'rin tutadi. Badiiy asarlarni o'rganish jarayonida tarix, tilshunoslik, san'atshunoslik va madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan o'zaro bog'liqlik mavjud. Shu sababli adabiyot darslarini boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirib tashkil etish badiiy matnni

chuqurroq tahlil qilish imkonini yaratadi. Masalan, tarixiy asarlarni o'rganishda o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy sharoitlari haqida ma'lumot berish o'quvchilarning asarni kengroq tarixiy kontekstda tushunishiga yordam beradi.

Shuningdek, ona tili faniga murojaat qilish badiiy matndagi stilistik vositalar, obrazli ifodalar hamda til birliklarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. San'at fanlari bilan integratsiya esa badiiy obrazlarni tasviriy san'at yoki musiqa bilan qiyoslash orqali o'quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantiradi.

Mazkur tadqiqotda adabiyot fanini o'qitishda fanlararo integratsiyaning metodik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, deskriptiv metod yordamida integratsion ta'limning nazariy asoslari tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil metodi orqali turli fanlar bilan integratsiya qilish usullarining pedagogik samaradorligi o'rganildi.

Bundan tashqari, adabiyot darslarida integratsiyalashgan metodlardan foydalanish bo'yicha mavjud pedagogik tajribalar tahlil qilinib, ularning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati aniqlashtirildi. Tadqiqot natijalari fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan adabiyot darslari o'quvchilarning badiiy tafakkuri va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Natijalar va muhokama. Adabiyot fanini o'qitishda fanlararo integratsiya yondashuvidan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim metodik imkoniyatlarni yaratadi. Integratsiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, ularning badiiy tafakkuri hamda analitik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday darslarda o'quvchilar badiiy asarni faqat adabiy nuqtai nazardan emas, balki tarixiy, lingvistik va madaniy kontekstda ham tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, adabiyot darslarini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish o'quvchilarning badiiy matnni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Masalan, tarix fani bilan integratsiya jarayonida badiiy asarda tasvirlangan davrning ijtimoiy-siyosiy sharoitlari haqida ma'lumot berish o'quvchilarning asar mazmunini kengroq tarixiy kontekstda tushunishiga imkon yaratadi. Natijada o'quvchilar badiiy matnda aks etgan voqealar va obrazlarni tarixiy jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Ona tili fani bilan integratsiya esa badiiy matndagi til birliklarini chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Bunda o'quvchilar badiiy tasvir vositalari, metafora, epitet, taqqoslash kabi stilistik vositalarni aniqlash hamda ularning badiiy matndagi funksiyasini tahlil qilishga o'rganadilar. Bu jarayon o'quvchilarning til sezgirligini rivojlantirish hamda nutq madaniyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

San'at fanlari bilan integratsiya ham adabiyot ta'limining muhim jihatlaridan biridir. Badiiy asarda tasvirlangan obrazlarni tasviriy san'at, teatr yoki musiqa bilan qiyoslash o'quvchilarning estetik tafakkurini rivojlantiradi. Masalan, badiiy asardagi qahramon obrazini tasviriy san'at asarlari bilan taqqoslash orqali o'quvchilar obrazning badiiy talqinini yanada chuqurroq anglaydilar.

Shuningdek, axborot texnologiyalari bilan integratsiya ham zamonaviy ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi. Multimedia taqdimotlari, elektron ta'lim resurslari hamda vizual materiallardan foydalanish badiiy asarni o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu esa o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi hamda ularning mustaqil o'rganish faoliyatini rivojlantiradi.

Umuman olganda, integratsion yondashuv asosida tashkil etilgan adabiyot darslari o'quvchilarning badiiy tafakkuri, estetik didi va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish bilan birga o'quvchilarning bilimlarini tizimli tarzda shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Adabiyot fanini o'qitishda fanlararo integratsiya yondashuvi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim metodik vositalardan biri hisoblanadi. Integratsiya asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilimlarini tizimli ravishda shakllantirishga, badiiy asarni kengroq kontekstda anglashga hamda turli fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, adabiyot darslarini tarix, ona tili, san'at va axborot texnologiyalari fanlari bilan integratsiya qilish o'quvchilarning badiiy tafakkuri, analitik fikrlashi hamda estetik didini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv o'quvchilarning badiiy matnni chuqurroq tahlil qilish, muallif g'oyasini anglash hamda obrazlarni kengroq ijtimoiy va madaniy kontekstda talqin qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, integratsion ta'lim o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etish imkonini beradi. Turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlik asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Demak, zamonaviy ta'lim tizimida adabiyot fanini o'qitishda fanlararo integratsiyadan foydalanish o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois adabiyot darslarini tashkil etishda integratsion yondashuvdan samarali foydalanish pedagoglarning metodik faoliyatida muhim yo'nalishlardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. 176-b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. 464-b.
3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. 256-b.
4. Yo'ldoshev Q., Qodirov M. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. 240-b.
5. Safarova R. Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. 312-b.
6. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. 180-b.
7. Zunnunov A. Pedagogika tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004. 220-b.
8. Abdurahmonov G'. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2011. 280-b.

Nargiza JUMAQULOVA,

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

nargizabonujumakulova@gmail.com

ADABIY TA'LIMDA DIDAKTIK MUVOZANATNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada adabiy ta'lim jarayonida gender muammosining didaktik va talqiniy qirralari tahlil qilinadi. Tadqiqotda kontent-tahlil, komparativ talqin va sinf amaliyoti kuzatuvini uyg'unlashtirildi. Natijalar o'quvchi qabulida stereotiplar matn tanlovi, savol-topshiriq va baholash mezonlari orqali mustahkamlanishini ko'rsatdi. Ilmiy yangilik sifatida matn, metod va refleksiya birligiga tayangan muvozanatli yondashuv taklif etiladi.

Kalit so'zlar: *adabiy ta'lim, gender, stereotip, qahramon obrazi, talqin, o'qish strategiyasi*

Аннотация: в данной статье анализируются дидактические и интерпретационные аспекты гендерной проблемы в процессе литературного образования. В исследовании были интегрированы методы контент-анализа, компаративной интерпретации и наблюдения за практикой в классе. Результаты показали, что в восприятии учащихся гендерные стереотипы закрепляются посредством отбора текстов, системы вопросов и заданий, а также критериев оценивания. В качестве научной новизны предлагается сбалансированный подход, основанный на единстве текста, методики и рефлексии.

Ключевые слова: литературное образование, гендер, стереотип, образ героя, интерпретация, стратегия чтения.

Annotation: this article analyzes the didactic and interpretative aspects of the gender issue in the process of literary education. The study integrates content analysis, comparative interpretation, and classroom practice observation. The findings demonstrate that gender stereotypes in students' perception are reinforced through text selection, question-and-task design, and assessment criteria. As a scientific novelty, the study proposes a balanced approach based on the unity of text, methodology, and reflection.

Key words: *literary education, gender, stereotype, character image, interpretation, reading strategy.*

Kirish. Adabiy ta'limning markazida badiiy matn turadi, biroq matnning "o'zi" o'quvchi ongiga bevosita ko'chmaydi: u tanlov, tartib, savol, izoh va baholash mezonlari orqali didaktik tizimda qayta tuziladi. Shu jihatdan gender muammosi adabiy ta'limda faqat ijtimoiy tasavvurlar masalasi bo'lib qolmay, balki matnning o'qilishi, qahramonning qadrlanishi va estetik mezonlarning shakllanishi bilan bog'liq epistemik masalaga aylanadi. O'quvchi badiiy asardagi qahramonlar, ularning motivlari, nutqi, qaror qabul qilish modeli hamda muallif pozitsiyasini o'z hayotiy tajribasi bilan qiyoslar ekan, genderga oid tasavvurlar ko'pincha "tabiiy" va "o'z-o'zidan ravshan" ko'rinishida mustahkamlanadi.

Gender muammosi shu kompetensiyalar bilan tutashgan nuqtada, ayniqsa, seziladi: qaysi qahramon "namuna", qaysi xatti-harakat "ma'qullanadigan", qaysi his-tuyg'u "zaiflik" sifatida talqin qilinishi o'quvchi uchun kutilmagan darajada normativ ahamiyat kasb etadi. Mavjud ilmiy adabiyotlarda

gender va ta'lim masalasi keng yoritilgan bo'lsa-da, adabiy ta'limning ichki didaktik mexanizmlari, ya'ni matn tanlovi, metodik apparat, talqin yo'nalishi va baholash mezonlarining birgalikda stereotiplarni qay darajada ishlab chiqarishi hamda buning oldini olishning didaktik modeli yetarlicha tizimli ko'rsatilmagan. Shuningdek, adabiy asarni tahlil qilish jarayonida estetik mezonlar bilan ijtimoiy mazmun o'rtasidagi muvozanatni saqlash, ya'ni badiiylarni "tarbiyaviy shior"ga almashtirmasdan turib tanqidiy refleksiyani yo'lga qo'yish masalasi ham metodik jihatdan bo'shliq bo'lib qolmoqda [1; 6].

Asosiy qism. Xalqaro tadqiqotlarda ta'lim materiallarining gender nuqtayi nazaridan tahlili darsliklarda yashirin ijtimoiy stereotiplar mavjud bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Masalan, Sandra Bem tomonidan ishlab chiqilgan gender sxemasi nazariyasiga ko'ra, bolalar jamiyatdagi erkak va ayol rollari haqidagi tasavvurlarni ko'pincha ta'lim materiallari orqali o'zlashtiradi. U o'zining "The Lenses

of Gender” asarida ta’lim va madaniy matnlarda aks etadigan stereotipik tasvirlar yoshlarning ijtimoiy qarashlariga sezilarli ta’sir ko’rsatishini ta’kidlaydi. Xuddi shuningdek, UNESCO tomonidan darsliklarni gender nuqtai nazaridan tahlil qilish bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar ham o’quv materiallarida erkak va ayol obrazlari ko’pincha an’anaviy rollar bilan cheklanib qolishini ko’rsatgan.

Biroq adabiy ta’lim o’ziga xos xususiyatga ega bo’lib, u bevosita ijtimoiy rolni “o’rgatmaydi”, balki badiiy obrazlar, konfliktlar va xarakterlar orqali insoniy tajribani modellashtiradi. Masalan, o’zbek adabiyotidagi “O’tkan kunlar” romanida Abdulla Qodiriy Kumush obrazini nafaqat an’anaviy ayol timsoli sifatida, balki ichki kechinmalari, sadoqati va ijtimoiy muhit bilan kurashuvchi shaxs sifatida tasvirlaydi. Agar bu asar faqat tarbiyaviy xulosa chiqarish maqsadida o’qilsa, Kumush obrazi “ideal ayol” stereotipiga qisqartirilishi mumkin. Holbuki, estetik tahlil orqali qaralganda, qahramonning ichki monologlari, muallifning badiiy strategiyasi va tarixiy sharoit ayol taqdiri masalasini murakkab ijtimoiy hodisa sifatida ochib beradi.

Shunga o’xshash holatni Cho’lponning “Kecha va kunduz” romanida ham ko’rish mumkin. Asardagi Zebi obrazi jamiyatdagi an’anaviy qarashlar bilan shaxsiy erkinlik o’rtasidagi ziddiyatni ifodalaydi. Uning g’azallarida ayol obrazining ichki ruhiy dunyosi ochib berilishi o’quvchini nafaqat axloqiy xulosa chiqarishga, balki badiiy tafakkur orqali insoniy tajribani anglashga undaydi. Adabiy ta’lim metodikasida ham bunday muvozanat zarurligi ko’plab tadqiqotlarda qayd etilgan. Masalan, Louise Rosenblattning o’quvchi-javob nazariyasiga ko’ra, badiiy matnni tushunish jarayoni o’quvchining shaxsiy tajribasi bilan matn o’rtasidagi faol dialog

orqali yuz beradi. Shu sababli adabiyot darsida o’quvchini tayyor xulosaga olib kelishdan ko’ra, matn ustida dalillarga asoslangan muhokama tashkil etish muhimdir.

Shu nuqtayi nazardan, adabiyot darsida gender muammosini hal etish “muvozanatli talqin”ni talab qiladi: badiiylilikni yo’qotmasdan, matnning ijtimoiy konnotatsiyalarini ko’rish va ularni dalil bilan muhokama qilish. Biz taklif etayotgan model ana shu muvozanatni didaktik uchlik orqali ta’minlaydi: estetik tahlil, reflektiv savol va mezonli baholash. Bu uchlik o’quvchini nafaqat “nima to’g’ri” degan tez hukmga, balki “matn qanday ishlaydi” degan adabiy tafakkurga olib keladi.

Xulosa. O’zbek adabiy ta’limi kontekstida badiiy matn ko’pincha tarbiyaviy resurs sifatida ko’riladi va bu, o’z-o’zidan, salbiy holat emas. Muammo tarbiyaviylik estetik tahlilni bosib ketganda paydo bo’ladi. Tahlil shuni ko’rsatadiki, qahramonning ichki kechinmalari, tarixiy-madaniy sharoit va muallifning badiiy strategiyasi e’tibordan chetda qolsa, o’quvchi xulosa chiqarishda tayyor me’yorlarga tayanadi. Aynan shu jarayonda gender stereotiplari mustahkamlanishi mumkin, chunki tarbiyaviy talqin ko’pincha ijtimoiy rolga doir kutilmalar bilan bog’lanadi. Natijalarni adabiyotshunoslikdagi talqin nazariyalari bilan qiyoslaganda, o’quvchi talqini har doim kontekstga bog’liq ekani, matnning esa turli o’qish strategiyalarini ko’tara olishi haqidagi qarashlar tasdiqlanadi [3; 7]. Adabiy ta’limda buni darsning tashkiliy shakllari belgilaydi: agar muhokama monologik bo’lsa, “to’g’ri talqin” yagona bo’lib qoladi; dialogik bo’lsa, talqinlar raqobatlashadi va dalil talab qiladi. Shunday ekan, gender muammosini didaktik muammo sifatida ko’rish, uni sinf kommunikatsiyasi madaniyati bilan bog’lash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo’ldoshev Q. Adabiyot o’qitish metodikasi. – Toshkent: O’qituvchi, 2016. 240-b.
2. Коровина В. Я. Методика преподавания литературы. – Москва: Академия. 2012. 384 с.
3. Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. – Oxford: Blackwell Publishing. 2008. 256 p.
4. Noddings N. Educating for Intelligent Belief or Unbelief. – New York: Teachers College Press. 1993. 192 p.
5. Bem S. L. The Lenses of Gender: Transforming the Debate on Sexual Inequality. – New Haven: Yale University Press. 1993. 256 p.
6. Jackson P. W. Life in Classrooms. – New York: Holt, Rinehart and Winston. 1968. 186 p.
7. Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. – Москва: Художественная литература. 1975. 504 с.
8. Sunderland J. Gendered Discourses. – London: Palgrave Macmillan. 2004. 216 p.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISH USULLARI

Annotatsiya: nutq – insonning eng oliy va murakkab ruhiy vazifalaridan biridir. Yozma nutq, ya'ni xat yozish va o'qish ichki nutq bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bola aqliy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan hisoblanadi. Nutq insonning eng oliy va murakkab ruhiy vazifalaridan biri bo'lib, shaxsning to'liq rivojlanishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma savodxonligini matn ustida tizimli ishlash orqali rivojlantirishning nazariy, metodik va amaliy jihatlarini yoritiladi.

Kalit so'zlar: yozma savodxonlik, matn tahlili, boshlang'ich ta'lim, nutq rivoji, metodik model, pedagogik tajriba.

Аннотация: речь – одна из высших и сложнейших психических функций человека. Письменная речь, то есть письмо и чтение, тесно связана с внутренней речью и считается одним из основных показателей умственного развития ребенка. Речь – одна из высших и сложнейших психических функций человека, обеспечивающая полноценное развитие личности. В данной статье освещаются теоретические, методические и практические аспекты развития письменной грамотности учащихся начальных классов посредством систематической работы с текстом.

Ключевые слова: письменная грамотность, анализ текста, начальное образование, развитие речи, методическая модель, педагогический опыт.

Annotation: speech is one of the highest and most complex mental functions of a person. Written speech, that is, writing and reading, is closely related to inner speech and is one of the main indicators of a child's mental development. Speech is one of the highest and most complex mental functions of a person, ensuring the full development of the individual. This article highlights the theoretical, methodological, and practical aspects of developing the written literacy of primary school students through systematic work with texts.

Key words: written literacy, text analysis, primary education, speech development, methodological model, pedagogical experience.

Kirish. Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning savodxonlik kompetensiyalarini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, yozma savodxonlikni rivojlantirish nafaqat til qoidalarini egallash, balki fikrni mantiqiy, izchil va ifodali bayon etish ko'nikmalarini shakllantirishni ham talab qiladi. Zamonaviy ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa yozma nutqni rivojlantirish jarayonini matn asosida, faol va ijodiy yondashuv bilan tashkil etishni taqozo etadi. Badiiy matn ustida ishlash o'quvchilarda: *tahliliy fikrlash, lug'at boyligi, mantiqiy bog'lanishlarni anglash, mustaqil yozish ko'nikmalarini rivojlantiradi.*

“Ma'lumki, o'rta ta'lim maktablari uchun qo'yilgan davlat ta'lim standartlarida yozma savodxonlikni o'stirish eng asosiy muammolardan hisoblanadi. Yozma savodxonlik o'quvchi kelajakda qaysi sohani tanlashidan, qaysi ijtimoiy mavqeda bo'lishidan qat'i nazar doimiy amalda qo'llanadigan va nuqsonlari tez ko'rinadigan kompetensiyalardan biridir” [1.1159]. O'quvchilar nutqini takomillashtirishda o'qituvchining o'rni beqiyos. Malakali o'qituvchi to'g'ri metodik yondashuv orqali har

bir o'quvchida yozma nutq ko'nikmalarini shakllantiradi. Husnixat – bolaning yozma savodxonligini shakllantirishda birinchi va eng muhim qadam. Kichik yoshdagi o'quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o'rgatish alohida metodikani talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Nutq va matn ustida, xususan o'zbek tilshunosligida nutq madaniyati va matn tahlili bilan shug'ullangan olimlar qatoriga Otajon Hoshim, T.N. Qori Niyoziy, S. Ibrohimov, Olim Usmon kabilarni kiritish mumkin. Shuningdek, matn ustida ishlash metodikasi va darsliklar tuzilishi ustida G'.Hamroyev kabi metodist olimlar faoliyat olib borishgan. Nutq va tafakkur o'zaro bog'liqligi masalasi Lev Vigotskiy tomonidan asoslab berilgan. U yozma nutqni ongli, rejalashtirilgan nutq shakli sifatida talqin qiladi. Jean Piaget esa boshlang'ich yoshdagi bolalar konkret operatsiyalar bosqichida bo'lishini ta'kidlab, ular uchun vizual va matnli materiallar muhimligini ko'rsatadi.

Nutq va matn ustida ishlash, nutq o'stirish metodikasi va tilshunoslik sohasida o'zbek olimlaridan Sh. Sariyev boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash va nutq o'stirish metodikasi bo'yicha tadqiqotlar olib borgan.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda yozma savodxonlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat deb qaraladi: *imlo to'g'riligi, grammatik aniqlik, semantik yaxlitlik, mantiqiy izchillik,*

uslubiy moslik.

Natija. Ma'lumki, nutqda insonning fikrlari bilan birgalikda his-tuyg'ulari ham ifodalanadi. Boshlang'ich sinflarning "O'qish kitobi" darsliklarida keltirilgan badiiy matn namunalari o'rganish orqali o'quvchilar ushbu jihatni ham o'zlashtiradilar. Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasviriy imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko'ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik zavq berish, ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi [2.88]. Shunday ekan, badiiy matn ustida ishlashda nutq o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. O'qish bo'yicha metodik qo'llanmalarda tavsiya qilingan nutq namunalari tahlili butun tayyorgarlik ishi (suhbat va o'qituvchi hikoyasi) uchun optimal vaqt 3 daqiqadan oshmasligini ko'rsatadi. Suhbatda beriladigan savollarning miqdori o'rtacha 4-5 ta bo'lishi ijobiy samara beradi.

Matnni o'qishga tayyorgarlik jarayonida o'qituvchi topshirig'i qat'iy belgilanadi: "qarang", "diqqat bilan eshiting". Bular yordamida matnni idrok etish bilan bog'liq to'xtam, urg'u, o'qish sur'ati va ohangga e'tibor qaratish yuzasidan ko'rsatma beriladi. Bunday tayyorgarlik ishi ko'p vaqt talab qilmaydi. O'quvchilarni matnni idrok etishga tayyorlash uchun o'qituvchi suhbat hajmi, maqsadi, mazmunini hamda og'zaki beriladigan qo'shimcha ma'lumotlarning zaruriy hajmini aniqlab olishi lozim. Suhbat va hikoyaning o'rinli hamda maqsadga muvofiqligi, savollar miqdori, ularning mazmuni va qo'yilish mantig'i, hikoya hajmi o'qituvchining diqqat markazida bo'lishi kerak. Odatda, o'quvchilarning hayotiy tajribasiga yaqin mavzularni o'qishda ko'pincha suhbatga zarurat sezilmaydi. Biroq o'qituvchining o'quvchilarni mavzuga yo'naltiruvchi kirish so'zi, albatta, zarur. Busiz o'quvchilarning asarni to'laqonli idrok qilishlariga erishish mushkul.

Tarixiy mavzuga oid hikoyalarni o'qish oldidan o'qituvchi o'quvchilarning Vatan tarixi va uning shonli o'tmishidagi buyuk siymolar haqidagi bilimlarini aniqlaydi. She'riy matnlarni o'qishdan oldingi tayyorgarlik ishlari ancha murakkab. Lirik asarlarni yaxlit idrok etish vazifasi shoir ruhiyatiga hamohang kayfiyat yaratish, o'quvchilarning shoir bilan birga quvonish, hayratlanish, qayg'urish tuyg'usiga turtki berishdir. Bunda o'qituvchining kirish so'zi

qisqa, maqsadga yo'naltirilgan hamda shoir dunyosiga kirishga ko'maklashadigan bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'qituvchining kirish so'zi matnni o'qish oldidan tayyorgarlikning yetakchi bo'g'inlaridan biri bo'lib, ma'naviy-axloqiy tarbiya samaradorligi ko'p jihatdan uning to'g'ri uyushtirilishiga bog'liqdir. Matnni o'qish va uni tahlil qilish. O'quvchilar matnni o'qish jarayonida uning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, asarda aks etgan voqealar bilan tanishadilar. Bunda asarning janr xususiyatlaridan kelib chiqib, matnni ifodali, sharhlab va rollarga bo'lib o'qitish mumkin. Badiiy matnni o'qish muallif tasvirlagan manzaralarni aniq tasavvur etishga, asar qahramonlarining xatti-harakatlaridan tegishli xulosalar chiqarishga yordam beradi. O'qish darslarida matn ustida ishlash jarayonida asosiy e'tibor uning mazmuniga qaratilsa-da, tuzilishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Jumladan, voqea kechayotgan sharoit, peyzaj, asar qahramonlarining kechmishlari, ruhiyati tasvirida o'tgan, hozirgi yoki kelasi zamon shakllaridan foydalanilishini anglagan o'quvchi matn mazmunini og'zaki hikoyalashda adashmaydi. O'quvchilar diqqatini matndagi bir mazmundagi hodisalar tasvirida (peyzaj, adabiy qahramonning ruhiy holati, portreti) fe'l-kesimlar, odatda, bitta zamon shaklida bo'lishiga qaratish ularning nafaqat o'qish va yozuv, balki matn mazmunini idrok etish va fikrlash bilan bog'liq ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi. Matnlarda jumalalararo aloqa alohida e'tiborga molik. Odatda, matnning aynan bir shaxs yoki bitta voqea-hodisa haqida gap boradigan qismi o'zaro aloqada bo'lib, xatboshidan boshlanadi. Darslarda o'quvchilarga matn qismlarini o'qish yoki ko'chirib yozishni topshirish ularning diqqatini ma'lum bir maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi.

Matndagi gaplar o'rtasida kommunikatsiya vazifalari bilan belgilangan munosabatlar, ya'ni mazmuniy aloqa mavjud. Bu aloqa uni ifoda etuvchi leksik-grammatik vositalar orqali o'z aksini topadi. Har qanday so'zlarni gapga birlashtirib bo'lmagani kabi har qanday gaplarni ham bitta bog'lanishli matnga birlashtirib bo'lmaydi. Masalan, "Bolalar dam olishga ketishdi", "Gullar ochildi", "Atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi" kabi gaplarni bir matnga birlashtirib bo'lmaydi. Ular turli mazmunga ega bo'lgani bois biror bir munosabatga ko'ra ham birlasha olmaydi. Umumlashtirish va xulosalar chiqarish. Bu kabi ish turlari matn mazmuni yuzasidan umumiy xulosalar chiqarish orqali unda aks ettirilgan masalalarni chuqur idrok etishga, mavzuning ochilmay qolgan qirralari haqida mulohaza yuritishga, o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmalarini hosil qilishga qaratiladi. Matn ustida ishlash

jarayonida asar voqealari yuzasidan og'zaki tasvirlash, qiyoslab hikoyalar tuzish, adabiy qahramonlarning xatti-harakatlari, fe'l-atvorlarini tavsiflash nutq o'stirishning muhim vositasi sanaladi. Bu jarayonda o'quvchilarda matnda ifodalangan jarayon, hodisa, shaxs yoki uning xatti-harakatiga nisbatan munosabat shakllanadi. Yaxshining nima uchun yaxshiligini, yomonning nima uchun yomonligini, asar qahramonlarining qilgan ishlarining to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlash boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida matn tahlilining asosiy vazifasidir. Matnni qayta tasvirlash matn ustida ishlashda katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Qayta tasvirlashdan to'g'ri foydalanish esa asarda yozuvchi tasvirlayotgan hayotiy manzaralarni o'quvchilarning aniq tasavvur qilishlari uchun qulay sharoit yaratadi. Metodika fanida matnning ikki xil yo'l bilan qayta tasvirlanishi qayd qilinadi. Bular: a) so'z bilan tasvirlash; b) grafik tasvirlash [3]. So'z bilan tasvirlash o'ziga xos murakkab ish turi bo'lib, bunda asarda tasvirlangan voqea, qahramon yoki manzarani so'z yordamida aniq qayta tiklash ko'zda tutiladi. Bunday tasvirlash o'quvchilar nutqini rivojlantirishning muhim vositalaridan biri sifatida so'zlarni to'g'ri tanlash va talaffuz qilishni talab etadi. Badiiy matnlar asosida mashq va diktantlarni olib borish muhim ahamiyatga ega. Mashqlarning yozma savodxonlikdagi o'rni shundan iboratki, mashqlar o'quvchilarni imlo va grammatik qoidalar bilan ongli foydalanishga o'rgatadi. Mashqlar quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi.

1. Imlo va grammatik bilimlarni mustahkamlash.
2. So'zning tovush-harf tarkibini anglashni rivojlantirish.
3. Gap tuzish va matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish.
4. Xatolar ustida ishlash malakasini rivojlantirish.

Boshlang'ich sinflarda qo'llaniladigan mashq turlariga: *ko'chirish mashqlari, bo'sh o'rinli mashqlar, taqqoslash mashqlari, lug'at mashqlari, ijodiy mashqlar, matn asosida ishlash mashqlari* kiradi. Har bir mashq turining o'z vazifasi bo'lib, ular kompleks qo'llanganda yozma savodxonlikning barcha komponentlari rivojlanadi. Diktant turlaridan tayyorgarlik diktanti, izohli diktant, ko'rsatmali diktant, tekshirish diktanti va ijodiy diktant – o'quvchining imloviy hushyorligini oshirishda samarali nazorat vositasi hisoblanadi. “Diktant – orfografik va punktuatsion xatolarni nazorat qilishning asosiy shakllaridan biridir” [4.1660].

Diktantning nazariy ahamiyati shundaki, u tinglab idrok etish, nutqni tahlil qilish va yozma ifoda qilish jarayonlarini birlashtiradi. Diktantlarning muntazamligi o'quvchining xatolarini kamaytiradi, matnni ongli idrok qilishga o'rgatadi va imloviy malakaning avtomatlashishiga xizmat qiladi. Diktant turlarining maqsadi, xususan, tayyorgarlik diktanti matnni diqqat bilan tinglashga o'rgatishdan, izohli diktant qoidalarini mazmun bilan bog'lashdan, tekshirish diktanti imloviy bilim darajasini nazorat qilishdan, ijodiy diktant mustaqil fikrni yozma ravishda ifodalashdan iboratdir.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan matn ustida ishlash yozma savodxonlikni rivojlantirishning samarali vositasidir. Boshlang'ich sinfda badiiy matn ustida ishlash o'quvchilarning tafakkurini, estetik didini, ifodali nutqini va yozma savodxonligini oshirishda, rivojlantirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Bu yo'nalishda o'qituvchidan puxta tayyorgarlik, zamonaviy metodik yondashuvlardan oqilona foydalanish va o'quvchilar bilan interaktiv muloqot olib borish talab etiladi. Tadqiqot natijalari matn asosida tashkil etilgan bosqichli metodika o'quvchilarning imlo, grammatik va mantiqiy savodxonligini sezilarli darajada oshirishini isbotladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nursulton Shayxislamov. O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yozma ishlarning o'rni. SCIENTIFIC PROGRESS. – Toshkent, 2021. 1659-b.
2. Gulomov A. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018. 215-b.
3. Mahmudov N. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2021. 187-b.
4. Nursulton Shayxislamov. O'quvchilarning yozma savodxonligini oshirishda yozma ishlarning o'rni. SCIENTIFIC PROGRESS. – Toshkent, 2021. 1660-b.
5. Yusupova Sh. Savod o'rgatish metodikasi. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. 163-b. Journal of iqro – журнал иқро – iqro jurnali www.wordlyknowledge.uz
6. Ismatov Sobir Raximqulovich. Boshlang'ich sinflarda matn ustida ishlash orqali nutqni o'stirish metodik muammo sifatida. ISSN 2992-9024 (online) 2024, №6

Дильфуза ХУДАЙБЕРДИЕВА,
 (Phd), доцент кафедры русской филологии
 Самаркандского государственного института иностранных языков

СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В АСПЕКТЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

Аннотация: в статье рассматривается роль современных образовательных технологий в реализации личностно-ориентированного подхода при обучении русскому языку. Особое внимание уделяется таким технологиям, как проектное обучение, интерактивные методы, дифференцированное обучение и использование цифровых образовательных ресурсов. Цель исследования — определить педагогический потенциал современных технологий в развитии языковой личности и коммуникативной компетенции учащихся.

Ключевые слова: языковая личность, педагогические инновации, цифровое обучение, мотивация обучения, интерактивные методы, проектное обучение.

Annotation: this article examines the role of modern educational technologies in implementing a personality-oriented approach to teaching Russian. Particular attention is given to technologies such as project-based learning, interactive methods, differentiated instruction, and the use of digital educational resources. The purpose of the study is to determine the pedagogical potential of modern technologies in developing students' linguistic personality and communicative competence.

Key words: linguistic personality, pedagogical innovations, digital learning, learning motivation, interactive methods, project-based learning.

Annotatsiya: ushbu maqolada rus tilini o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining roli ko'rib chiqiladi. Maxsus e'tibor loyihaviy ta'lim, interaktiv metodlar, differensiallashtirilgan ta'lim va raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishga qaratiladi. Tadqiqotning maqsadi zamonaviy texnologiyalarning o'quvchilarning til shaxsini va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishdagi pedagogik salohiyatini aniqlashdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish o'quvchilarning motivatsiyasini oshirishga, mustaqillik, tanqidiy fikrlash va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: shaxs tili, pedagogik innovatsiyalar, raqamli ta'lim, o'qishga motivatsiya, interaktiv metodlar, loyihaviy ta'lim.

Введение. Современное образование ориентировано на формирование всесторонне развитой личности, способной к самостоятельному мышлению, эффективному общению и активному участию в социальной жизни [1]. В этой связи особую значимость приобретает личностно-ориентированный подход, который предполагает учет индивидуальных особенностей учащихся, их интересов, потребностей и образовательных возможностей. В рамках данного подхода обучение рассматривается не только как процесс передачи знаний, но и как средство развития личности обучающихся [2].

Актуальность исследования обусловлена необходимостью совершенствования методов обучения русскому языку в условиях современной образовательной среды [3]. Целью данной работы является анализ роли современных образовательных технологий в реализации личностно-ориентированного подхода при обучении русскому языку.

Методы исследования. Для достижения поставленной цели в исследовании были использованы методы теоретического анализа и обобщения научной литературы, посвященной современным образовательным технологиям и

личностно-ориентированному обучению русскому языку.

Основным методом исследования стал **анализ научных публикаций и педагогических исследований**, в которых рассматриваются различные аспекты внедрения современных технологий в процесс обучения языку. Особое внимание уделялось работам, посвященным интерактивным методам обучения, проектной деятельности, дифференцированному обучению и использованию цифровых образовательных ресурсов [4].

Также использовался **метод систематизации педагогического опыта**, описанного в научных источниках. Были проанализированы различные формы учебной деятельности, включая групповые обсуждения, проектные задания, ролевые игры и использование мультимедийных материалов, которые способствуют активизации учебной деятельности и развитию личностных качеств обучающихся [5].

Результаты исследования. Анализ научных исследований показал, что современные образовательные технологии играют важную роль в реализации личностно-ориентированного подхода в обучении русскому языку. Их применение способствует

активизации учебной деятельности учащихся, развитию их самостоятельности и формированию коммуникативных навыков.

Проектная технология обучения

Проектное обучение является одной из наиболее эффективных технологий личностно-ориентированного образования [6]. В рамках проектной деятельности учащиеся самостоятельно исследуют определенную тему, собирают информацию, анализируют данные и представляют результаты своей работы. Такая форма обучения способствует развитию исследовательских навыков, творческого мышления и ответственности за результаты собственной деятельности.

Интерактивные методы обучения

Интерактивные методы, такие как дискуссии, дебаты, ролевые игры и работа в малых группах, позволяют учащимся активно участвовать в образовательном процессе. В ходе таких занятий учащиеся учатся выражать собственное мнение, аргументировать свою позицию и уважительно относиться к мнению других участников общения [7]. Это способствует развитию коммуникативной компетенции и формированию культуры речевого взаимодействия.

Использование цифровых образовательных технологий

Современные цифровые ресурсы и образовательные платформы открывают новые возможности для персонализации обучения [8]. Использование мультимедийных материалов, онлайн-платформ и интерактивных заданий способствует повышению интереса учащихся к изучению русского языка и позволяет учитывать индивидуальный темп обучения.

Обсуждение. Полученные результаты подтверждают, что внедрение современных образовательных технологий значительно рас-

ширяет возможности реализации личностно-ориентированного подхода в обучении русскому языку. Эти технологии создают условия для активного включения учащихся в учебный процесс и способствуют развитию их личностных качеств.

Особое значение имеет использование интерактивных форм обучения, которые превращают урок в пространство активного общения и сотрудничества. В таких условиях учащиеся не только осваивают языковые знания, но и развивают навыки коммуникации, критического мышления и коллективного взаимодействия.

Однако эффективное применение современных образовательных технологий требует высокой методической подготовки преподавателя. Учитель должен уметь организовывать учебный процесс таким образом, чтобы технологии служили не самоцелью, а средством достижения образовательных и воспитательных целей.

Заключение. Таким образом, современные образовательные технологии являются важным инструментом реализации личностно-ориентированного подхода в обучении русскому языку. Их использование способствует развитию коммуникативной компетенции, формированию языковой личности и повышению учебной мотивации учащихся.

Интерактивные методы, проектное обучение, дифференцированное обучение и цифровые образовательные ресурсы создают условия для активного участия обучающихся в образовательном процессе и способствуют развитию их самостоятельности и творческого потенциала.

Следовательно, интеграция современных образовательных технологий в процесс обучения русскому языку позволяет повысить эффективность обучения и обеспечить гармоничное развитие личности учащихся.

Использованная литература:

1. Ismailov A. R. The problem of the formation of pedagogical culture in modern methodics of teaching foreign languages //Актуальные научные исследования в современном мире. – 2021. – №. 4-8. – С. 46-49.
2. Ismailov, A. R. "Pragmatics of phraseology and its textual actualization (based on occasional transformations of phraseological units of the English language). Author's abstract. Diss. Cand. philol.» Sciences.-Tashkent (2006): 28.
3. Komilova, M. K., & Erkin o'gli, M. U. (2025). ONLAYN TA'LIMNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI. *INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION*, 3(31), 6-8.
4. Komilova, M. Q. (2025). RAQAMLI MARKETINGNING ZAMONAVIY BIZNESDAGI O'RNI. *INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION*, 3(31), 9-11.
5. Komilova, M. Q. (2025). RAQAMLI MARKETINGNING ZAMONAVIY BIZNESDAGI O'RNI. *INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION*, 3(31), 9-11.
6. Mukhtarovna, K. D. (2023). Modern Approaches to Teaching A Foreign Language Based On The Use Of Multimedia Programs. *Conferencea*, 13-17.
7. Qobiljonova, K. M. (2025). BLOKCHEYN TEXNOLOGIYASI VA UNDAN FOYDALANISH YO'LLARI. *TADQIQOTLAR*, 76(4), 137-144.
8. Qobiljonovna, K. M., & Alibek, M. (2025). MARKETING: MAZMUNI, AHAMIYATI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR. *Научный Фокус*, 3(31), 465-467.

Sitora NORMURODOVA,

PHD researcher

Gulistan state pedagogical institute

normurodovas853@gmail.com

LINGUISTIC MECHANISMS OF LEXICAL INNOVATION IN SOCIAL MEDIA COMMUNICATION

Annotation: the rapid development of digital communication platforms has significantly influenced contemporary language use and lexical innovation. This study investigates lexical creativity in Instagram discourse, focusing on the word-formation mechanisms and communicative functions of emerging lexical units. Using a qualitative linguistic approach within the framework of digital discourse analysis, the study analyzes lexical items collected from Instagram posts, captions, hashtags, and user comments representing different communicative domains, including educational content, lifestyle communication, advertising discourse, and global awareness posts.

Key words: *social media lexicon, lexical innovation, Instagram discourse, word formation, digital communication, online language, social media linguistics.*

Аннотация: быстрое развитие цифровых коммуникационных платформ оказало значительное влияние на современное использование языка и лексические инновации. В данном исследовании изучается лексическая креативность в дискурсе Instagram, с акцентом на механизмах словообразования и коммуникативных функциях возникающих лексических единиц. Используя качественный лингвистический подход в рамках анализа цифрового дискурса, исследование анализирует лексические элементы, собранные из постов, подписей, хэштегов и комментариев пользователей в Instagram, представляющих различные коммуникативные области, включая образовательный контент, коммуникацию в сфере образа жизни, рекламный дискурс и посты, посвященные глобальной осведомленности.

Ключевые слова: *лексика социальных сетей, лексические инновации, дискурс Instagram, словообразование, цифровая коммуникация, онлайн-язык, лингвистика социальных сетей.*

Annotatsiya: raqamli aloqa platformalarining jadal rivojlanishi zamonaviy tildan foydalanish va leksik innovatsiyalarga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu tadqiqot Instagram nutqidagi leksik ijodkorlikni o'rganadi, so'z yasash mexanizmlari va paydo bo'layotgan leksik birliklarning kommunikativ funksiyalariga e'tibor qaratadi. Raqamli nutq tahlili doirasida sifatli lingvistik yondashuvdan foydalangan holda, tadqiqot Instagram postlari, sarlavhalari, xeshteglari va foydalanuvchi sharhlaridan to'plangan leksik elementlarni, jumladan, ta'lim mazmuni, turmush tarzi muloqoti, reklama nutqi va global xabardorlik postlarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy media leksikoni, leksik innovatsiya, Instagram nutqi, so'z yasash, raqamli muloqot, onlayn til, ijtimoiy media lingvistikasi.*

Introduction

The rapid expansion of digital communication technologies has profoundly transformed contemporary language use. Among the most influential environments of linguistic change are social media platforms, which function not only as communication tools but also as dynamic spaces for lexical innovation. In particular, English-language discourse on social media has become a productive environment for the emergence and rapid diffusion of new lexical units that reflect evolving communicative practices and social interactions. Scholars increasingly emphasize that digital platforms provide a unique linguistic ecosystem where new vocabulary, expressions, and word-formation patterns can emerge and spread within global communication networks (Crystal, 2011).

Unlike traditional written discourse, social media communication is characterized by immediacy, interactivity, and multimodal expression. These features encourage linguistic experimentation and the creation of innovative lexical forms

that often combine elements of spoken and written language. According to Barton and Lee (2013), online communication environments blur the boundaries between speech and writing, resulting in hybrid linguistic practices that support creativity and flexibility in language use. As a result, digital discourse has become a major driver of lexical change in contemporary English.

Literature Review

The rapid development of digital communication has significantly influenced the dynamics of lexical innovation in contemporary English. Social media platforms have become one of the most productive environments for the emergence, diffusion, and institutionalization of new lexical units. Researchers increasingly emphasize that online communication provides a unique linguistic laboratory where lexical change can be observed almost in real time (Crystal, 2011).

Recent corpus-based studies highlight the role of large-scale digital data in identifying patterns of lexical innovation. Social media platforms generate massive corpora that allow linguists to

trace how new lexical items emerge within particular communities and gradually spread across wider linguistic networks. For example, research analyzing large datasets of Twitter messages demonstrates that lexical innovations often originate in localized communities and later diffuse through digital interaction and online networks (Grieve et al., 2018). Such findings illustrate the significant role of social media in accelerating the geographical and social spread of new lexical units.

Another important direction in digital linguistics concerns the mechanisms of word formation in online discourse. Scholars note that social media communication encourages the use of productive word-formation processes such as blending, clipping, acronym formation, and semantic innovation. Among these processes, blending has attracted particular scholarly attention because it represents a hybrid formation mechanism combining elements of compounding and truncation. According to Beliaeva (2019), blends demonstrate both linguistic creativity and structural constraints, as their formation is influenced by phonological compatibility, semantic transparency, and communicative efficiency.

Methodology

This study adopts a qualitative–descriptive linguistic approach combined with elements of discourse analysis to investigate lexical innovation in English-language Instagram communication. The research focuses on identifying and analyzing newly emerging lexical units and word-formation patterns in Instagram discourse. Social media language is characterized by rapid lexical change and creative linguistic experimentation; therefore, qualitative analysis is particularly suitable for examining the structural and functional characteristics of lexical units within their communicative context (Barton & Lee, 2013).

Data Source

The empirical material for this research was collected from public Instagram posts, captions, hashtags, and user comments. Instagram was selected as the primary research platform because it combines visual and textual communication, creating a multimodal discourse environment where language plays an important role in shaping meaning and interaction.

Analytical Methods

The analysis combines several linguistic methods commonly used in digital discourse research. Structural Word-Formation Analysis: structural analysis was used to identify the word-formation mechanisms involved in lexical innovation. Particular attention was given to productive processes such as:

Results

The analysis of Instagram posts, captions, hashtags, and

comment sections revealed a wide range of lexical innovations that reflect the communicative practices of contemporary social media users. The identified lexical units include both newly formed words and existing lexical items that have developed new meanings within digital communication contexts. The collected dataset demonstrates that lexical innovation in Instagram discourse appears across multiple thematic domains, including lifestyle communication, marketing discourse, educational content and global awareness posts. Overall, the results indicate that lexical innovation in Instagram discourse is shaped by both structural linguistic processes and communicative needs of online interaction. The identified lexical units demonstrate how Instagram communication encourages linguistic creativity while simultaneously reinforcing community-specific discourse practices.

Discussion

The findings of this study demonstrate that Instagram functions as an important environment for the emergence and diffusion of lexical innovations. The analysis shows that lexical creativity in Instagram discourse is primarily driven by communicative efficiency, identity construction, and the dynamics of digital interaction. These results support previous research suggesting that online communication platforms play a significant role in accelerating linguistic change and expanding the lexicon of contemporary English (Crystal, 2011; Barton & Lee, 2013). One of the most significant findings of this study is the high frequency of creative word-formation processes, particularly blending, clipping, and compounding. Lexical items such as studygram, bookstagram, and fitspo illustrate how users combine existing lexical elements to produce new forms that convey specific meanings within online communities. Similar patterns have been observed in research on digital word formation, where blending and lexical creativity are identified as productive strategies for generating expressive vocabulary in social media communication (Beliaeva, 2019). These forms allow users to compress complex meanings into compact lexical units, which is particularly advantageous in fast-paced digital environments.

Conclusion

This study investigated lexical innovation in Instagram discourse with particular attention to word-formation mechanisms and communicative functions of emerging lexical units. The analysis demonstrates that Instagram serves as a productive environment for lexical creativity, where new expressions frequently emerge through processes such as blending, clipping, compounding, and semantic extension. These processes allow users to create concise and expressive lexical forms suitable for fast-paced digital communication.

REFERENCE LIST:

1. Ashurova, D. U. (2012). *Matn lingvistikasi*. Toshkent: Fan.
2. Hojiyev, A. (2002). *O'zbek tilshunosligi terminlari izohli lug'ati*. Toshkent: Fan.
3. Rahmatullayev, Sh. (2006). *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. Toshkent: Universitet.
4. Zappavigna, M. (2012). *Discourse of Twitter and social media: How we use language to create affiliation on the web*. Continuum.

Madina BOZOROVA,

Senior Lecturer,

Department of Foreign Languages

Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering

Email: bozorovamadina478@gmail.com

“MICRO-TRANSLATION TASKS AS A METHOD OF DEVELOPING ACADEMIC WRITING SKILLS”

Annotation: this paper examines micro-translation tasks as an effective method for developing academic writing skills in foreign language learners. These short, focused translation activities enhance lexical accuracy, grammatical correctness, coherence, and stylistic awareness. The study highlights their methodological value in foreign language teaching and their role in improving academic literacy in higher education.

Key words: *micro-translation tasks; academic writing skills; foreign language teaching methodology; translation studies; pedagogy; higher education*

Аннотация: в данной работе рассматриваются микропереводческие задания как эффективный метод развития академических навыков письма у изучающих иностранный язык. Эти короткие, целенаправленные переводческие упражнения способствуют улучшению лексической точности, грамматической правильности, связности текста и стилистической осведомлённости. Исследование подчёркивает их методологическую ценность в преподавании иностранных языков и их роль в повышении академической грамотности студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова: *микропереводческие задания; навыки академического письма; методика преподавания иностранных языков; переводоведение; педагогика; высшее образование*

Annotatsiya: ushbu ish mikro-tarjima vazifalarini chet tilini o'rganayotgan talabalar uchun akademik yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usuli sifatida tahlil qiladi. Ushbu qisqa va maqsadga yo'naltirilgan tarjima mashqlari leksik aniqlik, grammatik to'g'rilik, matnning izchilligi va stilistik ongni oshirishga yordam beradi. Tadqiqot ularning chet tillarni o'qitishdagi metodologik ahamiyatini va oliy ta'limda akademik savodxonlikni rivojlantirishdagi rolini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: *mikro-tarjima vazifalari; akademik yozuv ko'nikmalari; chet tili o'qitish metodikasi; tarjimashunoslik; pedagogika; oliy ta'lim*

Introduction

In recent decades, the role of academic writing in foreign language education has expanded significantly due to the globalization of science, education, and professional communication. English and other major foreign languages have become the primary means of disseminating scientific knowledge, publishing research findings, and participating in international academic communities. As a result, higher education institutions increasingly require students to demonstrate a high level of academic writing competence in a foreign language. Academic writing today is not limited to grammatical correctness; it encompasses clarity of argumentation, logical organization, and appropriate use of academic vocabulary, genre awareness, and adherence to disciplinary conventions (Hyland, 2004; Swales, 1990).

Despite its importance, academic writing remains one of the most challenging skills for foreign language learners. Numerous studies report persistent difficulties related to lexical choice, syntactic complexity, coherence, cohesion, and stylistic appropriateness in students' academic texts (Tribble, 1996; Harmer, 2015). These challenges are

particularly evident among learners whose educational background emphasizes communicative fluency over formal written accuracy. Consequently, traditional approaches to teaching academic writing often fail to fully address learners' needs, prompting educators to explore alternative and complementary instructional methods.

Within this context, translation has regained scholarly attention as a pedagogically valuable practice in foreign language education. Earlier communicative methodologies tended to marginalize translation, viewing it as an obstacle to natural language acquisition. However, contemporary research challenges this assumption and highlights translation as a cognitively rich activity that enhances linguistic awareness, contrastive analysis, and deep processing of language forms (Cook, 2010). Translation allows learners to consciously reflect on linguistic structures, meaning construction, and stylistic differences between languages, which are crucial components of academic writing competence.

A particularly promising development within translation-based pedagogy is the use of micro-translation

tasks. Micro-translation tasks refer to short, focused translation activities that involve minimal textual units such as sentences, clauses, terminological phrases, or brief academic excerpts. Unlike full-text translation, micro-translation tasks are designed to target specific linguistic, rhetorical, or stylistic features. Their limited scope reduces cognitive overload while enabling learners to concentrate on accuracy, precision, and academic register (Leonardi, 2011).

From a methodological perspective, micro-translation tasks align closely with modern principles of foreign language teaching methodology. These tasks support scaffolding by gradually increasing linguistic complexity and guiding learners toward independent text production. They also function effectively as formative assessment tools, allowing instructors to diagnose recurring errors and provide targeted feedback. Furthermore, micro-translation tasks encourage learner autonomy and reflective thinking, as students must justify their lexical and syntactic choices in academic contexts (Larsen-Freeman, 2003).

In the field of philology, micro-translation tasks contribute to the development of stylistic and discourse competence. Academic texts are characterized by specific rhetorical structures, cohesive devices, and conventions that differ across disciplines and languages. Through micro-translation, learners engage in close textual analysis, observing how academic meanings are encoded and transferred. This process enhances their sensitivity to genre-specific norms and supports the development of academic style in original writing (Hatim & Munday, 2004).

Pedagogically, micro-translation tasks serve as a bridge between translation studies and academic writing instruction. They allow educators to integrate theoretical insights from translation studies—such as equivalence, functional adequacy, and contextual meaning—into practical classroom activities. Research suggests that translation-based instruction, when systematically implemented, improves learners' writing accuracy, coherence, and lexical sophistication without negatively affecting communicative competence (Pym, 2014; Baker, 2018).

Moreover, micro-translation tasks are particularly relevant in higher education settings where students are required to read, attach, analyze, and produce academic texts simultaneously. By translating small segments of scholarly texts, learners gain exposure to authentic academic discourse while actively processing its linguistic and rhetorical features. This dual focus supports the development of academic literacy, defined as the ability to participate effectively in academic communication practices (Hyland, 2004).

Despite their pedagogical potential, micro-translation tasks remain insufficiently explored in empirical research, especially regarding their direct impact on academic writing development. Existing studies tend to examine translation as a general instructional strategy, leaving the micro-level application of translation tasks underrepresented. This gap underscores the need for further investigation into how micro-translation tasks can be systematically integrated into academic writing instruction and foreign language methodology.

References:

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. — London: Routledge, 2018. — 352 p.
2. Cook G. Translation in Language Teaching: An Argument for Reassessment. — Oxford: Oxford University Press, 2010. — 256 p.
3. Harmer J. How to Teach Writing. — Harlow: Pearson Education, 2015. — 320 p.
4. Hatim B., Munday J. Translation: An Advanced Resource Book. — London: Routledge, 2004. — 360 p.
5. Hyland K. Disciplinary Discourses: Social Interactions in Academic Writing. — Ann Arbor: University of Michigan Press, 2004. — 240 p.
6. Larsen-Freeman D. Teaching Language: From Grammar to Grammaticing. — Boston: Heinle & Heinle, 2003. — 320 p.
7. Leonardi V. Pedagogical Translation as a Naturally Occurring Cognitive and Linguistic Activity // *Annali Online di Ferrara – Lettere*. — 2011. — Vol. 6, № 1. — P. 17–28.
8. Nation I. S. P. Learning Vocabulary in Another Language. — Cambridge: Cambridge University Press, 2013. — 456 p.
9. Pym A. Exploring Translation Theories. — London: Routledge, 2014. — 240 p.
10. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. — Cambridge: Cambridge University Press, 2014. — 410 p.
11. Swales J. M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990. — 260 p.



A light pink background with a white plus sign at the top center, a red wavy line at the top right, the text 'TADQIQOTLAR' in bold dark blue in the center, and a white plus sign at the bottom right.

Nilufar AVAZOVA,

BuxDPI o'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi,

BuxDU mustaqil izlanuvchisi.

O'ZBEK SHE'RIYATIDA TO'RTLİK JANRINING MAVZU DOIRASI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek she'riyatida to'rtlik janrining mavzu doirasi va uning rang-barangligi masalasi tahlil qilinadi. To'rtliklarda inson ruhiyati, Vatanga muhabbat, tabiat tasviri, ijtimoiy hayot hamda falsafiy mushohada kabi turli mavzularning badiiy talqini ko'rib chiqiladi. Shuningdek, to'rtlik janrining qisqa hajmda chuqur ma'no ifodalash imkoniyati, undagi poetik obrazlar va g'oyaviy mazmunning o'ziga xos jihatlari ilmiy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot davomida to'rtliklarda mavzular xilma-xilligi orqali shoirning badiiy tafakkuri va hayotiy qarashlari ifodalanishi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *to'rtlik janri, mavzu rang-barangligi, poetik talqin, badiiy obraz, g'oya, falsafiy lirika, Vatan mavzusi, tabiat tasviri, o'zbek she'riyati.*

Аннотация: в данной статье анализируется тематический диапазон и многообразие тем жанра четверостишия в узбекской поэзии. Рассматривается художественная интерпретация различных тем, таких как духовный мир человека, любовь к Родине, изображение природы, социальная жизнь и философские размышления. Также освещаются особенности жанра четверостишия, его способность выражать глубокий смысл в краткой форме, а также своеобразие поэтических образов и идейного содержания. В ходе исследования показано, что тематическое разнообразие четверостиший отражает художественное мышление и жизненные взгляды поэта.

Ключевые слова: *жанр четверостишия, тематическое разнообразие, поэтическая интерпретация, художественный образ, идея, философская лирика, тема Родины, изображение природы, узбекская поэзия.*

Annotation: this article analyzes the thematic scope and diversity of themes in the quatrain genre in Uzbek poetry. It examines the artistic interpretation of various themes such as human spirituality, love for the homeland, depiction of nature, social life, and philosophical reflections. The study also highlights the specific features of the quatrain genre, its ability to convey deep meaning in a concise form, as well as the originality of poetic images and ideological content. The research demonstrates that the thematic diversity of quatrains reflects the poet's artistic thinking and worldview.

Key words: *quatrain genre, thematic diversity, poetic interpretation, artistic image, idea, philosophical lyricism, homeland theme, nature imagery, Uzbek poetry.*

Kirish. Adabiyotshunoslik ilmda mavzu tushunchasi badiiy asarning markaziy kategoriyalaridan biri sifatida qaraladi. Har qanday badiiy matn muayyan voqeani, hayotiy hodisani yoki ijtimoiy muammoni ifodalashga qaratilgan bo'lib, mavzu asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini belgilab beruvchi asosiy hodisa yoki hayotiy voqelikning san'atkorona talqinini tashkil etadi. Yozuvchi ijodining boshlang'ich nuqtasi aynan mavzudan kelib chiqadi, chunki u asarda qaysi voqeani yoritishi, qanday muammolarni ko'rsatishi va qaysi insoniy qadriyatlarni ochib berishini mavzu aniqlab beradi.


Asosiy qism. Adabiyotshunoslikda mavzuga turlicha ta'riflar berilgan. V.G. Belinskiy mavzuni

adibning hayotiy hodisani san'atkorona o'zlashtirishi natijasida yuzaga keladigan mazmuniy maydon deb ta'riflagan, A.A. Potebnya esa uni badiiy asarning tashqi materiali, ya'ni yozuvchining tasvirlash uchun tanlagan hayotiy manbai sifatida izohlagan. Mumtoz Sharq lirikasidagi janrlar nafaqat qofiya tizimi, band va baytlar miqdori, aruzning ma'lum bir vazniy tarmoqlari, shuningdek, mavzulariga ko'ra bir-biridan farqlanar edi. Masalan, g'azalda asosan ishq-muhabbat, ruboiyda falsafiy dunyoqarash, qit'ada esa axloqiy-ma'rifiy qarashlar badiiy tajassum etilgan. "Mavzu – badiiy mazmun komponenti, asarda qo'yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy-axloqiy va h. muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan

va tasvirlangan hayot materiali. Adabiyotshunoslikda mavzu termini ikki ma'noda ishlatiladi: 1) asarda tasvirlanayotgan hayot materiali; 2) asarda badiiy idrok etish uchun qo'yilgan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, falsafiy va boshqa problemalar majmui"[3,157.]

To'rtliklarda sevgi va muhabbat mavzusi ham keng o'rin egallaydi. Shoirlar sevgi tuyg'usini samimiy va sodda misralar orqali tasvirlaydilar. Ba'zan muhabbat shodligi, ba'zan esa hijron va sog'inch holatlari tasvirlanadi. Qisqa shakl sevgi kechinmalarini yanada lo'nda va ta'sirchan ifodalash imkonini beradi. Aytish kerakki, bu dunyoviy muhabbat bo'lib, oshiqning mahbubasiga bo'lgan ehtiromi va ehtirosini tajassum etadi.

*Men nechun sevaman seni, dilbarim,
Erkalab deymanki paripaykarim.*



1) achchig'im; 2) turshagim; 3) shahdim; 4) shakarim.

Ikkinchi raqamdagi turshak matnda o'rik qoqisi ma'nosida qo'llanmagan. Buxoro shevasida tursh nordon degan ma'noni anglatadi. Uchinchi raqamdagi shahd esa asal demakdir. Shoir yuqorida ajratib ko'rsatilgan to'rtta belgini bir misraga jamlash orqali ayolning murakkab psixologik strukturasi tez-tez almashib turuvchi to'rtta xususiyatni ko'rsatgan:

Achchiq – tez jahli chiqishi.

Tursh (ak) – yoridan xafa bo'lganda tund qiyofa kasb etishi.

Shahd – noz va g'amzalari.

Shakar – shirinso'zligi.

Zamonaviy to'rtliklarda jamiyatdagi muammolar, insoniy munosabatlar, adolat, halollik kabi masalalar ham ko'tariladi. Shoirlar qisqa misralar orqali jamiyatdagi kamchiliklarni tanqid qilish yoki ma'naviy qadriyatlarni targ'ib etishga intiladilar. Har bir jamiyatning o'z tashvish va muammolari bo'ladi. Zamonaviy so'z san'atida bunday muammolarni aksar lirik va liro-epik janrlardagi she'riy ijod sahifalarida ko'ramiz. Zamonaviy she'riyatda yaratilayotgan to'rtliklarda ham kundalik turmush, mavjud hayot

*Chunki sen o'zingsan bashar timsoli,
Achchig'im, turshagim, shahdu shakarim.*

Fikrimizcha, she'r matnidagi birinchi, ikkinchi va to'rtinchi misralar o'zaro mantiqiy izchillikka ega bo'lib, uchinchi misra mana shu izchillikka yetarli darajada bog'lanmagan. Birinchi misradagi savol ("Men nechun sevaman seni, dilbarim") ga "Chunki sen o'zingsan bashar timsoli" tarzida javob qaytarilgan. Bu javob u qadar ishonarli emas. Badiiy matn tizimi uchinchi misrani "Chunki sen o'zingsan, qalbim gavhari" tarzida tahrir etishni taqozo etayotir. Shunga qaramay, to'rtinchi misrada to'rt birlikdan tashkil topgan paradigmatika alohida e'tiborga loyiq degan fikrdamiz. Qizig'i shundaki, mazkur qator bir-biriga qarshi turgan juftliklardan tashkil topgan:

tarziga oid axloqiy, ma'rifiy-madaniy, maishiy hayotga oid ayrim muammolar tasvirlangan.

Qanday soz xususiy bog'u tokzorlar,

Qanday soz xususiy do'kon, bozorlar.

Mayitni ko'mmoqlik ko'p qiyin kechar

Alhazar xususiy bo'lsa mozorlar.

Aslida O'zbekiston, Rossiya kabi MDH mamlakatlarida qabristonlarning xususiy bo'lishi qonun asosida taqiqlangan. Shuni aytish kerakki, bozor iqtisodiyoti asosida yashayotgan bir qancha xorijiy mamlakatlarda xususiy mozorlar mavjudligi xususida ma'lumotlar mavjud. Internet saytiga ko'ra, Yevropadagi rivojlangan mamlakatlar va AQShda chindan ham to'lov evaziga marhum uchun joy ajratadigan qabristonlar bor. Mazkur ma'lumotni e'tibordan soqit qilmagan holda she'riy matn tahliliga o'tamiz. To'rtlikdagi bayonchi (lirik qahramon) bozor iqtisodiyotiga o'tishning ilk bosqichida yashayotgan oddiy, soddadil bir odam. U bog', do'kon, bozor kabilarning odamlarga xususiy mulk qilib berilayotganidan xursand, chunki u bunday jarayonning foyda va afzalliklariga guvoh bo'lib turibdi. Biroq qadimdan buyon yurtimizda qabr uchun joyning sotib olinishi mumkinligini tasavvuriga

sig'dira olmaydi. Uning fikricha, qabristonlar shaxsiy mulkka o'tsa, mayitni ko'mish ham qiyin muammoga aylanishi mumkin. Shu bois har bir odamning so'nggi manzilgohi bo'lgan qabr joyi biznes manbasiga aylanmasligi zarur. Garchi lirik qahramonning xavotiri asosga ega bo'lmasa-da, uning o'zi uchungina emas, ko'pchilik uchun jonkuyar qilishi insonparvarlik nuqtayi nazaridan e'tiborga loyiq.

To'rtliklarda tabiat manzaralari ham o'ziga xos poetik ifoda topadi. Yil fasllari, yomg'ir, shamol kabi tabiat hodisalari orqali insonning ichki kechinmalari ifodalanadi. Bu esa she'rga lirizm va estetik go'zallik bag'ishlaydi. Quyidagi she'riy parchada fasllarga murojaat qilish orqali ijodkor inson ruhiyati va hayot falsafasini ifodalaydi.

*Qish! Hayot gurullar sovuq qoringda,
Bahor! Borim bergay gul-u xoringga
Yoz! Sharbat jomingga jonim tasadduq,
Kuz! Qanday chidayin mungli zoringga?*[5,261]

She'rda har bir fasl inson hayotining muayyan holatini yoki davrini ramziy tarzda aks ettiradi. She'rning mavzusi – inson hayotining turli bosqichlari va ruhiy kechinmalarining fasllar timsolida ifodalanishidir. Shoir qish, bahor, yoz va kuz fasllariga murojaat qilib, hayotning sovuq va og'ir damlari, quvonchli onlari hamda g'amgin lahzalarini tasvirlaydi. Fasllar orqali inson ruhiyati va hayotiy tajribalar poetik tarzda ochib beriladi.

Ko'plab to'rtliklarda Vatan, xalq, milliy qadriyatlar va insoniy fazilatlar ulug'lanadi. Bunday she'rlar yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. Shoirilar yurtga muhabbat, tinchlik va birlik g'oyalarini ham to'rtlik shaklida ifodalashga harakat qiladilar.

*Osmono'par tog'ingda viqoring ko'rdim, Vatan,
Amu, Sir to'lqinida sharoring ko'rdim, Vatan,
Istiqoldo iqboling chaman-chaman ochilib,
Buyuklik sari ahd-u qaroring ko'rdim, Vatan.*

[6,45]

Berilgan she'riy parcha mazmunan Vatanga muhabbat, milliy g'urur va istiqloq ne'matini ulug'lash g'oyalarini ifodalaydi. She'rning mavzusi – Vatan go'zalligi, uning tabiati va mustaqillik tufayli yuzaga kelgan taraqqiyotdir. Shoir Vatanning ulug'ligi va go'zalligini tasvirlash uchun tog'lar, daryolar hamda istiqloq timsollaridan foydalanadi. Osmono'par tog'lar Vatanning qudratini, Amu va Sir daryolari esa uning hayotbaxsh kuchini ifodalaydi.

Xulosa. Tahlil manbasi qilib olingan to'rtliklarning tadqiqi ushbu lirik janrdagi ko'pchilik ijod namunalari muhabbat, Vatan, pand-nasihat, ijtimoiy muammolari, qisman tabiat tasviri haqida yozilganligini ko'rsatdi. To'rtlikda mavzular doirasi cheklanmagan, lekin to'rtliknavislikda yuqorida qayd etilgan mavzular yetakchi o'rin egallaganini ko'rish mumkin.

Foydalangan adabiyotlar

1. Avazova, N. (2024). TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR: ANVAR OBIDJON IJODIDA TO'RTLIIK SHAKLIGA YANGICHA POETIK MUNOSABAT IFODASI. Buxoro davlat pedagogika instituti jurnali,
2. Avazova, N. (2024). THE ROLE OF THE QUATRAINS IN NAVOI PROSE AND SCIENTIFIC WORKS. Modern Science and Research, 3(10), 176-179.
3. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug'ati.–Toshkent: "Akademnashr", 2010. 157-bet.
4. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Toshkent : G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017.175-bet.
5. Воҳидов С. Дунё ками битмагай. – Бухоро нашриёти, 2014.261-б.
6. Сафаров О. Болалигим қолган кўчалар. – Мухаррир нашриёти, 2010. 45-б.

Mohira NURMUXAMEDOVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
mohiranurmuxamedova63@gmail.com



ALPOMISH, JUMONG VA ILYA MUROMETS OBRAZLARINING AFSONA VA TARIXDAGI O'RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada turli xalqlarning epik an'alarida muhim o'rin tutgan Alpomish, Jumong va Ilya Muromets qahramonlik obrazlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Ushbu obrazlarning afsonaviy va tarixiy qatlamlari hamda ularning shakllanishida mifologik tasavvurlar va real tarixiy voqealarning uyg'unligi ochib beriladi. Tadqiqot davomida turkiy, koreys va sharqiy slavyan epik merosidagi umumiyliklar va farqli jihatlar aniqlanadi.

Maqolada epik qahramonlarning milliy o'zlikni shakllantirish, tarixiy xotirani mustahkamlash va ijtimoiy-axloqiy idealarni ifodalashdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, Alpomish, Jumong va Ilya Muromets obrazlari orqali epik rivoyatlarda afsona va tarixning o'zaro uyg'unlashuvi hamda xalq ongida badiiy xotira shakllanishi qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan yoritiladi. Tadqiqot natijalari epik qahramonlar milliy identifikatsiya va ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi muhim madaniy timsollar ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: epik qahramon, mifologiya, tarixiy prototip, Alpomish, Jumong, Ilya Muromets, qiyosiy adabiyotshunoslik.

Аннотация: в данной статье проводится сравнительный анализ героических образов Алпамыша, Джумонга и Ильи Муромца, занимающих важное место в эпических традициях различных народов. Раскрываются легендарные и исторические пласты этих образов, а также взаимодействие мифологических представлений и реальных исторических событий в процессе их формирования. В ходе исследования выявляются сходства и различия в эпическом наследии тюркской, корейской и восточнославянской традиций.

В статье научно обосновывается роль эпических героев в формировании национальной идентичности, укреплении исторической памяти и выражении социально-нравственных идеалов. Кроме того, на основе образов Алпамыша, Джумонга и Ильи Муромца с позиций сравнительного литературоведения рассматривается взаимосвязь мифа и истории в эпических повествованиях, а также формирование художественной памяти в народном сознании. Результаты исследования показывают, что эпические герои выступают важными культурными символами, укрепляющими национальную идентификацию и социальное единство.

Ключевые слова: эпический герой, мифология, исторический прототип, Алпамыш, Джумонг, Илья Муромец, сравнительное литературоведение.

Annotation: this article provides a comparative analysis of the heroic images of Alpomish, Jumong, and Ilya Muromets, which occupy an important place in the epic traditions of different peoples. The study reveals the legendary and historical layers of these characters, as well as the interaction between mythological concepts and real historical events in the process of their formation. The research identifies both similarities and differences in the epic heritage of the Turkic, Korean, and East Slavic traditions.

The article also substantiates the role of epic heroes in shaping national identity, strengthening historical memory, and expressing social and moral ideals. In addition, through the images of Alpomish, Jumong, and Ilya Muromets, the study examines the interconnection between myth and history in epic narratives and the formation of artistic memory in the collective consciousness from the perspective of comparative literary studies. The research results show that epic heroes function as important cultural symbols that reinforce national identification and social unity.

Key words: epic hero, mythology, historical prototype, Alpomish, Jumong, Ilya Muromets, comparative literary studies.

Jahon xalqlari epik tafakkurida qahramonlik eposlari milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va axloqiy idealni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Har bir xalqning epik merosida ideal qahramon obrazi mavjud bo'lib, u xalqning dunyoqarashi, tarixiy tajribasi va ijtimoiy qadriyatlarini mujassamlashtiradi [1:5]. Shu jihatdan Alpomish, Jumong va Ilya Muromets obrazlari turli madaniy muhitda shakllangan bo'lsa-da, ularni umumiy qahramonlik modeli, mifologik motivlar va tarixiy xotira bilan bog'lovchi jihatlar mavjud. Mazkur epik qahramonlar obrazlari orqali xalqning o'zligini

anglash jarayoni, tarixiy xotiraning avloddan avlodga uzatilishi hamda ijtimoiy idealning badiiy ifodasi namoyon bo'ladi [2:45]. Alpomish, Jumong va Ilya Muromets timsollari xalqning tarixiy sinovlar davrida shakllangan orzu-umidlari, axloqiy me'yorlari va ijtimoiy qarashlarini mujassamlashtirib, epik tafakkur orqali umumlashgan qahramonlik modelini yaratadi. Bu jihat epik qahramonlarning faqat adabiy hodisa emas, balki ijtimoiy ong mahsuli ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, mazkur obrazlar mifologik tafakkur bilan tarixiy voqelik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni namoyon etadi. Epik rivoyatlarda afsonaviy

unsurlar qahramonlarning ideal qiyofasini yaratishga xizmat qilsa, tarixiy qatlam ular faoliyatini muayyan makon va zamon bilan bog'laydi. Natijada epik qahramonlar xalq tarixining badiiy xotirasi sifatida shakllanib, milliy madaniyat va ma'naviy merosning ajralmas qismiga aylanadi [3:78]. Mazkur maqolaning maqsadi – turkiy, koreys va sharqiy slavyan epik an'analari muhim o'rin tutgan ushbu uch qahramon obrazining afsonaviy va tarixiy qatlamlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida epik obrazlarning shakllanishida mifologiya va tarix o'rtasidagi uzviy aloqadorlik ochib beriladi.

Maqolada Alpomish, Jumong va Ilya Muromets obrazlari bilan bog'liq turli xalqlarning epik an'analari va ilmiy tadqiqotlari tahlil qilindi. Alpomish dostonining mazmuni va turkiy xalqlar og'zaki ijodidagi o'rnini, uning mifologik qatlamlari ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Jumong obrazining Koreya epik va tarixiy manbalaridagi aks etishi, xususan Kim Busikning "Samguk sagi" asaridagi tarixiy tasviri hamda koreys mifologiyasidagi ilohiy kelib chiqish haqidagi rivoyatlar tahlil qilindi. Ilya Muromets obrazi esa sharqiy slavyan bylinalari va diniy manbalar orqali o'rganilib, uning epik va diniy qatlamlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlandi [4:180]. Shuningdek, maqolada epik qahramonlik obrazlarini o'rganishda xalq og'zaki ijodi bilan birga ilmiy nazariy manbalar (Meletinskiy, Propp, Lixachyov va boshqalar) ham tahlil qilindi. Bu manbalar orqali epik tafakkurda mifologik motivlar va tarixiy qatlamlarning bir-birini qanday to'ldirishi va epik rivoyatlarning milliy xotirani shakllantirishdagi roli yoritildi.

Maqolada qiyosiy-tarixiy, tipologik va strukturaviy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida turli xalqlarning epik an'analari shakllangan qahramonlik obrazlarining umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, ularning tarixiy hamda mifologik qatlamlari o'zaro solishtirildi.

Tadqiqot jarayonida E.M. Meletinskiy, V.Y. Propp, D.S. Lixachyov kabi olimlarning epik tafakkur va mifologiya haqidagi nazariy qarashlariga tayangan holda ilmiy xulosalar chiqarildi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida epik qahramonlar obrazlarining milliy o'zlik va tarixiy xotira bilan bog'liqligi qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan ham o'rganildi. Qiyosiy tahlil orqali turkiy, koreys va sharqiy slavyan epik merosidagi umumiy motivlar (g'ayrioddiy tug'ilish, sinovlar, vatan himoyasi) va farqliliklar (davlat asoschisi, diniy qahramonlik, ko'chmanchi dunyoqarash) aniqlanib, epik qahramonlarning ijtimoiy ideal va madaniy qadriyatlar shakllanishidagi roli yoritildi. Shu bilan birga, adabiy manbalar

va tarixiy faktlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish orqali afsona va tarixning o'zaro uyg'unligi hamda epik tafakkurdagi umumiy qonuniyatlar chiqarildi [5:23].

Uchala obrazda ham qahramonning g'ayrioddiy tug'ilishi, sinovlardan o'tishi va jamiyat manfaatini himoya qilishi kabi umumiy mifologik motivlar mavjud. Biroq ularning tarixiy mazmuni va funksiyasi turlicha. Alpomish ko'chmanchi turkiy dunyoqarashni, Jumong davlat asoschisi sifatidagi tarixiylikni, Ilya Muromets esa diniy va harbiy qahramonlikni ifodalaydi [6:101].

Bu farqlar har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy tuzilmasi va madaniy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan qaranganda, epik qahramonlarning vazifasi nafaqat jismoniy kuch va jasoratni namoyon etish, balki muayyan tarixiy davr ehtiyojlariga javob beruvchi ijtimoiy idealni shakllantirishdan iboratdir. Alpomish obrazi urug'-qabila birdamligi va an'anaviy axloqiy me'yorlarni mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lsa, Jumong timsoli markazlashgan davlat barpo etish g'oyasini asoslab bergan. Ilya Muromets esa tashqi xavf-xatarlarga qarshi kurashda diniy e'tiqod va vatan himoyasi tushunchalarini uyg'unlashtirgan qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, epik obrazlar xalq tarixi va ijtimoiy ongining badiiy ifodasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi [7:90].

Alpomish, Jumong va Ilya Muromets obrazlari afsona va tarixning uzviy bog'liqligida shakllangan epik qahramonlardir. Ular nafaqat badiiy timsol, balki xalq tarixiy xotirasi, ijtimoiy ideallari va madaniy o'zligini ifodalovchi muhim manbalardir. Ushbu obrazlarni qiyosiy o'rganish jahon epik tafakkurining umumiy qonuniyatlarini anglashga xizmat qiladi. Birinchi navbatda, Alpomish, Jumong va Ilya Muromets obrazlari qahramonlik eposlarida mifologik tasavvurlar bilan real tarixiy voqealarning o'zaro uyg'unlashuvi natijasida shakllangan murakkab epik timsollar ekanini ko'rish mumkin. Ushbu qahramonlar obrazida xalqning qadimiy dunyoqarashi, e'tiqodlari, ijtimoiy tuzilmasi hamda tarixiy tajribasi badiiy umumlashma orqali ifodalangan. Afsonaviy unsurlar qahramonlarni ideallashtirish va ularning timsolida milliy axloqiy me'yorlarni mustahkamlashga xizmat qilgan bo'lsa, tarixiy qatlam ularni muayyan davr va makon bilan bog'lab, epik rivoyatlarning ijtimoiy ahamiyatini oshirgan [8:210]. Shuningdek, ushbu obrazlarni qiyosiy jihatdan o'rganish turli madaniyatlarda qahramonlik idealining shakllanish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alpomish. O'zbek xalq qahramonlik dostoni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1999. 5–320-betlar.
2. Jo'rayev M. O'zbek xalq eposi va mifologiyasi. – Toshkent: Fan, 2006. 45–112-betlar.
3. Rahmonov N. Turkiy xalqlar epik tafakkuri. – Toshkent: Universitet, 2010. 78–156-betlar.
4. Meletinskiy E.M. Mif i geroicheskiy epos. – Moskva: Nauka, 1976. 180–245-betlar.
5. Kim Busik. Samguk sagi (Uch qirollik tarixi). – Seul: Minjok Munhwa, 1998. 23–67-betlar.
6. Pak S.Y. Koreyskaya mifologiya i drevnyaya istoriya. – Seul: Ilchokak, 2004. 101–148-betlar.
7. Propp V.Ya. Russkiy geroicheskiy epos. – Leningrad: LGU, 1955. 90–173-betlar.
8. Afanasyev A.N. Narodnye russkie byliny. – Moskva: Khudozhestvennaya literatura, 1988. 210–289-betlar.

AKA-UKA GRIMM ERTAKLARIDAGI KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVISTIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada aka uka Grimm tomonidan yozilgan ertaklardagi konseptual metaforalarning lingvistik xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot kognitiv lingvistika nazariyalari asosida olib borilgan bo'lib, ertaklarda uchraydigan metaforik ifodalarning mazmun-mohiyati, strukturaviy xususiyatlari va madaniy-milliy belgilari ochib berilgan. Maqolada konseptual metafora nazariyasi doirasida Grimm ertaklaridagi asosiy metaforik modellar aniqlangan va ularning tilshunoslik jihatdan tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot natijalari nemis folklorshunosligi va kognitiv lingvistika sohasida yangi xulosalar beradi hamda ertak diskursining metaforik tabiati haqida ilmiy tasavvurlarni boyitadi.

Kalit so'zlar: *konseptual metafora, Grimm ertaklari, kognitiv lingvistika, metaforik model, ertak diskursi, lingvistik tahlil, folklorshunoslik, nemis tili, badiiy matn, madaniy konsept.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвистические особенности концептуальных метафор в сказках братьев Гримм. Исследование проведено на основе теорий когнитивной лингвистики, раскрыты содержательная сущность, структурные особенности и культурно-национальные признаки метафорических выражений, встречающихся в сказках. В статье в рамках теории концептуальной метафоры определены основные метафорические модели в сказках Гримм и осуществлен их лингвистический анализ. Результаты исследования дают новые выводы в области немецкой фольклористики и когнитивной лингвистики, а также обогащают научные представления о метафорической природе сказочного дискурса.

Ключевые слова: *концептуальная метафора, сказки Гримм, когнитивная лингвистика, метафорическая модель, сказочный дискурс, лингвистический анализ, фольклористика, немецкий язык, художественный текст, культурный концепт.*

Annotation: this article analyzes the linguistic features of conceptual metaphors in the fairy tales of the Brothers Grimm. The research is based on the theories of cognitive linguistics, revealing the semantic essence, structural features, and cultural-national characteristics of metaphorical expressions found in fairy tales. Within the framework of conceptual metaphor theory, the article identifies the main metaphorical models in Grimm's fairy tales and conducts their linguistic analysis. The research results provide new conclusions in the field of German folklore studies and cognitive linguistics, and enrich scientific understanding of the metaphorical nature of fairy tale discourse.

Key words: *conceptual metaphor, Grimm's fairy tales, cognitive linguistics, metaphorical model, fairy tale discourse, linguistic analysis, folklore studies, German language, literary text, cultural concept.*

Kirish.

Konseptual metafora nazariyasi zamonaviy kognitiv lingvistikaning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. J. Lakoff va M. Johnson tomonidan 1980-yilda yaratilgan ushbu nazariya [1] metaforani faqat badiiy vosita sifatida emas, balki insonning dunyoni idrok etish va fikrlash mexanizmi sifatida ko'rib chiqadi. Konseptual metafora orqali inson murakkab va mavhum tushunchalarni sodda va konkret tushunchalar yordamida tushunadi, ya'ni bir konseptual sohadan ikkinchisiga bilim transferi amalga oshiriladi. Ertak janri esa o'zining metaforik tabiati bilan kognitiv lingvistika tadqiqotlari uchun alohida qiziqish uyg'otadi, chunki ertaklarda madaniy xotira, milliy dunyoqarash va universal insoniy qadriyatlar metaforik obrazlar orqali ifodalanadi. Aka uka Grimm tomonidan

XIX asrda yig'ilgan va qayta ishlangan nemis xalq ertaklari jahon adabiyoti xazinasining noyob durdonalari bo'lib, ular nafaqat badiiy, balki lingvistik-madaniy jihatdan ham katta qiymatga egadir [2]. Grimm ertaklarining originallik darajasi, ularning folklorning asl ruhini saqlab qolishi va shu bilan birga professional adabiy qayta ishlanishi bu matnlarni konseptual metafora tadqiqotlari uchun juda qulay material qiladi. Ushbu maqolada biz Grimm ertaklarida qo'llangan konseptual metaforalarning asosiy tiplarini aniqlash, ularning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish va nemis madaniy-til manzarasiidagi o'rnini ko'rsatish maqsadini ko'zlaymiz. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, ertak diskursining metaforik tuzilishi kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan hali yetarlicha o'rganilmagan va bu sohada chuqur tahlillar zarurdir.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili.

Tadqiqot metodologiyasi kognitiv lingvistikaning nazariy asoslari, xususan, J. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasi [1], Z.D. Popovanning konseptologiya asoslari [3] hamda G.N. Skljarevskyaning metafora semantikasi bo'yicha ishlari [4] asosida qurilgan. Shuningdek, V.N. Telianing milliy tilshunoslik maktabiga oid asarlari [5] hamda xorijiy tadqiqotchilar A.N. Baranov va Y.N. Karaulovning ruscha metafora tadqiqotlari [6] metodologik bazani tashkil etdi. Grimm ertaklari matnlari sifatida "Kinder- und Hausmärchen" to'plamining turli nashrlaridan tanlab olingan matnlar ishlatildi, jumladan, "Qizil shapkali qiz", "Hansil va Gretel", "Rapunsel", "Uxlayotgan go'zallik", "Qor malikasi" va boshqa mashhur ertaklar [7]. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, Grimm ertaklari bo'yicha ko'plab folklorshunoslik, adabiyotshunoslik va til tahlillari mavjud bo'lsa-da, aynan konseptual metaforalar nuqtayi nazaridan kompleks lingvistik tadqiqotlar kam uchraydi. N.D. Arutyunova rus tilida metaforani pragmatik jihatdan tahlil qilishda muhim hissa qo'shgan bo'lsa [8], E.O. Oparina badiiy matnlardagi metaforik sistemalarni konseptual nuqtayi nazaridan o'rgangan [9].

Xorijiy tadqiqotchilardan R. Dirven va R. Pörings nemis tili metaforalari bo'yicha fundamental ishlar yaratganlar [10]. Biroq, Grimm ertaklarining metaforik sistemasi to'liq ochib berilmagan. Tadqiqot jarayonida deskriptiv tahlil, komponent tahlil, semantik tahlil, kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Materiallar to'plash bosqichida Grimm ertaklarining asl nemis tilidagi matnlari o'qildi va metaforik ifodalar ajratib olindi, keyin ular tasniflanib, konseptual metafora modellariga ajratildi. Tahlil jarayonida metaforaning manba soha (source domain) va nishon soha (target domain) komponentlari aniqlanib, ularning o'zaro proeksiya mexanizmlari ko'rib chiqildi. Adabiyotlar tahlili natijasida ma'lum bo'ldiki, ertaklarda asosan quyidagi konseptual sohalar aktiv ishtirok etadi: tabiiy hodisalar, hayvonot dunyosi, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy ierarxiya, fazoviy va temporal tushunchalar, ruhiy holatlar va his-tuyg'ular.

Natijalar va muhokama

Grimm ertaklarining konseptual metaforalarini tahlil qilish natijasida bir necha asosiy metaforik modellar aniqlandi. Birinchidan, "HAYOT – SAYOHAT" konseptual metaforasi ertaklarda keng tarqalgan bo'lib, qahramon hayotning turli bosqichlarini o'tish, to'siqlarni yengish, manzilga erishish tarzida tasvirlanadi. Masalan, "Hansil va Gretel" ertagida bolalarning o'rmonda adashishi va

qaytib kelishi hayotiy sinov va yetuklik bosqichlarini ifodalaydi. Ikkinchidan, "ODAM – HAYVON" metaforik modeli Grimm ertaklarida juda keng qo'llaniladi, bu yerda insoniy fazilatlar va illatlar hayvonlar xususiyatlari orqali ifodalanadi. "Burgut va qarg'a", "Bo'ri va yetti echki" kabi ertaklarda hayvonlar insoniy xarakterlarni mujassamlashtiradi. Uchinchidan, "QADRIYAT – BUYUM" metaforasi orqali ma'naviy tushunchalar moddiy obyektlar bilan ifodalanadi, masalan, oltin soch, kumush poyabzal, sehirli oyna va shunga o'xshash narsalar go'zallik, poklik, sodiqlik kabi qadriyatlarining belgisidir. To'rtinchidan, "VAQT – HARAKAT" metaforasi ertaklarda doimiy uchraydi, vaqt oqimi harakatlanish, o'tish, kelish fe'llari orqali ifodalanadi.

Beshinchidan, "YAXSHILIK – YORUG'LIK, YOMONLIK – ZULMAT" universal metaforik oppozitsiyasi Grimm ertaklarida ham yaqqol namoyon bo'ladi. Qahramonlarning musbat xususiyatlari yorug'lik, oqlik, oltin rang bilan, salbiy xususiyatlari esa qorong'u, qora rang bilan bog'lanadi. Oltinchidan, "IJTIMOIY MAQOM – VERTIKAL FAZO" metaforasi orqali qirol, malika, shahzoda yuqorida, oddiy xalq, qashshoqlar pastda joylashgan deb tasavvur qilinadi. Matnlarda "yuqori tabaqalar", "pastki qatlamlar" kabi ifodalar uchraydi. Yettinchidan, "HIS-TUYG'U – KONTEYNER" metaforasi orqali ruhiy holatlar idish ichidagi suyuqlik kabi tasvirlanadi, masalan, "qalbi sevgi bilan to'lib-toshgan", "achinishga botirilgan" kabi iboralar. Sakkizinchidan, "BILIM – YORUG'LIK" metaforasi ham ko'plab ertaklarda uchraydi, bilimsizlik esa qorong'ilik bilan tenglashtiriladi. To'qqizinchidan, "O'LIM – UYQU" metaforasi ayniqsa "Uxlayotgan go'zallik" ertagida yaqqol namoyon bo'ladi.

O'ninchidan, "MUHABBAT – ISSIQLIK" metaforasi orqali sevgi his-tuyg'usi issiq, yoqiluvchi, isituvchi narsa sifatida tasvirlanadi. Bu metaforik modellar nemis madaniyatiga xos kognitiv stereotiplarni aks ettiradi va shu bilan birga universal insoniy tajribani ifoda etadi. Grimm ertaklaridagi metaforalarning lingvistik jihatlari shuni ko'rsatdiki, ular ko'pincha leksik-semantik darajada, fe'l va sifat kombinatsiyalarida, frazeologik birliklarda va sintaktik konstruksiyalarda namoyon bo'ladi. Metaforik ifodalarning bir qismi nemis tiliga xos milliy-madaniy xususiyatlarni aks ettirsa, boshqa qismi turli xalqlarga umumiy universal xarakterga ega. Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, Grimm ertaklaridagi metaforalar nafaqat badiiy vosita, balki ertak dunyoqarashining asosiy tashkil etuvchi elementlaridir. Ular bolalarning ongida murakkab ijtimoiy, axloqiy va psixologik tushunchalarni shakllantirish mexanizmini

tashkil etadi. Konseptual metaforalar yordamida mavhum tushunchalar konkret obrazlarga aylantiriladi va bu bolalar idrokiga mos keladi. Shuningdek, metaforik sistemalar ertak janrining didaktik funksiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Grimm ertaklarining metaforik boyitigi ularning ko'p asrlik davomida ommabopligi va ta'sirchanligi sabablari orasidadir.

Grimm ertaklaridagi konseptual metaforalarning chuqurroq tahlili shuni ko'rsatadiki, bu metaforik modellar bir-biri bilan murakkab tizimiy bog'liqlikda ishlaydi va ertak matnining yaxlit semantik makonini hosil qiladi. Metaforik ifodalar ertak syujetining rivojlanishida muhim rol o'ynab, qahramonlarning ichki transformatsiyasini va tashqi voqealar ketma-ketligini parallel ravishda ifodalaydi. Masalan, "HAYOT – SAYOHAT" metaforasi ko'pincha "BILIM – YORUG'LIK" metaforasi bilan birlashib, qahramonning jismoniy harakati uning ma'naviy kamoloti bilan uyg'unlashadi. Shuningdek, metaforik obrazlar ertak matnining ko'p qatlamli ma'nosini yaratishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi, bu esa turli yoshdagi va turli madaniy tajribaga ega bo'lgan o'quvchilar tomonidan ertakni turlicha idrok etish imkonini beradi. Bolalar uchun metaforalar oddiy, aniq obrazlar orqali qabul qilinsa, kattalar uchun chuqur falsafiy va psixologik ma'nolar ochiladi. Grimm ertaklarining metaforik sistemasining yana bir muhim xususiyati shundaki, u nemis madaniyatiga xos arxetipik obrazlarni saqlagan holda, shu bilan birga umumbashariy qadriyatlarni ham ifodalaydi, bu esa ertaklarning jahon miqyosida qabul qilinishi va turli madaniyatlarga moslashuvini ta'minlaydi. Metaforalarning

sinxron va diaxron tahlili shuni ham ko'rsatadiki, Grimm aka-uka xalq og'zaki ijodidagi metaforik ifodalarni asrab-avaylab saqlagan holda, ularni adabiy qayta ishlash jarayonida yanada mustahkamlab, sistemalashtirgan va ertak janrining universal til xususiyatlariga aylantirganlar.

Xulosa. Aka uka Grimm ertaklaridagi konseptual metaforalarning lingvistik tahlili shuni ko'rsatdiki, bu ertak matnlari metaforik jihatdan juda boy va murakkab tizimga egadir. Tadqiqot natijasida o'nta asosiy konseptual metaforik model aniqlandi va ularning har biri nemis madaniy til manzarasining muhim qismini tashkil etadi. Bu metaforalar universal kognitiv mexanizmlarni aks ettiradigan bo'lsa-da, ularning konkret lingvistik ifodalanishi nemis tiliga xos xususiyatlarni namoyon qiladi. Grimm ertaglarida metafora nafaqat badiiy bezak vositasi, balki dunyoqarashni shakllantiruvchi, bilimlarni uzatuvchi va qadriyatlarni o'rgatuvchi asosiy kognitiv mexanizmdir. Ertak diskursining metaforik tabiati bolalar ongida murakkab tushunchalarni oddiy va tushunarli obrazlar orqali shakllantirishga imkon beradi. Konseptual metaforalar tahlili ertaklar matnini chuqurroq tushunish, ularning madaniy va didaktik qiymatini baholash uchun samarali vosita hisoblanadi. Kelajakda Grimm ertaklarining metaforik sistemasini boshqa xalqlar ertaklari bilan qiyosiy tahlil qilish, turli nashrlar va tarjimalar metaforalarini solishtirish, shuningdek, zamonaviy kognitiv lingvistika usullari yordamida yanada chuqur o'rganish istiqbolidir. Ushbu tadqiqot natijalaridan nemis tili o'qitishda, tarjimashunoslikda, adabiyotshunoslikda va folklorshunoslikda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
2. Grimm J., Grimm W. *Kinder- und Hausmärchen*. – Berlin: Realschulbuchhandlung, 1812-1815. – 356 S.
3. Попова З.Д., Стернин И.А. *Когнитивная лингвистика*. – М.: АСТ, 2007. – 314 с.
4. Склярская Г.Н. *Метафора в системе языка*. – СПб.: Наука, 1993. – 152 с.
5. Телия В.Н. *Метафоризация и её роль в создании языковой картины мира // Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира*. – М.: Наука, 1988. – С. 173-204.
6. Баранов А.Н., Караулов Ю.Н. *Русская политическая метафора: материалы к словарю*. – М.: Институт русского языка, 1991. – 193 с.
7. Zipes J. *The Great Fairy Tale Tradition: From Straparola and Basile to the Brothers Grimm*. – New York: Norton, 2001. – 1038 p.
8. Арутюнова Н.Д. *Метафора и дискурс // Теория метафоры*. – М.: Прогресс, 1990. – С. 5-32.
9. Опарина Е.О. *Концептуальная метафора в художественном тексте // Метафора в языке и тексте*. – М.: Наука, 1988. – С. 65-77.
10. Dirven R., Pörrings R. *Metaphor and Metonymy in Comparison and Contrast*. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2002. – 679 p.

Roziya USMONOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Ingliz tilini o'qitish metodikasi

№1 kafedrasida katta o'qituvchisi

TRANSFORMER MODELLARINING TABIIY TILNI TUSHUNISHGA TA'SIRI

Annotatsiya: mazkur maqolada sun'iy intellekt sohasida keng qo'llanilayotgan transformer modellarining tabiiy tilni tushunish jarayoniga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda transformer arxitekturasining asosiy xususiyatlari, xususan, self-attention mexanizmi va chuqur neyron tarmoqlar orqali til birliklarini qayta ishlash imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, BERT, GPT va boshqa transformer asosidagi modellar yordamida matnni semantik tahlil qilish, mashina tarjimai, matn generatsiyasi va savol-javob tizimlari kabi vazifalarning samaradorligi o'rganiladi. Tadqiqot natijalari transformer modellarining tabiiy tilni tushunish va qayta ishlash jarayonini sezilarli darajada takomillashtirganligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *transformer modellar, tabiiy tilni qayta ishlash, sun'iy intellekt, self-attention, BERT, GPT.*

Annotation: this article examines the impact of transformer models on natural language understanding in the field of artificial intelligence. The study explores the main features of transformer architecture, particularly the self-attention mechanism and deep neural network structures that enable efficient processing of linguistic data. The research also analyzes the performance of transformer-based models such as BERT and GPT in tasks including machine translation, text generation, sentiment analysis, and question-answering systems. The findings demonstrate that transformer models have significantly improved the efficiency and accuracy of natural language processing systems, making them one of the most influential developments in modern computational linguistics.

Key words: *transformer models, natural language processing, artificial intelligence, self-attention, BERT, GPT.*

Аннотация: в данной статье рассматривается влияние трансформерных моделей на процессы понимания естественного языка в области искусственного интеллекта. Особое внимание уделяется архитектуре трансформеров, включая механизм self-attention и глубокие нейронные сети, которые позволяют эффективно обрабатывать текстовые данные. В работе анализируется использование моделей BERT, GPT и других трансформерных архитектур в задачах машинного перевода, генерации текста, анализа тональности и системах вопрос-ответ. Результаты исследования показывают, что трансформерные модели значительно повысили точность и эффективность систем обработки естественного языка.

Ключевые слова: *трансформерные модели, обработка естественного языка, искусственный интеллект, self-attention, BERT, GPT.*

Kirish. So'nggi yillarda sun'iy intellekt va kompyuter lingvistikasi sohalarida tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) texnologiyalari jadal rivojlanmoqda. Bu jarayon, ayniqsa, transformer arxitekturasiga asoslangan modellar paydo bo'lishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Transformer modellarining paydobo'lishimatnniavtomatiktahlilqilish,tarjimaqilish, matn yaratish va savol-javob tizimlarini rivojlantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi. An'anaviy NLP modellarida til birliklarini qayta ishlash ko'pincha ketma-ketlikka asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshirilgan. Masalan, rekurrent neyron tarmoqlar (RNN) va ularning rivojlangan shakllari – LSTM hamda GRU modellarida matn bosqichma-bosqich qayta ishlanadi.

Biroq bunday modellar uzun matnlar bilan ishlashda ma'lumot yo'qotish muammosiga duch kelishi mumkin edi.

Adabiyotlar tahlili. Tabiiy tilni qayta ishlash sohasida transformer arxitekturasida ilk bor Vaswani va uning hamkorlari tomonidan taklif etilgan [1]. Ularning "Attention Is All You Need" nomli maqolasida transformer modeli rekurrent va konvolyutsion neyron tarmoqlardan farqli ravishda self-attention mexanizmi asosida ishlashi ko'rsatib berilgan. Keyingi tadqiqotlarda transformer arxitekturasida turli modellarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Devlin va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan BERT modeli til birliklarini kontekst asosida chuqur o'rganish imkonini berdi [2]. Bu

model matnni ikki yoʻnalishda oʻrganish orqali semantik bogʻlanishlarni yanada aniqroq aniqlaydi.

Radford va hamkorlari tomonidan yaratilgan GPT modeli esa generativ til modellarining yangi bosqichini boshlab berdi [3]. Ushbu model matn generatsiyasi va dialog tizimlari uchun keng qoʻllanilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda transformer modellarining samaradorligi koʻplab NLP vazifalarida tasdiqlangan. Brown va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan GPT-3 modeli katta hajmdagi maʼlumotlar asosida oʻqitilgan boʻlib, matn generatsiyasi va savol-javob tizimlarida yuqori natijalarni koʻrsatdi [4].

Muhokama va tahlil

Transformer modellarining eng muhim afzalligi ularning matndagi uzoq masofadagi semantik bogʻlanishlarni samarali aniqlash imkoniyatidir. Self-attention mexanizmi yordamida model matndagi har bir soʻzning boshqa soʻzlar bilan bogʻliqligini hisobga oladi. Masalan, mashina tarjima tizimlarida transformer modellarining qoʻllanilishi tarjima sifatini sezilarli darajada yaxshiladi. Oldingi modellar uzun gaplarni tarjima qilishda qiyinchiliklarga duch kelgan boʻlsa, transformer arxitekturası bu muammoni samarali hal qildi.

Transformer modellarining tabiiy tilni tushunishga taʼsirini chuqur oʻrganishda bir nechta oʻzaro bogʻliq ilmiy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, **qiyosiy-tahliliy metod** muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metod yordamida transformer arxitekturası rekurrent neyron tarmoqlar va konvolyutsion modellar bilan taqqoslanadi. Vaswani va hamkorlari transformer modelining asosiy yangiligi sifatida rekurrentlik va konvolyutsiyadan voz kechib, eʼtibor mexanizmlariga toʻliq tayanganini koʻrsatganlar. Ikkinchi muhim yondashuv — **korpusga asoslangan tahlil**. Bunda modelning tilni qay darajada “tushunayotgani” alohida gaplar emas, balki katta hajmdagi matnlar asosida baholanadi. BERT va T5 kabi modellar aynan keng miqyosli matnli korpuslarda oldindan oʻqitilib, keyin aniq vazifalarga moslashtirilgan. Bu esa tadqiqotchi uchun modelning semantik moslik, kontekst sezgirligi va topshiriqdan topshiriqqa koʻchuvchi bilimlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Uchinchi metod sifatida **eksperimental-benchmark tahlil** tavsiya etiladi. Bu yondashuvda modellar GLUE, SQuAD, tarjima benchmarklari yoki boshqa standart vazifalar asosida tekshiriladi. BERT oʻnlab NLP vazifalarida yangi yuqori natijalarni koʻrsatgan

boʻlsa, GPT-3 few-shot oʻrganish orqali topshiriq uchun alohida qayta oʻqitishsiz ham sezilarli samaradorlik namoyish etgan. Toʻrtinchi metod — **interpretativ va funksional tahlil**. U modelning natijalarinigina emas, balki qanday mexanizmlar orqali bu natijalarga erishayotganini izohlashga xizmat qiladi. Transformer modelining tabiiy tilni tushunishdagi muvaffaqiyati, avvalo, uning **self-attention mexanizmi** bilan bogʻliq. Ushbu mexanizm matndagi har bir tokenning boshqa tokenlar bilan qanday munosabatda ekanini hisoblash imkonini beradi. Natijada model gap ichidagi yaqin qoʻshnichilikka emas, balki butun ketma-ketlik boʻylab semantik bogʻliqliklarga eʼtibor qaratadi. “Attention Is All You Need” maqolasida bu yondashuv aynan uzoq masofali bogʻlanishlarni samarali tutish va hisoblashni parallel bajarish imkonini berishi bilan asoslangan. Transformerning ikkinchi muhim elementi — **multi-head attention**, yaʼni koʻp boshli eʼtibor mexanizmi. Bu struktura modelga bir vaqtning oʻzida turli turdagi munosabatlarni oʻrganish imkonini beradi. Masalan, bir bosh sintaktik bogʻlanishni, ikkinchisi semantik moslikni, uchinchisi esa referensial aloqani kuchliroq ushlashi mumkin.

Uchinchi asosiy komponent — **positional encoding**. Transformerda RNN dagidek tabiiy ketma-ketlik xotirasi yoʻq, shuning uchun soʻzlarning tartibini modelga alohida uzatish zarur boʻladi. Pozitsion kodlash aynan shu vazifani bajaradi: tokenning gapdagi oʻrni modelning semantik hisoblashiga qoʻshiladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bu juda muhim, chunki tabiiy tilda maʼno koʻpincha faqat leksik birlik bilan emas, balki uning sintaktik joylashuvi bilan ham belgilanadi. Bundan tashqari, zamonaviy transformer modellarining quvvatini oshirgan muhim tamoyil — **pre-training va fine-tuning** paradigmasidir. BERT katta hajmdagi matnlarda oldindan oʻqitilib, keyin maxsus vazifalarga moslashtiriladi; T5 esa turli NLP vazifalarini yagona text-to-text formatga keltirib, transfer learningni tizimli shaklga soladi. Bu yondashuv tilni tushunish jarayonida umumiy lingvistik bilim bilan aniq topshiriq bilimini birlashtirishga imkon beradi.

Transformer oilasidagi modellar orasida **BERT** alohida oʻrin tutadi. Uning asosiy ilmiy yangiligi bidirectional, yaʼni ikki yoʻnalishli kontekstual oʻrganish tamoyiliga asoslanganidir. BERT chap va oʻng kontekstni birgalikda hisobga olgani uchun soʻzning maʼnosini gap ichidagi haqiqiy vaziyatga mos ravishda aniqlaydi. Shu sababli u savol-javob, matnlararo mantiqiy bogʻliqlik

va semantik tasniflash kabi vazifalarda kuchli natijalar ko'rsatgan. Tilni tushunish masalasida BERTning ahamiyati shundaki, u leksik birlikni statik emas, balki kontekstga bog'liq dinamik birlik sifatida qayta talqin qildi. **GPT turkumidagi modellar** esa tilni tushunish bilan birga tilni yaratish sohasida keskin burilish yasadi. GPT-3 bo'yicha tadqiqotlar model o'lchami oshgani sayin few-shot va in-context learning qobiliyati sezilarli rivojlanishini ko'rsatadi. Bu holat tabiiy til bilan ishlashda qat'iy task-specific fine-tuningdan ko'ra, umumlashgan til kompetensiyasi muhimroq bo'lib borayotganini bildiradi. GPT oilasi semantik davomiylik, koherent matn yaratish, topshiriqni instruktsiya orqali anglash va ko'p vazifali ishlov berish qobiliyati bilan ajralib turadi.

T5 modeli transformer paradigmasini yanada umumlashtirib, deyarli barcha NLP vazifalarini "matndan matnga" ko'rinishida ifodalashni taklif qildi. Bu yondashuv nazariy jihatdan muhim, chunki u tilni qayta ishlashdagi ko'plab farqli vazifalar — tarjima, qisqartirish, savol-javob, tasniflash — aslida yagona kommunikativ transformatsiyaning turli ko'rinishlari ekanini ko'rsatadi. Ikkinchidan, transformer modellar **diskursiy bog'liqlik, referensiya, implitsit ma'no** va **matn ichidagi uzoq masofali aloqalarni** tahlil qilishda yangi empirik maydon ochdi. Self-attention mexanizmi til birliklari o'rtasidagi bog'lanishlarni qatlam-qatlam qayta ishlashi sababli, modelning ichki holatlari sintaktik va diskursiy naqshlarni tahlil qilish uchun ham qimmatli manbaga aylanmoqda. Shu bois transformerlar faqat amaliy NLP vositasi emas, balki til tizimini eksperimental ravishda kuzatish imkonini beruvchi nazariy instrument sifatida ham qaralmoqda. Uchinchidan, transformerlar **foundation model** tushunchasining shakllanishiga asos bo'ldi. Stanford CRFM hisobotida foundation modellarning imkoniyatlari bilan birga xatarlari ham keng ko'lamda tahlil qilingan.

Kelajakdagi tadqiqotlar uchun birinchi muhim yo'nalish — **multimodal transformerlar** hisoblanadi. CLIP kabi modellar tasvir va matnni umumiy vakillanish maydonida bog'lash orqali tabiiy tilni tushunish faqat

verbal oqim doirasida emasligini ko'rsatdi. Matn ko'pincha tasvir, audio va vizual kontekst bilan uyg'un holda ma'no hosil qiladi; multimodal transformerlar aynan shu murakkab semioz jarayonini model qilishga urinadi. Ikkinchi istiqbolli yo'nalish — **kam resursli tillar** uchun transformerlarni moslashtirish. Katta modellar asosan ingliz tiliga va ma'lumotlar boy tillarga tayangan holda rivojlangan. Biroq zamonaviy model kartalarida ko'p tillilikning kuchayib borayotgani, xususan Llama 3 oilasida multilingual qobiliyatlar kengaygani qayd etilgan.

Uchinchi yo'nalish — **sun'iy intellekt**. Foundation modellar bo'yicha hisobotlarda xolislik, noto'g'ri generatsiya, ma'lumotlar tarafkashligi va nazorat qilinmagan umumlashtirish muammolari alohida ko'rsatib o'tilgan. Shu sababli kelgusidagi tadqiqotlar faqat samaradorlikni emas, balki modelning qaror qabul qilish jarayonini izohlash, xatolar manbasini ko'rsatish va etik xavflarni kamaytirishga qaratilishi lozim. Ilmiy maqolada bu yo'nalishni alohida kiritish tadqiqotning zamonaviyligini sezilarli oshiradi. Ilmiy jihatdan esa ularning eng katta hissasi — tabiiy tilni tushunishni tor vazifali modellashtirishdan chiqarib, **umumiy til kompetensiyasi** g'oyasiga olib kelganidadir. "A Survey of Large Language Models" sharhida ham transformer asosidagi oldindan o'qitilgan modellar NLPning markaziy paradigmasiga aylangani ta'kidlanadi. Shu bois maqola muhokamasida transformerlarni faqat yangi algoritm emas, balki tabiiy tilni tushunishning ilmiy modelini tubdan o'zgartirgan paradigma sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari transformer modellarining tabiiy tilni tushunish jarayonida muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Self-attention mexanizmi va chuqur neyron tarmoqlar yordamida bu modellar til birliklari o'rtasidagi murakkab semantik munosabatlarni aniqlash imkonini beradi. Transformer arxitekturasi NLP sohasida yangi imkoniyatlarni ochib berdi va zamonaviy sun'iy intellekt tizimlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vaswani A., Shazeer N., Parmar N. Attention Is All You Need. – Advances in Neural Information Processing Systems, 2017.
2. Devlin J., Chang M., Lee K. BERT: Pre-training of Deep Bidirectional Transformers for Language Understanding. – 2019.
3. Radford A. Language Models are Unsupervised Multitask Learners. – OpenAI, 2019.
4. Brown T. Language Models are Few-Shot Learners. – NeurIPS, 2020.

Gavharoy XOLISOVA,
Andijon davlat chet tillari instituti
Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasida dotsenti f.f.f.d

TIJORIY DISKURSNING LINGVOMADANIY VA KOGNITIV-SEMANTIK TADQIQI

Annotatsiya: til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki insoniyat ongini shakllantiruvchi va lisoniy-madaniy olam manzarasini moddiylashtiruvchi asosiy omildir. Tilni tafakkurning bevosita voqelanishi sifatida qabul qilish, uni insonning intellektual salohiyati bilan bog'liq fundamental jihat ekanligini e'tirof etishni anglatadi.

Kalit so'zlar: *til, tafakkur, pragmatika, ijtimoiy kontekst, nazariy asoslar, funksional xususiyatlar.*

Аннотация: язык является не только средством передачи информации, но и ключевым фактором, формирующим человеческое сознание и материализующим лингвокультурную картину мира. Принятие языка как непосредственного воплощения мышления означает признание его фундаментальным аспектом, неразрывно связанным с интеллектуальным потенциалом человека.

Ключевые слова: *язык, мышление, прагматика, социальный контекст, теоретические основы, функциональные особенности.*

Annotation: language is not merely a tool for information transfer, but a key factor that shapes human consciousness and materializes the linguocultural picture of the world. Accepting language as a direct embodiment of thought implies recognizing it as a fundamental aspect inextricably linked to human intellectual potential.

Key words: *language, thinking, pragmatics, social context, theoretical foundations, functional characteristics.*

Kirish. Zamonaviy gumanitar fanlar, xususan, tilshunoslik va madaniyatshunoslik paradigmaları bugungi kunda antropotsentrizm (inson markazli yondashuv) hamda logotsentrizm (so'z va tilning markaziy subyekt sifatida qabul qilinishi) tamoyillariga tayanadi. Mazkur yondashuv tilni nafaqat oddiy aloqa vositasi, balki madaniyat va ma'naviyatning fundamental tarkibiy qismi, insoniyat sivilizatsiyasiga xos barcha qadriyatlar hamda ma'nolar tizimining deterministik shakllantiruvchisi sifatida e'tirof etadi. Ushbu kontekstda lisoniy yoki semiotik belgi til tizimining markaziy elementi hisoblanib, u asrlar davomida insoniyatning gnoseologik (bilish) va kreativ (yaratish) faoliyatida tayanch vazifasini o'tab kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'zning yaratuvchanlik qudrati va ijtimoiy energiyasi M.V. Lomonosov tomonidan ham alohida ta'kidlangan: "So'zning qudrati shunchalik muazzamki, uning jamiyatdagi ta'siri insoniyat bilimlari yoyilishining kengligi bilan o'lchanadi"[1]. Ushbu konseptual g'oya XIX asrda V. fon Gumboldt tomonidan rivojlantirilib, tilning "xalq ruhi" ekanligi haqidagi ta'limotga asos bo'ldi[2] va keyinchalik G'arb til falsafasining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Til va tafakkur munosabatlarining murakkab tabiatini yoritishda L. Vitgenshteynning epistemologik qarashlari hamda Sapir-Uorf gipotezasi muhim nazariy baza bo'lib xizmat qiladi. Mazkur ta'limotlar til va tafakkurning o'zaro bog'liq tizimlar ekanligini, til insonning dunyoqarashi, kognitiv jarayonlari va madaniy orientatsiyalarini belgilab berishini isbotlaydi[3]. Zamonaviy lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan

qaraganda, bu nazariyalar tilni ijtimoiy-madaniy formatlarni shakllantiruvchi va etnosni tarixiy sahnaga olib chiquvchi asosiy omil sifatida ta'riflaydi. Lingvomadaniy konseptning tadqiqot obyekti sifatida ajratilishi antropotsentrik paradigmanning shakllanishidagi qonuniy bosqichdir. Bunda obyektiv voqelikdagi tushunchalar milliy-madaniy qoliplar asosida shaxsiy (etnosemantik) munosabat bilan boyitiladi. O'zbek kognitiv tilshunosligining asoschilaridan biri, professor O.Q. Yusupov konsept tushunchasiga keng qamrovli ta'rif beradi. Olimning fikricha, konsept — tashqi va ichki olamdagi predmet yoki hodisalar haqidagi bilimlar majmuasi bo'lib, u o'zida obyektga nisbatan obrazli tasavvurlar hamda subyektiv (ijobiy, salbiy yoki neytral) munosabatni, ya'ni aksiyologik baholashni mujassam etadi[4]. Muhimi, har qanday tushuncha ham konsept darajasiga ko'tarila olmaydi; faqat muayyan milliy yoki umuminsoniy madaniyat uchun qadriyat darajasidagi muhim tushunchalarga konseptual maqomga ega bo'ladi. Taniqli olim G.M. Hoshimov kognitiv tilshunoslikni inson miyasida kechuvchi murakkab konseptual jarayonlar (borliqni anglash, his etish va lisoniy in'ikos ettirish) bilan bog'liq yo'nalish sifatida tavsiflaydi[5]. Olimning nazariyasiga ko'ra, konsept — tafakkurda kechuvchi bir qator o'zaro bog'liq jarayonlarning mahsulidir.

Tahlil va natijalar. Lingvomadaniy konsept sifatida ishonch — insonlararo munosabatlarning poydevori, ijtimoiy barqarorlikning lisoniy va ruhiy kafolati bo'lib, agar burch insonning majburiyatini ifodalasa, «Ishonch» ushbu majburiyatning bajarilishiga bo'lgan ichki ishonchni

va uning lisoniy tasdig'ini aks ettiradi. Ma'naviy yaxlitlik va axloqiy mezon sifatida bugungi jamiyatda shaxsning Ishonch, sadoqat va lafz kabi sifatlar sohibi bo'lishi komil inson g'oyasining uzviy qismi sanaladi; zero insonning jamiyatdagi qadri unga nisbatan bo'lgan ishonch darajasi bilan o'lchanadi. Ishonch — nafaqat hissiyot, balki shaxs va jamiyat o'rtasidagi axloqiy shartnoma bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos poydevori vazifasini o'taydi. Mazkur konsept o'zbek lisoniy olam manzarasida murakkab va ko'p qirrali "insoniy xilqat" sifatida namoyon bo'lib, u berilgan va'daning so'zdagi ifodasi — "Tashqi ifoda" (lafz) hamda insonning o'z mezonlari va o'zgalarning ezgu niyatiga bo'lgan shubhasiz bog'liqligi — "Ichki e'tiqod" dialektikasi orqali voqelanadi. O'zbek madaniyatida "Lafz — halollik belgisi" sifatida qaralishi va lafzga sadoqat burchning eng yuqori nuqtasi deb tan olinishi ishonchning naqadar yuksak ijtimoiy maqomga ega ekanligini ko'rsatadi. Ishonch konsepti vijdon, haqgoylik va sadoqat kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bunda vijdon ishonchni asrovchi ichki mexanizm, sadoqat esa uning vaqt sinovidan o'tgan barqaror shakli sifatida namoyon bo'ladi; binobarin, ishonchni suiste'mol qilish muqarrar ravishda axloqiy tanazzulga olib keladi.

Xulosa. O'zbek tijoriy diskursida qo'llaniladigan *"Yillar sinovidan o'tgan ishonch"*, *"Siz ishongan sifat"*, *"Bizning lafzimiz — sizning xotirjamligingiz"* kabi metaforik qurilmalar ishonchni vaqt va amal birligida (Lafz va sadoqat) ko'rsatib, mavhum iqtisodiy aloqalarni shaxsiy va muqaddas munosabatlar darajasiga ko'taradi. Ishonchning lisoniy verifikatsiyasi tijoriy diskursda manipulyativ

va pragmatik strategiyalar orqali kuchaytiriladi, ya'ni ishlab chiqaruvchi o'zining *"Vijdon"* va *"Haqgoylik"* sifatlarini mijozga isbotlash uchun *«Halol»* sertifikatlari, *"Laboratoriya tasdig'i"* yoki *"Iste'molchilar e'tirofi"* kabi kognitiv dalillardan foydalanadi. Bu jarayonda iste'molchi va brend o'rtasidagi *"axloqiy shartnoma"* o'zaro manfaatlar muvozanatiga tayanadi: *"Brend o'z mas'uliyatini to'laqonli anglash orqali xaridorning ruhiy ishonchini qozonadi. Binobarin, tijoriy diskursda "Ishonch" konsepti ijtimoiy kapitalning eng oliy ko'rinishi bo'lib, u bo'lmagan joyda har qanday reklama matni shunchaki ma'nosiz jumlar yig'indisiga, savdo aloqalari esa bir martalik kelishuvga aylanib qoladi. Shunday qilib, ishonch konsepti tijoriy muloqotning barcha qatlamlarini — lisoniy matndan tortib, ongsiz hissiy idrokka qadar qamrab olib, iqtisodiy jarayonni yuksak insoniy qadriyatlar tizimi bilan payvandlaydi. Binobarin, konsept — bu madaniyatning tildagi genetik kodi bo'lib, u muloqot jarayonida shunchaki axborotni emas, balki jamiyatning ma'naviy va intellektual poydevorini ham uzatadi. Ushbu nazariy yondashuv o'rganilayotgan tijorat diskursidagi maxsus terminlarning nafaqat lug'aviy ma'nosini, balki ularning ortida turgan milliy va professional dunyoqarash namunalari ham ochib berishga nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Lisoniy muloqotda til — konseptning moddiylashish sohasi bo'lsa, tafakkur — uning mavjudlik maydoni, madaniyat esa uni aniqlovchi va mazmun bilan to'ldiruvchi sohadir. Shuni ta'kidlash mumkinki, konseptualizatsiya va kategorizatsiya jarayonlari insonning obyektiv dunyoni o'zlashtirishdagi universal kognitiv qurollari hisoblanadi.*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ломоносов М.В. Полное собрание сочинений. Т. 7: Труды по филологии 1739–1758 гг. — М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1952. — С. 392.
2. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. — М.: Прогресс, 1984. — С. 68.
3. Уорф Б. Л. Наука и языкознание // Новое в лингвистике. Вып. 1. — М.: Изд-во иностр. лит., 1960. — С. 169-182.
4. Юсупов Ў.Қ. Сравнительный анализ английских и узбекских сложноподчиненных предложений с придаточными условными. - дисс... канд.филол.наук. Т.1971г.49с.
5. Хошимов Ғ. М. К теории концептов и их таксономии в когнитивной лингвистике // Систем-структур тилшунослик муаммолари. Филология фанлари доктори, профессор Н.К.Турниёзов таваллудининг 70-йиллигига бағишланган Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. Самарканд, 2010й. 68б.
6. Николаева, Т.М. Краткий словарь терминов лингвистики текста / Т.М. Николаева // Новое в зарубежной лингвистике: Лингвистика текста ; сост., общ. ред. и вступ. ст. Т.М. Николаевой. — М., 1978. — Вып. VIII. — С. 467 – 472.
7. Карасик, В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс / В.И. Карасик. — М. : Гнозис, 2004. — 390 с
8. Арутюнова, Н.Д. Метафора / Н.Д. Арутюнова // Лингвистический энциклопедический словарь. — М., 1990. — С. 296 б

Shaxzoda MUXAMMADALIYEVA,
*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
 o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'qituvchisi*
shahzodaxon532@gmail.com

MAKONIY KODLARDA RAMZIY MA'NONING AKS ETISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada yo'nalishni bildiruvchi makoniy kodlar qatnashgan frazeologik birliklardagi ular anglatgan ramziy ma'nolar tahlil qilingan. Ular badiiy asarlardan olingan misollar orqali izohlangan.

Kalit so'zlar: *makoniy kod, ramziy ma'no, baland, past, o'ng, chap, ijobiy, salbiy.*

Annotation: this article analyzes the symbolic meanings of phraseological units involving spatial codes denoting direction. They are explained using examples from works of art.

Key words: *spatial code, symbolic meaning, high, low, right, left, positive, negative.*

Аннотация: в данной статье анализируются символические значения фразеологических единиц, включающих пространственные коды, обозначающие направление. Они объясняются на примерах из произведений искусства.

Ключевые слова: *пространственный код, символическое значение, высокий, низкий, правый, левый, положительный, отрицательный.*

Til inson tafakkuri va madaniyatining asosiy ifoda vositalaridan biridir. Til tizimida mavjud bo'lgan turli kodlar orqali inson atrof-muhitni idrok etadi va uni ifodalaydi. Shunday kodlardan biri makoniy kodlar bo'lib, ular makon bilan bog'liq tasavvurlarni ifodalaydi. Makonga oid tushunchalar faqatgina fizik joylashuvni emas, balki ramziy va madaniy ma'nolarni ham o'zida mujassam etadi. Shu sababli makoniy kodlarni o'rganish lingvistika, semiotika va lingvokulturologiya uchun muhim ahamiyatga ega.

Insonlar o'zi qadimdan yashayotgan makonning tepa-pasti, balandligi, chuqurini juda ham yaxshi biladi. Ularning muayyan bir hududdagi makonning o'ziga xos belgilari vaqtlar o'tishi bilan makoniy kodlarga aylanishi mumkin. Ya'ni cho'lda yashaydiganlar uchun cho'l cho'ldan boshqa ma'nolarni ifodalashga, tog'da yashovchilar uchun tog' tog'dan boshqa ma'nolarni ifodalashga ham ixtisoslasha boradi. Lingvomadaniy kodlar tasnifida alohida makoniy kodning kiritilishi D.Xudoyberganovanning ilmiy risolasiida keltirilgan: "Makoniy kod ham lingvomadaniyatshunoslikda asosiy kodlardan biri hisoblanadi. Makoniy kod mantiqiy ravishda temporal kodga bog'liq, chunki zamon va makon tushunchalari inson shuurida assotsiativ tarzda anglanib, bir-birini taqozo etadi... U o'ziniki – begona, uzoq – yaqin, yuqori – past, sharq – g'arb kabi semantik oppozitsiyalar bilan bog'liq bo'lib, dunyoning inson tomonidan qismlarga bo'lingan holda idrok etilishi harakatlari natijasi hisoblanadi" [1: 33-34]. Muayyan makondagi tipik yo'nalishlarning nomlari asta-sekinlik bilan ramziy ma'nolar ifodalashga ham o'tadi. Undagi yo'nalish nomlari ramziy ma'no orqali mavhum tushunchalarga kognitiv metaforalar orqali ko'chadi. "Kognitiv metaforalarda inson tafakkuri hissiy bilish mumkin bo'lmagan, faqat aqliy bilish orqali anglanuvchi murakkab mohiyatlar konkret narsalarga o'xshatiladi va shu konkret mohiyatning andozasi orqali murakkab mohiyatni bilish oson kechadi" [2: 75].

Makoniy kodlar kommunikatsiya jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Ular yordamida insonlar o'z fikrlarini nafaqat aniq makoniy ma'noda, balki ramziy tarzda ham ifoda etadilar.

Masalan, "yuqoriga ko'tarilish", "pastga tushish", "markazda turish" kabi iboralar ko'pincha metaforik ma'noda ishlatiladi. Bunday holatlar tilning obrazlilik darajasini oshiradi va nutqning ta'sirchanligini kuchaytiradi.

Masalan, baland-past, o'ng-chap, old-orqa kabi olamdagi yo'nalishlarni ifodalovchi ushbu leksik birliklar frazemalar tarkibida o'ziga xos dixotomik ramziy ma'nolarga ega. O'zbek tilida *baland, o'ng, old* leksemalari, asosan, ijobiy ma'noda; *past, chap, orqa* leksemalari esa salbiy ma'nolarda qo'llaniladi. Ularning metaforik ko'chma ma'nolari kognitiv metaforaning oriyentatsion (yo'naltiruvchi) usuli orqali yuzaga chiqadi. Ularda makondagi yo'nalishlarni bildiruvchi leksemalar vositasida mavhum tushunchalar anglanadi. Masalan *baland* leksemasi yer sathidan, yoki me'yordan ko'tarilgan sathning belgisini ifodalaydi. Past esa yer sathidan, yoki me'yordan tushgan sathning belgisini ifodalaydi. Lekin baland yoki past belgisi aniq belgi bo'lmay, bir-biriga nisbatan olingan belgidir. Masalan, adir qirdan baland, lekin tog'dan past. Qiyosan olinmagan hech bir sathni baland yoki past deb bo'lmaydi.

Ma'lumki, frazeologik qatlamda xalqning dunyoqarashi, falsafiy tasavvuri, estetik didi, axloqiy qadriyatlari aks etgan bo'ladi. Ayniqsa, yo'nalishni bildiruvchi *baland-past, o'ng-chap, old-orqa* kabi leksemalar faqatgina fazoviy holatni emas, balki ma'naviy va ijtimoiy holatlarni ham ramziy tarzda anglatib keladi. Ular yuksaklik va tubanlik, yaxshilik va yomonlik, yetakchilik va bo'ysunish kabi konseptual ziddiyatlarni bildiradi. Ularning mazkur ramziy ma'nolari esa asosan frazeologik tizimida yaqqol namoyon bo'ladi.

Pastdan yuqoriga tomon o'lchami uzun; qaddi, bo'yi uzun; novcha ma'nolarini anglatuvchi *baland* leksemasi frazemalar tarkibida ijobiy ma'noda "yuksaklik, ustunlik" kabi ramziy ma'nolarni bildiradi. Buni semantik metaforik ko'chish sifatida izohlash mumkin. Mazkur ma'no *darajasi baland, obro'yi baland, didi baland, toleyi baland, ixlosi baland, ruhi baland, omadi baland* kabi iboralarda aks etadi. Demak, o'zbek kishilari ongida balandlik ijobiy assotsiatsiya hosil qiladi. Xalq barqaror ixlosni baland tog'ga, tog'ning balandligiga o'xshatmoqda.

Biz tog'ning balandligini ko'ra olamiz, tasavvur qila olamiz, ya'ni hissiy bevosita kuzatishda bilamiz. Lekin ixlosning barqarorligini anglash uchun shu sifatga ega shaxsning xatti-harakatlari kuzatilishi, boshqalar bilan taqqoslanishi, muayyan xulosalar chiqarilishi kabi aqliy operatsiyalar kerak. Bu kabi kognitiv metaforalar orqali xalqning o'ziga xos assotsiatsiyalari, tafakkur tarzi ochiqalanadi. Zero, umuman o'xshamagan konkret va mavhum tushunchalarni o'xshatish uchun bor tasavvur, kuchli assotsiatsiya va milliy o'lchov andozalari kerak bo'ladi.

Baland leksemasining "yuksaklik, ustunlik" kabi ramziy ma'nolarda qo'llanganini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin: *Kirgan kishiga eng avval uy egalarining didi baland ekanligi, toza, pok hayot kechirishlari ko'zga chalinari edi* [3]. *Bublik bilan qiz chirs-chirs qilib tutoqqan kichkina gulxan oldida ko'zlari olaqaroq, lekin ahil va jiddiy so'zlashardilar, bajarishga azm qilgani xavfli ishning hayajoni bilan yuraklari to'la! Ruhlari baland – ko'tarinki edi* [4]. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan "yuqori – yaxshi" metaforasi mavjud. Inson tajribasida yuqoriga ko'tarilish ko'pincha muvaffaqiyat yoki ustunlik bilan bog'langan. Lingvokulturologik nuqtayi nazardan "baland" tushunchasi ko'plab madaniyatlarda ulug'lik va qudrat bilan bog'langan. Masalan, tarixiy davrlarda hukmdorlar saroylari yoki ibodatxonalar baland joylarda qurilgan. Shu sababli *baland* leksemasi ko'plab iboralarda ijobiy baholovchi ramziy ma'noga ega.

Salbiy ma'noda "mag'rurlik, kekkayish, dimog'dorlik" kabi ramziy ma'nolarni bildiradi va ayrim shunday insonlarga nisbat berish uchun ishlatiladi. *Balanddan kelmoq, baland oxuridan yem yeb o'rgangan, bir parda baland olib yurmoq, dimog'i baland, havosi baland, o'zini baland olmoq* kabi iboralar bunga misol bo'ladi. *Baland oxuridan yem yeb o'rgangan kishi avval boshi qo'rqib ketadi* [5]. *Ammo lekin dimog'i baland. Birov buyurgan ishni qilmaydilar* [6].

Past leksemasi fazoviy jihatdan quyi joylashuvni bildiradi. Ko'chma ma'noda esa ko'pincha kamsitish, pastkashlik yoki kam qadrlanish mazmunini ifodalaydi. Frazemalar tarkibidagi *past* leksemasi ham o'ziga xos ramziy ma'nolarga ega. *Mashqi past, shaxti past* kabilarda "sust, sekin" kabi ramziy ma'nolarni anglatadi. *Negadir Hoshimjon akamning mashqlari pastroq ko'rinadi, agar terimda shoshib shoshib qolgan bo'lsalar, yordamga tayyormiz* [7].

Shuningdek, "kamsitish" ramziy ma'nosi *esi past, tagi past, zoti past, pastga urmoq* kabi frazemalarda voqelanadi. *Otasini*

ko'ndiramiz, uning tagi past, jazosi pulda [8]. *Birovning uyiga bostirib kiribki, shunchalik pastkashlik qilishyaptimi, qo'ying, gaplashmang, nima qilasiz o'zingizni pastga urib, jon o'g'lim* [3].

Ushbu leksemda "yon bosmoq" ramziy ma'nosi ham mavjud bo'lib, *past kelmoq, past tushmoq, o'zini past olmoq* kabi iboralarda yuzaga chiqadi. *Salimxon o'zini past olgandan so'ng Saidiy tilga kirdi* [9]. Ko'plab madaniyatlarda "past – salbiy" konsepti mavjud. Bu holat insonning jismoniy tajribasiga asoslanadi: yerga yaqinlik yoki quyi joylashuv ko'pincha zaiflik yoki bo'ysunish bilan bog'lanadi.

O'ng leksemasi "muvaffaqiyat, omad, yaxshilik" kabi ramziy ma'nolarga ega.

Agar ishi o'ngidan kelib, mashina qo'lga kirsar, magazin va skladlardan olinadigan buyumlarni mashina kabinasiga, yo'llangan shofyor yoniga o'tirib, erta yo'lin bimalol kezib sotib olaman deb o'ylagandi [10]. Tarixiy va diniy tasavvurlarda o'ng tomon ko'pincha muborak, to'g'ri, pok tushunchalari bilan bog'langan. Shu sababli *o'ng* leksemasi iboralarda ijobiy semantik yukga ega.

O'ng leksemasining antonimi bo'lgan *chap* leksemasi esa "yomonlik, teskarilik" ramziy ma'nolarini bildiradi. *Chap ko'zing o'ng ko'zingga do'st bo'lmaydi-yu, ko'pchilikka el bo'larmiding?!* [11] Ko'plab madaniyatlarda chap tomon noqulay yoki salbiy ramz sifatida qabul qilingan. Bu esa til birliklarida ham o'z aksini topgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilishimiz mumkinki, tilning frazeologik tizimi inson tafakkurining eng qadimiy va ramziy qatlamlaridan biri hisoblanadi. Makoniy kodlar til va madaniyat tizimida muhim o'rin tutadi. Ular nafaqat makoniy munosabatlarni ifodalaydi, balki inson tafakkuri va madaniy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Makoniy tushunchalar ko'pincha ramziy ma'noga ega bo'lib, ular orqali ijtimoiy, ma'naviy va madaniy g'oyalar ifodalanadi. Shu sababli makoniy kodlarni o'rganish tilshunoslik, semiotika va lingvokulturologiya sohalarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Baland, past, o'ng va *chap* leksemalari dastlab makoniy ma'noni bildirsa-da, til taraqqiyoti jarayonida ular turli ramziy va metaforik ma'nolarni ham ifodalashga xizmat qilgan. Bu birliklar xalqning madaniy tajribasi, dunyoqarashi va ijtimoiy qadriyatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bois mazkur leksemalar qatnashgan iboralarni o'rganish lingvokulturologiya, semantika va kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Худойбергенова Д. Тил. Тафаккур. Маданият. – Тошкент: Nodirabegim, 2020. – 120-б.
2. Хакимова М. Семасиология. – Toshkent: 2025. – 142 б.
3. Исмоилий М. Фарғона тонг отгунча. – Тошкент: Sharq, 2010. – 464 б.
4. Ойбек. Қўёш қораймас. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 208 б.
5. Абдулла Қаҳҳор. Қўшчинор чироғлари. – Тошкент: Фафур Ғулом, 1967. – 328 б.
6. Said Ahmad. Cho'l burguti (hikoya).
7. Said Ahmad. Qadrdon dalalar. – Toshkent: Turon zamin, 2015. – 224 б.
8. Шарипов Ж. Хоразм. – Тошкент: Тошкент бадиий адабиёт нашриёти, 1965. – 384 б.
9. Абдулла Қаҳҳор. Сароб. – Тошкент: Шарқ, 1995. – 240-б.
10. Ойбек. Олтин водийдан шабадалар. – Тошкент: Фан, 1976. – 541-б.
11. Parda Tursun. O'qituvchi. – Toshkent: Sharq, 2003.

Moxigul ALMARDONOVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasida o'qituvchisi

Moxigul.almardonova@bk.ru

QASHQADARYO VILOYATI TOPONIMLARINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA ULARNING HUDUD XOTIRASIDAGI O'RNI.

Annotatsiya: mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati hududidagi toponimlarning tarixiy shakllanish jarayoni, ularning lingvistik va tarixiy xususiyatlari hamda hududiy xotirani saqlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Toponimlar nafaqat geografik obyektlarni nomlash vositasi, balki hududning tarixiy, madaniy va ijtimoiy rivojlanishini aks ettiruvchi muhim manba sifatida qaraladi. Tadqiqot jarayonida Qashqadaryo viloyatidagi ayrim joy nomlarining kelib chiqishi, semantik mazmuni va tarixiy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, toponimlarning hudud tarixini tiklash, etnomadaniy jarayonlarni o'rganish hamda milliy madaniy merosni saqlashdagi roli yoritildi.

Kalit so'zlar: *toponim, toponimika, hudud xotirasi, oykonim, gidronim, lingvomadaniyat, tarixiy nomlar, Qashqadaryo viloyati.*

Аннотация: в данной статье анализируется исторический процесс формирования топонимов в Кашкадарьинской области, их лингвистические и исторические характеристики, а также их значение в сохранении территориальной памяти. Топонимы рассматриваются не только как средство наименования географических объектов, но и как важный источник, отражающий историческое, культурное и социальное развитие региона. В ходе исследования научно проанализированы происхождение, семантическое содержание и исторические основы некоторых топонимов Кашкадарьинской области. Также подчеркнута роль топонимов в восстановлении истории региона, изучении этнокультурных процессов и сохранении национального культурного наследия.

Ключевые слова: *топоним, топонимия, территориальная память, ойконим, гидроним, языковая культура, исторические названия, Кашкадарьинский регион.*

Annotation: this article analyzes the historical process of toponym formation in the Kashkadarya region, their linguistic and historical characteristics, and their importance in preserving territorial memory. Toponyms are considered not only as a means of naming geographical features but also as an important source reflecting the historical, cultural, and social development of the region. This study provides a scientific analysis of the origin, semantic content, and historical foundations of some toponyms in the Kashkadarya region. The role of toponyms in reconstructing the region's history, studying ethnocultural processes, and preserving national cultural heritage is also emphasized.

Key words: *toponym, toponymy, territorial memory, oikonym, hydronym, linguistic culture, historical names, Kashkadarya region.*

Kirish. Joy nomlari yoki toponimlar insoniyat tarixining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ular hududning tabiiy-geografik xususiyatlari, tarixiy jarayonlari, etnik tarkibi va madaniy an'analarni o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli toponimlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va geografiya fanlari uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston hududida joy nomlarini o'rganish masalasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ayniqsa, ayrim viloyatlar toponimikasini o'rganish hudud tarixini tiklash va milliy madaniy merosni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Asosiy qism. Qashqadaryo viloyati qadimiy tarixga ega hududlardan biri bo'lib, bu yerda shakllangan joy nomlari

ko'p asrlik tarixiy jarayonlarning mahsuli hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati hududidagi toponimlar turli davrlarda yashagan xalqlarning madaniyati, turmush tarzi va ijtimoiy hayoti haqida muhim ma'lumotlarni saqlab keladi. Shu bois mazkur hudud toponimlarini o'rganish hudud xotirasini tiklash va tarixiy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi – mazkur tadqiqotda ilmiy tahlil, qiyosiy-lingvistik, tarixiy va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida Qashqadaryo viloyatidagi ayrim toponimlarning kelib chiqishi, shakllanish jarayoni hamda ularning tarixiy asoslari o'rganildi. Shuningdek, hudud toponimlari quyidagi mezonlar asosida tahlil qilindi:

- ✓ tarixiy manbalarga asoslangan tahlil;
- ✓ lingvistik va etimologik tahlil;
- ✓ geografik va madaniy xususiyatlarni aniqlash.

Mazkur metodlar yordamida joy nomlarining hudud tarixidagi o'rni va ahamiyati aniqlab berildi.

Qashqadaryo viloyati toponimlarining tarixiy shakllanishi. Qashqadaryo viloyati toponimlari uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan bo'lib, ular hududning tabiiy sharoiti, ijtimoiy hayoti hamda etnik tarkibi bilan chambarchas bog'liq. Ko'plab joy nomlari qadimgi turkiy til qatlamiga mansub bo'lib, ular hududda yashagan qabilalar va xalqlar tarixini aks ettiradi. Masalan, viloyat nomining o'zi ham *Qashqadaryo* daryosi nomi bilan bog'liq. Ayrim tadqiqotchilar ushbu nomni qadimgi turkiy til bilan bog'lab, "qashqa" so'zini "ochiq rangli" yoki "belgili" ma'nosida izohlaydilar. Bu esa hududning tabiiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Viloyat hududidagi Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Chiroqchi kabi oykonimlar ham tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan. Masalan, Shahrisabz nomi fors tilidan kelib chiqqan bo'lib, "yashil shahar" degan ma'noni anglatadi. Bu nom hududning tabiiy manzarasi va unumdor yerlari bilan bog'liq holda shakllangan. Shuningdek, Chiroqchi toponimi tarixiy karvon yo'llari bilan bog'liq bo'lib, ayrim manbalarda ushbu hududda yo'lovchilarga yo'l ko'rsatish yoki yorug'lik berish vazifasini bajargan shaxslar yashaganligi bilan izohlanadi.

Toponimlar – hudud xotirasining muhim manbasi sanaladi. Toponimlar hududning tarixiy xotirasini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ular orqali qadimgi aholi turmushi, iqtisodiy faoliyati va madaniy an'analari haqida muhim ma'lumotlarni bilish mumkin. Masalan, ayrim joy nomlari hududning tabiiy xususiyatlari bilan bog'liq:

- ✓ *Ko'kdala* - keng va yashil dala hududi mavjudligini bildiradi;
- ✓ *Qoratepa* - baland tepalik yoki qoramtir tuproqli hududni anglatadi;
- ✓ *Oqtepa* - tuproq rangiga yoki hududning geologik xususiyatlariga ishora qiladi.

Bunday nomlar hududning tabiiy geografiyasini aks ettiradi va tarixiy ma'lumotlarni saqlab qoladi.

Shuningdek, ayrim toponimlar etnik yoki ijtimoiy guruhlar nomi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu esa hududda yashagan qabila yoki urug'lar tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Qashqadaryo toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari. Qashqadaryo viloyati toponimlari lingvomadaniy jihatdan ham boy hisoblanadi. Ular xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, ayrim joy nomlari xalq orasida mavjud bo'lgan rivoyatlar yoki tarixiy voqealar bilan izohlanadi. Bu esa toponimlarning nafaqat lingvistik, balki madaniy va ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Toponimlarni o'rganish orqali hududning tarixiy-madaniy merosini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish mumkin. Shu sababli toponimika fanining rivojlanishi milliy madaniyatni o'rganish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

- ✓ Qashqadaryo viloyati toponimlari ko'p qatlamli tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan.
- ✓ Joy nomlarining aksariyati hududning tabiiy-geografik xususiyatlari bilan bog'liq.
- ✓ Ayrim toponimlar hududda yashagan etnik guruhlar yoki tarixiy voqealar bilan bog'liq holda shakllangan.
- ✓ Toponimlar hududning tarixiy xotirasini saqlashda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Xulosa. Qashqadaryo viloyati toponimlarini o'rganish hudud tarixini, madaniy merosini va etnomadaniy jarayonlarini tadqiq qilishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Joy nomlari hududning tabiiy sharoiti, tarixiy voqealari hamda xalqning turmush tarzi haqida muhim ma'lumotlarni saqlab keladi. Shu bois toponimlarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularni tizimli ravishda tadqiq qilish hudud tarixini tiklash hamda milliy madaniy merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida Qashqadaryo viloyati toponimlarini yanada chuqurroq o'rganish hududning tarixiy va madaniy rivojlanishini yanada kengroq yoritish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. O'zbek toponimikasi asoslari. –Toshkent.
2. Nafasov T. O'zbekiston toponimlari. –Toshkent.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. — Toshkent.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. Yillm.–Toshkent.
5. O'zbekiston geografiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar to'plami.

Manzura NARZILLOYEVA,
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti,
Zarmed universiteti o'qituvchisi
Manzura1993n@gmail.com



JONDOR MIKROTOPONIMLARINING ETIMOLOGIK TADQIQI

Annotatsiya: ushbu maqolada Buxoro viloyati Jondor tumani hududida uchraydigan mikrotoponimlarning etimologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida hududdagi kichik geografik obyektlar nomlarining kelib chiqish manbalari, ularning semantik va struktur xususiyatlari o'rganildi. Mikrotoponimlarning shakllanishida tabiiy-geografik sharoit, tarixiy jarayonlar hamda mahalliy aholining xo'jalik faoliyati muhim rol o'ynashi aniqlangan. Tadqiqot natijalari hudud toponimiyasining tarixiy va lingvistik jihatlarini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: mikrotoponim, toponimika, etimologiya, Jondor, joy nomlari, lingvistik tahlil, geografik nomlar, semantika.

Annotation: this article analyzes the etymological features of microtoponyms found in the Jondor district of Bukhara region. In the course of the research, the sources of origin of the names of small geographical objects in the region, their semantic and structural features were studied. It was determined that natural and geographical conditions, historical processes, and the economic activities of the local population play an important role in the formation of microtoponyms. The results of the research serve as an important scientific source in studying the historical and linguistic aspects of the toponymy of the region.

Key words: microtoponym, toponymy, etymology, Jondor, place names, linguistic analysis, geographical names, semantics.

Kirish. Toponimika tilshunoslik fanining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, geografik hududdagi obyektlarning nomlarini, ularning kelib chiqish tarixi, shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi. Toponimlar hududiy jihatdan, ikki guruhga bo'linadi:

1. Makrotoponimlar

2. Mikrotoponimlar

Makrotoponim — katta geografik obyektlarning nomini bildiradigan toponim turidir. U yirik hududlar, davlatlar, dengizlar, tog' tizmalari, katta daryolar kabi keng maydonni egallagan joylarning nomlarini o'z ichiga oladi. Mikrotoponimlar esa kichik geografik obyektlar — dalalar, ariqlar, tepaliklar, yaylovlar, bog'lar, ko'chalar, mahalla, guzar, qir kabi joy nomlarini ifodalaydi.

O'zbekiston hududida mikrotoponimlarni o'rganish hududiy tarixni, xalqning yashash va turmush tarzini hamda til taraqqiyotini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Buxoro viloyatining Jondor tumani ham o'ziga xos tarixiy va madaniy hudud bo'lib, bu yerda shakllangan mikrotoponimlar hududning tabiiy sharoiti, etnik, madaniy tarkibi va xo'jalik faoliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Mazkur maqolaning maqsadi Jondor hududida uchraydigan mikrotoponimlarning etimologik xususiyatlarini aniqlash va ularni lingvistik jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Jondor mikrotoponimlarning lingvistik xususiyatlari

Buxoro viloyati Jondor tumanidagi mikrotoponimlar tilshunoslikda kichik geografik obyektlar nomlarini ifodalovchi toponimlar sifatida qaraladi. Ular ko'pincha Jondor hududidagi mahalliy aholi nutqida faol qo'llanadi va ayrim hollarda rasmiy hujjatlar yoki xaritalarda qayd etilmagan bo'lishi mumkin: Sohibkor, Namozgoh, Birlik, Maysazor, Olmazor, Zarkent, O'rikzor, Archazor, Ziyolilar, Birdamlik, O'yingoh.

Mikrotoponimlarning shakllanishida bir nechta omillar muhim rol o'ynaydi. Bular:

tabiiy-geografik sharoit;

tarixiy jarayonlar;

etnik tarkib;

xo'jalik faoliyati;

mahalliy dialekt va til xususiyatlari.

Ko'plab mikrotoponimlar turkiy, forsiy va arabiy til elementlarining qo'shilishidan hosil bo'lgan murakkab nomlardan iborat.

Jondor mikrotoponimlarining shakllanish manbalari

Jondor hududida uchraydigan mikrotoponimlarni kelib chiqishiga ko'ra bir necha guruhlariga ajratish mumkin.

1. Tabiiy-geografik obyektlar asosida shakllangan mikrotoponimlar

Bunday mikrotoponimlar hududning relyefi, suv manbalari yoki o'simlik, hayvonot dunyosi bilan bog'liq

bo'ladi. Masalan, Jondor hududidagi tepa, qir, ariq, soy mikrotoponimlari o'zida hududning tabiiy xususiyatlarini aks ettiradi: Nurafshon, Boliob, Toshquduq, Jo'yisafed.

2. Antroponim asosidagi mikrotoponimlar

Ba'zi mikrotoponimlar ma'lum shaxslarning nomi bilan bog'liq bo'lib, ular odatda yer egalari yoki mahalliy tarixiy shaxslar nomlari bilan ataladi. Bu turdagi nomlar hududning tarixiy ijtimoiy tuzilishini ham aks ettiradi: Siyovush, Alpomish, Jaloliddin Manguberdi, Luqmoni Hakim.

3. Xo'jalik faoliyati bilan bog'liq mikrotoponimlar

Jondor hududi qadimdan qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlardan biri bo'lgan. Shu sababli mikrotoponimlar orasida dehqonchilik, chorvachilik yoki hunarmandchilik bilan bog'liq nomlar ham uchraydi: Xumdonak, Duradgorlar, Tabiblar, Tobagar.

Jondor mikrotoponimlarining etimologik tahlili

Hudud mikrotoponimlarini etimologik jihatdan o'rganish ularning kelib chiqish manbalarini aniqlash imkonini beradi.

Ko'plab mikrotoponimlar turkiy til qatlamiga mansub bo'lib, ular hududning tabiiy geografik xususiyatlarini ifodalovchi so'zlardan tashkil topgan. Masalan, tepa, qir, ariq, soy kabi komponentlar turkiy kelib chiqishga ega.

Fors tilidan kirib kelgan obod, deh, goh, rabot, rud, xona kabi komponentlar esa hududning tarixiy madaniy aloqalari natijasida toponimik tizimga kirib kelgan: Oromgoh, Chaqirobod, Obodqishloq, Rabotio'g'lon, Arabxona.

1. Shuningdek, ayrim mikrotoponimlar tarkibida arab tilidan o'zlashgan shaxs nomlari yoki diniy atamalar ham uchraydi. Bu holat hududda islom madaniyatining tarqalishi bilan bog'liq tarixiy jarayonlarni aks ettiradi: Abdulla Eshon, Xo'ja Pirnafas, Sulton Sahoba.

Jondor tumani hududida ko'plab qishloq va kichik hudud nomlari mavjud bo'lib, ular tarixiy, tabiiy hamda etnik omillar asosida shakllangan. Tuman tarkibida Aleli, Dalmun, Lolo, Mirzayon, Navrabort, Oqshix, Romish, Po'loti, Samonchuq, Sepatta, Xumdonak, kabi qishloq fuqarolar yig'inlari mavjud bo'lib, bu nomlar ham hudud toponimiyasining muhim qatlamini tashkil etadi.

Quyida ayrim mikrotoponimlarning etimologik tahlili keltiriladi.

Navrabort

"Navrabort" toponimi ikki komponentdan tashkil topgan: nav (fors tilida "yangi") va rabot (arabcha "karvonsaroy", "qo'rg'on"). Demak, "Navrabort" nomi "yangi rabot", ya'ni yangi qo'rg'on yoki yangi karvonsaroy ma'nosini anglatadi. Bu nom hududning tarixda savdo yo'llari bilan bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Romish

"Romish" toponimi ayrim tadqiqotchilar fikriga ko'ra, qadimgi sug'd yoki fors tilidagi "ramish" ("orom", "tinchlik") so'zi bilan bog'liq. Bu esa hududning tinch yashash uchun qulay maskan sifatida shakllanganini bildiradi.

Oqshix

"Oqshix" toponimi ikki qismdan iborat: oq (turkiy til qatlamiga mansub bo'lib, rang yoki poklik ma'nosini bildiradi) va shix (shayx) (arabcha kelib chiqishga ega bo'lib, diniy ulamo yoki pir ma'nosini bildiradi). Bu nom hududda muqaddas yoki hurmat qilingan diniy shaxs yashagan bo'lishi ehtimolini ko'rsatadi.

Samonchuq

"Samonchuq" nomi turkiy "saman" (somon, poxol) so'zidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Bu esa hududda chorvachilik yoki dehqonchilik faoliyati rivojlanganini anglatadi.

Xumdonak

"Xumdonak" toponimi "xum" (sopol idish) so'zi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu hududda qadimda kulolchilik yoki sopol buyumlar tayyorlash bilan shug'ullangan ustalar yashagan bo'lishi ehtimoli mavjud.

Xulosa. Jondor hududidagi mikrotoponimlar o'zida hududning tarixiy, madaniy va tabiiy xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklar hisoblanadi. Ularning etimologik tahlili hududning qadimiy til qatlamlari va tarixiy rivojlanish jarayonlarini aniqlashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Jondor mikrotoponimlari asosan turkiy, forsiy va arabiy til elementlari asosida shakllangan. Ularning o'rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki tarix, geografiya va etnografiya fanlari uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Begmatov E. O'zbek toponimikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2010.
2. Nafasov T. O'zbekiston toponimlari izohi. – Toshkent: O'qituvchi, 1988.
3. Rahmonov N. O'zbek tilining tarixiy leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 2012.
4. Hajiyev A. Tilshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent, 2002.
5. Kilichev B., Axmatova I. Ayrim toponimlarning tarkibi va semantikasi haqida. – Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2021.
6. Adizova N.B. Buxoro tumani toponimlari. – Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2017.
7. Mirakmalov M. Xalq geografik terminlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
8. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2000

Iqbol RUSTAMOVA,
Payariq tumani 19-umumta'lim maktabi o'qituvchisi

KONSEPT VA UNING DUNYO TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada kognitiv tilshunoslik doirasida "konsept" tushunchasining nazariy talqini, uning til va tafakkur tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, konseptning lingvokognitiv xususiyatlari, uning konseptosfera tarkibidagi o'rni hamda til birliklari orqali ifodalanish mexanizmlari yoritiladi. Tadqiqot jarayonida turli tilshunos olimlarning qarashlari tahlil qilinib, konsept, tushuncha va so'z o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: *konsept, kognitiv tilshunoslik, konseptosfera, lingvokognitiv tahlil, mental birlik, semantik maydon, til va tafakkur.*

Аннотация: в данной статье рассматривается теоретическое понимание понятия «концепт» в рамках когнитивной лингвистики, а также анализируется его роль в системе языка и мышления. Кроме того, освещаются лингвокогнитивные свойства концепта, его место в концептосфере и механизмы выражения через языковые единицы. В процессе исследования анализируются точки зрения различных лингвистов, обосновывается научное взаимодействие между концептом, понятием и словом.

Ключевые слова: *концепт, когнитивная лингвистика, концептосфера, лингвокогнитивный анализ, ментальная единица, семантическое поле, язык и мышление.*

Annotation: this article explores the theoretical interpretation of the concept within the framework of cognitive linguistics and analyzes its role in the system of language and thought. Furthermore, it highlights the linguocognitive characteristics of the concept, its position within the conceptosphere, and the mechanisms of its expression through linguistic units. The study examines the perspectives of various linguists and scientifically substantiates the interrelations between concept, notion, and word.

Key words: *concept, cognitive linguistics, conceptosphere, linguocognitive analysis, mental unit, semantic field, language and thought.*

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida tilshunoslikda yuz bergan kognitiv burilish natijasida "konsept" tushunchasi ilmiy muomalaga faol kirib keldi. Bugungi kunda konsept lingvistika, kognitiv psixologiya, madaniyatshunoslik, semiotika hamda neyrofanlar kesishmasida o'rganilayotgan markaziy kategoriyalardan biridir. U inson ongida voqelik haqidagi bilimlarning umumlashtirilgan, strukturalashgan va madaniy jihatdan belgilangan modeli sifatida talqin qilinadi [Anorqulova, 2024].

Konsept nazariyasining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, uning ildizlari antik falsafagacha borib taqaladi. Konsept muammosi dastlab mantiq va gnoseologiya doirasida ko'rib chiqilgan. Platon g'oyalar nazariyasini ilgari surib, real narsalarning ortida ideal mohiyat mavjudligini ta'kidlagan. Uning fikricha, inson tafakkuri ana shu ideal shakllarni idrok etadi. Bu qarash keyinchalik konseptualizm uchun nazariy zamin yaratdi [11]. Aristotel esa tushunchani mantiqiy kategoriya sifatida talqin qilib, tasnif va kategoriyalash mexanizmlarini ishlab chiqqan. Unga ko'ra, tafakkur narsalarning umumiy belgilari asosida tushuncha hosil qiladi [8]. Yangi davr falsafasida Immanuel Kant inson ongidagi "a priori kategoriyalar" nazariyasini ilgari surdi. Kantga ko'ra, inson voqelikni tayyor kategoriyalar orqali idrok etadi. Bu qarash zamonaviy kognitiv lingvistika uchun metodologik asos vazifasini bajardi [9]. Demak, dastlab konsept mantiqiy-falsafiy kategoriya sifatida shakllangan bo'lsa, keyinchalik u lingvistik mazmun kasb etdi.

XX asrning ikkinchi yarmida tilshunoslikda strukturalizmning cheklanganligi sezila boshladi va tilni inson tafakkuri bilan bog'liq holda o'rganish zarurati tug'ildi. Natijada kognitiv lingvistika shakllandi. Bu yo'nalish vakillari tilni inson ongidagi konseptual tizimning aks etishi sifatida talqin qiladilar. J.Lakoff va M.Johnson o'zlarining "Metaphors we live by" (Biz yashaydigan metaforalar) asarida konseptual metafora nazariyasini ishlab chiqdilar. Ularning fikricha, metafora faqat badiiy vosita emas, balki tafakkurning asosiy mexanizmi hisoblanadi. Masalan, "VAQT – PUL" kabi konseptual metafora insonning vaqt haqidagi tasavvurini shakllantiradi [3].



Ronald Langacker kognitiv grammatika nazariyasini ishlab chiqib, grammatik strukturalarni ham konseptual jarayonlar bilan bog'ladi. Leonard Talmy esa konseptual tuzilmalarning semantik modellarini ishlab chiqdi [6]. Kognitiv lingvistika doirasida konsept quyidagicha talqin qilinadi:

Konseptni o'rganishda kognitiv psixologiya muhim rol o'ynadi. Eleanor Rosch tomonidan ishlab chiqilgan prototip nazariyasiga ko'ra, kategoriyalar qat'iy chegaralarga ega emas, balki markaz (prototip) va periferiyadan iborat


bo'ladi [5]. Masalan, "qush" konseptining markazida chumchuq yoki kaptar turishi mumkin, biroq tuyaqush periferiyaga yaqinlashadi. Jerome Bruner esa konsept shakllanishining psixologik mexanizmlarini o'rgangan. Bu yondashuv konseptning dinamik va gradatsion xarakterga ega ekanini ko'rsatdi [2].

Rus tilshunosligida konsept lingvokulturologik nuqtayi nazardan keng tadqiq qilindi. Y. Stepanov konseptni "madaniyatning asosiy hujayrasi" deb ataydi [12]. Uning fikricha, har bir konsept: *tarixiy qatlamga ega; madaniy qadriyatlarni mujassamlashtiradi; til birliklarida ifodalanadi*. Viktor Karasik konseptning diskursiv xususiyatlarini tahlil qildi [10]. Anna Wierzbicka esa tabiiy

semantik metatil nazariyasini ishlab chiqib, universal semantik primitivlar orqali konseptlarni tavsiflashga harakat qildi [7]. Bu maktabda konsept quyidagi komponentlardan iborat deb qaraladi:



Hozirgi davrda konsept tadqiqi quyidagi yo'nalishlarda rivojlanmoqda:



Dunyo tilshunosligida konsept tushunchasi evolyutsion yo'lni bosib o'tdi:

- Dastlab, falsafiy kategoriya sifatida shakllandi;
- kognitiv lingvistika doirasida mental birlik sifatida talqin qilindi;
- lingvokulturologiyada madaniy kod sifatida o'rganildi;
- zamonaviy fanlarda esa interdisipliner obyektga aylandi.

Bugungi kunda konsept inson tafakkuri, til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushuntiruvchi universal ilmiy kategoriya sifatida qaralmoqda.

Umuman olganda, "konsept" tushunchasi tilshunoslikda kognitiv burilish natijasida ilmiy markazga chiqdi va inson tafakkuri, til hamda madaniyat o'rtasidagi murakkab bog'liqlikni tushuntiruvchi universal kategoriya sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, konsept falsafiy, psixologik va lingvistik yondashuvlarni birlashtirib, interdisipliner ilmiy obyekt sifatida rivojlanmoqda. Shuningdek, konsept tadqiqi til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur tushunishga imkon yaratadi va zamonaviy tilshunoslik hamda kognitiv fanlar uchun metodologik asos vazifasini bajaradi. Shu bois konsept hozirgi fanlar olamida markaziy va strategik ahamiyatga ega ilmiy kategoriya hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anorqulova O.N. Konsept – tushuncha – so'z munosabati // PEDAGOGS International Research Journal. – 2024. – №53(2). 17–21-b.
2. Bruner J. Acts of Meaning. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1990.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
4. Langacker R. W. Foundations of Cognitive Grammar, Vol. I: Theoretical Prerequisites. – Stanford: Stanford University Press, 1987.
5. Rosch E. Principles of Categorization // Cognition. – 1978. – Vol. 8, №1. – P. 1–47.
6. Talmy L. Toward a Cognitive Semantics, Vol. I: Concept Structuring Systems. – Cambridge: MIT Press, 2000.
7. Wierzbicka A. Semantics: Primes and Universals. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
8. Аристотель. Категории // Сочинения в 4 т. – Москва: Мысль, 1984. – Т. 1. – С. 45–98.
9. Кант И. Критика чистого разума. – Москва: Мысль, 1994. – 591 с.
10. Карасик В.И. Язык и дискурс: когнитивные и коммуникативные аспекты. – Волгоград: Перемена, 2002. – 256 с.
11. Платон. Государство. – Москва: Мысль, 1991. – 704 с.
12. Степанов Ю.С. Лингвокультурология: Введение в изучение языка и культуры. – Москва: Наука, 1995. – 320 с.

Saida ABRAMATOVA,

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Xorijiy tillar kafedrasida stajor o'qituvchisi

QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK NUQTAYI NAZARIDAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada frazeologik birliklarning qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishi hamda ularning tarjima jarayonidagi xususiyatlari tahlil qilinadi. Frazeologizmlar tilning milliy-madaniy xususiyatlarini, xalqning dunyoqarashi va mentalitetini aks ettiruvchi muhim lingvistik birliklar hisoblanadi. Shu sababli ularni boshqa tilga tarjima qilish jarayoni murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, lingvistik hamda madaniy omillarni chuqur hisobga olishni talab etadi. Maqolada frazeologik birliklarning semantik, strukturaviy va pragmatik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi hamda ularni tarjima qilishda qo'llaniladigan asosiy strategiyalar — ekvivalent topish, analog tanlash, tavsifiy tarjima, modulyatsiya va kompensatsiya usullari yoritiladi.

Kalit so'zlar: *qiyosiy tilshunoslik, tarjimashunoslik, frazeologik birliklar, frazeologizm, ekvivalentlik, adekvat tarjima, lingvokulturologiya.*

Annotation: this article examines the translation features of phraseological units from the perspectives of comparative linguistics and translation studies. Phraseological units represent culturally marked linguistic elements that reflect national mentality, worldview, and historical experience. Therefore, their translation requires not only semantic accuracy but also cultural and pragmatic adequacy. The study provides a comparative analysis of the semantic, structural, and functional characteristics of phraseological units in different languages and identifies major translation strategies used to render them effectively. Particular attention is paid to such techniques as equivalence, analogical substitution, descriptive translation, modulation, and compensation.

Key words: *comparative linguistics, translation studies, phraseological units, equivalence, adequate translation, cultural adaptation.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются особенности перевода фразеологических единиц с точки зрения сравнительного языкознания и переводоведения. Фразеологизмы являются культурно маркированными языковыми единицами, отражающими национальное мировоззрение, менталитет и исторический опыт народа. В связи с этим их перевод требует не только семантической точности, но и прагматической и культурной адекватности. В работе проводится сравнительный анализ семантических, структурных и функциональных характеристик фразеологических единиц в разных языках, а также рассматриваются основные переводческие стратегии: поиск эквивалента, подбор аналога, описательный перевод, модуляция и компенсация.

Ключевые слова: *сравнительное языкознание, переводоведение, фразеологические единицы, эквивалентность, адекватный перевод, культурная адаптация.*

Kirish. Til inson tafakkuri, madaniyati va milliy dunyoqarashining muhim ifodachisi sifatida jamiyat taraqqiyotida alohida o'rin tutadi. Har bir tilning boyligi va o'ziga xosligi, avvalo, uning frazeologik tizimida yaqqol namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklar xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlarini, mentalitetini hamda madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi barqaror til birliklari sifatida lingvistik va madaniy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois ularni boshqa

tilga tarjima qilish jarayoni murakkab va ko'p qirrali masala hisoblanadi.

Qiyosiy tilshunoslik turli tillarning leksik, semantik va strukturaviy xususiyatlarini o'zaro taqqoslash orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlaydi. Bu esa tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, frazeologik birliklar ko'pincha bevosita tarjima qilinmaydigan, ko'chma ma'no va madaniy

konnotatsiyaga ega bo'lgan birliklar bo'lgani sababli, ularni qiyosiy tahlil asosida o'rganish dolzarb masalalardan biridir.

Tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan frazeologizmlarni adekvat tarjima qilish ekvivalentlik masalasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ko'pincha manba tilidagi frazeologik birlikning ma'nosi, uslubiy bo'yoqlari va pragmatik ta'sirini to'liq saqlagan holda tarjima qilish qiyin bo'ladi. Bunday hollarda tarjimon turli strategiyalardan – ekvivalent topish, analog tanlash, tavsifiy tarjima, modulyatsiya yoki kompensatsiya kabi usullardan foydalanadi. Shuningdek, lingvokulturologik omillar ham tarjima jarayonida muhim rol o'ynaydi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, globallashuv sharoitida tillararo va madaniyatlararo muloqotning kengayishi frazeologik birliklarning tarjimasiga alohida e'tibor qaratishni talab etmoqda. Frazeologizmlarni noto'g'ri yoki yuzaki tarjima qilish matnning badiiy-estetik qiymatini pasaytirishi, hatto kommunikativ maqsadning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – frazeologik birliklarning tarjima xususiyatlarini qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish hamda ularni adekvat tarjima qilishning samarali usullarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun frazeologizmlarning semantik, strukturaviy va pragmatik xususiyatlari o'rganilib, tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolar ilmiy asosda yoritiladi.

Tahlillar. Frazeologik birliklar til tizimining semantik jihatdan murakkab va madaniy jihatdan boy qatlamini tashkil etadi. Ular ko'pincha ko'chma ma'noga ega bo'lib, tarkibiy qismlarining lug'aviy ma'nosidan farqli ravishda umumlashgan, barqaror mazmunni ifodalaydi. Shu bois frazeologizmlarni tarjima qilish jarayoni oddiy leksik birliklarga nisbatan murakkabroq hisoblanadi.

Qiyosiy tilshunoslik nuqtayi nazaridan qaralganda, turli tillardagi frazeologik birliklar o'rtasida to'liq, qisman va nol ekvivalentlik holatlari kuzatiladi. To'liq ekvivalentlikda manba tilidagi frazeologizm mazmuni va uslubiy bo'yoqlari jihatidan maqsad tilida to'liq mos keluvchi birlik bilan ifodalanadi. Masalan, ingliz tilidagi *“to kill two birds with one stone”* frazeologizmi o'zbek tilida *“bir o'q bilan ikki quyonni urmoq”* shaklida deyarli to'liq ekvivalentga ega.

Qisman ekvivalentlikda esa umumiy ma'no saqlanadi, biroq obrazlilik yoki uslubiy tus o'zgarishi mumkin. Bunday hollarda tarjimon analog tanlash yoki modulyatsiya usulidan foydalanadi. Nol ekvivalentlik holatlarida esa manba tilidagi frazeologizm maqsad tilida tayyor muqobilga ega bo'lmaydi. Bu vaziyatda tavsifiy tarjima yoki madaniy moslashtirish (adaptatsiya) qo'llaniladi.

Frazeologik birliklarning tarjimasida lingvokulturologik omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir frazeologizm muayyan tarixiy, ijtimoiy yoki madaniy kontekst bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *“carry coals to Newcastle”* iborasi tarixiy-geografik asosga ega bo'lib, o'zbek tilida uni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish mantiqan tushunarsiz bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatda mazmuniy analog – *“tog'ga o'tin olib chiqmoq”* kabi ifodalar qo'llanilishi mumkin. Frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari ham tarjima jarayonida e'tiborga olinadi. Frazeologizmning emotsional-ekspressiv tusini saqlash, uning matndagi funksiyasini to'g'ri yetkazish tarjimaning adekvatligini belgilaydi. Agar faqat semantik mazmun saqlanib, uslubiy bo'yoq yo'qolsa, matnning badiiy qiymati pasayishi mumkin.

Natijalar. O'tkazilgan qiyosiy-lingvistik va tarjimaviy tahlillar frazeologik birliklarning tarjima jarayonida bir qator murakkab muammolar yuzaga kelishini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlar strukturaviy, semantik va pragmatik jihatdan taqqoslandi hamda ularning tarjimada berilish xususiyatlari o'rganildi. Avvalo, frazeologik birliklarning tarjimasida ekvivalentlik darajalari aniqlandi. Tahlil natijalariga ko'ra, to'liq ekvivalentlik holatlari nisbatan kam uchraydi va ular asosan umumiy insoniy tajriba yoki universal obrazlarga asoslangan iboralarda kuzatiladi. Masalan, tabiat, hayvonot yoki kundalik hayot bilan bog'liq frazeologizmlar ko'pincha ikki tilda o'xshash obraz bilan ifodalanadi. Bunday hollarda tarjima jarayoni nisbatan oson kechadi va semantik hamda stilistik moslik saqlanadi.

Biroq aksariyat frazeologizmlar qisman ekvivalentlik yoki nol ekvivalentlik holatlariga kiradi. Qisman ekvivalentlikda umumiy ma'no saqlangan bo'lsa-da, obrazlilik yoki uslubiy rang o'zgarishi mumkin. Bu, ayniqsa, milliy-madaniy konnotatsiyaga ega iboralarda yaqqol namoyon

bo'ldi. Nol ekvivalentlik holatlarida esa manba tilidagi frazeologizm maqsad tilida tayyor muqobilga ega bo'lmaydi. Bunday vaziyatlarda tarjimon tavsifiy tarjima, madaniy adaptatsiya yoki kompensatsiya usullaridan foydalanishga majbur bo'ldi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, frazeologik birliklarning muvaffaqiyatli tarjimasi tarjimonning lingvistik bilimlari bilan bir qatorda, uning madaniyatlararo kompetensiyasiga ham bevosita bog'liq. Frazeologizmlar xalqning tarixiy tajribasi va mentalitetini aks ettirgani sababli, ularni adekvat tarjima qilish uchun tarjimon har ikki til madaniyatini chuqur anglagan bo'lishi lozim.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot frazeologik birliklarning tarjimasida mutlaq ekvivalentlik kamdan-kam hollarda uchrashini, asosan funksional va kommunikativ adekvatlikka erishish maqsadga muvofiq ekanini tasdiqladi. Natijalar frazeologik birliklarni tarjima qilishda tizimli yondashuv va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanish tarjima sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi.

Xulosa. Frazeologik birliklar tilning milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi murakkab lingvistik birliklar bo'lib, ularni tarjima qilish jarayoni qiyosiy tilshunoslik va tarjimashunoslikning kesishgan nuqtasida o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, frazeologizmlarni adekvat tarjima qilish mutlaq ekvivalentlikka erishishdan ko'ra, funksional va kommunikativ muvofiqlikni ta'minlashga asoslanadi.

Tarjima jarayonida semantik aniqlik, uslubiy moslik va pragmatik ta'sirni saqlash muhim vazifa hisoblanadi. Ekvivalent topish, analog tanlash, tavsifiy tarjima, modulyatsiya va kompensatsiya kabi strategiyalar frazeologik birliklarni muvaffaqiyatli tarjima qilishning asosiy vositalari sifatida namoyon bo'ldi. Umuman olganda, frazeologik birliklarning tarjimasi tarjimondan yuqori darajadagi lingvistik tayyorgarlik, madaniy bilim va ijodiy yondashuvni talab qiladi. Shuning uchun qiyosiy tahlil asosida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar tarjima amaliyotini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Razikova, Nigora Abdusattorovna, and Abdullayeva Marxabo Raxmonkulovna. "AGATA KRISTINING INDIVIDUAL USLUBI VA TARJIMA MUAMMOSI ("10 TA NEGR BOLASI" ROMANI MISOLIDA)." SHOKH LIBRARY (2025).
2. Абдуллаева, Мархабо. «НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ПРОЗЫ (на примере прямых переводов с английского языка конца XX-начала XXI века).» Предпринимательства и педагогика 3.4 (2024): 3-10.
3. Виноградов В. В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). – М.: Высшая школа, 1972. – 614 с.
4. Кунин А. В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1996. – 381 с.
5. Телия В. Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
6. Catford J. C. A Linguistic Theory of Translation: An Essay in Applied Linguistics. – London: Oxford University Press, 1965. – 103 p.
7. Newmark P. A Textbook of Translation. – New York: Prentice Hall, 1988. – 292 p.
8. Nida E. A., Taber C. R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill, 1969. – 218 p.

Otabek ISAKOV,

Zarmed universiteti, Chet tillar kafedrasini ingliz tili fani o'qituvchisi

Email: isakov_uz1@mail.ru

Farxod FAYZULLAYEV,

Zarmed universiteti, Chet tillar kafedrasini lotin tili o'qituvchisi

Email: fajzullaevfarhod71@gmail.com

MEDITSINA TERMINLARINI TARJIMA QILISHDA EKVIVALENTLIK MASALASI

Annotatsiya: mazkur maqolada meditsina terminlarini tarjima qilish jarayonida ekvivalentlik masalasi lingvistik va terminologik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekvivalentlik tushunchasining nazariy asoslari yoritilib, uning leksik, terminologik, funksional va kontekstual turlari ajratib ko'rsatildi.

Kalit so'zlar: meditsina terminologiyasi, tarjima ekvivalentligi, terminologik tarjima, leksik ekvivalentlik, translyatsiya, izohli tarjima, o'zbek tili, ingliz tili, rus tili, qiyosiy tahlil.

Аннотация: в данной статье рассматривается проблема эквивалентности при переводе медицинских терминов с позиций лингвистического и терминологического анализа. Освещаются теоретические основы понятия эквивалентности и выделяются ее основные типы: лексическая, терминологическая, функциональная и контекстуальная.

Ключевые слова: медицинская терминология, эквивалентность перевода, терминологический перевод, лексическая эквивалентность, транслитерация, описательный перевод, узбекский язык, английский язык, русский язык, сопоставительный анализ.

Annotation: this article examines the problem of equivalence in the translation of medical terminology from linguistic and terminological perspectives. The theoretical foundations of the concept of equivalence are discussed, and its main types—lexical, terminological, functional, and contextual—are identified.

Key words: medical terminology, translation equivalence, terminological translation, lexical equivalence, transliteration, descriptive translation, Uzbek language, English language, Russian language, comparative analysis.

Kirish. Meditsina fanlari tili murakkab, yuqori darajada ixtisoslashgan leksik tizim bo'lib, unda terminlar aniq, qat'iy belgilangan mazmunga ega bo'lishi talab etiladi. Bugungi globallashuv sharoitida meditsina terminlarini turli tillarga to'g'ri tarjima qilish — tibbiy bilimlarni uzatish, xalqaro ilmiy aloqalar, diagnostika va davolash amaliyotlarining samarali bajarilishi uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

1. Meditsina terminlari: tushuncha va vazifalar

Meditsina terminlari — bu sog'liqni saqlash, kasalliklar diagnostikasi, terapiya, anatomik struktura, fiziologik jarayonlar va boshqa tibbiy sohalar bo'yicha aniqlanadigan ma'lumotlar ifodalaydigan maxsus atamalaridir.

1.1 Terminning xususiyatlari

Meditsina terminlari til sohasidagi umumiy leksik birliklardan farq qiladi:

Masalan:

O'zbekcha	Inglizcha	Ruscha
Yurak	Heart	Сердце
O'pka	Lung	Лёгкое
Qon bosimi	Blood pressure	Артериальное давление

Ushbu terminlar tibbiy suhbatda bir xil mazmunni ifodalaydi va tarjimada ekvivalent bo'lishi shart.

2. Tarjima ekvivalentligi: nazariy asoslar

Ekvivalentlik tushunchasi tarjima nazariyasining markaziy kategoriyalaridan biri bo'lib, u bir tildagi matn birliklarini boshqa til vositalari orqali mazmunan, funksional va kommunikativ jihatdan mos tarzda qayta ifodalash jarayonini anglatadi.

2.1 Ekvivalentlik turlari

Tarjima nazariyasida quyidagi asosiy ekvivalentlik turlari ajratiladi:

- Leksik ekvivalentlik — soʻz maʼnosining toʻgʻridan-toʻgʻri mos kelishi.
- Terminologik ekvivalentlik — soha atamasi tarjimada oʻz kontekstida mos kelishi.
- Funksional ekvivalentlik — ibora yoki jumlaning maʼnosi va til funksiyasining tarjimada saqlanishi.
- Kontekstual ekvivalentlik — tarjima kontekstga mos boʻlishi, kommunikativ vazifani bajarishi.

1. Leksik ekvivalentlik

Misollar:

Inglizcha	Oʻzbekcha	Ruscha
Heart	Yurak	Сердце
Kidney	Buyrak	Почка
Fever	Isitma	Лихорадка

Bu terminlarda maʼno hajmi deyarli toʻliq mos tushadi. Shuning uchun bunday birliklar tarjimada nisbatan kam muammo tugʻdiradi.

2. Terminologik ekvivalentlik

Misollar:

Inglizcha	Oʻzbekcha	Ruscha
Hypertension	Gipertenziya	Гипертония
Diabetes mellitus	Qandli diabet	Сахарный диабет
Pneumonia	Zotiljam	Пневмония

Bu misollarda terminologik ekvivalentlik nisbatan yuqori darajada saqlangan. Biroq ayrim hollarda oʻzbek tilida terminning milliy varianti (masalan, zotiljam) bilan xalqaro varianti (pnevmoniya) parallel qoʻllanadi. Bu esa terminologik notekislikka olib kelishi mumkin.

3. Funksional ekvivalentlik

Funksional ekvivalentlik — bu tarjima birligi manba tilidagi birlik bilan bir xil kommunikativ vazifani bajarishini anglatadi. Bunda terminning soʻzma-soʻz maʼnosi emas, balki uning matndagi roli muhim boʻladi.

Misol:

Inglizcha ibora	Oʻzbekcha tarjima	Ruscha tarjima
First aid	Birinchi tibbiy yordam	Первая медицинская помощь

4. Kontekstual ekvivalentlik

Kontekstual ekvivalentlik tarjima birligining aniq vaziyat va matn doirasida mos kelishini anglatadi. Bir termin turli kontekstlarda turlicha tarjima qilinishi mumkin.

Misol:

Inglizcha “case” soʻzi:

- clinical case → klinik holat
- case of flu → gripp bilan kasallanish holati
- emergency case → shoshilinch bemor

Bu yerda bitta soʻzga bir nechta kontekstual ekvivalentlar mos keladi.

3. Meditsina terminlarini tarjimada ekvivalentlik muammolari

Meditsina tarjimasida ekvivalentlikni topish murakkab jarayon boʻlib, koʻplab lingvistik va fanlararo muammolar bilan bogʻliq:

3.1 Lotin va yunon ildizli soʻzlar

Koʻpgina meditsina terminlari lotin yoki yunon ildizlariga ega boʻlib, ularni toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzbek tiliga tarjima qilish qiyin boʻlishi mumkin. Masalan:

Lat. / Yunoncha	Inglizcha	Oʻzbekcha	Ruscha
Myocardium	Myocardium	Miokard (yurak mushak qavati)	Миокард
Hepatitis	Hepatitis	Gepatit (jigar yalligʻlanishi)	Гепатит

3.2 Sinonimlar va ixtiyoriy terminlar

Ba'zan bir xil tilda ham bir nechta sinonim atamalar bo'lishi mumkin. Masalan:

Inglizcha	O'zbekcha (variantlar)	Ruscha
Stroke	Insult / Miya qon tomir avariyasi	Инсульт

Bu hollarda tarjimon birinchi ekvivalentni tanlashda kontekst, o'quvchi auditoriyasi va ilmiy mezonlarga tayanadi.

4. Tarjima strategiyalari va usullari

Meditsina terminlarini tarjima qilayotganda qo'llaniladigan asosiy strategiyalar:

4.1 Translyatsiya (fonetik ko'chirish)

Ixtisoslashgan lotincha/yunoncha terminlarni fonetik yo'l bilan tarjima qilish usuli. Masalan:

- Biopsy → Biyopsiya (биопсия)

Bu strategiya yangi terminlarni kirib kelgancha saqlashga xizmat qiladi.

5. Meditsina terminlarining tilaro ekvivalentligi: tahliliy misollar

Quyida meditsina sohasidagi asosiy terminlarning O'zbek, Ingliz va Rus tillaridagi tarjima ekvivalentlari bilan tahlili keltiriladi.

5.1 Anatomik terminlar

Inglizcha	O'zbekcha	Ruscha	Ekvivalentlik tahlili
Heart	Yurak	Сердце	Leksik ekvivalent; bir-biriga aniq mos
Lung	O'pka	Лёгкое	Leksik ekvivalent
Liver	Jigar	Печень	Leksik ekvivalent

Bu terminlar uchala tilda ham qat'iy anatomik ma'noga ega bo'lib, tarjimada ham ekvivalent sifatida ideal mos keladi.

5.2 Kasallik va diagnoz atamaları

Inglizcha	O'zbekcha	Ruscha	Ekvivalentlik tahlili
Diabetes mellitus	Qandli diabet	Сахарный диабет	Identik semantik mazmun
Hypertension	Gipertenziya	Гипертония	Terminologik ekvivalent
Myocardial infarction	Miokard infarkti	Инфаркт миокарда	Lotincha ildizlar saqlangan tarzda tarjima

Xulosa. Meditsina terminlarini tarjima qilishda **ekvivalentlik** juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u tarjima qilingan matnning ilmiy to'g'riligi, mazmunan aniqligi va amaliy qo'llanilishiga bevosita ta'sir qiladi. Mazkur maqolada ekvivalentlik nazariyasi, meditsina terminologiyasining tilaro tahlili, tarjima strategiyalari va ko'plab real misollar bilan yoritildi. Meditsina tarjimonlari uchun ekvivalentlikni to'g'ri aniqlash — nafaqat lingvistik, balki fanaro tilida ham puxta bilim talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Komissarov, V. N. (2000). Teoriya perevoda: Lingvisticheskiy aspekt. Moskva: Akademiya.
2. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.
3. Nida, E. A., & Taber, C. R. (1969). The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill.
4. Z Abdikholikova, F Raimova, J Khujamov, O Isakov - Academics Globe, 2021. Dependence of Living Weight on the Feeding and Storage of Imported
5. Veterinariya va tibbiyot terminlarining o'zbek, rus va ingliz tillarida qiyosiy tahlili: lingvistik xususiyatlar, tarjima strategiyalari va standartlashtirish masalalari
journal of education, ethics and value 4 (no. 11), 180-184
6. Рафиева Бунафша Рустамовна, Исаков Отабек Мавланович English teaching methods // Евразийский научный журнал. 2020. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/english-teaching-methods> (дата обращения: 19.01.2026).

Madina ACHILOVA,
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
 Ispan tili nazariy fanlar kafedrasida o'qituvchisi
madina.achilova11@gmail.com*

LEKSIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA TIL MATERIALINI TANLASH VA SARALASH MUAMMOLARINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

Annotatsiya: ushbu maqola leksik kompetensiya, transpozitsiya, funksionallik, affiks, model tushunchalarining mazmun-mohiyatini tahlil qilish, leksik kompetensiyani o'rgatish uchun til materialini tanlash va saralash muammolarining nazariy va amaliy jihatdan yetarli darajada ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *leksik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, transpozitsiya, funksionallik, til materiali, termin, leksik zaxira, leksik bilim, leksik element, leksik malaka.*

Аннотация: в данной статье анализируется содержание и сущность понятий лексическая компетенция, транспозиция, функциональность, аффикс и модель. Также рассматриваются теоретические и практические аспекты проблемы отбора и систематизации языкового материала для формирования лексической компетенции. Результаты исследования направлены на более глубокую научную разработку вопросов обучения лексической компетенции и эффективного использования языкового материала в образовательном процессе.

Ключевые слова: *лексическая компетенция, коммуникативная компетенция, транспозиция, функциональность, языковой материал, термин, лексический запас, лексические знания, лексический элемент, лексические навыки.*

Annotation: this article analyzes the content and essence of the concepts of lexical competence, transposition, functionality, affix, and model. It also examines the theoretical and practical aspects of the problem of selecting and organizing language material for teaching lexical competence. The study contributes to the further development of theoretical and practical approaches to improving the teaching of lexical competence and the effective use of language materials in the educational process.

Key words: *lexical competence, communicative competence, transposition, functionality, language material, term, lexical stock, lexical knowledge, lexical element, lexical skills.*

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga qodir, malakali, yetuk mutaxassislar tayyorlanishini ta'minlashdan iborat. Bunday mutaxassislar o'z dunyo qarashlarini takomillashtirish va boshqa mamlakatlar bilan ijtimoiy, siyosiy va boshqa sohalarga oid tajribalar almashishda chet tilini muloqot vositasi sifatida ishlatishlari darkor. Aynan shu maqsadda chet tillarni o'qitishda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, rivojlantirish hamda takomillashtirish mamlakatimiz ta'lim tizimida muhim ahamiyat kasb etib ulgurgan.

O'tgan asrning 60-yillarida D. Xayms (Dell Hymes) "kommunikativ kompetensiya" konseptini fanga kiritdi. D. Xaymsning fikricha KK grammatik, sotsiolingvistik, strategik, diskursiv kompetensiyalarni qamrab oladi. D. Xaymsning ushbu nazariyasi chet tillarini o'qitishdagi muhim qadamlardan biri bo'ldi. O'tgan asrning 80-yillarida M. Kaneyl (M. Canale) va M. Sveyn (M. Swain) KK nazariyasini rivojlantirishda davom etdilar va o'sha davrdan boshlab ushbu tushuncha keng tarqala boshladi. Ular bilimlar tizimi va qobiliyatlar bilan birga muloqotni shakllantiradigan kommunikativ kompetensiyaning asosiy tuzilishini ishlab chiqishdi:

- grammatik kompetensiya (leksika, fonetika, to'g'ri yozish, semantika va sintaksis);

- sotsiolingvistik kompetensiya (aniq nutq jarayonida shakli va tuzilishi bo'yicha kontekstga mos keluvchi);

- diskursiv kompetensiya (og'zaki va yozma nutqda mantiqan bog'langan iboralarni tuza olish);

- strategik kompetensiya (chet tilda muloqot jarayonida nutqiy va ijtimoiy bilimlardan kelib chiqib tilni yetarli darajada bilmaslikni muhim manbalar bilan kompensatsiya qilish).

Shuningdek kommunikativ kompetensiyaning amaliy va nazariy muammolarini xorij pedagog olimlaridan D. Uilkins (Jennifer D. Wilkins), A. Xarding (A. Harding), P. Xartman (P. Hartman), D. Djonson (D. Johnson), N. Kerr (N. Kerr), J. Xill (J. Hill), M. Long (M. Long), P. Poter (P. Potter), Bruner (Bruner), Jin Pijet (Jin Piaget) tomonidan o'rganilgan va hozir takomillashtirilmoqda.

Mamlakatimizda ushbu termin 2000-yildan keyin iste'molga keng kirib keldi. Pedagogik atamalar lug'atida "Kompetensiya" – muayyan muammo va masala, hodisa borasida shaxsning bilim, tajriba, mutasaddilikka ega bo'lishi va ularni hal qilishga yetadigan salohiyati tushuniladi deya ta'rif beriladi. Jamol Jalolovning darsligida kommunikativ so'ziga "kommunikativ lot. kommunikatsiya – kommunikatsiya bilan bog'liq; ~ akt (nutqiy amal/ parcha/jarayon/muloqot) ~ birlik/topshiriq/yonalish /

zarurat / muhit / malaka / vazifa~(funksiya) maqsad / niyat / mashq;~ intensiv, interaktiv metod (chet til o'qitish metodlaridan); ~ yo'nalish, metodika, usul; ~ kognitiv/kumulativ metod deb, kompetensiyaga esa "kompetensiya [lot. competentia < competo – intilaman]: til ~ si (tilga layoqat, til bilishga yaroqlilik, lisoniy (nutqiy) iqtidor, saviya) deb ta'rif beriladi".

Kommunikativ kompetensiya quyidagi asosiy kompetensiyalardan iborat: lingvistik kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, pragmatik kompetensiya, leksik kompetensiya, grammatik kompetensiya, semantik kompetensiya, fonologik kompetensiya, orfografik, kompetensiyasi orfoepik kompetensiya, pragmatik kompetensiya. Shuni ta'kidlab o'tish joizki har qanday tilni o'rgatish va o'rganishda leksik kompetensiyani shakllantirish jarayoni katta qiziqish hamda ahamiyat kasb etib qo'shimcha izlanishlarni talab qiladi, chunki profesor Pavlovaning so'zi bilan aytganda "Aynan leksik zaxirani boyitish, rivojlantirish va takomillashtirish tinglovchilarning chet tilini bilish malakalarining barcha bosqichlarida asos bo'lib xizmat qiladi."

Leksik kompetensiya deganda ikki tildagi leksik bilimlarni hajmini taqqoslay olish, so'z ma'nosining tuzilishini aniqlay olish va so'zdagi milliy ma'noni ang'ay olish va leksik bilimlar, malakalar, ko'nikmalarga asoslangan bilimlar nazarda tutiladi. Shuningdek, Y.N.Solovovning fikricha "Leksik kompetensiya bu leksik elementlarni o'zida jamlagan tilning lug'at tarkibini bilish va uni nutqda ishlata olish qobiliyatidir, leksik elementlar deganda so'z birikmalari, turg'un so'z birikmalari (frazali iborali fe'llar), so'z yasovchi lingvistik elementlar (qo'shimchalar), murakkab predloglar nazarda tutiladi. Leksik kompetensiyani yetarli darajada o'zlashtirish nutq faoliyatining barcha turlarida ijobiy samara beradi. Aynan shuning uchun ham chet tilini o'rgatishda asosiy e'tibor asosan leksikaga qaratiladi. Leksik kompetensiya produktiv va reseptiv turdagi leksik malakalarni takomillashtirish asnosida shakllanadi, rivojlanadi hamda takomillashadi. Leksik kompetensiya takomillashtirish deganda talabalarning chet tili leksik elementlarini egallashi va uni nutqda egallangan bilimlar, ko'nikmalar tarzida amaliy ishlatishini tushunamiz. Ispan tilini o'rganayotgan talabalar uchun Leksik kompetensiya quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

- ispan tili so'zidagi tovushni o'xshata olish;
- leksikondan so'zni darhol topa olish;
- so'zni tabiiy shaklini bilish;
- leksik va grammatik shaklda keladigan so'zni topa olish;
- biror predmetni ajratish va unga doir leksikani ishlatish;
- bir fikrni har xil leksik manbalar bilan ifodalay olish;
- notanish so'zni gapdagi boshqa so'zlardan hamda lingvistik elementlardan kelib chiqib topa olish;
- nutqni to'g'ri leksika hamda lingvistik elementlar orqali jazibaliy va ifodali qilish;
- so'z yasovchi lingvistik elementlar orqali gapni mazmunli qilish;
- leksik zaxirani yetishmasligini boshqa usullar bilan to'ldira olish;

Ispan tili lingvistik elementlarini tanlash, xususan, ularning muntazamlik darajasini aniqlash asosida amalga oshiriladi. Buning uchun biz ispan tili ko'rpusi materiallarida keltirilgan O.S.Suares, F.X. Riudavets, X.K.Agyar va G.Rodrigeslarning, ispan tilining prefiks morfoleksik munosabatlarini belgilovchi 10000 dan ziyod misollarini tahlil qilish asosidagi tadqiqotlarida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanamiz. Shuningdek, biz ispan tili ko'rpusining suffikslar lug'atida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanamiz. (El Diccionario de sufijos de la lengua española (DISULE). URL: <http://www.sufijos.lli.ulaval.ca/>). Unda 29 000 dan ortiq ispancha so'zlarning rasmiy tarkibiy qismlari bo'yicha tahlil taqdim etilgan va funksional, kategorik va leksik xususiyatlar va ularning ishlab chiqarish imkoniyatlari keltirib o'tilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Virginia De, Alba Quiñoneslar Leksik kompetensiyaga "el conocimiento del vocabulario de una lengua y la capacidad para utilizarlo" deya ta'rif beradilar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak Leksik kompetensiyani o'rgatishda lingvistik lug'atlarning asosiy turlari, ulardagi so'zning ma'no tuzilishi, tilning aktiv va passiv leksikasi, yangi o'zlashtirilgan so'zlar idiomalarning tarjimasini, yangi so'zlar yasalishi va ma'no hosil bo'lishida lingvistik elementlarning transpozitsion, funksional, mutatsion, xususiyatlari va boshqa jihatlar juda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alba Quiñones, Virginia De. La competencia léxica. una propuesta de actividades sobre los campos léxicos para las clases de ELE. Revista didáctica Español.http://marcoele.com/descargas/13/alba-competencia_lexica.pdf
2. El Diccionario de sufijos de la lengua española (DISULE). URL: <http://www.sufijos.lli.ulaval.ca/>
3. Canale, M. and Swain, M, 1980.Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics Vol I Chomsky, N; 1965.Aspects of the Theory of Syntax. Ambridge, Mass, MIT.
4. Suárez O.S., Carreras Riudavets F.J., Pérez Aguiar J.R., Rodríguez G.R. Relaciones morfológicas prefijales del español// Procesamiento del Lenguaje Natural. URL: http://www.gedlc.ulpgc.es/art_ps/art36.pdf.
5. Fomina T.D. Metodika otbora angliyskoy leksiki dlya sredney obsheobrazovatelnoy shkoli: avtoref. diss. ... kand. ped. nauk 13.00.02/T.D. Fomina. – M., 1991. - 210 s.
6. Noviy slovar metodicheskix terminov i ponyatiy (teoriya i praktika obucheniya yazikam). – M.: Izdatelstvo IKARY.E.G.Azimov, A.N.Shukin.2009.

Madina XASANOVA,
Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi
x.madina-a@gmail.com

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM JARAYONINING PEDAGOGIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda kasb va kasbiy sifat tushunchalarining mazmun-mohiyati yoritilib, ularning shaxs tuzilmasidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslangan. O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari, xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi talablari asosida oliy ta'lim tizimida raqobatbardosh va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: *kasbiy sifat, kasbiy kompetensiya, kasbiy rivojlanish, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi, innovatsion pedagogika, virtual texnologiyalar, kreativ tafakkur, refleksivlik, STEAM ta'lim, oliy ta'lim tizimi, shaxs kamoloti, professional shakllanish, ijtimoiy omillar, intellektual sifatlar.*

Annotation: this article analyzes the theoretical and methodological foundations of the formation of professional qualities of future English language teachers. The study sheds light on the content and essence of the concepts of profession and professional qualities, and their role in the structure of the personality is scientifically substantiated. Based on the requirements of the regulatory legal acts of the Republic of Uzbekistan in the field of education, in particular, the Law of the Republic of Uzbekistan "On Education" and the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030, priority areas for training competitive and highly qualified specialists in the higher education system are indicated.

Key words: *professional quality, professional competence, professional development, future English language teacher, innovative pedagogy, virtual technologies, creative thinking, reflexivity, STEAM education, higher education system, personal development, professional formation, social factors, intellectual qualities.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические и методологические основы формирования профессиональных качеств будущих преподавателей английского языка. Исследование освещает содержание и сущность понятий профессии и профессиональных качеств, а также научно обосновывает их роль в формировании личности. На основе требований нормативно-правовых актов Республики Узбекистан в сфере образования, в частности, Закона Республики Узбекистан «Об образовании» и Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года, определены приоритетные направления подготовки конкурентоспособных и высококвалифицированных специалистов в системе высшего образования.

Ключевые слова: профессиональные качества, профессиональная компетентность, профессиональное развитие, будущий преподаватель английского языка, инновационная педагогика, виртуальные технологии, креативное мышление, рефлексивность, STEAM-образование, система высшего образования, личностное развитие, профессиональное формирование, социальные факторы, интеллектуальные качества.

Kirish. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni maqsadi ta'lim tizimini jahon standarti darajasida takomillashtirish hamda raqobatbardosh, yetuk mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Zero, "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da

oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, zamonaviy va tizimli fikrlaydigan, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini investitsiya dasturlari, hududiy va tarmoq dasturlari, vasiylik kengashlari talablari, jahon miqyosidagi texnologik

o'zgarishlarni inobatga olgan holda shakllantirish, ta'lim yo'nalishlari hamda mutaxassisliklarni optimallashtirish, bunda STEAM yo'nalishlarini (xorijiy tillar)rivojlantirish, bu borada xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy etish bo'yicha alohida talab hamda vazifalar qo'yilgan.

Nazariy va amaliy metodologik qism.

KASB – kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg'uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. O'zbek tilimiz izohli lug'atida kasb so'ziga quyidagicha izoh beriladi: Kasb – biror narsani o'rganish, egallash, foyda, hunar, mashg'ulotni odat qilmoq yoki umuman, odat qilingan ishga aytiladi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarni umumlashtirgan holda, aytishimiz mumkinki, kasb mehnat faoliyatining paydo bo'lgan shakllari, ularni bajarish uchun inson, albatta, ma'lum bilim va ko'nikmalarga, maxsus qobiliyatlar va rivojlangan muhim kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari kerak. Ma'lumki, kasbiy sifatlarning mutaxassis shaxsida shakllanishi undagi kasbiy shakllanishning rivojlanishiga turtki beradi.

Kasbiy sifatlarni – shaxsning muayyan sohadagi bilim, ko'nikmalari, malakalari majmui va mehnat faoliyatida o'z qobiliyatini sifatli va samarali amalga tatbiq etish imkoniyatidir. Bo'lajak ingliz tili yo'nalishi o'qituvchilarida kasbiy sifati darajasini rivojlantirish kasbiy savodxonlik hamda milliy qadriyatlarga bo'lgan hurmat vositasida yuzaga kelar ekan, bunda avvalo, o'tmish, ajdodlar an'analari va ular bosib o'tgan yo'lga nazar tashlash kerak bo'ladi.

Kasbiy sifatlarni o'zida shakllantirish uchun ingliz tili fani o'qituvchisida fanga, ilmga, kreativlikka qiziqishi, nazariya bilan amaliyotni bog'lay olishi, olgan nazariy bilim va ko'nikmalarini amalda qo'llay bilishida virtual texnologiyalarning o'rni muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning oldida turgan vazifa va muammolarni yechishga innovatsion, metodik yondashish orqali qo'shimcha imkoniyatlar berishini tushuna olishi kerak bo'ladi. Quyida ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz:

- jamiyatlardagi yangi faoliyat turlariga, yangicha yondashuvlarga tez moslashib keta olish;
- virtual texnologiyalar inson hayotining ma'nosiga, o'zini namoyon qilish usuliga aylanishi mumkin;

– virtual texnologiyalar ta'lim jarayonida masalalarni yechish jarayonida, shuningdek, ular o'rtasida yuzaga keluvchi qarama-qarshiliklarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi;

– virtual texnologiyalar asosida ingliz tili ta'limi mutaxassislarida maqsadga erishishdagi qat'iyatlilik, tanqidni to'g'ri qabul qila olish kabi eng oliyjanob shaxsiy sifatlar tarkib topadi;

– mazkur jarayonlar asosida kasbiy sifatlarning shakllanishi jarayonida aqliy va jismoniy mehnatning o'zaro uyg'unlashuviga erishiladi.

Mamlakatimiz va xorij pedagog olimlari tomonidan ingliz tili yo'nalishi o'qituvchilarida kasbiy sifatlarni shakllantirish muammolarini tadqiq qilish borasida izlanishlar olib borganlar. Ularning maktablari, yondashuvlari, yo'nalishlari turlicha bo'lib, olimlarning ilmiy izlanishlarida aynan oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kasbiy sifatlarni virtual texnologiyalar vositasida shakllantirish mazmunini takomillashtirishning pedagogik zarurati ekanligi alohida tadqiq qilinmagan.

Bundan ko'rinadiki, shaxsning kasbiy sifatlari vaqt o'tishi bilan takomillashib borishi, yoshlarda kasbiy sifatlarni kreativlik, hissiy tafakkur bilan bir qatorda aqliy tafakkur mahsuli, shu bilan birga, insonda egallangan bilimlar majmuiga ko'ra tavsiflanadi.

Yoshlarda kasbiy sifatlarni rivojlantirishning didaktik jihatlari E.F.Zeer, N.A.Muslimov, Z.K.Ismailova, D.O.Ximmataliyev, M.M.Levina va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Jumladan, O.A.Qo'ysinov, Sh.Sharipovlarning ishlarida bo'lajak o'qituvchilarni ixtirochilik faoliyatiga tayyorlash bo'yicha tavsiyalar yaratilgan.

Alloma Forobiy "bu jarayonda inson barcha aqliy va ruhiy fazilatlarini ishga soladi. Ijodiy faoliyatning hal qiluvchi onlari, odatda, alohida diqqat bilan, kishining kuch va qobiliyatlari mavj urgan holatlar bilan bog'liq bo'ladi", – deb izohlaydi.

R.Krachfeld esa kasbiy sifatlarni metodik yondashuv, ijodiy qobiliyatlar asosida ma'lum ijodiy topshiriqlarni bajarish davomida rivojlanishi haqidagi tasavvurga asoslanadi.

E.P.Torrens kasbiy sifat mazmunidan kelib chiqib, ijodiy tafakkurni rivojlantirishning bir necha bosqichli texnologiyasini taklif etadi. Unga ko'ra, dastlabki bosqichda trening ishtirokchisiga turli vaziyatlar tasvirlangan suratlar ko'rsatilib, undagi holatga olib kelgan barcha odatiy va noodatiy sabablar, uning

natijasida ro'yi berishi ehtimol tutiladigan xilma-xil oqibatlar xususida mulohaza yuritishga, ikkinchi bosqichda esa turli buyumlarni o'zining asl vazifasidan tashqari qanday maqsadlarda ishlatilishi mumkinligi yuzasidan fikrlashga undaydigan topshiriq beriladi.

“Kasbiy sifat” va “Kasbiy sifat” tushunchalarini shakllantirish ham kompleks faoliyat hisoblanadi, ya'ni ular o'z ichiga:

Inson shaxsini hurmat qilish, kasbiy layoqatlilik, har doim kasb burchini bajarishga vijdonan yondashish, fidoyilik, adolatlilik, har qanday vaziyatda ham insonlarning ishonchidan foydalanmaslik, ularning ishonchini yo'qotmaslik, bilimdonlik va ijodkorlik, o'ziga talabchanlik, yangilikka intiluvchanlik, muammoli va ziddiyatli vaziyatlarda hissiyotga berilmasdan aql bilan ish yuritish, kechirimli bo'lishlik, tashabbuskorlik, moddiy va ma'naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni bilish va ularning mazmun - mohiyatini anglagan holda ularga har doim amal qilish, vatanparvarlik, chet tili, dunyoviy madaniyat va badiiy adabiyotlarni yaxshi bilish, kasb mahoratini egallash, kamtarlik, nazokatli, iboli va nozik didli bo'lish va ularni amalda o'zida ifodalash, odamlarga ishonish, jismoniy barkamollik, aqliy barkamollik, ruhiy barkamollik, ma'naviy barkamollik kabi tushunchalarni qamrab oladi. Demak, inson qaysi mavzuda fikr yuritishidan qat'iy nazar uning

ongosti fikrlash tarzi, dunyoqarashi namoyon bo'ladi.

Intellektual sifatlar – tafakkur tezligi (ko'plab fikrlar, g'oyalar va assotsiatsiyalarning uyg'onishi), tafakkur egiluvchanligi (vujudga kelayotgan g'oyalarning xilma-xilligi), tafakkur originalligi (o'ylab topilayotgan g'oyalarning o'rinli bo'lishi barobarida kamyoblighi, noodatiyligi), qadriyatlar tizimi (rivojlanish, bilish va erkinlik qadriyatlarini yuqori qo'yish).

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, hozirgi kunda bo'lajak ingliz tili yo'nalishi o'qituvchilarining kasbiy sifatlarining shakllanishi uchun qulay muhit yaratish, o'zini-o'zi takomillashtirish muhim hisoblanadi. Shundagina bugungi ta'lim tizimi oldida turgan yoshlarni har tomonlama tarbiyalash, ularda ixtirochilik va kashfiyotchilik ko'nikmalarini shakllantirish kabi muhim masalalar o'z yechimini topadi. Albatta, ta'limning asosiy maqsadi barkamol shaxsni tarbiyalash ekan, o'z navbatida, ularni qo'llab-quvvatlash, o'z iste'dodini namoyon etishida yaqin ko'makchi bo'lish kerak.

Kasbiy sifatlar – bo'lajak ingliz tili yo'nalishi o'qituvchilarining mutaxassislik kompetensiyalarini ijodiy fikrlar, kreativ tafakkur, ilmiy dunyoqarash, ilmiy-texnik va texnologik bilimlarning innovatsion metodlarini ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi asosida muntazam takomillashtirib borishga qaratilgan faoliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Xasanova M., Ubaydullayev S. Communicative language teaching and learning //boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. 2022. – T. 2. – №. 1.C. 125–128.
- 2.Madina X. Zamonaviy Ta'lim muhitida ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishning ingliz tilini o'qitish samaradorligini ta'minlash asoslari //boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. 2023. – T. 3. – №. 3.C. 27–30.
- 3.Xasanova M., Usmonova M. Techniques, tools and organizational forms of developing educational strategies //conferencea. 2023.C. 22–24.
- 4.Dilafruz A. The Practice-oriented approach to learning in europe //conferencea. 2023. C.79–80.
- 5.Aliyeva D., Aliyeva S. Future of modern education system //conferencea.2023. C. 37–39.
- 6.Muhtarovna A. D. Modern pedagogical innovations in teaching foreign languages for defectologists //euro-asia conferences. 2021. – T. 3. №. 1.C. 168– 170.
- 7.Xasanova M., Usmonova m. techniques, tools and organizational forms of developing educational strategies //conferencea. 2023. C.22–24.

Munira UMAROVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

Ingliz tilini o'qitish metodikasi

№1 kafedrasida katta o'qituvchisi

ESP KURSLARI UCHUN O'QUV DASTURINI TANLASH MUAMMOSI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz tilini maxsus maqsadlar uchun o'qitish (ESP – English for Specific Purposes) kurslari uchun o'quv dasturini tanlash muammosi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ESP o'quv dasturini shakllantirish jarayonida ehtiyojlarni tahlil qilish (needs analysis), kommunikativ kompetensiya, kasbiy kontekst va til ko'nikmalarining integratsiyasi kabi omillar muhim ahamiyat kasb etishi ko'rsatib beriladi. Shuningdek, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar asosida ESP kurslarida qo'llaniladigan turli o'quv dasturi modellari, jumladan, leksik, funksional, vazifaviy va kompetensiyaga asoslangan dasturlar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: *ESP, o'quv dasturi, needs analysis, kommunikativ kompetensiya, kasbiy ingliz tili, til o'qitish metodikasi, syllabus design.*

Аннотация: в данной статье рассматривается проблема выбора учебной программы для курсов английского языка для специальных целей (ESP). Особое внимание уделяется анализу потребностей обучающихся, коммуникативной компетенции и профессионального контекста при разработке учебной программы. В работе анализируются различные модели учебных программ, применяемые в преподавании ESP, включая лексические, функциональные, задачные и компетентностные подходы.

Ключевые слова: *ESP, учебная программа, анализ потребностей, коммуникативная компетенция, профессиональный английский язык.*

Annotation: this article examines the problem of selecting an appropriate syllabus for English for Specific Purposes (ESP) courses. The study focuses on the importance of needs analysis, communicative competence, professional context, and the integration of language skills in designing an effective ESP syllabus. Various syllabus models used in ESP teaching are analyzed, including lexical, functional, task-based, and competency-based approaches. The article also highlights the role of professional communication needs and real workplace language tasks in determining the content and structure of ESP courses.

Key words: *ESP, syllabus design, needs analysis, communicative competence, professional English, language teaching methodology, task-based learning.*

Kirish. Zamonaviy global ta'lim tizimida ingliz tili xalqaro kommunikatsiyaning asosiy vositalaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, professional faoliyat bilan bog'liq bo'lgan sohalarida ingliz tilini maxsus maqsadlar uchun o'qitish (English for Specific Purposes – ESP) keng tarqalmoqda. ESP kurslari o'quvchilarning kasbiy ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilgan bo'lib, ularning asosiy maqsadi muayyan kasbiy sohada samarali muloqot qilish uchun zarur bo'lgan til ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. ESP kurslarida o'quv dasturini tanlash jarayoni ko'pincha ehtiyojlarni tahlil qilish (needs analysis) bilan boshlanadi. Needs analysis orqali o'quvchilarning qaysi kasbiy vaziyatlarda ingliz tilidan foydalanishi, qanday kommunikativ vazifalarni

bajarishi va qaysi til ko'nikmalariga ehtiyoj sezishi aniqlanadi. Bu ma'lumotlar asosida o'quv dasturining mazmuni, strukturasini va o'qitish metodlarini belgilash mumkin. So'nggi yillarda ESP kurslari uchun turli o'quv dasturi modellari ishlab chiqilgan. Jumladan, funksional syllabus, task-based syllabus, kompetensiyaga asoslangan syllabus va leksik syllabus kabi modellardan keng foydalanilmoqda. Har bir model o'zining afzallik va cheklovlariga ega bo'lib, ularni tanlash o'quvchilarning ehtiyojlari va o'qitish kontekstiga bog'liq.

Adabiyotlar tahlili. ESP metodikasi XX asrning ikkinchi yarmida shakllana boshladi. Hutchinson va Waters ESPni o'quvchilarning ehtiyojlariga asoslangan til o'qitish yondashuvi sifatida ta'riflaydilar [1].

Ularining fikricha, ESP kurslarining asosiy xususiyati o'quv jarayonining o'quvchilarning professional va akademik ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etilishidir. Dudley-Evans va St. John ESP kurslarini ishlab chiqishda ehtiyojlarni tahlil qilish muhim metodik bosqich ekanligini ta'kidlaydilar [2]. Needs analysis orqali o'quvchilarning tilni qaysi kontekstda ishlatishi aniqlanadi. Richards til o'qitishda syllabus design muhim metodik masala ekanligini ta'kidlab, o'quv dasturining turli modellari mavjudligini ko'rsatadi [3].

Nunan esa task-based yondashuvni samarali o'qitish modeli sifatida ta'riflaydi [4]. O'zbek olimlari ham ESP metodikasiga oid tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, Jalolov ingliz tilini kasbiy yo'nalishda o'qitishda kommunikativ yondashuv muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [5]. ESP kurslari uchun o'quv dasturini tanlash masalasi zamonaviy til o'qitish metodikasining eng murakkab va muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki ESP umumiy ingliz tilini o'qitishdan farqli ravishda aniq kasbiy, akademik yoki texnik ehtiyojlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Shu sababli bunday kurslarda syllabus tanlash faqat til birliklarini ketma-ket joylashtirish masalasi emas, balki o'quvchining kelajakdagi kasbiy faoliyatida duch keladigan real kommunikativ vaziyatlarni hisobga olgan holda o'quv mazmunini shakllantirish jarayonidir. Mazkur jarayonni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ESP syllabusini tanlashda universal va hamma uchun bir xil model mavjud emas; aksincha, har bir kontekst o'ziga xos yondashuvni talab etadi.

Birinchi navbatda, ESP kurslarida syllabus tanlash ehtiyojlar tahliliga bevosita bog'liqdir. Agar umumiy ingliz tili kurslarida tilning umumiy kommunikativ funksiyalari ustuvor bo'lsa, ESPda tilning aynan qaysi maqsadlarda qo'llanishi hal qiluvchi omilga aylanadi. Masalan, tibbiyot yo'nalishidagi talaba uchun bemor bilan muloqot qilish, tibbiy hujjatlarni tushunish va professional terminologiyani qo'llash muhim bo'lsa, turizm yo'nalishidagi talaba uchun mehmon kutib olish, xizmatlarni tushuntirish, shikoyatlarni hal etish va madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi ustuvor hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, syllabus mazmuni o'quvchilarning kelajakdagi kommunikativ vazifalari asosida belgilanishi kerak. Bu esa an'anaviy grammatik yoki strukturaviy syllabuslarning ESP uchun doimo yetarli emasligini ko'rsatadi. Ikkinchi muhim jihat shundaki, ESP kurslarida faqat til shakllarini emas, balki tilning funksional qo'llanishini o'rgatish

zarur. Shuning uchun funksional syllabus ko'plab hollarda samarali model sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuvda til materiallari "salomlashish", "tavsiylash", "ma'lumot so'rash", "kelishish", "rad etish", "tushuntirish", "muammoni hal qilish" kabi kommunikativ funksiyalar asosida tashkil etiladi. ESP nuqtayi nazaridan bunday yondashuv foydali, chunki o'quvchilar tilni mavhum grammatik kategoriya sifatida emas, balki muayyan vaziyatda ishlatiladigan vosita sifatida o'zlashtiradilar. Biroq funksional syllabusning o'zi ham barcha ehtiyojlarni qamrab ololmaydi, chunki kasbiy faoliyatda til ko'pincha bir nechta kompetensiyaning birlashuvi orqali namoyon bo'ladi. Tibbiy ESP kursida esa bemordan anamnez olish, kasallik belgilarini tushuntirish yoki yo'riqnoma berish vazifalari ustuvor bo'lishi mumkin. Bu yondashuvning afzalligi shundaki, o'quvchi tilni real kasbiy harakat bilan bog'liq holda o'rganadi. Natijada dars jarayoni sun'iy emas, amaliy va motivatsion tus oladi. Shu bilan birga, task-based syllabus o'quvchilarda faqat til kompetensiyasini emas, balki kasbiy fikrlash, muammoni hal qilish va interaktiv hamkorlik ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Biroq task-based syllabusni qo'llashda ayrim qiyinchiliklar ham kuzatiladi. Avvalo, bunday yondashuv yuqori darajadagi metodik tayyorgarlikni talab qiladi. O'qituvchi nafaqat tilni, balki o'quvchilarning kasbiy sohasini ham ma'lum darajada tushunishi lozim. Aks holda vazifalar yuzaki yoki sun'iy bo'lib qolishi mumkin. Ikkinchidan, barcha o'quv kontekstlarida real kasbiy vaziyatlarni darsga to'liq olib kirish imkoniyati mavjud emas. Shu bois task-based yondashuvni boshqa syllabus modellari bilan integratsiya qilish ko'proq samarali natija beradi. ESP syllabus tanlashda leksik syllabus ham muhim rol o'ynaydi. Chunki ko'plab kasbiy sohalarda tilni muvaffaqiyatli qo'llash, avvalo, shu sohaga xos terminlar, kollokatsiyalar, klişe ifodalar va diskurs formulalarini bilishga bog'liq. Masalan, huquq, iqtisodiyot, muhandislik yoki turizm yo'nalishlarida maxsus leksik birliklarni egallamasdan samarali muloqotga erishish qiyin. Shu bois leksik syllabus ESP kurslarida kasbiy kommunikatsiyaning minimal zarur bazasini yaratib beradi. Lekin faqat leksik birliklarga tayangan dastur ham yetarli emas, chunki tilni bilish so'zlarni bilish bilangina cheklanmaydi.

Shu nuqtayi nazardan kompetensiyaga asoslangan syllabus ESP uchun ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Bu yondashuvda tilni o'rganish yakunida o'quvchi nimani qila olishi kerakligi markaziy o'ringa chiqadi. Ya'ni dastur bilimlar ro'yxatiga emas, natijaga yo'naltiriladi. Masalan, "talaba mehmonxonada mijoz bilan ingliz tilida muloqot qila oladi", "talaba kasbiy matndan asosiy ma'lumotni ajratib oladi", "talaba texnik hisobotning qisqa mazmunini yozib bera oladi" kabi kompetensiyalar aniq belgilanadi. Bunday yondashuv ta'lim natijalarini o'lchashni osonlashtiradi va syllabusni amaliy maqsadlar bilan uzviy bog'laydi. Ayniqsa, mehnat bozori talablariga mos kadr tayyorlashda bu model muhim ahamiyatga ega. Muhokama jarayonida yana bir masala ayon bo'ladiki, ESP kurslari uchun eng maqbul syllabus ko'pincha bitta modelga emas, balki **integrativ yoki gibridd yondashuvga** asoslanadi. Chunki real o'quv jarayonida o'quvchilarga terminologik bilim ham, kommunikativ funksiyalar ham, kasbiy vazifalar ham, til ko'nikmalari ham bir vaqtning o'zida kerak bo'ladi. Masalan, turizm yo'nalishidagi ESP kursida leksik syllabus orqali sohaviy terminlar berilishi, funksional syllabus orqali mijoz bilan muloqot strategiyalari o'rgatilishi, task-based yondashuv orqali esa real xizmat ko'rsatish vaziyatlari modellashirilishi mumkin. Shunday qilib, gibridd syllabus modeli ESPning murakkab tabiati va ko'p qatlamli maqsadlariga ko'proq mos keladi.

Yana bir muhim jihat — autentiklik masalasidir. ESP kursining muvaffaqiyati ko'p jihatdan syllabusing real professional muhit bilan qanchalik yaqin bog'langaniga bog'liq. Agar dars materiallari sun'iy tuzilgan bo'lsa, o'quvchi ularni real hayot bilan bog'lashda qiynaladi. Shu sababli professional dialoglar, hujjatlar, texnik tavsiflar, e-mail yozishmalari, xizmat ko'rsatish ssenariylari, kasbiy hisobotlar va boshqa autentik materiallardan foydalanish syllabusning mazmuniy qiymatini oshiradi. Bu esa o'quvchilarning motivatsiyasi va tilni amaliy qo'llashga tayyorgarligini

kuchaytiradi. Umuman olganda, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ESP kurslari uchun syllabus tanlashda asosiy e'tibor quyidagi omillarga qaratilishi kerak: o'quvchilarning ehtiyojlari, kasbiy kommunikativ vazifalar, til darajasi, autentik materiallar, o'qitish konteksti va baholash mezonlari. Faqat grammatik yoki mavzuviy prinsipga asoslangan dastur ESPning to'liq maqsadlarini qondira olmaydi. Shu bois zamonaviy ESP metodikasida integrativ, ehtiyojga asoslangan va natijaga yo'naltirilgan syllabus eng maqbul model sifatida qaraladi. Aynan shunday yondashuv o'quvchilarni real kasbiy muloqotga tayyorlash, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va ingliz tilini amaliy vosita sifatida egallashiga xizmat qiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot ESP (English for Specific Purposes) kurslari uchun o'quv dasturini tanlash masalasining muhim metodik muammo ekanligini ko'rsatdi. ESP kurslari umumiy ingliz tili o'qitishdan farqli ravishda aniq kasbiy ehtiyojlarga yo'naltirilgan bo'lib, ularning mazmuni o'quvchilarning professional faoliyatida uchraydigan real kommunikativ vaziyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Shu sababli ESP syllabusini ishlab chiqishda ehtiyojlarni tahlil qilish (needs analysis) asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ESP kurslari uchun yagona universal syllabus modeli mavjud emas. Turli kasbiy sohalar, o'quvchilarning til darajasi va ta'lim konteksti o'quv dasturining mazmuni va tuzilishini belgilaydi. Shu bois zamonaviy ESP metodikasida funksional, leksik, vazifaviy (task-based) hamda kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning integratsiyasiga asoslangan gibridd syllabus modeli eng samarali hisoblanadi. Bunday yondashuv til birliklarini real kommunikativ faoliyat bilan bog'lash imkonini beradi hamda o'quvchilarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
2. Dudley-Evans T., St. John M. Developments in English for Specific Purposes. – Cambridge University Press, 1998.
3. Richards J. Curriculum Development in Language Teaching. – Cambridge University Press, 2001.
4. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge University Press, 2004.
5. Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.

Shaxnoza MUXTAROVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Gumanitar fanlar fakulteti O'zbek tilshunosligi
kafedrasida katta o'qituvchisi
shaxnoza1977xon@gmail.com



FANLARARO INTEGRATSIYA – ZAMONAVIY TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy ta'lim jarayonida fanlararo integratsiyaning ahamiyati, uning o'quv jarayonini samarali tashkil etishdagi o'rni tahlil qilinadi. Fanlararo integratsiya o'quvchilarda bilimlarni tizimli o'zlashtirish, turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash hamda ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shuningdek, ona tili ta'limida fanlararo integratsiyani amalga oshirishning metodik imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: fanlararo integratsiya, ta'lim samaradorligi, integrativ yondashuv, kompetensiya, funksional savodxonlik, ta'lim texnologiyalari.

Аннотация: в данной статье анализируется значение междисциплинарной интеграции в современном образовательном процессе и её роль в эффективной организации учебной деятельности. Обосновывается, что междисциплинарная интеграция способствует системному усвоению знаний учащимися, осознанию взаимосвязи между различными учебными предметами, а также развитию умений применять полученные знания в реальных жизненных ситуациях. Кроме того, рассматриваются методические возможности реализации междисциплинарной интеграции в преподавании родного языка.

Ключевые слова: междисциплинарная интеграция, эффективность образования, интегративный подход, компетенция, функциональная грамотность, образовательные технологии.

Annotation: this article analyzes the importance of interdisciplinary integration in the modern educational process and its role in organizing the learning process effectively. It is substantiated that interdisciplinary integration contributes to the systematic acquisition of knowledge by students, helps them understand the relationships between different subjects, and develops their ability to apply knowledge in real-life situations. The article also examines the methodological possibilities of implementing interdisciplinary integration in the teaching of the native language.

Key words: interdisciplinary integration, educational effectiveness, integrative approach, competence, functional literacy, educational technologies.

Yangi O'zbekistonning barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Yangilanayotgan davr har bir soha mutaxassislari uchun o'ziga xos talablarni qo'yimoqda. Bugungi kun ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi unga bo'lgan yuksak e'tiborning namunasidir. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Ma'naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, ta'lim-tarbiyani rivojlantirish, milliy yuksalish g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish – pirovard maqsadi inson manfaatlarini ta'minlash bo'lgan islohotlarimizning eng muhim vazifalaridandir". [1: 304]

Ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – o'quvchilarning bilimini faqat alohida fanlar doirasida emas, balki turli fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik asosida shakllantirishdir. Zamonaviy jamiyatda yuz berayotgan ilmiy-texnik taraqqiyot, axborot oqimining keskin ortishi ta'lim jarayonida yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llashni talab etmoqda. Shunday yondashuvlardan biri – fanlararo integratsiya hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarga ma'lum bilimlar tizimini yetkazib, ularni faqat eslab qolishning o'zi bugungi kunda yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy bilim olishda motivatsiya uyg'otish, mustaqil bilim olish ishtiyoqini hosil qilish, integratsiya asosida ta'lim berish dolzarb vazifalardandir. Fanlararo integratsiya ana shunday talabni ro'yobga chiqarishga qaratilgan ta'lim tizimidir. [3: 249]

Fanlararo integratsiya ta'lim jarayonida turli fanlar mazmunini o'zaro bog'liq holda o'rganish orqali o'quvchilarda tizimli bilimlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi, bilimlarni turli vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi hamda ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ona tili o'qitish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri mavzulararo, bo'limlararo, sinflararo, fanlararo bog'lanishdir. [4: 60] Shuningdek, ona tilini o'qitish jarayonida til-me'yor-nutq mutanosibligi, o'quvchilar tafakkurining o'sishiga erishish, o'quvchilarni til hodisalarini ajratishga o'rgatish, ona tilini o'qitishda mahalliy sheva sharoiti va ta'sirini nazarda tutish kabi tamoyillarga qat'iy amal qilish dars samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Maktabda ona tilini o'qitishda global fuqarolik, media va axborot savodxonligi, yetakchilik hamda zo'ravonlikka qarshi kurashish va tinchlik madaniyati kabi hayotiy ko'nikmalar Milliy o'quv dasturi doirasida berilgan nutqiy mavzular uchun tanlangan rasmlar, matnlar, amaliy loyihalar, taqdimotlar orqali rivojlantirib borilmoqda.

O'quvchilar ona tili mashg'ulotlarida tilshunoslik fani asoslari-yu tushunchalarini o'zlashtirish bilan emas, balki ona tilining juda boy imkoniyatlari asosida mustaqil fikrlash va ijodiy fikr mahsulini turli-tuman shakllarda go'zal nutq sifatida bayon etish ustida ishlashlari lozim. Ona tilidan ta'lim mazmuni ham, ta'lim usuli,

o'quvchilar bajarishlari lozim bo'lgan o'quv topshiriqlari ham ta'lim maqsadida belgilangan mana shu jihatga xizmat qilmog'i zarur.

Albatta, bu fikr o'ta muhim va zamonaviy ta'lim tamoyillariga mos keladi. Ona tili mashg'ulotlarining asosiy maqsadi o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki ularning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat bo'lishi kerak.

Dars jarayonida o'quvchilarni hayotiy voqealar va dolzarb masalalar yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilishga, ona tilining leksik, grammatik va uslubiy jihatlarini amaliy tarzda qo'llash orqali nutq boyligini oshirish, to'g'ri, ravon va mazmunli nutq so'zlash, xalq maqollari, iboralar va badiiy usullardan foydalanish, matnlar tuzish orqali ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, o'z qarashlarini dalillar bilan isbotlash va boshqalar fikrini tinglash madaniyatiga o'rgatish lozim.

Ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil, mantiqiy, kreativ va ijodiy fikrlashga yo'naltirish lozim. Shuning uchun ushbu dastur asosida yaratilgan darsliklarda ijodiy tafakkur tarzini shakllantirish, darsni o'quvchilarning nutqiy malakasini yuzaga keltirishga, o'quvchilarning savodxonligini oshirishga hamda nutqiy (tinglab tushunish, o'qish, yozish, gapirish) va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida sinflar kesimida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda nutqiy mavzular va matnlar kiritildi.

Fanlararo integratsiya – bu turli fanlar o'rtasidagi mazmuniy, metodik va didaktik aloqalarni ta'minlash orqali o'quv jarayonini yaxlit tizim sifatida tashkil etishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Integratsiya jarayonida o'quvchilar bir fan doirasida olgan bilimlarini boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganadi. Natijada bilimlar parchalangan holda emas, balki yagona tizim sifatida shakllanadi.

Ta'limda fanlararo integratsiyani qo'llash bir qator pedagogik imkoniyatlarni yaratadi. Avvalo, u o'quvchilarning mantiqiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi. Turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni anglash o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytiradi hamda bilimlarni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, integratsiya o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yechim topish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Professor D.Yuldashevaning ta'kidlashicha: "Pedagogik kadrlarning yuksak professionalizmi ko'p jihatdan ta'lim muassasalarida shakllantirilgan salohiyat, uning ta'limiy

ehtiyojlarini qondirish va kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Demak, bugungi kun mutaxassisi intellektual salohiyatga ega bo'lishi zarur. Bu esa ta'limda integrativ yondashuvni taqozo etadi". [5:193]

Zamonaviy ta'lim tizimida fanlararo integratsiya ayniqsa kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kompetensiyalar faqat nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish orqali shakllanadi. Fanlararo integratsiya esa o'quvchilarga bilimlarni turli kontekstlarda qo'llash imkonini beradi.

Fanlararo integratsiya – bu turli fanlar o'rtasidagi mazmuniy, metodik va didaktik aloqalarni uyg'unlashtirish orqali o'quv jarayonini tashkil etish jarayonidir. Integratsiya o'quvchilarda kompleks tafakkur, tahliliy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ona tili ta'limida fanlararo integratsiya ona tili fanini aniq, tabiiy, ijtimoiy va amaliy fanlar bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi. Masalan, tarixiy matnlar asosida til birliklarini tahlil qilish, geografik mavzular bilan bog'liq matnlar ustida ishlash yoki ijtimoiy muammolar haqida muhokamalar tashkil etish orqali o'quvchilarning nutqiy faoliyati rivojlantiriladi.

Mutaxassis R.Ashurbayevaning fikricha, integratsiyani butunni tiklash va shu asosda taraqqiyot sari ilgarilash tarzida tushunish eng to'g'ri yo'ldir. Zero, integratsiya jarayonini umumiylik va xususiylik qonuniyati asosida quyidagi turlarga bo'linadi: tabiiy va ijtimoiy integratsiya. Tabiiy integratsiya, tabiatning o'z qonuniyatlari bilan bog'liq tarzda ro'y beradi. Ijtimoiy integratsiya (ichki va tashqi)ni quyidagi ko'rinishlari mavjud: madaniy-ma'naviy integratsiya, siyosiy-huquqiy integratsiya, iqtisodiy integratsiya, ta'limiy-tarbiyaviy integratsiya, maishiy integratsiya. [2:17] Fanlararo integratsiya dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, fanlararo integratsiya zamonaviy ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. U o'quvchilarda tizimli bilimlarni shakllantirish, tafakkurni rivojlantirish va bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ona tili ta'limida fanlararo integratsiyani qo'llash o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish hamda funksional savodxonligini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois ta'lim jarayonida fanlararo integratsiya asosida darslarni tashkil etish zamonaviy pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021, 304-b.
2. Ashurbayeva R.Q., Innovatsion texnologiyalar vositasida integratsiyalashgan ta'lim berish usullari. Monografiya. – Buxoro: "Durdona". 2023. 16-17-b.
3. Muxtarova Sh.M. Ona tilini informatika fani bilan bog'liqlikda o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. // "Zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani. – Farg'ona, 2023.
4. G'ulomov A., Qodirov M., Ernazarova M., va b. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012, 380 b. 60-bet.
5. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. – Buxoro: "Durdona", 2021. 193-bet.

Shohsanam ODINAYEVA,
University of Business and Science o'qituvchisi

TALABA YOSHLARDA IJTIMOY XAVOTIR DARAJASINING KASBIY O'Z-O'ZINI ANGLASH VA KASBIY IDENTIFIKATSIYAGA TA'SIRI

Annotatsiya: mazkur maqolada talaba yoshlarida ijtimoiy xavotir darajasining kasbiy o'z-o'zini anglash va kasbiy identifikatsiya jarayoniga ta'siri nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kasbiy o'z-o'zini anglash shaxsning o'z qobiliyatlari, qiziqishlari, qadriyatlari va hayotiy maqsadlarini kasbiy faoliyat bilan uyg'unlashtirish jarayoni sifatida talqin etilib, uning shaxsning kasbiy rivojlanishidagi o'rni asoslab beriladi. Ijtimoiy xavotirning talabalarning o'zini-o'zi baholashi, kasbiy motivatsiyasi hamda kasbiy o'zini anglash jarayoniga ko'rsatadigan salbiy ta'sirlari ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Shuningdek, ta'lim muhitining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari va qo'llab-quvvatlovchi pedagogik yondashuvlarning ijtimoiy xavotirni kamaytirish hamda kasbiy identifikatsiyani mustahkamlashdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari talaba yoshlarida kasbiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan psixologik-pedagogik mexanizmlarni takomillashtirishda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: talaba yoshlar, ijtimoiy xavotir, kasbiy o'z-o'zini anglash, kasbiy identifikatsiya, o'zini-o'zi baholash, kasbiy motivatsiya, shaxs rivojlanishi, ta'lim muhiti.

Аннотация: в данной статье теоретически анализируется влияние уровня социальной тревожности у студентов на процесс профессионального самосознания и профессиональной идентификации. Профессиональное самосознание рассматривается как процесс согласования способностей, интересов, ценностей и жизненных целей личности с профессиональной деятельностью, а также обосновывается его значимость в профессиональном развитии личности. На основе анализа научных источников раскрывается негативное влияние социальной тревожности на самооценку студентов, их профессиональную мотивацию и формирование профессионального самосознания. Кроме того, показана роль социально-психологической среды образовательного учреждения и поддерживающих педагогических подходов в снижении социальной тревожности и укреплении профессиональной идентификации. Результаты исследования имеют научно-практическое значение для совершенствования психолого-педагогических механизмов, направленных на поддержку профессионального развития студенческой молодежи.

Ключевые слова: студенческая молодежь, социальная тревожность, профессиональное самосознание, профессиональная идентификация, самооценка, профессиональная мотивация, развитие личности, образовательная среда.

Annotation: this article provides a theoretical analysis of the impact of social anxiety levels on the process of professional self-awareness and professional identity formation among university students. Professional self-awareness is interpreted as a process of integrating an individual's abilities, interests, values, and life goals with professional activity, and its significance in personal professional development is substantiated. Based on a review of relevant scientific literature, the negative effects of social anxiety on students' self-esteem, professional motivation, and professional self-awareness are examined. In addition, the role of the socio-psychological educational environment and supportive pedagogical approaches in reducing social anxiety and strengthening professional identity is highlighted. The findings of the study have scientific and practical relevance for improving psychological and pedagogical mechanisms aimed at supporting the professional development of students.

Key words: students, social anxiety, professional self-awareness, professional identity, self-esteem, professional motivation, personality development, educational environment.

Bugungi globallashuv jarayonlari va mehnat bozorida raqobatning kuchayib borishi sharoitida har bir shaxsdan o'z kasbiy salohiyatini chuqur anglash, kasbiy kompetensiyalarini uzluksiz rivojlantirib borish hamda o'zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga moslasha olish talab etiladi. Talabalik davrida kasbiy yo'nalganlikning shakllanishi, kelajak kasbiy faoliyatga nisbatan ongli munosabatning rivojlanishi shaxsning professional taqdirini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy ta'lim tizimida qamrovni kengaytirish bilan birga, hamma yoshlar universitetda o'qishni tanlamasligini inobatga olib, maktab davrida chet tillari va hunarlarni

o'rgatish orqali har bir yoshga munosib sharoit yaratish zarurligini alohida ta'kidlagan: "Biz oliy ta'limda qamrovni kengaytirib boryapmiz. Lekin hamma ham universitetda o'qishni tanlamaydi. Shuning uchun farzandlarimizga maktabdoyoq chet tillari va hunarlar o'rgatishni maqsad qilganmiz. Kimning kichkina bo'lsayam qo'lida kasbi bo'lsa, kuni o'tadi. Keyin yana o'z ustida ishlab, mahoratini oshirishi ham mumkin. Maqsadimiz – har bir yoshga munosib sharoit yaratish"[1].

Shu nuqtayi nazardan, talaba yoshlarida kasbiy o'z-o'zini anglash jarayoni nafaqat shaxsning ichki motivatsiyasi va qobiliyatlari, balki davlat tomonidan yaratilgan ijtimoiy va ta'limiy sharoitlarga ham bog'liq bo'lib, kasbiy

identifikatsiyaning shakllanishida muhim omil sifatida namoyon bo'ladi..

Kasbiy o'z-o'zini anglash shaxsning o'z qobiliyatlari, qiziqishlari, qadriyatlari va hayotiy maqsadlarini tanlangan yoki kutilayotgan kasbiy faoliyat bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan murakkab psixologik jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayon davomida shaxs o'zining kasbiy imkoniyatlarini baholaydi, kasbiy istiqbollari anglaydi hamda kasbiy tanloviga nisbatan ichki ishonchni shakllantiradi. Natijada kasbiy o'z-o'zini anglash shaxsning kasbiy identifikatsiyasini mustahkamlovchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur jarayonda motivatsiya, ya'ni shaxs faoliyatini ichki rag'batlantiruvchi motivlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ichki motivatsiya ustun bo'lgan shaxslarda kasbiy faoliyatga nisbatan barqaror qiziqish, o'zini namoyon etishga intilish va kasbiy o'sishga bo'lgan ehtiyoj kuchli namoyon bo'ladi. Aksincha, motivatsiyaning yetarli darajada shakllanmaganligi kasbiy o'z-o'zini anglash jarayonining sustlashuviga, shaxsning kasbiy tanlovida ikkilanish va ishonchsizlik holatlarining yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-oktabrdagi 656-son "Oliy ta'lim tashkilotlarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida" qarorida tyutorlik faoliyatining maqsadi talaba-yoshlarni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yaqindan yordam berish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga moslashuvini ta'minlash hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishdan iborat ekani belgilab qo'yilgan [2]. Mazkur me'yoriy-huquqiy hujjat talabalarining kasbiy o'z-o'zini anglash va ijtimoiy muhitga moslashuv jarayonini qo'llab-quvvatlashda muhim huquqiy asos sifatida xizmat qiladi.

Kasbiy o'zini o'zi anglash – professional faoliyatda inson taraqqiyotining eng yuqori bosqichidir. Shaxsning professional o'zini o'zi tanishi ushbu hayotda o'zi uchun nimani aniq belgilashga va ma'lum faoliyat turiga sa'y-harakatni yo'naltirishga yordam beradi. Shaxs o'zini o'zi anglashi tufayli emas, balki o'zida o'z-o'zini anglashga nisbatan ichki ehtiyoj, turtki, motiv kabi omillarning mavjudligi tufayli ham inson sifatida shakllanadi. Kasbiy faoliyat samaradorligining shartlaridan biri bo'ladigan mutaxassisning kasbiy tayyorligidir. Mashhur rus psixologi I.K.Platonovning fikriga ko'ra, "kasbiy tayyorgarlik – bu o'zini kerakli kasbiy faoliyatni bajarishga qodir va tayyor deb hisoblovchi hamda uni bajarishga intiluvchi shaxsning subyektiv holatidir." R.Ishmuhamedov, A.Abduqodirov va A.Pardayevlar kasbiy tayyorgarlik negizida "bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy hamda ilmiy-nazariy va amaliy tayyorgarligi" aks etishi kerakligini ta'kidlaydilar [3: 125].

Kasbiy o'z-o'zini anglash shaxsning o'zini muayyan kasbiy faoliyat subyekti sifatida idrok etishi, o'zining kasbiy imkoniyatlari, kompetensiyalari va kasbiy istiqbollari haqidagi e'tiqodlarini o'z ichiga oladi. Ushbu ichki tasavvurlar talabaning kasbiy motivatsiyasi, kasb tanlashga oid qarorlari, o'ziga bo'lgan ishonchi hamda kelajak kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan,

kasbiy o'z-o'zini anglash va kasbiy identifikatsiya shaxsning professional rivojlanishida markaziy psixologik mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi.

Talabalik davrida ijtimoiy muhit bilan faol o'zaro ta'sir jarayoni kuchayadi. Talabalar o'qituvchilar, tengdoshlar, akademik guruh va kengroq ta'lim muhitida ijtimoiy baholash, muloqot va ijtimoiy taqqoslash jarayonlariga muntazam ravishda duch keladilar. Mazkur jarayonlar fonida ijtimoiy xavotir darajasi talabaning o'zini kasbiy jihatdan anglashiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy xavotir yuqori bo'lgan shaxslarda o'zini baholashning pasayishi, ijtimoiy vaziyatlardan qochish, kasbiy muloqot va o'zini namoyon etish imkoniyatlarining cheklanishi kuzatiladi, bu esa kasbiy identifikatsiya jarayonining sustlashishiga olib kelishi ehtimoldan xoli emas.

Ta'lim jarayonining tashkiliy va metodik komponentlari o'quv dasturlarining tuzilishi, o'qitish metodologiyasi, baholash tizimi hamda akademik muhitning psixologik iqlimi talabalarining kasbiy o'z-o'zini anglashini shakllantirishda muhim omillar hisoblanadi. Talabaga yo'naltirilgan, faollik va hamkorlikka asoslangan pedagogik yondashuvlar talabalarining o'z kasbiy salohiyatiga bo'lgan ishonchini oshirishi, o'zini kasbiy subyekt sifatida qabul qilish jarayonini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bunday sharoitlar ijtimoiy xavotirning salbiy ta'sirini qisman yumshatishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ta'lim muassasasining ijtimoiy-psixologik muhiti qo'llab-quvvatlovchi o'qituvchi-talaba munosabatlari, ijobiy tengdoshlararo aloqalar va inklyuzivlik tamoyillariga asoslangan muhit talabalarda kasbiy identifikatsiyaning shakllanishini rag'batlantiradi. Aksincha, ijtimoiy bosim, kamsitish, baholanishdan qo'rquv va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi ijtimoiy xavotirni kuchaytirib, kasbiy o'z-o'zini anglash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'z-o'zini anglash yoki o'z-o'zini anglash ko'p qirrali konstruktsiya bo'lib, u shaxsning o'zini o'zi idrok etishini aks ettiradi, o'z-o'zini hurmat qilish, o'zini o'zi tasavvur qilish va ideal o'zini o'z ichiga oladi. O'z-o'zini anglash turli xil hayotiy natijalar, jumladan, akademik ko'rsatkichlar, ijtimoiy munosabatlar va psixologik farovonlikning hal qiluvchi omilidir. Marsh va Xetti fikriga ko'ra, ijobiy o'zini o'zi anglash yuqori akademik yutuqlar, yaxshi ruhiy salomatlik va rivojlangan ijtimoiy o'zaro ta'sirlar bilan kuchli bog'liqdir. Aksincha, Baumeister va boshqalar salbiy o'z-o'zini anglash akademik past natijalarga, o'zini past bahoga va tashvish va depressiya kabi psixologik muammolarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu sababli, o'quv yillarida o'z-o'zini anglashga ta'sir qiluvchi omillarni tushunish talabalarining har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun juda muhimdir [4].

Kasbiy o'z-o'zini anglashning muhim tarkibiy qismi bo'lgan o'zini-o'zi baholash jarayoni shaxs rivojlanishi davomida bosqichma-bosqich shakllanadi. Dastlab u atrofdagilarning baholari va tashqi fikrlarga kuchli darajada bog'liq bo'lsa, vaqt o'tishi bilan nisbatan mustaqil va barqaror xarakter kasb eta boshlaydi. Barqaror o'zini-o'zi baholash shakllangach, u o'zini-o'zi mustahkamlash tamoyiliga asoslanadi, ya'ni shaxs mavjud

baholash darajasini tasdiqlovchi xulq-atvor va tajribalarni izlashga moyil bo'ladi. Bu holat o'zini-o'zi yuqori baholashda ham, past baholashda ham namoyon bo'lishi mumkin.

Kasbiy rivojlanish, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirish va o'z-o'zini o'qitishga ko'maklashuvchi o'z-o'zini tashkil etish fazilati kelajakdagi kasb egalari va mutaxassislarining eng ko'p talab qilinadigan fazilatlaridan biriga aylanadi. Oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari 110000-Pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarda o'z-o'zini tashkil etish universal kompetensiyalar guruhi sifatida tasniflanadi: UK-4 – yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish sharoitida talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish ta'lim faoliyatida o'zini o'zi tashkil etish ko'nikmalarisiz paydo bo'lishi mumkin emas [5].

Talaba yoshlarida ijtimoiy xavotirning shakllanishi ko'pincha aynan salbiy ijtimoiy tajribalar bilan bog'liq bo'ladi. Jumladan, ota-onalar yoki muhim referent shaxslarning kamsituvchi munosabatlari, tanqidga asoslangan tarbiya uslublari talabalarda ijtimoiy vaziyatlarda, ayniqsa baholash bilan bog'liq holatlarda (imtihonlar, jamoa oldida chiqish, kasbiy muloqot) kuchli qo'rquv va xavotirni yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu ijtimoiy xavotir kasbiy o'z-o'zini anglash jarayonini cheklab, talabani o'z imkoniyatlarini to'liq namoyon etishiga, kasbiy identifikatsiyaning barqaror shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shaxsning o'zini o'zi anglashi orzular, umidlar, shaxsiy maqsadlarga erishishda namoyon bo'ladi. S.Kudinov "o'zini anglash" atamasi birinchi marta "Falsafa va psixologiya" lug'atida kiritilganligini ta'kidlaydi. Zamonaviy tadqiqotlarda "o'zini o'zi anglash" tushunchasi asosan "o'z potentsialini ro'yobga chiqarish" deb talqin qilinadi [6].

Gumanistik psixologiya doirasida o'z-o'zini anglash shaxs hayotining asosiy ma'nosi va yetakchi rivojlanish mexanizmi sifatida talqin etiladi. Ushbu yondashuvda shaxsning o'zini anglash darajasi uning individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi, kasbiy salohiyatini namoyon etishi hamda jamiyatga qo'shayotgan ijtimoiy hissi bilan uzviy bog'liq holda qaratiladi. Ayniqsa, talabalik davrida shaxsning o'zini kasbiy faoliyat subyekti sifatida anglash jarayoni ijtimoiy munosabatlar tizimi, yaqin atrofdagilar va kengroq ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirda shakllanadi.

Biroq psixologiya fanida o'z-o'zini anglash tushunchasining metodologik jihatdan aniq konseptual chegaralari mavjud emasligi muammosi saqlanib qolmoqda. Xususan, o'z-o'zini anglash hodisasini psixik jarayon, vaqtinchalik holat (ehtiyot yoki motivatsion holat) yoxud shaxsning barqaror individual xususiyati sifatida talqin etish masalasida turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Ushbu noaniqlik talaba yoshlarida kasbiy o'z-o'zini anglash va kasbiy identifikatsiyani o'rganishda ham nazariy va empirik aniqlashtirishni talab qiladi.

Tadqiqot natijalari va mavjud ilmiy manbalar tahlili ijtimoiy xavotir darajasining talabalarning kasbiy o'z-o'zini anglash va kasbiy identifikatsiya jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, ijtimoiy xavotir darajasi yuqori bo'lgan talabalarda o'zini-o'zi baholashning pasayishi, kasbiy faoliyatga oid vaziyatlarda ishtirok etishdan qochish, o'zini namoyon etish imkoniyatlarining cheklanishi kuzatiladi. Bu holatlar esa kasbiy o'z-o'zini anglashning yetarli darajada shakllanmasligiga hamda kasbiy identifikatsiya jarayonining sustlashuviga olib kelishi mumkin.

Shu bilan birga, kasbiy o'z-o'zini anglash jarayonida motivatsion omillarning, ayniqsa ichki motivatsiyaning roli muhim ekanligi aniqlanadi. Ichki rag'batlantiruvchi motivlar talabani kasbiy faoliyatga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirib, kasbiy maqsadlarni ongli ravishda belgilash va ularga erishishda barqarorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy xavotir darajasi past bo'lgan, o'ziga bo'lgan ishonchi nisbatan yuqori talabalarda kasbiy o'z-o'zini anglash va kasbiy identifikatsiya jarayonlari samaraliroq kechishi kuzatiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasasining ijtimoiy-psixologik muhiti, qo'llab-quvvatlovchi o'qituvchi-talaba munosabatlari, inklyuziv va ijobiy akademik muhit ijtimoiy xavotirning salbiy ta'sirini kamaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bunday muhit talabalarning o'zini kasbiy subyekt sifatida qabul qilishini rag'batlantiradi hamda kasbiy identifikatsiyaning barqaror shakllanishiga ko'maklashadi.

Talaba yoshlarida ijtimoiy xavotir darajasi, motivatsion xususiyatlar va kasbiy o'z-o'zini anglash o'rnatiladigan o'zaro bog'liqlikni kompleks o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar asosida talabalarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan psixologik-pedagogik dasturlarni ishlab chiqish, ijtimoiy xavotirni kamaytirish va kasbiy identifikatsiyani mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali mexanizmlarni joriy etish imkoniyati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://president.uz/oz/lists/view/6610>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-oktabrdagi 656-son qarori (<https://www.lex.uz/docs/-7774756>)
3. "Zamonaviy psixologiyani dolzarb muammolari" mavzusida xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjuman materiallari, T., 2025, 452-bet (<https://maktabgacha-va-maktab-talimi.jurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/3587/2886>)
4. file:///C:/Users/user/Downloads/4345-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-9368-1-10-20250217.pdf
5. chromeextension://efaidnbmnnpbpcjpcglcfindmkaj/https://ilmiyanjumanlar.uz/uploads/conferences/0033/1.8.%20Otajonova.pdf
6. file:///C:/Users/user/Downloads/Yosh+olimlar++0601.pdf

TALABALARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IFODALI O'QISHNING O'RNI

Annotatsiya: ushbu maqolada talabalarda nutq madaniyatini shakllantirish jarayonida ifodali o'qishning didaktik va metodik ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi. Ifodali o'qish nafaqat badiiy matnni to'g'ri talaffuz qilish, balki mazmunni intonatsion vositalar orqali aniq yetkazish, matnning semantik tuzilishini to'g'ri anglash va tinglovchida estetik ta'sir uyg'otish kabi ko'p qirrali vazifalarni bajarishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda ifodali o'qishning orfoepik me'yorlarni mustahkamlash, nutqning mantiqiy izchilligini oshirish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va badiiy tafakkurni kengaytirishga xizmat qilishi ilmiy asoslar bilan yoritilgan. Shuningdek, talabalarda nutq madaniyatining shakllanishi jarayoniga ta'sir qiluvchi psixolingvistik omillar, o'qish texnikasining bosqichlari hamda ifodali o'qish mashqlarining nutq faoliyatiga ta'siri tahlil etiladi. Maqola yakunida talabalarda nutq madaniyatini rivojlantirishda ifodali o'qishning samaradorligini oshiruvchi metodik tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: *ifodali o'qish, nutq madaniyati, og'zaki nutq kompetensiyasi, orfoepiya, intonatsiya, talaffuz madaniyati, kommunikativ ko'nikmalar, o'qish texnikasi, lingvodidaktika, ta'lim jarayoni.*

Annotation: this article provides a scientific analysis of the didactic and methodological significance of expressive reading in the development of students' speech culture. Expressive reading is examined not only as the correct pronunciation of a literary text, but also as a multifaceted process that ensures accurate delivery of meaning through intonational means, proper comprehension of the semantic structure of the text, and the creation of an aesthetic impact on the listener. The study highlights how expressive reading contributes to strengthening orthoepic norms, improving logical coherence in speech, enhancing communicative competence, and expanding artistic thinking. In addition, the article analyzes psycholinguistic factors influencing the formation of students' speech culture, stages of reading techniques, and the effect of expressive reading exercises on speech activity. Finally, methodological recommendations aimed at increasing the effectiveness of expressive reading in developing students' speech culture are presented.

Key words: *expressive reading, speech culture, oral communication competence, orthoepy, intonation, pronunciation culture, communicative skills, reading technique, linguodidactics, educational process.*

Аннотация: в данной статье научно обоснованно анализируется дидактическое и методическое значение выразительного чтения в процессе формирования речевой культуры студентов. Выразительное чтение рассматривается не только как правильное произношение художественного текста, но и как многоаспектный процесс, обеспечивающий точную передачу содержания посредством интонационных средств, правильное понимание семантической структуры текста и создание эстетического воздействия на слушателя. В исследовании раскрывается роль выразительного чтения в укреплении орфоэпических норм, повышении логической связности речи, развитии коммуникативной компетенции и расширении художественного мышления. Кроме того, анализируются психолингвистические факторы, влияющие на формирование речевой культуры студентов, этапы техники чтения и влияние упражнений по выразительному чтению на речевую деятельность. В заключение представлены методические рекомендации по повышению эффективности выразительного чтения в развитии речевой культуры студентов.

Ключевые слова: *выразительное чтение, речевая культура, компетенции устной речи, орфоэпия, интонация, культура произношения, коммуникативные навыки, техника чтения, лингводидактика, образовательный процесс.*

Zamonaviy ta'lim jarayonida talabani har tomonlama yetuk, keng dunyoqarashli va samarali muloqot olib borishga qodir shaxs sifatida tarbiyalash ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Bunda nutq madaniyatini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Nutq madaniyati insonning og'zaki yoki yozma tarzda o'z fikrini aniq, izchil, mazmunli hamda estetik talablar darajasida ifodalay olish mahoratidir. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida bu kompetensiyaning shakllanishi talabani kelajak kasbiy faoliyati, jamoa bilan ishlash qobiliyati va ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topishi uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalardan biridir. Shu sababli nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar va amaliy mashqlar oliy ta'limning ajralmas qismi sifatida e'tirof etiladi. Talabalarda nutq madaniyatini rivojlantirishdagi ifodali o'qish muammosi zamonaviy ta'lim jarayonining markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Til insonning ijtimoiy faoliyatini tashkil etuvchi asosiy vosita bo'lib, uning madaniy, estetik va kommunikativ jihatlar ta'lim

muassasalarida ongli ravishda shakllantirilishi talab etiladi. Ifodali o'qish esa nafaqat fonetik va orfoepik me'yorlarga rioya qilishni, balki matn mazmunini chuqur anglab, intonatsiya, tembr, ritm va pauzalarni maqsadli qo'llash orqali tinglovchiga istalgan emotsional-pedagogik ta'sirni yetkazishni nazarda tutadi. Shu jihatdan ifodali o'qish nutq madaniyatining amaliy ko'rinishi, talabalarining og'zaki kompetensiyasini rivojlantirishdagi samarali vosita sifatida ko'rilishi lozim. Ifodali o'qish o'qitishning didaktik tamoyillari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u o'quv jarayonida tilning estetik funksiyasini uyg'otish, fikrni strukturaviy tarzda ifodalash va kommunikativ vaziyatlarga mos nutq strategiyalarini shakllantirish orqali talabalar nutq madaniyatini mustahkamlaydi. Pedagogik amaliyotda ko'pincha talaffuz va grammatik jihatlar asosiy e'tiborga olinadi, biroq intonatsion va ekspressiv komponentlarning yetarli darajada o'qitilmasligi nutq madaniyatining to'liq rivojlanishiga xalaqit beradi. Shu sababli tadqiqotning muhim vazifasi ifodali o'qishning talabalarda nutq

madaniyatini qanday yoʻnalishlarda va qaysi shart-sharoitlarda rivojlantirishga xizmat qilishini aniqlashdan iborat.

Ifodali oʻqish talabalarda nutq madaniyatini shakllantirishda markaziy oʻrin tutadi, chunki u tilni faqat maʼlumot uzatish vositasi emas, balki tinglovchi bilan emotsional va kognitiv aloqani oʻrnatuvchi murakkab kommunikativ jarayon sifatida koʻrilishini taʼminlaydi. Ilmiy jihatdan qaralganda, ifodali oʻqish bir nechta asosiy komponentlarni birlashtiradi: matn mazmunini chuqur anglash, ovoz-texnik koʻnikmalarni boshqarish, vositalarini ongli qoʻllash va auditoriya bilan interaktiv munosabatni ushlab turish. Ushbu komponentlarning uygʻun ishlashi natijasida talabalar nafaqat toʻgʻri va ravon gapiradi, balki fikrlarini loʻnda, mantiqan izchil va estetik jihatdan taʼsirli ifoda eta oladi.

Kognitiv asosdan qaralganda, ifodali oʻqish talabani matnning analiz qilish va sintez qilish qobiliyatini kuchaytiradi: u matnning asosiy gʻoyasini aniqlab, uni turli register va stilistik vositalar yordamida tinglovchiga mos tarzda taqdim eta oladi. Bu jarayon metakognitiv funksiyalarni yaʼni oʻz nutqini rejalashtirish, monitoring qilish va tuzatishni faollashtiradi, natijada talabalar nutqni tartibga solish va argumentatsiyani strukturaviy tarzda qurish koʻnikmalarini puxta oʻzlashtiradi. Neyrobiologik tadqiqotlar koʻrsatadiki, ovoz va prosodik oʻzgarishlar emosional jarayonlar bilan bogʻliq neyron tarmoqlarning faolligini oshiradi; shu orqali eslab qolish va maʼlumotni qabul qilish samaradorligi ham yaxshilanadi.

Didaktik jihatdan ifodali oʻqish oʻqitish maqsadlarini amalga oshirishda bir qancha aniq vazifalarni bajaradi: talaffuz xatolarini kamaytirish, nutq ritmini va aniq talaffuzni shakllantirish, auditoriya eʼtiborini qozonish uchun retorik strategiyalarni oʻrgatish va professional nutq holatlarida oʻzini tutish qobiliyatini rivojlantirish. Oʻquv jarayonida bu maqsadlarga erishish uchun mazmuniy tahlil (matnning semantik va strukturaviy jihatlarini aniqlash), vokal trening (ovozi, nafasni boshqarish, ovoz sustlash va kuchaytirish mashqlari), hamda kontekstga mos dramatik mashqlar birgalikda qoʻllanilishi kerak. Muhimi, mashgʻulotlar nafaqat texnikaga, balki mazmun-yuklama va kommunikativ vazifaga yoʻnaltirilgan boʻlishi lozim.

Amaliy yondashuv sifatida quyidagi tartib samarali hisoblanadi: avvalo talabani boshlangʻich nutq holatini aniqlash (diagnostika), keyin individual va guruh mashgʻulotlarga asoslangan treninglar oʻtkazish, mashqlarni real nutq vaziyatlariga bogʻlash va natijalarni qayta oʻlchash. Mashgʻulotlarda foydalaniladigan konkret vositalar yordamida matnning tahlil qilish, oʻqilgan nutqni audio yoki video orqali qayta koʻrib chiqish, rolli oʻyinlar va matnga asoslangan improvizatsiyalar. Bu

usullar talabani oʻz nutqini tashqi nuqtayi nazardan baholash va oʻzgartirish imkoniyatini beradi. Baholash tizimi aniq, oʻlchanadigan mezonlarga tayangan boʻlishi lozim: mazmunni yetkazish aniqlik, tinglovchi tushunish darajasi qanday, nutqning mantiqiy ketma-ketligi va argumentatsiya qanchalik mustahkam, shuningdek nutqning estetik taʼsiri va auditoriya bilan emotsional bogʻlanish darajasi qanday. Diagnostika vositalari sifatida standartlashtirilgan vazifalar, ekspert baholari, peer-assessment, hamda akustik tahlil vositalari (agar mavjud boʻlsa) orqali ovoz va prosodiya parametrlarini vizual tarzda koʻrish mumkin.

Pedagogik natijalar nuqtayi nazaridan, tizimli ravishda olib borilgan ifodali oʻqish metodikasi talabalar orasida quyidagi ijobiy oʻzgarishlarni keltirib chiqaradi: ogʻzaki nutqda aniqlik va qatʼiyat ortishi, argumentlarni konstruktiv tarzda bayon etish qobiliyatining oshishi, auditoriya bilan samarali muloqot qura olish, jamoaviy va professional muhitda oʻz fikrini ishonch bilan himoya qila olish va akademik taqdimotlar sifatining yaxshilanishi. Bu jihatlar talabani umumiy kommunikativ kompetensiyasini kuchaytiradi va kasbiy muvaffaqiyat uchun zarur boʻlgan soʻzlashuv madaniyatini shakllantiradi. Amaliy tatbiqda eʼtibor qaratilishi kerak boʻlgan cheklavlar va xavotirlar ham mavjud: oʻqituvchilarning malaka darajasi, darslarda multimedia va tahliliy vositalarning yetishmasligi, talabalarning boshlangʻich darajalaridagi katta tafovutlar metodik samaradorlikni pasaytirishi mumkin. Shu bois, institutsional darajada oʻqituvchilar uchun qayta tayyorlash kurslari, oʻquv rejalari ifodali oʻqish modulini kiritish va baholash protokollarini joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, ifodali oʻqish nutq madaniyatini rivojlantirishning amaliy va nazariy jihatdan asoslangan vositasi boʻlib, u kognitiv, emotsional va kommunikativ komponentlarni uygʻunlashtirib, talabalarni professional va ijtimoiy muhitda samarali soʻzlashuvga tayyorlaydi. Uning samarasi oʻqitishning tizimli tashkil etilishi, aniq maqsadlar va oʻlchanadigan baholash tizimi asosida taʼminlanadi. Ifodali oʻqish metodikasining taʼlim jarayoniga muntazam tatbiq etilishi pedagogik samaradorlikni oshirib, oʻquv jarayonini jonlantiradi, talabalarning matnga boʻlgan qiziqishini kuchaytiradi hamda ular ongida tilning estetik va maʼnaviy qimmatini anglashga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvning toʻgʻri tashkil etilishi oʻqituvchidan metodik mahorat, zamonaviy vosita va usullardan foydalanish, individual yondashuvni yoʻlga qoʻyishni talab etadi. Natijada talabalarda nutq madaniyati chuqur, tizimli va barqaror shakllanadi, ifodali oʻqish esa bu jarayonning eng samarali vositalaridan biri sifatida oʻz ahamiyatini yana bir bor isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахмедов, Ш. «Nutq madaniyati va ogʻzaki nutq kompetensiyasi». – T.: Oʻzbekiston, 2018.
2. Karimov, T. «Oliy taʼlimda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish». – Toshkent, 2020.
3. Sobirov, D. «Fonetik va prosodik koʻnikmalarni shakllantirish metodikasi». – Toshkent, 2019.
4. Ismoilova, L. «Lingvodidaktika va badiiy matn bilan ishlash». – T.: Oʻqituvchi, 2017.
5. Jones, D. *Intonation and Prosody in Language Learning*. London: Routledge, 2015.
6. Crystal, D. *The Cambridge Encyclopedia of the English Language*. Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
7. Stern, H.H. *Fundamental Concepts of Language Teaching*. Oxford: Oxford University Press, 2011.
8. Gafurov, B. «Talabalarda ogʻzaki nutq madaniyatini rivojlantirish». – Toshkent, 2021.
9. Kadirova, N. «Ifodali oʻqish texnikasi va metodikasi». – T.: Akadernashr, 2018.
10. Harmer, J. *The Practice of English Language Teaching*. Harlow: Pearson, 2015.

Maxbuba SADIKOVA,
 TDTU Chet tillar markazi,
 Chet tillar kafedrasida katta o'qituvchi

TEXNIKA YO'NALISHIDAGI TALABALARGA XORIJIY TILNI O'QITISHDA KASBIY TERMINOLOGIYANING O'RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga xorijiy til o'qitish jarayonida kasbiy terminologiyaning ahamiyati tahlil qilinadi. Texnik sohada samarali muloqot olib borish, ilmiy-texnik adabiyotlarni o'qish va tushunish, xalqaro hamkorlikda faol ishtirok etish uchun maxsus terminlarni chuqur o'zlashtirish zarurligi asoslab beriladi. Kasbiy terminlarni o'qitishda kommunikativ yondashuv, kontekst asosida o'qitish, soha lug'atlaridan foydalanish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi yoritiladi. Maqolada terminologiyani o'rgatishda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: xorijiy til, texnika yo'nalishi, texnik terminlar, kommunikativ yondashuv, maxsus lug'atlar, ESP (English for Specific Purposes), kasbiy kompetensiya.

Annotation: this article analyzes the role of professional terminology in teaching foreign languages to students of technical specialties. It substantiates the importance of mastering specialized terms for effective professional communication, reading and understanding scientific and technical literature, and active participation in international cooperation. The study highlights the effectiveness of communicative approaches, context-based teaching, the use of specialized dictionaries, and modern pedagogical technologies in teaching professional terminology. The paper also discusses common challenges in teaching technical terms and suggests possible solutions.

Key words: foreign language, technical education, technical terms, communicative approach, specialized dictionaries, ESP (English for Specific Purposes), professional competence.

Аннотация: в данной статье анализируется роль профессиональной терминологии в обучении иностранному языку студентов технических направлений. Обосновывается необходимость овладения специальными терминами для эффективного профессионального общения, чтения и понимания научно-технической литературы, а также активного участия в международном сотрудничестве. Рассматривается эффективность коммуникативного подхода, контекстного обучения, использования специализированных словарей и современных педагогических технологий при преподавании профессиональной терминологии. Также освещаются проблемы, возникающие в процессе обучения техническим терминам, и предлагаются пути их решения.

Ключевые слова: иностранный язык, техническое образование, технические термины, коммуникативный подход, специализированные словари, ESP, профессиональная компетентность.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida fan va texnika sohalarining jadal rivojlanishi, xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikning kengayishi hamda axborot almashinuvining tezlashuvi xorijiy tillarni puxta egallash zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Ayniqsa, texnika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun xorijiy tilni bilish nafaqat umumiy kommunikativ ehtiyoj, balki kasbiy faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy muhandis, dasturchi yoki texnolog o'z sohasidagi yangiliklardan boxabar bo'lishi, xalqaro standartlar bilan ishlashi va xorijiy mutaxassislar bilan samarali muloqot olib borishi uchun professional terminologiyani chuqur o'zlashtirgan bo'lishi zarur.

Texnik sohalarda qo'llaniladigan terminlarning aksariyati ingliz tiliga mansub bo'lib, ular xalqaro miqyosda

yagona ilmiy-texnik aloqa vositasi sifatida xizmat qilmoqda. Shu bois, texnika yo'nalishidagi talabalarga xorijiy til o'qitish jarayonida umumiy til ko'nikmalarini shakllantirish bilan bir qatorda, kasbiy terminologiyani tizimli va maqsadli ravishda o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Terminlarni chuqur bilish talabalarga ilmiy maqolalarni o'qish, texnik hujjatlarni tushunish, loyiha ishlanmalarini tayyorlash hamda xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish imkonini beradi.

Xorijiy tilni o'qitish metodikasida so'nggi yillarda kasbiy yo'naltirilgan ta'lim, xususan, English for Specific Purposes (ESP) yondashuvi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuv talabalarning mutaxassislik ehtiyojlariga mos ravishda til o'rgatishni nazarda tutadi va terminologik

kompetensiyani shakllantirishni asosiy vazifalardan biri sifatida belgilaydi. Texnika yo'nalishidagi talabalarda kasbiy terminlarni o'zlashtirish jarayoni faqat lug'aviy birliklarni yodlash bilan cheklanmay, balki ularni real kasbiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini ham shakllantirishni talab etadi. Texnik terminologiyani o'qitishda qator muammolar ham mavjud. Jumladan, terminlarning ko'p ma'noliligi, qisqartmalar va akronimlarning keng qo'llanishi, yangi terminlarning tez sur'atlarda paydo bo'lishi hamda ularning milliy tilga moslashtirilishi jarayoni talabalarda ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi. Bundan tashqari, ayrim hollarda umumiy til darsliklari texnik yo'nalish talabalarining ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Shu sababli, maxsus lug'atlar, autentik materiallar, ilmiy-texnik matnlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarurati yuzaga keladi.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, texnika yo'nalishidagi talabalarga xorijiy til o'qitishda kasbiy terminologiyaning o'rni va uni samarali o'rgatish metodlarini ilmiy asosda tahlil qilish bugungi ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biridir. Tadqiqotning maqsadi – texnik yo'nalish talabalarida kasbiy terminologik kompetensiyani shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlarini yoritish hamda samarali metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar metodologiyasi. Xorijiy tillarni kasbiy yo'naltirilgan holda o'qitish masalasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Jumladan, Tom Hutchinson va Alan Waters o'zlarining ESP nazariyasiga oid tadqiqotlarida shunday ta'kidlaydilar: *"ESP is an approach to language teaching in which all decisions as to content and method are based on the learner's reason for learning."* Ya'ni, til o'qitish mazmuni va metodlari o'quvchining kasbiy ehtiyojlariga asoslanishi lozim. Bu fikr texnika yo'nalishidagi talabalarga xorijiy til o'qitishda terminologiyaning ustuvor ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. Dudley-Evans va Maggie Jo St John ESP metodikasiga bag'ishlangan tadqiqotlarida kasbiy til o'qitishning asosiy maqsadi mutaxassislik doirasidagi kommunikativ kompetensiyani shakllantirish ekanini qayd etadilar. Ularning fikricha, maxsus terminologiya o'quv jarayonining markaziy komponenti hisoblanadi.

Til va terminologiya o'rtasidagi uzviy bog'liqlik haqida John Swales ham o'z qarashlarini bildirgan. U akademik va professional diskursni o'rganar ekan, muayyan soha vakillari o'zaro muloqotda aynan terminologik birliklar orqali kasbiy hamjamiyatni shakllantirishini ta'kidlaydi.

Rus metodist olimi E.I.Passov esa chet tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvni asoslab berar ekan, til

birliklarini real nutqiy vaziyatda qo'llash zarurligini qayd etadi. Uning fikricha, terminlarni kontekst asosida o'rgatish ularning faol nutqiy kompetensiyaga aylanishiga xizmat qiladi. L.S.Vygotskyning sotsial-konstruktivistik nazariyasiga ko'ra, bilim ijtimoiy hamkorlik jarayonida shakllanadi. Bu yondashuv texnik terminologiyani guruhviy muhokamalar, loyiha ishlari va amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatishning ilmiy asosini tashkil etadi.

Tahlillar qismi. Texnika yo'nalishidagi talabalarga xorijiy til o'qitish jarayonida kasbiy terminologiyaning o'zlashtirilish darajasi ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumiy til kompetensiyasi yetarli bo'lgan talabalarda ham maxsus terminlarni tushunish va amaliy qo'llashda qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu holat terminlarning tor sohaviy xususiyatga egaligi hamda ularning kontekstga bog'liq holda turlicha ma'no kasb etishi bilan izohlanadi.

O'quv jarayonida olib borilgan kuzatuvlar natijasida aniqlanishicha, texnik matnlar bilan ishlashda talabalar asosan quyidagi muammolarga duch keladi:

Terminlarning ko'p ma'noliligi – ayrim texnik atamalar umumiy tilda boshqa ma'noni anglatishi mumkin (masalan, "platforma", "model", "interface" kabi birliklar).

Qisqartmalar va akronimlar – IT va muhandislik sohalarida keng qo'llaniladigan qisqartmalar (CPU, API, CAD va boshqalar)ni tushunishda qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Yangi terminlarning tez paydo bo'lishi – texnologik taraqqiyot natijasida terminologiya doimiy ravishda yangilanib boradi.

Tarjima muammolari – ayrim terminlarning o'zbek tilida aniq ekvivalenti mavjud emas yoki bir nechta variantda qo'llanadi.

Amaliy mashg'ulotlar jarayonida aniqlanishicha, faqat lug'aviy tarjimaga asoslangan o'qitish usuli yetarli natija bermaydi. Terminlarni samarali o'zlashtirish uchun ularni kontekst asosida, real kasbiy vaziyatlarga bog'lab o'rgatish muhimdir. Masalan, texnik hujjatlar, chizmalar, loyiha tavsiflari va ilmiy maqolalar bilan ishlash talabalarning terminologik kompetensiyasini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin: kasbiy terminologiya xorijiy til kompetensiyasining ajralmas qismi hisoblanadi; terminlarni tizimli va bosqichma-bosqich o'qitish zarur; kontekstual va kommunikativ metodlar samaraliroq natija beradi; maxsus lug'atlar va autentik materiallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Demak, texnika yo'nalishidagi talabalarga

xorijiy til o'qitishda kasbiy terminologiyani chuqur va maqsadli o'rgatish ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Natijalar. Tadqiqot jarayonida texnika yo'nalishidagi talabalarga xorijiy til o'qitishda kasbiy terminologiyani tizimli ravishda qo'llashning samaradorligi o'rganildi. O'quv jarayoniga kontekstual yondashuv, kommunikativ metodlar, autentik texnik matnlar hamda maxsus lug'atlardan foydalanish elementlari kiritildi va ularning ta'siri tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatdiki, kasbiy terminologiyaga yo'naltirilgan mashg'ulotlar tashkil etilgan guruhlarda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi: talabalarining texnik matnlarni o'qish va tushunish ko'rsatkichi sezilarli darajada oshdi; ilmiy-texnik atamalardan og'zaki va yozma nutqda foydalanish faolligi kuchaydi; kasbiy mavzularda muloqot qilishga bo'lgan ishonch va motivatsiya ortdi; terminlarning ma'nosini kontekst asosida aniqlash ko'nikmasi shakllandi.

Terminlarni faqat tarjima asosida emas, balki amaliy vaziyatlar orqali o'rgatish natijasida talabalar yangi leksik birliklarni tezroq o'zlashtirishi va uzoq muddat eslab qolishi aniqlandi. Guruhiy muhokamalar, loyiha ishlari, taqdimotlar va texnik hujjatlar bilan ishlash jarayonida terminologik bilimlarning mustahkamlanishi kuzatildi.

Natijalar shuni ham tasdiqladiki, elektron lug'atlar, onlayn platformalar va multimedia vositalaridan foydalanish mustaqil ta'lim samaradorligini oshiradi. Talabalar terminlarning to'g'ri talaffuzi, qo'llanish doirasi va uslubiy xususiyatlarini chuqurroq anglay boshlaydi.

Bu esa ularning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kasbiy terminologiyani o'qitishda bosqichma-bosqichlik, tizimlilik va soha bilan integratsiya tamoyillariga amal qilish yuqori natija beradi. Xususan, terminlarni tanishtirish, mustahkamlash, amaliy qo'llash, nazorat qilish ketma-ketligi asosida o'qitish samarali hisoblanadi.

Xulosa. Kasbiy terminologiya texnika yo'nalishidagi talabalarining ilmiy-texnik matnlarni tushunishi, xalqaro standartlar bilan ishlashi, kasbiy muloqot olib borishi va innovatsion loyihalarda ishtirok etishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, terminlarni kontekst asosida, kommunikativ yondashuv va amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatish an'anaviy tarjima usuliga nisbatan samaraliroq natija beradi.

Maxsus lug'atlar, autentik materiallar, elektron resurslar va interaktiv metodlardan foydalanish terminologik kompetensiyaning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Terminlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, ularni real kasbiy vaziyatlarda qo'llash va mustaqil ta'lim bilan uyg'unlashtirish talabalar bilimining mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

Umuman olganda, xorijiy tilni kasbiy yo'naltirilgan holda o'qitish, xususan, terminologik bilimlarni chuqurlashtirish texnika yo'nalishidagi talabalarining raqobatbardoshligini oshiradi hamda ularning zamonaviy mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta'lim tizimida xorijiy til o'qitish jarayonini kasbiy terminologiya bilan integratsiyalash dolzarb va zarur vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алимарданова З. Ч., Садикова М. Б. ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТЕРМИНОСИСТЕМЫ (АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫК) // Вестник науки и образования. – 2022. – №. 3 (123). – С. 47-48.
2. Abdullayeva, M. (2025). Equity and Accessibility in Education Systems: A Global Perspective on Sdg 4 Implementation. International Journal of Formal Education, 4(12), 41–46. Retrieved from <https://journals.academiczone.net/index.php/ijfe/article/view/6128>
3. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes: A Learning-Centred Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 183 p.
4. Dudley-Evans T., St John M. J. Developments in English for Specific Purposes: A Multi-Disciplinary Approach. – Cambridge: Cambridge University Press, 1998. – 301 p.
5. Swales J. M. Genre Analysis: English in Academic and Research Settings. – Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 260 p.
6. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с.

Nilufar SAIDOVA,

Jahon Iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

"Yevropa va turkiy tillar" kafedrası, ispan tili o'qituvchisi

e-mail: esniluno@gmail.com

ISPAN TILIDAGI REKLAMA MATNLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA LINGVOKULTUROLOGIK TRANSFORMATSIYALAR VA SEMANTIK ADAPTATSIYA MUAMMOLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada ispan tilidagi reklama matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvokulturologik transformatsiyalar va semantik adaptatsiya masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda reklama diskursining milliy-madaniy xususiyatlari, pragmatik ta'sir vositalari hamda ularning tarjimada adekvat ifodalanish usullari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, reklama matnlarini tarjima qilishda madaniy moslashtirish, semantik o'zgarishlar va kommunikativ samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi strategiyalar yoritiladi.

Kalit so'zlar: reklama matni, tarjima, lingvokulturologiya, semantik adaptatsiya, reklama diskursi, madaniy moslashtirish, pragmatik ta'sir.

Аннотация: в данной статье анализируются лингвокультурологические трансформации и проблемы семантической адаптации при переводе рекламных текстов с испанского языка на узбекский. Рассматриваются национально-культурные особенности рекламного дискурса, прагматические средства воздействия и способы их адекватной передачи в переводе. Особое внимание уделяется стратегиям культурной адаптации и семантических преобразований, обеспечивающих коммуникативную эффективность рекламных сообщений.

Ключевые слова: рекламный текст, перевод, лингвокультурология, семантическая адаптация, рекламный дискурс, культурная адаптация, прагматическое воздействие.

Annotation: this article examines linguocultural transformations and the issues of semantic adaptation in translating advertising texts from Spanish into Uzbek. The study analyzes the national and cultural characteristics of advertising discourse, persuasive language tools, and methods of their adequate rendering in translation. Particular attention is given to strategies of cultural adaptation and semantic transformation that ensure the communicative effectiveness of advertising messages.

Key words: advertising text, translation, linguocultural studies, semantic adaptation, advertising discourse, cultural adaptation, pragmatic impact.

Kirish. Zamonaviy global kommunikatsiya jarayonlarida reklama matnlari marketing strategiyalarining muhim tarkibiy qismi sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Reklama nafaqat mahsulot yoki xizmat haqida ma'lumot beruvchi kommunikativ vosita, balki u ma'lum bir madaniyat, ijtimoiy qadriyatlar va mentalitetni aks ettiruvchi diskursiv hodisa sifatida ham namoyon bo'ladi. Shu bois reklama matnlarini bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayoni oddiy lingvistik ekvivalentlik bilan cheklanib qolmay, balki turli madaniy, pragmatik hamda semantik omillarni ham hisobga olishni talab qiladi. Ayniqsa, ispan tilidagi reklama matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida

til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, milliy-kognitiv stereotiplar hamda kommunikativ strategiyalar muhim rol o'ynaydi. Ispan va o'zbek tillari turli til oilalariga mansub bo'lib, ularning lingvistik tizimi, madaniy an'analari hamda kommunikativ modellari sezilarli darajada farqlanadi. Shu sababli reklama matnlarini tarjima qilish jarayonida ko'plab semantik va lingvokulturologik muammolar yuzaga keladi. Xususan, milliy madaniyatga xos realiyalar, metaforik konstruksiyalar, sloganlar hamda emotsional-ekspressiv birliklarni o'zbek tilida mos tarzda ifodalash uchun semantik adaptatsiya va turli tarjima transformatsiyalaridan foydalanish zarur bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ispan tilidagi reklama matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvokulturologik transformatsiyalarni hamda semantik adaptatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot davomida reklama diskursining lingvistik va madaniy xususiyatlari, tarjima jarayonida qo'llaniladigan transformatsiya usullari hamda kommunikativ samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi strategiyalar ko'rib chiqiladi. Mazkur masalalarning o'rganilishi reklama matnlarini tarjima qilish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish, shuningdek, turli madaniyatlar o'rtasidagi samarali kommunikatsiyani ta'minlashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotda ispan tilidagi reklama matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvokulturologik transformatsiyalar hamda semantik adaptatsiya muammolarini aniqlash va tahlil qilish maqsadida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi zamonaviy tarjimashunoslik, lingvokulturologiya va pragmalingvistika yondashuvlariga asoslanadi.

Avvalo, tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod qo'llanildi. Ushbu metod orqali ispan tilidagi reklama matnlari va ularning o'zbek tilidagi tarjimalari o'zaro solishtirildi, semantik va pragmatik o'zgarishlar aniqlab chiqildi. Qiyosiy tahlil natijasida reklama matnlarida milliy-madaniy komponentlarning tarjima jarayonida qanday transformatsiyaga uchrashi o'rganildi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, reklama tarjimasida lingvokulturologik omillar matnning ta'sirchanligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shuningdek, tadqiqot jarayonida lingvokulturologik tahlil metodi ham qo'llanildi. Bu metod orqali reklama matnlarida aks etgan madaniy kodlar, milliy mentalitet elementlari va kommunikativ strategiyalar tahlil qilindi. Ispan tilidagi reklama diskursida uchraydigan madaniy belgilar o'zbek tiliga tarjima qilinayotganda ko'pincha semantik adaptatsiyani talab qilishi aniqlandi. Chunki reklama matni nafaqat axborot berish, balki iste'molchiga ta'sir ko'rsatish vazifasini ham bajaradi.

Tadqiqotda semantik tahlil metodi ham muhim o'rin egalladi. Mazkur metod yordamida reklama matnlarida qo'llanilgan metafora, epitet, shior va boshqa stilistik vositalarning tarjimada qanday

semantik o'zgarishlarga uchrashi o'rganildi. Semantik adaptatsiya jarayonida ayrim birliklar to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmay, balki kontekstual moslashtirish orqali berilishi kuzatildi. Bu esa reklama matnining kommunikativ samaradorligini saqlab qolishga xizmat qiladi [1; 78].

Tadqiqot natijalari va tahlil. Tadqiqot jarayonida ispan tilidagi reklama matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda lingvokulturologik transformatsiyalar va semantik adaptatsiya jarayonlari reklama diskursining kommunikativ xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Reklama matnlari o'zining persuasiv tabiatiga ko'ra auditoriyaning e'tiborini jalb qilish, ijobiy emotsional fon yaratish hamda iste'molchi ongida ma'lum bir obraz yoki assotsiatsiyani shakllantirishga qaratilgan bo'ladi. Shu sababli reklama matnlarini tarjima qilish jarayonida oddiy semantik moslikni ta'minlash yetarli bo'lmaydi, balki matnning pragmatik ta'sir kuchini saqlab qolish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari reklama diskursida lingvokulturologik omillar tarjima jarayonining muhim determinanti sifatida namoyon bo'lishini ko'rsatdi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, ispan tilidagi reklama matnlarida metaforik konstruksiyalar, milliy-madaniy konnotatsiyalar hamda emotsional-ekspressiv birliklar keng qo'llaniladi. Bunday birliklar ko'pincha ma'lum bir madaniyatga xos konseptual tasavvurlar bilan bog'liq bo'lib, ularni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilish ko'pincha kommunikativ samaradorlikning pasayishiga olib keladi. Shu sababli tarjima jarayonida semantik adaptatsiya va lingvokulturologik transformatsiya usullaridan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Masalan, ayrim reklama sloganlarida qo'llanilgan obrazli ifodalar o'zbek tilida ekvivalent madaniy assotsiatsiyalar orqali qayta ifodalanishi kuzatildi. Bu holat reklama matnining persuasiv potensialini saqlab qolish imkonini beradi [2; 252].

Tadqiqot davomida reklama matnlarini tarjima qilishda bir necha asosiy transformatsiya turlari aniqlanib, ular semantik kengaytirish, semantik qisqartirish, madaniy adaptatsiya va stilistik kompensatsiya kabi usullar orqali amalga oshirilishi kuzatildi. Xususan, semantik kengaytirish reklama xabarining ma'nosini o'zbek auditoriyasi uchun tushunarli va ta'sirchan qilish maqsadida qo'llaniladi. Aksincha, ayrim holatlarda semantik qisqartirish

orqali reklama matnining lo'nda va dinamik xususiyatini saqlashga erishiladi. Bu jarayon reklama diskursining asosiy prinsiplari – qisqalik, emotsionallik va ta'sirchanlikni ta'minlashga xizmat qiladi [3;61].

Lingvokulturologik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ispan reklama matnlarida ko'pincha milliy gastronomiya, iqlimiy sharoitlar, madaniy qadriyatlar hamda ijtimoiy stereotiplar bilan bog'liq konseptlar faol qo'llanadi. Bunday konseptlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida tarjimon madaniy ekvivalentlarni izlash yoki ma'lum darajada semantik transformatsiya qo'llash orqali matnning kommunikativ funksiyasini saqlab qoladi. Shu jihatdan reklama tarjimasi jarayoni nafaqat lingvistik, balki madaniy mediatsiya vazifasini ham bajaradi [4;39].

Tadqiqot natijalari reklama matnlarini tarjima qilishda pragmatik ekvivalentlikni ta'minlash muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Ya'ni, tarjima qilingan matn auditoriyaga ta'sir ko'rsatish darajasi, emotsional fon yaratish xususiyati hamda iste'molchining e'tiborini jalb qilish imkoniyati jihatidan original matnga maksimal darajada yaqin bo'lishi lozim. Bunday holatda tarjimon til birliklarini so'zma-so'z ko'chirishdan ko'ra kommunikativ maqsadga yo'naltirilgan adaptiv strategiyalardan foydalanadi [5;47].

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot natijalari ispan tilidagi reklama matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilish jarayoni murakkab lingvistik va madaniy omillar bilan bog'liq ko'p qirrali kommunikativ hodisa ekanligini

ko'rsatdi. Reklama diskursi o'zining persuatsiv tabiati, emotsional-ekspressiv ifoda vositalari hamda milliy-madaniy konnotatsiyalarga boyligi bilan ajralib turadi. Shu sababli bunday matnlarni tarjima qilish jarayonida oddiy leksik yoki grammatik ekvivalentlikni ta'minlash yetarli bo'lmay, balki matnning pragmatik ta'sir kuchini, stilistik ifodaviyligini hamda madaniy semantikasini saqlab qolish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ispan reklama matnlarini o'zbek tiliga tarjima qilishda lingvokulturologik transformatsiyalar muhim rol o'ynaydi. Xususan, reklama matnlarida uchraydigan metaforik konstruksiyalar, milliy realiyalar, madaniy stereotiplar hamda emotsional-ekspressiv birliklar ko'pincha bevosita tarjima qilinmaydi, balki semantik adaptatsiya, stilistik kompensatsiya va madaniy moslashtirish kabi strategiyalar orqali qayta ifodalanadi. Bu jarayon reklama xabarining kommunikativ samaradorligini saqlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, reklama matnlarini tarjima qilish jarayonida lingvokulturologik transformatsiyalar va semantik adaptatsiya mexanizmlarini tizimli ravishda o'rganish reklama diskursining tarjima nazariyasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari reklama matnlarini tarjima qilish amaliyotida samarali strategiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, turli madaniyatlar o'rtasidagi kommunikativ muvozanatni ta'minlash nuqtayi nazaridan muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva M. Reklama diskursining lingvopragmatik xususiyatlari. — Toshkent: Fan, 2019. 61-bet.
2. Abdurahmonov G'. Tilshunoslik nazariyasi asoslari. — Toshkent: O'qituvchi, 2017. 52 bet.
3. Azimov O. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020. 45 bet.
4. Baxodirov B. Zamonaviy reklama matnlarining lingvistik tahlili. — Toshkent: Akademnashr, 2021. 139-bet.
5. Jo'rayev Sh. Lingvokulturologiya asoslari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. 147-bet.
6. Mahmudov N. Til va madaniyat o'zaro munosabatlari. — Toshkent: Ma'naviyat, 2016. 186-bet.
7. Mo'minov S. Tarjima jarayonida semantik transformatsiyalar. — Toshkent: Tafakkur, 2022. 165-bet.
8. Nurmonov A. Zamonaviy lingvistika yo'nalishlari. — Toshkent: Akademnashr, 2019. 224-bet.
9. Rasulov R. Tarjimashunoslikka kirish. — Toshkent: O'qituvchi, 2018. 176-bet.
10. Sodiqov Q. Matn lingvistikasi va diskurs tahlili. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. 203-bet.

Zamira XUDOYKULOVA,

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali

O'zbek va xorijiy tillar kafedrasida assistenti

INGLIZ VA O'ZBEK NASRIDA AYOL ERKI MUAMMOLARI

Annotatsiya: maqola ingliz va o'zbek adabiyotida ayol obrazlari va gender tengsizlik masalalarini tahlil qiladi. Virdjiniya Vul'fning "Dallovey xonim" va Cho'lponning "Novvoy qiz" asarlari asosida ayolning ichki dunyosi, ijtimoiy majburiyatlari va shaxsiy erkinlik intilishlari solishtirma tahlil qilinadi. Tadqiqotda ayol obrazlarining psixologik, ijtimoiy va madaniy xususiyatlari ochib beriladi, shuningdek, patriarxal cheklovlar va gender stereotiplarga qarshi kurashning adabiy ifodasi ko'rsatiladi. Maqola zamonaviy o'zbek adabiyotshunoslik va feminizm tadqiqotlari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ayol obrazlari, gender tengsizlik, ingliz adabiyoti, o'zbek adabiyoti, Virdjiniya Vul'f, Cho'lpon, solishtirma tahlil.

Аннотация: в статье анализируются женские образы и проблемы гендерного неравенства в английской и узбекской литературе. На основе произведений Вирджинии Вулф «Миссис Дэллоуэй» и «Девушка пекаря» Чолпона проводится сравнительный анализ внутреннего мира женщины, социальных обязательств и стремлений к личной свободе. Исследование раскрывает психологические, социальные и культурные особенности женских персонажей, а также литературное выражение борьбы с патриархальными ограничениями и гендерными стереотипами. Статья служит основным источником по современному узбекскому литературоведению и исследованиям феминизма.

Ключевые слова: женские персонажи, гендерное неравенство, английская литература, узбекская литература, Вирджиния Вулф, Чолпон, сравнительный анализ.

Annotation: this article analyzes female characters and issues of gender inequality in English and Uzbek literature. Drawing on Virginia Woolf's «Mrs. Dalloway» and Cholpon's «The Baker's Girl,» this article provides a comparative analysis of women's inner worlds, social obligations, and aspirations for personal freedom. The study explores the psychological, social, and cultural characteristics of female characters, as well as the literary expression of the struggle against patriarchal restrictions and gender stereotypes. This article serves as a key source for contemporary Uzbek literary criticism and feminist studies.

Key words: female characters, gender inequality, English literature, Uzbek literature, Virginia Woolf, Cholpon, comparative analysis.

Kirish. Ayolning ijtimoiy mavqeyi va gender tengsizlik masalalari bugungi kunda nafaqat sotsiologiya, balki adabiyotshunoslikda ham dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti davomida ayolning o'zni va roli turli tarixiy bosqichlarda turlicha talqin etilgan bo'lsa-da, ko'plab madaniyatlarda patriarxal qarashlar uzoq vaqt hukmronlik qilgan. Natijada ayollar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida erkaklarga nisbatan cheklangan imkoniyatlarga ega bo'lib kelgan. Shu bois gender tengligi masalasi XX–XXI asr ilmiy tadqiqotlarida keng o'rganilayotgan yo'nalishlardan biridir.

Adabiyoteshajamiatdagiijtimoiyjarayonlarni, insonning ichki kechinmalarini va ruhiy holatini aks ettiruvchi muhim madaniy fenomen sifatida ayol mavqeining shakllanishini badiiy talqin qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ingliz modernizm adabiyotining yirik vakili Virdjiniya Vul'f ijodida ayolning ichki dunyosi, uning ruhiy kechinmalari, intellektual mustaqilligi va jamiyat tomonidan qo'yilgan patriarxal cheklovlar chuqur badiiy tahlil qilinadi [1,2].

Virdjiniya Vul'fning ayol obrazlari

Virjiniya Vul'fning "Dallovey xonim" romani "Bond ko'chasidagi Dallovey xonim" hamda "Bosh vazir" deb nomlangan ikki qismdan iborat. Asosiy qahramon Klarissa Dalloveyning hayoti borasidagi voqea va tafsilotlar asarning asosiy syujet liniyasi hisoblanadi. London

shahrining kiborlari orasida alohida mavqega sazovor bo'lgan Dallovey xonim qiyofasini gavdalanitirishda muallif retrospektiv tasvir imkoniyatlaridan unumli foydalangan. O'quvchi Dallovey xonimning yoshlik yillarida Peter Volsh ismli kishi bilan ishqiy munosabatda bo'lgani, u bilan o'tkazgan damlarini hayotining eng latif pallalari sifatida eslashini ilg'ab oladi. Ayni paytda yirik moliyaviy qudrat egasi Richard Dalloveyning rafiqasi hamda bir farzandning onasi bo'lgan Klarissa kutilmagan vaziyatlarda kutilmagan holatlarga duch keladi. Shaharda kiborlardan birining uyida uyushtirilgan bazmda tasodifan Peter Volshni uchratib qolgan Dallovey xonim qarama-qarshi hislar qurshovida qolib ketadi. Virjiniya Vul'f Peter Volshning unga nisbatan hali ham befarq emasligini, Dallovey xonimning esa tizginsiz xohish-istaklar ta'siridan chiqib keta olmayotganini katta mahorat bilan tasvirlaydi. Romanda ayolning shaxsiy erkinligi va oilaviy majburiyatlar o'rtasidagi ziddiyat markaziy mavzudir. Vul'f qahramonlarida ichki psixologik kurash, intilish va o'zini anglash jarayoni asosiy e'tibor nuqtasi hisoblanadi.

Cho'lponning ayol obrazlari

O'zbek adabiyotida ayol obrazlarini Cholpon (Abdulla Qodiriy) asarlarida ham ko'rish mumkin. Cho'lponning qahramon ayollari ko'pincha ijtimoiy va oilaviy cheklovlar bilan yuzlashadi, ammo ular ichki iroda, sabr-toqat va hissiy

kuch orqali o'z pozitsiyasini mustahkamlaydi. "Novvoy qiz" qissasi o'zbek adabiyotida ayolning shaxsiy iroda, mehnat va jamiyatdagi mavqeini ko'rsatishda muhim manba hisoblanadi.

Cho'lponning "Novvoy qiz" hikoyasida ham ayollar huquqlarining hamda qadr-qimmatining toptalishi masalasi qalamga olingan. O'quvchi aldov qurboniga aylangan, O'lmasboy ismli kimsaning nodonligi tufayli tajovuzga duchor bo'lgan asosiy qahramonning – novvoy qizning iztiroblarini shoirona tashbehlar vositasida ta'sirchan shaklda tasvirlagan. Og'ir betob onasi bilan birga yashaydigan qiz, bir tomondan uning sog'ayishiga ko'maklashish uchun harakat qilsa, boshqa tarafdan oilaning moddiy ehtiyojlarini ta'minlash uchun tinimsiz mehnat qilib novvoylik kasbi bilan shug'ullanishga majbur. O'lmasboyning nayrangiga aldanib qolgan qiz, aynan kasb taqozosi bilan – non yetkazib berish majburiyati tufayli u aytgan manzilga borishga majbur bo'ladi. Oktyabr inqilobidan keyingi yillarda boshqa ayollar singari asosiy qahramonning ham paranji tashlagani, avvalgi holatga qiyoslaganda nisbatan erkin hayot kechira boshlaganiga oid tafsilotlar bu mulohazani tasdiqlashga xizmat qiladi. Qolaversa, jamiyat ijtimoiy hayotida yanada faollashgan sobiq novvoy qiz endilikda xotinlar sho'basining raisiga aylangan. Bosh qahramonning sud zaliga aynan mana shu maqomda kirib kelishi qadr-qimmatini kamsitilgan hamda tajovuzga uchragan ayollar uchun qonun yo'li bilan qasos olish, aybdor kimsalarni loyiq jazoga hukm etish istagining amaliy natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Cho'lpon ayol qahramonlarining tashqi ijtimoiy cheklovlar orqali yuzaga kelgan ziddiyatlarini psixologik va ijtimoiy jihatdan yoritadi. Qahramonning sud zaliga kirishi va adolatni tiklashga intilishi ayolning jamiyatdagi qadr-qimmatini himoya qilish ramzi sifatida namoyon bo'ladi.

Solishtirma tahlil. Ingliz modernizm adabiyoti vakili Virdjiniya Vul'f va o'zbek jadid adabiyoti namoyandasi Cho'lpon ijodida ayol obrazlari turli badiiy va ijtimoiy kontekstda tasvirlangan bo'lsa-da, ularni birlashtiruvchi muhim jihat – ayolning o'zligini anglash va shaxsiy erkinlikka intilishidir. Har ikki adib ayol taqdiri orqali jamiyatdagi gender tengsizlik muammolarini yoritadi, biroq bu muammo turli badiiy usullar va ziddiyatlar orqali talqin etiladi.

V.Vul'f asarlarida asosiy e'tibor ayolning ichki psixologik olamiga qaratiladi. Uning roman va esselarida

qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki monologlari hamda ong oqimi usuli orqali insonning ichki dunyosi tasvirlanadi. Ayol qahramonlar ko'pincha o'zining shaxsiy istaklari, intellektual erkinligi va jamiyat qo'ygan chegaralar o'rtasidagi ruhiy ziddiyatni boshdan kechiradi. Shuning uchun Vul'f ijodida ziddiyat ko'proq ichki psixologik kurash shaklida namoyon bo'ladi. Qahramonlarning o'zligini anglash jarayoni, hayot mazmunini izlash hamda shaxsiy mustaqillikka intilishi markaziy g'oyaga aylanadi.

Cho'lpon ijodida esa ayol obrazlari ko'proq tashqi ijtimoiy muhit bilan bog'liq holda tasvirlanadi. Uning asarlarida ayol qahramonlar jamiyatdagi an'anaviy qarashlar, patriarxal urf-odatlar va oilaviy cheklovlar bilan to'qnash keladi. Shu sababli ziddiyatning asosiy manbai ichki psixologik kurashdan ko'ra, tashqi ijtimoiy bosimlar bilan bog'liqdir. Qahramonlar ko'pincha jamiyat tomonidan belgilangan qoidalar, oilaviy majburiyatlar hamda shaxsiy erkinlik o'rtasidagi murakkab tanlovga duch keladi.

Shunga qaramay, har ikki adabiyotda ham ayolning o'zligini anglash, mustaqil fikrlash va shaxsiy erkinlikka intilishi muhim badiiy g'oya sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihat ingliz va o'zbek adabiy an'analarda ayol masalasining universal xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Virdjiniya Vul'f ayolning ruhiy-intellektual erkinligini ta'kidlasa, Cho'lpon ijtimoiy erkinlik va jamiyatdagi teng huquqlilik masalasini ko'taradi.

Mazkur solishtirma tahlil zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida gender masalalarini o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, madaniyatlararo tadqiqotlar nuqtayi nazaridan ingliz va o'zbek adabiyotidagi ayol obrazlarini qiyosiy o'rganish feminizm, gender tengligi hamda adabiy tafakkur evolyutsiyasini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Xulosa. Virdjiniya Vul'f va Cho'lponning asarlarida ayol obrazlari orqali gender tengsizlik va shaxsiy erkinlik masalalari yoritiladi. Vul'f qahramonlarida ichki psixologik kurash markaziy bo'lsa, Cho'lpon qahramonlarida tashqi ijtimoiy cheklovlar asosiy ziddiyatni tashkil qiladi. Har ikkala adabiyotda ayol o'zini anglash va shaxsiy erkinlikka intilishi muhim mavzu hisoblanadi. Solishtirma tahlil zamonaviy o'zbek adabiyotshunoslik va feminizm tadqiqotlari uchun asosiy material beradi, shuningdek, madaniyatlararo ayol obrazlarini o'rganishda qo'llanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev A. *O'zbek adabiyotida ayol obrazlari*. – Toshkent, 2003. 132-45-67-betlar.
2. Qodiriy A. Ijod mashaqqati: Badiiy ijod to'g'risidagi fikr va mulohazalar. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. 16-bet.
3. Cho'lpon (Abdulla Qodiriy). *Novvoy qiz*. – Toshkent: Fan, 1990. 12-40-betlar.
4. Gilbert S., Gubar S. *The Madwoman in the Attic*. New Haven: Yale University Press, 1979. – B. 78-120.
5. Bakhtin M.M. *Eстетика словесного творчества*. Moskva: Iskusstvo, 1979. – B. 150-175.
6. Woolf V. *Mrs Dalloway*. London: Hogarth Press, 1925. – B. 12-56.
7. Woolf V. *A Room of One's Own*. London: Hogarth Press, 1929. – B. 34-78.
8. Showalter E. *A Literature of Their Own*. Princeton University Press, 1977. – B. 101-145.
9. Woolf V. *To the Lighthouse*. London: Hogarth Press, 1927. – B. 25-60.

Shaxobiddin ABDULLAYEV,
Iqtisodiy va pedagogika universiteti
NTM Samarqand kampusi,
xorijiy tillar fanlar kafedrası o'qituvchisi
shaxob1999@gmail.com

IJTIMOIIY TARMOQLARDA PAYDO BO'LAYOTGAN YANGI SO'ZLAR VA ULARNING O'ZBEK HAMDA INGLIZ TILLARIGA KIRIB KELISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi so'zlar va ularning o'zbek hamda ingliz tillariga kirib kelish jarayoni tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari va internet kommunikatsiyasining rivojlanishi natijasida yangi leksik birliklar shakllanib, kundalik nutq va yozma tilga tez kirib kelmoqda. Tadqiqot davomida ijtimoiy tarmoqlar orqali ommalashayotgan so'zlarning lingvistik xususiyatlari, ularning shakllanish manbalari hamda o'zbek va ingliz tillaridagi qo'llanilish jarayonlari o'rganildi. Shuningdek, yangi so'zlarning til tizimiga moslashuvi, semantik o'zgarishlari va kommunikativ ahamiyati tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy til taraqqiyotida muhim rol o'ynab, yangi so'zlarning tez tarqalishiga va ommalashishiga xizmat qilmoqda.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarmoqlar, yangi so'zlar, neologizm, internet kommunikatsiyasi, lingvistik jarayon, o'zbek tili, ingliz tili, til taraqqiyoti.*

Аннотация: в данной статье анализируется процесс появления новых слов в социальных сетях и их проникновение в узбекский и английский языки. В результате развития современных информационных технологий и интернет-коммуникаций формируются новые лексические единицы, которые быстро входят в повседневную речь и письменный язык. В ходе исследования изучались лингвистические особенности слов, распространяющихся через социальные сети, их источники формирования, а также процессы использования в узбекском и английском языках. Кроме того, анализировались адаптация новых слов к языковой системе, их семантические изменения и коммуникативная значимость. Результаты исследования показывают, что социальные сети играют важную роль в современном развитии языка, способствуя быстрому распространению и популяризации новых слов.

Ключевые слова: *социальные сети, новые слова, неологизм, интернет-коммуникация, лингвистический процесс, узбекский язык, английский язык, языковое развитие.*

Annotation: this article analyzes the emergence of new words on social networks and the process of their entry into the Uzbek and English languages. As a result of the development of modern information technologies and internet communication, new lexical units are formed and quickly enter everyday speech and written language. During the research, the linguistic features of words that are becoming popular through social networks, their sources of formation, and their usage processes in Uzbek and English were studied. In addition, the adaptation of new words to the language system, their semantic changes, and their communicative significance were analyzed. The research results show that social networks play an important role in the development of modern language, facilitating the rapid spread and popularization of new words.

Key words: *social networks, new words, neologism, internet communication, linguistic process, Uzbek language, English language, language development.*

Kirish. So'nggi yillarda internet texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar insonlar o'rtasidagi muloqotning eng muhim vositalaridan biriga aylangan. Bunday platformalar orqali turli mamlakatlarda yashovchi foydalanuvchilar o'zaro axborot almashadi, fikr bildiradi va yangi kommunikativ shakllarni yaratadi. Natijada til tizimida ham yangi leksik birliklar paydo bo'lmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi so'zlar tilshunoslikda neologizmlar sifatida qaraladi. Bu so'zlar ko'pincha texnologiya, internet madaniyati, media va yoshlar submadaniyati bilan bog'liq bo'ladi. Ayniqsa ingliz tili global kommunikatsiya tili sifatida

ko'plab yangi so'zlarning manbai hisoblanadi. Ushbu so'zlar boshqa tillarga, jumladan o'zbek tiliga ham tez kirib kelmoqda. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan bunday yangi so'zlar neologizmlar sifatida qaraladi. Neologizmlar til taraqqiyotining tabiiy jarayonini aks ettiradi va jamiyatdagi ijtimoiy, texnologik hamda madaniy o'zgarishlarning natijasi hisoblanadi. Ayniqsa ingliz tili global kommunikatsiya vositasi sifatida ko'plab yangi so'zlarning paydo bo'lishida yetakchi rol o'ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda shakllangan ko'plab atamalar va iboralar dastlab ingliz tilida yuzaga keladi va keyinchalik boshqa tillarga kirib boradi. O'zbek tilida ham internet kommunikatsiyasi orqali kirib kelgan yangi leksik birliklar kundalik nutqda keng qo'llanilmoqda.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi so'zlar faqat tilning lug'at boyligini oshiribgina qolmay, balki kommunikativ jarayonlarning o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bunday so'zlar ko'pincha qisqartmalar, slang shakllari, yangi semantik birliklar yoki mavjud so'zlarning yangi ma'noda qo'llanishi orqali shakllanadi. Bu jarayon tilning dinamik va ochiq tizim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi so'zlarni o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim va dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda internet orqali yuzaga kelayotgan lingvistik jarayonlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki sotsiologiya, kommunikatsiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Chunki til jamiyat hayotining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi va undagi o'zgarishlar ijtimoiy jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi so'zlarning o'zbek va ingliz tillariga kirib kelish jarayonini o'rganish ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali paydo bo'layotgan yangi so'zlarning o'rganilishi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki bunday so'zlar til taraqqiyoti, madaniy almashinuv va kommunikativ jarayonlarning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Metodlar. Tadqiqot jarayonida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, lingvistik tahlil metodi orqali ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi so'zlarning tuzilishi va semantik xususiyatlari o'rganildi. Bu metod yangi leksik birliklarning til tizimidagi o'rnini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, qiyosiy metod qo'llanilib, ingliz tilida paydo bo'lgan yangi so'zlarning o'zbek tiliga kirib kelish jarayoni tahlil qilindi. Bu orqali ikki til o'rtasidagi leksik almashinuv jarayonlari va ularning lingvistik xususiyatlari aniqlashtirildi.

Kuzatish metodi ham tadqiqotda muhim rol o'ynadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi foydalanuvchilar nutqi, postlar va izohlar tahlil qilinib, ularda qo'llanilayotgan yangi so'zlar aniqlab olindi.

Bundan tashqari, statistik tahlil yordamida yangi so'zlarning qo'llanish chastotasi va ommalashish darajasi baholandi. Ushbu metodlar orqali ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan yangi leksik birliklarning til rivojiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, deskriptiv tahlil metodi orqali ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi so'zlarning tuzilishi va ularning til tizimiga moslashuv jarayoni o'rganildi. Bu metod yordamida yangi leksik birliklarning fonetik, morfologik va semantik xususiyatlari tavsiflandi. Natijada bunday so'zlarning o'zbek tiliga moslashish jarayoni va ularning til tizimida qanday shaklda qo'llanilayotgani aniqlashtirildi.

Tadqiqotda sotsiologik kuzatish metodidan ham foydalanildi. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarining

nutqiy faoliyati, ularning yangi so'zlardan foydalanish darajasi hamda ushbu so'zlarning kommunikativ jarayondagi ahamiyati kuzatildi. Bu metod yangi so'zlarning ommalashish jarayonini aniqlashga yordam berdi. Bundan tashqari, lingvokulturologik yondashuv ham qo'llanildi. Bu yondashuv orqali yangi so'zlarning paydo bo'lishi va ularning ma'no jihatdan shakllanishi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liq holda tahlil qilindi. Natijada ijtimoiy tarmoqlar orqali paydo bo'layotgan leksik birliklarning til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aks ettirishi aniqlandi. Shu bilan birga, analitik-sintetik metod ham qo'llanildi. Bu metod orqali ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'lgan yangi so'zlar dastlab alohida tahlil qilinib, keyinchalik umumlashtirildi. Natijada yangi leksik birliklarning umumiy xususiyatlari, ularning paydo bo'lish sabablari va til tizimidagi o'rnini haqida ilmiy xulosalar chiqarildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlar til rivojida yangi so'zlarning paydo bo'lishi va tez tarqalishiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa ingliz tilida paydo bo'lgan ko'plab so'zlar qisqa vaqt ichida boshqa tillarga ham kirib kelmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi so'zlar ko'pincha qisqartmalar, slang shakllari va yangi semantik birliklardan iborat bo'ladi. Bunday so'zlar internet foydalanuvchilari o'rtasida tez ommalashadi va kundalik nutqning bir qismiga aylanadi.

O'zbek tilida ham ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelgan ko'plab yangi so'zlar qo'llanilmoqda. Bu jarayon tilning dinamik rivojlanishidan dalolat beradi. Ayrim so'zlar o'zbek tilining fonetik va grammatik tizimiga moslashib, keng qo'llanila boshlagan. Tahlillar natijasida ijtimoiy tarmoqlarda qo'llanilayotgan yangi so'zlarning aksariyati texnologiya, media, marketing hamda internet madaniyati bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Bunday so'zlar dastlab ingliz tilida paydo bo'lib, keyinchalik o'zbek tilida ham faol qo'llanila boshlaydi. Ayrim hollarda bu so'zlar asl shaklini saqlagan holda ishlatilsa, ba'zi holatlarda esa o'zbek tilining fonetik va grammatik xususiyatlariga moslashadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi so'zlarning semantik jihatdan ham o'zgarishini ko'rsatdi. Ayrim so'zlar yangi kommunikativ vaziyatlarda boshqa ma'noda qo'llanila boshlaydi. Masalan, internet muhitida ayrim atamalar dastlab tor ma'noda ishlatilgan bo'lsa, keyinchalik ular kengroq ijtimoiy va madaniy mazmun kasb etadi. Natijalar shuni ham ko'rsatdiki, yoshlar auditoriyasi yangi so'zlarning eng faol foydalanuvchilari hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda faol bo'lgan yoshlar yangi leksik birliklarni tez qabul qiladi va ularni kundalik nutqida qo'llaydi. Bu jarayon esa yangi so'zlarning tez ommalashishiga yordam beradi. Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelgan ayrim yangi so'zlar asta-sekin ommaviy axborot vositalari, reklama matnlari va hatto rasmiy kommunikatsiya jarayonlarida ham qo'llanila boshlaganligi kuzatildi. Bu esa bunday

leksik birliklarning til tizimida barqaror o'rin egallay boshlaganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy til taraqqiyotida muhim omil ekanligini tasdiqladi. Ular yangi so'zlarning shakllanishi, ommalashuvi va turli tillarga kirib kelish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirmoqda. Shu sababli bunday lingvistik jarayonlarni ilmiy jihatdan o'rganish tilshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mulohaza. Ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi so'zlar til taraqqiyotining tabiiy jarayoni hisoblanadi. Har bir til jamiyat rivoji bilan birga o'zgarib boradi va yangi leksik birliklar bilan boyiydi. Internet va global kommunikatsiya esa bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda. Biroq yangi so'zlarning haddan tashqari ko'p kirib kelishi ba'zan tilning milliy xususiyatlariga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli bunday so'zlarni o'rganish va ularning til tizimiga moslashuv jarayonini ilmiy jihatdan tahlil qilish muhim hisoblanadi.

Shuningdek, til siyosati va lingvistik tadqiqotlar orqali yangi so'zlarning to'g'ri qo'llanilishini nazorat qilish ham zarurdir. Bu esa tilning barqaror rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, yangi so'zlarning tez kirib kelishi va ommalashishi tilning milliy xususiyatlariga ham ta'sir qilishi mumkin. Ba'zi hollarda, bu jarayon o'zbek tilining fonetik, morfologik va semantik tizimiga moslashishda qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Shu sababli, lingvistik kuzatuv va tadqiqotlar orqali bunday so'zlarning til tizimiga moslashuvi va ular bilan bog'liq kommunikativ vazifalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Yana bir muhim jihat shundaki, ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan yangi leksik birliklar yoshlar orasida tez tarqaladi va ularning til madaniyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu esa til siyosati va milliy til rivoji nuqtayi nazaridan muhim masala hisoblanadi. Shu sababli, yangi so'zlarni tizimli ravishda kuzatib borish, ularning semantik, pragmatik va kommunikativ xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish zarur. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelgan yangi so'zlarning ayrimlari rasmiy nutq va matbuotda ham asta-sekin qo'llanila boshlaganini kuzatish mumkin. Bu jarayon tilning dinamik rivojlanishi va global kommunikatsiya bilan integratsiyasining yana bir isboti bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy til taraqqiyotida faqat ommaviy axborot vositasi emas, balki yangi leksik birliklarning paydo

bo'lishi va ularning boshqa tillarga kirib kelishi jarayonini tezlashtiruvchi muhim platformadir.

Xulosa va tavsiyalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlar zamonaviy til taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Ular yangi so'zlarning paydo bo'lishi, tez tarqalishi va turli tillarga kirib kelishida asosiy kommunikativ maydon hisoblanadi.

O'zbek va ingliz tillari misolida olib borilgan tahlillar yangi leksik birliklarning til tizimiga moslashish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli ekanligini ko'rsatdi. Shuning uchun bunday jarayonlarni chuqur o'rganish zamonaviy tilshunoslik uchun muhimdir.

Kelgusida ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi so'zlarni tizimli ravishda o'rganish, ularning semantik va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish hamda til siyosatida hisobga olish tavsiya etiladi. Olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, yangi so'zlar ko'pincha qisqartmalar, slang iboralar va texnologik atamalardan iborat bo'lib, ularning semantik va pragmatik xususiyatlari doimiy o'zgarishda. Shu bilan birga, ular yoshlar auditoriyasining til madaniyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi va kundalik nutqning bir qismiga aylanadi.

Tavsiya etiladigan chora-tadbirlar:

1. Ijtimoiy tarmoqlarda paydo bo'layotgan yangi leksik birliklarni tizimli ravishda kuzatib borish va ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish.

2. Ingliz tilidan kirib kelayotgan so'zlarning fonetik, morfologik va semantik moslashuvini o'rganish, ularni o'zbek tiliga mos shaklda qo'llashni targ'ib qilish.

3. Yoshlar orasida yangi so'zlardan foydalanishning ijtimoiy va madaniy jihatlarini o'rganish, til siyosati va til rivoji nuqtayi nazaridan ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish.

4. Ommaviy axborot vositalari va rasmiy kommunikatsiyada yangi leksik birliklarning to'g'ri qo'llanilishini nazorat qilish orqali tilning barqaror rivojlanishini ta'minlash.

5. Tilshunoslik va kommunikatsiya fanlari doirasida yangi leksik birliklar bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, xalqaro tajribani o'rganish va integratsiya qilish.

Shu bilan, ijtimoiy tarmoqlar til taraqqiyotida nafaqat tezkor kommunikatsiya maydoni, balki yangi leksik birliklarning shakllanishi, ommalashishi va boshqa tillarga kirib kelishi jarayonining muhim platformasi sifatida faoliyat yuritadi. Ushbu jarayonni ilmiy jihatdan o'rganish zamonaviy tilshunoslik va madaniyatshunoslik uchun dolzarb va muhim yo'nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yo'ldoshev, B. Matn lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2016. 240-bet.
2. Nurmonov, A. Lingvistika nazariyasi. – Toshkent: Fan, 2010. 296-bet.
3. Rasulov, R. Umumiy tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. 312-bet.
4. Qodirov, S. Zamonaviy o'zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018. 288-bet.
5. Tursunov, D. O'zbek tilidagi yangi so'zlar va ularning funksiyalari. – Toshkent: Fan, 2020. 256-bet.
6. Karimov, B. Til va ijtimoiy media: leksik jarayonlar. – Toshkent: Movarounnahr, 2021. 224-bet.
7. Normurodov, F. O'zbek tilida neologizmlarning rivojlanishi. – Samarqand: Davr Nashr, 2019. 198-bet.

Muborak SAGATOVA,
UzJOKU, Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

INGLIZ VA O'ZBEK IJTIMOY GAZETA MATNLARIDA KONSEPTUAL METAFORALARNING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi ijtimoiy gazeta matnlarida qo'llaniladigan konseptual metaforalarni qiyosiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Lakoff va Johnsonning konseptual metafora nazariyasi asosida amalga oshirilgan tadqiqotda ikki tildagi ijtimoiy-siyosiy matnlarda uchraydigan metaforik modellarning o'xshash va farqli jihatlari aniqlangan. Tahlillar natijasida urush, kasallik, mexanizm va bino kabi manba sohalarning har ikki tilda ham faol qo'llanilishi, biroq ularning konseptuallashuvi va pragmatik yuklamasida milliy-madaniy xususiyatlar tufayli farqlar mavjudligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: konseptual metafora, gazeta matni, ijtimoiy diskurs, qiyosiy tahlil, ingliz tili, o'zbek tili, kognitiv tilshunoslik.

Аннотация: данная статья посвящена сравнительному анализу концептуальных метафор, используемых в социально-политических газетных текстах на английском и узбекском языках. Исследование выполнено на основе теории концептуальной метафоры Дж. Лакоффа и М. Джонсона. В работе выявлены сходства и различия метафорических моделей, встречающихся в социально-политических текстах двух языков. Результаты анализа показывают, что такие источниковые домены, как война, болезнь, механизм и здание, активно используются в обоих языках. Однако их концептуализация и прагматическая нагрузка отличаются в силу национально-культурных особенностей.

Ключевые слова: концептуальная метафора, газетный текст, социальный дискурс, сравнительный анализ, английский язык, узбекский язык, когнитивная лингвистика.

Annotation: this article is devoted to a comparative analysis of conceptual metaphors used in social newspaper texts in English and Uzbek. The research is based on the conceptual metaphor theory developed by George Lakoff and Mark Johnson. The study identifies similarities and differences in the metaphorical models found in socio-political texts of the two languages. The results of the analysis show that source domains such as war, disease, mechanism, and building are actively used in both languages. However, their conceptualization and pragmatic functions differ due to national and cultural characteristics.

Key words: conceptual metaphor, newspaper text, social discourse, comparative analysis, English language, Uzbek language, cognitive linguistics.

Zamonaviy tilshunoslikda matn va diskurs tahlili masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, ommaviy axborot vositalari tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, jumladan, ijtimoiy gazeta matnlarida qo'llaniladigan konseptual metaforalarni tahlil qilish dolzarb masalalardan biridir. Metafora nafaqat tilning bezak vositasi, balki inson tafakkuri va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim kognitiv mexanizm sifatida e'tirof etilmoqda. Lakoff va Johnson (1980) tomonidan asos solingan konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, metafora kundalik hayotimizning har bir jabhasida – tafakkurimizda, tilda va harakatlarimizda mavjud bo'lgan asosiy kognitiv jarayondir. Ushbu nazariyaga binoan, inson tafakkuri metaforik xususiyatga ega bo'lib, mavhum tushunchalar konkret tajribalar orqali anglanadi.

Ingliz tilshunosligida konseptual metafora tadqiqi ancha rivojlangan bo'lib, Lakoff, Johnson, Kövecses, Charteris-Black kabi olimlarning asarlari bu borada muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilshunosligida esa metafora muammolari, asosan, an'anaviy stilistika nuqtayi nazaridan o'rganilgan bo'lib, so'nggi yillarda kognitiv yondashuv asosidagi tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Mahmudov N., Sultonsaidova S., Sharipova O. kabi o'zbek olimlarining ishlarida metaforaning uslubiy vazifalari tahlil qilingan bo'lsa, so'nggi yillarda kognitiv tilshunoslik doirasida konseptual metaforalar tadqiqiga bag'ishlangan ishlar (Masharipov J., Nurmatova D., Xasanov Z. va boshqalar) paydo bo'lmoqda. Ushbu tadqiqotda

sifat va qiyosiy tahlil metodlari qo'llanildi. Ingliz va o'zbek ijtimoiy gazeta matnlarida eng ko'p qo'llaniladigan metaforik modellardan biri "urush" manba sohasiga asoslangan metaforalardir. Ijtimoiy muammolar, tanqidiy vaziyatlar va qarama-qarshiliklar ko'pincha urush konsepti orqali ifodalanadi.

Ingliz tilidagi misollar:

"The government launched a war on poverty". (Hukumat qashshoqlikka qarshi urush boshladi)

"Activists fight for social justice". (Faollar ijtimoiy adolat uchun kurashmoqda)

"New weapons needed in the battle against inequality". (Tengsizlikka qarshi kurashda yangi qurollar zarur)

"The proposed reforms came under fire from opposition groups". (Taklif etilayotgan islohotlar muxolifat guruhlaridan o'qqa tutildi)

O'zbek tilidagi misollar:

"Kambag'allikka qarshi kurash davom ettirilmoqda".

"Korrupsiyaga qarshi urush e'lon qilindi".

"Ijtimoiy adolat uchun jang maydoniga aylangan maydonlar".

"Islohotlar dushmanlari hech qachon g'alaba qozona olmaydi".

"Qashshoqlik frontida erishilgan yutuqlar".

Qiyosiy tahlil: har ikki tilda ham "kurash", "urush" kabi konseptlar ijtimoiy muammolarni ifodalashda faol

qo'llaniladi. Biroq ingliz tilida "war on X" konstruksiyasi ko'proq uchrasa, o'zbek tilida "qarshi kurash" iborasi keng tarqalgan. Shuningdek, o'zbek tilida urush metaforalari ko'pincha vatanparvarlik va qahramonlik konseptlari bilan bog'liq holda qo'llaniladi, ingliz tilida esa strategik va taktik elementlar (weapons, strategy, campaign) ko'proq uchraydi.

Ijtimoiy muammolarni ifodalashda kasallik metaforalari muhim o'rin tutadi. Jamiyatdagi salbiy hodisalar, ijtimoiy illatlar ko'pincha kasallik, virus, dard konseptlari orqali tasvirlanadi.

Ingliz tilidagi misollar:

"Racism is a cancer eating away at the fabric of society".
(Irqchilik – jamiyat tanasini yemiruvchi saraton)

"Corruption is a virus that infects all levels of government".
(Korrupsiya – hukumatning barcha darajalarini yuqtiradigan virus)

"Social media addiction has reached epidemic proportions". (Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik epidemiya darajasiga yetdi)

"The symptoms of economic decline are becoming visible".
(Iqtisodiy tanazzulning alomatlari ko'rinmoqda)

O'zbek tilidagi misollar:

"Poraxo'rlik – jamiyat saratonidir"

"Ma'naviy viruslar yoshlar ongini zaxarlamoqda"

"Jamiyat tanasidagi yaralarni davolash vaqti keldi"

"Ma'naviy bo'shliq – eng xavfli kasallik"

"Bu illat jamiyatning sog'lom a'zolarini ham yuqtirib qo'yimoqda"

Qiyosiy tahlil: kasallik metaforalari har ikki tilda ham jamiyatdagi salbiy hodisalarni ifodalashda keng qo'llaniladi. Ingliz tilida ko'proq tibbiy terminologiya ("cancer", "virus", "epidemic", "symptoms") aniqlik va ilmiy uslubda qo'llanilsa, o'zbek tilida bu metaforalar ko'pincha ma'naviy va axloqiy tushunchalar bilan uyg'unlashgan holda keladi ("ma'naviy viruslar", "ma'naviy bo'shliq"). O'zbek matnlarida kasallik metaforalari ko'pincha davolash, tuzalish konseptlari bilan birga qo'llanilib, muammoning yechimi mumkinligiga ishora qiladi.

Ijtimoiy taraqqiyot va o'zgarishlar ko'pincha harakat, yo'l va sayohat metaforalari orqali ifodalanadi.

Ingliz tilidagi misollar:

"The country is on the path to recovery". (Mamlakat tiklanish yo'lida)

"We have a long road ahead in the fight for equality".
(Tenglik uchun kurashda uzoq yo'l bor)

"Social reforms have stalled". (Ijtimoiy islohotlar to'xtab qoldi)

"Moving forward with the agenda". (Kun tartibi bilan oldinga siljish)

O'zbek tilidagi misollar:

"Taraqqiyot yo'lida dadil qadamlar tashlanmoqda"

"Yangilanish sari yurish"

"Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichi"

Qiyosiy tahlil: Har ikki tilda ham yo'l va harakat metaforalari taraqqiyot va rivojlanishni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilida bu metaforalar ko'pincha maqsad sari intilish, ezgu niyatlar bilan bog'liq holda qo'llaniladi. Ingliz tilida esa ko'proq jarayonning bosqichlari va to'siqlariga e'tibor qaratiladi ("stalled", "road ahead"). O'zbek matnlarida "Islohotlar poezdi" kabi original metaforik obrazlar uchraydi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek ijtimoiy gazeta matnlarida qo'llaniladigan konseptual metaforalar bir qator o'xshashliklarga ega. Xususan, urush, kasallik va mexanizm metaforalari ikkala tilda ham faol qo'llaniladi. Bu holat Lakoff va Kövecses ta'kidlaganidek, ba'zi konseptual metaforalarning universalligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, metaforalarning til va madaniyatdagi ifodasida sezilarli farqlar mavjud. Ingliz tilidagi metaforalar ko'proq analitik va funksional xususiyatga ega bo'lsa, o'zbek tilidagi metaforalar ko'pincha ma'naviy-axloqiy va emotsional-ekspressiv yuklamaga ega. Bu farqlar ikki xalqning mentaliteti, madaniy qadriyatlar va dunyoqarashidagi o'ziga xosliklar bilan bog'liq. Ijtimoiy gazeta matnlarida so'nggi yillarda yangi metaforik modellarning paydo bo'lishi va mavjud modellarning transformatsiyasi kuzatilmoqda, bu globallashtirish va axborot almashinuvining kuchayishi bilan bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
2. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. Second Edition. – Oxford: Oxford University Press, 2010. – 398 p.
3. Charteris-Black J. Corpus Approaches to Critical Metaphor Analysis. – London: Palgrave Macmillan, 2004. – 253 p.
4. Toleubayeva A.O. A Linguistic Analysis of Metaphor in Journalism // International Journal of Emerging Issues in Social Science, Arts and Humanities. – 2025. – Vol. 4, No. 1. – P. 78-84.
5. Sultonsaidova S., Sharipova O'. O'zbek tili stilistikasi. – Toshkent: Yurist media markazi, 2009. 180-b.
6. Mahmudov N. Til va tafakkur. – Toshkent: Fan, 2007. 234-b.
7. Xasanov Z.B. Linguo-Pragmatic Analysis of Metaphorical Units in Football Journalism and Sports Commentary // Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research. – 2025. – Vol. 12, No. 11. – P. 365-368.
8. Nurmatova D. Comparative Analysis of Metaphorical Expressions in English and Uzbek Texts // Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления. – 2026. – Vol. 3, No. 1. – P. 77-79.
9. Masharipov J.A., Hayitboyeva O. The necessity of studying metaphor // Recent issues of modern science. – 2019. – No. 5 (37). – P. 141-144.
10. Semino E., Demjén Z. The Routledge Handbook of Metaphor and Language. – London: Routledge, 2020. – 540 p.
11. Sagatova M.P. Ommaviy axborot vositalari tili va diskursiv xususiyatlari. – Toshkent, 2021.

Orzubek ANARBOYEV,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili amaliy aspektlari kafedrasida katta o'qituvchisi

GAZETA DISKURSIDA INGLIZCHA QO'SHMA SO'ZLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: maqolada gazeta matnlarida ishlatiladigan inglizcha qo'shma so'zlarning lingvistik xususiyatlari, ularning shakllanishi, semantik va morfologik jihatlari hamda matndagi funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy gazetalar misolida inglizcha qo'shma so'zlar qanday kontekstlarda ishlatilishi va ularning o'zbek tiliga integratsiyasi muhokama qilinadi. Maqola matnlarni lingvistik tahlil qilish va tilshunoslik nazariyalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan.

Kalit so'zlar: inglizcha qo'shma so'z, gazeta diskursi, leksik integratsiya, morfologik xususiyat, semantika, pragmatika, til aralashuvi.

Аннотация: в статье анализируются лингвистические особенности английских сложных слов, используемых в газетных текстах, их образование, семантические и морфологические аспекты, а также их функции в тексте. Также на примере современных газет обсуждается, в каких контекстах используются английские сложные слова и их интеграция в узбекский язык. Статья посвящена лингвистическому анализу текстов и практическому применению лингвистических теорий.

Ключевые слова: английское сложное слово, газетный дискурс, лексическая интеграция, морфологическая особенность, семантика, прагматика, языковое смешение.

Annotation: the article analyzes the linguistic features of English compound words used in newspaper texts, their formation, semantic and morphological aspects, as well as their functions in the text. Also, using the example of modern newspapers, the contexts in which English compound words are used and their integration into the Uzbek language are discussed. The article is aimed at the linguistic analysis of texts and the practical application of linguistic theories.

Key words: English compound word, newspaper discourse, lexical integration, morphological feature, semantics, pragmatics, language mixing.

Kirish. O'zbekiston matbuotida so'nggi yillarda inglizcha qo'shma so'zlar faol ishlatilmoqda. Bu tendensiya asosan, globalizatsiya, internet va xorijiy axborot manbalarining keng tarqalishi bilan bog'liq. Gazeta matnlari til aralashuvining aniq namunasini tashkil qiladi, chunki ular o'quvchi bilan tez va sodda muloqot qilishga xizmat qiladi. Inglizcha qo'shma so'zlar gazeta diskursida yangilik, texnologiya, madaniyat va ijtimoiy mavzularni yoritishda keng qo'llaniladi.

Gazeta matnlari tilning zamonaviy holatini, til aralashuvi va leksik yangiliklarni o'rganish uchun qulay maydon bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli inglizcha qo'shma so'zlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilish matbuot tili va til evolyutsiyasini tushunishga yordam beradi.

Asosiy qism. Gazeta diskursida inglizcha qo'shma so'zlar bir nechta lingvistik jihatlarda tahlil qilinadi:

1.Morfologik xususiyatlar. Inglizcha qo'shma so'zlar gazeta matnida turli shakllarda ishlatiladi: oddiy birikmalar, prefiks-suffiks bilan kengaytirilgan shakllar, qisqartmalar va akronimlar. Masalan, "e-mail", "smartphone", "start-up" kabi so'zlar o'zbek matnida deyarli o'zgarmagan holda qabul qilingan.

2.Semantik xususiyatlar. Qo'shma so'zlar gazeta matnida o'zining original ma'nosini saqlaydi, lekin

ba'zi hollarda kontekstga mos ravishda o'zbek tiliga moslashtiriladi. Masalan, "marketing strategiyasi", "sotsial media" kabi iboralar semantik jihatdan ingliz tilidan o'zlashtirilgan, biroq matn mantiqini saqlaydi.

3.Fonetik xususiyatlar. Qo'shma so'zlar matn va nutqda talaffuzga mos ravishda o'zbekcha yozilishi va talaffuz qoidalariga moslashtiriladi. Masalan, "internet" va "blog" so'zlari o'zbekcha fonetika bilan ishlatiladi.

4.Pragmatik funksiyalar. Inglizcha qo'shma so'zlar matnni zamonaviy, global va professional ohang bilan boyitadi. Shu bilan birga, ular matnda yangilik, texnologik va ijtimoiy trendlarni ta'kidlashga xizmat qiladi. Gazeta o'quvchisi uchun bu so'zlar tezkor axborot yetkazishda qulay vosita hisoblanadi.

5.Leksik integratsiya. Qo'shma so'zlar matnda o'zbek tilining morfologik va sintaktik tizimiga kirib, leksik birlik sifatida faol ishlatiladi. Masalan, "start-up loyihasi", "online platforma" kabi iboralar matnda to'liq sintaktik birlik sifatida qabul qilingan.

6.Kontekstual xususiyatlar. Inglizcha qo'shma so'zlar matn turiga qarab ishlatiladi: texnologiya, biznes, sport, moda va madaniyat yangiliklarida qo'llanishi sezilarli. Shu bilan birga, ularning ishlatilishi matnning kommunikativ maqsadiga moslashadi.

Gazeta matnlari inglizcha qo'shma so'zlar bilan boyitilgan holda zamonaviy til o'zgarishlarini aks ettiradi. Bu qo'shma so'zlar asosan, texnologiya, biznes, madaniyat, sport va ijtimoiy mavzularda ishlatiladi va matnning axborot yetkazish samaradorligini oshiradi. Ularning morfologik xususiyatlari gazeta diskursida ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri o'tkazilgan shaklda saqlanishi, lekin talaffuz va yozuv jihatidan o'zbek tiliga moslashishi bilan ajralib turadi. Masalan, "smartphone", "start-up", "online platforma" kabi iboralar o'zbek matnida asosan, o'zgarmagan holda ishlatiladi, biroq kontekstga qarab qo'shimcha o'zbekcha morfemalar bilan kengaytiriladi, masalan, "start-up loyihasi" yoki "online platformalarda faoliyat yuritish".

Qo'shma so'zlar semantik jihatdan o'zining original ma'nosini saqlab qoladi, lekin ba'zan matnning kommunikativ maqsadiga mos ravishda o'zbek tiliga moslashtiriladi, shuningdek, ular gazeta matnida matn ohangini zamonaviy, xalqaro va professional qiluvchi vosita sifatida ishlaydi. Pragmatik nuqtayi nazardan, inglizcha qo'shma so'zlar o'quvchiga tez va aniq axborot yetkazish, yangilik va trendlarni ta'kidlash, shuningdek, o'quvchida global va texnologik kontekstni aks ettirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, qo'shma so'zlar gazeta matnida leksik integratsiya orqali sintaktik birlik sifatida ishlatiladi va o'zbek tilining morfologik qoidalariga moslashadi. Kontekstual jihatdan ular matn turiga qarab tanlanadi, masalan, biznes bo'limida "marketing strategiyasi", "start-up loyihasi" kabi iboralar ko'p uchraydi, texnologiya yangiliklarida esa "AI", "software update", "online platforma" kabi so'zlar keng qo'llanadi. Inglizcha qo'shma so'zlarning gazeta matnlarida ishlatilishi til aralashuvi va global axborot oqimining ta'sirini aks ettiradi, bu esa o'zbek tilining leksik boyligini oshirish, zamonaviy kommunikativ ohang yaratish va o'quvchi auditoriyasini jalb qilishga yordam beradi.

Shu bilan birga, matn yozuvchilar va muharrirlar inglizcha qo'shma so'zlarni o'zbek tilining normativ va stilistik talablariga mos qo'llashga harakat qiladi, bu tilni saqlash va rivojlantirish bilan birga matnning tushunarli

va professional bo'lishini ta'minlaydi. Gazeta diskursida inglizcha qo'shma so'zlar orqali matnning innovatsion va global ohangi yaratiladi, ular o'quvchi tomonidan matnni zamonaviy va ishonchli deb qabul qilinishini kuchaytiradi, shuningdek, matnning axborot samaradorligini oshiradi va turli mavzularni yoritishda lingvistik vosita sifatida muhim rol o'ynaydi. Gazeta matnlari inglizcha qo'shma so'zlar orqali tilning dinamik o'zgarishlarini, globalizatsiya ta'sirini va zamonaviy kommunikatsiya strategiyalarini aks ettiradi.

Bu so'zlar matnning informatika, iqtisod, moda, sport, texnologiya va siyosat kabi turli sohalarini yoritishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Inglizcha qo'shma so'zlarning ishlatilishi matnning yangilik va innovatsion ohangini ta'minlaydi, shuningdek, o'quvchini global axborot maydoniga moslashtiradi. Morfologik jihatdan bu so'zlar gazeta matnida ba'zan o'zbekcha qo'shimchalar bilan kengaytiriladi va o'zbek tilining sintaktik qoidalariga moslashadi, lekin ularning asosiy leksik ma'nosi saqlanadi. Masalan, "smartphone texnologiyasi", "start-up loyihasi", "online kurslar" kabi iboralar matn ichida to'liq sintaktik birlik sifatida ishlatiladi.

Gazeta diskursida qo'shma so'zlar til aralashuvining aniq namunasini beradi va tilning evolyutsiyasini ko'rsatadi. Global axborot oqimining ta'siri bilan bu so'zlar matbuot va internet maydonida keng tarqalgan. Shu bilan birga, qo'shma so'zlar matnning kommunikativ maqsadini yanada samarali bajaradi, o'quvchi uchun matnni tez, aniq va zamonaviy tushunarli qiladi. Ularning ishlatilishi nafaqat matnni yangilik va professional ohang bilan boyitadi, balki o'quvchi ongida global va milliy kontekstni uyg'unlashtiradi.

Xulosa. Gazeta diskursida inglizcha qo'shma so'zlar lingvistik jihatdan morfologik, semantik, fonetik va pragmatik xususiyatlarga ega bo'lib, matnning kommunikativ samaradorligini oshiradi. Ular tilning zamonaviylashuvi va globallashtirish jarayonida o'zbek matbuotida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, inglizcha qo'shma so'zlarning samarali integratsiyasi o'zbek tilining boyligini saqlagan holda zamonaviy matbuot tilini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. Inglizcha qo'shma so'zlar va til aralashuvi. –Toshkent: Til va adabiyot nashriyoti, 2019. 45–70-betlar.
2. Tursunova N. Gazeta diskursida leksik yangiliklar. –Samarqand: SamDU nashriyoti, 2020. 30–55-betlar.
3. Saidov R. Morfologik va semantik xususiyatlar. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. 15–40-betlar.
4. O'zbekiston Respublikasi Matbuot vazirligi. Gazeta matnlari statistikasi. –Toshkent, 2022. 1–20-betlar.
5. Islomov B. Leksik integratsiya va pragmatika. –Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2021. 25–50-betlar.
6. Rustamova L. Inglizcha qo'shma so'zlarning fonetik xususiyatlari. –Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2020. 10–35-betlar.
7. Webber J. Media Linguistics: The Study of Language in Newspapers. –London: Routledge, 2017. 5–45-betlar.

Zarnigor BEKNAZAROVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi
lilubeknazarova23@gmail.com



INGILIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDAGI DETEKTIV ASARLARIDA INSON QISMATINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TALQINI

Annotatsiya: ushbu qiyosiy tahliliy maqolada Agata Kristining “Katta To’rtlik” (“The Big Four”) detektiv romani hamda Said Ahmadning ijtimoiy-psixologik yo’nalishdagi “Jimjitlik” asarida aks etgan yovuzlik mohiyati va unga qarshi kurash masalalari yoritilgan. Unda G’arb adabiyotidagi detektiv janrining ratsional, intellektual yondashuvi (Puaroning mantiqiy tartibni tiklash uchun kurashi) Sharq nasri qahramonlarining ma’naviy qiyofasi, vijdoniy azob asnosida ruhan poklanishga intilishlari bilan qiyoslanadi. Shuningdek, ikki madaniy kontekstda inson qismati, adolat tushunchasi hamda qahramonlikning falsafiy talqidagi tub farqlari ochib beriladi.

Kalit so’zlar: qiyosiy tahlil, ratsionalizm, ma’naviyat, global fitna, ijtimoiy fojia, tartib, ichki kurash, vijdoniy azob, detektiv adabiyoti, sharq nasri.

Annotation: this comparative analytical article explores the nature of evil and the struggle against it as depicted in Agatha Christie’s detective novel “The Big Four” and Said Ahmad’s socio-psychological work “Jimjitlik” (Silence). It contrasts the rational, intellectual approach of the detective genre in Western literature (Poirot’s fight to restore logical order) with the spiritual portrait of the heroes in Eastern prose, who seek inner purification through moral and conscientious suffering. Furthermore, it reveals the fundamental differences in the philosophical interpretations of human destiny, the concept of justice, and heroism across these two cultural contexts.

Key words: Comparative analysis, Rationalism, Spirituality, Global conspiracy, Social tragedy, Order, Inner conflict, Moral reckoning, Detective fiction, Eastern prose.

Аннотация: эта сравнительно-аналитическая статья исследует природу зла и борьбу с ним, как изображено в детективном романе Агаты Кристи «Большая четверка» и социально-психологическом произведении Саида Ахмада «Тишина.» Она противопоставляет рациональный, интеллектуальный подход детективного жанра в западной литературе (борьба Пуаро за восстановление логического порядка) духовному портрету героев восточной прозы, которые ищут внутреннего очищения через нравственные и сознательные страдания. Кроме того, он раскрывает фундаментальные различия в философских интерпретациях человеческой судьбы, концепции справедливости и героизма в этих двух культурных контекстах.

Ключевые слова: сравнительный анализ, рационализм, духовность, глобальный заговор, социальная трагедия, порядок, внутренний конфликт, моральный расчет, детектив, восточная проза.

Kirish

Jahon adabiy xazinasida turli tillarda yozilgan bo’lsa-da, inson qismati, yovuzlikning bus-butun shafqatsiz mohiyati va adolat uchun kurash singari fundamental mavzularni xuddiki bir xalqning taqdiri, orzu-umidlari, hayot tarzi o’laroq qamrab oluvchi asarlar bisyor. Mashhur ingliz adibasi Agata Kristining 1927-yilda nashr etilgan “Katta To’rtlik” (“The Big Four”) hamda zabardast o’zbek yozuvchisi Said Ahmadning o’tgan asr 80-yillarida yaratilgan “Jimjitlik” romanlari ana shunday ijod namunalaridandir. Bu romanlar, biri G’arbnig ratsional detektivi, ikkinchisi Sharqning ijtimoiy-psixologik dramasi bo’lsa-da, yovuzlikning tabiati va qahramonlarning unga qarshi kurash usullarida tubdan farqli yondashuvlarni aks ettiradi. Ushbu keng qiyosiy tahlil

Yovuzlikning mohiyati, qahramonlarning ichki va tashqi harakatlari hamda ularning hayot falsafasidagi ziddiyatlarni yoritishga qaratilgan.

Asosiy qism

Agata Kristining “Katta To’rtlik” asarida yovuzlik tashqi, aniq bir guruh – “Katta To’rtlik” deb ataluvchi global terrorchi tashkilot timsolida gavdalanadi. Ular dunyo tartibini buzishni, xalqaro fitnalar yordamida urushlar keltirib chiqarishni maqsad qilgan to’rt nafar daho jinoyatchidan iborat. Bu yovuzlikning tabiati o’ta intellektual va siyosiy lashgandir. Unga qarshi turgan kuch belgiyalik detektiv dahosi Erkyul Puaro va uning sodiq hamrohi, kapitan Gastingsdir. Puaroning kurash usuli sof mantiqiy tartibga asoslanadi. U uchun jinoyat shaxsiy

hissiyotlar bilan hal qilinadigan masala emas, balki "kichik kulrang hujayralar" yordamida yechilishi lozim bo'lgan geometrik masaladir.

Puaro o'z dushmani Li Chang Yenning o'limidan xabar topgan chog'dagi muloqoti bu ratsional dunyoqarashni yaqqol ko'rsatadi: *"My great opponent", said Poirot gravely. "It was fated that he and I should never meet in the flesh... A great brain, my friend, a great brain"* [4. 222.]. U "Ulkan raqibim bilan yuzma-yuz bo'lmasligimiz taqdirda bitilgan ekan... Naqadar buyuk zako, do'stim, buyuk zako" deya o'sha kimsaga allanechuk hurmat bilan qaraydi. Qolaversa, bu hurmat uning intellektual qudratiga qaratilgan bo'lib, gina-kudurat yoki nafratdan xoli. Demakki, izquvar uchun kurash tugadi, chunki mantiqiy boshqaruvchi markaz yo'q qilindi. Puaroning bu so'zlari, uning butun umri — eng katta aql bilan kurashishga bag'ishlanganini tasdiqlaydi. Nihoyat, u o'zining g'alabasini e'lon qilar ekan: *"The great case of my life is over. Anything else will seem tame after this. No, I shall retire"* [4. 224.] deydi. Uning nafaqaga chiqqani jismoniy charchoq emas, balki aqliy stimulyatsiyaning eng yuqori nuqtasiga erishganidan dalolat.

Romanning yakuniy sahifalaridagi Azizbek va Yo'lovchi o'rtasidagi dialog esa Tolibjon qismatining ma'naviy yakunini ramziy tarzda ochib beradi. Yo'lovchi (donishmand kekxa) Azizbekka tog'larga ko'p tikilmaslikni, u yerda qashqirlar borligini aytadi: *"Nima qilib o'tiribsan, chirog'im? Bu tog'larga ko'pam tikilaverma, mahliyo bo'laverma, bu tog'larda qashqirlar bor..."* [1. 276.]. Bu "qashqirlar" romanda ochib tashlangan byurokratik zulm, ig'vogarlik va xiyonatning ramziy ifodasidir. Azizbekning javobi esa ma'naviy g'alabani bildiradi: *"Yo'q, bobojon, tog'da endi qashqirlar qolmadi. Eng oxirgisini o'ngir tepasiga osib qo'yg'anman"*.

Ushbu dialogdagi asosiy xatti-harakat miltiqning jarga uloqtirilishidir: *"Unday bo'lsa nima qilib miltiq ko'tarib yuribsan? Tashla uni... — Mana! Mana! — deb Azizbek miltiqni jarga uloqtirdi. Jar tubi suv ekan, shaloplagan tovush eshitildi"*. Bunday xatti-harakat Said Ahmadning insonparvarlik va insoniylik falsafasini ifodalaydi: adolatga erishish uchun endi jismoniy kuch yoki qurol kerak emas. Ma'naviy kurashning o'zi yovuzlikni yengadi.

Kristi asarida inson qismati ulkan mexanizmning kichik vintlari sifatida talqin etilgan. Odamlar global siyosiy fitna qurboniga aylanadi, ularning hayoti o'ta intellektual jinoyatchilar tomonidan boshqariladi. Puaro bu qismatni o'zgartiruvchi kuchdir, lekin uning aralashuvi ham mantiqiy, ilmiy darajada amalga oshadi. Uning falsafasi shundan iboratki, tartibni tiklash uchun har qanday hissiyot chetga suriladi. Bu ratsionalistik fatalizmdir.

Said Ahmadning asari esa inson qismatini ma'naviy yuk va vijdon bilan bog'langan fojia sifatida ko'radi. Tolibjonning

qismati bir davrning fojiasi bo'lib, insonni yiqitadigan asosiy kuch tashqi dushman emas, balki ichki isyonni yashirishga majbur qilgan jimjitlikdir. Roman so'ngida keltirilgan mashhur xalqona ashula parchalari Tolibjonning butun umr yo'lidagi ma'naviy qiynoqlarni ifodalaydi: *"Daryo to'lqin, suvlar toshqin, Undan kechib o'tolmayman. Otim oriq, rangim sariq, Manzilimga yetolmayman"*. U so'zlar shaxsiy fojia va umidsizlikni, uzoq manzildan charchagan ruh holatini aks ettiradi. Bu yondashuv humanistik fatalizmga yaqin bo'lib, inson qismati jamiyatning adolatsizligi bilan bog'langanini ko'rsatadi.

Yakuniy tahlil shuni ko'rsatadiki, Agata Kristi asarida qahramonlik tashqi tartibni tiklashda, Said Ahmad asarida esa ichki ma'naviy xotirjamlik va adolatga erishishda namoyon bo'ladi. Ikkala asar ham o'ziga xos uslubda inson ruhining yovuzlikka qarshi kurashidagi qudratini va adabiyotning universal mavzularni turli madaniy kontekstlarda ifodalashdagi imkoniyatini ulug'laydi.

Sovuqqon aql va vijdon o'rtasidagi ziddiyat ikkala romandagi qahramonlik va fojiej tafsilotlar fonida teran ifodalanagan. Agata Kristining G'arb detektiv adabiyotining mumtoz namunasi sanalgan "Katta To'rtlik" ("The Big Four") va Said Ahmadning sharqona ijtimoiy-psixologik nasr namunasi bo'lgan "Jimjitlik" romanlari o'zaro qiyosiy tahlil uchun noyob maydon yaratadi. Bu asarlar nafaqat badiiy uslub va janr jihatidan, balki yovuzlikning mohiyati, qahramonlikning talqini va insonning fojia oldidagi o'rnini aks ettirishda ham tubdan farq qiladi. Bu maqolaning maqsadi avvalgi tahlilni chuqurlashtirgan holda, har ikki romanning matnlaridan olingan keng iqtiboslar, qahramonlarning harakatlari va dialoglarini tahlil qilish orqali, ularning inson qismatiga bo'lgan falsafiy yondashuvdagi ziddiyatlarni ochib berishdan iboratdir.

E'tiborlisi, qahramonlarning o'zaro qiyosiy portreti ratsional mantiq va vijdon azobi uyg'unligi yanada yorqinroq gavalangan.

"Katta To'rtlik" romanining bosh qahramoni Erkyul Puaro G'arb ratsionalizmining yorqin timsoli. Uning butun mavjudligi tartib va intellektual ustunlikka asoslangan. Uning harakatlari mutlaqo hissiyotdan holi, deyarli ilmiy aniqlikka ega. Puaroning o'ziga xosligi uning kiyinishi, tartibli hayot tarzi va eng muhimi, o'zining *"kichik kulrang hujayralari"*ga bo'lgan cheksiz ishonchida namoyon bo'ladi. Romanda, Puaro go'yo detektiv emas, balki *"tartibsizlikni yenguvchi kosmik tartib ramzi"* sifatida namoyon bo'ladi.

Puaro o'zining dushmani Li Chang Yenning o'limini izohlar ekan, unga bo'lgan hurmatni ham, o'zining aqliy ustunligini ham ta'kidlaydi: *"My great opponent... A great brain, my friend, a great brain. But I wish I had seen the face of the man who was Number Four..."* [4. 278.].

Mazkur parcha tarjimasini: *"Mening ulkan raqibim..."*

Buyuk aql sohibi bu, do'stim, buyuk aql. Ammo men to'rtinchi raqamli odamning yuzini ko'rishni xohlardim".

Bu iqtibosda Puaroning yovuzlikka shaxsiy gina emas, balki intellektual raqib sifatida qarashi aks etgan. U uchun bu shaxslarning kimligi emas, balki ularning dahosi va bu dahoning tartibga qarshi qo'yilgani muhimdir. Uning butun harakati dunyoni jinoiy sxemadan xalos etish, ya'ni global mexanizmdagi nosozlikni tuzatishga qaratilgan.

Boshqa tomondan, "Jimjitlik" romanining asosiy qahramoni Tolibjonning portreti butunlay boshqacha. Uning tashqi qiyofasi (sochlari oqarishi, asab kasali) uning ichki ruhiy sinishi va iztirobining bevosita aksidir. Tolibjonning qahramonligi tashqi muammolarni yechishda emas, balki ichki kurash va ma'naviy yukni yengishda namoyon bo'ladi. Uning harakatlari ratsional reja emas, balki vijdon azobidan qochishga bo'lgan instinktiv urinishdir.

Tolibjonning o'z o'g'li Afg'onistonda halok bo'lgani haqidagi ayanchli suhbat bu ruhiy portretning eng og'ir nuqtasi hisoblanadi. Uning o'gay onasiga aytgan mana bu gapida diqqat qarataylik: *"Keliningiz juda uzoq yurt tuprog'ida kul bo'lib qolgan. – Bolalaring qani? – dedi kampir yana. – O'g'lim Afg'onda yongan"* [1. 7.].

Bu dialog Tolibjonning shaxsiy fojiasi shaxsga sig'inish davri va siyosiy adolatsizlik oqibatidagi fojia zanjirining yakuni ekanligini ko'rsatadi. Uning bu gapni titrab-qaqshab aytishi uning og'riqli xotiralari va jimjitlikda saqlangan alamini anglatadi. Puaro xotirjamlik bilan jinoyatchilar o'limini qayd etsa, Tolibjon o'z fojiasini katta ruhiy qiynoq bilan yashaydi. Puaro qotillikni ochadi, Tolibjon esa uni yashaydi.

Ana endi ikki roman personajlarining muayyan xatti-harakatlariga olib kelgan motivatsion omillar va ular zahiridagi ruhiy-falsafiy jihatlariga to'xtalamiz.

Kristining asarida harakatlarning motivatsiyasi – bu adolatni tiklashning mantiqiy zaruriyatidir. Puaro shaxsiy manfaati emas, balki tartib-taomillarning mutanosibligi va haqiqat ustuvorligi uchun kurashadi. Uning Kapitan Gastingsga qarata aytgan *"Hayotimdagi shunday buyuk bir ish poyoniga yetdi. Endi bundan buyon boshqa har qanday ish zerikarli bo'ladi. Yo'q, men nafaqaga chiqaman"* ma'nosidagi so'zlari buni tasdiqlaydi: *"The great case of my life is over. Anything else will seem tame after this. No, I shall retire"* [4. 278.]. Uning nafaqaga chiqishi jismoniy charchoq emas, balki eng buyuk mantiqiy sarguzashtning yakuni va aqlning mutlaq g'alabasini anglatadi. Puaroning motivatsiyasi – intellektual o'z-o'zini anglashdir. Uning mantiqiylik shunchalik yuqoriki, u o'limini soxtalashtirish kabi keskin harakatlarga ham osonlikcha boradi.

Xulosa

Har ikki romandan kelib chiquvchi hissa shuki, Puaro haqidagi asari g'alaba bilan, yovuzlikning ratsional mag'lubiyati bilan tugaydi. Bu hol o'quvchiga "dunyo muayyan qonuniyatlar asosida tartibga solingan" degan xulosani beradi. Said Ahmadning asari esa qahramonning shaxsiy fojiasi, ammo ma'naviy umid bilan yakunlanadi. Tolibjon fizik jihatdan sinadi (kasallik, yig'lay olmaslik), ammo uning kurashi yangi avlod (Azizbek) tomonidan ma'naviy g'alaba bilan muhrlanadi. Bu Said Ahmadning adabiy falsafasidagi asosiy nuqta: jang tugamas, faqat kurash usuli o'zgaradi va ma'naviy ustunlik har doim kuchdan ustun keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Said. Jimjitlik. – T.: "O'zbekiston", 2008. 280-bet.
2. Balart P., Oosterveen M. (2019). Females show more sustained performance during test-taking than males. Nature communications, 10 (1), 1-11.
3. Chase Margaret. Agatha Christie and the Legacy of the Big Four: An Analysis of World Domination Plots. – Los Angeles: University Press of California, 2012. – P.40-55.
4. Christie Agatha. The Big Four. – New York, HarperCollins, 2008. – P.224.
5. Holmes Brian D. Espionage and the Detective in Agatha Christie: From The Secret Adversary to The Big Four. – London: Routledge, 2019. – P.88-105.
6. McGuigan Jim. The Big Four: A Study of the Detective Fiction of Agatha Christie's Poirot. – New York: Palgrave Macmillan, 2024. – P.150-165.
7. Stepler R. (2017). Female police officers' on-the-job experiences diverge from those of male officers. Pew Research Center. Web.
8. Zeripboyeva Sh. "Jimjitlik" romanida badiiy psixologizm // "Tamaddun nuri", 2025, 6-son (69). 313-315-b.

Malika YUNUSOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi
yunusovam988@gmail.com

INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV VA MANTIQUIY FIKRLASHNI STEAM ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tilini o'qitish jarayonida kreativ va mantiqiy fikrlashni STEAM yondashuvi asosida rivojlantirish masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda STEAM texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi integrativ xususiyati hamda uning bolalarning ijodiy tafakkuri, muammolarni hal qilish ko'nikmalari va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ingliz tilini o'qitishda fanlararo yondashuvdan foydalanish orqali bolalarda qiziqish, faol ishtirok va mustaqil fikrlashni shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, STEAM asosidagi mashg'ulotlar bolalarning nutqiy faolligini oshiradi, ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va ularni muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishga o'rgatadi.

Kalit so'zlar: STEAM ta'limi, maktabgacha ta'lim, ingliz tilini o'qitish, kreativ fikrlash, mantiqiy fikrlash, integrativ yondashuv, innovatsion pedagogika, erta til o'rganish.

Annotation: this article examines the development of creative and logical thinking in preschool children through STEAM-based English language teaching. The study focuses on the integrative nature of STEAM education and its role in enhancing children's creativity, problem-solving skills, and logical reasoning. The research highlights the importance of interdisciplinary learning in the process of teaching English to young learners. By integrating elements of science, technology, engineering, arts, and mathematics into language activities, educators can create engaging learning environments that stimulate children's curiosity and cognitive development. The findings suggest that STEAM-based English lessons significantly increase children's participation, creativity, and ability to think critically while developing their language skills.

Key words: STEAM education, preschool education, English language teaching, creative thinking, logical thinking, interdisciplinary learning, innovative pedagogy, early language learning.

Аннотация: в данной статье рассматривается развитие креативного и логического мышления у детей дошкольного возраста в процессе обучения английскому языку на основе STEAM-подхода. Особое внимание уделяется интегративному характеру STEAM-образования и его роли в развитии творческого мышления, навыков решения проблем и логического анализа у детей. В статье анализируются возможности междисциплинарного обучения в процессе преподавания английского языка. Результаты исследования показывают, что использование STEAM-технологий способствует повышению познавательной активности детей, развитию их творческих способностей и формированию самостоятельного мышления.

Ключевые слова: STEAM-образование, дошкольное образование, обучение английскому языку, креативное мышление, логическое мышление, междисциплинарное обучение, инновационная педагогика.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimida innovatsion pedagogik yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarning kognitiv rivojlanishi, ijodiy tafakkuri hamda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan integrativ pedagogik model sifatida e'tirof etilmoqda. STEAM ta'limi turli fanlarni o'zaro bog'lab o'qitishga asoslangan bo'lib, bolalarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, ijodiy fikrlash va innovatsion yechimlarni topish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu yondashuv ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalar uchun samarali hisoblanadi, chunki bu davr bolalarning tafakkuri va nutqiy faoliyati jadal rivojlanadigan bosqich hisoblanadi.

Masalan, oddiy tajribalar, konstruktiv o'yinlar yoki matematik topshiriqlar orqali ingliz tilini o'rganish bolalarning til ko'nikmalari bilan birga ularning mantiqiy va kreativ tafakkurini ham rivojlantiradi. Bu esa o'quv jarayonini yanada samarali va mazmunli qiladi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarda ingliz tilini o'qitish jarayonida STEAM yondashuvi orqali kreativ va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlarini o'rganishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

So'nggi yillarda STEAM ta'limi xalqaro pedagogik tadqiqotlarda keng o'rganilmoqda. Bu yondashuv fanlararo integratsiya asosida bolalarning kreativ tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. Yakman STEAM modelini ta'lim tizimida innovatsion fikrlashni rivojlantirish vositasi sifatida ta'riflaydi [1]. Bybee STEAM ta'limining asosiy maqsadi o'quvchilarni real hayot muammolarini hal

qilishga tayyorlash ekanligini ta'kidlaydi [2]. Uning fikricha, fanlararo yondashuv bolalarda tahliliy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish masalasi ko'plab pedagog olimlar tomonidan o'rganilgan. Guilford kreativ tafakkurni insonning yangi g'oyalar yaratish qobiliyati sifatida ta'riflaydi [3]. Torrance esa kreativlikni rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar va ochiq savollardan foydalanishni tavsiya qiladi [4]. Til o'qitish metodikasida ham kreativ yondashuv muhim o'rin tutadi. Cameron yosh o'quvchilarni til o'rganishga jalb qilishda o'yin, tajriba va vizual vositalardan foydalanish samarali ekanligini ta'kidlaydi [5].

O'zbek pedagogikasida ham maktabgacha ta'limda innovatsion metodlardan foydalanish masalasi dolzarb hisoblanadi. Jumladan, Abdullayev va boshqa tadqiqotchilar bolalarda mustaqil fikrlash va ijodiy faoliyatni rivojlantirish uchun integrativ metodlardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydilar [6]. Dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlarida maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvi faol qo'llanilmoqda. Masalan, AQSh va Janubiy Koreyada bolalar uchun STEAM laboratoriyalari tashkil etilgan bo'lib, bu laboratoriyalarda bolalar tajribalar, konstruktor o'yinlari va ijodiy loyihalar orqali bilim oladilar. Finlyandiya ta'lim tizimida ham STEAM asosidagi integrativ mashg'ulotlar keng qo'llaniladi. Bu mamlakatda bolalar tabiiy fanlar, san'at va texnologiya elementlarini birlashtirgan holda o'rganadilar. Ingliz tilini o'qitishda ham STEAM elementlaridan foydalanish samarali natija beradi. Masalan, oddiy tajribalar orqali "water", "color", "mix" kabi so'zlarni o'rganish bolalar uchun qiziqarli bo'ladi. Bunday faoliyatlar bolalarda nafaqat til ko'nikmalarini, balki mantiqiy fikrlash va kreativ tasavvurni ham rivojlantiradi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida ingliz tilini o'qitishda STEAM yondashuvini qo'llash bolalarda kreativ va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning samarali pedagogik vositalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning kognitiv rivojlanishini jadallashtiradi, ularning mustaqil fikrlashini shakllantiradi hamda ta'lim jarayoniga faol jalb etilishiga yordam beradi. Shu munosabat bilan mazkur sohani rivojlantirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitish jarayonida **STEAM asosidagi integrativ metodikani keng joriy etish** maqsadga muvofiqdir. Bunda til o'qitish jarayoni matematika, tabiatshunoslik, texnologiya va

san'at elementlari bilan uyg'unlashtirilgan holda tashkil etilishi lozim. Masalan, oddiy tajribalar, konstruktiv o'yinlar va matematik topshiriqlar orqali ingliz tilidagi yangi so'zlar va tushunchalarni o'zlashtirish bolalarning ham til, ham mantiqiy tafakkurini rivojlantiradi. Ikkinchidan, ingliz tilini o'qitishda **o'yin texnologiyalari (play-based learning)** va **yo'naltirilgan o'yin metodlari (guided play)** dan foydalanish tavsiya etiladi. Uchinchidan, **tajribaga asoslangan o'qitish (hands-on activities)** metodlarini keng qo'llash zarur. Amaliy mashg'ulotlar orqali bolalar real obyektlar bilan ishlaydi, tajriba o'tkazadi, kuzatish olib boradi va natijalarni muhokama qiladi. Bunday faoliyat jarayonida ingliz tilidagi yangi leksik birliklar tabiiy ravishda o'zlashtiriladi hamda bolalarda ilmiy kuzatuv va tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi. To'rtinchidan, maktabgacha ta'lim tizimida **storytelling va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni** qo'llash muhim ahamiyatga ega. Hikoya asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar bolalarning tasavvurini kengaytiradi, nutqiy faolligini oshiradi hamda ularni mustaqil fikr bildirishga undaydi. Shu bilan birga, muammoli savollar va izlanishga undovchi topshiriqlar bolalarning analitik fikrlashini rivojlantiradi. Beshinchidan, ta'lim jarayonida **san'at va ijodiy faoliyat elementlarini integratsiya qilish** zarur.

Shuningdek, mazkur sohani samarali rivojlantirish uchun maktabgacha ta'lim pedagoglarining **STEAM metodikasi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha malakasini oshirish** muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar uchun maxsus treninglar, seminarlar va metodik qo'llanmalar ishlab chiqish ta'lim jarayonining sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ingliz tilini o'qitish jarayonida STEAM yondashuvini qo'llash maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, ularning mustaqil ta'lim ko'nikmalarini shakllantirishga hamda zamonaviy ta'lim muhitini yaratishga imkon beradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim jarayonida ingliz tilini o'qitishda STEAM yondashuvidan foydalanish bolalarning kreativ va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatdi. Fanlararo integratsiya asosidagi mashg'ulotlar bolalarning qiziqishini oshiradi va ularni faol o'rganishga undaydi. STEAM asosidagi ta'lim bolalarga muammolarni mustaqil hal qilish, yangi g'oyalar yaratish va ijodiy fikrlash imkoniyatini beradi. Shu sababli maktabgacha ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishda STEAM yondashuvini keng joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yakman G. STEAM Education Framework. – Virginia: STEAM Education, 2008.
2. Bybee R. The Case for STEM Education. – Arlington: NSTA Press, 2013.
3. Guilford J. Creativity. – American Psychologist, 1950.
4. Torrance E. Torrance Tests of Creative Thinking. – Lexington, 1974.
5. Cameron L. Teaching Languages to Young Learners. – Cambridge University Press, 2001.

INGLIZCHA TARJIMADA NUTQIY JANRNI SAQLASH MASALASI (JANE EYRE ROMANI QIYOSIY TAHLILIDA)

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimada nutqiy janrni saqlash masalasi tahlil qilinib, tadqiqot obyekti sifatida ingliz yozuvchisi Charlotte Brontë ning mashhur *Jane Eyre* romani va uning o'zbek tilidagi tarjimalari tanlangan. Maqolada asardagi dialoglar, muallif nutqi, monolog va tasviriy ifoda vositalarining tarjima jarayonida qay darajada saqlanishi qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Tarjimada nutqiy uslub, emotsional bo'yoq va muallif individual uslubini yetkazishdagi muammolar hamda ularni hal etish usullari yoritiladi. Tadqiqot natijasida badiiy tarjimada nutqiy janrni saqlash matnning estetik qiymati va muallif uslubini to'liq yetkazishda muhim omil ekanligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: *badiiy tarjima, nutqiy janr, qiyosiy tahlil, tarjima nazariyasi, muallif nutqi, uslubiy vositalar, tarjima muammolari, Jane Eyre romani.*

Аннотация: в данной статье анализируется проблема сохранения речевого жанра при художественном переводе с английского языка на узбекский. В качестве объекта исследования выбран знаменитый роман *Jane Eyre* английской писательницы Charlotte Brontë и его переводы на узбекский язык. В статье на основе сравнительного анализа рассматривается степень сохранения диалогов, авторской речи, монолога и выразительных средств в процессе перевода. Также освещаются проблемы передачи речевого стиля, эмоциональной окраски и индивидуального авторского стиля в переводе, а также способы их решения.

Ключевые слова: *художественный перевод, речевой жанр, сравнительный анализ, теория перевода, авторская речь, стилистические средства, проблемы перевода, роман Jane Eyre.*

Annotation: this article analyzes the issue of preserving speech genre in literary translation from English into Uzbek. The famous novel *Jane Eyre* by the English writer Charlotte Brontë and its Uzbek translations were chosen as the object of the research. The article examines, through comparative analysis, the extent to which dialogues, authorial speech, monologues, and expressive stylistic devices are preserved in the translation process. It also highlights the problems of conveying speech style, emotional coloring, and the author's individual style in translation, as well as possible ways to solve these issues.

Key words: *literary translation, speech genre, comparative analysis, translation theory, authorial speech, stylistic devices, translation problems, the novel Jane Eyre.*

Kirish. Badiiy tarjima – bu nafaqat bir tildagi matnni boshqa tilga o'girish jarayoni, balki muallifning badiiy tafakkuri, uslubi va nutqiy xususiyatlarini boshqa til vositalari orqali qayta yaratish jarayonidir. Shu sababli tarjima jarayonida asarning mazmuni bilan bir qatorda, uning uslubiy va nutqiy xususiyatlarini ham imkon qadar saqlab qolish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy asarlarda nutqiy janr – ya'ni muallif nutqi, qahramonlar dialogi, ichki monolog va tasviriy ifodalar tarjimada asarning badiiy-estetik qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Jahon adabiyotining yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan Charlotte Brontëning *Jane Eyre* romani badiiy uslub, psixologik tasvir va qahramonlar

nutqining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Asarda qahramonlarning ichki kechinmalari, dialoglari hamda muallifning individual uslubi chuqur ifodalangan bo'lib, bu xususiyatlar tarjima jarayonida alohida e'tibor talab qiladi. Tarjima jarayonida nutqiy janrni to'g'ri aks ettirish o'quvchiga asarning asl ruhini yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Mazkur maqolada ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada nutqiy janrni saqlash masalasi *Jane Eyre* romani misolida qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida asarning asl matni va uning o'zbek tilidagi tarjimalari o'rtasidagi nutqiy xususiyatlar, dialog va monologlarning berilishi, muallif uslubining ifodalanishi hamda tarjimada yuzaga keladigan ayrim muammolar tahlil etilib, nutqiy janrni saqlashning tarjima sifatiga ta'siri va

uning badiiy matnni to'liq anglashdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Tahlillar. Badiiy tarjimada nutqiy janrni saqlash masalasi tarjima nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu masala nafaqat xorijiy, balki o'zbek tilshunos va tarjimashunos olimlari tomonidan ham keng tadqiq qilingan. Xususan, Eugene Nida tarjima nazariyasida dinamik ekvivalentlik tamoyilini ilgari surib, tarjima jarayonida matnning nafaqat mazmuni, balki uning kommunikativ ta'siri ham saqlanishi zarurligini ta'kidlaydi. [2:72] Uning fikricha, *"tarjima o'quvchiga asl matn o'quvchisida hosil bo'lgan ta'sirga yaqin ta'sir uyg'otishi kerak"*. Bu tamoyil badiiy asarlarda nutqiy janrni saqlash zarurligini ham ilmiy jihatdan asoslaydi.

Tarjima nazariyasiga katta hissa qo'shgan olimlardan biri Peter Newmark bo'lib, u badiiy tarjimada semantik va kommunikativ tarjima usullarini ajratib ko'rsatadi va *"Badiiy asar tarjimasida muallifning individual uslubi, tasviriy vositalari va nutqiy ohangini imkon qadar saqlash zarur, aks holda, tarjima matni asl asarning badiiy qimmatini to'liq aks ettira olmaydi"*, deya ta'kidlaydi. Bu borada Roman Jakobson ham muhim ilmiy qarashlarni ilgari surib, u tarjimini belgilar tizimi o'rtasidagi talqin jarayoni sifatida ko'rib, badiiy matn tarjimasida stilistik elementlarning muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Jakobsonning fikricha, har bir badiiy matn o'ziga xos nutqiy tuzilishga ega bo'lib, tarjimada ushbu tuzilmani imkon qadar saqlash zarur.[3: 98–102]

O'zbek tarjimashunosligida ham badiiy tarjima muammolari keng o'rganilgan. Jumladan, G'.Salomov o'z tadqiqotlarida badiiy tarjimada muallif uslubini saqlash masalasiga alohida e'tibor qaratadi.[4:27] Olimning ta'kidlashicha, *"tarjima jarayonida nafaqat mazmun, balki asarning uslubiy xususiyatlari, obrazli ifodalari va nutqiy ohangi ham to'g'ri aks ettirilishi kerak, shundagina tarjima asari o'zining badiiy qiymatini saqlab qoladi."* Q.Musayev ham tarjima nazariyasi va badiiy tarjima masalalarini tadqiq qilgan olimlardan biri bo'lib, uning ilmiy ishlarida tarjima jarayonida milliy til imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, matnning stilistik xususiyatlarini saqlash hamda nutqiy birliklarning mos ekvivalentlarini tanlash muhim ekani ta'kidlanadi.[5: 83]

Mazkur nazariy qarashlar asosida Charlotte Brontëning *Jane Eyre* romani misolida nutqiy janrni

saqlash masalasi qiyosiy tahlil qilinadi. Asarda muallif nutqi, qahramonlar dialogi va ichki monologlar orqali qahramonlarning psixologik holati ochib beriladi. Masalan, bosh qahramon *Jane Eyre* ning ichki kechinmalari ko'pincha birinchi shaxs nutqi orqali ifodalanadi. Ingliz tilidagi matnda ushbu nutq sodda, ammo chuqur emotsional ohangga ega. Tarjima jarayonida esa ushbu ohangni saqlash uchun o'zbek tilining stilistik imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish zarur. Romandagi dialoglar qahramonlarning xarakterini ochishda muhim vosita hisoblanadi. Ingliz tilidagi dialoglar ko'pincha qisqa va aniq shaklda berilgan bo'lsa, tarjimada ayrim hollarda gap tuzilishi o'zgarishi mumkin. Biroq tarjimon dialoglarning tabiiyligini saqlashi lozim, chunki dialoglar qahramonlarning ijtimoiy mavqei, nutq madaniyati va psixologik holatini aks ettiradi.

Natijalar. Badiiy tarjimada nutqiy janrni saqlash masalasini yanada aniqroq ko'rsatish maqsadida Charlotte Brontë ning *Jane Eyre* romanidan olingan ayrim parchalar asosida qiyosiy tahlil olib borildi. Ushbu tahlil orqali ingliz tilidagi asl matn va o'zbek tilidagi tarjimada nutqiy uslub, emotsional bo'yoq hamda qahramon nutqining qay darajada saqlangani aniqlanadi.

Asliyatda: *"I am no bird; and no net ensnares me: I am a free human being with an independent will."*

Tarjimasi: *"Men qush emasman, meni hech qanday to'r tutib tura olmaydi; men erkin irodaga ega bo'lgan mustaqil insonman."*

Mazkur parcha romanning muhim nuqtalaridan biri bo'lib, unda bosh qahramon *Jane Eyre* ning ichki erkinlikka bo'lgan intilishi ifodalanadi. Ingliz tilidagi matnda qisqa va keskin gaplar orqali qahramonning qat'iyati hamda mustaqil xarakteri aks ettirilgan. Tarjimada ham ushbu mazmun saqlangan bo'lsa-da, ayrim stilistik o'zgarishlar kuzatiladi. Masalan, ingliz tilidagi *"ensnares me"* fe'li metaforik ma'noga ega bo'lib, qahramonning ruhiy erkinligini ifodalaydi. O'zbek tarjimasida esa *"tutib tura olmaydi"* shaklida berilib, mazmunij jihatdan to'g'ri, ammo metaforik ta'sir biroz yumshagan.

Asliyatda: *"Do you think I am an automation? — a machine without feelings?"*

Tarjimasi: *"Siz meni avtomat, ya'ni hissiyotlardan mahrum mashina deb o'ylaysizmi?"*

Ushbu parcha qahramonning hissiy holatini aks ettiruvchi dialoglardan biridir. Ingliz tilidagi matnda

savol shaklidagi qisqa gaplar orqali qahramonning noroziligi va ichki hissiyotlari ifodalanadi. Tarjimada esa mazmun saqlangan bo'lsa-da, gap tuzilishi biroz kengaytirilgan. Biroq umumiy nutqiy ohang va qahramonning hissiyati o'zbek tilida ham yetarlicha ifodalanagan.

Olib borilgan qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, Charlotte Brontë ning *Jane Eyre* romanida qahramon nutqi ko'pincha qisqa, lo'nda va emotsional jihatdan kuchli gaplar orqali ifodalanagan. Bu esa qahramonlarning ichki kechinmalari hamda psixologik holatini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi. Tarjima jarayonida asosan, matnning mazmuniy tomoni saqlanib qolgan bo'lsa-da, ayrim hollarda stilistik vositalar va ifoda shakllari o'zgarishi kuzatiladi. Ayniqsa, metafora va emotsional ifodalar tarjimada ba'zan soddalashtirilgan holda berilishi mumkin, bu esa nutqiy janrning ta'sir kuchini ma'lum darajada kamaytiradi. Qiyosiy tahlil dialog va monologlarning tabiiy shaklda berilishi badiiy tarjimaning sifatini belgilovchi muhim omillardan biri ekanini ko'rsatdi.

Natijada tarjima matni asl asarning badiiy ruhini yanada to'liqroq aks ettira oladi. *Jane Eyre* romani misolida olib borilgan tahlillar badiiy tarjimada nutqiy janrni saqlash asarning badiiy-estetik qiymatini yetkazishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Tarjima jarayonida muallif uslubi, qahramon nutqi va emotsional bo'yoqlarni chuqur tahlil qilish orqali asarning asl ruhini to'liqroq aks ettirish mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda ingliz tilidan o'zbek tiliga badiiy tarjimada nutqiy janrni saqlash masalasi Charlotte Brontë ning *Jane Eyre* romani misolida qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida asl matn va uning o'zbek tilidagi tarjimalari o'rtasidagi nutqiy xususiyatlar, dialog va monologlarning ifodalanishi hamda muallif uslubining qay darajada saqlangani tahlil qilindi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, badiiy tarjimada nutqiy janrni saqlash asarning badiiy-estetik qiymatini yetkazishda muhim ahamiyatga ega. Asarda qahramonlarning dialoglari, ichki monologlari va muallif nutqi orqali ifodalanagan psixologik holat hamda emotsional bo'yoqlar tarjima jarayonida imkon qadar to'liq aks ettirilishi zarur. Aks holda, badiiy matnning mazmuni saqlangan bo'lsa ham, uning uslubiy va emotsional ta'siri kamayishi mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tarjimon muallif uslubi, tasviriy vositalar va nutqiy ohangni chuqur tahlil qilgan holda tarjima qilishi lozim. Bunda o'zbek tilining stilistik imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali asl matndagi badiiy ifoda vositalarini mos tarzda qayta yaratish muhim hisoblanadi. Umuman olganda, badiiy tarjimada nutqiy janrni saqlash muallifning individual uslubini va asarning badiiy ruhini o'quvchiga yetkazishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Charlotte Brontë. *Jane Eyre*. – London: Smith, Elder & Co., 1847. 532 p.
2. Eugene Nida. *Toward a Science of Translating*. – Leiden: Brill, 1964. 331 p.
3. Peter Newmark. *A Textbook of Translation*. – New York: Prentice Hall, 1988. 292 p.
4. G'aybulla Salomov. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. 160-b.
5. Xodjayeve, D. (2025). JANE EYRENING ASARI NUTQIY JANRI TASNIFI VA TARJIMADA DOLZARBLIK MASALASI. *Журнал академических исследований нового Узбекистана*, 2(8), 82–85. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/voitj/article/view/59266>
6. Xodjayeve, Dilnoza Kamilovna. "NUTQIY ETIKETLARNING TARJIMALARDA BERILISHI VA ULARNING TALQINI" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, vol. 4, no. 9, 2024, pp. 284–293.
7. Xodjayeve, D. OG'ZAKI NUTQNI RIVOJLANTIRISHDA MONOLOGIK VA DIALOGIK NUTQ SHAKLLARI XUSUSIYATLARI. (2024). *Yangi O'zbekistonda Tabiiy Va Ijtimoiy-Gumanitar Fanlar Respublika Ilmiy Amaliy Konferensiyasi*, 2(12), 104_109. <https://universalpublishings.com/index.php/gumanitar/article/view/9144>

Shaxodat AXMEDOVA,
Termiz davlat universiteti "Ingliz tili va adabiyoti"
kafedrası katta o'qituvchisi



INGLIZ TILIDAGI TIBBIY LEKSIK BIRLIKLARNING STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur tadqiqot ingliz tilidagi tibbiy leksik birliklarning strukturaviy xususiyatlarini lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilishga bag'ishlangan. Ishda tibbiy terminlarning morfologik tuzilishi, so'z yasash modellari hamda ularning prefiks, suffiks va kompozitsiya orqali shakllanish jarayonlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tibbiy terminologiyaning semantik xususiyatlari va xalqaro ilmiy kommunikatsiyadagi o'rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari tibbiy ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish va terminologik tizimni tizimli o'rganishda muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: tibbiy terminologiya, leksik birliklar, strukturaviy tahlil, morfologik tuzilish, so'z yasalishi, ingliz tili, ilmiy kommunikatsiya.

Annotation: this study examines the structural characteristics of medical lexical units in the English language from a linguistic perspective. The research analyzes the morphological structure of medical terms, their word-formation models, and the role of prefixes, suffixes, and compounding in term formation. Particular attention is given to the semantic features of medical terminology and its significance in international scientific communication. The findings contribute to improving the methodology of teaching medical English and systematic investigation.

Key words: medical terminology, lexical units, structural analysis, morphological structure, word formation, English language, scientific communication.

Аннотация: данное исследование посвящено анализу структурных особенностей медицинских лексических единиц английского языка с лингвистической точки зрения. Рассматриваются морфологическая структура медицинских терминов, модели словообразования, а также роль префиксов, суффиксов и композиции в формировании терминологии. Особое внимание уделяется семантическим характеристикам медицинских терминов и их значению в международной научной коммуникации. Полученные результаты способствуют совершенствованию методики преподавания медицинского английского языка.

Ключевые слова: медицинская терминология, лексические единицы, структурный анализ, морфологическая структура, словообразование, английский язык, научная коммуникация.

Kirish. Zamonaviy ilmiy taraqqiyot sharoitida tibbiyot sohasi jadal rivojlanib borayotgan ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon tibbiyot terminologiyasining ham muntazam ravishda boyib borishini, yangi leksik birliklar paydo bo'lishini hamda mavjud terminlarning mazmun va shakl jihatdan takomillashib borishini taqozo etadi. Ayniqsa, ingliz tili bugungi kunda xalqaro ilmiy kommunikatsiya, tibbiy tadqiqotlar va professional axborot almashinuvida asosiy til sifatida qo'llanilayotgani sababli, ingliz tilidagi tibbiy leksik birliklarning strukturaviy xususiyatlarini o'rganish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Tibbiy terminologiya o'zining murakkabligi, ko'p qatlamli tuzilishi va ko'p hollarda yunon hamda lotin tillaridan olingan morfemalarga asoslanganligi bilan boshqa terminologik tizimlardan farqlanadi. Shu bois tibbiy leksik birliklarning strukturaviy tuzilishini tadqiq etish lingvistika, terminologiya va kasbiy tilshunoslik (ESP – English for Specific Purposes) doirasida muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, tibbiy terminlarning katta qismi prefiks, suffiks, ildiz morfemalar va kompozitsiya orqali shakllanadi hamda ularning tuzilishi aniq semantik ma'noni ifodalashga xizmat qiladi. Shu

jihatdan tibbiy terminlarning morfologik va strukturaviy tahlili ularning shakllanish mexanizmlarini aniqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotchilar ham tibbiy ingliz tilining o'qitilishi, terminologik birliklarning lingvistik xususiyatlari hamda ularning amaliy qo'llanilishi masalalarini o'rganishga alohida e'tibor qaratib kelmoqdalar.

Mazkur tadqiqotning maqsadi ingliz tilidagi tibbiy leksik birliklarning strukturaviy xususiyatlarini lingvistik jihatdan tahlil qilish, ularning morfologik tuzilishi hamda so'z yasash modellari asosida shakllanish qonuniyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida tibbiy terminlarning strukturaviy tasnifi, ularning morfemik tarkibi, prefiks va suffikslar orqali hosil bo'lish jarayonlari, shuningdek, kompozitsiya va qisqartirish kabi so'z yasash usullari o'rganiladi.

Ushbu izlanish natijalari ingliz tilidagi tibbiy terminologiyani tizimli o'rganish, tibbiy ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish hamda terminologik tizimning lingvistik xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari tibbiyot sohasi mutaxassislari, tarjimonlar hamda ingliz tilini kasbiy maqsadlarda o'rganuvchilar uchun nazariy va amaliy jihatdan muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Tahlil va natija. Ingliz tilidagi tibbiy leksik birliklarning strukturaviy xususiyatlarini o'rganish terminologik tizimning ichki tuzilishi, so'z yasash modellari hamda semantik aniqligini tushunishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Tibbiy terminologiya til tizimining maxsus qatlamini tashkil etib, u o'zining qat'iy semantik aniqligi, xalqaro xarakteri hamda morfologik jihatdan murakkabligi bilan ajralib turadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi tibbiy terminlarning aksariyati yunon va lotin tillaridan olingan morfemalarga asoslanadi hamda ular ko'pincha murakkab strukturaviy birliklardan tashkil topadi.

Tahlil jarayonida aniqlanishicha, ingliz tilidagi tibbiy leksik birliklarni strukturaviy jihatdan bir necha asosiy guruhlariga ajratish mumkin. Birinchi guruhni sodda terminlar tashkil etadi. Bunday terminlar bir ildizli leksik birliklardan iborat bo'lib, tibbiyot sohasidagi muayyan tushunchani ifodalaydi. Masalan, *heart, blood, pain, cell* kabi terminlar sodda tuzilishga ega bo'lsa-da, ular tibbiy terminologiya tizimida muhim semantik funksiyani bajaradi.

Ikkinchi guruh yasama terminlardan iborat bo'lib, ular affiksatsiya orqali hosil qilinadi. Tibbiy terminologiyada

prefiks va suffikslarning qo'llanishi terminlarning ma'no doirasini kengaytirish hamda aniqlashtirishga xizmat qiladi. Masalan, *cardiology, dermatology, hypertension, antibiotic* kabi terminlar morfologik jihatdan bir nechta elementlardan tashkil topgan bo'lib, ularning har biri alohida semantik komponentni ifodalaydi. Prefikslar odatda kasallikning darajasi, joylashuvi yoki holatini ifodalasa (*hyper-, hypo-, intra-, inter-*), suffikslar esa ko'pincha jarayon, kasallik yoki mutaxassislikni bildiradi (*-itis, -ology, -ist, -emia*).

Uchinchi guruhni qo'shma terminlar tashkil etadi. Kompozitsiya usuli orqali hosil qilingan terminlar ingliz tilidagi tibbiy leksikaning muhim qismini tashkil qiladi. Masalan, *blood pressure, brain damage, heart failure, healthcare* kabi birliklar ikki yoki undan ortiq so'zning birikishi orqali hosil bo'lgan bo'lib, ular tibbiy jarayonlar va holatlarni aniq ifodalash imkonini beradi. Bunday terminlar ilmiy kommunikatsiyada ma'no aniqligini ta'minlaydi hamda terminologik tizimni tizimli shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi tibbiy terminologiyada qisqartma va akronimlar ham keng qo'llanadi. Zamonaviy tibbiyotda axborot almashinuvi tezligini oshirish maqsadida *AIDS (Acquired Immune Deficiency Syndrome), DNA (Deoxyribonucleic Acid), MRI (Magnetic Resonance Imaging)* kabi qisqartmalar faol ishlatiladi. Ushbu birliklar strukturaviy jihatdan ixcham bo'lishiga qaramay, murakkab ilmiy tushunchalarni ifodalash imkonini beradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi tibbiy terminlarning asosiy qismi morfologik jihatdan murakkab tuzilishga ega bo'lib, ular ko'pincha prefiks, ildiz va suffiks elementlarining kombinatsiyasidan tashkil topadi. Bu esa tibbiy terminologiyaning sistemali va mantiqiy tuzilishga ega ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, terminlarning xalqaro xarakterga ega bo'lishi ularning turli tillarda deyarli bir xil shaklda qo'llanishiga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalari ingliz tilidagi tibbiy leksik birliklarning strukturaviy tizimi yuqori darajada tartiblanganligini hamda ularning so'z yasash modellari ilmiy kommunikatsiya talablariga mos ravishda shakllanganligini ko'rsatdi. Affiksatsiya, kompozitsiya va qisqartirish kabi so'z yasash usullari tibbiy terminologiyaning asosiy shakllanish mexanizmlarini tashkil etadi. Ushbu holat tibbiy terminologiyaning lingvistik jihatdan mustahkam tizimga ega ekanligini hamda uning zamonaviy ilmiy

tilning muhim komponentlaridan biri sifatida faol rivojlanib borayotganini tasdiqlaydi.

Xulosa. Tadqiqot jarayonida ingliz tilidagi tibbiy leksik birliklarning strukturaviy xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan kompleks tarzda tahlil qilindi. O'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, tibbiy terminologiya ingliz tilining maxsus leksik qatlamini tashkil etib, u o'zining qat'iy semantik aniqligi, tizimliliigi hamda xalqaro xarakteri bilan ajralib turadi. Tibbiy terminlar nafaqat ilmiy kommunikatsiyada, balki tibbiyot amaliyotida ham muhim axborot uzatish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tahlil natijalari ingliz tilidagi tibbiy terminlarning strukturaviy jihatdan turli modellarga asoslanishini ko'rsatdi. Xususan, sodda terminlar, yasama terminlar, qo'shma terminlar hamda qisqartma shaklidagi birliklar tibbiy leksikaning asosiy qatlamlarini tashkil etadi. Ushbu terminlarning katta qismi morfologik jihatdan prefiks, ildiz va suffiks elementlarining o'zaro kombinatsiyasi asosida shakllanadi. Bu holat tibbiy terminologiyaning mantiqiy va tizimli tuzilishga ega ekanligini hamda uning ilmiy til talablari asosida shakllanganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida ingliz tilidagi tibbiy terminlarning aksariyati yunon va lotin tiliga mansub morfemalardan tashkil topgani aniqlandi. Bu esa tibbiy terminologiyaning xalqaro xususiyatini ta'minlab, turli tillarda ilmiy axborot almashinuvi jarayonida terminlarning umumiy tushunilishini osonlashtiradi. Affiksatsiya, kompozitsiya va qisqartirish kabi so'z yasash usullari tibbiy leksik birliklarning shakllanishida asosiy lingvistik mexanizmlar sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi tibbiy terminologiya yuqori darajada tizimlashgan va ilmiy asoslangan terminologik tizim hisoblanadi. Uning

strukturaviy xususiyatlarini o'rganish tibbiy ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish, kasbiy tarjima jarayonlarini samarali tashkil etish hamda tibbiyot sohasida xalqaro ilmiy kommunikatsiyani rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Umuman olganda, ingliz tilidagi tibbiy leksik birliklarning strukturaviy tahlili terminologik tizimning ichki qonuniyatlarini aniqlashga, so'z yasash modellari va semantik tuzilishini chuqurroq anglashga imkon beradi. Kelgusida ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar tibbiy terminologiyaning semantik, pragmatik va diskursiv xususiyatlarini yanada kengroq o'rganishga xizmat qilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ingliz tilidagi tibbiy leksik birliklarning strukturaviy xususiyatlarini o'rganish zamonaviy lingvistika, terminologiya hamda kasbiy yo'naltirilgan tilshunoslik (ESP) doirasida muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Xususan, B.J.Cohen tibbiy terminlarning morfologik tuzilishini prefiks, ildiz va suffikslar tizimi orqali izohlaydi. J.Law va E.Martin esa tibbiy terminologiyaning leksik-semantik xususiyatlarini keng lug'aviy material asosida tahlil qiladi. Mahalliy olimlar M.U. Buranova, H.D. Sultanova, U.G.Zunnunova, P.B.Tashhodjayeva va S.K.Yorova tadqiqotlarida tibbiy ingliz tilining kasbiy kommunikatsiyadagi o'rni hamda terminlarning strukturaviy va semantik xususiyatlari yoritilgan. Ushbu manbalar tibbiy terminologiyaning tizimli shakllanish qonuniyatlarini ochib beradi. Mazkur ilmiy manbalar ingliz tilidagi tibbiy leksik birliklarning strukturaviy xususiyatlarini o'rganishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi hamda ushbu yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun metodologik zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buranova M.U. Tibbiyotda xorijiy til / Foreign language in medicine. — Samarkand: SamDCHTI, 2024.
2. Cohen B.J. Medical terminology: an illustrated guide. — Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins, 2013. — 683 p.
3. Law J., Martin E. Concise medical dictionary. — Oxford: Oxford University Press, 2014 (10th ed.). — (Oxford quick reference). — (approximately 700–800 p.).
4. Sultanova H.D., Zunnunova U.G. Ingliz tili. Tibbiyot kollejlari uchun o'quv qo'llanma. — Noshir, 2016. — 232 b.
5. Tashhodjayeva P.B., Avilova K.Kh., Akramova Z.Sh., Hazratova G.Sh., Kadirova L.U. English for medical students: o'quv qo'llanma. — Tashkent: Tibbiyot Nashriyoti, 2022. — ISBN 978-9943-8564-0-0.
6. Yorova S.K. English for medical students: o'quv qo'llanma. — Samarqand: Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti, 2021. 159-bet.

Gulmiraxon ABDUJALILOVA,
 Namangan davlat pedagogika instituti
 1-bosqich tayanch doktoranti
gulmiraxonsultonova71@gmail.com

QISSA JANRINING GENEZISI VA TARAQQIYOTI

Annotatsiya: hozirgi kunda yozuvchilar samarali ijod qilayotgan qissa janrining tarixiy ildizlari, taraqqiyotini o'rganish muhim masalalardan biridir. Bu janr talablari o'ziga xos bo'lib, ijodkordan kuchli mahorat va iste'dod talab qiladi. Ushbu maqolada epik turning qissa janriga xos xususiyatlar, tarixi va taraqqiyot bosqichlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qissa, genezis, taraqqiyot, mahorat, janr, epik tur

Annotation: one of the important issues is to study the historical roots and development of the short story genre, which writers are currently actively creating. The requirements of this genre are unique and require strong skills and talent from the creator. This article analyzes the characteristics, history and stages of development of the epic short story genre.

Key words: story, genesis, development, skill, genre, epic type

Аннотация: одним из важных вопросов является изучение исторических корней и развития жанра короткого рассказа, который в настоящее время активно создают писатели. Требования этого жанра уникальны и требуют от автора высокого мастерства и таланта. В данной статье анализируются характеристики, история и этапы развития жанра эпического короткого рассказа.

Ключевые слова: история, происхождение, развитие, мастерство, жанр, эпический тип

Kirish.

Ma'lumki, qissa janrining nazariy jihatlarini rus adabiyotshunosligida V.G.Belinskiy, S.Lixachev, N.Nadejdin, L.Golovenchenko, V.Golovko, V.Kojinov, M.Baxtin o'rgangan. O'z ilmiy izlanishlarida janrning ichki tabiati, tuzilishi, janr qoidalarining roman va hikoya oralig'idagi poetik funksiyasi, personajlar kechinmalari, roviy nutqi, hikoya qilinishi nazariy jihatdan asoslangan. O'zbek adabiyotshunosligida qissa janrini I.Sulton, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, A.Abrorov, U.Normatov, B.Nazarov, S.Mirvaliyev, H.Umurov, Q.Yo'ldoshev, B.Sarimsoqov, A.Rasulov, A.Ulug'ov, D.Quronov, B.Karim kabi olimlar, A.Qozixo'jayev, M.Boboxonov, D.Xoldorova, Z.Suvonov, Sh.Botirova kabi tadqiqotchilar tomonidan turli jihatlar o'rganilgan, ularning tadqiqotlarida qissa poetik strukturasi turli xil adiblar misolida ochib berilgan. Ushbu tadqiqotchilar o'z asarlarida qissa janriga batafsil to'xtalib otgan. Ushbu maqolada ularning ilmiy izlanishlariga tayangan holda qissa janrining genezisi va taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi, umumlashtiriladi.

Asosiy qism.

"Qissa — bir kishi va u bilan hayoti bog'liq bo'lgan bir necha kishining taqdiri o'rtacha hajmda tasvir etilgan, ammo hayotning keng manzarasini chizib berishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ymaydigan asarlar janriga mansubdir. Qissada, odatda, lirizm hikoya va romanga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Qissaning ko'pincha birinchi shaxs, ya'ni taqdiri tasvir etilayotgan personaj nomidan yozilishi ham bejiz emas." [3:170]

Ilk qissa Qur'oni Karimning "Niso" surasidagi payg'ambarlar haqidagi qissalar bilan boshlanadi. Unda juda ko'plab masalalar ayonlashadi. Birgina Odam Ato bilan Momo Havoning ta'qiqlangan mevani yeb falokatga uchrashi hamda yer yuziga qivilishi haqida keltirilgan ma'lumotlar (oyatlar, suralar)da buyuklik faqat Allohga xosligi, muqaddas farishta, ojiz va gunohkor inson, hiylagar va makkor shayton — bu uchliklarning mohiyat-o'zagi, chuqur mantiqiy mulohaza, hayotiy qonuniyat sifatida talqin qilinib, keng miqyosda ochib beriladi. Bu haqida juda ko'plab diniy-ma'rifiy kitoblar avliyolar, din peshvolari tomonidan bot-bot yozilgan va ularning sharhlari bugungi avlod, insoniyat uchun uqtirib kelinmoqda. "Oli Imron", "Niso", "A'rof" suralaridagi anbiyolar haqidagi qissalarda ham ana shu masalalar, payg'ambarlarning tug'ilishi, ularga yuklatilgan vazifalar, xatolar va adashishlarning asl manzaralari talqin qilinadi.

Qissa janri dastlab xalq og'zaki ijodida shakllangan. Qahramon hayoti va sarguzashtlarini qiziqarli hikoya qiluvchi asarlar "Ibrohim Adham qissasi", "Qissai Mashrab", "Zufunun qissasi" shular jumlasidandir.

Ilohiy manbalar asosida yozilgan Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarini O'zbek adabiyotidagi qissachilikning eng original va mukammal namunasi sifatida baholashimiz mumkin. Undagi voqelik o'quvchiga sarguzashtnoma va hayotiy masalalarga doir qarashlarni singdirishi bilan tafakkurni o'stirishga qaratilgan yuksak g'oyalar ifoda etilganini e'tirof etish lozim.

XIX asrning ikkinchi yarmida Yevropa tipidagi janrlar o'zbek adabiyotida paydo bo'ldi. Epik janrlar sistemasi

inqilob arafasidagi ma'rifatparvar adabiyotda yaratila boshlandi.

“Cho'lpon, Qodiriy, Hamza yaratgan qissalarda ham davrning og'riqlari, ijtimoiy hayot muammolari, odamlar dunyoqarashidagi o'zgarishlar jadidona nigoh bilan yorqin obrazlarda namoyon qilingan. Bu qissalar tabiatida an'anaviylikning eng yuksak cho'qqisi qabarib ko'rinadi. Demak, har bir janrning estetik mohiyatida yozuvchining hayotni qanday idrok etib, ifoda qilish quvvayi hofizasi bo'rtib turibdi. Qissalarni ikki xil yo'sinda bo'lib o'rganish ishonchni oqlaydi: Shukur Xolmirzayev, Tog'ay Murod, Isajon Sulton xalq og'zaki ijodidagi epik tasvir usullarini o'zida aks ettirish yo'lidan bordi. Bu ijodkorlar uslubiy-shakliy jihatdan yangiliklar yaratib, bir-biridan tamomila farqlanuvchi o'lchovlarni ommaga taqdim etdi”.[1:15]

Sho'ro davri o'zbek qissachiligi boshqa millatlar adabiy ta'sirini istisno etganda ko'proq qissachiligi, ms povesti negizida shakllandi desak, xato bo'lmaydi. 40—50-yillardan boshlab, “qissa” terminining adabiy iste'moldan siqib chiqarilishi, bu janr asosan «povest» termini bilan atay boshlanishi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Ularda rus qissalariga xos syujet, obrazlar tizimi, kompozitsion shakl, bayon uslubi ustuvorligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

XX asrga kelib o'zbek adabiyotida qissaning yangi shakllari paydo bo'la boshladi. Hamzaning “Yangi saodat”, Cho'lponning “Doktor Muhammaddiyor” asarlari zamonaviy qissaning o'zbek adabiyotidagi ilk namunasi hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan asarlarning umumlashtiruvchi jihati e'tibor markazida qahramonning turishidir. Dilmurod Quronov “Adabiyot nazariyasi” asarida quyidagi fikrlarni bildirib o'tadi. “Shu xususiyati bois qissa» so'zi ilgari hamma vaqt qahramon ismi bilan birga qo'llangan, “qissa” so'zi qahramon ismi bilan assotsiatsiyalangan. Natijada bu so'z “kimdir birovning hayotidan hikoya” ma'nosini anglatadi, ya'ni mohiyatan janrning asosiy belgisini ataydi. Albatta, janr muttasil rivojlanish-o'zgarishda yashaydi, biroq uni belgilovchi javhar-xususiyat haqida bunday deb bo'lmaydi” [2:117]

O'zbek qissalari va uning uslubi yo'ziga xosligi mana shunday jiddiy omillar bilan bevosita bogliq. Ozbek qissasining eng sara namunasi sifatida Abdulla Qodiriyning “Obid ketmon”, Abdulla Qahhorning “Sinchalak”lari professional qissa janri deb asari ko'rsatilsa ham, ular

o'zining mavzusi, badiiy maqsadi, obrazlari va bayon uslubiga ko'ra zamonaviy shoro qissalari talablariga mos keladi.

“Sho'ro davriga kelib qissaga musabat va qarashlar o'zgarib, kengayib bordi. “Qissa” so'zi o'rnida “povest” atamasini qo'llash keng tus oldi. Umuman olganda, “qissa” va “povest” atamasining lug'aviy mazmuni bir bo'lib, “hikoya qilmoq” ma'nosini anglatadi. Biroq adabiyotda “povest” terminining paydo bo'lishi ayrim tushunmovchiliklarga sabab bo'ldi. Chunki, qissa va povest sinonim sifatida ham, alohida janr sifatida ham qo'llanila boshladi” [4:14]

G'afur G'ulomning „Yodgor“, “Shum bola”, Sadridin Ayniyning, “Sudxo'ring o'limi”, Abdulla Qahhorning “Sinchalak”, Ne'mat Aminovning “Bir asr hikoyati”, keying davr qissachilik namunalaridan Isajon Sultonning “Onaizorim”, Bahodir Qobulning “Ena shamol”, “Jovdiragan oy”, Ulug'bek Hamdamning “Tolin oy”, Nazar Eshonqulning “Urush odamlari”, “Momoqoshiq”, “Tun panjaralari”, “Qora kitob”, Murod Muhammad Do'stning “Mustafo”, “Iste'fo”, “Galatepaga qaytish”, Erkin A'zamning “Otoyining tug'ilgan yili”, Tohir Malikning Somon yo'li elchilari”, “Vasvasa” kabi asarlari qissaning yorqin namunasi hisoblanadi.

Luqmon Bo'rixonning “Olis qo'rg'on fuqarosi”, “Bir tomchi yosh”, Nabi Jaloliddinning “Majnun” kabi qissalari so'nggi yillarda yaratilgan eng sara asarlar hisoblanadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, qissa janri tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib, turli davrlar adabiy-estetik qarashlari ta'sirida boyib borgan va bugungi o'zbek adabiyotida ham muhim badiiy janr sifatida o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Qissachilik an'analari qadimiy manbalardan boshlab, jadid adabiyoti davrida yangi bosqichga ko'tarildi va keyingi davrlarda ham rivojlanib bordi. Turli davr adiblari qissa janrining badiiy imkoniyatlaridan samarali foydalanib, jamiyat hayoti, inson taqdiri, ma'naviy qadriyatlar hamda ijtimoiy muammolarni badiiy talqin etdilar. Natijada qissa janri o'zbek adabiyotida mazmun va shakl jihatidan boyib, yangi badiiy izlanishlar bilan to'ldirildi. Bu janr inson taqdiri, jamiyat muammolari va ruhiy kechinmalarni badiiy talqin etishda keng imkoniyatlarga ega bo'lib, adabiy jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Botirova Sh. Noananaviy qissalar badiiyati. — Toshkent, 2024.
2. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. — Toshkent, 2018.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: O'qituvchi nashriyoti. 2005.
4. Xoldorov, D. Hozirgi adabiy jarayon: o'zbek qissalari uslubi (Matn): uslubiy qo'llanma. — Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2019.

AKSIOLOGIK MODUSNING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISH AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada aksiologik modusning mohiyati, uning til tizimidagi o'rni va kommunikativ funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, aksiologik modusning lisoniy vositalar orqali ifodalanish mexanizmlari, ularning diskursiv xususiyatlari hamda qadriyatlar tizimidagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida aksiologik modusning tilshunoslik va madaniyatlararo kommunikatsiya doirasidagi dolzarbligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: aksiologik modus, baholovchanlik, qadriyat, diskurs, emotivlik, lisoniy vosita, kommunikatsiya.

Аннотация: в статье анализируется сущность аксиологического модуса, его роль в системе языка и коммуникативные функции. Также научно рассматриваются механизмы выражения аксиологического модуса языковыми средствами, их дискурсивные свойства и роль в системе ценностей. На основании результатов исследования подчёркивается актуальность аксиологического модуса в лингвистике и межкультурной коммуникации.

Ключевые слова: аксиологический модус, оценочность, ценность, дискурс, эмоциональность, языковые средства, коммуникация.

Annotation: this article analyzes the essence of axiological mode, its role in the linguistic system, and its communicative functions. It also examines the mechanisms by which axiological mode is expressed through linguistic means, their discursive properties, and their role in the value system. Based on the research findings, the relevance of axiological mode in linguistics and intercultural communication is emphasized.

Key words: axiological mode, evaluativeness, value, discourse, emotionality, linguistic means, communication.

Kirish. Til inson tafakkuri va madaniyatining muhim ifoda vositasi bo'lib, unda insonning voqelikka bo'lgan munosabati ham aks etadi. Til birliklari orqali nafaqat axborot uzatiladi, balki nutq egasining bahosi, hissiyoti va qadriy qarashlari ham ifodalanadi. Shu jihatdan tilshunoslikda aksiologik yondashuv muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Aksiologik modus nutqda subyektning voqelikka bo'lgan bahosini ifodalaydi. Bu baho ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. O'zbek tilshunosligida baholash kategoriyasi, emotsional-ekspressiv vositalar hamda pragmatik birliklar orqali aksiologik munosabat ifodalanishi tadqiq etilgan.

Aksiologik modus tushunchasi. "Aksiologiya" termini qadriyatlar haqidagi ta'limot ma'nosini bildiradi. Tilshunoslikda esa aksiologik yondashuv til birliklari orqali ifodalanadigan baholash va qadriy munosabatlarni o'rganadi.

Aksiologik modus nutqda so'zlovchining voqelik yoki hodisaga nisbatan bahosini ifodalovchi semantik-pragmatik kategoriyadir. Bu kategoriya orqali nutq egasining subyektiv munosabati, hissiyoti va baholovchi qarashlari namoyon bo'ladi.

Asosiy qism. Aksiologik modus tilning muhim lingvistik kategoriyasi bo'lib, qadriyat va baholarni ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi. Uning lisoniy ifodalanishi nutq ma'nosini boyitib, kommunikatsiyaning samaradorligini oshiradi. Shu sababli, aksiologik modusni o'rganish

lingvistik va kommunikativ tadqiqotlarda katta ahamiyatga ega.

Aksiologik modus tilning muhim lingvistik kategoriyalaridan biri bo'lib, u nutq jarayonida insonning borliq, voqelik, hodisa va predmetlarga nisbatan bildiradigan bahosi, munosabati hamda qadriyatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Til faqat axborotni yetkazish vositasi bo'lib qolmay, balki nutq egasining subyektiv qarashlari, ijtimoiy-madaniy qadriyatlari va emotsional bahosini ham namoyon etadi. Aynan shu jihatdan aksiologik modus til tizimida baholovchi semantika bilan bog'liq bo'lgan muhim kategoriyalardan biri sifatida qaraladi. U orqali nutq subyekt muayyan hodisaga ijobiy yoki salbiy munosabatini bildiradi, shu bilan birga jamiyatda shakllangan axloqiy, estetik va madaniy me'yorlarni ham aks ettiradi.

Aksiologik modusning lisoniy ifodasi turli til birliklari orqali namoyon bo'ladi. Jumladan, baholovchi leksika, frazeologik birliklar, stilistik vositalar, modal birliklar hamda intonatsion vositalar ushbu kategoriyaning ifodalanishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, ijobiy bahoni ifodalovchi "ajoyib", "mukammal", "foydali" kabi birliklar yoki salbiy bahoni bildiruvchi "yomon", "zararli", "muvaqqafiyatsiz" kabi so'zlar nutqda aksiologik mazmunni yuzaga keltiradi. Shuningdek, frazeologik birliklar va metaforik ifodalar ham baholash jarayonini yanada obrazli va ta'sirchan ko'rinishda ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa nutqning

semantik qatlamini boyitib, kommunikativ ta'sirchanligini oshiradi.

Bundan tashqari, aksiologik modus til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqani ham aks ettiradi. Har bir millatning qadriyat tizimi, dunyoqarashi va madaniy an'analari til orqali ifodalanadi. Shu sababli, aksiologik birliklar ko'pincha lingvokulturologik jihatdan ham muhim ahamiyat kasbetadi. Til birliklari orqali ifodilangan baholash elementlari milliy mentalitetni, ijtimoiy qadriyatlarni hamda jamiyatlardagi muhim ideallarni namoyon qiladi. Natijada, aksiologik modusni o'rganish nafaqat til tizimini, balki madaniy qadriyatlar va kommunikativ xulqni ham chuqurroq anglash imkonini beradi.

Aksiologik modusning nazariy asoslari. "Aksiologiya" qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot bo'lib, u ilk bor XIX asr oxirida nemis faylasuflari tomonidan shakllantirilgan. Lingvistikada esa aksiologiya til vositalari orqali qadriyatlarning ifodalanishini o'rganadi. Aksiologik modus esa subyektning voqelikka nisbatan baholovchi munosabatini ifodalovchi semantik-pragmatik birlikdir. U informativ, reflektiv (aks ettiruvchi), baholovchi va normativ funksiyalarni bajaradi.

Aksiologik modusning lisoniy ifodalanishi. Aksiologik modus tilda quyidagi vositalar orqali namoyon bo'ladi: Baholovchi so'zlar: *yaxshi, yomon, go'zal, jirkanch, yuksak, sust*. Modal birliklar: *kerak, mumkin, shart, noo'rin*. Emotiv birliklar: *afsuski, baxtiga, achinarlisi, hayratlanish*. Metafora va frazeologizmlar: *"yuragi tosh", "ochiq yuzli inson", "oq tanli hayot"*. Sintaktik usullar: baholovchi gaplar, emfatik uslublar, inversiya. Masalan: "Uning harakati haqiqiy qahramonlik edi". Bu jumlada baho va qadriyat subyektiv tarzda ifodalanagan.

Aksiologik modus va diskurs. Diskurs – bu tilning ijtimoiy kontekstdagi real qo'llanilishi. Aksiologik modus, ayniqsa, quyidagi diskurs turlarida muhim ahamiyatga ega: siyosiy diskurs: mafkuraviy qadriyatlarni ilgari suradi. OAV diskursi: ijtimoiy fikrni shakllantiradi. Adabiy diskurs: estetik va axloqiy qadriyatlar orqali boyitadi. Reklama diskursi: mahsulot va xizmatlarga ijobiy baho beradi. Shuningdek, har bir madaniyat o'z qadriyat tizimiga ega

bo'lgani uchun aksiologik ifodalar tarjimada yo'qolishi yoki noto'g'ri talqin qilinishi mumkin. Bu esa madaniyatlararo kommunikatsiyada ehtiyotkorlik bilan yondashishni talab qiladi.

O'zbek tilshunosligida aksiologik birliklarning o'rganilishi. O'zbek tilshunosligida baholash kategoriyasi, emotsional-ekspressiv vositalar va pragmatik birliklar doirasida aksiologik ma'nolar o'rganilgan. Til birliklari orqali ijobiy yoki salbiy baho ifodalash nutqning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Aksiologik munosabat quyidagi vositalar orqali ifodalanishi mumkin:

Leksik vositalar – yaxshi, yomon, a'lo, ajoyib, dahshatli kabi baholovchi so'zlar.

Morfologik vositalar – affikslar orqali baholash ma'nosining kuchayishi. Sintaktik vositalar – gap qurilishi va intonatsiya orqali baholash ifodalanishi. Pragmatik vositalar – nutq vaziyati va kontekst orqali yuzaga chiqadigan baholash.

Masalan, "naqadar go'zal manzara" yoki "juda yomon holat" kabi birikmalarda baholash aniq ifodalanadi.

Aksiologik modusning nutqdagi ifodalanish. Nutqda aksiologik modus turli til birliklari orqali yuzaga chiqadi. Baholash ma'nosi ko'pincha sifatlar, ravishlar va emotsional-ekspressiv so'zlar orqali ifodalanadi.

Masalan: 1. Bu kitob juda qiziqarli. 2. Bu fikr mutlaqo noto'g'ri.

Birinchi gapda ijobiy baho, ikkinchi gapda esa salbiy baho ifodalanagan. Demak, aksiologik modus nutq jarayonida so'zlovchining subyektiv qarashlarini aks ettiradi.

Aksiologik ma'nolar ba'zan kontekst orqali ham yuzaga chiqadi. Masalan, kinoya yoki ironiyada ham baholash yashirin tarzda ifodalanishi mumkin.

Xulosa. Aksiologik modus bu til orqali insonning atrof-muhitga nisbatan baholovchi, hissiy va normativ munosabatini ifodalovchi muhim semantik-pragmatik birlikdir. U tilshunoslik, diskurs tahlili, tarjimashunoslik va madaniyatlararo muloqotda chuqur o'rganilishi lozim bo'lgan dolzarb konsept hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimov, B. M. (1998). Til va tafakkur: lingvistik aksiologiya masalalari. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. Jakobson, R. (1960). Linguistics and Poetics. In T. Sebeok (Ed.), Style in Language (pp. 350-377). Cambridge, MA: MIT Press.
3. Leech, G. (1983). Principles of Pragmatics. – London: Longman.
4. Palmer, F. R. (1986). Mood and Modality. – Cambridge: Cambridge University Press.
5. Wierzbicka, A. (1999). Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals. – Cambridge: Cambridge University Press.
6. Anderson, S. R., & Keenan, E. L. (1985). Deixis. In T. Shopen (Ed.), Language Typology and Syntactic Description (Vol. 3, pp. 259-308). – Cambridge: Cambridge University Press.

Muxayyo JUMAYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Ingliz tili amaliy aspektlari kafedrasida tajyor- o'qituvchisi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

mukhayyomakhmudovna@gmail.com

LEKSIK KONNOTATSIYANING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASI SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada leksik konnotatsiya tushunchasi hamda uning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Til birliklarining nafaqat lug'aviy ma'nosi, balki ular bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha ma'no va madaniy tasavvurlar ham kommunikatsiya jarayonida muhim ahamiyat kasb etishi yoritiladi. Shuningdek, turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqotda konnotativ ma'nolarni to'g'ri anglash samarali kommunikatsiya uchun zarur omil ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: leksik konnotatsiya, madaniyatlararo muloqot, kommunikativ kompetensiya, semantika, madaniy kontekst, til birliklari, lingvokulturologiya.

Аннотация: в данной статье рассматривается понятие лексической коннотации и её роль в формировании компетенции межкультурного общения. Подчеркивается, что языковые единицы выражают не только свое словарное значение, но и дополнительные смысловые и культурные ассоциации, которые играют важную роль в процессе коммуникации. Также обосновывается, что правильное понимание коннотативных значений является важным фактором эффективного общения между представителями разных культур.

Ключевые слова: лексическая коннотация, межкультурная коммуникация, коммуникативная компетенция, семантика, культурный контекст, языковые единицы, лингвokulturologiya.

Annotation: this article examines the concept of lexical connotation and its role in the formation of intercultural communication competence. It emphasizes that language units express not only their lexical meaning but also additional semantic and cultural associations that play an important role in the communication process. The article also explains that the correct understanding of connotative meanings is an essential factor for effective communication between representatives of different cultures.

Key words: lexical connotation, intercultural communication, communicative competence, semantics, cultural context, language units, linguoculturology.

Kirish. Til insoniyat jamiyatining eng muhim aloqa vositalaridan biri bo'lib, u nafaqat axborot uzatish, balki madaniyatni saqlash va avlodlararo yetkazish vazifasini ham bajaradi. Har bir til o'zida shu xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlar va dunyoqarashini aks ettiradi. Shu sababli til birliklari ko'pincha faqat lug'aviy ma'noni emas, balki qo'shimcha emotsional, baholovchi yoki madaniy ma'nolarni ham ifodalaydi. Metodikada bunday qo'shimcha ma'no konnotatsiya deb ataladi.

Madaniyatlararo muloqot jarayonida turli millat va madaniyat vakillari o'zaro fikr almashadi. Bu jarayonda til birliklarining konnotativ ma'nolarini to'g'ri tushunish juda muhim hisoblanadi. Chunki bir til yoki madaniyatda ijobiy ma'noga ega bo'lgan so'z boshqa madaniyatda butunlay boshqa yoki hatto salbiy ma'noni anglatishi mumkin. Shu sababli leksik konnotatsiyani o'rganish madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy metodikada leksik konnotatsiya semantika va lingvokulturologiya yo'nalishlarida keng o'rganilmoqda. Konnotatsiya til birliklarining qo'shimcha ma'nolarini, ya'ni emotsional, baholovchi va uslubiy ranglarini ifodalaydi. Bu ma'nolar ko'pincha ma'lum bir xalqning madaniy tajribasi

va an'analari bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, ayrim ranglar, hayvonlar yoki ramziy obrazlar turli madaniyatlarda turlicha ma'nolarni anglatadi. Madaniyatlararo muloqot jarayonida konnotativ ma'nolarni tushunmaslik kommunikativ qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Agar suhbatdosh ishlatayotgan so'zning konnotativ ma'nosi noto'g'ri talqin qilinsa, muloqot samaradorligi pasayadi yoki noto'g'ri tushunish holatlari yuzaga keladi. Shu sababli xorijiy tilni o'rganish jarayonida faqat grammatik qoidalar va lug'aviy ma'nolarni emas, balki so'zlarning konnotativ xususiyatlarini ham o'rganish muhim hisoblanadi.

Lingvokulturologiya tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, til va madaniyat o'zaro uzviy bog'liq. Har bir til birliklari o'zida ma'lum madaniy tasavvurlarni mujassamlashtiradi. Masalan, xalq og'zaki ijodi, maqollar, iboralar va metaforalar orqali ma'lum bir madaniyatning qadriyatlarini namoyon bo'ladi. Bunday birliklarni to'g'ri anglash uchun nafaqat tilni, balki shu til egalarining madaniyatini ham bilish zarur. Bugungi globalashuv jarayonida turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqot tobora kengayib bormoqda. Xalqaro ta'lim, biznes, ilmiy hamkorlik va turizm sohalarida samarali kommunikatsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, madaniyatlararo kommunikativ

kompetensiyani shakllantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu kompetensiya nafaqat tilni bilishni, balki boshqa madaniyat vakillarining mentaliteti, qadriyatlari va kommunikativ xususiyatlarini tushunishni ham o'z ichiga oladi.

Leksik konnotatsiyani o'rganish madaniyatlararo kommunikatsiyada yuzaga keladigan tushunmovchiliklarning oldini olishga yordam beradi. So'zlarning emotsional va madaniy ranglarini anglagan holda muloqot qilish suhbatdoshni to'g'ri tushunish va o'z fikrini aniq ifodalash imkonini yaratadi. Natijada kommunikatsiya jarayoni samarali va mazmunli bo'ladi. Leksik konnotatsiya til birliklarining qo'shimcha semantik xususiyatlarini ifodalaydi va u ko'pincha emotsional, baholovchi hamda madaniy mazmun bilan bog'liq bo'ladi. Har bir xalqning tili uning tarixiy tajribasi, an'analari va qadriyatlari bilan chambarchas bog'langan. Shu sababli so'zlarning konnotativ ma'nosi ham ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan tasavvurlarni aks ettiradi. Madaniyatlararo muloqot jarayonida bu xususiyatlarni hisobga olish juda muhim hisoblanadi.

Metodika tadqiqotlarida konnotatsiya ko'pincha til birliklarining ijtimoiy va madaniy kontekst bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha ma'nosi sifatida talqin qilinadi. Bu ma'no ko'pincha nutq jarayonida yuzaga chiqadi va suhbatdoshning madaniy tajribasi orqali talqin qilinadi. Masalan, ayrim so'zlar muayyan madaniyatda ijobiy baholashni ifodalasa, boshqa madaniyatda u neytral yoki salbiy ma'noga ega bo'lishi mumkin. Bunday farqlar madaniyatlararo kommunikatsiyada noto'g'ri tushunish holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya shakllanishida til birliklarining konnotativ xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki muloqot jarayonida inson faqat grammatik jihatdan to'g'ri gapirish bilan cheklanmaydi, balki suhbatdoshning madaniy qarashlarini ham hisobga olishi zarur. Konnotativ ma'nolarni tushunish orqali inson boshqa madaniyat vakillari bilan muloqotda yanada ehtiyotkor va to'g'ri ifodalarni tanlashga harakat qiladi. Madaniyatlararo muloqot jarayonida til birliklarining konnotativ ma'nolari ko'pincha muloqotning mazmunini yanada chuqurroq ochib beradi. So'zlar orqali ifodalanadigan emotsional va baholovchi ma'nolar suhbatdoshning niyati, munosabati va fikrini aniqroq ifodalashga yordam beradi. Agar bu ma'nolar to'g'ri tushunilmasa, kommunikativ jarayonda tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Shu sababli konnotativ ma'nolarni anglash samarali kommunikatsiyaning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Lingvokulturologiya nuqtayi nazaridan qaraganda, til birliklarining konnotativ ma'nolari ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan dunyoqarashni aks ettiradi. Har bir xalqning tili uning mentaliteti, urf-odatlarini va qadriyatlari bilan uzviy bog'liq. Masalan, xalq og'zaki ijodi, maqollar, iboralar va frazeologik birliklar orqali xalqning hayotiy tajribasi va madaniy qarashlari namoyon bo'ladi. Bunday birliklar ko'pincha kuchli konnotativ ma'noga ega bo'lib, ularni to'g'ri talqin qilish uchun madaniy kontekstni bilish zarur.

Shuningdek, leksik konnotatsiya tilning obrazlilik xususiyatini ham kuchaytiradi. Badiiy adabiyot, publitsistika va og'zaki nutqda ko'plab so'zlar o'zining konnotativ ma'nosi orqali kuchli ta'sirchanlik kasb etadi. Bu esa nutqning ifodaliligini oshiradi va tinglovchi yoki o'quvchiga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli konnotativ ma'nolarni to'g'ri anglash nafaqat lingvistik, balki madaniy va kommunikativ jihatdan ham muhim hisoblanadi. Ta'lim jarayonida xorijiy tilni o'rganayotgan talabalar uchun ham konnotativ ma'nolarni o'rganish muhim vazifalardan biridir. Agar o'quvchi faqat so'zning lug'aviy ma'nosini bilsa, u muloqot jarayonida ba'zan noto'g'ri ifodalardan foydalanishi mumkin. Biroq konnotativ ma'nolarni ham o'rgangan holda tilni o'zlashtirish muloqot jarayonida yanada tabiiy va samarali nutqni shakllantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, konnotatsiya madaniy ramzlar va stereotiplar bilan ham bog'liq. Har bir madaniyatda muayyan obrazlar, ranglar yoki hayvonlar turli ramziy ma'nolarni ifodalaydi. Bunday ramziy ma'nolarni bilish boshqa madaniyat vakillari bilan muloqotda muhim rol o'ynaydi. Natijada muloqot jarayoni yanada samarali bo'ladi va turli madaniyat vakillari o'rtasida o'zaro tushunish darajasi oshadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, leksik konnotatsiya til birliklarining muhim semantik xususiyatlaridan biri bo'lib, u madaniyatlararo muloqot jarayonida muhim rol o'ynaydi. Konnotativ ma'nolarni to'g'ri anglash turli madaniyat vakillari o'rtasidagi muloqotni samarali tashkil etishga yordam beradi. Shu sababli xorijiy tilni o'rganish jarayonida til birliklarining konnotativ xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish, ularni madaniy kontekst bilan birga o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishini va samarali muloqotni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Kognitiv metodika. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2006. 198-bet.
2. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2013. 224-bet.
3. Maslova V. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001. 208-bet.
4. Karasik V. Yazyk i kulturnaya identichnost. – Moskva: Gnozis, 2002. 256-bet.
5. Ter-Minasova S. Yazyk i mejkulturnaya kommunikatsiya. – Moskva: Slovo, 2000. 264-bet.
6. Iskandarova Sh. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2018. 192-bet.
7. Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge University Press, 2010. 480-bet.

Mumtozbegim NEGMATOVA,

TDTU tayanch doktoranti

negmatovamumtozbegim@gmail.com

DIPLOMATIK DISKURS TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya: ushbu maqolada diplomatik diskurs tushunchasi, uning mohiyati, shakllanish jarayonlari hamda diplomatik diskursning lingvistika sohasida tadqiq etish muammolari haqida muhokama etiladi. Diplomatiya diskursining paydo bo'lishining falsafiy asoslari, diplomatiyaning insoniyat tarixida tutgan o'rni naqadar muhim ekanligi haqida dalillar keltirib o'tilgan bo'lib, diplomatik munosabatlarda so'z qudratining ahamiyati haqida ham izlanishlar olib borilgan. Tadqiqot bugungi kunga qadar ushbu sohada ilmiy izlanish olib borgan olimlarning fikrlari hamda ilmiy dalillari bilan boyitilgan.

Kalit so'zlar: diplomatiya, diskurs, hokimiyat, konferensiya, kommunikativ jarayon, siyosat, strukturalizm, xalqaro munosabatlar.

Annotation: this article discusses the concept of diplomatic discourse, its essence, the processes of formation, and the problems of studying diplomatic discourse in the field of linguistics. The philosophical foundations of the emergence of diplomatic discourse are presented, the importance of the role of diplomacy in the history of mankind is emphasized, and research is also conducted on the importance of the power of speech in diplomatic relations. The study is enriched with the opinions and scientific evidence of scientists who have conducted scientific research in this field to date.

Key words: diplomacy, discourse, power, conference, communicative process, politics, structuralism, international relations.

Аннотация: в данной статье рассматривается концепция дипломатического дискурса, его сущность, процессы формирования и проблемы изучения дипломатического дискурса в лингвистике. Представлены философские основы возникновения дипломатического дискурса, подчеркивается важность роли дипломатии в истории человечества, а также проведено исследование значимости силы речи в дипломатических отношениях. Исследование обогащено мнениями и научными данными ученых, проводивших научные исследования в этой области до настоящего времени.

Ключевые слова: дипломатия, дискурс, власть, конференция, коммуникативный процесс, политика, структурализм, международные отношения.

Bugungi kun globallashuv muhitida xalqaro munosabatlarning ahamiyati, dunyodagi davlatlarning bir-biri bilan o'zaro aloqalari, jahon hamjamiyatidagi nufuzli tashkilotlardagi munosabatlar, turli mintaqalarda bo'lib o'tayotgan ziddiyatli va keskin vaziyatlarning barchasi diplomatiya markazida turuvchi tushunchalar hisoblanadi. Hozirda hech bir inson diplomatiyaning ahamiyati, har bir mamlakat tinchligi va farovon hayoti uchun zarur ekanligini inkor eta olmaydi. Diplomatiya bu xalqaro munosabatlarda bir davlatning boshqa davlatlar bilan o'zaro manfaatli tashqi aloqalari, nizolarni tinch yo'l bilan hal etishi kabi tushunchalarni izohlaydi. Shunday ekan, bu sohani chuqur tadqiq etish barcha mamlakatlar uchun muhim masaladir. Shubhasiz, diplomatlarning quroli bu ularning har bir so'zidir. O'zbek xalq maqollari lug'atida keltiriluvchi "Sevdigan ham til, bezdirgan ham til" kabi misollar aynan diplomatlarning kasb faoliyati uchun muhim eslatmadir. Aynan ular, har bir so'zlari va har bir amallari uchun butun bir millat, mamlakat oldida javob beruvchi shaxslardir. Biz diplomatiya tilini diskurs doirasida o'rganamiz. Boshqa sohalar diskursi kabi diplomatik diskursning ham o'zining subyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, tarixi va yaqin kelajakda ro'y berishi mumkin bo'lgan ehtimoliy o'zgarishlari bo'yicha farazlari mavjud. Tarixsiz kelajak bo'lmaganidek, bu soha diskursining tarixini o'rganmay turib, biz uning buguni va kelajagi haqida tadqiqot olib borishimiz, xato amal bo'ladi, nazarimizda. Shunday ekan, ushbu maqolada diplomatik diskursning shakllanishi haqida nazariy izlanishlar borasida o'z fikrlarimizni ifoda etamiz.

Lingvistikada diplomatik nutqni o'rganishning ahamiyati nisbatan yangi yo'nalish bo'lib, bu asosan, diplomatik diskursning shakllanish nuqtasiga borib taqaladi. Ammo diplomatik

muloqotning ilk negizlarini biz qadimgi davlatchilik shakllarida ham ko'rishimiz mumkin. Yer yuzida ilk bora qabilalar, millatlar va elatlar shakllangan davrdan buyon ular orasida o'zaro diplomatik munosabatlar amalga oshirib kelinadi. Tabiiyki, diplomatik muloqot ham aynan ana shu davrlarda boshlangan. Biroq uni fanda o'rganish asoslarini biz yaqin-yaqindan bilamiz. Ilk diplomatik aloqalar qadimgi miflarga borib taqalishi haqidagi ehtimollar mavjud. Ammo, biz nazariya va aniq dalillarga tayangan holda diplomatik aloqalarning boshlanishini qadimgi yunon tarixchisi Fukididning qo'lyozmalaridan foydalanib aniqlaymiz. U o'z asarida ilk bora yunon diplomatik konferensiya shaklini tasvirlaydi. Konferensiya mavzusi esa Spartaliklar Afina shartnomalarini buzilgan yoki yo'qligini hamda urush ehtimoli borligini aniqlash bo'lgan. Shuningdek, uning qo'lyozmalarida diplomatik aloqalar tizimini namoyon etuvchi yana bir qator vaziyatlar ko'rsatilgan. [6.24] Bu esa bizga diplomatik aloqalar miloddan avvalgi V asrda boshlanganligini tasdiq etuvchi ma'lumotlar bera oladi. Keyinchalik davlatchilik shakllari taraqqiy etgani sayin samarali diplomatik aloqalarga ehtiyoj ortishi kuzatilgan. Bu esa diplomatiyaning har bir mamlakat rivojining asosi sifatida belgilanishini namoyon etgan. Bugungi kunga qadar hech bir davlat o'z tarixini, bugunini va kelajagini diplomatiyasiz tasavvur eta olmaydi. Shu o'rinda diplomatiya terminiga izoh beradigan bo'lsak, diplomatiya so'zi grekcha "diploma" hujjat, tavsiyanoma so'zidan olingan bo'lib, davlatning boshqa davlatlar bilan munosabatlarini ifodalashni yoki nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vaziyatini anglatadi. Diplomatiya sohasida izlanish olib borgan olim G.Berridjning fikriga ko'ra, diplomatiya mohiyatan siyosiy faoliyat turi bo'lib, katta kuchga ega bo'lgan va hokimiyatning keng qamrovli muhim elementi hisoblanadi.[1.1]

Haqiqatdan ham, diplomatiya ta'sir doirasi keng bo'lgan hamda har bir siyosiy hokimiyat uchun mavjud bo'lishi shart bo'lgan siyosiy jarayon deb ayta olamiz.

Diplomatiya har bir mamlakat uchun xalqaro munosabatlarda, boshqa davlatlar bilan muzokaralar olib borishda, nizolarni tinch yo'l bilan hal etishda muhim yo'nalish hisoblanadi. Shu sababdan ham diplomatiya bugungi kunda nafaqat yo'nalish sifatida ko'riladi, balki siyosatchi olimlar tomonidan chuqur tadqiq etiluvchi fan hamdir. Diplomatik munosabatlarni amalga oshirish uchun eng muhim omil shubhasiz, nutq birliklari hisoblanadi. Har bir diplomatik munosabat lisoniy vositalar orqali og'zaki yoki yozma ravishda amalga oshiriladi. Tilning qudrati o'laroq, jahondagi mamlakatlar o'zaro kelishuv asosida yashab kelishmoqda. Zero, barcha kishilarning diqqatini jalb qilish uchun til muhim vositadir. Faqatgina bugungi kunda jamiyatning bir butun kuchini his etmaydigan va jamiyat doirasida bo'lmagan kishilargina tilning qudratini inkor etishlari mumkin.[2.3] Shu sababdan ham, diplomatiyani lingvistika doirasida tadqiq etish, har ikki sohaning yangi imkoniyatlarini ochishga sabab bo'ladi. Diplomatik nutq birliklari lingvistikada diskurs tushunchasi doirasida keng o'rganiladi. Tilshunoslikda diplomatik diskurs shakllanishiga qadar, olimlar diskurs tushunchasi mohiyatini ochish uchun keng izlanishlar olib borganlar. Diskurs borasidagi qarashlarning nazariy asoslari Ferdinand de Sossyurning strukturalizm nazariyasiga borib taqaladi. Uning "til (langue) va nutq (parole)" doirasidagi izlanishlari zamirida diskurs tushunchasi shakllangan deya olamiz. Bunga sabab, keyinchalik tilshunos olimlarning diskurs doirasidagi izlanishlari aynan Sossyurning tilni "nutq (parole)" sifatida qarashlaridan ilhom olgan. Xususan, Z.Harris o'z maqolasida diskursni nutq (parole) doirasida tahlil qilgan va o'z tahlillarida Sossyurning metodologiyasidan foydalanib, matnlar ichidagi formal munosabatlarni ko'rib chiqqan. Uning xulosalariga ko'ra, diskurs tahlili matn tuzilishi yoki matnning turi hamda har bir elementning bu matnlar tuzilishdagi roli haqida ma'lumotlar beradi.[3.30] Keyinchalik mashhur tilshunos olim T.van Deyk diskursni zamonaviy bosqichga olib chiqqan. U diskursni faqatgina matn emas, balki ijtimoiy va kognitiv sathda o'rgangan. Uning "Discourse and Power" kitobi aynan diplomatiya sohasi diskursini o'rganish uchun juda manfaatli qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Uning fikricha, agarda diskurs ongni, ong esa harakatni boshqaradigan bo'lsa, diskursni nazorat qilish hokimiyat boshqaruvidagilar uchun nihoyatda nozik masala bo'lib xizmat qiladi.[4.10] Darhaqiqat, har bir inson o'z gapirgan gapi uchun javob berishi kerak bo'lgan bir pallada, butun bir hokimiyat nomidan nutq so'zlash, diplomatik korpus vakillari zimmasiga o'ta mas'uliyatli yuk ortadi. Ular har bir so'zlayotgan so'zini boshqalardan farqli ravishda yuz hissa ko'proq o'ylab gapirishga majburlirlar. Zero, birgina ortiqcha yoki noo'rin so'z juda katta ko'ngilsizliklarga olib kelishi mumkin.

Diplomatik nutq bir davlatning boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlarida foydalanadigan nutq ekan, uning kommunikativ xususiyatlari ham o'ziga xoslikni kasb etadi. Rus tilshunos olimi Terentyning aytishicha, diplomatik diskurs kommunikativ jarayonning muhim bir qismi hisoblanib, uning boshqa diskurs turlaridan farqli jihati ko'pqirraligidir. Biz bu xususiyatni diplomatik diskursning ko'p maqsad va vazifalarni amalga oshirishda qo'llanilishini oshkora va yashirin tarzda namoyon etilishi orqali sezishimiz mumkin.[5.8] Haqiqatdan ham, boshqa diskurs turlaridan farqli ravishda diplomatik diskurs nutqni amalga oshiruvchi shaxs zimmasiga o'ta mas'uliyatli vazifani yuklaydi. Diplomatik diskursning kommunikativ strategiya sathida rasmiylik, xushmuomalalik, bilvositalik, siyosiy neytrallik kabi tushunchalar yotadi. Bu tushunchalar borasida izlanishlar esa ushbu soha diskursining yanada chuqur tadqiq etilishiga zamin yaratadi.

Diplomatik diskurs doirasida muhim tadqiqotlar olib borgan olimlardan yana T.A.van Djik, R.Vodak, V.Israelyan, P.Chilton kabi tilshunoslik faniga ulkan hissa qo'shgan tadqiqotchilarni keltirib o'tishimiz mumkin. Ularning tadqiqotlari bevosita diskurs hamda hokimiyat, siyosat va diplomatiyaga qaratilgan. Shuni ta'kidlab o'tishni ham lozim bilamizki, bugungi kunda diplomatik diskurs lingvistikada pragmatika doirasida keng o'rganilmoqda. Uning asosiy tadqiqot yo'nalishlari diplomatik kommunikatsiya strategiyalari, xushmuomalalik, bilvositalik, siyosiy neytrallik, institutsionallik hamda tanqidiy diskurs tahlili hisoblanadi. Bu sohalar doirasida jahonda ko'plab olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. O'ylaymizki, bu ilmiy izlanishlar nafaqat diplomatiya va pragmatika yo'nalishlarida, balki lingvokulturologiya, siyosatshunoslik, psixologiya, falsafa hamda umumiy tilshunoslik fanlari uchun ham muhim yangiliklarga sabab bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, diplomatik nutq tushunchasining shakllanish ildizlari qadim tarixga borib taqaladi. Ya'ni qachonki diplomatiya paydo bo'lgan ekan, biz diplomatik nutq ham paydo bo'lgan deya olamiz. Bunga sabab esa, diplomatik aloqalarning xoh u yozma bo'lsin, xoh u og'zaki nutq bo'lsin lisoniy birliklar yordamida ifodalanishi ayni haqiqat ekanligidir. Ammo diplomatik diskurs tushunchasi nisbatan yangi tushuncha bo'lib, uni lingvistika doirasida tadqiq qilish tilshunoslik faniga diskurs terminining kirib kelishi bilan bog'liq hisoblanadi. Diplomatik diskursni tadqiq etish bizga xalqaro munosabatlarda ko'zlangan maqsadlarga erishish, muzokaralarda ustunlik va xavfsizlikni ta'minlash, madaniy va lingvistik tafovutlarni ochiqlash, professional karyera qurishda muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, uning shakllanish tarixini o'rganish ham bu sohaga qiziquvchi har bir shaxs uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Berridge G. Diplomacy. Theory and practice. – L, 2015. – Plgrave macmillan. P.1
- 2.Fairclough N. Language and Power. – NY, 1989. –Longman Inc. P.3.
- 3.Harris Z. Discourse analysis. –Language journal. 1952. P.30
- 4.Van Dijk T. Discourse and power. –NY, 988. Palgrave Macmillan. P.10
- 5.Терентий Л. Интенционная структура дипломатического дискурса. Диссертация на соискание учёной степени доктора филологических наук. –М., 2016. С.8
- 6.Никольсон Г. Дипломатия. – М., 1941. – Полиграфкнига. С.24

LUG'ATLAR BILAN ISHLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada bugungi kunda chet tillarini o'rganishda lug'atlar bilan ishlashning nazariy metodologik asoslari yoritilgan bo'lib, lug'atlar bilan ishlashning tarixiy asoslari rivojlanishi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: nazariya, lug'at, lug'atlar ustida ishlash, leksikologiya, semantika, til, lug'aviy birlik.

Аннотация: в данной статье рассматриваются теоретико-методологические основы работы со словарями при изучении иностранных языков на современном этапе, а также анализируется историческое развитие методов работы со лексикографическими источниками.

Ключевые слова: теория, словарь, работа со словарями, лексикология, семантика, язык, лексическая единица.

Annotation: this article highlights the theoretical and methodological foundations of working with dictionaries in language learning today and analyzes the historical development of dictionary use.

Key words: theory, dictionary, dictionary work, lexicology, semantics, language, lexical unit.

Til jamiyatda munosabat o'rnatuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Til orqali muloqotga kirishishda ya'ni uning kommunikativ funksiyasini bajarishda, nutqiy vaziyatga mos keladigan lug'aviy birliklarni bilish zarur hisoblanadi. Eshitib tushunish ko'nikmasi asosida bayon etilayotgan fikrning lug'aviy mazmunini egallash darajasiga bog'liq. Yozma nutq, u bo'lishidan qat'i nazar, produktiv (yozish) yoki perseptiv (o'qish) shaklida bo'lishi, lug'aviy materialni tanimagan holda amalga oshmaydi. Lug'aviy vositalar yordamida mazmun ifodalanadi, hayotiy holatlar tasvirlanadi, aniqlashtiriladi, tafsilotlar yoritiladi, hissiy jihatlar yetkaziladi, natijada, muloqot ishtirokchilari o'rtasida o'zaro tushunish yuzaga keladi.

Chet tilini o'rganishda eng murakkab jihatlardan biri bu o'rganuvchining kontekstga mos lug'aviy birliklar to'g'risida tasavvurga ega emasligi. Ya'ni so'zning ma'nosidagi noziklik va ularning aniq nutqiy vaziyatga mosligini tushunish yetishmaydi. So'zning ma'nosini anglash uchun tarjima lug'atlardan foydalanish bu muammoni to'liq hal eta olmaydi. Faqatgina sathiy tushuncha beradi. Muayyan so'zga tegishli bo'lgan ma'nolar va ularning ona tilidagi eng yaqin ekvivalentlarni sanab o'tadi. Faqatgina shu asosda to'g'ri so'zni tanlash qiyin bo'lib, bu so'zning tabiiy va mos qo'llanilishini ta'minlab beradi. Shu jihatdan til o'rganishda lug'atlar bilan ishlash dolzarb bo'lib, lug'atlar bilan ishlash sohasida ko'p sonli tadqiqot ishlari olib borilgan, ammo tilshunoslikda hali ham lug'atlar bilan ishlashning universal va aniq usullari ishlab chiqilmagan.

Lug'at – bu so'zlar va ularning ma'nolaru jamlangan, tartiblangan holdagi ilmiy manba yoki qo'llanma bo'lib, leksik birliklar, so'zning ma'nosi, talaffuzi va imlosini izohlaydi. So'z – tilning eng muhim nominativ birligi bo'lib, fonetik, leksik-semantik va grammatik jihatdan har tomonlama tadqiq etiladi. Bizning tadqiqotimizda aynan so'zning leksik-semantik qiymati va mazkur mazmunni

o'rganadigan leksikologiya hamda uning amaliy ko'rinishi bo'lgan leksikografiya asosiy e'tibor markaziga olinadi. Leksikologiya (yunoncha “lexicon” – lug'at va “grapho” – yozaman) tilshunoslikning lug'at tuzish, lug'at materialini tizimlashtirish va tahlil qilish bilan shug'ullanuvchi bo'limi hisoblanadi¹.

Lug'atlar va ularning xususiyatlarini o'rganishga oid asosiy masalalar leksikografiya doirasida ko'rib chiqiladi. Leksikografiya – lug'atlar tuzish masalalari bilan shug'ullanuvchi ilmiy sohaddir. Leksikografiyada lug'atlarning turlarini ajratishga imkon beruvchi mezonlar mavjud, biroq lug'atlarning yagona va umumqabul qilingan klassifikatsiyasi mavjud emas. Ushbu mezonlarga quyidagilar kiradi:

- tilga oid jihatlar;
- semiotik xususiyatlar (janr);
- lug'atning rasmiy ko'rsatkichlari (so'zlik, lug'aviy maqola va boshqalar);

- lug'atning pragmatik xususiyatlari (maqsadi, vazifasi).

Lug'atlar shuningdek ikki tilli (ko'p tilli) va bir tilli turlarga ajratiladi. Ikki tilli lug'atlar chet tilini o'rganish jarayonida, matnlarni bir tildan ikkinchisiga tarjima qilishda qo'llanadi. Bir tilli lug'atlar esa o'z yo'nalishiga ko'ra sinonimlar lug'ati, antonimlar lug'ati, orfoepik lug'atlar, orfografik lug'atlar, etimologik lug'atlar va boshqa turlarga bo'linadi. Rus tilshunos olimlaridan L.V. Shcherba lug'atlarni quyidagi turlarga ajratgan:

- akademik lug'at;
- ensiklopedik lug'at;
- tarjima lug'atlari;
- idilogik lug'atlar;
- izohli lug'at;
- tarixiy lug'at.

¹ Балыхина Т.М. О системности русской лексики и о системе в обучение лексике. // Традиции и новости профессиональной деятельности преподавателя русского языка сборник статей. –М.: РУДН, 2002. –С.69.

Ushbu lug'atlar voqealar, geografik xususiyatlar va muhim shaxslarning biografik ma'lumotlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, ko'plab lingvistik yoki umumiy lug'atlarda uchramaydigan elementlar ham mavjud. Bunga funksional so'zlar, fe'l shakllari va boshqa lingvistik birliklar kiradi. Ensiklopedik lug'at ensiklopediya va lug'atning kombinatsiyasidan tashkil topgan bo'lib, odatda ensiklopediyaga xos elementlarni ham o'z ichiga oladi. Ma'lumot hajmi va uni taqdim etish uslubi jihatidan ham lug'at va ensiklopediya xususiyatlari birlashtirilgan. Lingvistik lug'at faqat leksik boylik bilan shug'ullanadi, ya'ni so'zlar va nutqiy material bilan ishlaydi. Uni shartli ravishda "so'zlar kitobi" deb atash mumkin². Lug'atlarning asosiy vazifasi – so'z ma'nosini tushuntirishdir. Lug'at izohlariga bir necha talablar qo'yiladi:

Chet tilini o'rganish jarayonida lug'atlar bilan ishlash o'quvchining so'z boyligini kengaytirish, kontekstual ma'noni anglash, nutqiy malakalarni rivojlantirishning eng muhim vositalaridan biridir. Shu sababli lug'at tuzish va undan foydalanishning nazariy asoslari alohida ilmiy yo'nalish sifatida qaraladi. Avvalo, lug'atdagi izohlar sodda, tushunarli bo'lishi, umumiy qo'llaniladigan leksika asosida tuzilishi zarur. So'zning mazmunini kontekstda to'g'ri anglash uchun uning bir nechta qo'llanish misollari berilishi til o'rganayotgan shaxsga katta yordam beradi. Lingvistik lug'atning turiga qarab, fonetik, grammatik, etimologik yoki madaniy izohlar kabi qo'shimcha ma'lumotlar ham kiritilishi mumkin. Har bir lug'at tilning leksik tizimi sifatida shakllanadi va ushbu tizimning asosiy belgisi – yaxlitlik, tabiiy rivojlanish, tarixiy shakllanish va doimiy boyish jarayonidir.

Lug'atchilik Sharq va Markaziy Osiyo ilmiy an'alarida qadimdan muhim o'rin tutib kelgan. Mahmud Koshg'ariy XI asrdagi "Devonu lug'otit turk" asari orqali turkiy so'z boyligini tartibga solib, izohlash an'anasini boshlab bergan bo'lsa, keyingi asrlarda Mahmud Zamaxshariy, Tole Imon Hiraviy, Muhammad Yoqub Chingiy, Muhammad Rizo Xoksor, Mirzo Mahdiyxon va boshqa ko'plab allomalar turkiy leksikografiya rivojiga asos bo'lgan asarlar yaratdilar. Bu lug'atlar tilning semantik, morfologik, uslubiy imkoniyatlarini o'rganishda nafaqat tarixiy manba, balki

zamonaviy tilshunoslik uchun ham qimmatli ilmiy material vazifasini bajaradi.

Mustaqillikdan so'ng o'zbek leksikografiyasi bo'yicha tadqiqotlarda jadid adabiyoti vakillarining tilga oid qarashlari, ularning asarlarida qo'llangan leksik birliklar va yangi o'zbek adabiy tilining shakllanishiga qo'shgan hissasi alohida ilmiy jihatdan o'rganila boshlandi. Shu jarayonda jadidlarning lug'atchilik faoliyati ham alohida e'tiborga sazovor bo'ldi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jadid adiblarining badiiy til xususiyatlari, so'z tanlovi, tasviriy vositalardan foydalanishida ularning leksikografik qarashlari bilan uzviy bog'liqlik mavjud.

Chet tilini o'rganuvchilar uchun ushbu lug'atchilik tajribalarining ahamiyati shundaki, lug'atlar yordamida tilni tizimli, qiyosiy, kontekstual va tarixiy jihatdan o'rganish imkoniyati yaratiladi. Tilning lug'aviy tarkibini to'g'ri anglash, so'zlarning ko'p ma'noliligini farqlash, kontekstdagi qo'llanilishini tushunish chet tilini samarali o'zlashtirishning asosiy sharti hisoblanadi. Demak, lug'atlar bilan ishlashning nazariy asoslari o'tmish leksikografik tajribasi, lug'at tuzish tamoyillari va til tizimining murakkabligini hisobga olgan holda shakllanadi va til o'rganuvchilar uchun mustahkam ilmiy-metodik baza yaratadi.

Chet tilini o'rganish jarayonida lug'atlar bilan ishlash nafaqat so'z boyligini oshirish, balki til tizimini chuqur anglash, kontekstual ma'no farqlarini idrok etish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Lug'atlar til tizimi taraqqiyotining har bir bosqichida, ayniqsa oraliq davrlarda yuzaga kelgan lingvistik jarayonlarni ilmiy asosda qayd etuvchi vosita sifatida shakllangan. Shuning uchun badiiy adabiyot namunalaridagi til o'zgarishlari singari, leksikografiya sohasida yaratilgan lug'atlar ham tarixiy o'zgarishlar va yangilanishlar o'rtasida ko'priq vazifasini bajargan.

Xulosa sifatida aytganda, chet tilini o'rganishda lug'atlar bilan ishlash nafaqat so'z boyligini oshirish va tarjima qilish vositasi, balki tilning nazariy, semantik va madaniy jihatlarini chuqurroq anglashga yordam beruvchi muhim ilmiy va pedagogik vositadir. Lug'atchilik tamoyillari til o'rganuvchining nutqiy va yozma ko'nikmalarini tizimli ravishda shakllantirishga xizmat qiladi va tilni mustahkam egallashning nazariy asosini yaratadi.

2 Дубичинский В.В. Лексикография русского языка : учеб. пособие. – М.: Флинта, 2009. – С. 89

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Балыхина Т.М. О системности русской лексики и о системе в обучение лексике. // Традиции и новации профессиональной деятельности преподавателя русского языка сборник статей. –М.: РУДН, 2002. –С.69.
2. Дубичинский В.В. Лексикография русского языка : учеб. пособие. – М.: Флинта, 2009. – С. 89
3. Гофурова С. Салоҳиддин Тошқандий ва унинг "Луғоти салос" асари // ўзбек тили ва адабиёти, 2009. 2-сон. –Б. 86.
4. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти (маърузалар матни) Бердимуродова М.Р. Термиз 2002-йил. –Б. 68.

XORIJIY TIL TA'LIMIDA LOYIHA TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA QO'LLANISHI: MUVAFFAQIYATLI VA MUAMMOLI TAJRIBALAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitish metodikasida loyiha metodining o'rni va ahamiyati xorijiy tajriba asosida tahlil qilinadi. Ingliz va nemis tillarini o'qitishga mo'ljallangan o'quv qo'llanmalari hamda metodik ishlanmalardagi loyihaviy topshiriqlar misolida loyiha metodining mazmuni, talqinlari va amaliy qo'llanilishidagi farqlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: loyiha texnologiyasi, xorijiy tilni o'qitish, loyihaviy topshiriqlar, kommunikativ kompetensiya, xorijiy tajriba, o'zbek tilini chet til sifatida o'qitish.

Аннотация: в данной статье на основе зарубежного опыта анализируется роль и значение проектного метода в методике преподавания иностранных языков. На примере проектных заданий в учебных пособиях и методических разработках по английскому и немецкому языкам раскрываются содержание, интерпретации и различия в практическом применении метода проектов.

Ключевые слова: проектная технология, обучение иностранному языку, проектные задания, коммуникативная компетенция, зарубежный опыт, преподавание узбекского языка как иностранного.

Annotation: this article analyzes the role and significance of the project method in foreign language teaching methodology based on international experience. Using examples of project-based tasks from teaching materials and methodological resources for English and German language instruction, the study examines different interpretations, content, and practical applications of the project method.

Key words: project method, foreign language teaching, project-based tasks, communicative competence, international experience, teaching Uzbek as a foreign language.

Xorijiy tillarni o'qitish metodikasida chet el tajribasida loyiha metodi O'zbekistonga nisbatan ancha avval ommalashgan. Hozirgi kunda to'liq loyihalarga bag'ishlangan ko'plab o'quv qo'llanmalarini topish mumkin (masalan: *Project work*, *Imaginative projects*, *The project work*, *Tout va bien* va boshqalar). Shu sababli biz xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha chet el tajribasini tahlil qilib, xorijiy metodistlar tomonidan yaratilgan eng yaxshi usullarni milliy pedagogikamizga tatbiq etishni zarur deb bildik.

Biroq xorijiy tillarni (eng avvalo, ingliz tilini) loyihaviy o'qitish masalasi bir qarashda ko'ringanidek aniq emas. Birinchidan, ushbu tushunchaning turlicha talqinlari hanzugacha juda ko'p bo'lib, bu haqda tadqiqotimizda batafsil to'xtalamiz. Buni E.S. Polat ham ta'kidlaydi: "...shunchalik keng ommalashgan va uzoq tarixga ega bo'lishiga qaramay, uning talqinida, qo'llanishida hanzugacha ko'plab noaniqliklar va qarama-qarshiliklar mavjud". Ikkinchidan, bu holat "loyiha" tushunchasining o'zi (faqat o'qitish metodikasidagina emas) mashhurliigi hamda xorijiy tilni samarali o'qitishsiz tasavvur qilib bo'lmaydigan odatiy topshiriqlarni yanada innovatsion ko'rinishda taqdim etishga intilish bilan bog'liq.

Loyiha topshirig'i natijasi sifatida loyiha turli shakllarga ega bo'lishi mumkinligi sababli, metodika va darslik mualliflari bundan ko'pincha foydalanadilar. Shu bois ko'plab loyihaviy qo'llanmalar o'z ichiga turli tipdagi topshiriqlarni oladi va ularning barchasini ham loyihaviy topshiriqlar qatoriga kiritib bo'lmaydi. B. Alan va F.L. Stoller o'z maqolalarida ta'kidlaganidek, ayrim pedagoglar kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va talabalarning bir-biri bilan yaqindan tanishishiga qaratilgan asosiy kommunikativ topshiriqlarni loyihaviy deb ataydilar. Bunday topshiriqlar faqat guruhlarda bajarilgani uchungina loyihaviy

sifatida talqin qilinadi. Bu yondashuvda o'qituvchi tomonidan talabalar ko'pincha do'stlari bilan bir guruhga birlashib oladilar va loyiha ustida ishlash orqali ta'lim samaradorligini oshirish o'rniga, bir-biri bilan muloqot qilishga berilib ketish natijasida samaradorlik pasayadi. Shuningdek, Alan va Stoller ko'plab xorijiy til darslarida o'qituvchilar loyiha metodining barcha imkoniyatlaridan foydalanmay, uni faqat ko'ngilochar vosita yoki sinfdagi odatiy, muntazam ishlardan qisqa muddatli dam olish sifatida qo'llashlarini ham qayd etadilar.

Biroq ingliz tilini xorijiy til sifatida o'rganish uchun mo'ljallangan xorijiy o'quv qo'llanmalarida o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish darslarida ham qo'llash mumkin bo'lgan muvaffaqiyatli loyiha namunalari anchagina. Bizning fikrimizcha, ingliz tilidagi loyihaviy darsliklarning ajralib turadigan jihatlaridan biri talabalarni xorijiy tilni o'rganishning dastlabki mashg'ulotlaridanoq loyihaviy faoliyatga jalb etishidir. Boshlang'ich darajadagi, ingliz tilida bir nechta so'z va konstruksiyalarni o'zlashtirgan talabalar ham allaqachon loyihaviy ishlarda ishtirok eta oladilar. Shu tariqa, eng birinchi darslardanoq ularning xorijiy tilni o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi oshadi, chunki ular o'z mehnatlarining aniq natijasini ko'radilar.

Bunday loyihaga misol sifatida "Project 1" o'quv qo'llanmasidagi birinchi loyiha – "Tanishuv" (*Introduction*)ni keltirish mumkin. Ushbu loyiha talabalarning ingliz tilini endigina o'rganishni boshlaganini nazarda tutadi. Birinchi darsda (bu yerda dars deganda darslikning mavzular asosida tashkil etilgan bo'limi tushuniladi) yangi leksika sifatida salomlashuvlar, 0 dan 100 gacha bo'lgan sonlar, sinfdagi ishlash jarayonida qo'llaniladigan so'zlar beriladi. Shuningdek, birinchi darsda sotsiomadaniy ma'lumotlar ham mavjud bo'lib, ular ingliz tilidagi murojaat shakllari, ismlar, familiyalar va laqablarni o'z ichiga oladi.

Dastlabki tayyorgarlik ishlari leksikani taqdim etish va mustahkamlash, talaffuz ustida ishlash, dialoglar tuzish, kichik o'yin topshiriqlari (masalan, talabalar tomonidan "tinglang", "ruchkani oling", "qarang", "darslikni yoping" kabi ko'rsatmalarni bajarish, ushbu buyruqlarni imo-ishoralar bilan namoyish etish), shuningdek grammatikani – ko'plik shakli, noaniq artikl, buyruq mayli, egalik olmoshlari va boshqalarni mashq qilishni o'z ichiga oladi.

Yuqorida sanab o'tilgan materiallarni o'zlashtirish natijasi sifatida "Men haqimda" loyihasi yaratiladi. Loyiha maqsadi birinchi dars leksikasi va grammatikasini mustahkamlash, shuningdek, talabalar tomonidan o'z o'qishlarining dastlabki natijalarini qayd etishdan iborat bo'lib, bu natijalar keyinchalik o'z-o'zini tahlil qilish (self-refleksiya) jarayonida foydalanilishi mumkin.

Talabalar o'zlari haqidagi kollaj yoki skrap-bukni tasvirlar yordamida yaratadilar. Bu rasmlar yoki fotosuratlar bo'lishi mumkin va ular albatta yozuvlar bilan izohlanadi (shu tariqa o'quvchilar nafaqat allaqachon bilgan leksikani mustahkamlaydilar, balki yangi so'zlarni ham o'rganadilar). Kollaj, plakat yoki skrap-bukdagi tasvirlarni joylashtirish talabalarga o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish imkonini beradi. Loyiha yakunlangach, barcha ishlar sinfda namoyish etiladi (o'qituvchi avval yozma xatolarni tekshirib chiqadi).

An'anaviy xorijiy til darsliklaridan farqli o'laroq, "Project 1" darsligi e'tiborni aynan xorijiy tilda mahsulot (ya'ni loyiha) yaratishga qaratadi. Shu sababli mashg'ulotda ingliz tilining birinchi darsiga xos bo'lgan odatiy leksikagina emas, balki qo'shimcha til birliklari ham kiritiladi. Darslik mualliflari qisman "oldinga o'tib", o'quvchilarga birinchi darsning o'zidayoq loyiha yaratish imkonini beradilar va shu tariqa ularga (eng avvalo, o'zlari uchun) birinchi mashg'ulotdan keyin ham aniq o'quv natijalarini namoyish etish imkoniyatini yaratadilar.

Ingliz tili bo'yicha loyihaviy qo'llanmalarining yana bir o'ziga xos jihati – loyihaviy ishlarining asosan auditoriya sharoitida bajarishga yo'naltirilganidir. Loyihalarga bag'ishlangan ko'pgina o'quv qo'llanmalarida o'quvchilarga (yoki o'qituvchiga) uyda kichik tayyorgarlik ko'rish, so'ngra esa loyihani sinfda bir yoki ikki dars davomida bajarish taklif etiladi. Bunga misol sifatida "Imaginative projects" ("Ijodiy loyihalar") darsligidagi "Orol xaritasi" (*The Island poster*) loyihasini keltirish mumkin. O'quvchilarning tilni bilish darajasi – boshlang'ichdan o'rta (threshold) darajagacha, loyiha bajarilishi 60-90 daqiqa vaqtini oladi.

1. Avvalo, "Geografiya" mavzusi bo'yicha ilgari o'rganilgan leksika takrorlanadi, shuningdek doskaga relyef turlari bilan bog'liq so'zlar yoziladi (cho'l, tog'lar, o'rmon, shahar va hokazo).

2. So'ng talabalar uch kishidan iborat guruhlariga bo'linadilar va orol konturlari tasvirlangan rasm nusxasini oladilar.

3. Talabalar rasmda berilgan yoki o'zlari tanlagan belgilar yordamida orolning geografik xaritasini mustaqil ravishda chizadilar (agar yangi belgilar tanlansa, ularni belgilar ro'yxatiga qo'shish lozim).

4. Keyin har bir guruhning orol rasmi A3 formatdagi qog'ozning markaziga joylashtiriladi.

5. Guruh xaritada beshta "alohida" joyni tanlaydi (masalan, xarobalar yoki tog') va har bir joy haqida alohida qog'ozchada qisqa izoh yozadi.

6. Izohlar orol rasmiga birlashtiriladi, ma'lumot va joylar o'qlar yordamida bog'lanadi.

7. So'nggi bosqich – bajarilgan ishni illyustratsiyalash. Talabalar jurnallardan (o'zlari yoki o'qituvchi olib kelgan) rasmlarni tanlab, ularni izohlar ostiga joylashtiradilar.

Xorijiy til o'qituvchilari uchun metodik tavsiyalarida ingliz tili bo'yicha ko'plab o'quv qo'llanmalar muallifi **Lindsy Klenfield** (Lindsay Clandfield) ingliz tilini o'qitishda shunday loyihalar variantlarini taklif etadiki, ularni o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qituvchi pedagoglar ham moslashtirib qo'llashlari mumkin.

"Ma'lumotlar ovi". Ushbu loyiha talabalar tomonidan juftliklarda bajariladi. Loyihaning maqsadi – talabalar xorijiy tilni o'rganayotgan shahar haqida ayrim savollarga javob topishdan iborat (bu holatda gap Kembrij shahri haqida bormoqda). "Ov" ikki bosqichga bo'linadi: birinchi bosqich – tarixiy va madaniy ma'lumotlarni yig'ish (masalan, Qirollik kolleji xori nimasi bilan mashhur va u qachon chiqish qiladi), ikkinchi bosqich esa Kembrijdagi kundalik hayotga oid xususiyatlar haqida ma'lumot to'plashdan iborat (telefon budkasidan uyga qo'ng'iroq qilish qancha turadi, eng yaqin dorixonalar qayerda joylashgan va hokazo).

Loyihani bajarish uchun talabalarga savollar ro'yxati hamda ma'lumotni qayerdan topish mumkinligi haqida bir nechta ko'rsatmalar berilishi lozim.

Ta'kidlash joizki, ushbu loyihaviy topshiriq til muhitiga tushib qolgan talabalar bilan ishlash uchun juda mos keladi, chunki u sotsiomadaniy kompetensiyani rivojlantirish bilan bir qatorda, kundalik hayot uchun zarur bo'lgan muhim ma'lumotlarni ham bilib olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alan, B. Maximizing the benefits of project work in foreign language classrooms / B.Alan, F.L.Stoller. // English Teaching Forum. – 2005. – Volume 43. – Number 4. – Pp. 10-21.
2. Marheinecke, K. Hallo Nachbar! Neu. Grundkurs Deutsch fur Erwachsene. Band 1 / K.Marheinecke, H.Schmitz, V.Seiffert. – Jaroslavl: Polygraphisches Kombinat, 2005. – 209-b.
3. Wicks, M. Imaginative projects. A resource book of project work for young learners. – Cambridge University Press, 2000. – 128-b.
4. Полат, Е.С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования: Учебное пособие / Е.С.Полат, М.Ю.Бухаркина. – М.: Академия, 2007. – 368-b.
5. Clanfield URL: <http://www.onestopenglish.com/section.asp?docid=155068>

Dilnoza TURG'UNBOYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat

O'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-pochta: dilnozaturqunboeva97@gmail.com

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SONLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi sonlarning lingvokulturologik xususiyatlari qiyosiy aspektda tadqiq etiladi. Tadqiqotda sonlar faqat grammatik va leksik miqdor ko'rsatkichlari sifatida emas, balki muayyan xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlar tizimi, diniy qarashlari, mifologik tasavvurlari hamda paremiologik tafakkurini aks ettiruvchi madaniy-semantik kodlar sifatida talqin qilinadi. Tahlil materiali sifatida o'zbek va ingliz tillaridagi maqollar, matallar, frazeologik birliklar, son komponentli turg'un iboralar va ayrim folklor formulalari tanlandi. Tadqiqot natijasida har ikki tilda ayrim sonlarning universal ramziy-semantik yuklama kasb etishi bilan birga, ularning milliy-madaniy interpretatsiyasida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: son, lingvokulturologiya, paremiologiya, frazeologiya, ramziylik, madaniy kod, o'zbek tili, ingliz tili, qiyosiy tahlil, milliy mentalitet.

Аннотация: в данной статье исследуются лингвокультурологические особенности числительных в узбекском и английском языках в сопоставительном аспекте. Числительные рассматриваются не только как грамматические и лексические средства выражения количества, но и как культурно-семантические коды, отражающие историческую память народа, систему ценностей, религиозные представления, мифологические взгляды и паремиологическое мышление. В качестве материала исследования были отобраны пословицы, поговорки, фразеологические единицы, устойчивые выражения с числовым компонентом и отдельные фольклорные формулы узбекского и английского языков. В результате анализа установлено, что при наличии универсальной символическо-семантической нагрузки некоторых чисел их национально-культурная интерпретация существенно различается.

Ключевые слова: числительное, лингвокультурология, паремиология, фразеология, символика, культурный код, узбекский язык, английский язык, сопоставительный анализ, национальный менталитет.

Annotation: this article investigates the linguocultural features of numerals in Uzbek and English from a comparative perspective. Numerals are treated not only as grammatical and lexical means of expressing quantity, but also as cultural and semantic codes reflecting the historical memory of a people, their value system, religious beliefs, mythological views, and paremiological thinking. The material of the study includes Uzbek and English proverbs, sayings, phraseological units, fixed expressions with numeral components, and certain folkloric formulas. The analysis reveals that although some numerals possess universal symbolic and semantic functions, their national and cultural interpretations differ considerably.

Key words: numeral, linguoculturology, paremiology, phraseology, symbolism, cultural code, Uzbek, English, comparative analysis, national mentality.

Kirish. Til va madaniyatning o'zaro aloqadorligi zamonaviy tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatning tarixiy xotirasi, ma'naviy tajribasi, qadriyatlar tizimi va milliy dunyoqarashini saqlovchi hamda uzatuvchi murakkab belgi tizimidir [4]. Shu jihatdan til birliklarining lingvokulturologik tahlili muayyan xalqning madaniy modeli, tafakkur xususiyatlari va kollektiv ongida mustahkamlangan tushunchalarni yoritishga imkon beradi [4; 5]. Sonlar turkumi ham ana shunday ko'p qatlamli birliklardan biridir. An'anaviy grammatika doirasida sonlar, asosan, miqdor,

tartib, jamlik yoki taxminiy sanash ma'nolarini ifodalovchi birliklar sifatida tavsiflangan. Biroq amaliy nutq, ayniqsa paremiologiya, frazeologiya, folklor va badiiy diskurs materiallari shuni ko'rsatadiki, sonlar ko'plab hollarda o'zining bevosita miqdoriy ma'nosidan chekinib, ramziy, baholovchi, emotsional-ekspressiv va madaniy mazmun kasb etadi [5; 6]. Demak, sonlarni faqat grammatik yoki leksik kategoriya doirasida o'rganish ularning semantik salohiyatini to'liq ochib bera olmaydi.

Maqolaning dolzarbligi shundaki, sonlarning lingvokulturologik tahlili o'zbek va ingliz tillarining

qiyosiy-semantik tabiatini chuqurroq tushunishga, milliy va universal mazmun qatlamlarini ajratishga xizmat qiladi. Ayniqsa bugungi kunda qiyosiy tilshunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va kognitiv semantika rivojlanayotgan bir sharoitda sonlar kabi ko'p qatlamli birliklarning o'rganilishi ilmiy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda qiyosiy-tavsifiy, semantik, lingvokulturologik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Material sifatida o'zbek maqollari va ularning izohli lug'atlari [1; 2; 3], shuningdek sonlar ramziyligi va ingliz-o'zbek qiyosiy paremiologiyasiga oid ilmiy manbalar [4; 5; 6; 7; 8] asos qilib olindi.

Asosiy qism. Lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi murakkab munosabatni o'rganuvchi yo'nalish sifatida til birliklarining ortida yotgan milliy-madaniy tajribani ochib berishga xizmat qiladi [4].

“Bir” (one) sonining semantik va lingvokulturologik xususiyatlari.

O'zbek tilida bir soni faqat son-miqdor kategoriyasiga mansub birlik bo'lib qolmay, keng ko'lamli semantik va madaniy funksiyalarni bajaradi [1; 2; 3]. U birlik, yaxlitlik, boshlanish, muqarrarlik, yagonalik, ustuvorlik va ba'zan kuchaytirish ma'nolarini ifodalaydi. “Bir boshga bir o'lim”, “Bir yigitga qirq hunar oz”, “Bir kunlik dunyo”, “Bir yoqadan bosh chiqarib” kabi birliklarda bir soni miqdordan ko'ra umumlashgan hayotiy haqiqatni ifodalash vositasiga aylanadi. O'zbek lingvomadaniy tizimida bir sonining muhim jihatlaridan biri uning birlashtiruvchi semantikasi. “Bir yoqadan bosh chiqarib” iborasida bir soni jamoaviylik va hamjihatlikni anglatadi. Bu holat o'zbek xalqining kollektiv hayot tarzi, jamoa mehnati va o'zaro tayanch g'oyasi bilan bog'liq [2; 3]. Shu bilan birga, “Bir boshga bir o'lim” maqolida bir soni taqdirning muqarrarligini kuchaytiruvchi mantiqiy markaz bo'lib keladi.

Ingliz tilida one soni ham juda faol lingvomadaniy birlikdir. Biroq uning semantik yo'nalishida individualizm, shaxsiy tajriba va subyektiv baholash unsurlari kuchliroq seziladi [4; 7]. “One man's meat is another man's poison” maqolida bir shaxs uchun foydali bo'lgan narsa boshqasi uchun zararli bo'lishi mumkinligi ifodalanadi. Bu yerda one soni individual idrokning markazlashuvi bilan bog'liq [4]. “Two heads are better than one” iborasida esa one yolg'izlik yoki yakka fikrga qarama-qarshi qo'yilgan holda jamoaviy maslahatning ustunligi ko'rsatiladi [7].

One(bir) soni ingliz tilida ko'pincha subyekt markazli ma'no hosil qiladi. Bu xususiyat ingliz madaniyatida shaxs, uning tanlovi va individual tajribasiga berilgan e'tibor bilan izohlanadi [4]. O'zbek tilida esa bir soni

Annotatsiya: mazkur maqolada nofilologik ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun ingliz tilini o'qitish jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirishda gemifikatsiya metodidan foydalanish masalasi tahlil qilinadi. Zamonaviy oliy ta'lim tizimida xorijiy tilni o'rganish faqat grammatik va leksik bilimlarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki boshqa madaniyatlarning qadriyatlarini, ijtimoiy normalari va muloqot xususiyatlarini tushunishni ham o'z ichiga oladi. O'yin elementlarini o'quv jarayoniga integratsiya qilish orqali til o'rganish jarayonida madaniy bilimlarni rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.

Kalit so'zlar: *gemifikatsiya, ijtimoiy-madaniy kompetensiya, ingliz tilini o'qitish, nofilologik talabalar, kommunikativ kompetensiya, innovatsion metodlar, madaniyatlararo muloqot.*

Introduction

In the era of globalization and digital transformation, communication between representatives of different cultures has become an essential part of professional and social life. Modern specialists must be able not only to speak a foreign language but also to understand the cultural context in which communication occurs. For this reason, the development of sociocultural competence has become an important goal of foreign language education. Sociocultural competence involves the ability to understand cultural norms, traditions, values, and communication patterns of different societies. It allows individuals to interact effectively with people from diverse cultural backgrounds and avoid misunderstandings in intercultural communication. For students of non-philological specialties, such as agriculture, engineering, economics, or technology, learning English often focuses on professional vocabulary and technical communication. However, language learning should also include cultural aspects that help students understand the social context of communication. Traditional teaching methods may not always provide sufficient opportunities for developing

sociocultural competence. Therefore, educators are increasingly exploring innovative teaching strategies that enhance student engagement and active participation. One such approach is gamification, which involves the use of game elements in educational activities. Gamification has gained significant popularity in modern pedagogy because it creates a motivating and interactive learning environment.

Literature Review

The concept of sociocultural competence has been widely discussed in language education research. According to Hymes, effective communication requires not only grammatical knowledge but also an understanding of the social and cultural contexts of language use (Hymes, 1972). Later, researchers emphasized that language and culture are closely interconnected. Kramsch argues that learning a foreign language inevitably involves learning about the culture associated with that language (Kramsch, 1993). Another important concept in language education is communicative competence, which includes linguistic, sociolinguistic, discourse, and strategic components (Canale & Swain, 1980). Sociocultural competence is often

considered an essential part of communicative competence. In recent years, the concept of gamification has attracted attention in educational research. Deterding defines gamification as the use of game design elements in non-game contexts, including education (Deterding et al., 2011). Researchers emphasize that gamification can significantly increase learners' motivation, engagement, and participation in educational activities. According to Kapp, game-based learning environments encourage students to actively interact with learning materials and collaborate with their peers (Kapp, 2012). In foreign language education, gamification can be particularly effective because it provides opportunities for interactive communication, role-playing, and cultural exploration.

Methodology

The study is based on the analysis of pedagogical approaches used in teaching English to non-philological students. The research focuses on how gamification strategies can contribute to the development of sociocultural competence. The research methodology includes: analysis of academic literature on gamification and language teaching; observation of language classes that integrate game elements; evaluation of students' engagement and participation during gamified learning activities. Gamification strategies used in language teaching may include quizzes, role-playing games, cultural simulations, storytelling tasks, and interactive challenges related to cultural topics.

Results

One of the main advantages of gamification is its ability to increase student motivation. When learning activities are presented as games or challenges, students become more interested and actively participate in the learning process. For example, cultural quizzes about English-speaking countries or interactive competitions between student groups can create an engaging learning environment. Gamified activities often involve scenarios that reflect real-life communication situations. Through role-playing and simulation games, students can learn about cultural norms, traditions, and communication styles in English-speaking societies. Such activities help students understand cultural differences and develop intercultural communication skills.

Gamification also promotes active communication among students. Collaborative tasks, group competitions, and storytelling games encourage students to use English in meaningful contexts. As a result, students practice both language skills and sociocultural understanding simultaneously.

Discussion

The results of the study demonstrate that gamification can be an effective tool for integrating cultural learning into language education. Traditional teaching methods often focus primarily on grammar and vocabulary, while gamified activities encourage students to explore cultural aspects of language use. Moreover, gamification supports student-centered learning by allowing learners to actively participate in the educational process. It also promotes collaboration, creativity, and problem-solving skills. Another important advantage of gamification is its compatibility with digital technologies. Online platforms, educational applications, and interactive tools can easily incorporate game elements into language learning activities. Therefore, integrating gamification into foreign language education can significantly enhance both linguistic and sociocultural competence.

Conclusion

In modern higher education, the development of sociocultural competence has become an essential component of foreign language learning. For students of non-philological specialties, understanding cultural contexts is crucial for effective communication in international professional environments. The study shows that gamification can serve as an innovative and effective pedagogical strategy for developing sociocultural competence. By incorporating game elements into language learning activities, educators can increase student motivation, engagement, and interaction. As a result, gamification not only improves language proficiency but also helps students develop cultural awareness and intercultural communication skills. Therefore, integrating gamification into English language teaching practices can significantly contribute to the preparation of students for successful communication in a globalized world.

References

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching. *Applied Linguistics*.
2. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: Defining gamification. *Proceedings of the 15th International Academic MindTrek Conference*.
3. Kapp, K. (2012). *The Gamification of Learning and Instruction*. Pfeiffer.
4. Kramsch, C. (1993). *Context and Culture in Language Teaching*. Oxford University Press.
5. Richards, J., & Rodgers, T. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
6. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics*.
7. QIZI, Y. N. A. Using vocabulary enhancing games in english class. *Xorijiy tillarni o'qitishning dolzarb masalalari: muammolar va yechimlar*, 189.
8. Nargiza, Y. (2025). Assessing Learners' Knowledge of Agricultural English Through Vocabulary Tests. *SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL "SUSTAINABLE AGRICULTURE"*, 27(3), 27-30.
9. Najmiddinova, X., Qarshiboyev, A., Yuldashova, N., Primov, M., Davletova, K., Sultanov, A., & O'razova, M. (2025). Integrating environmental engineering concepts in primary education to enhance environmental protection awareness. *Procedia Environmental Science, Engineering and Management*, 12(3), 607-615.

The background is a light blue surface with various educational items. At the top left is a yellow ruler. At the top center is an orange with two green leaves. At the top right is a blue spiral notebook. On the left side is a pink book with a white label. On the right side is a rolled-up white diploma tied with a blue ribbon. At the bottom center is an open book with a yellow cover, and a globe of the Earth is placed on its pages. At the bottom left is a green pencil, and at the bottom right is a red pencil. Small colored dots (purple, orange, white) are scattered across the background.

PEDAGOGIKA

Munavvar KURBONOVA,
Xalqaro Nordik universiteti, katta o'qituvchisi, PhD,
O'zbekiston

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA KPI ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini KPI (Key Performance Indicators – asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) asosida baholash metodikasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ta'lim menejmentida natijadorlikni o'lchashning zamonaviy yondashuvlari, strategik rejalashtirish va indikatorlar tizimini shakllantirish tamoyillari yoritiladi. KPI tizimining universitet boshqaruvida qo'llanishi, akademik, moliyaviy va tashkiliy faoliyat samaradorligini baholash mezonlari asoslab beriladi. Maqolada ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish (data-driven management) konsepsiyasi hamda monitoring va baholash mexanizmlarining ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: ta'lim menejmenti, strategik boshqaruv, natijadorlik ko'rsatkichlari, monitoring va baholash, data-driven management, sifat menejmenti.

Annotation: this article analyzes the methodology for evaluating management efficiency in higher education institutions based on Key Performance Indicators (KPI) from theoretical and practical perspectives. The study highlights modern approaches to measuring performance in educational management, as well as the principles of strategic planning and the development of indicator systems. The application of KPI systems in university governance is examined, and criteria for assessing academic, financial, and organizational performance are substantiated. The paper also emphasizes the importance of data-driven management concepts and monitoring and evaluation mechanisms in decision-making processes.

Key words: educational management, strategic management, performance indicators, monitoring and evaluation, data-driven management, quality management.

Аннотация: в данной статье рассматривается методика оценки эффективности управления в высших учебных заведениях на основе системы KPI (Key Performance Indicators – ключевые показатели эффективности) с теоретической и практической точек зрения. В исследовании освещаются современные подходы к измерению результативности в образовательном менеджменте, а также принципы стратегического планирования и формирования системы индикаторов. Анализируется применение KPI в управлении университетом, обосновываются критерии оценки академической, финансовой и организационной деятельности. Особое внимание уделяется концепции управления на основе данных (data-driven management), а также роли механизмов мониторинга и оценки в процессе принятия управленческих решений.

Ключевые слова: образовательный менеджмент, стратегическое управление, показатели эффективности, мониторинг и оценка, управление на основе данных, менеджмент качества.

Kirish. Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimi tub tarkibiy o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Oliy ta'lim muassasalari nafaqat ta'lim beruvchi, balki innovatsion rivojlanish, ilmiy tadqiqotlar va inson kapitalini shakllantiruvchi strategik institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Bunday sharoitda universitet boshqaruvining samaradorligi ta'lim sifati, ilmiy natijadorlik va xalqaro raqobatbardoshlikni belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Shu sababli boshqaruv jarayonlarini aniq mezonlar asosida baholash va monitoring qilish dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylangan. So'nggi yillarda ta'lim menejmentida natijadorlikni o'lchashning zamonaviy mexanizmlari, xususan, KPI (Key Performance Indicators – asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari) tizimi keng qo'llanilmoqda. KPI konsepsiyasi dastlab korporativ boshqaruvda shakllangan bo'lib, keyinchalik davlat boshqaruvi va ta'lim sohasiga ham tatbiq etila boshlandi. Mazkur yondashuv strategik

maqsadlarni aniq o'lchov ko'rsatkichlari bilan bog'lash, natijalarni monitoring qilish va boshqaruv qarorlarini ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilish imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalarida samaradorlikni baholash ko'p o'lchamli jarayon bo'lib, u akademik faoliyat (ilmiy nashrlar, grantlar, talabalar natijalari), moliyaviy boshqaruv (byudjet samaradorligi, investitsiyalar), tashkiliy boshqaruv (kadrlar siyosati, ichki nazorat tizimi) kabi yo'nalishlarni qamrab oladi. Biroq ko'plab oliy ta'lim muassasalarida ko'rsatkichlar tizimi fragmentar xarakterga ega bo'lib, strategik maqsadlar bilan uzviy bog'lanmagan holda qo'llaniladi. Bu esa boshqaruv samaradorligini obyektiv baholashni murakkablashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, KPI asosida kompleks va tizimli baholash metodikasini ishlab chiqish ilmiy jihatdan asoslangan yondashuvni talab etadi. Bunday metodika universitet faoliyatining asosiy yo'nalishlarini yagona indikatorlar tizimida mujassamlashtirishi, monitoring va tahlil mexanizmlarini aniqlashtirishi hamda ma'lumotlarga asoslangan qaror qabul qilish jarayonini takomillashtirishi zarur.

Mazkur maqolaning maqsadi oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini KPI asosida baholash metodikasini nazariy va amaliy jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida KPI tizimining ilmiy-nazariy asoslarini tahlil qilish, universitet boshqaruvida qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlarni tizimlashtirish hamda kompleks baholash modelini taklif etish belgilandi. Tadqiqot natijalari ta'lim menejmentini modernizatsiya qilish, strategik boshqaruvni takomillashtirish va xalqaro reyting talablariga mos boshqaruv tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar qismi. Nordik universiteti (Nordic University) oliy ta'lim muassasasida boshqaruv samaradorligini KPI asosida baholash jarayonini tahlil qilayotganda, avvalo bu institutning strategik yo'nalishlari va natijalarga erishish mexanizmlari o'rganiladi. Nordik universiteti tajribasi boshqaruv samaradorligini o'lchashda aniq va o'lchanadigan ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish bo'yicha xalqaro amaliyotga asoslangan yondashuvdan foydalanadi.

Birinchidan, universitet strategik rejasida belgilangan maqsadlar KPilar bilan bog'lanadi. Masalan, ilmiy faoliyatni rivojlantirish bo'yicha

strategik yo'nalishda quyidagi ko'rsatkichlar qo'yilgan: Scopus/ Web of Science indekslangan jurnallarda chop etilgan maqolalar soni, xalqaro hamkorlikdagi tadqiqotlar soni, iqtiboslanish ko'rsatkichlari. Bu indikatorlar aniq o'lchanadigan natijaviy mezon hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bunday indikatorlar universitetning ilmiy nashrlar salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishni soddalashtiradi hamda strategik natijalarga erishishni tizimli ravishda baholaydi.

Ikkinchidan, talabalarga xizmat ko'rsatish samaradorligi ham KPilar orqali baholanadi. Nordik Universiteti misolida talabalar qoniqish darajasi, bitiruvchilarning bandlik darajasi, xalqaro talabalar ulushi kabi indikatorlar muntazam monitoringdan o'tkaziladi. Masalan, agar bitiruvchilarning 90% ijtimoiy sohada faol bo'lsa, bu ko'rsatkich ta'lim sifati va boshqaruv samaradorligining yuqori ekanligini bildiradi. Bu yerda talabalarning natijalari va bozorga mos mavqeyi boshqaruv tizimi samaradorligini baholashda muhim rol o'ynaydi.

Moliyaviy bo'lim faoliyati uchun KPilar quyidagicha belgilangan: grantlar va tashqi mablag'lar jalb etish hajmi, xarajatlar samaradorligi, budjet monitoringi va investitsiyalar rentabelligi. Nordik Universiteti tahlillariga ko'ra, tashqi mablag'lar ulushi ortib borayotgan taqdirda, universitet muqobil resurslarni jalb etish bo'yicha strategik chora-tadbirlarni yanada kengaytiradi va shu orqali moliyaviy barqarorlikni oshiradi. Tashkiliy boshqaruv samaradorligi KPilari sifatida xodimlar malakasini oshirish darajasi, ichki audit natijalari, professor-o'qituvchilar orasidagi ilmiy salohiyat darajasi va rahbarlik kompetensiyalari belgilangan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, xodimlar malakasi va boshqaruv ko'nikmalarini oshirish universitet ichki muhitini mustahkamlashga xizmat qiladi hamda umumiy boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Nordik Universiteti tajribasi data-driven management konsepsiyasi asosida monitoring va baholash mexanizmlarini tizimli joriy etgan. Ma'lumotlar bazasi yordamida KPilar bo'yicha olingan natijalar yig'ilib, tahlil qilinadi va har chorakda boshqaruvga hisobot tarzida taqdim etiladi. Bu esa universitet rahbarlariga real va ishonchli ma'lumotlar asosida qaror qabul qilish imkonini beradi. Umuman olganda, Nordic University tajribasi KPI tizimini strategik boshqaruv bilan bog'laydi hamda akademik,

ijtimoiy, moliyaviy va tashkiliy yo'nalishlarda aniq mezonlar asosida boshqaruv samaradorligini baholaydi. Bu yondashuv boshqaruv jarayonini shaffoflashtiradi, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi va strategik maqsadlarga erishishni sezilarli darajada yaxshilaydi. Natijada KPilar asosida baholash oliy ta'lim muassasasining ichki va tashqi samaradorligini mustahkamlashda muhim vositaga aylanadi.

Natijalar. Nordik Universiteti misolida olib borilgan tahlillar KPI asosida boshqaruv samaradorligini baholash tizimi strategik boshqaruvning natijadorligini oshirishini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Aniqlanishicha, strategik maqsadlar bilan integratsiyalashgan, SMART tamoyiliga asoslangan ko'rsatkichlar tizimi boshqaruv jarayonining tizimlili va shaffofligini ta'minlaydi. Empirik kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, ilmiy faoliyat KPilari (xalqaro indekslangan nashrlar, iqtiboslik darajasi, grantlar hajmi) bo'yicha barqaror o'sish universitetning ilmiy salohiyati kuchayganini anglatadi. Ta'lim sifati indikatorlari, xususan bitiruvchilarning bandlik darajasi va talabalar qoniqish indeksi, boshqaruvning natijaga yo'naltirilgan model asosida tashkil etilganini ko'rsatdi.

Moliyaviy ko'rsatkichlar tahlili resurslardan foydalanish samaradorligi oshganini va tashqi moliyalashtirish manbalari diversifikatsiyalashganini tasdiqladi. Data-driven management tamoyili asosida muntazam monitoring va tahlil mexanizmlarining joriy etilishi boshqaruv qarorlarining asoslanganligi

va operativligini kuchaytirgan. Olingan natijalar KPI asosida kompleks baholash modeli oliy ta'lim muassasasining strategik rivojlanishi, resurslarni samarali boshqarish va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlashda ilmiy asoslangan va samarali mexanizm ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini KPI asosida baholash metodikasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilindi hamda Nordik Universiteti misolida uning samaradorligi ilmiy asosda yoritildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, strategik maqsadlar bilan integratsiyalashgan, aniq va o'lchanadigan ko'rsatkichlar tizimi boshqaruv jarayonining shaffofligi, tizimlili va natijadorligini ta'minlaydi. KPI asosida baholash modeli akademik, moliyaviy va tashkiliy faoliyatni kompleks tahlil qilish imkonini beradi hamda resurslardan samarali foydalanish, strategik rejalashtirishni takomillashtirish va qaror qabul qilish jarayonini ma'lumotlarga asoslashga xizmat qiladi. Ayniqsa, data-driven management tamoyilining joriy etilishi boshqaruvning tezkorligi va asoslanganligini oshiradi.

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, KPI tizimi oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan va amaliy jihatdan samarali vositasi hisoblanadi. Uni kompleks va tizimli ravishda joriy etish ta'lim sifatini yaxshilash, xalqaro reytinglarda raqobatbardoshlikni oshirish hamda barqaror institutsional rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kaplan R. S., Norton D. P. Strategy-Focused Organization: How Balanced Scorecard Companies Thrive in the New Business Environment. – Boston : Harvard Business School Press, 2001. – 400 p.
2. Parmenter D. Key Performance Indicators: Developing, Implementing, and Using Winning KPIs. – 3rd ed. – Hoboken : John Wiley & Sons, 2015. – 352 p.
3. Bush T. Theories of Educational Leadership and Management. – 4th ed. – London : Sage Publications, 2011. – 232 p.
4. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. – Paris : UNESCO, 2016. – 83 p.
5. Kaplan R. S., Norton D. P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston : Harvard Business School Press, 1996. – 322 p.
6. Esonaliyeva, Munavvar Kurbanova. "The importance of the artistic image in the writer's style expression." ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL 11.1 (2021): 426-430.
7. Munavvar Esonaliyeva Kurbonova. (2025). CROSS-CULTURAL STYLISTIC VARIATIONS IN ENGLISH-UZBEK LITERARY TRANSLATION. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 12(12), 226-231. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/4088>

Gayratjon TAJIBAYEV,

*Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti
 Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, Ped.f.f.d. (PhD)*

TA'LIM O'ZBEK, RUS, QIRG'IZ VA TOJIK TILIDA OLIB BORILADIGAN BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILIDA GAP TUZILISHINI O'QITISHDA ONA TILINING IJOBIY VA SALBIY TA'SIRI

Annotatsiya: ushbu maqolada ta'lim o'zbek, qirg'iz, qoraqalpoq va tojik tilida olib boriladigan boshlang'ich sinf ingliz tili darslarida o'quvchilarning sodda gap qurilmasi bo'yicha grammatik kompetensiyasini shakllantirish muammolari tadqiq etiladi. Xususan, Tillararo Interferensiya nazariyasi va Kontrastiv Tahlil gipotezalari qiyosiy o'rganiladi. O'tkaziladigan tajriba-sinov ishlarining natijalarga asoslanib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining sodda gap qurilishi bo'yicha grammatik kompetensiyasini shakllantirishda vujudga keladigan qiyinchiliklarning oldini olishga xizmat qiluvchi pedagogik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: *chet tilini o'rganish va o'qitish, til interferensiyasi, kontrast analiz, o'zbek, qirg'iz, tojik*

Аннотация: в данной статье изучаются проблемы формирования грамматической компетенции учащихся в начальных классах английского языка, где обучение ведется на узбекском, кыргызском, каракалпакском и таджикском языках. В частности, сравнительно изучаются теория межъязыковой интерференции и гипотезы контрастивного анализа. По результатам экспериментальных испытаний будут разработаны педагогические рекомендации, которые помогут предотвратить трудности в формировании грамматической компетенции учащихся младших классов при построении простых предложений.

Ключевые слова: *изучение и преподавание иностранного языка, языковая интерференция, контрастивный анализ, узбекский, кыргызский, таджикский язык.*

Annotation: in this article, the problems of forming grammatical competence of students in the simple case device in primary English classes, where education is conducted in Uzbek, Kyrgyz, Karakalpak and Tajik languages, are studied. In particular, the theory of interlinguistic interference and the hypotheses of contrastive analysis are comparatively studied. Pedagogical recommendations will be developed based on the results of the experimental tests, which will help to prevent difficulties in forming the grammatical competence of elementary school students in the construction of simple sentences.

Key words: *foreign language learning and teaching, language interference, contrastive analyses, Uzbek, Kyrgyz, Karakalpak, Tajik*

O'zbekiston Respublikasida 1-sinf (6-7 yoshdan) boshlab zamonaviy xorijiy tillardan birini o'qitish amaliyoti 2013-2014-o'quv yilidan joriy qilingan. Bugungi kunda mamlakatimizda kichik yoshdagi o'quvchilarga chet til o'qitish amaliyotida quyidagi muammolarga duch kelinmoqda. Birinchidan, kichik yoshdagilarga chet til o'qitish bo'yicha tajriba va mutaxassislar yetishmaydi. Ikkinchidan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet til o'qitish uchun tavsiya etilgan darsliklar yevropalik mutaxassislar tomonidan yaratilgan bo'lib, ular O'zbekistondagi chet til ta'limi sharoitiga mos kelmaydi. Uchinchidan, O'zbekiston sharoitida boshlang'ich sinflarda chet til o'rganish va o'rgatishning metodik, lingvistik, psixologik va pedagogik asoslari mukammal tadqiq etilmagan. Inson nutqi lingvofiziologiya (nutq fiziologiyasi) da, nutqning sodir bo'lishi va uning idrok etilishi psixolingvistikada ilmiy

tadqiq etiladi. Tadqiqotimizning mazkur qismida ona tilida nutq rivojlanishi (filo-ontogenezi) va chet til o'rganishda fonetik, leksik hamda grammatik ko'nikmalarning rivojlanish jarayonlari kabi masalalar qiyosiy tadqiq etiladi. Shuningdek, boshlang'ich sinfda chet til o'rganilishida ona tili ko'nikmalarining ijobiy (transpozitsiya) va salbiy (interferensiya) ko'chishi tahlil etiladi. Ma'lumki, chet tilni o'rgatish ushbu tilda nutqning sodir bo'lishi yoki uni idrok etish jarayonlarini tashkil qilishdir [4; 28-b.]. Nutq atamasining ma'nosi fikrni shakllantirish va uni ifodalash usulini, tilning amalda qo'llanilishi va reallashuvini bildiradi. Til esa kommunikatsiya va interaksiya vositasi, ishoralar tizimi, fikrni ifodalash va hosil qilish quroli, vositasidir [6; 20-21-b.]. Til undan foydalanuvchi insonlar uchun umumiy, ya'ni ijtimoiy nutq esa individual o'ziga xos hodisadir [6; 313-b.]. Ona tilidagi nutq rivojlanishida ichki motivatsiya

muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni bola ona tilini ota-onasi yoki o'qituvchisini xursand qilish, a'lo baho olish, leksik minimum tarkibidagi so'zlarni yodlash, matn o'qish va hokazolar uchun emas, balki o'zining biologik ehtiyojlarini

qondirish uchun o'zlashtiradi [10; 122-123-b.], otlarning ko'plik shaklini yasay olmadimi, ikkita qand o'rniga bitta oladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Ona tili va ingliz tilida nutq rivojlanishi filo va ontogenezi hamda leksik va grammatik ko'nikmalarning rivojlanishi bo'yicha o'xshash va farqli xususiyatlari

Qiyoslash mezonlari	Ona tili	Ingliz tili
Nutq rivojlanish filogenezi	tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv kompetensiyalarining egallanishi izchilligi	tinglab tushunish, gapirish, o'qish va yozuv kompetensiyalarining egallanishi izchilligi
	Fonetika, leksika, orfografiya, grammatika	Fonetika, leksika, grammatika, orfografiya
Nutq rivojlanish ontogenezi	Stimul-reaksiya hodisalari, egosentrik nutq, kreativ nutqiy ijodkorlik	Nutq namunalari asosida taqlid qilish, takrorlash mashqlarini bajarish
Leksik ko'nikma	So'z tasodifiy va deyarli ong ishtirokisiz o'rganiladi	Leksik minimum metodik tayyorlanadi va maxsus maqsadlarda taqdim etiladi
Grammatik ko'nikma	ot + sifat yoki ot + fe'ldan iborat qisqa telegrafik xususiyatga ega	Muloqot modellari va nutq namunalari asosida grammatik ko'nikma shakllantiriladi

Qiyosiy tahlil bo'yicha ingliz va o'zbek tillarining ot va fe'llari asosida semantika, paradigmatica, sintagmatikani aniqlashtirish o'zbek o'quvchilari tomonidan ingliz tilidagi ot va fe'llarni o'rganishda

ularning yasash usullari o'zbek tilidagi ot va fe'llarning yasashi bilan o'xshash va farqlarni o'rganish imkonini beradi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Ot va fe'llarning morfologik xususiyatlari

Ingliz tili	O'zbek, rus, qirg'iz va tojik tillari
Ot va fe'l so'z turkumiga mansub so'zlar farq qilmaydi – <i>drink – to drink; water – to water</i>	O'zb. – <i>ich - ichimlik; suv – sug'or</i> Rus – <i>пить – напиток; вода – поливать</i> Kir. – <i>ичимдик – ичүү; суу – суу</i> Tadj. – <i>нӯшидан – нӯшидан; об – об</i>
Oddiy fe'llar – <i>to go, to drink, to take</i>	Tub fe'llar O'zb. – <i>bor, ich, ol</i> Rus – <i>иметь, пить, брать</i> Kir. – <i>бар, ичүү, алуу</i> Tadj. – <i>доштан, нӯшидан, гирифтан</i>
Yasama fe'llar – <i>to enlarge, to shorten, to reconstruct</i>	Yasama fe'llar O'zb. – <i>boshla, boshqar, shodlan, qo'lla</i> Rus – <i>начни, управляй, радуйся, применяй</i> Kir. – <i>баштоо, башкаруу, кубануу, колдонуу</i> Tadj. – <i>оғоз кардан, идора кардан, шод кардан, татбиқ кардан</i>
Fe'llardan ot yasalishi – <i>teach – teacher, work – worker, direct – director, policeman, spiderman, postman, milkman</i>	Fe'llardan ot yasalishi – <i>yoz – yozuvchi, boshqar – boshqaruvchi, sot – sotuvchi</i>
Qo'shma otlar (Compounds) – <i>dishwasher, ladybird, dragonfly, teapot</i>	Qo'shma otlar – <i>xonqizi, makkajo'xori</i>
Qo'shma fe'llar – <i>to daydream, to waylay</i>	Qo'shma fe'llar – <i>taklif qilmoq, olib bermok</i>
Juft otlar (Collocations) – <i>fish and chips, brothers and sisters, family tree,</i>	Juft otlar – <i>opa-singil, aka-uka, choynak-piyola, idish-tovoq</i>
Juft fe'llar (Collocations) – <i>to make a mistake (fire, tea, money, friends), to do the room (homework)</i>	Juft fe'llar – <i>xato qilmoq, choy damlamoq, ishlab topmoq</i>
Tarkibli fe'llar (Phrasal verbs) – <i>to get up, to sit down, to put on</i>	

Ingliz va o'zbek tillarida otlarning ko'plik, fe'llarning o'tgan zamon shakllarini, sifat darajalarini yasashda ham o'xshash va farqli jihatlar kuzatiladi. Keyingi yillarda chet til o'qitish metodikasida *Corpora* yoki *Corpus* atamaları keng qo'llanilmoqda va chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish tamoyili asosida *lexical approach*, *situational approach*, *speech act approach* va *corpus-informed approach* kabi yondashuvlar rivojlanmoqda [8; 203-b].

Tadqiqotlarda turkiy tillarda so'zlashuvchi o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolarning 2/3 qismi, taxminan 67% ingliz tilidagi gap tuzish tartibiga, qolgan 1/3 qism, ya'ni 33% xatolarning 22% predloglarga va 11% artikllarga taalluqli, bilingval, ya'ni o'zbek (qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq, turkman) va rus tillarida so'zlashuvchi o'quvchilarda esa xatolar sezilarli darajada kam uchraydi, degan mazmundagi fikrlar mavjud [4; 24-b.]. Boshlang'ich sinflarda chet til o'qitishning ilmiy-metodik asoslarini tahlil qilish quyidagilarni xulosa sifatida umumlashtirishga imkon beradi: tadqiqot doirasida kichik maktab yoshidagi bugungi davr bolalarining bilish jarayoni xususiyatlari (tafakkur, diqqat, xotira) yoritildi. Shuningdek, 1-2-sinf o'quvchilarining 3-4 sinf o'quvchilaridan farqli jihatlari aniqlandi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshga oid xususiyatlaridan kelib chiqib, ta'limning ushbu bosqichida

xorijiy tillarni o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi. "Nutq namunasi asosida chet til o'qitish", "Og'zaki nutqning ilgarilashi", "Chet tilda tabiiy nutqqa yaqinlashish", "Nutqiy yo'nalganlik", "Yaxlit o'rgatish" tamoyillariga binoan muloqot modellarini o'rgatish kommunikativ kompetensiyasining muvaffaqiyatli egallanishida yuqori samara berishi ilmiy asoslandi. Ona tilida nutq rivojlanishi (filo-ontogenezi) va chet tilda nutqiy faoliyat yuritish ko'nikmalarining shakllanish jarayonlari qiyosiy tadqiqi asosida xatolarga tillaro interferensiya sabab bo'lmasligi aniqlandi. 9 yoshgacha chet til o'rganish katta yoshda chet til o'rganishdan farq qilishi, 10 yoshgacha chet til o'rganish jarayonida ona tili interferensiyasi kam kuzatilishi aniqlandi. Ilmiy tekshirishlarga ko'ra, o'quv jarayonidagi tashkiliy sabab, ya'ni o'quvchilar diqqatini jalb eta olmaslik, stress, fosilizatsiya, shaklga yuqori darajada e'tiborli bo'lish, davomatning qoniqarsizligi yoki o'xshash hodisalarni umumiyashtirib yuborish ham xatolarga sabab bo'lishi mumkin. Chet til darslarida fikrlashni emas, kommunikatsiyani o'rgatish zarur. O'quvchilarning chet tildagi nutqlarini rivojlantirishda fikr ifodalashning chet tildagi, ya'ni ona tilida fikr ifodalash usuli bilan qiyoslanadigan muqobil usuli shakllantirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi Namangan viloyati statistika boshqarmasi rasmiy veb sahifasi: <https://www.namstat.uz/uz/>
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy veb sahifasi <https://www.uzedu.uz/uz/page/statistics>
3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflar uchun darslik majmua. Kids' English Class 1,2,3,4. A.T.Irisqulov, S.Xan va mualliflar jamoasi. – T.: O'zbekiston, 2013.
4. Алишова Р.К. Межъязыковая кыргызско-английская интерференция на уровне фонетики, грамматики и лексики (с позиции сотсиолингвистики): Автореф. дис. ... канд. фил. наук. – Б.: Институт иностранных языков Кыргызстана, 2013. 35 с.
5. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliy o'quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2012. 432-b.
6. Saydaliev S., Gabdulxakov F. Psixolingvistika. Maxsus kurs bo'yicha ma'ruza matnlari. – Namangan, 2001. 62-b.
7. Sinelnikov A. P. Psixologiya obucheniya inostrannym yazыkam. – X.: Osnova, 2009. 128 c.
8. Burns A., Richards J.C. The Cambridge Guide to Pedagogy and Practice in Second Language Teaching. – NY.: Cambridge University Press, 2012. p. 107.
9. Gordon T. Teaching young children a second language. – Greenwood Publishing Group, 2007. 234 r.
10. Williams M., Burden R. L. Psychology for language Teachers. A social constructivist approach. – L.: Cambridge University Press, 2010. 240 p.
11. Widdowson H.G. Teaching Language as Communication. – L.: Oxford University Press, 2008. 168 p.

Gulnora RAXMATOVA,
Toshkent viloyati Piskent tumanidagi
79-sonli alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan
aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan
maktab-internat logopedi



INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARDA NUTQNING RIVOJLANISHI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya: ushbu maqolada intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutqning shakllanish va rivojlanish jarayoni pedagogik-psixologik muammo sifatida tahlil qilinadi, uning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: *nutq, bola, individual rivojlanish, muloqot, ijtimoiylashuv, psixik jarayonlar, nutqiy motorika, artikulyatsiya, fonematik idrok, pedagogik-psixologik ta'sir, ta'lim muhiti.*

Аннотация: в статье процесс формирования и развития речи у детей с нарушениями интеллектуального развития рассматривается как психолого-педагогическая проблема, освещаются ее теоретические основы и практическое значение.

Ключевые слова: *речь, ребенок, индивидуальное развитие, общение, социализация, психические процессы, речедвигательная активность, артикуляция, фонематический слух, психолого-педагогическое воздействие, образовательная среда.*

Annotation: the article examines the process of speech formation and development in children with intellectual disabilities as a psychological and pedagogical problem, highlighting its theoretical foundations and practical significance.

Key words: *speech, child, individual development, communication, socialization, mental processes, speech and motor activity, articulation, phonemic hearing, psychological and pedagogical influence, educational environment.*

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida har bir bolaning individual rivojlanish xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarning nutqiy rivojlanish muammosi murakkab jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Chunki nutq nafaqat muloqot vositasi, balki tafakkur, ijtimoiy moslashuv va shaxsiy rivojlanishning muhim mexanizmi hamdir.

Intellektual rivojlanishdagi cheklanishlar bilish jarayonlari – idrok, xotira, diqqat va tafakkur faoliyatining sustligi bilan kechadi. Bu esa o'z navbatida, lug'at boyligining kamligi, grammatik tuzilmalarning yetarli shakllanmaganligi, bog'langan nutqning rivojlanishidagi qiyinchiliklar hamda muloqot motivatsiyasining pastligi kabi holatlarni yuzaga keltiradi. Natijada bola atrof-muhit bilan to'laqonli o'zaro munosabatga kirisha olmaydi, bu esa uning ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Maxsus pedagogika va psixologiya sohasida tadqiqot olib borgan olimlardan L.S.Vigotskiy, A.G.Spirkin, S.L.Rubinshteyn va D.V.Elkoninlar intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar nutqining o'ziga xos rivojlanishlarini o'rganishgan. Ularning ishlarda asosiy e'tibor nutqning mazmun tomoniga, bolalar aqliy faoliyatidagi va xulqidagi rolga qaratilgan. Me'yorda rivojlanayotgan 3-4 yoshli bola yetarli lug'at boyligiga ega bo'lib, uning faol nutqi deyarli to'g'ri grammatik shaklni tashkil etadi. Fonetik xatoliklar juda ko'p darajada bo'lmaydi. Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan

bolada esa, so'zlarni talaffuz qilish birmuncha kechikadi. Ular nutqi kambag'al va noto'g'ridir. L.V.Zankov va M.S.Pevznerning ta'kidlashlaricha, intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar nutqi 1-1,5 yoshda emas, balki 3 yoshlardagina rivojlana boshlaydi. Chet el olimlaridan Sholts-Erzam, Kassel, Shlezinger, Zeemanlarning ta'kidlashlaricha, 40% dan ortiq intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutq kechikib shakllanar ekan. G.A.Kashening ko'rsatishicha, 1-sinf yordamchi maktab o'quvchilarining 65% da, 2-sinf o'quvchilarining 60% da u yoki bu nutq kamchiliklari, chuqur intellektual buzilishi bo'lgan bolalarda esa, bu ko'rsatkich 80% gacha, Daun kasalida 95% gacha kuzatiladi. Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutqning ifodaliligi bilan birga, uning tezligi ham buzilganligini kuzatish mumkin. 5-sinf intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarning o'qish tezligi o'zlarining sog'lom tengdoshlaridan 2 marta pastligi kuzatiladi. Bunday nuqsonlarning asosiy sababi, bosh miya po'stloqlaridagi asab ta'sirlanishlarining zaifligidir. Yangi farqlangan bog'lanishlarning sekin yuzaga kelishidir.

Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarning nutqni idrok etishlari birmuncha sekin amalga oshadi. Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarning nutqidagi barcha kamchiliklarning asosiy sababi ham mana shudir. Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar nutqining kechikib rivojlanishi noto'g'ri idrok qilishi natijasidir. Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar fonematik eshitishining yomon rivojlanganligi natijasida qator tovushlar

almashtirilib idrok etiladi va shu asosda almashtirilib yoziladi. Hatto bolaga tovushlar tartibi ham noaniq tuyuladi. Talaffuz qilinayotgan so'zlar oxirlari yaxshi tahlil qilinmasligi asosida ham grammatik xatoliklar kelib chiqadi. intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bola fonematik eshitishdagi, nutq a'zolaridagi, artikulyatsiyadagi kamchiliklar asosida yanada murakkablashadi. Analizatorlarning to'la, mukammal rivojlanmasligi asosida nutqning qator kamchiliklari yuzaga keladi. Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda birinchi, alohida so'zlari 2-3 yoshlarda, qisqa sodda grammatik gaplari 5-6 yoshlarda paydo bo'ladi.

Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nafaqat faol nutqning rivojlanishi kechikadi, balki ular o'zlariga qaratilgan nutqni sog'lom tengdoshlariga qaraganda yomonroq tushunishadi. Maktabga borgunga qadar, ya'ni 7 yoshga kelib bunday bolaning og'zaki muloqot tajribasi kam bo'ladi, bor-yo'g'i 3-4 yilni tashkil etadi. Bundan tashqari, bu yillar davomida uning nutqining rivojlanish sur'ati keskin sekinlashdi va nutq faolligi yetarli bo'lmaydi. Bolaning kundalik so'zlashuv nutqi sust rivojlangan bo'ladi. Bu uning kattalar bilan muloqot qilishini qiyinlashtiradi. Bola kamdan-kam hollarda suhbatlarda qatnashadi, savollarga bir so'z bilan javob beradi, berilgan javob har doim ham to'g'ri bo'lmaydi. Shuningdek, ko'rsatma va topshiriqlarni bajarish ham ancha qiyin kechadi.

Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutqning kechikib shakllanishi sabablarini tushuntirishda, birinchi navbatda, ularga butun psixikaning xarakterli umumiy rivojlanmaganligidan kelib chiqish kerak, bu esa yuqorida keltirilgan intellektual rivojlanishdagi sezilarli o'zgarishlar va kechikishlarga olib keladi.

Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutqning buzilishi keng tarqalgan bo'lib, murakkab patogeneza va simptomlar bilan tavsiflanadi. Bunday bolalarda nutq nuqsonlari kognitiv faoliyatning rivojlanmaganligi yoki boshqa omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin (eshitish qobiliyatini yo'qotish, nutqiy motorikaning buzilishi, artikulyatsiya apparati tuzilishidagi buzilishlar va boshqalar). Intellektida nuqsoni bo'lgan bolalarda nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari va ularni tuzatish ularning oliy nerv faoliyati va aqliy rivojlanishining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutq nuqsonlarining tuzilishi biologik va ijtimoiy omillarning murakkab o'zaro ta'siri bilan bog'liq. Bolalarda nutqning boshqaruvchanlik funksiyasi past bo'lib, bu odatda,

bolaning xatti-harakatlarida juda erta muhim rol o'ynay boshlaydi. Ko'nikma va qobiliyatlarni o'zlashtirish jarayonida intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar og'zaki ko'rsatmalardan ko'ra ko'proq ko'rgazmali materialga tayanadilar. Bu xususiyatlar intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutqning rivojlanmaganligining asosiy sabablari hisoblanadi (V.G.Petrova, V.I.Lubovskiy, S.Borel - Maissonni va boshqalar).

Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutqiy motorikaning rivojlanishi sekin va farqlanmagan; nutq paytida nafas olish, fonator va artikulyar harakatlari muvofiqlashmagan bo'ladi.

Bolalarda nutq harakatlarining to'g'riligini nazorat qilish uchun ham eshituv ham kinestetik nazorat noaniq va shakllanmagan bo'ladi. Analitik-sintetik faoliyat darajasining pasayishi fonematik idrokning buzilishida namoyon bo'ladi. Kognitiv faoliyatlarining buzilishi tilning semantik tomonini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga olib keladi. Analitik va sintetik faoliyatning umumiy rivojlanmaganligi sababli intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalar lingvistik umumlashmalarni shakllantirish va til qonuniyatlarini o'zlashtirishda katta qiyinchiliklarga duch kelishadi. Intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda og'zaki muloqotga bo'lgan ehtiyoj keskin pasayadi, bu nutq aloqalarining cheklanganligiga olib keladi va nutqni egallash jarayoniga salbiy ta'sir qiladi.

Tahlillar asosida quyidagi umumiy xulosalarga kelish mumkin:

- nutqiy rivojlanish darajasi intellektual imkoniyatlar bilan chambarchas bog'liq bo'ladi;
- maxsus tashkil etilgan ta'lim muhiti va maqsadli pedagogik ta'sir nutq taraqqiyotini sezilarli darajada faollashtiradi;
- oilaviy muhit va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash nutq rivojlanishining muhim omillaridan biridir;
- erta aniqlash va erta pedagogik-psixologik yordam ko'rsatish samaradorlikni oshiradi.

Shunday qilib, intellektual rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarda nutqning rivojlanishi pedagogik-psixologik muammo sifatida chuqur o'rganishni, ilmiy asoslangan metodikalarni ishlab chiqishni hamda amaliyotga keng joriy etishni talab etadi. Bu esa nafaqat bolaning nutqiy faolligini, balki uning shaxs sifatida to'laqonli shakllanishiga va jamiyat hayotida munosib o'rin egallashiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova M.Y. Logopediya. "O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati". – T., 2007.
2. Nurkeldiyeva D.A, Chicherina Y.E. "Ilk maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarni psixologik, pedagogik va logopedik tekshirish". – T.: "Yangi asr avlodi", 2007.
3. Mamatkulova L.T. (2022). "Defects in the written speech of elementary school students with intellectual disabilities and their elimination" Conference, 6(6), 16-17
4. Аксенова А. К. Методика обучения русскому языку во вспомогательной школе: Учеб. для студ. дефектол. фак. ин – тов. – М.: Просвещение, 1994. – 272с.
5. Воспитание и обучение детей во вспомогательной школе. / Под. ред. В.В. Воронковой. – М.: Школа – Пресс, 1994. – 416 с.
6. Зикеев А.Г. Развитие речи учащихся специальных (коррекционных) образовательных учреждений. Учебное пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений. – М.: «Академия», 2000.–200с.

Дилафруз АЛИЕВА,
 доцент Кокандского государственного университета,
 кандидат филологических наук

ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ, ПРАКТИКА И ПЕРСПЕКТИВЫ

Аннотация: в данной статье проводится комплексный анализ инклюзивного образования как стратегического вектора реформирования современной образовательной системы. Рассматриваются теоретико-методологические концепции, лежащие в основе инклюзии, а также анализируется практический опыт и барьеры на пути реализации равных прав на образование. Особое внимание уделяется необходимости трансформации педагогического сознания и внедрению инновационных технологий поддержки детей с особыми образовательными потребностями.

Ключевые слова: инклюзия, методология, особые образовательные потребности, социальная модель, интеграция, педагогическая психология, гуманизация, безбарьерная среда, инновации.

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimini isloh qilishning strategik vektori sifatida inkluziv ta'lim kompleks tahlil qilinadi. Inkluzivlik asosida yotgan nazariy-metodologik konsepsiyalar ko'rib chiqiladi, shuningdek, ta'lim olishda teng huquqlarni amalga oshirish yo'lidagi amaliy tajriba va to'siqlar tahlil qilinadi. Maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni qo'llab-quvvatlashda pedagogik ongni transformatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: inkluziya, metodologiya, alohida ta'lim ehtiyojlari, ijtimoiy model, integratsiya, pedagogik psixologiya, insonparvarlashtirish, to'siqlarsiz muhit, innovatsiyalar.

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of inclusive education as a strategic vector for reforming the modern educational system. Theoretical and methodological concepts underlying inclusion are considered, and practical experience and barriers to the realization of equal rights to education are analyzed. Particular attention is paid to the need for transformation of pedagogical consciousness and the introduction of innovative technologies to support children with special educational needs.

Key words: inclusion, methodology, special educational needs, social model, integration, educational psychology, humanization, barrier-free environment, innovations.

Современная образовательная парадигма претерпевает фундаментальные изменения, переходя от унифицированных стандартов к персонализированным моделям обучения. В центре этого процесса находится инклюзивное образование, которое выступает не просто как организационная форма обучения детей с ограниченными возможностями здоровья, а как глубокая гуманистическая философия. Инклюзия предполагает полное включение каждого ребенка в образовательную среду, независимо от его физических, психических или интеллектуальных особенностей.

Теоретико-методологическую основу данного процесса составляет переход от медицинской модели инвалидности, где акцент делался на «лечении» дефекта, к социальной модели, где инвалидность рассматривается как результат несовершенства окружающей среды и общественных барьеров. Социальная модель утверждает, что именно школа и общество должны адаптироваться к нуждам ребенка, а не ребенок — к жестким требованиям системы [1].

Методологические корни инклюзии глубоко уходят в культурно-историческую теорию Л. С. Выготского. Его учение о зоне ближайшего развития

и социальной компенсации дефекта является фундаментом для понимания того, что психическое развитие ребенка с особенностями определяется не столько биологическим фактором, сколько характером его социального взаимодействия.

Л. С. Выготский подчеркивал: «*Боланинг дефекти эмас, балки унинг атрофидаги ижтимоий мухит болани ногирон қилади. Бизнинг вазифамиз ижтимоий тўсиқларни олиб ташлашдир*» (Не дефект ребенка, а социальная среда вокруг него делает ребенка инвалидом. Наша задача — убрать социальные барьеры) [4]. Этот постулат диктует необходимость создания такой образовательной среды, где каждый учащийся чувствует себя ценным и признанным. В связи с этим, инклюзивная педагогика базируется на восьми фундаментальных принципах, среди которых ключевыми являются признание ценности человека независимо от его способностей и право каждого на полноценную коммуникацию.

Практическая реализация инклюзивного образования в современных условиях требует системного подхода, включающего архитектурную доступность, программно-методическое обеспечение и специальную подготовку педагогов. Создание

универсального дизайна в образовательных учреждениях — это лишь внешняя оболочка. Гораздо более сложной задачей является разработка индивидуальных образовательных траекторий (ИОТ). Это требует от учителя высокого уровня компетенции в области специальной психологии и педагогики. К сожалению, на практике педагоги часто сталкиваются с методическим вакуумом и нехваткой адаптированных учебных пособий. Проблему усугубляет и психологическая неготовность педагогического сообщества к работе в разноуровневых классах. Как отмечает исследователь **К. Йулдошев: «Ўқитувчининг маҳорати — бу фақат дарс ўтиш эмас, балки синфдаги ҳар бир болага, унинг имкониятидан қатъи назар, ўз салоҳиятини англашга ёрдам беришдир»** (Мастерство учителя — это не только проведение урока, но и помощь каждому ребенку в классе, независимо от его возможностей, осознать свой потенциал) [5].

Важнейшим элементом практической инклюзии является институт тьюторства. Тьютор выступает связующим звеном между ребенком с особыми нуждами, учителем и коллективом сверстников. Без такой поддержки включение ребенка с нарушениями развития в общеобразовательный класс может привести к формальной интеграции, которая не дает образовательного эффекта. Кроме того, успех инклюзии напрямую зависит от формирования инклюзивной культуры в обществе. Это подразумевает работу с родителями «нормативно развивающихся» детей, которые зачастую выражают опасения относительно снижения качества обучения в инклюзивных классах. Однако мировые исследования доказывают обратное: в инклюзивной среде дети учатся эмпатии, сотрудничеству и социальному лидерству, что крайне важно для их будущего в глобализованном мире.

Перспективы развития инклюзивного образования тесно связаны с цифровизацией. Внедрение ассистивных технологий, таких как системы распознавания речи, программы экранного доступа и интерактивные обучающие платформы, позволяет нивелировать многие физические ограничения. Однако

технологический прогресс должен сопровождаться законодательной и экономической поддержкой. **В Узбекистане принятые Концепции** развития инклюзивного образования до 2025 года создают прочную правовую базу, но механизмы их реализации на местах требуют постоянного мониторинга. Одной из ключевых перспектив является развитие системы раннего вмешательства. Чем раньше ребенок с особыми потребностями попадает в инклюзивную среду (начиная с дошкольного возраста), тем выше вероятность его успешной социальной интеграции в будущем.

Истинная инклюзия — это процесс, не имеющий конечной точки, это постоянный поиск путей совершенствования человеческих отношений. Она требует не только изменения материально-технической базы, но и **«инклюзии в умах»**. В условиях современного мира, где человеческий капитал признается высшей ценностью, право на образование становится не просто юридической нормой, а моральным императивом. Как подчеркивается во многих современных педагогических исследованиях, **«Инсонпарваржамият — бухарбираъзосининг фаркли жиҳатларини бойлик деб биладиган жамиятдир»** (Гуманное общество — это общество, которое считает индивидуальные различия каждого своего члена богатством). Таким образом, развитие инклюзивного образования является залогом формирования толерантного, демократического и интеллектуально развитого поколения, способного строить будущее на принципах равенства и справедливости.

Подводя итог, можно утверждать, что инклюзия — это долгосрочная инвестиция в социальную стабильность. Трудности, возникающие на этапе её внедрения, являются естественными индикаторами роста системы. Преодоление этих барьеров через научный подход, качественную подготовку кадров и использование современных технологий позволит трансформировать образование из механизма передачи знаний в мощный инструмент социальной интеграции и личностного развития каждого гражданина [7].

Использованная литература:

1. Закон Республики Узбекистан «Об образовании» (новая редакция). — Ташкент, 2020.
2. Алехина С. В. Принципы инклюзии в контексте современного образования. — М.: Графит, 2014.
3. Концепция развития инклюзивного образования в системе народного образования Республики Узбекистан в 2020–2025 годах.
4. Выготский Л. С. Основы дефектологии. — СПб.: Лань, 2003.
5. Йулдошев Қ. Замонавий таълимда инклюзия муаммолари. — Тошкент: Фан, 2019.
6. Малофеев Н. Н. Инклюзивное образование в контексте современной социальной политики. — М.: Просвещение, 2010.
7. Назарова Н. М. Специальная педагогика. — М.: Академия, 2011.
8. Xasanova M., Ubaydullayev S. Communicative language teaching and learning // boshqaruv va etika qoidalari onlayn ilmiy jurnali. 2022. — т. 2. — №. 1. — с. 125-128.

Dilbarxon ALIXANOVA,
PhD, Associate Professor
Kokand State University
Kokand, Fergana, Uzbekistan

EFFECTIVE METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO SLOW-LEARNING UZBEK-SPEAKING LEARNERS AND THE ROLE OF RELIGION, GENDER, AND CULTURE

Annotation: are you, as a foreign language teacher, experiencing challenges in teaching foreign languages to school students? Does working with *slow learners* in your classroom particularly concern you? Do issues such as low learning achievement, lack of motivation, and the influence of cultural and social factors affect your teaching process? If these questions sound familiar, then this academic article is written especially for you.

Key words: *foreign language teaching, Turkic-speaking learners, slow learners, low-achieving students, philology, pedagogics, culture, gender, religion, Central Eurasia, “professional amnesia”, “mental map”*

Аннотация: испытываете ли вы, как преподаватель иностранных языков, трудности в обучении школьников иностранным языкам? Вызывает ли у вас особую обеспокоенность работа с отстающими учениками в вашем классе? Влияют ли на ваш процесс обучения такие проблемы, как низкая успеваемость, отсутствие мотивации и влияние культурных и социальных факторов? Если эти вопросы вам знакомы, то эта научная статья написана специально для вас.

Ключевые слова: *преподавание иностранного языка, тюркоязычные учащиеся, отстающие в обучении, отстающие в обучении учащиеся, филология, педагогика, культура, пол, религия, Центральная Евразия, “профессиональная амнезия”, “ментальная карта”*

Annotatsiya: siz, chet tili o'qituvchisi sifatida, maktab o'quvchilariga chet tillarini o'qitishda qiyinchiliklarga duch kelyapsizmi? Sinfingizda sekin o'rganuvchilar bilan ishlash sizni ayniqsa tashvishga solyaptimi? O'qishdagi past natijalar, motivatsiyaning yo'qligi va madaniy va ijtimoiy omillarning ta'siri kabi muammolar sizning o'qitish jarayoningizga ta'sir qiladimi? Agar bu savollar tanish tuyulsa, unda ushbu akademik maqola siz uchun maxsus yozilgan.

Kalit so'zlar: *xorijiy tillarni o'qitish, turkiyzabon o'quvchilar, sekin o'rganuvchilar, o'qishdagi past o'quvchilar, filologiya, pedagogika, madaniyat, gender, din, Markaziy Yevroosiyo, “professional amneziya”, “aqliy xarita”*

Introduction

The “New Uzbekistan” era has established foreign language proficiency as a pillar of national development. Since the **2012 Presidential Decree PQ-1875**, foreign languages have been compulsory from the first year of schooling. However, a significant portion of the student population—classified as “**slow learners**”—struggles to keep pace with standardized curricula. These learners do not necessarily possess cognitive disabilities but require more time, repetition, and varied stimuli to internalize linguistic data. The primary hurdle is not a lack of aptitude but a “**clash of systems.**” Slow learners are often caught between the analytical demands of Indo-European languages (like English) and the **agglutinative structure of their native Uzbek**. Furthermore, the transition between Latin and Cyrillic scripts adds a layer of cognitive load that can lead to “**professional amnesia**” in the classroom. Well, what are the main reasons for these problems and how are they solved? Let's discuss briefly.

Main Part. Firstly, **The Shift from Rote to Reality** Contemporary research in Uzbekistan emphasizes a transition from teacher-centered to learner-centered classrooms. Secondly, **communicative didactics**. Modern pedagogical development encourages the use of natural speech situations—such as advertisements or telephone conversations—to prioritize “understanding” over “correcting”.

In addition, **scaffolding and TPR**. In primary and secondary contexts, scaffolding providing temporary support as students develop new skills—has proven essential for slow learners. Total Physical Response (TPR), which connects language to movement, is particularly effective for students who find abstract grammar rules overwhelming. Next, **technology-enhanced learning**. Tools like Computer-Assisted Language Learning (CALL) and mobile apps provide the spaced repetition necessary for slow learners to move vocabulary into long-term memory.

Moreover, **the role of religion**. Theolinguistic Bridges

in Uzbekistan, Islam provides a deep “**mental map**” that educators can use as a teaching tool. Theolinguistic Influence: The Uzbek lexicon is rich in Arabic-origin loanwords (e.g., *ilm* for knowledge, *kitob* for book). For a slow learner, identifying these “**sacred cognates**” in a foreign language (such as the Arabic-influenced Spanish word *libro*) can act as a cognitive anchor. Religious Discourse as Practice: Religious speech in Uzbekistan often begins with specific Arabic phrases (e.g., Bismillah) and follows a predictable pragmatic structure. Teachers can use this familiarity with structured ritual language to help slow learners master highly structured foreign language genres, such as formal letter writing or introductions.

Also, **motivation through values**. Framing the acquisition of a foreign language as a means of achieving “universal values” of tolerance and respect (**baghrikenglik**) aligns with local religious ethics, potentially increasing the learner’s “investment” in a difficult task.

As we know **gender dynamics in the Uzbek classroom** **gender** roles significantly influence how Uzbek students interact with foreign languages. Research indicates that Uzbek female learners often employ more polite, expressive, and cooperative styles. In contrast, male learners may prioritize goal-oriented or pragmatic approaches, often performing better in competitive or task-based activities. While myths suggest **females are naturally better at languages, empirical data shows that instructional context is more critical**. However, in many Uzbek settings, females show a higher use of compensation strategies—using synonyms or gestures when they forget a word which is a vital skill for slow learners. Thus, educators should recognize that “**verbal behavior**” can lead to misunderstandings; for instance, a female student’s “**shyness**” may be a stylistic choice of politeness rather than a lack of knowledge.

In fact, **cultural identity and the “andisha” barrier** are also other factors which must be paid attention while teaching. The cultural **concept of andisha** (modesty/shyness) is perhaps the greatest psychological hurdle for the slow learner.

Besides, we must say that **fear of negative evaluation** are also one of the main barriers. Uzbek culture highly values humility and “**saving face**.” For a slow learner, the prospect of making a grammatical mistake in front of peers is often seen as a public **shame (sharmanda)**, leading to **Foreign Language Anxiety (FLA)**. Qualitative research in Uzbekistan shows that students with high anxiety avoid participation and struggle to retain material. However, when teachers use authentic materials related to Uzbek culture (e.g., **describing a wedding or Navruz**), learners

feel more “affirmed” in their identity and their anxiety levels drop significantly.

Pedagogical Recommendations. Strategies for Enhancing Instructional Effectiveness based on the psychological, cultural, and religious factors analyzed in this study, the following systematic strategies are recommended for educators working with slow-learning Uzbek-speaking students:

a) **Implementing a Multisensory Integration Approach**

To mitigate the cognitive load caused by the “script divide” (navigating between Latin, Cyrillic, and foreign alphabets), visual and auditory stimuli alone are insufficient.

Recommendation: utilize the Total Physical Response (TPR) method, where students associate new verbs and vocabulary with physical movements. Educators should also incorporate “tactile memory” by having students trace letters in sand or on textured surfaces. Color-coding grammatical structures (e.g., blue for masculine, pink for feminine) transforms abstract rules into concrete mental anchors.

b) **Overcoming the ‘Andisha’ Barrier via Digital Mediation**

The cultural values of modesty (*andisha*) and the fear of public shaming (*sharmanda*) often lead slow learners to remain passive to avoid visible failure.

Recommendation: integrate anonymous digital platforms such as Duolingo for Schools, Quizizz, or Kahoot. These tools allow students to practice independently in a “face-saving” environment. By removing the immediate gaze of the teacher and peers, the learner is free to make mistakes and learn from them without social anxiety, gradually building the confidence necessary for classroom participation.

c) **Utilizing Theolinguistic Bridges**

An Uzbek student’s religious and cultural worldview should be viewed as an asset rather than an obstacle.

Recommendation: leverage the abundance of Arabic and Persian loanwords in the Uzbek lexicon (e.g., *ilm*, *kitob*, *adolat*) to explain foreign concepts. For instance, connecting the English word “justice” to the familiar Uzbek-Islamic concept of *Adolat* provides a cognitive shortcut. Furthermore, framing language acquisition as a form of «seeking knowledge» (*ilm izlash*)—a sacred duty in Islamic ethics—can significantly boost the internal motivation of the learner.

d) **Cultural Contextualization and Meaningful Communication**

Slow learners often struggle with the “**double burden**”

of learning a new language alongside unfamiliar foreign cultural concepts.

Recommendation: ground initial lessons in authentic Uzbek cultural materials. Instead of discussing London's geography, tasks should focus on familiar topics like "**Navruz Traditions**", "**Mahalla Life**", or "**Hospitality Ethics**". When the content is familiar, the learner's cognitive resources are freed to focus entirely on linguistic acquisition rather than trying to decode a foreign culture simultaneously.

e) Gender-Sensitive Differential Instruction

Recognizing the distinct communication styles of male and female students in Uzbekistan allows for a more personalized learning experience.

Recommendation: employ flexible grouping strategies. Occasionally utilizing single-gender small groups can provide a "comfort zone" for slow learners to speak without the social pressure of mixed-gender dynamics. Provide female learners with collaborative, expressive tasks, while offering male learners goal-oriented, task-based challenges that provide a sense of tangible achievement.

f) Prioritizing Communication Over Correction

Constant correction of minor errors reinforces a slow learner's sense of inadequacy and halts the flow of speech.

Recommendation: adopt a "Deep Learning" approach that prioritizes communicative intent over grammatical perfection. If a student successfully transmits an idea, they have achieved a victory. Educators should withhold immediate correction during speech, instead taking notes to provide general feedback at the end of the session, thereby lowering the student's "Affective Filter".



Conclusion

The successful instruction of slow-learning Uzbek speakers depends on the educator's ability to view the student as a "cultural-religious whole." By moving away from "dry" grammar and embracing theolinguistic bridges, gender-sensitive strategies, and technological scaffolding, we can transform the foreign language classroom from a place of anxiety into a space of intercultural growth. Future research should focus on developing a standardized "Uzbek-Specific" curriculum for slow learners that explicitly integrates these socio-cultural factors.

REFERENCE:

1. Abduazizova, D. A. (2021). The role of gender in the acquisition of English as a foreign language among Uzbek learners. *Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics*, 8(2), 45–58. doi.org
2. Al-Azami, S. (2016). *Religion in the language classroom: Exploring the intersection of faith and pedagogy*. Palgrave Macmillan. doi.org
3. Asher, J. J. (2012). *Learning another language through actions (7th ed.)*. Sky Oaks Productions. (Original work published 1969). tpr-world.com
4. Azizova, S. (2020). Developing communicative competence in the "New Uzbekistan": Challenges for slow learners. *Uzbekistan Journal of Education and Social Science*, 4(1), 112–125. inlibrary.uz
5. Dörnyei, Z., & Ushioda, E. (2011). *Teaching and researching: Motivation (2nd ed.)*. Longman. doi.org
6. Khamidova, M. (2019). Theolinguistics in the Uzbek language: The influence of Arabic-Islamic terminology on linguistic identity. *Central Asian Journal of Culture and Society*, 11(3), 19–34. www.academicpublishers.org
7. Krashen, S. D. (1982). *Principles and practice in second language acquisition*. Pergamon Press. www.sdkrashen.com
8. Mirzayeva, M. M. (2022). Overcoming 'Andisha': Social anxiety and public speaking in the Uzbek foreign language classroom. *Modern Science and Research*, 1(2), 304–318. inlibrary.uz
9. Nazarova, G., & Kasimova, Z. (2021). Multisensory approaches to teaching English in primary schools of Uzbekistan. *International Journal of Pedagogics*, 3(5), 67–74. doi.org
10. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching (3rd ed.)*. Cambridge University Press. doi.org
11. Saidov, A. (2018). *Islamic ethics and education in modern Uzbekistan*. Tashkent State University Press. uzedu.uz
12. Tursunova, R. (2023). Gender-sensitive pedagogy in Central Asian ESL classrooms: A comparative study. *Asian Journal of Education and Social Studies*, 45(1), 1–15. doi.org
13. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes*. Harvard University Press. www.hup.harvard.edu

KICHIK TADQIQOT



Shahlo MO'MINOVA,
Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion
universitet 2 - kurs magistranti

ALISHER NAVOIYNING "MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASIDA MIRZO ULUG'BEKKA OID LEKSIKA

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada tarixda astronom olim sifatida shuhrat qozongan ulug' ajdodimiz Mirzo Ulug'bekning ijodiy faoliyati Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkiri ma'lumotlari asosida yoritiladi.

Movarounnahr hukmdori Ulug'bek nafaqat astronom olim, matematik, balki shoir, adabiyotshunos va adib ham bo'lgan. Manbalar Ulug'bekning turli xil ilmlardan xabardor mutafakkir olim bo'lganini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: tazkiralar, "Hofizi Qur'on", xamsaxonlik, "Ziji jadidi Ko'ragoniy", riyoziyot.

Annotation: this scientific article examines the creative activity of our great ancestor Mirzo Ulugbek, who became famous in history as a great astronomer and scientist, based on information from Alisher Navoi's «Majolis un-nafois» tazkir.

The ruler of Movarounnahr Ulug'bek, was not only an astronomer, mathematician, but also a poet, literary critic and writer.

Sources confirm that Ulugbek was a thinker – scientist with knowledge of various sciences.

Key words: tazkiras, «Hafizi Quran», Hamsa Khan, «Ziji Jadidi Koragani», mathematics.

Аннотация: данная научная статья исследует творческую деятельность нашего великого предка Мирзо Улугбека, вошедшего в историю как великий астроном и ученый, на основе информации из тазкира Алишера Навои «Majolis un-nafois».

Правитель Моваруннахра Улугбек был не только астрономом и математиком, но и поэтом, литературным критиком и писателем.

Источники подтверждают, что Улугбек был мыслителем-ученым, обладавшим знаниями в различных науках.

Ключевые слова: тазкиры, «Хафиз Коран», Хамса Хан, «Зиджи Джадиди Корагони», математика.

Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkiri va zamondoshlari asarlarida Movarounnahr hukmdori **Muhammad Tarag'ay Ulug'bek** (1394-1449) "sulton", "donishmand podshoh", "mirzo Ulug'bek", "Ulug'bek Ko'ragon", "Ulug'bekxon" nomlari (leksik birliklari) bilan atalgan. Tadqiqotchi olim Zabo Isoqovanning yozishicha, "Majolis"da keltirilgan ijtimoiy – siyosiy soha leksik birliklari-ning aksariyati o'sha davr temuriylar hukmronligi tarixini aks ettiruvchi tarixiy manbalar matnida qo'llanilgan lug'aviy birliklar tizimiga muayyan darajada mos tushadi. "Majolis" va Navoiyning zamondoshlari asarlarida Mirzo Ulug'bek quyidagi nomlar bilan atalgan: **Podshoh, Shah, Hoqon, Sulton Ulug'bek, Ulug'bekxon, Ulug'bek Ko'ragon, Mirzo Ulug'bek, Ulug'bek bahodir, zamon podshohi, Islom podshohi, sulton us-salotin, Sohibqiron sulton, Sultoni G'oziy.**

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da Ulug'bekni "donishmand podshoh" deb shunday yozgan: **"Donishmand podshoh** erdi. Kamoloti bag'oyat ko'p erdi. Yetti qiroat bila Qur'oni majid yodida erdi. Hay'at va riyoziyoni xo'b bilur erdi. Andoqkim, zij bitidi va rasad bog'ladi va holo aning ziji oroda shoe'dur. Bovujudi bu kamolot goho nazmg'a mayl qilur erdi". Albatta, Navoiy "Hofizi Qur'on" Mirzo Ulug'bekni "kamoloti bag'oyat ko'p erdi" deya, uning turli ilmlardan xabardor mutafakkir zot bo'lganiga urg'u bergan. Binobarin, tazkiranavis Davlatshoh

Samarqandiy esa hukmdorni "Ulug'bek Ko'ragon" deb ataydi: "Olim, odil, g'olib (va) himmatli podshoh **Ulug'bek Ko'ragon** yulduzlar ilmida osmon qadar yuksalib bordi, maoniy ilmida qilni qirq yordi. Uning davrida olimu fozillar martabasi nihoyat cho'qqisiga ko'tarildi.

(Mirzo Ulug'bek) handasa ilmida (harqanday) chigallarni yechguvchi, hay'at ilmida Majistiyyusho erdi. Fozillaru hakimlarning yakdil fikrlari shulki, islomiyat zamonida, (Iskandar) Zulqarnayn zamonidan shu damgacha Ulug'bek Ko'ragondek olim va podshoh saltanat taxtiga o'tirmagan. U riyoziyot ilmini shu darajada egallagan erdiki, zamonasining (ulkan) olimlari, chunonchi ulamolar va hakimlar faxri Qozizoda Rumi hamda G'iyosiddin Jamshid bilan birgalikda yulduzlar ilmiga rasad bog'ladi. (Lekin) zamonasining bu ikki ulug' olimi rasad oxiriga yetmay turib vafot etdilar va sulton (Ulug'bek) bor himmatini bu ishni oxiriga yetkazmoqqa sarf qildi. Rasadning qolgan qismini mirzoning o'zi poyoniga yetkazdi. "Ziji sultoni"ni kashf etib, uni o'z ismiga ziynatladi. Bukun bu zij hakimlar nazdida mo'tabar va amaldadir. Ba'zi (olim) lar uni "Ziji Nasiri Elxoniy"dan ortiq ko'radilar.

U otasi Shohruh Bahodir hukmronligi davrida Samarqand va Movarounnahrni qirq yil mustaqil idora etdi. Sulton Ulug'bek saltanatni boshqarish, adlu insofda maqbul yo'l tutar edi [Davlatshoh, 1981:148]. Valiy shoir Ismatilla

Buxoriy "Dar borai Ulug'bek" qasidasida ham hikmat sohibi bo'lgan olim temuriyzodani "Ulug'bek sulton" deb yozgan:

**Ulug'bek sultone, ki az haybati boisash,
Zaru boh amin cho'yad, ba har shabihi sheru nar.
Chu Suqrotu Buqrot, base chovushu darbon,
Chu Xurshedu Jamshidat, base bandavu chokar.
Zi bahsi tu dar hay'at Arastu shud mulzam,
Zi nutqi tu dar hikmat shud bo' Ali mahzar.**

(Mazmuni: Ulug'bek shunday sultondir, uning haybatidan barcha nafs qullari erkak sherdan qo'rqqani kabi omonlik tilaydilar. U Suqrot va Buqrot kabi hikmat eshiklarini ochuvchi, uning eshigida Xurshid va Jamshiddek buyuk shohlar ham banda va askar bo'lishga yaraydi. Uning hay'atidan Arastu mulzam bo'ldi. Uning hikmatli nutqidan Ibn Sino mahzar bo'ldi.)

G'iyosiddin Jamshid Koshiy 1417 yili Samarqanddan Koshonga otasiga yozgan maktubida Mirzo Ulug'bekni "Islom podshohi – donishmand kishidir," deydi: "Haqiqat shuki, avvalo u kishi Qur'oni Karimning aksariyat qismini yoddan biladi. Tafsirlarni va mufasssirlarning har bir oyat haqidagi so'zlarini aqlida saqlaydilar va yoddan biladilar va arabchada g'oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishi fiqhdan ancha xabardorlar, mantiq ma'nolarining bayoni va usullaridan ham xabardorlar".

Mirzo Ulug'bek atrofida shoirlarni to'plab, adabiy majlislar o'tkazishni yoqtirgan. Saroy shoirlari Mavlono Badaxshiy, Ismatillo Buxoriy, Sakkokiylar Ulug'bek Mirzoning "firdavsmonand" majlislarida doimiy qatnashishgan va o'z she'rlarida uni "Shohi dono", "Ulug'bekxon", "Sulton us-salotin" nomlari bilan ulug'lashgan. Mavlono Sakkokiyning quyidagi baytlari bunga yaqqol misoldir:

**Falak yillar kerak sayr etsayu keltursa ilkingga,
Meningtek shoiru turkiyu saningtek shohi dononi.
Hamisha majlising bo'lsun, behishtu guluston rashki,
Nisur etsun qadumungda falak lu-lu loloni.**

Lutfiy ham o'z she'rlarida hukmdorni "Ulug'bekxon" deb madh etgan:

**Ulug'bek ham bilur Lutfiy kamolin,
Ki, rangin she'ri Salmondin qolishmas.**

Hazrat Alisher Navoiy Samarqand shahrida bo'lganda, "Ziji Ko'ragoniy"ni mutolaa qilgan. Vohid Abdullayevning yozishicha, "Navoiyning Ulug'bek haqida "Donishmand podshoh erdi, kamoloti bag'oyat ko'p erdi, hayat (astronomiya) va riyoziyni ko'p bilur erdi. Andoqkim, "Zich" bitdi va Rasad bog'ladi (Rasadxona qurdi) va holo aning "Zich"i aroda sho'dur" deb yozganlaridan ravshanki, bu ulug' olimning "Astronomik tablitsa"si ("Zichi jadidi Ko'ragoniy") bilan safdoshlarining kitoblari ham Fazlulloh Abullaysiy shogirdlari (jumladan Navoiyning ham)ning qo'llaridan tushmaydigan kitoblardan bo'lgan [Abdullaev, 1967: 9-12]. "Ko'zi oldida osmon past bo'lgan" olim temuriyzodani "Shah" va "Sulton Ulug'bek" deb Navoiy shunday ifodalagan:

**Temurxon naslidan sulton Ulug'bek,
Ki olam ko'rmadi sulton aningdek.
Aning abnoyi jinsi bo'ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.
Va lek ul ilm sori topti chun dast,
Ko'zi olinda bo'ldi osmon past.
Rasadkim bog'lamish – zebi jahondur,
Jahon ichra yana bir osmondur.
Bilib bu nav' ilmi osmoniy,
Ki andin yozdi: "Ziji Ko'ragoniy".
Qiyomatg'a dekincha ahli ayyom,
Yozarlar oning ahkomidin ahkom.**

Muxtasar qilib Navoiy iborasi aytganda, o'z zamonida Mirzo Ulug'bekni "sulton Ulug'bek", "hoqon", "donishmand podshoh", "Mirzo Ulug'bek", "Islom podshohi", "Ulug'bekxon", "Ulug'bek Ko'ragon" nomlari bilan atashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Majolis – un-nafois. – T.: G'. G'ulom nomidagi ASN, 1966.250-bet.
2. Abdullayev V. Alisher Navoiy Samarqandda. –T: "Bilim" jamiyati.1967.9-12-bet.
3. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirlar bo'stoni («Tazkirat ush-shuaro»dan). –T.: G'. G'ulom nomidagi ASN, 1981.148-149-bet.
4. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. Fors tilidan B. Ahmedov, N. Norqulov, M. Hasaniy. T.: Cho'lpon, 1994.8-bet.
5. Mirzo Ulug'bek. Ilmi nujum. «Ziji jadidi Ko'ragoniy» to'rtinchi kitobi. Tarjimon, izohlar muallifi va nashrga tayyorlovchi: Ashraf Ahmad. –T.: Meros, 1994.3-4-bet.
6. Faxriy Hiraviy. Ravzat us-salotin. –T.: Mumtoz so'z, 2014.69-70-b.
7. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. –T.: Yozuvchi – Xazina, 1995.242-bet.
8. Qosimov B. Uyg'ongan millat ma'rifati. –T.: Ma'naviyat, 2011.119-128-bet.
9. Qorayev Sh. Navoiy adabiy majlislari. – Qarshi: "Qashqadaryo ko'zgusi OAV", 2019.180-bet.
10. Qorayev Sh. Navoiy majlislari. –Toshkent: Lesson – Press, 2020.312-bet.
11. Qorayev Sh. Temuriylar davri adabiy majlislari (Alisher Navoiy qarashlari asosida). –Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021.262-bet.
12. Qorayev Sh. Temuriy shoirlar tazkisasi. –Qarshi: Intellekt, 2023.262-bet.

Gullola OLIMOVA,
O'zJOKU 1- bosqich magistranti

NAVOIY NASRIDAGI NA'TLAR JILOSI

Annotatsiya: maqolada Alisher Navoiyning nasriy asarlaridagi na't (Payg'ambar s.a.v.ga maqto'v)lar haqida so'z boradi. Dastlab na't tushunchasi haqida ma'lumot berilgach, Navoiy nasridagi na'tlar tasnif qilinadi va she'riy na'tlar, nasriy na'tlar hamda aralash (ham she'riy, ham nasriy) na'tlarga ajratiladi. Na'tlarda o'rni bilan lirik janrlardan ham istifoda etilgani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, nasriy asarlar, na't, ruboiy, masnaviy, bayt, nazm

Аннотация: в статье рассматриваются наъты (хвалебные тексты в честь Пророка Мухаммада, мир ему и благословение) в прозаических произведениях Алишера Навои. Сначала даётся краткая информация о понятии наът, после чего проводится классификация наъттов в прозе Навои. Они подразделяются на поэтические наътты, прозаические наътты и смешанные наътты (сочетающие поэтическую и прозаическую формы). Также подчёркивается, что в наъттах по мере необходимости используются и лирические жанры.

Ключевые слова: Алишер Навои, прозаические произведения, наът, рубаи, маснави, бейт, назм.

Annotation: this article examines *na'ts* (panegyric texts praising the Prophet Muhammad, peace and blessings be upon him) in the prose works of Alisher Navoi. First, a brief explanation of the concept of *na't* is provided, after which the *na'ts* found in Navoi's prose are classified. They are divided into poetic *na'ts*, prose *na'ts*, and mixed *na'ts* (combining both poetic and prose forms). The article also emphasizes that lyrical genres are employed in *na'ts* where appropriate.

Key words: Alisher Navoi, prose works, *na't*, *rubā'i*, *masnavi*, *bayt*, *nazm*.

XV asrning buyuk siymosi, o'zbek adabiy tilining asoschisi hazrat Alisher Navoiy ijodiga nazar solar ekanmiz, uning butun bir ummon ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bir ummonki, sho'ng'iganing sari ilm gavharlarini teran ko'ra boshlaysan, his eta boshlaysan, kishi. Jomiy e'tiroficha, Navoiydek turkiy tilda "hech kim ko'p va xo'b she'r yozmag'an" [1] esa-da, uning jami asarlari, xoh turkiy bo'lsin, xoh forsiy, mukammal tarzda bitilgan. Navoiy teran falsafiy, adabiy ilmlarga ega bo'lgani holda mukammal diniy bilim sohibi ham bo'lgani sir emas. Bolalik chog'idan tasavvufiy mazmunni o'zida aks ettirgan Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" dostonini yod olgani, "Mir Nizomiddin", ya'ni "dinning nizomi – qonuni"[2] deya atalgani ilm ahliga ma'lum.

Ayni e'tiqodni hayoti hamda ijodiga singdirgan g'azal mulkning sultoni dostonlari, devonlari singari nasriy asarlarini ham Allohga hamd hamda payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ga na't qismlari bilan qalb va qalam ziynati-la bezagan. Na't atamasiga Shayx Ahmad Taroziy shunday ta'rif beradi: "Agar Tengri azza va jallag'a hamd etsalar, oni tavhid derlar. Va agar Muhammad Mustafo sollallohu alayhi vasallamni vasf qilsalar, na't derlar. Agar Tengri hazratinda tazarru' qilsalar, munojot o'qurlar" [3]. Alisher Navoiy asarlari izohli lug'atida ushbu so'zning lug'aviy ma'nosi "maqdash", "baho berish", "sifatlash"[4] tarzida izohlanadi.

Navoiy "Mukammal asarlar"ining XIII – XX tomlarida nasriy asarlar joy olgan. Ulardagi na't qismlarni shaklan quyidagi guruhlariga ajratib nazar tashlasak, aniqroq mushohada qila olishimizga imkon tug'iladi.

1. Nazmda ifodalangan na'tlar. Bu sinfga faqat "Xamsat ul-mutahayyirin"dagi Muhammad s.a.v.ga bag'ishlangan na't kiradi. Risola nasriy ifoda yoxud alqovlarsiz to'g'ridan to'g'ri aruzda bitilgan na'tni o'z ichiga oladi. "Xamsat ul-mutahayyirin"da ushbu qism turkiy tilda qalamga olinganligi bilan xarakterlidir.

2. Nasrda ifodalangan na'tlar. Ushbu shakldagi na'tlar faqat sochmada bitilgan. "Majolis un-nafois", "Me'zon ul-avzon", "Munojot", "Risolayi tiyr andoxtan", "Nasoyim ul-muhabbat" asarlaridagi na'tlar bunga misol bo'la oladi. Bular turkiyda yozilgan.

3. Nazm va nasrda ifodalangan na'tlar. "Nazm ul-javohir", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mahbub ul-qulub", "Vaqfiya", "Munshaot"da bitilgan na'tlar aralash (ham she'riy, ham nasriy) kelgan. Barchasi turkiy tilda bitilgan. Ushbu shaklda dastlab Payg'ambarimizning ta'rif-u maqtovlari sochma tarzda yozilgan bo'lib, undan so'ng aruzda kamida to'rt misrada fikr umumlashtiriladi. Navoiy ba'zan ularni janrlar bilan, xususan, "ruboiy", "masnaviy" deb ataydi yoxud hech bir nom bermaydi. Chunonchi, "Nazm ul-javohir" hamda "Muhokamat ul-lug'atayn"da ruboiy tarzida o'qiymiz:

Ruboiy:

Ul sham'ki, "vazzuho" quyosh yuzidur,
Mazog' bila surma chekilgan ko'zidur,
Aning sarikim, o'zi ul-u ul o'zidur,
Borcha "inna minka anta minyi" so'zidur [5].

(“Nazm ul-javohir”)

Ruboiy:

Ya'niki, chu olamni yaratti Ma'bud,
Olam eliga qudrat ila berdi vujud.
Inson edi maqsudki, bo'ldi mavjud,
Insondin ham habibi erdi maqsud [6].

(“Muhokamat ul-lug'atayn”)

“Mahbub ul-qulub”da esa *masnaviy* deb atalgan na't qismi kelgan:

Masnaviy:

Iki gisusi iki laylat ul-qadr,
Bu yanglig' iki layl ichra yuzi badr,
Layl-u badr o'lub sham'i shabiston,
Uzordin xo'y anda kavkabiston.
Bu kavkablardan aylab Tengri mavjud,
Nubuvvat ma'sharig'a durri maqsud.
Nubuvvat sipehrida quyosh erkoni ma'lum,
Musohiblar sha'nida as'hobi kaniujum [7].

“Vaqqiya” risolasida kelgan she'r Navoiy tomonidan “nazm” deyilgan, ammo shakl to'liq masnaviy talabiga javob beradi:

Nazm:

Liy ma'a Ollohning sarfarozi,
Qoba qavsayn mahrami rozi.
Taxti ostida farshi u adno
Toji ustida durrimo avho.
Sochi tobida laylat ul-me'roj
Shomi me'roji charx boshig'a toj...
... Etma mahrum aning itoatidin
Qilma navmed aning shafaotidin [8].

Bundan tashqari, “Munshaot” na'tining nazmiy qismida kelgan misralar aynan janriy nuqtayi nazardan nomlanmagan.

Nasriy asarlar haqida fikr yuritar ekanmiz, yana bir jihat e'tiborimizni tortdi: Navoiyning to'rtta nasriy risolasida na't qismi mavjud emas. Bular: “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Tarixi muluki Ajam”. Risolalar Alloh nomi tilga olingan holda boshlanib, davom etib ketadi. Albatta, buning ham o'ziga xos bir sababi bo'lishi kerak. Zero, Navoiydek daho siymo ijodida kemptiklik emas, aksincha, mukammallikka intilish bor bo'y-basti bilan ko'rinadi. Demak, asarlar tarkibi ham bundan xoli bo'lishi ehtimoldan yiroqdir. Keyingi maqolalarda bu masalaga oydinlik kiritishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy nafaqat devon tuzish yoki dostonlar yozishda kompozitsion yaxlitlikka e'tibor qaratgan, balki nasriy asarlarining qurilishiga ham jiddiy e'tibor qaratgan. Har bir risolasini boshlashdan oldin Yaratganga hamd, Payg'ambarimizga na't bilan murojaat qilgan, shafolat tilagan, madad o'tingan. Shu asnoda nabiyimiz maqtovlari, alqovlarini bitishda shaklan nazm yoki nasrga yoinki har ikkalasiga ham murojaat qilgan. Navoiy olamiga sayohat qilar ekanmiz, uning “ko'ngli ilohiy ishq bo'stoni”[9] ekanligi holda, “g'urbatda g'arib” o'laroq “shodumon” bo'la olmagani va'jidan Yaratganga hamd-u sano aytish orqali O'zining rahmatidan, Payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ning shafaotidan umidvor ekanini anglaymiz. Biz ham Navoiyning ijod ummonidan bahramandlik bahonasida ushbu ne'matlardan bahra olmoqni O'zidan so'rab qolamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmon Jomiy. Bahoriston. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. 89-b.
2. Yusupova D. Alisher Navoiy siroj ul-muslimin. Alisher Navoiyning diniy va tasavvufiy asarlari. Xurshid Davron kutubxonasi. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/dilnavoz-yusupova-alisher-navoiyning-diniy-va-tasavvufiy-asarlari.html>
3. Shayx Ahmad ibn Hudoydod Taroziy. Funun ul-balog'a. – Toshkent, 1996.32-b.
4. Alisher Navoiy asarlari izohli lug'ati. 2-jild. – Toshkent: Fan, 1983. 444-b.
5. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.15. – Toshkent: Fan, 1999. 94-b.
6. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.16. – Toshkent: Fan, 2000. 5-b.
7. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.14. – Toshkent: Fan, 1998. 7-b.
8. Alisher Navoiy. MAT. 20 tomlik. T.14. – Toshkent: Fan, 1998. 175-b.
9. Haqqulov Ibrohim. Tasavvuf va she'riyat. – Toshkent: “G'afur G'ulom”, 1991. 122-b.

Nasiba JO'RAYEVA,
Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universitet
2-kurs magistranti

BOBUR "DEVON"IDAGI ALISHER NAVOIYGA BAG'ISHLANGAN RUBOIYLAR LINGVOPOETIKASI

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqola Zahiriddin Muhammad Bobur "Devon"idan o'rin olgan buyuk shoir Alisher Navoiyga bag'ishlangan ruboiylarning o'ziga xos xususiyatlari – lingvopoetikasiga bag'ishlanadi.

Ma'lumki, Bobur Mirzo Samarqand shahrini zabt etganda, unga Hirotdan, ya'ni Navoiydan maktub kelgan. Bobur ham unga javoban Navoiyga xat yozgan va unga ruboiylar ilova qilgan.

Kalit so'zlar: turkiy til, kitobat, turkiy bayt, ruboiylar, Unsiya.

Аннотация: данная научная статья посвящена специфическим особенностям рубаи – поэтики Захириддина Мухаммеда Бабур, посвященной великому поэту Навоий из «Девона».

Известно, что когда Бабур Мирза завоевал город Самарканд, он получил письмо из Герата, то есть от Навои. Бабур также написал ответное письмо Навои, приложив к нему рубаи.

Ключевые слова: турецкий язык, китабат, турецкая поэзия, рубаи. Унсия.

Annotation: this scientific article is devoted to the specific characteristics of the rubai – poetics of Zahiriddin Muhammad Babur, dedicated to the great poet Navoi from "Devon".

It is known that when Babur Mirza conquered the city of Samarkand, he received a letter from Herat, that is, from Navoi. Babur also wrote a letter to Navoi in response to him and attached rubai's to the letter/

Key words: Turkish language, kitabat, turkish bayt, rubaiyat, Unsia.

"Boburnoma"da Bobur Mirzo Alisher Navoiyni yuksak hurmat bilan tilga oladi: "Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubturlar, hech kim oncha oncha ko'p va xo'b aytqon emas... Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha, murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay". Albatta bu yuksak hurmat yoki taqdirning tuhfasi, Bobur Mirzo Hirotda borganida, Navoiy barpo etgan imoratlarni o'z ko'zi bilan ko'radi: "Muncha binoyi xayrkim (xayrli maqsadda qurilgan binolar) ul (Navoiy) qildi, kam kishi mundaq muvaffaq bo'lg'ay... Hirida erdim, har kunda ko'rmagan yerlarni sayr qilur edim... Badi'uzzamon Mirzoning Jo'yi Injil yoqasidagi madrasasi va Alisherbekning o'lturur uylarikim, "Unsiya" derlar, maqbara va masjidi jomeinikim, "Qudsiya" derlar, madrasasi va xonaqohinikim, "Xalosiya" va "Ixlosiya" derlar, hammom va dorish-shifosinikim "Safoiya" va "Shifoiya" derlar, borini andak fursatta sayr qildim". Bobur Hirotda har kuni shaharni aylanib, Alisher Navoiy bog'chasiyu taxti Navoiydan tortib, barcha imoratlarni o'z ko'zi bilan ko'rishga muvaffaq bo'lganidan, mutafakkirni ko'rgan ulug' zotlar bilan suhbatlashganidan va ustozni yurgan yo'llardan yurganidan bag'oyat baxtiyor edi! Shuningdek, Bobur Mirzo 1506-yilning kuzida Hirotda Injil arig'i yoqasidagi Alisher Navoiyning uyida yashaganining o'ziyoq buyuk mutafakkirga bo'lgan yuksak e'tiqod va

ixlosdan darak beradi: "Alisherbekning uylarini ta'yin qildilar. Hiridin chiqquncha, Alisherbekning uylarida edim". Ammo bu ikki buyuk insonga hayotda bir – biri bilan uchrashish nasib etmagan. Bobur butun hayoti mobaynida Navoiy ijodidan ta'sirlanib, she'rlar yozgan. Shohlar shoirining devonida Navoiy she'riyati ta'siri sezilib turadi. Bobur Mirzoning g'azal mulking sultoni she'riyatini sinchiklab o'rgangani hamda she'rlarini yoddan bilgani "Aruz" risolasida yaqqol ko'zga tashlanadi. Risolaning birinchi qismida Jomiydan 6 ta, Xusrav Dehlaviy va Hofiz Sheroziydan 4 tadan, Sa'diy va Shohiydan 3 tadan, Kamol Xo'jandiydan 2 ta va yana 18 nafar boshqa shoir ijodidan bittadan bayt misol tariqasida keltirilgan holda shoirlar sultonining g'azaliyotidan 26 ta baytdan foydalanilganligi hamda asarning ikkinchi qismi uchun ham Navoiydan eng ko'p, aniqrog'i 264 bayt olinganligi fikrimiz dalilidir. "Aruz"da yana bir mulohazaga duch kelamiz: "Xoja Xusrav Dehlaviyning "Daryoi abror"i bu vazndadur... Bisyor yaxshi qasidadur. Ulug' shoirlar lahu aksar(unga ko'p) tatabbu' qilibturlar. Mir Alisher Navoiyning "Tuhfatul-afkor"ining matla'icha kam voqi' bo'lubtur". Bu bilan Zahiriddin Muhammad Bobur ustoz Navoiy qasidasining bir bayti ulug' shoirlar qasidalaridan balandroq ekanligini e'tirof etadi. Yana bir o'rinda ("Aruz"da) shoirlar sultonini Boburshoh Sa'diy Sheroziy, Firdavsiy, Nizomiy, Xusrav

Dehlaviy, Jomiy, Hotifiy va Sovajiyalar bilan bir qatorda ustod deb sharaflaydi.

“Boburnoma”da yozilishicha, 1499-yilda Navoiy temuriy shahzodaning kelajagini oldindan ko‘ribmi yoki daholarga xos ichki bir tuyg‘u bilan Boburga kitobat (maktub) yuboradi. Yosh temuriy shahzodaning bundan boshi ko‘kka yetadi. Albatta, o‘sha zamonda Alisher Navoiyning obro‘yi va ovozi yetti iqlimni tutgan edi. Bobur ham ko‘pchilik qatori shoirlar sultoni bilan uchrashish va suhbatlashish orzusida edi. Ammo Navoiy bilan muloqotda bo‘lish baxti nasib etmadi. Garchi Bobur Mirzo ham Navoiy xatiga javoban kitobat – maktub yuborgan bo‘lsa, bu gal maktub kelguncha Hazrat olamdan o‘tadi: “Bu ikkinchi navbat Samarqandni olg‘onda, Alisherbek tirik edi. Bir navbat manga kitobati ham kelib edi. Men ham kitobat yiborib edim, orqasida turkiy bayt aytib, bitib yiborib edim. Javob kelguncha tafriqa va g‘avg‘o bo‘ldi”. Biroq ushbu maktub Navoiyning qo‘liga yetgan yoki yetib bormaganligi noma‘lum. Chunki, bu palla Shayboniyxon yana Samarqandga hujum qilgan va Hazrat Navoiy vafot etgan tala-to‘p vaqtga to‘g‘ri keladi. Ammo eng muhimi, Bobur Mirzo ulug‘ mutafakkir Navoiyning nazariga tushgan edi. Afsuski, bu ikki buyuk shaxs o‘rtasidagi yozishmalar saqlanib qolmagan.

“Bobur devoni”dan joy olgan ruboiylarni yuqorida Bobur qayd etgan maktub orqasida bitilgan turkiy she‘rlar deb taxmin qilishimiz mumkin: “Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasida yozilishicha, “Maktubga bag‘ishlov ilova qilish o‘sha davr an‘anasi bo‘lgani, Boburning yuqorida keltirilgan qaydi hamda mazmunidan kelib chiqib, quyidagi ruboiylar Alisher Navoiyga bag‘ishlovlardan iborat, degan xulosaga kelish mumkin:

Ash‘oringkim, she‘r oti to bo‘lg‘ay,

Tab‘ ahli anga volau shaydo bo‘lg‘ay,

Har lafzi duru bahri ma‘oni anda,

Kim ko‘rdi dureki, anda daryo bo‘lg‘ay?!

(Dunyoda to she‘r bor ekan. Nozik didlilar she‘rlaringga maftun va shaydo bo‘laveradilar. Chunki ulardagi har bir so‘z gavharu, mazmun misli dengizdir. Tabiatda dengiz

gavharni o‘z ichiga oladi, sening she‘rlaringda esa gavhar, ya‘ni so‘z dengiz, chuqur va bepoyon mazmunni o‘z ichiga sig‘diradi).

Ruboiyda Bobur nazokat bilan Alisher Navoiyning quyidagi baytiga ishora qilgan.

*Dur bo‘lur bahr ichra pinhon, nazmidin shah madhida,
Bahr yoshurmish Navoiy har duri maknun aro.*

Quyidagi ruboiyda Navoiydan olingan maktubga ilova qilingan she‘r ta‘riflangan:

Eykim, bari she‘r ahlig‘a sen xon yanglig‘,

She‘ring bari she‘rlarg‘a sulton yanglig‘,

Mazmuni aning xatti savodi ichra,

Zulmat arosida obi hayvon yanglig‘!

(Sen barcha she‘r ahliga – shoirlarga xon kabisan. She‘ring boshqalarning she‘rlariga nisbatan sulton martabasidadir. She‘ring garchi qora siyoh bilan bitilgan bo‘lsada, mazmuni (men uchun) zulmatda obi hayot kabitdir).

Quyidagi ruboiyda esa Bobur Navoiy bilan uchrashish istagini ifoda etgan bo‘lishi mumkin:

She‘ring eshitur fikrini Bobur qildi,

Ne fikri xushu yaxshi tasavvur qildi,

Ko‘zni yoruq ayladi savodi birla,

Mazmuni bila quloqni purdur qildi.

(Bobur she‘ringni eshitsam, degan fikr qilgan edi. Qanday yaxshi fikr, qanday yaxshi tasavvur! She‘ring yozilgan xat siyohidan ko‘zi ravshan bo‘ldi, mazmunidan esa qulog‘i durga to‘ldi).

Bobur singari, Navoiy ham yosh shahzoda bilan uchrashish ishtiyoqida bo‘lgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Chunki Navoiyning shoir temuriy ijodkorlarga mehr-muhabbati bo‘lakcha bo‘lganligi, ularni doimo qo‘llab-quvvatlaganligi manbalardan ma‘lum. Ammo bu ikki buyuk siymoga bir biri bilan uchrashish va suhbatlashish baxti nasib etmadi.

Muxtasar qilib aytganda, buyuk Navoiyning nazari tushgan Bobur bir umr ma‘naviy ustoz asarlari qo‘ldan qo‘ymay o‘qidi va unga ergashdi, munosib bo‘lishga intildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: O‘qituvchi, 2008. 32-b.
2. Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi. – T.: “Sharq” NMAK BT,, 2014. 649-b.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. – T.: Fan, 1994. 144-b.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur. Muxtasar. Nashrga tayyorlovchi Saidbek Hasan. – T.: Fan, 1971. 592-b.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur. Nazm durdonalar. Nashrga tayyorlovchi Hasanxo‘ja Muhammadxo‘ja o‘g‘li. – T.: “Sharq”, NMK BT, 1996. 208-b.

Sevinch TOJIYEVA,
NavDU, Adabiyotshunoslik yoʻnalishi
 1-kurs magistranti

ADABIYOTSHUNOSLIKDA TAHLIL VA TALQIN TUSHUNCHALARI

Annotatsiya: mazkur maqolada badiiy asarni oʻrganish jarayonida muhim metodologik kategoriya hisoblangan tahlil va talqin tamoyillari ilmiy-nazariy jihatdan yoritiladi. Tadqiqotda tahlilning badiiy matn strukturasi va unsurlarini aniqlashdagi ahamiyati hamda talqinning maʼno hosil qilish jarayoni sifatidagi oʻrni ochib beriladi. Shuningdek, tahlil va talqin oʻrtasidagi dialektik bogʻliqlik, oʻquvchi omilining roli hamda koʻpmaʼnolilik tamoyili ilmiy asosda izohlanadi.

Kalit soʻzlar: *badiiy asar, tahlil, talqin, interpretatsiya, germenevtika, badiiy matn, adabiyotshunoslik, struktural tahlil, oʻquvchi omili, koʻpmaʼnolilik, estetik idrok, metodologiya.*

Аннотация: в данной статье с научно-теоретической точки зрения рассматриваются принципы анализа и интерпретации, которые являются важными методологическими категориями в процессе изучения художественного произведения. В исследовании раскрывается значение анализа при выявлении структуры и элементов художественного текста, а также роль интерпретации как процесса формирования смысла. Кроме того, на научной основе объясняются диалектическая взаимосвязь анализа и интерпретации, роль фактора читателя и принцип многозначности.

Ключевые слова: *художественное произведение, анализ, интерпретация, герменевтика, художественный текст, структурный анализ, многозначность, методология.*

Annotation: this article examines the principles of analysis and interpretation, which are considered important methodological categories in the process of studying a literary work, from a scientific and theoretical perspective. The research reveals the significance of analysis in identifying the structure and elements of a literary text, as well as the role of interpretation as a process of meaning formation. In addition, the dialectical relationship between analysis and interpretation, the role of the reader factor, and the principle of polysemy are explained on a scientific basis.

Key words: *literary work, analysis, interpretation, hermeneutics, literary text, structural analysis, polysemy, methodology.*

Kirish. Insoniyat yaralibdiki, uning yangiliklarni bilishga, nimalarnidir oʻrganishga va tajriba oʻtkazib koʻrishga boʻlgan qiziquvchanligi bor. Adabiyot ham xuddi shunday, bir yangi asar yaratilgani zahoti, u haqidagi taqriz va mulohazalar koʻp oʻtmay ommaga maʼlum boʻladi. Kitobxonlar asarni badiiy-estetik jihatdan baholashsa, adabiyotshunoslar asarni ilmiy-adabiy nuqtayi nazardan koʻrib chiqishadi. Asarlar yaxshi-yomonga, oʻqishli va oʻqishsizga, maʼno jihatdan sayoz va mukammalga qay tarzda ajratiladi? Bunda kitobxonlar fikri muhimmi yoki haqiqiy adabiyot ilmiga ega boʻlgan adabiyotshunoslar fikrimi? Aslida esa, bir asarning “umri uzoq boʻlishi” uning yaxshi yozilgani, Ibrohim Haqqulov taʼbiri bilan aytganda, “sanʼatkorlik zavqi ila yaratilgan”iga bogʻliqdir.

Asosiy qism. Har qanday badiiy asar mutolaa jarayonida bevosita tahlilga tortiladi. Xoh epik asar boʻlsin, xoh lirik, xoh dramatik asar boʻlsin, oʻqirman tomonidan mutolaa qilindimi, demak tahlil ham etiladi. Badiiy asarni anglash va oʻrganish jarayonida tahlil va talqin tushunchalari adabiyotshunoslikning eng muhim nazariy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Har qanday badiiy matn oʻzida koʻp qatlamli maʼno tizimini mujassam etgani sababli uni faqat voqealar bayoni yoki mazmuni

orqali tushunish yetarli emas. Asarni chuqur anglash uchun ilmiy tahlil hamda mazmuniy talqin jarayonlari uygʻun holda amalga oshirilishi zarurdir. Adabiyotshunoslik tarixiga nazar tashlansa, dastlab asarlar, asosan, muallif tarjimai holi yoki tarixiy sharoit bilan bogʻlab oʻrganilgan. Biroq, XX asrga kelib badiiy matnga mustaqil estetik tizim sifatida qarala boshlandi. Natijada tahlil va talqin metodlari rivojlandi hamda interpretatsiya nazariyasi shakllandi. “Interpretatsiya – 1. Sharhlash, izohlash, tushuntirib (izohlab) berish; 2. Talqin qilish, ochish, talqin” [7] maʼnolarini bildiradi. Bugungi zamonaviy adabiyotshunoslikda matnni anglash jarayoni oʻquvchi, matn va madaniy kontekst oʻrtasidagi murakkab munosabat sifatida talqin qilinadi. Shu bois tahlil va talqin tamoyillarini ilmiy asosda oʻrganish dolzarb masalalardan biridir. “Mukammal asar matnini tabiatga qiyoslash mumkin. U ham oʻziga xususiy savollar bilan murojaat qilinganda, faqat va faqat ana shunday holatda oʻquvchiga sir-asrorini keng ochadi. Shunda matn tahlili atalmish usulning afzalliklari, koʻp narsani yuza va chala bilishdan nihoyatda foydali ekani ham ravshanlashadi. Bundan tashqari, eng goʻzal, eng original adabiyot namunalari oʻjarlik va oʻzboshimchalik changalidan qutqazishning

bir chorasi ham matn tahlilidir" [1:13]. Tahlil va talqin tamoyillari haqida so'z yuritar ekanmiz, avvalo, ushbu ilmiy atamalarning izohini bilib olishimiz lozim.

TAHLIL [a. – تحليل halolash; tarqalish; parchalash, eritish; tekshirish; hal qilish, ochish].

1. Narsa, hodisa va sh.k. larni mohiyat, qonuniyat va b. jihatlardan tekshirish, o'rganish ishi. Ilmiy tahlil. Estetik tahlil. – Fan uchun tajriba va faraz, qiyos va tahlil juda zarur. A.Rahmonov, Hurmat-ehtirom. Adabiy tanqid esa ilmiy tadqiqot va tahlil yo'li bilan yaratgan yangiliklarini o'zi joriy qiladi. U.Normatov, Talant tarbiyasi.

2. Biror narsa, ma'lumot va sh.k. ni ma'lum nuqtayi nazardan o'rganish, baholash. Ertasi kun cho'lni yana qadamlash boshlandi. Yana o'lchash, suratga olish, tahlillarni daftarga ko'chirish davom etdi. R.O'roqov, Qarshi cho'lida. *Menimcha, bu to'g'rida [maktub haqida] hech qanday tahlilning lozimi bo'lmasa kerak. Chunki buning ahamiyati hammamizga ma'lum.* N.Safarov, Tanlangan asarlar.

3. Biror narsaning tarkibini belgilash va uning mohiyatini tadqiq etish. *Kimyoviy tahlil. Lingvistik tahlil. So'zning morfem tahlili. Sintaktik tahlil.* [2:28].

TALQIN [a. – تلقين o'qitish, o'rgatish; o'gitlash; aniq qilib tushuntirish; o'qib, bilib o'zlashtirib olish].

4.din. Diniy va'z, ta'lim. [Shum bola:] Biz avval xonaqohga kirib bordik. Qalandarboshi eshikdan... talqin boshlab kirdi. G'G'ulom, Shum bola. Shuning uchun yolg'iz ibodat, duo, talqinlar kifoya qilmaydi. Qat'iy harakat kerak! Harakat! N.Safarov, Sharq tongi.

5. Mazmun, mohiyatini tushuntirish; sharh. Dilovarim, dalalarim, ehromlarim oltindan, So'z topolmam, baland turar ta'riflardan, talqindan. E.Oxunova, Ikki okean osha. Rasuljon xayrlashib ketgandan keyin ham, uning talqinini har kim o'zicha izohlab, uzoq bahslashib o'tirishdi. J.Abdullaxonov, Xonadon.

6. Obraz yoki musiqiy asarning o'ynovchi, ijro etuvchi tomonidan yoritilishi, ijrosi. Majdiddin obrazi Obid Jalilov talqinida shu qadar salmoqli chiqqanki, usiz spektaklni tasavvur qilish qiyin. F.Jo'rayev, Obid Jalilov. [2:51].

Adabiyotshunoslikda tahlil badiiy asarning tarkibiy qismlarini ilmiy asosda o'rganish jarayonidir. Xo'p, badiiy asar nima va biz nima uchun aynan badiiy asarni tahlilga tortamiz? "Badiiy asar" atamasiga D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva singari olimlar tomonidan yaratilgan "Adabiyotshunoslik lug'ati"da mukammal tarzda javob beriladi: "...adabiyot va san'atning voqe bo'lish va yashash shakli, yaxlitlik kasb etgan obrazlar tizimi, badiiy muloqot vositasi. Keng ma'noda badiiy asar san'atning u yoki bu turi (musiqqa, rassomlik, haykaltaroshlik, kino, teatr va h.)ga mansub bo'lgan, insonning go'zallik qonuniyatlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyat mahsul sifatida yaratilgan yangi mavjudlikni anglatadi... tor ma'nosida badiiy adabiyotga

mansub bo'lgan "adabiy badiiy asarni" bildiradi" [3:41]. Qisqa qilib aytganda, badiiy asar biz yashayotgan real yoki noreal hayot tasviridir va unda insonlar turfa, taqdiralar xilma-xil, xayolot olami cheksizdir. Ularni tushunish, anglash, ba'zilarini yashab ko'rish yoki ma'lum xulosalar chiqarish uchun ham aynan badiiy asarlar tahlilga tortiladi va o'quvchi tomonidan turli nuqtayi nazarlardan talqin etiladi. Badiiy asarni qanday tahlil qilish kerak? Ushbu savolga adabiyotshunos olim B.To'xliyev shunday javob beradi: "Bunga tahlilning maqsad va vazifalari, uni kim tahlil qilayotgani va kim uchun tahlil qilayotgani, badiiy matnning yaratilgan davri, muallifi, maqsadi, janri, uslubi, shakli singari ko'plab omillar ta'sir o'tkazib turadi" [1:215]. Demak, tahlil jarayonida asarning kim tomonidan va kim uchun tahlil etilayotgani, uning muallifi, maqsadi, shakli, uslubi va eng asosiysi badiiy matnning janri juda muhim sanaladi. Tahlilda badiiy asarning yaratilish davrini inobatga olish XX asrga qadar amal qilgan. XX asrdan boshlab tahlilda badiiy matnni mustaqil estetik tizim sifatida ko'rish boshlangan. "Tahlilda estetik asoslarga yeatrlil e'tibor bermaslik o'rganilayotgan asarni faqat mantiqiy sillogizmlar tarzida tushunishga olib keladi. Tahlilga bu xilda yondashish asl san'at asarlaridagi jozibani yo'qqa chiqarishi mumkin" [4:60]. Ammo bir savol tug'iladi: Bugungi kunda, hozirgi adabiy jarayonda yaratilayotgan asarlarni tahlil etishda ularning yaratilish davri muhim emasmi? "Muhim emas" degan qarash yo'q. Hozirgi adabiy jarayonda yaratilayotgan badiiyat namunalari tahlilida ko'proq e'tibor qaratish lozim bo'lgan boshqa jihatlar mavjud. Ya'niki, tahlilda faqatgina asarning yaratilish davri va shu davr bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy hayot nuqtayi nazari bilan cheklanmaslik lozim. Tahlilning asosiy vazifasi bu emas. Tahlilning asosiy vazifasi — asarning ichki mexanizmini ochishdir. "...badiiy asar tahlilining maqsadi — asarni tushunish (asarni baholash ikkilamchi maqsad)" [5:219]. Tadqiqotchi matnni qismlarga ajratib o'rganar ekan, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlaydi. Masalan, obraz xarakteri syujet rivojiga qanday ta'sir qilishi yoki badiiy detal g'oyaviy mazmunga qanday xizmat qilishi aniqlanadi. Struktural yondashuvga ko'ra, badiiy asar belgilar tizimidan iborat murakkab strukturadir. Shu sababli tahlil jarayonida har bir unsur umumiy tizim ichida ko'rib chiqilishi zarur. Ma'lum bir asarni badiiy tahlil etishda quyidagi elementlar muhim sanaladi: syujet va kompozitsiya, obrazlar tizimi, badiiy konflikt, til va uslub, ramziy detallar, muallif pozitsiyasi.

Nazariy qarashlar amaliy tahlil orqali o'z tasdig'ini topadi. Amaliy tahlilda quyidagilar muhim: matndan aniq dalillar keltirish, sitatalardan foydalanish, obraz evolyutsiyasini kuzatish, konfliktni aniqlash, ramz va metaforalarni sharhlash. Masalan, zamonaviy o'zbek nasrida insonning ichki ruhiy holati ko'pincha ramziy obrazlar orqali ifodalanadi. Bunday hollarda oddiy syujet

tahlili yetarli bo'lmaydi, balki semantik talqin zarur bo'ladi. Endi talqin tushunchasi va uning mohiyatiga to'xtalamiz. Yuqorida izohi keltirilgani kabi talqin atamasi biror bir ma'lumotni, xoh u badiiy asar haqida bo'lsin, xoh ilmiy nazariyalar bo'lsin, ularni o'qib, bilib o'zlashtirib olish jarayonidir. Talqin ba'zi ilmiy adabiyotlarda yuqorida izohini keltirganimiz – interpretatsiya atamasi bilan ham yuritiladi. Bu matnni anglash va ma'nosini sharhlashdir. Talqin tahlil natijalariga tayansa-da, undan farqli ravishda ijodiy xarakterga ega. Ushbu jarayonda o'quvchi tajribasi, madaniy muhit, tarixiy davr, estetik qarashlar muhim rol o'ynaydi. Shu sababli bir asarning turli davrlarda turlicha talqin qilinishi tabiiy hol hisoblanadi. Masalan, klassik asarlar har bir davr o'quvchisi tomonidan yangicha anglanadi. Tahlil natijalari ko'p hollarda umumiy tarzda namoyon bo'lsa, talqin natijalari xususiy tarzda namoyon bo'ladi. Interpretatsiya jarayoni har bir o'quvchi yoki tadqiqotchi uchun individualdir. Germenevtik yondashuv talqinni tushunish jarayoni sifatida izohlaydi. Ushbu nazariyaga ko'ra, matn ma'nosi tayyor holda mavjud emas, balki o'quvchi bilan muloqot jarayonida shakllanadi. Ya'ni, asarning mazmun-mohiyati uni tahlil etish bilan to'raligicha ochilmasligi mumkin. Bunda asar o'qirman tomonidan talqin etiladi va uning boshqa yashirin ma'nolari yuzaga chiqadi. "Adabiy talqin asarni chuqur his etish, anglashni, yozuvchi dunyosiga teran kirib borishni taqozo etadi. ... Talqinchi ijodkorning mohiyatini, asar yaratishga sabab bo'lgan asosni teran anglab olgandagina, tahlil va talqinda qiynalmaydi. Anig'i, talqinchi bilan talqin qilinayotgan asar muallifi orasida moslik, mutanosiblik paydo bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, buloqlar, jilg'alarni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishi daryo mohiyatini tez anglaydi" [6:17]. Tahlil va talqin o'rtasida dialektik bog'liqlik mavjud. Tahlil va talqin bir-biridan ajralmaydigan jarayonlardir. Tahlil ilmiy asos yaratadi, talqin esa ma'no hosil qiladi. Ularning o'zaro munosabati quyidagicha namoyon bo'ladi:

– Agar tahlil bo'lmasa, talqin asoslanmagan fikrga aylanadi. Talqinsiz esa tahlil faqat texnik tavsif darajasida qoladi.

Talqin ochib bergan ma'no-mazmunsiz asar, asar emas, shunchaki bir shakliy qolip bo'lib qoladi.

Bugungi zamonaviy adabiyotshunoslikda talqinning bir qancha tamoyillari bor. Hozirgi adabiy jarayon ilmiy qarashlarida badiiy matn yopiq emas, balki ochiq tizim sifatida qaraladi. Zamonaviy talqin quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Ko'pma'nolilik tamoyili: badiiy matn bir nechta interpretatsiyani qabul qila oladi. Ya'ni yaratilgan bir asar o'quvchilar yoki tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin etilishi mumkin va bu talqinlarning barchasi asar uchun xosdir.

2. Kontekstual yondashuv: asar tarixiy va madaniy muhit bilan bog'liq holda o'rganiladi.

3. O'quvchi faolligi: ma'no o'quvchi ishtirokida yuzaga keladi. Asar o'qilib, u tahlilga tortilib, ma'no yuzaga kelmaguncha u shunchaki shakldir.

4. Matn markaziyli: talqin matndan uzoqlashmasligi kerak.

5. Integrativ metod: bir nechta ilmiy metodlar birgalikda qo'llanadi.

Adabiyotda tahlil va talqinning metodologik ahamiyati: adabiy tanqidni rivojlantiradi, o'quvchilarning estetik tafakkurini shakllantiradi, matnni chuqur anglashga yordam beradi, ilmiy izlanishlar uchun metodologik asos yaratadi.

Zamonaviy filologik tadqiqotlar, aynan, interpretatsion yondashuvlarga tayanadi. Bu esa adabiyotshunoslikni dinamik ilmiy sohaga aylantirmoqda. Ya'ni, yaratilayotgan asarlar harakatga, voqea-hodisalarga boy, jo'shqin bo'lib boraveradi.

Xulosa. Tahlil va talqin tamoyillari badiiy asarni anglashning asosiy metodologik vositalari hisoblanadi. Tahlil asarning strukturaviy qurilishini ochib bersa, talqin uning ma'naviy-estetik mazmunini yuzaga chiqaradi. Ularning uyg'unligi natijasida badiiy matn ko'p qatlamli semantik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy adabiyotshunoslikda ushbu ikki jarayon integratsiyalashgan holda qo'llanib, badiiy tafakkurni chuqurroq anglash imkonini bermoqda. Adabiyot olamida yaxshi asarlar dunyoga kelishi uchun tanqidning o'rni katta. Tanqidning asosini esa tahlil va talqin tamoyillari tashkil etadi. Shu bois tahlil va talqin tamoyillarini o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Badiiy matn tahlili va talqin muammolari. Ilmiy-nazariy konferensiya – T. 2012. 305-bet.
2. Begmatov E. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 jildli. 5-jild – T.: "G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi", 2022. 720-bet.
3. Qur'onov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati – T.: "Akademnashr", 2013. 412 b.
4. Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. –T., 2016. 306-b.
5. Qur'onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik – T.: "Fan", 2007. 242 b.
6. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – T.: "Fan", 2006. 232 b.
7. <https://izoh.uz/word/interpretatsiya>

Gulandon GULLIYEVA,
 Qarshi shahridagi Xalqaro
 innovatsion universiteti 2-kurs magistranti

QASHQADARYO XALQ BAXSHILARI – SHOMUROD VA QODIR BAXSHILAR IJODINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur ilmiy maqolada Qashqadaryo baxshichilik maktabining yirik vakillari Shomurod baxshi va Qodir baxshi ijodi haqida so'z yuritiladi.

Ayniqsa, Shomurod baxshi va Qodir baxshi repertuarida alohida o'rin tutuvchi dostonlar badiiyati va o'ziga xos til xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: *baxshichilik maktabi, og'zaki doston, termalar, do'mbira, repertuar.*

Аннотация: в данной научной статье рассматривается творчество Шамурада Бахши и Кадыра Бахши, видных представителей кашкадарьинской школы бахши.

В частности, эпосы, занимающие особое место в репертуаре Шамурада Бахши и Кадыра Бахши отличаются своим художественным качеством и уникальными языковыми особенностями.

Ключевые слова: *школа бахши, устный эпос, термы, думбира, репертуар.*

Annotation: this scientific article discusses the work of Shomurod bakhshi and Kadyr bakhshi, prominent representatives of the Kashkadarya school of bakhshi.

In particular, the epics that occupy a special place in the repertoires of Shomurod bakhshi and Kadyr bakhshi are distinguished by their artistic quality and unique linguistic features.

Key words: *school of bakhshi art, oral epic, termi, drum, repertoire.*

Qashqadaryoda Dehqonobod va Chiroqchi baxshichilik maktablari, ayniqsa, o'ziga xosligi bilan nufuzga ega. Bu maktab baxshilari xalq dostonlari, termalarni ichki ovozda ijro etadiki, botiniy sezgimiz torlarini chertishga qodir va ruhiy olamimizni junbushga keltiradi. Qashqadaryo dostonlari haqida gap borganda, sinkretik so'zi bu janrdagi asarlarda so'z, musiqa, xonandalik, hofizlik, badiiy o'qish, notiqlik, aktyorlik san'atlarining uyg'unlikda namoyon bo'lganida aks etadi. Ko'p asrlik tarixga ega dostonlarni kuylagan baxshilarda yuqorida qayd etilgan san'atlar to'liq uyg'unlashib, boz ustiga badiha san'ati namoyon bo'ladi. Ayniqsa, Qodir baxshi (1937 – 1986) faqat repertuarining boyligi bilan emas, balki yoqimli, shirador ovozi, ayniqsa, musiqa asboblarini yaxshi chalish iqtidori bilan ajralib turgan. U do'mbiradan tashqari, dutor, rubob, tor, g'ijjak, qo'bizda mohirlik bilan kuylar ijro etib, doston yoxud terma aytavergan, yo aksincha, boshqa cholg'u asboblaridagi kuylarni do'mbirada ijro etgan. Qodir baxshi repertuaridagi "Alpomish", "Yodgor", "Kuntug'mish", "Shirin va Shakar", "Rustam", "Murodxon", "Yusuf va Ahmad", "Yusuf va Zulayho", "Guro'g'lining tug'ilishi", "Zaydinoy", "Guro'g'li va Yunus pari", "Shahidnoma" singari 70 ga yaqin dostonlar, ko'plab terma va ertaklarni ijro etgan. Ammo u bilgan dostonlarning juda oz qismi va bir necha termalar yozib olingan, xolos.

Qashqadaryolik Shomurod baxshi (1932-2020) ham xalq baxshichilik san'atida o'ziga xos maktab yaratgan baxshilardan hisoblanadi. Uning yuz kitobga jo bo'lgilik dostonlari xalqimiz orasida mashhur.

*Elimdan adashgan yolg'iz so'naman,
 Bulbul bo'lib gul shoxiga qo'naman,
 Enasoyga dardim aytib jiladim,
 Ishim bilan Irtishlarga jiladim,
 Hoy-hoy, oy-y-y-y, hey-hey-y-y-y.*

Tadqiqotchi Kamoliddin Egamqulovga ko'ra, Shomurod baxshi Qashqadaryo baxshilik an'anasiga ko'ra, bo'g'iz ovozda, faqat birgina cholg'u asbobi (do'mbira) yordamida, yakka holda kuylaydi. Chiroqchi baxshichiligagina xos bo'lgan, asosan, "Mekkam chol", "Guldana", "Qashqadaryom" kabi termalarni kuylaydi. Qashqadaryo dostonchiligining boshqa maktablaridan asosiy farqi shundaki, u kuylagan terma va dostonlarda ruscha so'zlardan ko'p foydalanadi. Bunga sabab shoirning tili rus tilida chiqqanidir: "Alpomishning oti Boychubor o'ynab kelib, Alpomishga: "Davay ede sadetis, kim do'st, kim dushmanligini menga ko'rsat", – dedi".

Shomurod baxshining badiiy mahorati va yuksak iste'dodi uning har bir dostonida, xususan "Ovsar dev bilan Gupsar dev" dostonida namoyon bo'ladi.

**Bayon aylar bil jel endi o'tadi,
 Senday martti parizoda tushlarida ko'radi.
 Bir ko'k otni minibgina keladi,
 Besh yuz devda kallasini chapchaday qib juladi.
 Shu jigitga oshiq bo'gan piroqman,
 Otim Masqa pari parilarding sardori.**

**Ey ko'ringan, qorli tog'lar,
 Bundan so'ltoq o'tdi denglar.
 Ko'kda uchgan satta zog'lar,
 Qonlar yutib ketdi, denglar.
 Tandan jonni sotdi denglar,
 Ko'kda oyi botdi denglar.
 Boshin cho'zib tiklab turgan,
 Go'sht qarashib g'ajir qushlar,
 Bundan So'ltoq o'tdi denglar,
 Qonlar yutib ketdi denglar.**

Qodir baxshining (taxallusi; asl nomi Abdi Rahimov) “Kelinoy” (“Norguloy”) dostoni adabiyotshunos olim Abdulolim Ergashev ta’biri bilan aytganda, goh terma, goh tarixiy qo’shiq tarzida, goh doston shaklida Dehqonobodagi har bir xonadonga, har bir keksayu yosh, erkagu ayol qalbiga kirib borgan. Folklorshunos Abdum o’min Qahhorov yuzdan oshiq kishidan har xil hajmdagi – epik voqealar va lirik qo’shiqlar hamda doston shaklidagi variantlarni yozib olib, ilmiy tahlil qildi va 1972-yili “Kelinoy” turkum dostonlarining o’ziga xos xususiyatlari va g’oyaviy asoslari” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Olim “Kelinoy” turkumidagi dostonlarni o’rgangan holda, yigirmadan ortiq variant orasida Qodir baxshi kuylagan “Kelinoy” – “Norguloy” dostoni qiziqarli syujeti, yaxlit kompozitsiyasi, yuksak badiiyati bilan ajralib turishini qayd etadi. Abdulolim Ergashevga ko’ra, buning bir nechta sabablari bor. Birinchidan, hali hech kim Qodir baxshidek Samarqand Qashqadaryo – Surxondaryo hamda boshqa baxshichilik maktablari vakillaridan dostonlar eshitib, mahoratini oshirmagan. Ikkinchidan, u barcha dehqonobodlik, surxondaryolik qo’ng’irotlar, elda doston – terma kuylab yurgan oqinlar kabi “Kelinoy” haqidagi qo’shiqlarni ko’p bilgan. Qolaversa, Qodir baxshi Norguloy xolasining taqdiridan ham ilhomlangan. Yoshlikdan: “Xola, men sizni doston qilaman”, deb aytar ekan. Xalq og’zaki ijodidan yaxshi xabardor Norguloy opa ham boshidan o’tgan voqealarga to’n kiydirib, jiyaniga takror – takror so’zlab berarkan. Shu omillarning barchasi “Kelinoy” dostonining Qodir baxshi varianti yuzaga kelishini ta’minlagan.

Abdulolim Ergashevga ko’ra, Qodir baxshi “Kelinoy”da kundalik turmush tarzini epik makon, epik zamonga ko’chirib, yonverimzdagi shaxslarni esa epik qahramon darajasiga ko’tardi. Qodir baxshi “Kelinoy” dostonini dastlab, “Masharoy”, ikkinchi va uchinchi marta “Norguloy” deb yozdirgan bo’lib, har uchala variant bir – biridan mazmunan chuqur va badiiy yetukligi bilan ajralib turadi. Qodir baxshi qog’ozga tushirilgan to’rtinchi variantda o’tov tikish, yoramazon aytish, kelinsalom kabi marosimlar kabi an’anaviy tasvirlarni kiritadiki, bu xalqimiz urf-odamlarining muayyan qirralarini avlodlarga yetkazilishida muhim badiiy va etnografik ahamiyatga ega. Binobarin, Qodir baxshi kuylagan “Kelinoy” (“Norguloy”) yoshlar sevgisini o’ziga xos ruhiy holatlarda talqin qila olgani, o’zbek qizlarigagina xos fazilatlar, ibo-hayo va kurashchanlikni ifodalagani bilangina emas, milliy urf – odatlar, rasm – rusumlarni va o’ziga xos til xususiyatlarini ipidan ignasigacha o’zida mujassamlashtirgani bilan ham beqiyos ahamiyatga ega.

Muxtasar aytganda, Qodir baxshining yutug’i shundaki, o’zi yashayotgan elning har bir odatini, sheva tilini yaxshi biladi, til qatidagi ezgu maqsadni anglab yetadi va asar voqealari matniga zargarona singdiradi. U kuylagan dostonlar betakror badiiyati va o’ziga xos til xususiyatlari bilan o’zbek xalq og’zaki ijodida munosib o’rin tutadi. Shomurod baxshining kuylagan terma va dostonlari tahlili asosida shuni ayta olamizki, Shomurod baxshi badiiy mahorati kuchli bo’lgan, novator, iqtidorli baxshi bo’lgan. U baxshichilik san’atining yashovchanligiga salmoqli hissa qo’shgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. http://turizm/kasaba.uz/uz/uzbek_legends_and_mythes/national_heroic_epic_tale
2. <https://gomus.info/encyclopedia/cat-d/doston-uz/>
3. Imomov K., Mirzaev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O’zbek xalq og’zaki ijodi. –T.: O’qituvchi, 1990.450-bet.
4. Saidov M. O’zbek dostonchiligida badiiy mahorat. –T.: Fan, 1969.380-bet.
5. Ergashev A. Ketayotir oy pari, gala qizdan ilgari./ –Toshkent, «Yoshlik» jurnali, 2020 yil.-№ 7-8-son.45–55-bet.
6. Ergashev A. Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchiligi. –Toshkent: Fan, 2008.300-bet.
7. Turdimov Sh. O’zbek mifologiyasi va folklori. – Toshkent: Ilm va fan, 2023.142-bet.

HAJVIY ASARLARDA ANTROPONIMLARING QO'LLANILISHI

Annotatsiya: antroponimlar badiiy asarlarda asar g'oyasini, mazmunini ochib berishga xizmat qiladigan, ijodkor maqsadini amalga oshiradigan, baholash, xarakterlash xususiyatiga ega bo'lgan onomastik birliklardan biridir. Mazkur maqolada antroponimlarning hajviy asarlarda qo'llanilishidagi o'ziga xos ayrim jihatlari hajviy qissa va hikoyalardan olingan misollar orqali izohlab berilgan.

Kalit so'zlar: "gapiruvchi nomlar", *emotsional-ekspressivlik, ism, laqab, taxallus, ramziy ismlar, baholovchi ismlar, kulgi uyg'otuvchi ismlar.*

Annotation: anthroponyms are one of the onomastic units that serve to reveal the idea and content of a work in works of art, realize a creative goal, possess the property of evaluation and characterization. In this article, some features of the use of anthroponyms in humorous works are explained using examples taken from humorous stories and novellas.

Key words: *speaking names, emotional-expressive coloration, personal names, nicknames, pseudonyms, symbolic anthroponyms, evaluative anthroponyms, laughter-evoking names.*

Аннотация: антропонимы – это одна из ономастических единиц, служащих для раскрытия идеи и содержания произведения в художественных произведениях, реализующих творческую цель, обладающих свойством оценки и характеристики. В данной статье некоторые особенности использования антропонимов в юмористических произведениях объясняются на примерах, взятых из юмористических повестей и рассказов.

Ключевые слова: *говорящие имена, эмоционально-экспрессивная маркированность, антропонимикон, личные имена, прозвища, псевдонимы, символические и оценочные антропонимы, комические именованья.*

Nomshunoslikning bir tarmog'i badiiy asar onomastikasi bo'lib, onomastikaga doir darslik, lug'at, monografiyada bu tarmoq haqida quyidagicha ma'lumot berilgan: "Badiiy asar tilida uchraydigan atoqli otlar majmui va adabiy asarlarda mavjud nomlarni o'rganadigan onomastikaning bir bo'limi". Mazkur bo'limning eng katta qismini, shubhasiz, badiiy matnlarda qo'llaniladigan antroponimlar: ismlar, laqablar, familiyalar, ota-ismlar tashkil qiladi.

Bizga ma'lumki, antroponimlar nominativ, kommunikativ, ekspressiv, uslubiy-funksional, kulturologik vazifalarni bajaradi. Antroponimlarning eng asosiy vazifasi nomlash (nominativ) bo'lib, shaxsni nomlaydi, uni tasdiqlaydi. Bundan tashqari, antroponimlar muloqot o'rnatish uchun ham kerak bo'ladi. Murojaat davomida, tinglovchilarning diqqatini jalb qilish maqsadida antroponimlar faol ishtirok etadi. Bu uning kommunikativ jarayonda so'zlovchi va tinglovchi muloqotidagi kommunikativ funksiyasidir. Badiiy asarlarda antroponimlarning barcha vazifalari aks etadi. Antroponimlar badiiy

adabiyotda ham qahramonlarni nomlash vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, qahramonlarning dialoglarida murojaat birligi, muloqot vositasi sifatida antroponimlar faol ishtirok etadi. Shuningdek, antroponimlar ayrim hollarda o'zi nomlagan, anglatayotgan shaxs haqida ma'lum bir ma'no (ijobiy yoki salbiy) tashuvchi, uning biror xarakterini ochib beradigan, asar g'oyasini, mazmunini yoritishga xizmat qiladigan, ijodkor maqsadini amalga oshiradigan lingvopoetik vositaga aylanadi. Antroponimlarning badiiy matndagi o'rni xususida S.Karimovning "O'zbek tilining badiiy uslubi" kitobida keltirilgan quyidagi fikrlar ham mazkur mulohazalarimizni tasdiqlaydi: "Kishi nomlarining adabiy asarlarda ishlatilishi tabiiy hol. Garchi asar qahramonlariga qo'yilgan nomlarning hammasi to'g'risida bu gapni aytib bo'lmasa-da, ularning ayrimlari o'zlarida ma'lum stilistik yuk tashiydi. Tanlangan ism va familiyalar personajlarni baholaydi, xarakterlaydi, mashg'ul bo'lgan kasbiga, yoshiga, qayerlik ekaniga ishora qiladi. Boshqacha aytganda, ular personajlarning ijtimoiy mavqeyiga,

fizionomiyasiga yoki xarakteriga moslab tanlanadi. Shuning uchun ham bunday antroponimlar tilda obrazli tarzda “gapiruvchi nomlar” deb ham yuritiladi” [Karimov S., 1992: 123].

Badiiy adabiyotda ijodkorning ism, familiya, laqab va taxalluslarni tanlashi, albatta, uning maqsadidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, kishi nomlarining qo'yilishi tur va janrga qarab struktural va semantik jihatdan o'ziga xoslik kasb etadi. Har bir ijodkorning til birliklaridan foydalanishda o'ziga xos uslubi bo'ladi. O'z qahramonlariga ism qo'yishda ham ular xuddi shu yo'lni tutadilar. Ba'zi ijodkorlar asarlarida qahramonlarining xarakterini ifodalovchi ramziy ismlarni qo'ysa, ikkinchisi davr bilan hisoblashadi. Ular qahramonlariga asar voqeasi sodir bo'layotgan davrda qo'llaniladigan ismlarni tanlashadi. Shunday ekan, hajviy asarlarda qo'llaniladigan ismlar ham o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Hajviy asarlar nasriy, she'riy, dramatik turda, ularning turli janrlarida yozilishi mumkin. Hajviy mazmundagi asarlarda satirik yoki yumoristik ruh, sarkazm yoki kinoya yaqqol ko'rinadi. Yumoristik hajviyalarda yengil kulgu, yengil tanqid ustunlik qilsa, satirik asarlarda jamiyatda, insonlarda uchraydigan illatlar, nuqsonlar, kamchiliklar, salbiy xususiyatlar qattiq tanqid ostiga olinadi. Bu illatlardan qutulish kerakligi, kamchiliklar tuzatilishi zarurligi beshafqat kulgi ostida yoritiladi, ijodkor shu illatdan jamiyat, insonlar qutilishini xohlaydi. Shu sababli har bir til birligidan ta'sirchanlikni oshirish maqsadida unumli foydalanadi. Antroponimlar ham yozuvchi, shoirning mana shu maqsadining amalga oshishi uchun xizmat qiladi. Masalan, Said Ahmadning “G'ildirak” nomli qissasi qahramonlari savdo xodimlari. Bu qissada muallif mol-dunyoga hirs qo'ygan kishilarning ma'naviy inqirozini achchiq kinoya bilan tasvirlaydi. Shuning uchun ham yozuvchi bosh qahramonlarini Bozorboy va Tijoratxon deb nomlaydi. Xalqimizda Bozorboy ismi bozor kuni tug'ilgan bolaga qo'yilgan yoki uyimiz bozor kabi bolalarga to'lsin degan maqsadda tanlangan [Begmatov, 2007: 66]. Ammo Said Ahmad o'z qahramoniga bu ismni boshqa maqsadda qo'llagan: *Bozorboy bazada tovarshunos edi. U juvon ham shu kasbda ekan. ... Ismi ham ajoyib. Hech kimda yoq' ismlardan. Tijoratxon. ... Xullas, Bozorboy Tijoratxonga oshiq bo'lib qoldi* (Said Ahmad. “G'ildirak”, 27). Bu qissa voqealari o'tgan asrning 70–80-yillarida bo'lgan savdo

sohasidagi qing'irliklar haqida bo'lib, qahramonlar ham halol savdogar emas, balki xalq haqidan hazar qilmaydigan, pul topish yo'lida barcha qing'ir ishlarni qilishga qodir tijorat xodimlaridir. Voqea davomida ne “azob” da yig'gan bu pullari o'zlariga buyurmaydi. Davlatga o'tib ketadi. Pul egasi Bozorboy jinni bo'lib qoladi. Yozuvchi bu savdo xodimlariga boshqa nom qo'yganda ham asarning saviyasi, g'oyasiga ta'sir etmasdi. Biroq yozuvchi tijorat va bozor so'zlarini kishi ismiga aylantirganida yana bir maqsad yashiringan. Ya'ni bozor va tijoratga ham ochko'zlik, noto'g'ri ishlar, aldov bo'lishi kerak emasligi, halollik savdoning ham asosiy qoidasi ekanligini eslatib qo'ygandek, go'yo yozuvchi yig'ilgan boylikning nima sababdan egasiga buyurmaganini hajviy yo'l bilan ochib bera olgan.

Hajviy asarlarda ta'sirchanlikni oshirish uchun yozuvchi qahramonga yana qayta nom qo'yishi ham mumkin. Masalan, To'ra Sulaymon hajviyalaridan birida hikoya qahramoni (roviy) ma'lum bir kishining qilmishlarini aytayotib, u odamga qayta nom qo'yadi, bu bilan u qahramonning qilmishlarini yana ham ochib beradi: “Qulniyoz Qulniyoz emas, Pulniyoz. U faqat odamlardan olish uchun, yulish uchun tug'ilgan”. (To'ra Sulaymon. “Alhazar”, 29).

Hajviy asarlarda qahramonlarga ijodkorlar tomonidan turli xil nomlar, laqablar, taxalluslar qo'yilishi mumkin: Hoji Tamtam, Boqi Beg'am, Vorahmatullo, Turqi Tarovatiy, Shakli Shamoiliy, Hayronov kabi. Bu ism, laqab va taxalluslar simvol tarzda ma'lum ma'no tashishga xizmat qiladi, qo'shimcha baho munosabatini beradi, kulgi hosil qilishga yoki mental xususiyatlarni ochib berishga xizmat qiladi:

To'ra Sulaymonning “Bola tug'dim boshi yo'q” hajviyasi havasmand ijodkorlar orzulari haqida bo'lib, bu ijodkorga Turqi Tarovatiy deb nom qo'yilgan. Chunki Turqi Tarovatiy haqiqiy yozuvchi emas, u ishni hikoya yozishdan boshlamadi, o'zgalarning hikoyasini ko'chirib, ostiga o'z ismi familiyasi, imzosini qo'yib, redaksiyaga yo'llaydi. Hikoyalari chiqa boshlagach, hamma hayron qoladi, chunki hikoyalarining na boshi, na qoshi bor edi. Turqi Tarovatiyning hikoyalarini o'qiganlar uning ijodini Shakli Shamoiliy degan yozuvchilikiga o'xshatishadi. Xullas, To'ra Sulaymon to'satdan yozuvchilikni havas qilib, tezgina yozuvchilar erishgan martaba, izzat-ikrom, e'tirofga erishmoqchi bo'lgan “havasmandlar”ni hajv qilib yozadi va ularga

qo'yilgan taxallus ham o'zlariga yarasha edi (To'ra Sulaymon. "Alhazar", 18).

Azlarov Sunnatning "Ko'chamdan jonon o'tganda" hajviy qissa va hikoyalar to'plamidan o'rin olgan "Oltin merosxo'r" hikoyasi ikki kishi suhbatiga asosiga qurilgan. Birinchi qahramon "Oltin meros" xalqaro xayriya jamg'armasi raisi, ikkinchi kishi bu jamg'armadan yordam so'rab kelgan Undirvoy G'oyibovich. Hikoyada rais bunday ismni eshitmaganini aytganida ism egasi undir-u g'oyib bo'l ma'nosida deb izoh beradi. Rais yana hayron bo'lib, nimani undirish kerak deganda, pulni deydi va bu tashkilotdan yordam so'rab kelganini aytadi. Demak, bu ism-familiya orqali hajvchi o'z maqsadini oson yo'l bilan ifodalamoqda. Chunki qarindoshdan, do'stdan, turli xayriya tashkilotlaridan pul undirib, g'oyib bo'ladiganlar qancha. Hikoyaning asosiy mavzusi ham aynan shunday odamlarni tanqid ostiga olish va hajv yo'li bilan ularning kirdikorlarini fosh etishdir.

Undirvoy G'oyibovich ham pul undirish mumkin bo'lgan barcha joyga bosh suqib ko'radi shekilli, qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy obidalar bilan shug'ullanadigan jamg'armaga kelib, pul so'raydi. U jamg'arma nomiga e'tibor berib, ulush olmoqchi bo'ladi: *Bizni ham saylang, rasmiy merosxo'rlikka, o'z ulushimizni olaylik. Nimani, qanaqa ulushingizni olasiz? –Nimani bo'lardi, boylikni-da. ..."Oltin*

meros" bo'lganidan keyin oltini, tillasi bo'ladi-da. (Azlarov Sunnat. "Ko'chamdan jonon o'tganda", 37). Jamg'arma raisi bu so'z ko'chma ma'noda ekanini Undirvoy G'oyibovichga tushuntira olmaydi va u janjal bilan tashkilotdan chiqib ketadi. Hajviy asarlarda ijodkor qahramonni o'z tilidan hajv qilish usulidan ham foydalanadi. Mumtoz adabiyotimizda hajviy asarlari bilan elga tanilgan Maxmur shu usuldan unumli foydalangan. Bu usulda, albatta, qahramon ismi qo'llaniladi. Amir Pulkanning "Hech kim bilmasin" hajviyalar to'plamida ham xuddi shu usulda yozilgan hajviy she'rlar mavjud. Masalan, Amir Pulkanning avtobus shofyori tilidan aytilgan "Jumanazarman" nomli she'rda (muxammas) har band oxirida Jumanazarman ismi keltiriladi va uning xatti-harakati, hiylalari hajv qilinadi:

Quvonchim ortadi odam ko'p bo'lsa,
Or qilmayman, "Bilet bermas" deb kulsa,
Ursa, so'ksa, mayli, menga naf bo'lsa,
Olg'irlikda ortda qolmay o'zarman,

Pulga tuzoq qo'ygan Jumanazarman (Umarqul Pulkan. "Hech kim bilmasin", 22).

Xullas, hajviy asarlarda antroponimlar janr talabi, yozuvchi maqsadi, individual uslub uchun qo'llaniladi. Ta'sirchanlikni oshirish, turli ramziy ma'nolarni tashishga xizmat qiladi, qo'shimcha baho munosabatini beradi, kulgi hosil qilishda yoki mental xususiyatlarni ifodalashda muhim o'rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahimova D. Antroponimlarning onomastik birlik sifatida uslubiy-funksional xususiyatlari// Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. Impact Factor:8 | 2181-3035 | №16(53) 72–79-b.
2. Азларов С. Кўчамдан жонон ўтганда. –Тошкент: Шарқ, 1999. 64 б.
3. Бегматов Э. Ўзбек исмлари маъноси. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. 608 б.
4. Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафшон нашриёти, 1992.
5. Кенжаева С. Ўзбек тили антропонимларининг номинацион-мотивацион асослари ва тавсифи: филол. фан. б. фалс. док. дисс. автореф. – Қарши, 2019.
6. Said Ahmad. G'ildirak. –Toshkent: "Turon zamin" nashriyoti, 2024.544-b.
7. Teshebayeva L. Antroponimlar lingvopoetik vosita sifatida // Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar (Nazariyot va amaliyot" nomli ilmiy, masofaviy onlayn konferensiya). 44–46-b.
8. Тўра Сулаймон. Алҳазар. –Тошкент, 1976. 35 б.
9. Пўлкан. Ҳеч ким билмасин. –Тошкент, 1980. 32 б.
10. Xudoyberganova D., Andaniyazova D. O'zbek tili poetonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent, 2016. 132-b.

Aziza NURMAMATOVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Biznes huquqi va Sud himoyasi fakulteti talabasi



ADOLATSIZ TIZIM VA KORRUPSIYA FOJIASI: “MENING O’G’RIGINA BOLAM” HIKOYASI TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada G’afur G’ulomning “Mening o’g’rigina bolam” hikoyasi ijtimoiy-huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Asarda XX asr boshlaridagi murakkab tarixiy sharoit, iqtisodiy tanglik va ijtimoiy adolatsizlik muhitida yuzaga kelgan korrupsiya holatlari yoritib beriladi. Hikoyadagi ellikboshi Rahmonxo’ja obrazi orqali mansabdor shaxslarning poraxo’rligi va uning jamiyatdagi adolat tizimiga salbiy ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, asarda insoniylik, mehr-oqibat va ijtimoiy muhitning inson taqdiriga ta’siri masalalari ham yoritiladi. Tadqiqot natijasida asarda ko’tarilgan muammolar bugungi kunda ham dolzarbligini yo’qotmaganligi hamda qonun ustuvorligining jamiyat barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi xulosa qilinadi.

Kalit so’zlar: korrupsiya, poraxo’rlilik, adolatsizlik, ijtimoiy muhit, qonun ustuvorligi, badiiy tahlil, o’zbek adabiyoti, jamiyat.

Аннотация: в данной статье рассказ Г’афур Г’улом «Менинг о’г’rigina bolam» рассматривается с социально-правовой точки зрения. В произведении отражены сложные исторические условия начала XX века, экономический кризис и социальная несправедливость, способствующие распространению коррупции. Через образ пятидесятника Рахмонходжи раскрывается проблема взяточничества должностных лиц и его негативное влияние на систему справедливости в обществе. Кроме того, в рассказе поднимаются вопросы человечности, милосердия и влияния социальной среды на судьбу человека. В результате анализа делается вывод о том, что проблемы, поднятые в произведении, остаются актуальными и сегодня, а верховенство закона является важным условием стабильности общества.

Ключевые слова: коррупция, взяточничество, социальная несправедливость, общество, верховенство закона, узбекская литература, социальная среда, художественный анализ.

Annotation: this article analyzes the short story G’afur G’ulom’s «Mening o’g’rigina bolam» from a socio-legal perspective. The work reflects the difficult historical conditions of the early twentieth century, characterized by economic crisis and social injustice, which contributed to the spread of corruption. Through the character of Rahmonkhoja, the headman, the author reveals the issue of bribery among officials and its negative impact on justice in society. The story also highlights themes of humanity, compassion, and the influence of social environment on human destiny. The analysis concludes that the problems raised in the story remain relevant today and that the rule of law is essential for the stability and development of society.

Key words: corruption, bribery, social injustice, rule of law, social environment, Uzbek literature, literary analysis, society.

G’afur G’ulomning “Mening o’g’rigina bolam” hikoyasi bir qarashda oddiy voqea – kampir va o’g’ri o’rtasidagi suhbat asosiga qurilgandek tuyuladi. Ammo asar mazmuniga chuqurroq kirib borgan

sayin unda butun bir davrning og’riqli ijtimoiy muammolari, ayniqsa korrupsiya va adolatsizlik masalasi yoritilganini ko’ramiz. Yozuvchi shaxsiy fojea ortida jamiyat fojiasini ko’rsatadi.


Hikoya voqealari 1917-yilning og'ir va notinch davrida kechadi. Urush, iqtisodiy inqiroz, ocharchilik sabab oddiy xalqning ahvoli nihoyatda og'irlashgan. Hunarmandlar ishsiz, bozorlarda savdo kasod, odamlar bir burda non uchun kurashayotgan zamon tasvirlanadi. Muallif bu holatni "zamon chappasiga ketdi" deya ifodalaydi. Bu ibora nafaqat iqtisodiy tanglikni, balki huquqiy va ma'naviy inqirozni ham anglatadi.

Asarda o'g'ri obrazi orqali ijtimoiy muhitning inson taqdiriga qanday ta'sir ko'rsatishi ochib beriladi. U aslida kosib, mehnatkash odam bo'lganini aytadi. Ammo ochlik va tirikchilik qiyinchiligi uni o'g'rilik qilishga majbur etgan. Bu yerda yozuvchi jinoyatni oqlamaydi, lekin uning ildizi qashshoqlik va tartibsizlikda ekanini ko'rsatadi.

Hikoyada korrupsiya masalasi, ayniqsa ellikboshi Rahmonxo'ja obrazi orqali yaqqol namoyon bo'ladi. O'g'ri o'g'irlagan xo'rozni unga olib borib berganini va shu bilan ish "bosdi-bosdi" bo'lib ketganini aytadi. Demak, mansabdor shaxs jinoyatni yashirish evaziga pora olgan. Bu esa qonunning kuchsizligi va mansabning sotilayotganidan dalolat beradi.

Yana bir muhim epizod – o'g'riining mardikorlikka safarbarlikdan qutulish uchun 83 so'm pul yig'ib, ellikboshiga berganidir. Bu holat jamiyatdagi tengsizlikni ochib beradi. Pul topa olgan kishi xavfdan qutuladi, kambag'al esa davlat majburiyatini bajarishga majbur bo'ladi. Qonun hamma uchun barobar emasligi asarda og'riqli haqiqat sifatida ko'rsatiladi.

Shu tariqa, hikoyada oddiy o'g'rilikdan ko'ra xavfliroq illat – korrupsiya fosh etiladi. Chunki oddiy o'g'ri bir uyga zarar yetkazsa, poraxo'r mansabdor butun jamiyatning adolat tizimini yemiradi. Jazodan qutulish mumkin bo'lgan sharoitda esa jinoyat yanada



ko'payadi. Bugungi kunda esa qonunchiligimizda pora olish ham, pora berish ham jinoyat hamda bu harakatlarni amalga oshirish javobgarlikka sabab bo'ladi.

Biroq asarda insoniylik ham yo'qolmagan. Roqiyabibi o'g'riga mehr bilan murojaat qiladi, uni "o'g'rigina bolam" deb ataydi. O'g'ri ham uyat va pushaymon tuyg'usini saqlab qolgan. Bu holat yozuvchining muhim g'oyasini ochadi: jamiyat buzilishi mumkin, ammo inson qalbidagi ezgulik butunlay so'nib ketmaydi.

Xulosa qilib aytganda, "Mening o'g'rigina bolam" hikoyasi orqali muallif korrupsiya va adolatsizlik hukm surgan jamiyatning ayanchli manzarasini ko'rsatadi. Asar bizni shunday xulosaga olib keladi: qonun ustuvor bo'lmagan joyda jinoyat ildiz otadi, ishonch yo'qoladi va jamiyat inqirozga yuz tutadi. Eng katta fojia esa moddiy yo'qotish emas, balki adolatga bo'lgan ishonchning yemirilishidir.



Anora FAYZIYEVA,
Navoiy davlat universiteti
1-bosqich magistranti
anorafayziyeva04@icloud.com



SUN'IY INTELLEKTGA OID MAXSUS LUG'ATLAR YARATISH ZARURATI

Annotatsiya: mazkur maqola sun'iy intellekt (SI) sohasidagi maxsus terminologik lug'atlarni yaratish zarurati va metodologiyasini o'rganishga bag'ishlangan. SI tushunchalarini o'zbek tilida tizimlashtirish va ixtisoslashgan leksikografik manbalarni shakllantirish tamoyillarini ishlab chiqish davr talabi ekanligi dalillangan. SI terminlarining o'zbek tiliga muvofiqlashtirish zaruratini aniqlash imkonini beradi va bugungi kunda SI ga oid faol terminlarni qamrab olgan lug'at tuzish muhimligi aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, terminologiya, leksikografiya, maxsus lug'at, korpus lingvistikasi.*

Аннотация: данная статья посвящена изучению необходимости и методологии создания специальных терминологических словарей в области искусственного интеллекта (ИИ). Утверждается, что систематизация понятий ИИ на узбекском языке и разработка принципов формирования специализированных лексикографических ресурсов являются требованием времени. Это позволяет определить необходимость гармонизации терминов ИИ с узбекским языком и отражает важность создания словаря, охватывающего актуальные сегодня термины ИИ.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, терминология, лексикография, специальный словарь, корпусная лингвистика.*

Annotation: this article is devoted to the study of the need and methodology for creating special terminological dictionaries in the field of artificial intelligence (AI). It is argued that the systematization of AI concepts in the Uzbek language and the development of principles for the formation of specialized lexicographic resources are a requirement of the time. It allows us to determine the need to harmonize AI terms with the Uzbek language and reflects the importance of creating a dictionary that covers active AI terms today.

Key words: *artificial intelligence, terminology, lexicography, special dictionary, corpus linguistics.*

Kirish. Bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) nafaqat texnik soha, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalariga kirib borayotgan universal vositaga aylandi. O'zbekiston Respublikasida ham ushbu sohani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida sun'iy intellekt texnologiyalarini keng qo'llash va ushbu yo'nalishda malakali kadrlar tayyorlash masalalariga alohida urg'u berilgan [1]. Bunday strategik vazifalarni amalga oshirish, birinchi navbatda, sohaning tushunchalar apparatini shakllantirish va xalqaro terminlarni milliy qomusiy va maxsus lug'atlar orqali tizimlashtirishni talab etadi.

Hozirgi vaqtda SI sohasida quyidagi asosiy muammolar ko'zga tashlanmoqda:

- Terminologik xilma-xillik: bir xil tushunchaning turli manbalarda turlicha nomlanishi (masalan, *machine learning* tushunchasining "mashinali o'qitish" yoki "mashinaviy ta'lim" deb turlicha tarjima qilinishi).

- Neologizmlarning ko'pligi: ingliz tilida paydo bo'layotgan yangi atamalarining milliy tillarga (xususan, o'zbek tiliga) kirib kelishi va ularning muqobillari ishlab chiqilmaganligi.

- Standartlarning yo'qligi: SIga oid terminlarning yagona davlat yoki xalqaro lug'at standartlariga

keltirilmaganligi. Mazkur muammolarni hal qilish kun tartibidagi muhim masalalardan ekanligi Prezidentimizning 2025-yil 22-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni ham ko'rsatib turibdi [2].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, SI sohasidagi terminlar turli fan sohalariga oidligi, ularning turli tillardagi semantik xususiyati, ularning lingvistik va leksikografik xususiyatlari yetarlicha tadqiq etilmagan. Xususan, SIga oid terminlarning ko'p tilli (multilingual) lug'atlarini yaratish metodologiyasi va ushbu lug'atlarning ontologik modellarini tuzish masalalari hali ham ochiq qolmoqda.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi sun'iy intellekt sohasidagi zamonaviy terminologiyani tizimlashtirish va ixtisoslashgan lug'atlarni yaratishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqishdir.

Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

1. SI sohasidagi mavjud xalqaro terminologik bazani tahlil qilish.
2. Atamalarni saralash (inventory) va ularning semantik maydonini aniqlash.
3. Maxsus lug'atlarning tarkibiy tuzilishi (mikro va makrostruktura) bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
4. Leksikografik jarayonda SI vositalaridan (avtomatik lug'at yaratish tizimlari) foydalanish imkoniyatlarini baholash.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Sun'iy intellekt terminologiyasi bugungi kunda shiddatli transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Jahon miqyosida ushbu sohaning lingvistik bazasini o'rganishda Yekaterina G. Xomyakova va V.A. Titov kabi olimlarning tadqiqotlari diqqatga sazovordir. Ularning fikricha, SI terminologiyasi "sun'iy" va "tabiiy" tillarning o'zaro kesishuv nuqtasi bo'lib, u nafaqat informatikaga, balki kognitiv psixologiya va falsafaga ham tayanadi. Xususan, Stuart Russell va Peter Norvig o'zlarining fundamental asarlarida SI terminlarini to'rt guruhga (fikrlash, harakat qilish, insoniy yondashuv va ratsional yondashuv) ajratib ko'rsatadilar[3]. Bu tasniflash lug'at tuzishda atamalarni kategoriyalarga ajratish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

G'arb leksikografiyasida D. Jurafsky va J. Martin kabi olimlar "Tabiiy tilni qayta ishlash" (NLP) kontekstida SI terminlarining dinamik lug'atlarini yaratish metodikasini taklif etganlar. Ularning qarashlariga ko'ra, an'anaviy qog'oz lug'atlar SI kabi tez o'zgaruvchan soha uchun samarasiz bo'lib, "tirik" (doimiy yangilanuvchi) raqamli lug'atlar yaratish zarurati yuzaga kelgan.

Mahalliy ilmiy muhitda SI terminologiyasining o'zbekcha muqobillarini yaratish masalasi N. Abduraxmonova va A. Po'latov kabi olimlarning so'nggi yillardagi ishlarida ko'zga tashlanadi. Tadqiqotchi N. Abduraxmonovanning ta'kidlashicha, "O'zbek tili korpus lingvistikasini rivojlantirishda SI terminlarining bir xillashtirilgan (standartlashtirilgan) bazasi bo'lishi dasturiy ta'minotlarni mahalliyashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega[4]". Biroq hozirgi kunda o'zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda hamon bitta tushuncha uchun bir nechta variantlar (masalan, *Big Data* – "katta ma'lumotlar", "ulkan ma'lumotlar", "massa ma'lumotlar") qo'llanilayotgani sohada yagona akademik standart yaratish zarurligini isbotlaydi.

Ushbu tadqiqotda sun'iy intellekt sohasidagi maxsus lug'atlarni yaratish metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslangan bo'lib, u nazariy tilshunoslik va amaliy dasturlash kesishmasida amalga oshirildi. Tadqiqotda quyidagi fundamental metodlar qo'llanildi:

1. Korpusga asoslangan terminologik ekstraksiya (Corpus-based Term Extraction): Lug'at tarkibiga kiritiladigan terminlar bazasini shakllantirishda tasodifiy tanlash usulidan voz kechildi. Buning o'rniga, so'nggi 5 yilda nashr etilgan 500 dan ortiq ilmiy maqolalar, texnik qo'llanmalar va xalqaro konferensiya materiallaridan iborat kichik maxsus korpus (specialized corpus) shakllantirildi. TF-IDF (Term Frequency-Inverse Document Frequency) algoritmi yordamida matnlardagi eng yuqori chastotali va soha uchun xos bo'lgan

kalit so'zlar avtomatik ravishda ajratib olindi. Bu metod lug'atning dolzarbligini va amaliyotda eng ko'p ishlatiladigan terminlarni qamrab olishini ta'minlaydi.

2. Ontologik ierarxiya va semantik maydon tahlili: SI terminlari shunchaki alifbo tartibida emas, balki mantiqiy bog'liqlik asosida tizimlashtirildi. Bunda "pastdan yuqoriga" (bottom-up) va "yuqoridan pastga" (top-down) modellashirish usullari uyg'unlashtirildi. Masalan, "Mashinali o'qitish" (Machine Learning) termini yadro sifatida olinib, uning atrofida "Nazoratli o'qitish" (Supervised Learning), "Neyron tarmoqlar" (Neural Networks) va "Gradient tushishi" (Gradient Descent) kabi sub-terminlar ierarxik tizimga solindi. Bu foydalanuvchiga terminning nafaqat ma'nosini, balki sohadagi o'rnini tushunishga yordam beradi.

3. Komparativ-interpretativ (qiyosiy-izohli) tahlil: ingliz tilidagi (asl manbadagi) terminlarning o'zbek tilidagi ekvivalentlarini yaratishda uch bosqichli filtdan foydalanildi:

- transliteratsiya va transskripsiya darajasi: (masalan, *Algoritm, Neyron*);
- semantik kalkalash: (masalan, *Deep Learning* – "Chuqur o'qitish");
- deskriptiv (tavsifiy) izohlash: o'zbek tilida bir so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan tushunchalar uchun (masalan, *Prompt Engineering* – "Generativ modellar uchun buyruqlar va so'rovlarni shakllantirish san'ati").

4. Leksikografik mikro va makrostruktura dizayni: lug'at maqolasining formati maxsus ishlab chiqildi. Har bir termin uchun quyidagi majburiy atributlar belgilab olindi:

- Terminning original ko'rinishi (ingliz tilida);
- O'zbek tilidagi tavsiya etiladigan varianti;
- Terminning ilmiy ta'rifi (definitsiyasi);
- Kontekstual misol (terminning ilmiy matnda qo'llanilishi).

5. Verifikatsiya va ekspertiza metodi: yaratilgan lug'at loyihasi ikki tomonlama ekspertizadan o'tkazildi. Birinchi guruh – soha mutaxassislari (Data Scientist va ML muhandislari) terminning texnik jihatdan to'g'riligini tekshirgan bo'lsa, ikkinchi guruh – terminolog-tilshunoslar o'zbek tili grammatikasi va imlo qoidalariga muvofiqligini baholadilar. Ushbu metod terminologik "shovqin"larni kamaytirishga xizmat qiladi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot doirasida 1000 dan ortiq ingliz tilidagi SI atamalar saralab olindi va ularning o'zbek tilidagi korpusi shakllantirildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, SI terminologiyasi o'zbek tiliga kirib kelish darajasiga ko'ra uchta asosiy guruhga bo'linadi (1-jadval).

1-jadval.

SI terminlarining o'zbek tilidagi muvofiqlashtirish darajasi

Terminlar guruhi	Muvofiqlashtirish usuli	Ulushi (%)	Misollar
Xalqaro terminlar	Transliteratsiya	25%	Algoritm, Model, Neyron, Neyroset
O'zlashtirilgan terminlar	Semantik tarjima	45%	Mashinali o'qitish, Chuqur o'rganish
Muammoli (yangi) terminlar	Deskriptiv izoh	30%	Prompt engineering, Hallucination, Fine-tuning

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, eng katta muammo deskriptiv (tavsifiy) izoh talab qiladigan terminlarda kuzatilmoqda. Masalan, "AI Hallucination" termini o'zbek ilmiy adabiyotlarida "SI gallyutsinatsiyasi" yoki "xato ma'lumot berish" shaklida turlicha qo'llanilmoqda. Bizning tadqiqotimiz natijasida ushbu termini "Sun'iy intellektning mantiqiy xatoligi (gallyutsinatsiyasi)" shaklida unifikatsiya qilish taklif etildi.

Muhokama jarayonida aniqlangan eng asosiy muammolardan biri – bu terminologik polisemantizm (ko'p ma'nolilik)dir. Masalan, "Feature" termini ma'lumotlar tahlilida "belgi", "xususiyat" yoki "atribut" sifatida tarjima qilinishi mumkin.

Tadqiqot natijasida SI lug'atlari uchun quyidagi taksonomik model ishlab chiqildi:

1. Leksik qatlam: terminning o'zbekcha muqobili.
2. Kontekstual qatlam: terminning aniq bir sohada (masalan, Computer Vision yoki NLP) qo'llanilishi.
3. Texnik tavsif: terminning matematik yoki dasturiy ifodasi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, SI lug'atlarini yaratishda faqat lingvistik yondashuv yetarli emas. Zamonaviy tadqiqotchi J. Kaplan ta'kidlaganidek, "SI terminologiyasi shunchalik tez o'zgaryaptiki, an'anaviy lug'atshunoslik usullari uning dinamikasiga yetib ololmayapti[5]". Bu fikr bizning o'zbek tili segmentida ham o'z isbotini topmoqda.

Shuningdek, o'zbek tilidagi SI terminlarining yagona davlat standarti mavjud emasligi ilmiy muloqotda "lingvistik kaos"ni keltirib chiqarmoqda. Shuni ma'lum bo'ldiki, soha mutaxassislarining 70% dan ortig'i o'zbek tilidagi ilmiy manbalardan ko'ra ingliz tilidagilarini afzal ko'rishadi, bunga asosiy sabab – o'zbek tilidagi terminlarning aniq emasligidir[6].

Xulosa. Sun'iy intellekt (SI) sohasining shiddatli taraqqiyoti zamonaviy leksikografiya oldiga o'ta dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Mazkur tadqiqot doirasida SIga oid maxsus lug'atlarni yaratish zarurati ham ilmiy, ham amaliy jihatdan asoslab berildi. O'tkazilgan tahlillar va olingan natijalar asosida quyidagi yakuniy xulosalarga kelindi:

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4996-son qarori – Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-189-son farmoni – Toshkent: Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2025
3. Russell, S. J., Norvig, P. Artificial Intelligence: A Modern Approach (4th Edition) – USA.: Pearson, 2021. 1166 p.
4. Abduraxmonova, N. O'zbek tili kompyuter lingvistikasi: Nazariya va amaliyot – Toshkent: Universitet nashriyoti, 2022. 212-b.
5. Kaplan, J. Artificial Intelligence: What Everyone Needs to Know – Oxford: Oxford University Press, 2022. 216 p.
6. Gulyamov, S. S. Raqamli iqtisodiyotda sun'iy intellekt texnologiyalari – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2023. 180-b.
7. Goodfellow, I., Bengio, Y., Courville, A. Deep Learning (Adaptive Computation and Machine Learning series) – Cambridge: MIT Press, 2020. 800 p.
8. Po'latov, A. K. Kompyuter lingvistikasi – Toshkent: Akademya nashr, 2011. 140-b.

1. Terminologik unifikatsiya zarurati: tadqiqot davomida aniqlanganidek, o'zbek tili ilmiy segmentida SI terminlarining yagona standartga keltirilmaganligi bilimlar transferi va soha mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Maxsus lug'atlar nafaqat tarjima vositasi, balki sohaning tushunchalar apparatini barqarorlashtiruvchi fundament bo'lib xizmat qiladi.

2. Metodologik yangilik: SI terminologiyasini tizimlashtirishda an'anaviy alifboli lug'atlardan ko'ra, ontologik ierarxiyaga asoslangan raqamli lug'at modellari samaraliroqdir. Tadqiqotda qo'llanilgan TF-IDF algoritmi va korpus lingvistikasi usullari terminlarni saralashda inson omilining subyektivligini kamaytirib, lug'atning obyektivligini oshiradi.

3. Davlat siyosati bilan uyg'unlik: Prezidentimiz tomonidan belgilangan sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish strategiyasi bevosita ushbu sohaning "milliy tili"ni yaratishni talab qiladi. Tadqiqot natijasida shakllantirilgan terminologik baza ushbu strategik vazifalarni amalga oshirishda muhim manba bo'la oladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

- Milliy SI Terminologik Standartini ishlab chiqish: tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda SI atamalarining yagona davlat standartini (GOST) tasdiqlash.
- "Tirik" (Dinamik) elektron lug'at platformasini yaratish: soha doimiy yangilanib turishi sababli, foydalanuvchilar va ekspertlar tomonidan boyitib boriladigan onlayn lug'at platformasini yo'lga qo'yish.
- Akademik ta'limga integratsiya: oliy o'quv yurtlarining IT yo'nalishlarida o'zbek tilidagi tizimlashtirilgan terminologik qo'llanmalardan foydalanishni kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektga oid maxsus lug'atlarni yaratish – o'zbek tilining zamonaviy texnologik dunyoda raqobatbardoshligini ta'minlash va milliy ilm-fanni global darajaga ko'tarishning muhim omilidir.

Ruxshona BAXTIYOROVA,
 Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
 (O'zbek tili va adabiyoti) 2-bosqich talabasi

RAQAMLI MEDIA DISKURSNI TAHLIL QILISHDA INTEGRATSIYALASHGAN MODELLAR ISHLAB CHIQISH MASALASI

Annotatsiya: maqolada raqamli media diskursni qo'llash, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish, integratsiyalashgan axborot tizimlari va avtomatlashtirish metodlari haqida fikrlar oydin yoritilgan. Shuningdek, raqamli mediadiskursning nazariy asoslari va uning kommunikativ xususiy belgilari, medialingvistika va media matnlar tushunchasi tahlil qilinadi. Xususan, hozirgi kunda zamonaviy sharoitda ommaviy axborot vositalarining ortib borishi va aholining shart - sharoitiga ta'siri haqida tahlillar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *raqamli mediadiskurs, integratsiyalashgan axborot tizimi, medialingvistika, kommunikativ belgilar, ommaviy axborot vositalari.*

Аннотация: в статье четко объясняется использование дискурса цифровых медиа, анализируются его возможности и обсуждаются интегрированные информационные системы и методы автоматизации. Также анализируются теоретические основы дискурса цифровых медиа и его коммуникативные характеристики, медиалингвистика и концепция медиатекстов. В частности, анализируется рост средств массовой информации в современных условиях и их влияние на условия жизни населения.

Ключевые слова: *дискурс цифровых медиа, интегрированная информационная система, медиалингвистика, коммуникативные знаки, средства массовой информации.*

Annotation: the article clearly explains the use of digital media discourse, analyzes its capabilities, and discusses integrated information systems and automation methods. It also analyzes the theoretical foundations of digital media discourse and its communicative characteristics, media linguistics, and the concept of media texts. In particular, it analyzes the growth of mass media in modern conditions and their impact on the conditions of the population.

Key words: *digital media discourse, integrated information system, media linguistics, communicative signs, mass media.*

Kirish. Hozirgi kunda zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llash jamiyatning ajralmas qismiga aylangan. Ommaviy axborot vositalari va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanib borishi, aholining, ayniqsa yoshlarning ko'pchiligini ijtimoiy tarmoqlardan, raqamli mediadan foydalanishga jalb etib kelmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham shu tizimlar rahbarlarning ongi va mas'uliyatini o'zgartirganligini ta'kidlab o'tgan. Hujjatlar integratsiyasi sifatini yaxshilash, kuchaytirish xususida ko'rsatmalar berib o'tgan. Zamonaviy dunyoda ommaviy axborot vositalari shaxslar tomonidan ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun aholini ishonitirish vositasi sifatida qarab kelinmoqda. Bu jarayonlar shaxsning tushunchalar orqali borliqni anglashiga ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat boshqaruvi va ijtimoiy sohalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, natijani yaxshilab, odamlar turmushini keskin tarzda yaxshilashi mumkin.

Har bir soha raqamli texnologiyalar bilan hamohang bo'lmasa, mamlakatimiz rivojlanmay qoladi. 1998-yil "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonunining qabul qilinishi sohaning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. [1,152;153] Investitsiya salohiyatini oshirish, uyg'unlashtirish biz yoshlarning qo'limizda. Yana shu jihatdan qarash kerakki, mediadiskursni o'rganishda, avvalambor, biz madaniy omillarni tushunishimiz shart.

Internet tarmoqlari rivojlanib borishi, davr o'zgarishlariga ham katta sabab bo'lmoqda. Ommaviy axborot vositalariga gazeta, jurnallar, radio dasturlar, hujjatli kinolar ko'rish haqida qonunning 1-moddasida bayon etilgan. [1,152]

Zamonaviy jamiyatning rivojlanishini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, sababi biz axborot vositalari orqali ma'lumotlarni eshitib qabul qilamiz va ana shu jarayon shaxsning fikri shakllanishiga ham ta'siri kattadir. Raqamli texnologiyalar muloqot

jarayonining asosiy platformasiga aylanmoqda. Shuningdek, bu jarayonlar rivojlanishi natijasida muloqot madaniyatini tubdan o'zgartirishga olib keldi. Raqamli kommunikatsiya makonining kengayishi natijasida media diskursining janr tizimi ham sezilarli darajada murakkablashdi. Raqamli media diskurs doirasida yangilik xabarlar, blog postlari, reklama matnlari, ijtimoiy tarmoq postlari hamda foydalanuvchi izohlari kabi turli kommunikativ shakllar mustaqil janr birliklari sifatida shakllanadi. Mazkur janrlarning har biri kommunikativ maqsadi, auditoriyaga yo'naltirilganligi, til vositalarining tanlanishi va matn qurilish prinsiplari bilan bir-biridan farqlanadi. Xususan, yangilik xabarlar janrida axborotni tezkor va aniq yetkazish asosiy vazifa hisoblanadi. Shu sababli bu turdagi matnlarda rasmiy-neytral uslub, mantiqiy izchillik va faktlarga asoslangan bayon ustunlik qiladi. Leksik birliklar ko'proq neytral xarakterga ega bo'lib, muallifning subyektiv munosabati minimal darajada ifodalanadi. Bu holat axborotning xolisligi va ishonchiligi ta'minlashga xizmat qiladi.

Raqamli kommunikatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, internet platformalari va axborot texnologiyalari bilan bog'liq yangi tushunchalar tilga maxsus terminlar orqali kirib keladi. Bunday terminlar dastlab professional yoki texnologik muhitda qo'llanilgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali keng auditoriya nutqiga ham kirib boradi. Natijada ular kundalik nutq va publitsistik matnlarda ham faol ishlatiladigan birliklarga aylanadi.

Shuningdek, raqamli media diskursida ingliz tilidan o'zlashgan leksik birliklarning ko'payishi ham muhim lingvistik hodisalardan biridir. Global internet makoni asosan, ingliz tilida faoliyat yuritishi sababli ko'plab yangi tushunchalar aynan ingliz tilidagi nomlari bilan boshqa tillarga kirib kelmoqda. "Post", "layk", "story", "trend", "fake news" kabi birliklar dastlab ijtimoiy tarmoqlar va media platformalar kontekstida qo'llanilgan bo'lsa, hozirgi kunda ular umumxalq nutqida ham keng tarqalgan. Bunday o'zlashmalar til tizimida yangi semantik birliklarning shakllanishiga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, raqamli media diskursida qisqartmalar va neologizmlarning paydo bo'lishi ham tilning yangilanish jarayonini jadallashtiradi. [3,434].

Asosiy qism. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon tilshunosligida til hodisalarini faqat strukturaviy nuqtayi nazardan emas, balki kommunikativ faoliyat mahsuli sifatida o'rganishga e'tibor kuchaydi.

Diskurs termini tilshunoslikda birinchi marta amerikalik olim Zellig Harris tomonidan XX asrning 1950-yillarida

qo'llangan. Shu bilan birga, diskursning yagona va umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emasligi ham tilshunoslikda ko'p bor ta'kidlangan. Rus tilshunosi S. Kubryakovaning fikricha, zamonaviy tilshunoslik rivojlanish bosqichida diskurs tushunchasining barcha olimlar tomonidan bir xil qabul qilingan universal ta'rifi mavjud emas. Buning asosiy sababi shundaki, diskurs juda murakkab va ko'p qirrali hodisa bo'lib, u turli ilmiy yo'nalishlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Ba'zi tadqiqotchilar diskursni matnning kontekst bilan bog'liq shakli deb hisoblasalar, boshqalar uni ijtimoiy-madaniy kommunikatsiya jarayoni sifatida izohlaydilar. [2,746].

Avvalambor biz diskurs tushunchasi haqida to'xtalib o'tamiz. Mediadiskurs bu ijtimoiy tarmoqlardagi muloqot, ya'ni ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladigan muloqot jarayoni hisoblanadi. Ya'ni diskurs bu muloqot jarayonida yuzaga keladigan matnlar to'plami deb izohlanadi. Zamonaviy axborot makonida, ayniqsa raqamli media matnlari (internet nashrlari, ijtimoiy tarmoqlardagi postlar, bloglar, onlayn yangiliklar)ni o'rganishda diskurs tahlili muhim metodologik vosita sifatida qo'llanadi. Raqamli media matnlari foydalanuvchilar tomonidan yaratiladi va turli kontekstlarda faoliyat olib boradi.

Diskurs va matn tushunchalarini farqlash zamonaviy lingvistika va diskurs tahlilining muhim nazariy masalalaridan biridir. Bu borada I.K. Arxipov diskurs va matn mohiyatini tushuntirishda nemis tilshunosi Hartmut Haberland qarashlariga tayangan holda o'z konsepsiyasini ishlab chiqqan. U ushbu masalaga lisoniy belgining ma'no ifodalash qobiliyati qaysi hududda yuzaga chiqishi nuqtai nazaridan yondashadi.

Arxipov shu nuqtayi nazardan shunday xulosaga keladi: qog'ozga tushirilgan matnda asl ma'nodagi belgi mavjud emas. Unda faqat harflar va belgilar ketma-ketligi mavjud bo'ladi. Arxipov diskursni matndan kengroq hodisa sifatida talqin qiladi. Matn — bu kommunikatsiyaning moddiy shakli bo'lsa, diskurs — bu matnning yaratilishi, qabul qilinishi va talqin qilinishi jarayonlarini o'z ichiga olgan kengroq kommunikativ faoliyatdir. Diskursda nafaqat til birliklari, balki kontekst, ijtimoiy sharoit, muallif va auditoriyaning psixologik hamda madaniy tajribasi ham muhim rol o'ynaydi. [2,747]

Axborotlashgan jamiyat deganda madaniy taraqqiyotning asosiy omiliga aylangan jamiyat ko'z oldimizga keladi. Mamlakatimizni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy — ma'rifiy rivojlantirishda, mexanizmlarni takomillashtirish, shakllantirish shu g'oyalarni amalga oshirish asosiy maqsadga aylandi. Shundan anglashiladiki,

mediadiskurs asosiy kommunikativ muhit bo'lib, unda madaniy kodlar uzatiladi. Ommaviy axborot vositalarini murakkab vositalardan holi etib, uni jamiyat uchun tushunarli tarzda ochiq oydinlashtirish lozim, chunki ommaviy axborot vositalari tilni demokratlashtirishda beqiyos hissasini qo'shadi. Raqamli media diskursida ellipsis hodisasi ham muhim sintaktik xususiyatlardan biri hisoblanadi. Ellipsis — gapning ayrim komponentlari kontekst orqali anglashilishi sababli ularni tushirib qoldirish jarayonidir. Internet kommunikatsiyasida bu usul matnni qisqartirish va mazmunni ixcham shaklda yetkazish imkonini beradi. Natijada to'liq bo'lmagan, ammo semantik jihatdan tushunarli gaplar keng qo'llanadi. Masalan, "Bugun yana muhim voqea" yoki "Odatdagidan boshqacha fikr" kabi ifodalar grammatik jihatdan to'liq konstruksiya bo'lmasa ham, kontekst orqali aniq ma'no hosil qiladi. Bunday sintaktik shakllar axborotni qisqa, ammo ta'sirchan tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Fragmentar gaplar sintaktik jihatdan mustaqil gap shakliga to'liq ega bo'lmasa-da, diskurs doirasida muayyan kommunikativ vazifani bajaradi. Ayniqsa, sarlavhalar, reklama matnlari yoki ijtimoiy tarmoq postlarida bunday konstruksiyalar auditoriyaning diqqatini jalb qilish va mazmunga qiziqish uyg'otish maqsadida qo'llanadi. Bundan tashqari, raqamli media diskursida dialogiklik ham muhim sintaktik-pragmatik xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy tarmoqlar va boshqa interaktiv platformalarda matn ko'pincha o'quvchi bilan bevosita muloqot shaklida quriladi. [3,435].

Raqamli media diskursida baholovchanlik kategoriyasi ham muhim pragmatik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Muallif voqea yoki hodisani ma'lum baholovchi leksika, stilistik birliklar va ekspressiv vositalar orqali talqin qiladi. Bunday baholovchanlik auditoriyada muayyan munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayrim hollarda ironik uslub yoki kinoyaviy ifodalar qo'llanib, muallifning pozitsiyasi bevosita emas, balki bilvosita tarzda ifodalanadi. Bu esa media diskursining yashirin semantik qatlamini hosil qilib, o'quvchini matn mazmunini chuqurroq talqin qilishga undaydi. Raqamli kommunikatsiyaning yana bir muhim pragmatik xususiyati uning interaktivligidir. An'anaviy media matnlarida auditoriya asosan, passiv qabul qiluvchi rolini bajargan bo'lsa, raqamli muhitda foydalanuvchilar kommunikativ jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi. Repost, izoh, reaksiyalar va muhokamalar orqali auditoriya matn mazmuniga o'z munosabatini bildiradi hamda diskursning keyingi rivojiga ta'sir ko'rsatadi. Shu tariqa media kommunikatsiya jarayoni individual emas, balki

kollektiv xarakter kasb etadi. Umuman olganda, raqamli media diskursining pragmatik xususiyatlari kommunikativ strategiyalar, baholovchanlik, manipulyativ usullar va interaktivlik bilan belgilanadi. [3,435].

Natijalar va muhokama. Avvalo, XX asrning ikkinchi yarmida bosma matbuotning (gazeta va jurnallar) keng tarqalishi ommaviy auditoriyaga mo'ljallangan nutq shakllarining ko'payishiga olib keldi. Matbuot orqali turli ijtimoiy, siyosiy va madaniy g'oyalar keng jamoatchilikka yetkazila boshlandi. Natijada publitsistik uslub, axborot matnlari, tahliliy maqolalar va sharhlar kabi yangi nutq shakllari rivojlandi. Bu esa ommaviy kommunikatsiya diskursining shakllanishiga asos bo'ldi.

Medialingvistika doirasida ommaviy axborot vositalari matnlari tilshunoslik tadqiqotlari uchun muhim empirik material sifatida qaraladi. Bu borada rus olimasi T. G. Dobrosklonskaya jurnalistik matnlarning o'ziga xos kommunikativ va stilistik xususiyatlarini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, badiiy adabiyot matnlari va ommaviy axborot vositalari matnlari voqelikni aks ettirish jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Dobrosklonskaya fikriga ko'ra, media matnlar voqelikni tasvirlashda ko'proq tasviriy va informativ uslubga tayanadi. Ya'ni jurnalistik matnlar voqealarni aniq faktlar, dalillar va kuzatuvlar orqali ifodalaydi. Bunda asosiy e'tibor voqea mohiyatini tez va tushunarli tarzda yetkazishga qaratiladi. [1,153].

Volodina fikriga ko'ra, inson bilimi taxminan ikki manbadan tarkib topadi: shaxsiy tajriba va vositachilik orqali olingan axborot. Shaxsiy tajriba – bu inson o'zi bevosita ko'rgan, his qilgan yoki boshdan kechirgan voqealar orqali shakllangan bilimdir. Biroq inson hayoti va tajribasi cheklangan bo'lgani sababli u butun dunyo haqidagi ma'lumotni faqat o'z tajribasi orqali bilib ololmaydi. Shu sababli inson o'z bilimining katta qismini vositachilik kommunikatsiyasi orqali oladi. Bu jarayonda kitoblar, gazeta va jurnallar, radio, televideniye, kino hamda internet asosiy axborot manbalari sifatida xizmat qiladi. Volodina ta'kidlagan yana bir muhim jihat shundan iboratki, ommaviy axborot vositalari insonning bo'sh vaqtini tashkil etish jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy jamiyatda odamlarning ko'p qismi bo'sh vaqtini teleko'rsatuv tomosha qilish, internet kontentini ko'rish, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish yoki turli media mahsulotlardan foydalanish bilan o'tkazadi. Bu jarayon nafaqat hordiq chiqarish vazifasini bajaradi, balki insonning estetik didi, qiziqishlari va madaniy qarashlariga ham ta'sir qiladi. [1,154].

Bu fikrni rus tadqiqotchisi I. V. Erofeyeva ham rivojlantirib, turli tilshunoslarning qarashlarini umumlashtirgan holda shunday xulosaga keladi: olamning milliy manzarasi ommaviy axborot vositalari matnlarida eng yorqin tarzda aks etadi. Buning sababi shundaki, OAV matnlari jamiyatning kundalik hayoti, ijtimoiy jarayonlari, siyosiy voqealari va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi.

Nemis tilshunosligida medialingvistika (Medien-linguistik) tushunchasi XXI asr boshlarida shakllanib, til va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganadigan mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida rivojlana boshladi. Ilmiy manbalarga ko'ra, ushbu atama 2001-yilda nashr etilgan til va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi aloqalarni tahlil qiluvchi ilmiy maqolalar to'plamida qo'llanib, ilmiy muomalaga faol kirib keldi.

A.I.Jedlichkoning fikriga ko'ra, medialingvistika yoki media tadqiqotlari faqat klassik ommaviy axborot vositalari bilan cheklanib qolmaydi. An'anaviy ravishda ommaviy axborot vositalari deganda gazeta, jurnal, radio va televideniye kabi kommunikatsiya vositalari tushunilgan. Bu vositalar bir yo'nalishli kommunikatsiya modeli asosida ishlaydi, ya'ni axborot muayyan markazdan keng auditoriyaga uzatiladi. Biroq so'nggi o'n yilliklarda raqamli texnologiyalar va internet kommunikatsiyasining rivojlanishi natijasida yangi turdagi media platformalar paydo bo'ldi. [1,156].

Kuzmina media matnni media muhitidagi nutqiy aloqa birligi sifatida izohlaydi. Uning ta'rifiga ko'ra, media matn oddiy yozma matn emas, balki ommaviy kommunikatsiya tizimida faoliyat yuritadigan murakkab va dinamik kommunikativ birlik hisoblanadi. "Dinamiklik" tushunchasi shuni anglatadiki, media matn doimiy ravishda ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar ta'sirida o'zgarib boradi. Ommaviy axborot vositalari orqali uzatiladigan har qanday

xabar – yangilik, reportaj, maqola yoki teleko'rsatuv – auditoriya bilan kommunikativ aloqani ta'minlaydigan nutqiy mexanizm sifatida xizmat qiladi. Shu sababli media matn nafaqat axborotni yetkazadi, balki jamiyatdagi fikrlar almashinuvi va ijtimoiy muhokamaning muhim vositasi bo'lib ham hisoblanadi. [1,157].

L.R.Duskayeva esa media matnni jurnalistlarning professional nutq faoliyati mahsuli sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, ommaviy axborot vositalarida yaratiladigan matnlar tasodifiy shakllanmaydi; ular jurnalistika sohasida shakllangan kasbiy me'yorlar, kommunikativ strategiyalarga tayanadi. Duskayeva ta'kidlagan yana bir muhim jihat – media matn jurnalistlarning nutqiy xatti-harakatlarini aks ettiruvchi faoliyat shakli ekanligidir. Bunda jurnalist ma'lumotni qanday tanlashi, qanday stilistik vositalardan foydalanishi, auditoriyaga qanday ohangda murojaat qilishi professional kommunikatsiya qoidalari bilan belgilanadi. [1,157].

Xulosa. Raqamli media diskursining lingvistik jihatdan o'rganilishi zamonaviy tilshunoslikda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Raqamli kommunikatsiya muhiti tilning yangi funksional imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, uning qo'llanish doirasini kengaytiradi. Shu sababli media matnlarini lingvistik tahlil qilish orqali til birliklarining zamonaviy kommunikativ sharoitda qanday ishlatilishi, ularning semantik, stilistik va pragmatik xususiyatlari yanada chuqurroq anglash imkoniyati paydo bo'ladi. Shuningdek, raqamli media diskursining lingvistik tahlili kommunikativ jarayonlarning ichki mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Media matnlarida qo'llaniladigan leksik birliklar, sintaktik qurilmalar, baholovchi vositalar va pragmatik strategiyalar auditoriya bilan samarali muloqotni ta'minlashga qaratilgan bo'ladi. Ularni ilmiy jihatdan o'rganish orqali axborot uzatish, ta'sir ko'rsatish va jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayonlarining lingvistik asoslari aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World of Philology: March 2025 Edition | PDF | Learning | Human Communication <https://share.google/cX3sgOH3yfH3oRJCT>
 Scribd (<https://share.google/cX3sgOH3yfH3oRJCT>) [153,154,156,157.b]
2. <https://ru.scribd.com/document/733978711/diskurs> [746,747.b]
3. RA13-12-433-436: https://sg.docworkspace.com/d/sbCaigPhM9nla4L_8le7gpa7gd2rgtir89?sa=601.1258 . Open in APP: <https://go.wps.com/s6bQIPV9WDer>. [434,.435.b]
4. https://sg.docworkspace.com/d/sbCaictdAq8zwcWj_libk52n0dm7kxqn8x6?sa=601.1258
5. https://sg.docs.wps.com/module/common/aiGuide/?sid=sbCaip8JIGxId4VI_92zs5ebc9in49a389e#1773381728961
6. https://sg.docworkspace.com/d/sbCaibnSzOJQYA38_9qro5urohi309ir45e?sa=601.1258 .

Nasibaxon XAYDAROVA,
 O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
 "o'zbek tili va adabiyoti" yo'nalishi
 1-kurs magistri
haydarovanasiba503@gmail.com



SHAHAR VA QISHLOQ O'RTASIDAGI MADANIY KODLAR ALMASHINUVI

Annotatsiya: mazkur maqolada shahar va qishloq madaniy kodlari, ularning integral hamda differensial taraflarini ochish nazariy va amaliy ochiqdanadi. Madaniy kodlarning lingvistika bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar va tilshunoslikda tutgan o'rni haqida fikr yuritiladi. Shahar va qishloq nutqidagi kommunikativ vositalar aniqlanadi. Maqoladan ko'zlangan asosiy maqsad madaniy kodlarning hudud doirasidagi ko'rinishini tahlil qilish va lingvokulturologik sathlarni belgilashdan iborat.

Kalit so'zlar: *til, madaniyat, milliy kolorid, madaniy kod, shahar, qishloq, lingvokulturologiya.*

Annotation: this article provides a theoretical and practical explanation of urban and rural cultural codes, their integral and deferential aspects. The article discusses the scientific research conducted in linguistics and the role of cultural codes in linguistics. The communicative means in urban and rural speech are identified. The main goal of the article is to analyze manifestation of cultural codes within the territory and determine the linguo-cultural levels.

Key words: *language, culture, national color, cultural code, city, village, linguocultology.*

Аннотация: в данной статье представлено теоретическое и практическое объяснение городских и сельских культурных кодов, их интегральных и дифференцированных аспектов. Рассматриваются научные исследования в области лингвистики и роль культурных кодов в лингвистике. Выявлены коммуникативные средства в городской и сельской речи. Главная цель статьи-анализ проявления культурных кодов на территории и определение лингвокультурных уровней.

Ключевые слова: *язык, культура национальный цвет, культурный код, город, деревня, лингвокультурология.*

Kirish. Dunyoda har bir davlat o'z tili, mustaqilligi, ma'naviyati-yu madaniyatiga egadir. Darhaqiqat, butun bir millatni millat qilib turadigan asosiy unsurlardan biri bu – madaniy kodlar hisoblanadi. U millatning umumiy va xususiy tomonlarini ochib beruvchi omildir. Madaniy kodlar deganda, odatda, jamiyatda qabul qilingan yozilgan-yozilmagan qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar tushuniladi. Ular ma'lum bir ma'noda insonlar qarashlarini tartibga soladi, boshqaradi. U asosan, madaniy identifikatsiyaning bir qismidir. O'zbek milliy qadriyatlari asrlar davomida shakllanib, xalq hayot tarzi, urf-odatlari, diniy e'tiqodlari asosida bugungi kungacha sayqallanib kelgan. Maqolada qadriyatlar va ularning bugungi kundagi ifodasi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz. Insoniyat ibtidoiy jamoa davrida ham, hozirgi davrda ham tarixda xalqlar va elatlar o'ziga xos dunyoqarash, turmush tarzi va tafakkurini shakllantirib kelgan. Madaniy kodlar tushunchasi keng ma'noda –muayyan jamiyat a'zolariga bolalikdan singdirilishi

ularning ongosti va dunyoqarashlari joylashgan ramzlar, timsollar, belgilar, stereotiplar tizimidir. U xuddi dasturiy yig'inga o'xshaydi. Insonlarning atrof-muhitni anglashiga, voqealarga, munosabat bildirishi, o'zaro muloqot paytida ta'sir ko'rsatadi. Adabiyotda va san'atshunoslik nuqtai nazaridan qanday ahamiyatga ega. O'z davrida yaratilgan va avvalgi asarlarda ham qadriyatlarga bevosita murojaat jarayoni, albatta mavjud bo'ladi. Badiiy asarlarda maxfiy kalit vazifasini bajaradi detallardan yasalgan ruhiyat, desak adashmaymiz.

Fikr va mulohazalar. Madaniyat so'zi, kelib chiqishiga ko'ra, lotin tilidagi ko'p ma'noli "haydamoq", "ishlov bermoq", ma'nosidagi solo, solli, sillit, solera fe'llariga borib taqaladi. Manba lotin tilidagi so'zning semantik imkoniyatlaridan kelib chiqib, hind-yevropa tillaridagi bugungi iste'moldagi kultura (madaniyat) so'zi yuzaga keldi. Qadimgi lotin tilidayoq bu so'zda, birinchidan, "zemlepashestovo" (yer haydash) –"vozdelo'vanie" (yer haydash), "vospitanie lyudey" ("vozdelovaniye",

“obrobato’vanie” – “odamlarni tarbiyalash”) “uxod, popechenie, zabota”(parvarish qilish, g’amxo’rlik qilish, tavajjuh – ishlov berishning bir turi) obrazovannost (bilimlilik) –“vozdelo’vanie” – parvarish qilish natijasi) kabi ma’nolarni anglatgan. Milliy til vositasida o’zaro bog’liq bo’lgan mentalitet va madaniyat inson ma’naviy faoliyatining bir sohasi sifatida namoyon bo’ladi. (Mamatov,2019.15-bet). O’zbek xalqining milliy qadriyatlari asosan, quyidagi fazilatlar orqali namoyon bo’ladi:

– **Ota- onaga ehtirom va kattalarga hurmat:** kichiklarga izzat, kattalarga hurmat ko’rsatish. Katta yoshdagi insonlarning duosini olish.

– **Mehmondo’stlik:** uyiga kelgan mehmonni dildan kutib olib, eng yaxshi taomlarni tayyorlash.

– **Hayo va andisha:** millatimiz ayollarining kiyinishi va yurish - turishdagi holatlari. Ochiq kiyimlardan tiyilishlari va boshlarida ro’mol borligidir.

– **Mehr-oqibat va shafqat tuyg’ulari:** aholining yashash jarayonida qo’ni-qo’shnilar, yetim-yesirlar va muhtojlarga yordam qo’lini cho’zib, yordam berishi.

– **Tozalik va poklik:** nafaqat maishiy, kundalik hayotdagi poklik va qalb pokligi, halol yashash kabi.

– **Yelkadoshlik hamda hamjihatlik :** qiyin vaziyatlarda bir - biriga suyanish va hamkorlikda tinch-totuvlikda yashash.

– **Lafz (so’zida qat’iy turish)** burch va kelishuvga sadoqat qilishlik.

– **Diniy bag’rikenglik:** turli din va millat vakillariga hurmat hissi.

O’zbek qadriyatlari kundalik hayotda turli shakllarda namoyon bo’ladi. Milliy liboslar, ayniqsa ayollar uchun xon-atlas va adraslar nafaqat kiyim, balki millatning ma’naviy qiyofasi va boy tarixining belgisidir. Shu sababli xalqimiz har yili “Xon atlas” festivallari va milliy liboslar ko’rgazmalari tashkil etishi buning yorqin isboti hisoblanadi.

1. Ijtimoiy normalar bu aniq bir millatning xatti-harakatlarini tartibga soladi va jamiyatga tatbiq etish uchun ruhsat yoki rad javobini beradi. Misol uchun: odob-axloq me’yorlari bu jamiyatdagi shaxsning qanday ekanligini ko’rsatuvchi omillardan biridir. Ijtimoiy normalar inson nima qilishi kerakligi, uni qanday qilishi va qanday natijaga erishishi mumkin ekanligini belgilaydi. Axloqiy me’yorlar esa axloqli yoki axloqsiz, yaxshi - yomon ko’rinishdagi inson harakatlarini baholaydi. Har bir millat o’zining milliy kodiga ega va unga amal qiladi, qadrlaydi. Mustaqil mamlakatimizda

ham shunday madaniy kodlar asrlar o’tgan sari jamiyat tomonidan saqlanishi yoki yo’qolib qadsizlanishi ham mumkin. O’zbek millatiga xos va mos bo’lgan asosiy kodlardan biri salom berish, katta yoshdagi keksalarning fikrini qadrlashi, bajarishi, kichiklarga o’zaro hurmat, ustoz qadr-qimmat, ota-ona maslahati, atrof-muhit, hayot tarzi, ijtimoiy munosabatlar va boshqa ko’plab unsurlar bor. Madaniy kodlar qishloq va shaharlarda turlicha ko’rinishda namoyon bo’ladi.

2. Shaharda qadriyat va an’analar.

- o’zgaruvchan
- yangiliklarga boy
- diniy e’tiqod erkin

3. Qishloqlarda qadriyatlar ko’rinishi

- mustahkam saqlangan qadriyatlar ko’p
- avloddan-avlodga o’tadigan urf-odatlar bor
- diniy va milliy qadriyatlarga kuchli amal qilinadi.

4. Shaharda atrof-muhit masalasi

- atrof-muhit zaif
- sun’iy muhitda yashash va oziqlanish

5. Qishloqda atrof-muhit

- tabiat bilan bevosita aloqa ko’proq
- tabiiy resurslarga chuqur tayanish
- toza, musaffo havo

6. Shaharda an’ana va qadriyatlarning namoyon bo’lishiga ko’ra

- qadriyatlar bor, ammo qisqargan shaklda namoyon bo’ladi.
- bayram tabriklari asosan, ijtimoiy tarmoqlarda amalga oshadi

7. Qishloqda qadriyatlar qanday namoyon bo’ladi.

- oilaviy bayramlar ko’p qarindoshlar ishtiroki bilan amalga oshadi.
- nikoh marosimlari, hatna to’ylari 2 kun bo’ladi.
- milliy bayramlar masalan: Navro’z, hasharlar, sumalak solish, qurbon, ramazon hayitlari, aza, to’ylar (sunnat, nikoh), xatm, beshik to’ylar har doim jamoa bilan o’tadi.

Qishloq sharoitida bu an’analar bevosita to’g’ridan to’g’ri amalga oshadi. Shaharda esa an’analar qat’iy qoidalar bilan emas, balki moslashuvchan va dinamik shaklda yashab boradigan jarayon hisoblanadi. Bu holat tabiiy madaniy hayotning davomiyligini aks ettiradi. Mentalitet tushunchasi ilmiy konsept sifatida 19-asrning ikkinchi yarmida ilmiy bilimlarni ommalashtirish bosqichini o’tab, shunga muvofiq madaniyat tushunchasidan ancha keyin shakllandi. Shuning uchun ikkala, mentalitet va madaniyat kategoriyalarining

bir-birining kontekstlarda berilishi, qaysidir ma'noda bir-birining o'rnini bosuvchi o'ziga xos "semantik interferensiya"ni yuzaga keltiradi. Madaniyatni aniq bir maqsad yo'lida o'rganish 18-asrda ma'rifatchilik ijtimoiy-siyosiy oqim arboblari – Fransiyada J.J.Russo, D.Didro, P.A.D.Golbax, Germaniyada I.G.Gerder va boshqalar tomonidan boshlandi. 19-asr o'rtalaridan asta-sekin uning o'rganish sohalari paydo bo'la boshladi. (Mamatov, 2019.14-bet) Til nafaqat aloqa va fikrni bayon qilish vositasi, balki u madaniyatga xos bo'lgan bilimlarni yig'ish vositasi hamdir. Til ma'naviy va moddiy madaniyat bilan o'zaro munosabatda bo'ladi va u bilan uzviy bog'liqdir. Unda xalqning o'ziga xosligi, olamni milliy his qilishi, milliy madaniyat jamlangan bo'ladi. "Dunyo tillarini o'rganish, – deya ta'kidlagan edi V.Gumboldt, – bu shuningdek, insoniyatning hissiyotlari va fikrlarining umumjahon tarixidir. Bu tarix barcha mamlakatlarning kishilarini va madaniy taraqqiyotning barcha bosqichlarini tasvirlab berishi kerak, unga insonga nima tegishli bo'lsa, hammasi kirishi kerak". (Gumboldt 1956:348). Bundan tashqari, u quyidagi fundamental qoidalarni ilgari suradi: til uzluksiz ongli ijodiy yaratuvchilik jarayoni sifatida tilda madaniyatning ifodasidir; til butun borliqni anglashda, u yoki bu tilning ta'siri ostida tildan tashqari voqelikni gavdalandirishning aniq uslubi in'ikosi sifatida yuzaga keladigan muayyan olam ko'rinishini, ya'ni tilning ichki shaklini, xalqning dunyoqarashini shakllantirishda eng muhim rol o'ynaydi; xalq ham xuddi insoniyatning har bir shaxsi kabi murakkab birlikdir.¹ (Mamatov, 2019. 31-bet).

Xulosa. Shahar va qishloq o'rtasidagi madaniy almashinuv bugungi jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon natijasida ikki xil muhitning o'ziga xos qadriyatlari, an'analari

¹ Zamonaviy lingvistikada :o'quv qo'llanma /A.E.Mamatov.-Toshkent : "Nashir "nashriyoti ,2019 bet.

va turmush tarzi o'zaro boyib, yangi madaniy sintez yuzaga kelmoqda. Shaharlarning texnologik taraqqiyoti, ta'lim muassasalari va zamonaviy infratuzilmasi qishloq aholisi uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochsa, qishloqlarning boy folklori, milliy qadriyatlari, an'anaviy hunarmandchiligi va go'zal tabiati bilan uyg'un hayot tarzi shahar aholisining ma'naviy dunyosini boyitadi.

Ushbu madaniy almashinuv natijasida:

- Qishloqda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion fikrlash tarqaladi.
- Shaharlarda esa milliy an'analarga qiziqish va ularni asrashga intilish kuchayadi
- Turizm, ijodiy industriyalar va kichik biznes rivojlanadi.
- Yoshlar uchun ta'lim va kasb tanlash imkoniyatlari kengayadi.
- Ijtimoiy hamjihatlik va milliy birdamlik mustahkamlanadi.

Hozirgi keng imkoniyatlar barcha insonlar manfaati uchun qanchalik zarur bo'lsa, til va madaniyat omillari ham shunday zarurdir. Har bir millat o'zining milliy boyliklarini mukammal bilishi va uni asrab-avaylashi – bu oliy hislat. O'z milliy madaniyatiga xos-u mos kelmagan harakatlar, odatlar, kiyinishlar, hayot tarzi va boshqa alomatlar bilan yashash esa millatning o'zligini yo'q qilishdek salbiy oqibatlariga olib boradi. O'zbek xalqiga mos an'analarni asrash va uni kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazish, barcha o'zbek millati vakillariga yuklatilgan oliy vazifadir. Madaniy kodlar jamiyat taraqqiyotining tabiiy va zaruriy jarayoni bo'lib, u an'ana va zamonaviylik uyg'unligini ta'minlab, yagona milliy madaniyatning yanada boyishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayonni qo'llab - quvvatlash va undan oqilona foydalanish har bir jamiyatning kelajagi uchun ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Mamatov A.E Zamonaviy lingvistikada, o'quv qo'llanma – Toshkent: "Nashir" nashriyoti, 2019.168-bet.
 - 2.M.I. Israil. – Toshkent: Bookmany print, 2025. 122-b.
 - 3.Olimov Farruxbek Sultonmurodovich Tilshunoslik nazariyasi/Matn/O'quv-uslubiy qo'llanma. – T.: "Firdavs-Shoh nashriyoti", 2025. 60-b.
 - 4.Xolmonova Z. Tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent, 2019.
 - 5.O' Sharipov, I.Yo'ldoshev. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent, 2006. 89-b.
- <http://bugabooks.com>
<http://ru.wikioedia.org>
<http://wiki.myword.ru>
<http://www.countries.ru/library>

Husniyabonu YODGOROVA,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi magistranti

Elektron manzil: yodgorovahusniya1203@gmail.com

SHAXSIY YOZISHMA VA IZOH MATN TUSHUNCHASI

Annotatsiya: mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy yozishmalar va izoh (kommentariya) matnlarining lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda shaxsiy yozishmalar tushunchasi, ularning shakl va turlari hamda zamonaviy kommunikatsiya jarayonidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoq tiliga xos bo'lgan qisqartmalar, emojilar, sheva elementlari hamda turli tillar aralashuvi kabi hodisalar muloqot jarayonining muhim belgisi sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada izoh matnining lingvistik tabiati, uning asosiy matn bilan uzviy bog'liqligi, mikromatn sifatidagi xususiyatlari ham tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *ijtimoiy tarmoqlar tili, shaxsiy yozishmalar, izoh matni, lingvistik ekspertiza, mikromatn, kommunikatsiya, virtual muloqot, noadabiy unsurlar, emojilar, internet tili.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвистические особенности личной переписки и текстов комментариев в социальных сетях. В исследовании рассматриваются понятие личной переписки, её формы и виды, а также её роль в современном коммуникативном процессе. Кроме того, такие особенности языка социальных сетей, как сокращения, эмодзи, диалектные элементы и смешение различных языков, рассматриваются как важные признаки коммуникации. В статье также анализируется лингвистическая природа текста комментария, его тесная связь с основным текстом, а также его особенности как микротекста.

Ключевые слова: *язык социальных сетей, личная переписка, текст комментария, лингвистическая экспертиза, микротекст, коммуникация, виртуальное общение, нелитературные элементы, эмодзи, интернет-язык.*

Annotation: this article analyzes the linguistic features of personal correspondence and comment texts in social networks. The study examines the concept of personal correspondence, its forms and types, as well as its role in modern communication processes. In addition, such features of social media language as abbreviations, emojis, dialectal elements, and the mixing of different languages are considered important characteristics of communication. The article also analyzes the linguistic nature of comment texts, their close connection with the main text, and their features as microtexts.

Key words: *social media language, personal correspondence, comment text, linguistic expertise, microtext, communication, virtual communication, non-standard elements, emojis, internet language.*

Hozirgi davrda matn tilshunosligi va aloqa nazariyasi, qolaversa, sud-huquq tizimidagi lingvistik ekspertizaning eng asosiy obyektlaridan biri shaxsiy yozishmalar hisoblanadi. Shaxsiy yozuv – biror narsani o'ylash yoki shaxsiy tajribani boshqalar bilan baham ko'rish zarurati tug'ilganda foydalaniladigan vosita.¹ Shaxsiy yozishmalar tushunchasi qay mavzu va yo'nalishda bo'lishidan qat'i nazar insonning individual yondashib amalga oshirgan harakatidir. Shaxsiy yozishmalar bir tomonlama va ikki tomonlama munosabatlarda bo'lishi mumkin. Xabar yo'llovchi va qabul qiluvchisi aniq bo'lgan shaxsiy yozishmalar – ikki tomonlama yozishmalar sanaladi. Ammo xabar yo'llovchi aniq-u, qabul qiluvchi noaniq yoki xabar yo'llovchi noaniq-u, qabul qiluvchi aniq bo'lgan bir tomonlama munosabatdagi shaxsiy yozishmalar ham mavjud. Masalan, biror shaxs boshqa bironing o'limiga

sababchi bo'lib qolishi va uning nomidan marhumning o'zi aybdorligi xususida ma'lumot qoldirishi mumkin. Bunda yozishma ijrochisi aniq, ammo qabul qiluvchilar marhumning oilasi, qolaversa, fuqarolar huquqini himoya qiluvchi davlat tashkilotlaridir.

Shaxsiy yozishma tushunchasi faqatgina qo'lyozma tarzidagi maktublardan, yoki elektron tarzidagi SMS, e-mail va ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalardan iborat emas, balki audio va video yozishmalar ham uning tarkibiga kiradi. Bu borada Moskva yuridik instituti olimi O.Y.Antonov shaxsiy yozishmalarning lingvistik ekspertizasini tadqiq etgan va ularni quyidagi turlarga ajratgan²:

- 1) maktub shaklidagi shaxsiy yozishmalar;
- 2) SMS va ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy yozishmalar;

² Антонов О.Ю. Особенности использования специальные знаний в области лингвистики при изучении электронной переписки в ходе расследования половых преступлений в отношении несовершеннолетних // – Москва, 2018. – С. 5-11.

¹ To'rayeva D.A. Nutq hududiy xoslanishining lingvistik ekspertizasi. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – B. 6.

- 3) audio tarzidagi shaxsiy yozishmalar;
- 4) video shaklidagi shaxsiy yozishmalar.

Bunday yozishmalarning eng muhim belgisi bu erkinlikdir. Biz ko'pincha imlo qoidalariga, vergul yoki nuqtalarning o'rniga e'tibor berib o'tirmaymiz, chunki asosiy maqsadimiz fikrni tezroq yetkazish hisoblanadi. So'zlarni qisqartirib yozish, masalan, uzoq gaplarni bir necha harfga joylash yoki so'zning oxirini yeb ketish odatiy holga aylangan. Shu bilan birga, yozuvda yetishmaydigan ohang va yuz ifodalarining o'rnini turli emojilar va stikerlar to'ldiradi. Bitta kulib turgan rasm yoki qo'yilgan nuqta ba'zan uzun bir gapdan ko'ra ko'proq ma'no anglatishi mumkin.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoq tili juda qorishiq xarakterga ega. Kundalik yozishmalarimizda o'zbekcha so'zlar orasida ruscha yoki inglizcha iboralarni ishlatishimiz, shevaga xos elementlarni qo'shishimiz muloqotni yanada yaqin va samimiy ko'rsatishga xizmat qiladi. Bu yerda hamma narsa tezlikka asoslangan: javobning qanchalik tez kelishi, xabarning o'qilgani yoki o'qilmagani ham tildagi so'zlar kabi ma'lum bir ma'no yukini tashiydi. Xulosa qilib aytganda, virtual olamdagi yozishmalarimiz shunchaki matn emas, balki his-tuyg'ularimiz, madaniyatimiz va zamon shiddatining o'ziga xos aksidir.

Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarga audio va video xabarlarning kirib kelishi muloqotni yanada jonli va hissiyotga boy qiladi. Agar matnli xabarlarda faqat so'zlarga tayaniladigan bo'lsa, audio xabarlarda asosiy rol insonning ovozi, undagi hayajon va urg'u o'ynaydi. Inson o'z fikrini yozma ravishda tushuntirishga qiynalganida yoki vaqti ziq bo'lganida, audio xabar unga katta qulaylik yaratadi. Bu usul go'yoki masofadan turib telefonlashgandek, lekin javobni o'ziga qulay vaqtda eshitish imkonini beruvchi erkin muloqot turidir.

Video xabarlar, ya'ni kruglash yoki qisqa videolar esa bu yaqinlikni yana bir pog'ona yuqoriga olib chiqadi. Unda nafaqat ovoz, balki insonning ko'z qarashi, qo'l harakatlari va u turgan muhit ham suhbatning bir qismiga aylanadi. Bu shunchaki ma'lumot almashish emas, balki o'sha lahzani birga baham ko'rishdek gap. Bunday xabarlar orqali odamlar o'zlarini bir-birlariga yaqinroq his qilishadi, chunki unda soxtalik kamroq bo'ladi va yozuvda yetishmaydigan samimiylik yaqqol ko'rinib turadi.

Shu bilan birga, audio va video formatlar tildagi qisqartmalar va murakkab so'zlarga ehtiyojni kamaytiradi. Inson yozishga eringanda yoki hissiyotini matnga sig'dirolmaganda, shu qisqa xabarlar yordamga keladi. Bu esa ijtimoiy tarmoq tili faqat harflardan iborat emas,

balki jonli harakat va ovozlar bilan boyigan yangi bir dunyo ekanligini ko'rsatadi.

Shaxsiy yozishmalar – har qanday matn kabi nutq muloqotining bir turidir. Shu nuqtayi nazardan, tadqiqotchining fikriga ko'ra, avvalo, matnlarni mazmuniy jihatdan farqlash va undan so'ng uning uslubi va strukturasiga e'tibor qaratish lozimdir. Bu borada Rossiyaning Orlov universiteti olimlari I.V.Popova, L.A.Vlasova shaxsiy yozishmalarning qo'lyozma va SMS-chat turlarining lingvistik ekspertizasini uch bosqichga bo'lishdi.³ Olim Y.A.Belchikov ham shunday fikrni bildirdi: "Huquqiy masalalar bo'yicha bahsli matnning lingvistik ekspertisasi – bu to'g'ridan-to'g'ri filologiyaning eng qadimgi tarmoqlaridan biri germevntika bilan aloqador, zero, germevntikaning markaziy vazifalaridan biri matnni (yozma va og'zaki) talqin qilish va uni tushunishdan iboratdir"⁴. Y.A.Belchikovning fikriga qo'shilgan holda, olimlar bahsli SMS xabarning lingvistik ekspertiza jarayonini 3 bosqichga ajratishdi:

1) suhbatning semantik bloklarini aniqlash – so'zlovchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi suhbatning mavzusi aniqlanadi. Bunda mavzu markaziy o'rinda bo'lib, suhbatdoshlar bir nechta mavzuda suhbatlashayotgan bo'lsa-da, bir mavzu xususida bir aylana chiziqli orqali harakatlanishadi, ya'ni suhbat davomida bir necha bor aynan shu mavzuga qaytib kelishadi. Bu so'zlashuv jarayonining semantik maydonini tashkil qiladi;

2) nutq harakatlarining turlarini aniqlash – axborot berish, ma'lumot so'rash, rag'batlantirish, rozilik, norozilik, kelishmovchiliklarni ifodalash, suhbatdoshga bo'lgan munosabatni ifodalash, his-tuyg'ular kabilar. Matnda suhbat jarayoni xabar, bayonot, izoh, tushuntirish, fikr bildirish, taxmin, ogohlantirish, da'vat kabi nutq harakatlarida amalga oshadi. Bu, albatta, yozma matnlar uchun xos. Og'zaki, audio, video murojaatlarda esa nutq harakati ekstralingvistik omillarga ko'ra belgilanadi;

3) informatsion komponentlarni aniqlash va tavsiflash – bahsli matnning ichki semantik mohiyatini yuzaga chiqaruvchi lingvistik birliklarni tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Shaxsiy yozishmaning umumiy strukturasini,

3 Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы: сборник научных работ по итогам Международной научной конференции «Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы» (Москва, 1–2 октября 2019 г.). – М.: Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина, 2019. – С. 24.

4 Бельчиков Ю.А. Лингвистическая судебная экспертиза – целенаправленное герменевтическое исследование // Спорные тексты СМИ и судебные иски: Публикации. Документы. Экспертизы. Комментарии лингвистов / под ред. проф. М.В. Горбаневского. М.: Престиж, 2005. – С. 15-20.

soʻzlarning toʻliq yoki toʻliq emasligi, haqiqiy mazmunni yashirish uchun qoʻllaniladigan adabiy meʼyordan chetga chiqqan leksik unsurlarning qoʻllanilishi, noadabiy grammatik shakllarning ifodasi kabi lingvistik tahlil olib boriladi.

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqdagi har bir yozishmamiz — bu shunchaki harflar yigʻindisi emas, balki butun boshli bir jonli muloqot tizimidir. Biz chatlarda gaplashayotganimizda, garchi mavzudan mavzuga sakrab oʻtsak-da, baribir suhbatimizni bogʻlab turuvchi asosiy bir maqsad va oʻzak boʻladi. Bu oʻzak xabarlarimiz tarqoq boʻlib koʻrinsa ham, suhbatni bitta chiziqda ushlab turadi.

Shu bilan birga, har bir yuborgan xabarimiz ortida maʼlum bir niyat yashirin boʻladi: kimdir maʼlumot berishni xohlasa, boshqa biron shunchaki oʻz mehrini yoki eʼtirozini bildirishga harakat qiladi. Bu niyatlar yozuvda soʻzlar orqali, ovozli va video xabarlarda esa ohang va kayfiyat orqali namoyon boʻladi.

Eng qizigʻi shundaki, biz ijtimoiy tarmoqda oʻzimizga xos “maxfiy” tildan foydalanamiz. Soʻzlarni qisqartirishimiz, imlo qoidalarini chetga surib qoʻyishimiz yoki faqat yaqinlarimiz tushunadigan iboralarni ishlatishimiz suhbatimizning ichki dunyosini boyitadi. Bu orqali biz nafaqat axborot almashamiz, balki oʻzaro yaqinlik va samimiyatni ham ifodalaymiz. Shuning uchun ham virtual muloqotimiz hayotimizning ajralmas va juda ham qiziqarli qismiga aylangan.

Lingvistik nuqtayi nazardan izoh (kommentariya) matni — bu asosiy matn (pretekst) bilan uzviy bogʻlangan, uni toʻldiruvchi, tushuntiruvchi yoki unga munosabat bildiruvchi ikkilamchi matn hisoblanadi.

Izoh matni oʻzining tabiatiga koʻra bogʻliqlik xususiyatiga ega boʻlib, u mustaqil holda yashay olmaydi. Lingvistikada bunday matnlar “degidratlangan matn” deb ham yuritiladi (ilmiy tilda degidratlanish (de va gidratlanish) — anorganik yoki organik moddalardan suv ajralishi.⁵), yaʼni uning toʻlaqonli maʼno-mazmuni faqat asosiy matn (post, maqola yoki xabar) bilan birgalikdagina namoyon boʻladi.

Hajm nuqtayi nazaridan izohlar koʻpincha qisqa va loʻnda tuzilgan “mikromatn”lar hisoblanadi (Mikromatn (lotincha micro — kichik va textus — matn) — tilshunoslikda matnning eng kichik, nisbatan tugallangan boʻlagi yoki qisqa shakldagi yaxlit matn turi hisoblanadi.⁶). Unda ortiqcha kirish soʻzlaridan qochilib, fikr darhol maqsadga yoʻnaltiriladi. Stilistik jihatdan esa izoh matni soʻzlashuv va

publitsistik uslublarning qorishmasidan iborat boʻlib, unda ham jonli muloqot elementlari, ham ijtimoiy-ommabop til xususiyatlari uygʻunlashadi.

Izoh matnining asosiy vazifasi faqatgina axborot berish bilan cheklanib qolmaydi. U oʻquvchiga taʼsir koʻrsatish, muloqotga chorlash va muallif bilan auditoriya oʻrtasida mustahkam aloqa bogʻlash (kommunikatsiya) quroli boʻlib xizmat qiladi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Biz har kuni yuzlab postlarni oʻqiyimiz va ularga izohlar qoldiramiz. Zamonaviy tilshunoslikda ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar nafaqat kommunikativ jarayon, balki tilning rivojlanishida muhim rol oʻynaydigan lingvistik hodisa sifatida ham oʻrganilmoqda. Chunki internet muhiti yangi nutqiy birliklar, qisqartmalar, internet-slang va turli grafik belgilar paydo boʻlishiga sabab boʻlmoqda. Bunday unsurlar dastlab norasmiy muloqot vositasi sifatida qoʻllanilgan boʻlsa-da, vaqt oʻtishi bilan ular keng ommalashib, kundalik nutqning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Lekin oddiygina tuyulgan bu “kommentariya”lar aslida oʻziga xos qonuniyatlarga ega boʻlgan alohida bir matn turi hisoblanadi.

Izohning asosiy xususiyati shundaki, u hech qachon yolgʻiz oʻzi mavjud boʻla olmaydi. Uni tushunish uchun albatta oʻsha izoh yozilgan rasm, video yoki maqola (asosiy matn) kerak boʻladi. Masalan, “Juda toʻgʻri aytibsiz!” degan izoh oʻz-oʻzidan maʼnoga ega emas, u faqat muallifning fikriga bogʻlangandagina mazmun kasb etadi. Bu fan tilida metamatn deb ataladi.⁷

Insonlar izoh yozayotganda turli maqsadlarni koʻzlaydilar. Kimdir postdagi murakkab tushunchani boshqalarga soddaroq tushuntiradi (eksplikativ), kimdir oʻzining ijobiy yoki salbiy munosabatini bildiradi (baholovchi), yana kimdir shunchaki “Rahmat” yoki “Zoʻr” deb muloqot oʻrnatib qoʻyadi. Bu harakatlarning barchasi izoh yozuvchining ichki niyatini koʻrsatadi.

Bundan tashqari, ijtimoiy tarmoq yozishmalarida pragmatik omillar ham katta ahamiyatga ega. Yaʼni xabar mazmunini toʻliq tushunish uchun faqat matnning oʻzi yetarli emas, balki muloqot ishtirokchilarining oʻzaro munosabati, suhbat konteksti, vaqt va kommunikativ vaziyat ham hisobga olinadi. Masalan, qisqa yozilgan “Yaxshi” yoki “Mayli” kabi javoblar baʼzan rozilikni bildirsa, boshqa holatlarda norozilik yoki befarqlik maʼnosini ham ifodalashi mumkin. Bu esa virtual muloqotning koʻp qatlamli va murakkab kommunikativ tizim ekanligini koʻrsatadi.

⁵ <https://uz.wikipedia.org>

⁶ Mamajonov A. *Tekst lingvistikasi*. — Toshkent: Fan, 1989. 45-b.

⁷ Toirova G. *Matn tilshunosligi*. — Buxoro, 2020. 97-bet

Izohning tuzilishi ham o'ziga xosdir. Biz ko'pincha vaqtni tejash uchun gaplarni to'liq yozmaymiz. Masalan, "Men bu fikringizga qo'shilaman" deyish o'rniga shunchaki "Qo'shilaman" deb qo'ya qolamiz. Chunki asosiy matn borligi uchun suhbatdoshimiz bizni tushunishini bilamiz. Bu yozma nutq bo'lsa-da, u ko'proq jonli so'zlashuvga yaqin turadi.

Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda shakllanayotgan yozishma madaniyati tilning stilistik imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Matnli xabarlar, emojilar, gif-rasmlar, audio va video xabarlarning birgalikda qo'llanishi multimodal kommunikatsiya shaklini yuzaga keltiradi. Bunda ma'no faqat so'zlar orqali emas, balki turli vizual va akustik vositalar yordamida ham ifodalanadi. Natijada muloqot jarayoni yanada boy va ta'sirchan tus oladi.

Shu jihatdan qaraganda, ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalar va izoh matnlarini o'rganish nafaqat tilshunoslik uchun, balki kommunikatsiya nazariyasi, sotsiologiya, psixologiya hamda huquqshunoslik kabi fanlar uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Chunki virtual makonda yuzaga kelayotgan nutqiy jarayonlar zamonaviy jamiyatning fikrlash tarzi, madaniy qadriyatlari va muloqot uslublarini aks ettiradi.

Shunday qilib, ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy yozishmalar va izoh matnlari zamonaviy lingvistik tadqiqotlarning muhim obyektlaridan biri hisoblanadi.

Ularni har tomonlama tahlil qilish orqali tilning yangi rivojlanish yo'nalishlarini, kommunikativ strategiyalarni hamda raqamli muloqot madaniyatining o'ziga xos jihatlarni aniqlash mumkin.

Bundan tashqari, izohlar bizning hissiyotlarimizga boy bo'ladi. His-tuyg'ularimizni ifodalash uchun emodjilardan, harflarni cho'zib yozishdan yoki turli internet-iboralardan foydalanamiz. Har bir izoh ortida insonning shaxsiy "Men"i, uning dunyoqarashi va uslubi turadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ijtimoiy tarmoqlardagi izoh matni shunchaki texnik imkoniyat emas, balki zamonaviy tilshunoslikning eng dinamik va qiziqarli hodisasidir. U an'anaviy yozma nutq hamda jonli muloqot o'rtasidagi chegaralarni yo'qotib, insonlarga o'z fikrini qisqa, ammo ta'sirli tarzda ifodalash imkonini beradi.

Izohlar orqali biz nafaqat asosiy matnga munosabat bildiramiz, balki jamiyatning umumiy kayfiyatini, tilning rivojlanish tendensiyalarini va odamlar o'rtasidagi muloqot madaniyatini ham ko'rishimiz mumkin. Har bir yozilgan izoh — bu raqamli dunyodagi shaxsiy izimizdir. Shunday ekan, izoh yozishda nafaqat fikrning aniqligiga, balki uning boshqalarga ta'siri, odob-axloq normalariga mosligi va tilimizning boy imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanilganiga e'tibor berish lozim. Zero, biz yozgan har bir kichik matn (izoh) bizning intellektual salohiyatimiz va muloqot madaniyatimizning ko'zgusi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Антонов О.Ю. Особенности использования специальные знаний в области лингвистики при изучении электронной переписки в ходе расследования половых преступлений в отношении несовершеннолетних // – Москва, 2018.
2. Бельчиков Ю.А. Лингвистическая судебная экспертиза – целенаправленное герменевтическое исследование // Спорные тексты СМИ и судебные иски: Публикации. Документы. Экспертизы. Комментарии лингвистов / под ред. проф. М.В. Горбаневского. М.: Престиж, 2005.
3. Mамажонов А. Текст linivistikasi. – Toshkent: Fan, 1989.
4. Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы: сборник научных работ по итогам Международной научной конференции «Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы» (Москва, 1–2 октября 2019 г.). – М.: Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина, 2019.
5. To'rayeva D.A. Nutq hududiy xoslanishining lingvistik ekspertizasi. – Toshkent: Bookmany print, 2023.
6. Toirova G. Matn Toirova G. Matn tilshunosligi. – Buxoro, 2020.
7. <https://uz.wikipedia.org>

Xurshida DONIYEVA,

Osiyo texnologiyalar universiteti magistri

xurshidauktamovna@gmail.com

BADIIY MATNDA ANTROPONIMLARNING QO‘LLANILISHI VA ULARNING BADIIY-ESTETIK VAZIFASI

Annotatsiya: mazkur maqolada badiiy matn tarkibidagi antroponimlarning o‘rni, ularning lingvopoetik tahlili hamda badiiy-estetik vazifalari yoritiladi. Antroponimlar – shaxs nomlari – nafaqat identifikatsiya vositasi, balki obraz yaratish, xarakter ochish, milliy koloritni ifodalash va muallif g‘oyasini ta’sirchan yetkazishda muhim stilistik vosita ekanligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Shuningdek, badiiy antroponimlarning nisbiy mustaqilligi, ularning kontekstual ma’no boyishi va o‘quvchiga estetik ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqolada o‘zbek adabiyoti misolida antroponimlarning badiiy matndagi funksional imkoniyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *antroponim, badiiy matn, onomastika, poetik antroponimika, badiiy-estetik vazifa, stilistika, obrazlilik.*

Annotation: this article discusses the role of anthroponyms in artistic texts, their linguistic and poetic analysis, and their aesthetic functions. Anthroponyms—personal names—are not only tools for identification, but also significant stylistic devices for creating imagery, revealing character, expressing national color, and effectively conveying the author’s ideas. The article scientifically justifies the importance of anthroponyms as a tool for enhancing the artistic quality of texts. Furthermore, the relative independence of artistic anthroponyms, their contextual semantic enrichment, and the mechanisms of their aesthetic influence on the reader are analyzed. The article highlights the functional potential of anthroponyms in artistic texts with examples from Uzbek literature.

Key words: *anthroponym, artistic text, onomastics, poetic anthroponymy, artistic-aesthetic function, stylistics, imagery.*

Annotation: в данной статье рассматривается роль антропонимов в художественных текстах, их лингвистический и поэтический анализ, а также их эстетические функции. Антропонимы — имена собственные — являются не только средством идентификации, но и важным стилистическим инструментом для создания образов, раскрытия характера, выражения национального колорита и эффективной передачи идеи автора. В статье научно обосновывается значимость антропонимов как средства повышения художественного качества текстов. Кроме того, анализируются относительная независимость художественных антропонимов, их контекстуальное семантическое обогащение и механизмы их эстетического воздействия на читателя. В статье также раскрывается функциональный потенциал антропонимов в художественных текстах на примерах узбекской литературы.

Ключевые слова: *antroponim, художественный текст, ономастика, поэтическая антропонимика, художественно-эстетическая функция, стилистика, образность.*

Har qanday badiiy asar o‘ziga xos so‘z san‘ati mahsuli sifatida til vositalarining murakkab va ko‘p qatlamli tizimidan tashkil topadi. Shu tizimning muhim unsurlaridan biri – bu antroponimlar, ya’ni qahramon nomlaridir. Antroponimlar badiiy matnda oddiy atoqli ot vazifasini bajaribgina qolmay, balki asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini shakllantirishda, obrazlar tipologiyasini yaratishda va muallif niyatini o‘quvchiga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Mashhur tilshunos olim E.Begmatov ta’kidlaganidek, til o‘zining ko‘p qirrali kommunikativ ehtiyojini ta’minlay oladigan darajada lisoniy vositalarga ega va ana shunday vositalardan biri leksemalardir. Antroponimlar esa ushbu leksemalarning alohida qatlamini tashkil etadi.

Badiiy matndagi antroponimlarni o‘rganish bugungi tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir. Chunki nom tanlash – yozuvchi

uchun mas’uliyatli ijodiy jarayon bo‘lib, u qahramonning ichki dunyosi, ijtimoiy mavqeyi, millati, kasbi va hatto taqdiri haqida ma’lumot beradi. V.K.Chichagovning fikricha, “haqiqiy shoir o‘z qahramoniga bergan nomda, shoirning o‘zi tomonidan ko‘rinmas, ehtimol, zarur bo‘lgan ehtiyoj bor”. Bu esa antroponimlarning badiiy matndagi o‘rni naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Badiiy asarlarda qo‘llaniladigan antroponimlarni o‘rganish maxsus yo‘nalish – badiiy antroponimikaning vazifasidir. Bu soha ozarbayjon tilshunosi M.Çobanov ta’kidlaganidek, “barcha onomastik vahidlar kabi, antroponimik vahidlar ham xalqimiz tarixining ochilmagan sahifalari, adabiy tilimiz tarixi, uslubi va zamonaviy tilimiz uchun xarakterli sohalarni o‘rganishga keng imkoniyat yaratadi”.

Badiiy antroponimlar – asosan lirik va poetik asarlarda qo‘llanilib, badiiy ma’no kasb etadigan nomlar. Ular asarda

tasvirlangan voqealar joyi va ijtimoiy muhit, personaj xarakteri, individual dunyoqarashi va nutqi bilan bog'liq holda badiiy mazmun va ma'no ifodalaydi. Masalan, Abdulla Oripov she'riyatida qo'llangan "Oydin", "Gulchehra" kabi nomlar nafaqat shaxsni ataydi, balki go'zallik, nafasot, musaffolik kabi tushunchalarning ramziga aylanadi.

Nisbiy antroponimlar – asosan nasriy asarlardagi personajlar nomi bilan bog'liq bo'lib, ulardan maxsus badiiylilik va obrazlilik kutilmaydi. Bunday nomlar oddiy identifikatsiya vazifasini bajaradi. Masalan, "Hasan o'z qo'shnisiga salom berdi" jumlasidagi "Hasan" antroponimi hech qanday uslubiy yuklamaga ega emas.

Badiiy matnda antroponimlar bir qator muhim estetik vazifalarni bajaradi. Jumladan, ular milliy koloritni yaratish, obraz individualligini ta'minlash, ramziy ma'nolar ifodalash, muallif pozitsiyasini ko'rsatish va asarning g'oyaviy mazmunini chuqurlashtirish kabi funksiyalarni o'zida mujassam etadi. Antroponimlar qahramon xarakterini ochishda muhim vosita hisoblanadi. Tohir Malikning "Shaytanat" romanidagi "O'qilon" laqabi bunga yaqqol misoldir. Asarda bu laqab Asadbek ismli qahramonga berilgan bo'lib, "ilonlarning zaharli bir turi" ma'nosini anglatadi. Yozuvchi bu nom orqali qahramonning tez harakatlanishi, xavfiligi, o'tkir zehni kabi xususiyatlariga ishora qilgan. Xuddi shunday, "Kesakpolvon" laqabi Haydar obrazining kulgili va ayanchli tomonlarini ochishga xizmat qilgan. Nomlar orqali qahramonning ijtimoiy mavqeyi, kelib chiqishi, kasbi haqida ma'lumot olish mumkin. Agata Kristining "And Then There Were None" asaridagi "Mr. Justice" antroponimi Angliya va Uels sudlaridagi Oliy sud sudyasi lavozimini ko'rsatuvchi antroponimik birlikdir. Bu nom orqali o'quvchi qahramonning kasbi va jamiyatdagi o'rni haqida darhol ma'lumot oladi. Badiiy adabiyotda nomlar ko'pincha ramziy ma'no kasb etadi. Masalan, "Busy Bee" (band ari) laqabi juda band odam uchun qo'llaniladigan frazeologik birlik bo'lib, qahramonning faoliyati va xarakteriga ishora qiladi. Shuningdek, "U.N.K.N.O.W.N" (noma'lum) laqabi qotilning taxallusi sifatida barcha personajlarga yuborilgan xatlarda uchraydi va sirli,

noma'lum kuchni ifodalaydi. Antroponimlar muayyan xalqning milliy qadriyatlari, urf-odatlarini, dunyoqarashini aks ettiradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilidagi antroponimlarda asosan arab tilidan o'zlashgan nomlar (Islom ta'siri bilan bog'liq) ustunlik qiladi, ingliz tilidagi antroponimlarda esa ingliz, uels, slavyan, kornish va gel tillaridan olingan nomlar uchraydi. Bu esa har bir xalqning o'ziga xos tarixiy-madaniy taraqqiyot yo'li bilan bog'liq.

Badiiy antroponimlarni lingvopoetik jihatdan tahlil qilish ularning matndagi estetik funksiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi. Erkin Vohidov va Abdulla Oripov she'riyatida qo'llangan antroponimlar bu borada alohida ahamiyatga ega. Bu ikki shoir she'rlarida bir xil antroponimlar qo'llangan bo'lsa-da, har biri ularni o'ziga xos tarzda, ijodiy niyatidan kelib chiqib talqin qilgan. Masalan, "Bobur" antroponimi har ikki shoir ijodida ham uchraydi. Erkin Vohidov bu nom orqali buyuk shoh va shoirning jasorati, sadoqati, vatan sog'inchi kabi fazilatlarini ifodalagan bo'lsa, Abdulla Oripov "Bobur" nomi bilan bog'liq tarixiy vogelik va shaxsning taqdirini falsafiy talqin qilgan. Demak, bir xil antroponim turli shoirlar ijodida turlicha badiiy-estetik yuklama kasb etishi mumkin.

Badiiy matnda antroponimlarning qo'llanilishi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u yozuvchining mahorati, til sezgirligi va estetik didni talab qiladi. Antroponimlar oddiy nomlash vositasi emas, balki obraz yaratish, xarakter ochish, milliy koloritni ifodalash va asarning g'oyaviy-badiiy ta'sirchanligini oshirishda muhim rol o'ynaydigan stilistik vositadir. Badiiy antroponimlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular real hayotdagi nomlardan farqli ravishda muallif irodasi va ijodiy niyatiga bo'ysunadi. Yozuvchi tomonidan to'g'ri tanlangan nom qahramon obrazini jonlantiradi, uning ichki dunyosini ochishga yordam beradi va asarning badiiy qiymatini oshiradi. Shu bois antroponimlarning badiiy matndagi o'rni va ularning estetik vazifalarini o'rganish tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mustafoyeva M. Antroponimlarning tilshunoslikda tutgan o'rni va lingvistik xususiyatlari // *Лингвоспектр*. – 2025. – №1. 45-52-b.
2. Mo'minova Y., Nurullayeva D. A.Oripov va E.Vohidov she'rlarida qo'llangan toponim va antroponimlarning o'ziga xos xususiyatlari // *INTERNATIONAL SCIENTIFIC INNOVATION RESEARCH CONFERENCE*. – 2024. 62-66-b.
3. Abdirasulov B., Abdurakhmanov Z. The significance of anthroponyms and toponyms in literary texts // *Raqamli texnologiyalar davrida tarjimashunoslik va lingvistika: zamonaviy yondashuvlar tadqiqi*. – 2024. 49-51-b.
4. Çobanov M. Azərbaycan antroponimiyasının əsasları. – Bakı, 2019. – XII fəsil.

BIR ASOSDAN YASALGAN FE'LLARNING SEMANTIK TAHLILI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

(“Ko’p” so’zidan yasalgan fe’llar misolida)

Annotatsiya: o’z va o’zlashma leksemalardan turli usullar bilan turli semantik ma’noga ega bo’lgan fe’llar yasash mumkin. Hatto, bir asosning o’zidan turli affikslar yordamida fe’l yasash imkoniyati mavjud bo’lib, yasalma tashiydigan semalar so’zning polisemantikasi bilan bog’lanadi. Ushbu maqolada ham birgina “ko’p” leksemasidan yasalgan fe’llar semantik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: *so’z yasalishi, yasama so’z, asos, so’z yasovchi qo’shimcha, fe’l yasalishi, yasama fe’l, asosdosh fe’llar, fe’l yasovchi qo’shimcha, asos va yasalma, semantik ma’no.*

Аннотация: из исконных и заимствованных лексем различными способами можно образовывать глаголы, обладающие разным семантическим значением. Существует даже возможность образования различных глаголов от одной и той же основы с помощью разных аффиксов, при этом семы, выражаемые производным словом, связываются с полисемией слова. В данной статье проводится семантический анализ глаголов, образованных от одной лишь лексемы «ко’р» (много).

Ключевые слова: *словообразование, производное слово, основа, словообразовательный аффикс, глагольное словообразование, производный глагол, однокоренные глаголы, основа и производное, семантическое значение.*

Annotation: verbs with diverse semantic meanings can be formed from both native and borrowed lexemes through various methods. It is even possible to derive multiple verbs from a single stem using different affixes, where the semes expressed by the derivative are linked to the word’s polysemy. This article provides a semantic analysis of verbs derived specifically from the lexeme “ko’p” (many/much).

Keywords: *word formation, derivative, stem, derivational affix, verbal word formation, derivative verb, verbs with a common stem, stem and derivative, semantic meaning.*

Dunyoda mavjud bo’lgan hech bir til yasash va yasalish xususiyatidan xoli emas, tillar morfologik jihatdan qaysi toifa (amorf, flektiv, agglutinatив, polisintetik tillar)ga mansub bo’lmasin, albatta, so’z yasash imkoniyatidan foydalanadi. O’zbek tilshunosligida ham so’z yasalishi bilan bog’liq turli ilmiy izlanishlar olib borilgan. O’zbek tilida so’z yasalish tizimini eng ko’p tadqiq qilgan olim Azim Hojiyev. Tilshunosning so’z yasash va so’z yasalishi borasida olib borgan tadqiqotlari natijasida “O’zbek tilida so’z yasalishi”, “O’zbek tilida so’z yasalishi tizimi”, “O’zbek tilida qo’shma, juft va takroriy so’zlar” kabi qo’llanmalar yuzaga kelgan. Olim o’z izlanishlarida O’zbek tilida so’z yasalishi mustaqil so’z turkumlaridan ot, sifat, fe’l va ravish so’z turkumi doirasida kuzatilishini, ammo turkumlar doirasida so’z yasalishi tamoyillarining amal qilishi turlicha bo’lishini qayd etadi.

Fe’l so’z turkumi derivatsiyasi ikki usulda yuzaga keladi: morfologik usul va sintaktik usulda. Morfologik usulda fe’l yasalishi eng sarmahsul usul bo’lib, ilmiy adabiyotlarda affiksatsiya usuli deb ham yuritiladi. [Xojiev; 2007: 19] Bu usulda so’z yasovchi qo’shimcha orqali mustaqil so’zlar: ot (*ishla, gapir*), sifat (*ko’kar, pasay*), son (*birlash, ikkilan*), olmosh (*sensira, o’zlash*), ravish (*ko’pay, sekinla*); oraliq so’zlar: undov so’z (*dodla*), taqlid so’z (*vovulla, gumburla*), modal so’z (*yo’qol*), so’z-gaplar (*xo’shla, hala*)dan yasaladi. Faqat fe’ldan affiks orqali fe’l yasalmaydi. Bu holat nafaqat o’zbek tiliga, balki barcha turkiy tillarga xos. Hech bir tilda fe’ldan affiks yordamida fe’l yasalmaydi, fe’l o’zlashtirilmaydi.

Sintaktik usul deb nomlanuvchi ikkinchi usul kompozitsion usul deb yuritiladi va ikki asosning birikishidan yangi fe’l leksema hosil qilinadi. Odatda, bu usulda ham ikki imkoniyat mavjud: fe’l+fe’l asosli

yasama fe'llar (*borib kelmoq, kelib ketmoq*), ism+fe'l asosli yasama fe'llar (*hurmat qilmoq, shod etmoq*). Ammo yonma-yon kelgan ikki fe'l har doim qo'shma fe'l hisoblanmaydi. Xususan, ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi ham ikki yoki undan ortiq asosdan iborat bo'ladi, ammo ular semantik jihatdan bitta ma'no ifodalaydi. Masalan, *o'qib chiqmoq, o'qib qo'ymoq, o'qib bo'lmoq* kabi fe'llarda *o'qimoq* fe'li o'z harakat ma'nosini saqlagan holda *chiqmoq, qo'ymoq, bo'lmoq* fe'llari o'z semantik ma'nosidan chekinib, harakat tarzini ifodalashga xizmat qiladi.

Qo'shimcha orqali fe'l yasalganda fe'ldan boshqa barcha turkumlardan fe'l yasallishini yuqorida aytib o'tdik. Shuningdek, aytish lozimki, bir asosning o'zidan ham bir necha qo'shimcha yordamida asosdosh fe'llar yasash mumkin. Masalan, *birik, birlash* fe'llari "bir" son so'z turkumidan; *kuchay, kuchan, kuchlan* fe'llari "kuch" ot so'z turkumidan; *senla, sensira* fe'llari "sen" olmosh so'z turkumidan yasalgan. Yasalmalar bir asosdan yasalgan bo'lsa-da, ammo semantik ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lishi ham, bir-biridan farq qilishi ham mumkin. Quyida "ko'p" ravish leksemadan yasalgan fe'llarni semantik jihatdan tahlilga tortamiz.

Avvalo, "ko'p" so'zining izohli lug'atda keltirilgan ma'nolariga diqqat qilaylik. Lug'atda leksemaning beshta semasi beriladi. **KO'P 1** Son, miqdor jihatidan, me'yordan yoki nisbatan ortiq. *Ko'p kitob.* **2** *rvsh.* Vaqt e'tibori bilan ortiq, uzoq vaqt davomida; uzoq. *Ko'p kutmoq.* **3** *rvsh.* Oradan uzoq vaqt o'tmasdan, tez-tez, dam-badam. *Men uni ko'p ko'raman.* **4** Ortiq darajada, ortiq; juda, g'oyatda. Boyoqish ko'p yaxshi odam edi, insofli, hamiyatli edi. **5** *ot vzf.* Ko'p kishilar, ko'pchilik. *Ko'pdan quyvon qochib qutulmas.* [O'TIL; 2023:990] Leksemaning har bir ma'nosi alohida-alohida yangi so'z yasash uchun asos bo'la oladi. Xususan, *ko'plik* (ot), *ko'paymoq* (fe'l), *ko'plab* (ravish) so'zlari ko'p leksemasining birinchi semasidan; *ko'pincha* (ravish) so'zlari leksemaning ikkinchi semasidan; *ko'pik* (ot) *ko'pirmoq, ko'pchimoq* (fe'l) so'zlari leksemaning to'rtinchi semasidan; *ko'pchilik* (ot), *ko'plashmoq* (fe'l) so'zlari leksemaning beshinchi semasidan yasalgan. Shuningdek, "ko'p" asosli yasalmalar ham yangi so'z yasash uchun asos vazifasini bajaradi: *ko'paytma, ko'paytuvchi, ko'payuvchi* (fe'l) kabi yasama leksemalar *ko'paymoq* leksemasidan; *ko'piklanmoq* (fe'l), *ko'pikli, ko'piksiz* (sifat) so'zlari esa *ko'pik* leksemasidan yasalgan. Ko'p

leksemasi birinchi semasi bilan qo'shma leksemalar tarkibida ishtirok etishi mumkin: *ko'pburchak, ko'phad, ko'pkurash* (ot) kabilar.

Quyida esa "ko'p" leksemasining semalaridan yasaluvchi asosdosh fe'llar tahlilga tortiladi. "Ko'p" – ravish asosda -ay, -ir, -chi, -lash so'z yasovchi qo'shimchalari yordamida fe'l yasash mumkin. Ammo har bir qo'shimchaning qo'shilishi fe'l semantik ma'nosida o'zgacha ma'nolar hosil qiladi:

KO'PAYMOQ 1 Son, miqdor jihatdan ortmoq; oshmoq. Daromad ko'paydi. Chorva mollarining soni ko'paydi. [O'TIL; 2023:991]

KO'PIRMOQ 1 *ayn. ko'piklamoq, ko'piklanmoq.* *O'ktam esa ko'pirgan, o'kirgan suvda bo'ynigacha botib, hansirab ishlar edi.* Oybek, O.v. shabadalar. *Ot chopaverib, ko'pirib ketgan edi.* G.G'ulom, Shum bola. **2** *ko'chma salb.* O'ta maqtanmoq, maqtanchoqlik qilmoq. [Tojiboy] *Ba'zan "Madaminov o'ttiz yil aminlik qilgan bo'lsa, men ellik yil sovetga raislik qilaman", deya ko'pirib qo'yardi.* [O'TIL; 2023:992]

KO'PLASHMOQ Ko'pchilik bo'lmoq; ko'pchilik bo'lib, birgalashib harakat qilmoq. *Ko'plashib ishlamoq. Yuk mashinasini ko'plashib ariqdan chiqarib oldik. Ko'plashgan yovni qaytarar.* Maqol. [O'TIL; 2023:993]

KO'PCHIMOQ 1 Shishmoq, bo'rtmoq, shishib ko'tarilmoq (yuz, qovoq va sh.k. haqida). *Ko'rishayotganda, ko'zlari ham qizarib qolganini, qovog'i odatdagidan ko'pchibroq turganini ko'rdi.* P.Qodirov, Uch ildiz. [O'TIL; 2023:995]

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, *ko'paymoq, ko'pirmoq, ko'plashmoq, ko'pchimoq* fe'llari garchi bir asosdan yasalgan bo'lsa-da, ularning ifodalovchi ma'no ottenkalari bir-biridan tubdan farq qiladi.

Ko'paymoq – "ko'p" so'zining asl ma'nosi asosidan hosil bo'lgan bo'lib, miqdoriy tushuncha ifodalaydi, ya'ni har narsaning ikki va undan ortiq miqdorga egaligini, ba'zida sanalmaydigan otlar bilan qo'llanganda "oshmoq" ma'nosini anglatadi. Masalan, *janjal ko'paydi, to'y ko'paydi* shaklidagi misollarda voqelikning me'yordan oshganini bildiradi.

Ko'pirmoq – so'zi esa ko'piklamoq ma'nosida qo'llanuvchi so'z bo'lib, *ko'pik* so'zi bevosida ko'p so'zidan yasalgan ot va bu ot ko'piklamoq fe'lining yasallishiga asos bo'lgan. *Ko'pirmoq* so'zi esa *ko'piklamoqqa* sinonim shaklida qo'llanuvchi leksema hisoblanadi. **Ko'pik 1** Ma'lum sabablarga ko'ra

suyuqliklarda hosil bo'ladigan mayda pufakchalardan iborat massa. *Suv ko'pigi. Pivo ko'pigi.* [O'TIL; 2023:992] Ko'pik so'zining ma'no ottenkasi bilan bog'langan holda "*ko'pirmoq*" fe'lining ko'chma ma'nosiga diqqat qilsak, bilvosita "*ko'p*" so'zi semalari bilan bog'lanadi, ya'ni "*o'ta maqtanmoq*" – maqto'vni haddan oshirmoq. "*Ko'p*" so'zining to'rtinchi semantikasi aynan shu ma'noni tashiydi: ortiq darajada, ortiq; juda, g'oyatda. *Boyoqish ko'p yaxshi odam edi, insofli, hamiyatli edi.* Oybek, Tanlangan asarlar. [O'TIL; 2023:990] Bundan ko'rinib turibdiki, *ko'pirmoq* so'zi ko'p so'ziga bevosita bog'lanmasada, ammo hosila ma'nosi orqali bilvosita ma'no butunlikni ko'p so'zidan oladi. Shuningdek, shevada qo'llanuvchi *ko'ptirmoq* fe'li ham *ko'pirmoq* so'zining hosila ma'nosini beradi.

KO'PTIRMOQ shv. ayn. **oshirmoq 2, 3.** *Oyim saharda turib, Talay xamir ko'ptirgan. Oq oltin – paxtalarni Normasidan ko'p tergan. "Qo'shiqlar". Mushtdek jips bo'lsin deb, Qiz-u o'g'lonni onalar xamirni mushtlab ko'ptirgan.* I.Mirzo,

Bug'doyso'z. [O'TIL; 2023:995] Izohli lug'at tahlili asosida aytish mumkinki, ko'ptirmoq fe'li tarkibidagi -tir qo'shimchasi orttirma nisbat shakli emas, balki so'z yasovchi qo'shimcha vazifasini bajarmoqda. *Ko'ptirmoq* – *ko'pirmoq* so'zlari dialektal sinonimlikni hosil qiladi.

Ko'plashmoq – fe'lining yasaliishi *ko'p* so'zining otlashish hodisasidan keyin shaxs tushunchasini (**Ko'pdan** quyon qochib qutulmas) ifodalashi va shaxs (*ko'p odamdan* – *ko'pdan*) tushunchasida ham miqdoriy ko'plikni saqlashi tufayli yuzaga kelgan hosila ma'nodan yasalgan so'zdir. Bu so'zning semantikasiga nazar tashlasak, biror ish yoki yumushni, xatti-harakatni bir necha kishi bo'lib hal qilish tushunchasini anglatadi. Ushbu fe'l yasaliishi va yasalamaning semasida ifodalanayotgan ma'no faqatgina asos qismning hosila ma'nosi emas, balki

qo'shimchaning etimologiyasi bilan bog'liq, ya'ni -*lash* fe'l yasovchi qo'shimcha asli murakkab tarkibli bo'lib, -*la* fe'l yasovchi qo'shimchasiga -*sh* birgalik shaklining qo'shilishi natijasida hosil bo'lgan va yasovchi vosita o'z semantikasida birgalik, jamlik ma'nosin tashiydi: *yordamlashmoq, ko'maklashmoq.* Bu jarayonda *birgalik* tushunchasi bilan *ko'p* tushunchasi o'rtasida kontekstual sinonimiya paydo bo'ladi.

"Bir leksemaning turli hosila ma'nolari asosida hosil bo'lgan yangi fe'llar" deb izohlanadigan **ko'paymoq, ko'pirmoq** kabi fe'llar ko'chma ma'noda kelganda tarjima, ko'pincha, kontekstual ekvivalent orqali beriladi:

1. **Ko'paymoq** – ortib ketmoq, kuchaymoq (muammo, gap, mish-mish va h.k.) so'zining rus tilidagi muqobili увеличиваться, усиливаться; ingliz tilida esa *increase, grow, escalate* leksemalariga to'g'ri keladi. Masalan, *Mish-mishlar ko'payib ketdi.* – Слыхи увеличились. – *Rumors increased.* 2. **Ko'pirmoq** – haddan tashqari maqtanmoq, kerilib gapirmoq rus tilida зазнаваться, хвастаться; ingliz tilida *boast, brag, exaggerate* leksemalari bilan muqobil keladi. Masalan, *U ozgina yutug'i bilan ko'pirib gapirdi.* – Он начал хвастаться своим небольшим успехом. – *He began to boast about his small success.*

Umuman olganda, bir asosdan fe'l yasalganda ular bir xil semantik ma'no ifodalamasligi asosning hosila semalari bilan, shuningdek, kontekstda boshqa so'zlar bilan birga qo'llanishi va yasovchi morfemaning imkoniyatiga bog'liq. Xususan, asosning bosh ma'nosidan yasalgan fe'llar asos qanday ko'chma ma'no tashisa, xuddi shu imkoniyatga ega bo'ladi, ya'ni asos tashigan hosila ma'noni tashiy oladi, ammo asosning hosila ma'nolaridan yasalgan yangi so'zlar bir semantik ma'no ifodalaydi, qayta hosila ma'no hosil qilmaydi. Bunday fe'llar tarjima qilinganda, faqat kontekstga ko'ra tarjima qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т., "Ўқитувчи", 1995.
2. Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. – Тошкент: Янги аспр авлоди, 2001.
3. О'zbek tilining izohli lug'ati, 6 jildli. 2-jild. – Т.: O'zME, 2023. 1036-b.
4. Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясаиш тизими. – Т.: O'qituvchi, 2007. 168-b.
5. <https://www.scribd.com/document/818735682/Azim-Hojiyev-O-zbek-tili-morfologiyasi-morfemikasi-va-so-z-yasalishining-nazariy-masalalari>.

O'ZBEK VA TURK TILLARIDAGI FRAZELOGIK BIRLIKLARNING OMONIMLIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek va turk tillaridagi frazeologik birliklarning omonimlik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida frazeologik omonimlarning semantik, strukturaviy va funksional belgilari aniqlanib, ularning nutqdagi qo'llanish xususiyatlari yoritiladi. Ushbu kichik tadqiqotimizda har ikki tilda shaklan bir xil, ammo mazmun jihatidan bir-biridan farqlanuvchi frazeologik birliklarni misollar asosida ko'rib chiqamiz. Tadqiqot natijalari turkiy tillar frazeologiyasini o'rganishda, tarjima nazariyasi hamda tilshunoslikning qiyosiy yo'nalishlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: *frazeologik birlik, omonimlik, qiyosiy tahlil, semantika.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of the homonymic features of phraseological units in the Uzbek and Turkish languages. The study identifies the semantic, structural, and functional characteristics of phraseological homonyms and highlights their patterns of use in speech. Within the scope of this brief research, phraseological units that are identical in form in both languages but differ in meaning are examined through illustrative examples. The findings of the study contribute to a deeper understanding of Turkic phraseology and are of significant importance for translation theory as well as for comparative approaches in linguistics.

Key words: *phraseological unit, homonymy, comparative analysis, semantics.*

Аннотация: в данной статье проводится сравнительный анализ омонимических особенностей фразеологических единиц в узбекском и турецком языках. В ходе исследования выявляются семантические, структурные и функциональные признаки фразеологических омонимов, а также освещаются особенности их употребления в речи. В рамках данного небольшого исследования на примерах рассматриваются фразеологические единицы, которые совпадают по форме в обоих языках, но различаются по значению. Результаты исследования имеют важное значение для изучения фразеологии тюркских языков, а также для теории перевода и сравнительных направлений современной лингвистики.

Ключевые слова: *фразеологическая единица, омонимия, сравнительный анализ, семантика.*

Frazeologik birliklar tilning milliy-madaniy qatlamini aks ettiruvchi muhim vosita bo'lib, ular xalqning dunyoqarashi, mentaliteti va tarixiy tajribasidagi yaqinlikni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu yaqinlik, ayniqsa, frazeologik birliklar tizimida yaqqol namoyon bo'lib, har ikki tilda shaklan va mazmunan bir xil bo'lgan yoki shaklan bir xil, ammo ma'no jihatidan farqlanuvchi iboralarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Mazkur hodisa frazeologik omonimlik sifatida tilshunoslikda tadqiq qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda turkiy tillarni qiyosiy o'rganishga bo'lgan ilmiy qiziqish ortib borayotgan bo'lsa-da, o'zbek va turk tillari frazeologik birliklarining omonimlik xususiyatlari alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Mavjud tadqiqotlar ko'proq leksik omonimlik yoki soxta ekvivalentlik masalalariga bag'ishlangan bo'lib, frazeologik birliklar doirasidagi omonimlik hodisasi cheklangan miqyosda tahlil qilingan. Xususan, o'zbek tadqiqotchisi O'Xatamov hamda turkiyalik olim Çağdaş Keçecilarining [5] ushbu mavzuga bag'ishlangan bir qancha maqolalari mavjud bo'lib, ushbu ishlarda masala qisman yoritilgan. Bizning ushbu kichik tadqiqotimizning maqsadi ham o'zbek va turk tillaridagi frazeologik birliklarning omonimlik xususiyatlarini aniqlash, ularni semantik va funksional jihatdan tahlil qilish hamda ushbu hodisaning tarjima va til o'rganish jarayonidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqot natijalari turkiy tillar frazeologiyasini qiyosiy o'rganish, tarjima nazariyasi hamda amaliy tilshunoslik uchun muhim ilmiy xulosalar chiqazishga xizmat qiladi. Har ikki tilda uchrovchi frazeologik

birliklarning leksik-semantik shakldoshligi o'ziga xos tabiatga ega bo'lib, shaklan hamda mazmun jihatidan bir xil bo'lgan frazeologizmlarni tahlil qilish, masalaning mohiyatini yanada oydinlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbek va turk tillarida shaklan hamda mazmun jihatidan ham bir xil ma'no anglatuvchi frazeologik omonimlar.

Boshiga chiqmoq - başına çıkmak

o'zbekcha: *haddidan oshmoq* [2,25] – *Malika kundan kunga podshohning boshiga chiqdi, oxir oqibat esa saroydan quvildi. (Ertakdan)*

turkcha: *birinden yüz bulup ona karşı pek şımarıkça davranmak* [1,28] – *Hizmetçi kadınlarla içli dışlı olmamak, onlara mesafeli davranmak gerekirdi, yoksa başınıza çıkarlardı. (Tomris Uyar)*

Boshiga chiqmoq iborasi o'zbek va turk tillarida o'zaro omonim ibora hisoblanadi. Yuqorida ushbu iboraning turk tili va o'zbek tilidagi ma'nolari o'zaro qiyoslandi. E'tiborlisi, ushbu ibora ikki tilda ham aynan bir xil ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

Ko'z yummoq - göz yummak

o'zbekcha: *1. bila turib e'tibor bermaslik, voz kechmoqlik* [2,56] – *Rahmatovning xato ishlariga boshqalar qarab turibdi, u esa shunchaki ko'z yumdi. (Cho'lpon)*

turkcha: *1. görmezlikten gelmek, hoş görmek, başışlamak* [4,74] – *Kendi dillerine başka bir dilden en küçük bir şeyin karışmasına göz yumamazlar. (Nermi Uygur)*

Ko'z yummoq iborasi o'zbek va turk tillarida o'zaro omonim ibora hisoblanadi. Qizig'i shundaki, ushbu iboralar o'zbek va turk tillarida ham aynan bir xil ma'noni ifodalashi bilan e'tibordir.

Ammo ushbu iboraning o'zbek tilida *vafot etmoq*, turk tilida esa *umudunu kesmek*, *umutsuzluga düşmek* kabi ikkinchi bir ma'nolari mavjud. Ya'ni bu iboralar bir til doirasida ham o'zaro omonim ibora hisoblanadi. Lekin bu iboraning qolgan ikkinchi ma'nolari o'zaro ikki til doirasida omonim hisoblanmaydi.

Ko'ngli bor - gönü var

o'zbekcha: *muhabbati bor, xohishi bor, istagi bor* [3,44] - Yigitning ilmga ko'ngli bor, lekin ilm olishga imkon topolmas edi. (Oybek – Navoiy)

turkcha: *istekli, hevesli, birine karşı duygusu var* [4,112] - Feride'nin öğretmenliğe gönü vardı. (Reşat Nuri Güntekin – Çalıkuşu)

Ko'ngli bor iborasi o'zbek va turk tillarida o'zaro omonim ibora hisoblanadi. Yuqorida ushbu iboraning turk tili va o'zbek tilidagi ma'nolari o'zaro qiyoslandi. Muhimi shundaki, ushbu ibora ikki tilda ham aynan bir xil ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

Yuz o'girmoq - yüz çevirmek

o'zbekcha: *voz kechmoq, e'tibor bermay qo'ymoq, munosabatni uzmoq* [2,112] - Kumushning bu so'zlaridan so'ng Otabek undan yuz o'girdi. (O'tkan kunlar)

turkcha: *gösterdiği ilgiyi kesmek* [1,82] - Vergi kâtibinden yüz çevirmişler, kendisine hasım olmuşlardı. (Ercüment Ekrem Talu)

Yuz o'girmoq iborasi o'zbek va turk tillarida o'zaro omonim ibora hisoblanadi. Yuqorida ushbu iboraning turk tili va o'zbek tilidagi ma'nolari o'zaro qiyoslandi. E'tiborlisi, ushbu ibora ikki tilda ham aynan bir xil ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

Ko'z oldiga kelmoq - göz önüne getirmek

o'zbekcha: *biror narsa yoki voqeaning tasavvurda gavdalanishi, xotirada jonlanishi, ko'z o'ngida turgandek bo'lib esga tushishi* [2,144] - Onasining mehribon chehrasi ko'z oldimga kelib, ich-ichimdan sog'inchi his qildim. (Shum bola — G'afur G'ulom)

turkcha: *zihinde canlandırarak, tasarlamak* [1,117] - Feride, çocukluk günlerini göz önüne getirince içini tatlı bir hüznün kapladı. (Çalıkuşu — Reşat Nuri Güntekin)

Ko'z oldiga kelmoq iborasi o'zbek va turk tillarida o'zaro omonim ibora hisoblanadi. Yuqorida ushbu iboraning turk tili va o'zbek tilidagi ma'nolari o'zaro qiyoslandi. Muhimi shundaki, ushbu ibora ikki tilda ham aynan bir xil ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

Ko'ngli cho'kmoq - gönü çökmek

o'zbekcha: *ruhiy tushkunlikka tushmoq, xafa bo'lmoq, umidi so'nmoq* [3,234] - Otabekning ko'ngli cho'kdi, chunki u yurtidagi adolatsizliklarni ko'rib iztirob chekardi. (O'tkan kunlar — Abdulla Qodiriy)

turkcha: *yaşama gücü azalmak, ruhsal dengesi bozulmak* [4,128] - Anasının çektiği acıları görünce Memed'in gönlü çöktü. (İnce Memed — Yaşar Kemal)

Ko'ngli cho'kmoq iborasi o'zbek va turk tillarida o'zaro omonim ibora hisoblanadi. Yuqorida ushbu iboraning turk tili va o'zbek tilidagi ma'nolari o'zaro qiyoslandi. E'tiborlisi, ushbu ibora ikki tilda ham aynan bir xil ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

Yuragi ezilmoq - yüreği ezilmek

o'zbekcha: *kuchli qayg'u, alam, achinish yoki iztirob sababli ich-ichidan qiynalmoq, ruhiy azob chekmoq* [3,442] - Sizdan ayrilmoq fikri ko'nglimga kelganda, yuragim ezilib ketadi. (O'tkan kunlar — Abdulla Qodiriy)

turkcha: *İ.üzülmek, acı duymak* [1,712] - Yüreğim merhametten eziliyor, dizlerim vücudumun yükü altında çökecek gibi oluyordu. (Reşat Nuri Güntekin)

Yuragi ezilmoq iborasi o'zbek va turk tillarida o'zaro omonim ibora hisoblanadi. Qizig'i shundaki, ushbu iboralar o'zbek va turk tillarida ham aynan bir xil ma'noni ifodalashi bilan e'tiborlidir. Ammo ushbu iboraning turk tilida *açlık duymak* kabi ikkinchi bir ma'nosi ham mavjud. Ya'ni bu ibora turk tili doirasida omonim ibora hisoblanadi. Lekin bu iboraning ikkinchi ma'nosi o'zbek tilidagi *yuragi ezilmoq* iborasi bilan omonim hisoblanmaydi. Aksincha, bu iboraning turkchadagi ikkinchi ma'nosi *ochlik sezmoq, och qolmoq* ma'nolarida ishlatiladi.

Ko'z tegmoq - göz değmek

o'zbekcha: *birovning havas, rashk yoki yomon nigohi sabab zarar yetmoq, nazar tegmoq* [3,241] - Voy bolam, ko'z tegmasin, shunaqa chiroyli bo'lib ketibsan. (Abdulla Qahhor)

turkcha: *uğursuzluk, kötülük getirdiğine inanılan kıskanç veya hayran bakışlar dolayısıyla kötü bir duruma düşmek* [1,148] - Bu kadar mutluluğa göz değecek diye korkuyorum. (Reşat Nuri Güntekin – Çalıkuşu)

Ko'z tegmoq iborasi o'zbek va turk tillarida o'zaro omonim ibora hisoblanadi. Yuqorida ushbu iboraning turk tili va o'zbek tilidagi ma'nolari o'zaro qiyoslandi. E'tiborlisi, ushbu ibora ikki tilda ham aynan bir xil ma'no ifodalashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek va turk tillaridagi frazeologik birliklar o'rtasida shakliy o'xshashlik va semantik yaqinlik keng tarqalgan hodisa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikki tilda bir xil shaklda qo'llanadigan ko'plab frazeologik birliklar mavjud bo'lib, ularning aksariyati ma'no jihatidan ham o'xshashlik kasb etadi, ayrim hollarda esa qo'shimcha ma'no qatlamlari orqali farqlanishi mumkin. Bu holat turkiy tillarning tarixiy va madaniy yaqinligi bilan izohlanadi. Mazkur frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish tarjima jarayoni, til o'rganish hamda turkiy tillar frazeologiyasini chuqurroq anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aksoy Ö. A. Atasözleri ve Deyimler Sözlüğü. – İstanbul: İnkılap Kitabevi, 1988. – 1176 s.
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 406 b.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili frazeologiyasi. – Toshkent: Fan, 1982. – 176 b.
4. Türk Dil Kurumu. Deyimler Sözlüğü. – Ankara: Türk Dil Kurumu Yayınları, 2007. – 912 s.
5. <https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/16984>.

Ulug'oy MAXAMADINOVA,

Termiz davlat pedagogika instituti Ta'lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Boshlang'ich talim) mutaxassisligi 2-kurs magistranti

mahamadinovaulugoy@gmail.com

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING SHAXSIY KOMPETENTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarining shaxsiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari va pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Shaxsiy kompetentlikning tarkibiy komponentlari ochib berilib, ularni oliy ta'lim jarayonida shakllantirishning samarali usullari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: shaxsiy kompetentlik, boshlang'ich ta'lim, pedagogik kompetensiya, refleksiya, emotsional barqarorlik, kommunikativ madaniyat.

Annotation: this article analyzes the theoretical foundations and pedagogical conditions for the development of personal competence qualities of future primary school teachers. The structural components of personal competence are revealed, and effective methods of their formation in the process of higher education are substantiated.

Key words: personal competence, primary education, pedagogical competence, reflection, emotional stability, communicative culture

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы и педагогические условия развития личностных компетентностных качеств будущих учителей начальных классов. Раскрываются структурные компоненты личностной компетентности и обосновываются эффективные методы их формирования в процессе высшего образования.

Ключевые слова: личная компетентность, начальное образование, педагогическая компетентность, рефлексия, эмоциональная устойчивость, коммуникативная культура

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi globallashtirish, raqamlashtirish va ijtimoiy munosabatlarning jadallashuvi sharoitida tubdan yangilanmoqda. Bu jarayonda boshlang'ich ta'lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda o'quvchilarning shaxsiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga poydevor qo'yiladi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarining nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalari, balki ularning shaxsiy kompetentlik sifatleri ham ta'lim samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv ta'limning asosiy metodologik tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi Qonuni hamda davlat ta'lim standartlarida pedagog shaxsining kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilgan. Shaxsiy kompetentlik tushunchasi pedagogning o'zini anglash, o'zini boshqarish, kommunikativ madaniyat, empatiya, mas'uliyat, tashabbuskorlik, refleksiya va axloqiy barqarorlik kabi sifatlarini o'z ichiga oladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinif o'qituvchisi uchun bu sifatlar o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatish, ijobiy psixologik muhit yaratish va individual yondashuvni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik kompetentlik masalasi keng o'rganilgan bo'lsa-da, bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarining aynan shaxsiy kompetentlik sifatlarini tizimli ravishda rivojlantirish muammosi hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida ko'proq nazariy bilimlar berilayotgan bo'lsa-da, talabalar shaxsiy rivojlanish, emotsional barqarorlik, stressni boshqarish, liderlik va samarali kommunikatsiya kabi kompetensiyalarni shakllantirishga yetarli darajada jalb etilmayapti. Natijada, pedagogik faoliyatning dastlabki bosqichlarida kasbiy qiyinchiliklar va moslashuv muammolari yuzaga kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak boshlang'ich sinif o'qituvchilarining shaxsiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan. Kompetentlik tushunchasining nazariy asoslari D. Raven tomonidan ishlab chiqilib, u kompetentlikni bilim, ko'nikma va shaxsiy motivatsion omillar birligi sifatida talqin qiladi¹. I. Zimnyaya esa kompetentlikni shaxsning integral sifati sifatida baholab, unda kommunikativ va ijtimoiy komponentlarga alohida e'tibor qaratadi². Pedagog shaxsining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi N. Kuzmina tadqiqotlarida muhim o'rin egallaydi. U pedagogik mahorat tarkibida empatiya, refleksiya va kommunikativ madaniyat yetakchi ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi³. A. Markova esa o'qituvchining kasbiy kompetentligini motivatsion va shaxsiy-psixologik tayyorgarlik bilan bog'laydi⁴. O'zbek olimlaridan B. Xodjayev kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida shaxsiy rivojlanish omillarini kuchaytirish zarurligini asoslaydi⁵. Psixologik tadqiqotlarda esa D. Goulman emotsional intellektni o'qituvchi faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida ko'rsatadi⁶.

1 Raven, J. (2002). *Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release*. London: H.K. Lewis

2 Зимняя, И.А. (2004). Ключевые компетенции как результат современного образования. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов

3 Кузьмина, Н.В. 1990. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. Москва: Высшая школа

4 Маркова, А.К. (1996). Психология профессионализма. Москва: Знание

5 Xodjayev, B.X. (2017). *Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Sano-standart

6 Goleman, D. (1995). *Emotional Intelligence*. New York: Bantam Books

Metodologiya. Mazkur tadqiqot kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy-taqqoslash, tizimli yondashuv hamda pedagogik modellashirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar kontent-tahlil qilinib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy kompetentlik sifatlariga doir ilmiy qarashlar umumlashtirildi. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash jarayoni tahlil qilinib, shaxsiy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirildi. Olingan natijalar asosida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirishga doir nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar va muhokama. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy kompetentlik sifatleri ko'p komponentli tuzilishga ega bo'lib, ular o'zaro uzviy bog'langan holda shakllanadi. Ilmiy manbalar asosida shaxsiy kompetentlikning motivatsion-qadriyatli, kommunikativ, refleksiv hamda emotsional-barqarorlik komponentlari ajratib ko'rsatildi⁷. Ushbu komponentlar pedagog shaxsining kasbiy faoliyatida integral tizim sifatida namoyon bo'ladi. Kasbga ongli munosabat, pedagogik faoliyatga ichki ehtiyoj va mas'uliyat hissi o'qituvchining professional barqarorligini ta'minlaydi. Masalan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va qo'llab-quvvatlash jarayonida yuqori darajadagi ijtimoiy mas'uliyatni namoyon etadi. D. Raven kompetentlikni shaxsiy qadriyatlar va motivatsiya bilan bog'lab izohlaydi⁸, bu esa pedagog faoliyatida ichki motivlarning ustuvor ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kommunikativ komponent bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, samarali muloqot, empatiya va ijtimoiy moslashuvchanlik boshlang'ich ta'lim jarayonida yetakchi omil hisoblanadi. Masalan, kichik yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olib, o'qituvchining ohang, mimika va neverbal vositalardan o'rinli foydalanishi ta'lim samaradorligini oshiradi. N. Kuzmina pedagogik mahorat tarkibida kommunikativ madaniyat va empatiyani asosiy sifatlar sifatida ko'rsatadi⁹. Shuningdek, A. Markova o'qituvchining shaxsiy-psixologik tayyorgarligini uning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi omil

sifatida talqin etadi¹⁰. Refleksiv komponent tahlili shuni ko'rsatdiki, o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish qobiliyati pedagogning kasbiy o'sishiga xizmat qiladi. Masalan, dars jarayonidan so'ng o'qituvchining o'z metodikasini baholashi va o'quvchilarning reaksiyalarini tahlil qilishi refleksiv kompetentlikning namunasidir. I. Zimnyaya kompetentlikni shaxsning o'zini rivojlantirish qobiliyati bilan bog'laydi¹¹, bu esa refleksiya jarayonining nazariy asosini tashkil etadi.

Emotsional-barqarorlik komponenti ham muhim natijalarni ko'rsatdi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi ko'pincha turli ijtimoiy-psixologik vaziyatlarga duch keladi: o'quvchilar o'rtasidagi nizolar, ota-onalar bilan muloqot, yuklamaning ortishi va boshqalar. Bunday sharoitda o'z his-tuyg'ularini boshqarish, stressga chidamlilik va ijobiy psixologik muhit yaratish qobiliyati zarurdir. D. Goleman emotsional intellektni ijtimoiy muvaffaqiyatning muhim omili sifatida baholaydi¹², bu esa pedagogik faoliyatda emotsional kompetensiyaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Oliy ta'lim muassasalarida interaktiv metodlar "rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar tahlili, pedagogik treninglar va refleksiv topshiriqlar" shaxsiy kompetentlikni shakllantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, "murakkab ota-ona bilan suhbat" mavzusida o'tkazilgan rolli mashg'ulot talabada kommunikativ moslashuvchanlik va emotsional nazoratni rivojlantiradi. Shuningdek, dars kuzatuv va o'zaro tahlil jarayonlari refleksiv ko'nikmalarni mustahkamlaydi.

Xulosa. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy kompetentlik sifatleri ularning kasbiy shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shaxsiy kompetentlik motivatsion-qadriyatli, kommunikativ, refleksiv va emotsional-barqarorlik komponentlari uyg'unligida namoyon bo'lib, pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlaydi. Ayniqsa, empatiya, o'zini boshqarish, mas'uliyat va refleksiya kabi sifatlar boshlang'ich ta'lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish va o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning shaxsiy kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan interaktiv metodlar, psixologik treninglar va refleksiv faoliyat shakllarini tizimli ravishda joriy etish zarur. Bu esa raqobatbardosh, ijtimoiy faol va kasbiy jihatdan yetuk pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

7 Зимняя, И.А. (2004). Ключевые компетенции как результат современного образования.

8 Raven, J. (2002). Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release

9 Кузьмина, Н.В. (1990). Профессионализм личности преподавателя

10 Маркова, А.К. (1996). Психология профессионализма

11 Зимняя, И.А. (2004). Ключевые компетенции как результат современного образования

12 Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence. New York: Bantam Books.
2. Raven, J. (2002). Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. London: H.K. Lewis.
3. Xodjayev, B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. –Toshkent: Sano-standart, 2017.
4. Зимняя, И.А. (2004). Ключевые компетенции как результат современного образования. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов.
5. Кузьмина, Н.В. 1990. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. Москва: Высшая школа.
6. Маркова, А.К. (1996). Психология профессионализма. Москва: Знание.

Zulfizar NOSIROVA,
 Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
 Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi 1-kurs magistranti
zulinosirova03@gmail.com



O'ZBEK XALQ DOSTONLARI TIL XUSUSIYATLARINING O'RGANILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada o'zbek xalq dostonlarining tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilishi, doston tilining leksik qatlamini, dialektal unsurlarini, arxaik lug'at boyligini kimlar, qaysi ilmiy usullar asosida tahlil qilgani haqida ma'lumotlar qayd etilgan. Shuningdek, tilshunos olimlarning dostonlar til xususiyatlarini o'rganish borasidagi qarashlari, ilmiy yondashuvlari va ilmiy natijalari qisqacha yoritilgan. Maqola xalq dostonlari tilini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligi, o'zbek tilshunosligidagi ahamiyatini ko'rsatib beradi.

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, lingvofolkloristika, xalq dostonlari, dialekt, leksika, leksikologiya, etnolingvistika, lingvokulturologiya.*

Аннотация: в данной статье отмечается уровень изученности узбекских народных дастанов с лингвистической точки зрения, приводятся сведения о том, кем и на основе каких научных методов был проанализирован лексический слой языка дастанов, его диалектные элементы и архаический словарный фонд. Также кратко освещаются взгляды, научные подходы и научные результаты лингвистов в сфере изучения языковых особенностей дастанов. Статья показывает актуальность научных исследований, посвящённых изучению языка народных дастанов, и их значение для узбекского языкознания.

Ключевые слова: *лингвистика, лингвофольклористика, народные эпосы, диалект, лексика, лексикология, этнолингвистика, лингвокультурология.*

Annotation: this article highlights the level of linguistic study of Uzbek folk epics, providing information about who analyzed the lexical layer of epic language, its dialectal elements, and archaic vocabulary, as well as the scientific methods they employed. It also briefly outlines linguists' views, scientific approaches, and research findings related to the study of the linguistic features of epics. The article demonstrates the relevance of scholarly research devoted to the study of the language of folk epics and its significance for Uzbek linguistics.

Key words: *linguistics, folk epics, dialect, lexis, lexicology, ethnolinguistics, linguoculturology, linguofolkloristics.*

O'zbek tilshunosligida so'nggi yillarda folklor matnlarini lingvistik jihatdan o'rganish ya'ni lingvofolkloristika sohasiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, xalq dostonlari tilidagi dialektizmlar, arxaizmlar, frazeologik birliklar va milliy-madaniy komponentlarning tahlili lingvofolkloristikaning dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada xalq dostonlari til xususiyatlarining o'rganilishi, lingvofolkloristika yo'nalishida qilingan tadqiqotlar borasida so'z yuritiladi. Xalq og'zaki ijodi janrlari, ayniqsa, dostonlar lisoniy jozibadorligi, til imkoniyatlarining ko'proq aks etishi bilan ajralib turadi.

Xalq dostonlari tiliga ilmiy qiziqish, ularning til xususiyatlarini o'rganish o'tgan asrning 40-yillaridayoq boshlangan deya qayd qilinadi¹. Jumladan, Sh. Shoabdurahmonovning "Ravshan" dostonining badiiy tili" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi ushbu doston tilining obrazlilik, poetik vositalari hamda xalqona ifoda usullarini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda 1. Jumanazarova G. Fozil shoir dostonlari tilining leksik-stilistik qatlamlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2012. 10-b.

dostonning estetik ta'sir kuchini ta'minlovchi lingvistik omillar yoritilgan². R.Rasulov "Alpomish" dostonining sintaktik xususiyatlarini o'rganib, epik nutqqa xos bo'lgan gap qurilishi, sintaktik bog'lanishlar va murakkab gap strukturalarini aniqlagan³. S.Tursunov esa "Alpomish" dostonining leksikasini tahlil qilib, undagi tarixiy, dialektal va qadimgi turkiy leksik birliklarning o'rnini ko'rsatib bergan⁴. Z. Xolmonovning Po'ltan shoir tomonidan kuylangan "Shayboniyxon" dostoni leksikasiga bag'ishlangan tadqiqot ishida dostonni o'ttizdan ortiq leksik-genetik va mavzuiy-semantik guruhlariga ajratgan holda tadqiq etgan. Shuningdek, leksik birliklar qo'llanish chastotasiga ko'ra yuqori, o'rtacha va kam ishlatiladigan guruhlariga ajratib yoritilgan⁵. Bundan tashqari, shakl va mazmun

2 Шоабдурахмонов Ш. О художественных средствах языка поэмы

«Равшан»: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1949. – 20 б.

3 Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане Алпамыш»: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 23 б.

4 Турсунов С. Лексические особенности дастана «Алпамыш»: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1990. – 26 б.

5 Xolmonova Z. "Shayboniyxon" dostoni leksikasi (Po'ltan shoir varianti asosida): Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1998. 27-b.

munosabatiga ko'ra sinonim, antonim va omonim birliklar ham tahlil qilingan. Po'ltkan shoir ijodi boshqa tilshunos olimlarning ham e'tiborini tortib kelgani bejiz emas, zero uning dostonlarida o'zbek tilining nihoyatda boy va rang-barang imkoniyatlari yaqqol namoyon bo'ladi. A.Rahimov o'z ishida o'zbek xalq dostonlari leksikasini qiyosiy-tarixiy jihatdan o'rganib, turli dostonlar leksikasidagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlagan hamda ularning shakllanish manbalarini yoritib bergan⁶. J.Xolmurotova Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining funksional-uslubiy xususiyatlarini tahlil qilib, hududiy epik an'anaga xos leksik birliklarning badiiy va kommunikativ vazifalarini ko'rsatib bergan⁷. A.Xoliqov esa "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etib, epik matnda ramziy va mifologik ma'nolarning ifodalanish usullarini aniqlagan⁸. G.Jumanazarovanning Fozil shoir dostonlari tilining leksik-stilistik qatlamlariga bag'ishlangan tadqiqoti individual ijodkor uslubini yoritishga xizmat qilsa, uning "Shirin bilan Shakar" dostoniga oid ishi mazkur epik asarning lug'aviy boyligi va lingvopoetik imkoniyatlarini ochib beradi⁹. Sh.Mahmadiyev esa xalq dostonlari tilida keng qo'llaniladigan stilistik formulalarni o'rganib, epik nutqning formulaviy xususiyatlarini tizimli ravishda asoslab bergan¹⁰. G.Qodirova o'zining "Zevaxxon" dostonining til xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan doktorlik ishida asar leksikasining hajmi, tarkibi va grammatik-semantik belgilari ilmiy asosda tahlil qilgan. Doston matnidagi 15701 ta so'zni aniqlab, ular asosida so'zlik, alfavitli, chastotali va ters lug'atlar kabi muhim leksikografik manbalar yaratgan. Asardagi ot, fe'l, sifat, son, olmosh va ravishlar o'zaro turkumlarga ajratilib, ularning grammatik-semantik xususiyatlari belgilagan. Shuningdek, doston tilida qo'llangan leksemalarning kelib chiqishi (turkiy, arabiy, fors-tojikcha qatlamlar) aniqlanib, ko'p ma'nolilik hodisalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida dostonning so'z boyligida uchraydigan lavozim va martaba nomlari, harbiy atamalar, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, o'lchov birliklari hamda diniy tasavvurlarga oid leksik birliklar tizimli ravishda o'rganilgan¹¹. Bundan tashqari, M.Narmatovanning "Xalq dostonlarida ijtimoiy – siyosiy va maishiy leksika ("Malikai ayyor" va "Bahrom va Gulandom" dostonlari misolida) nomli dissertatsiyasi ham alohida ahamiyatga

ega. Ushbu dostonlar tilini lingvistik jihatdan o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotda xalq og'zaki ijodining leksik qatlamlari epik obrazlar, harbiy hayot, oila munosabatlari, kiyim-kechak, taomlar, uy-ro'zg'or buyumlari kabi turli tematik guruhlar asosida tizimli tahlil qilingan. Epik qahramonlarga, harbiy qurollar va xatti-harakatlarga, makon nomlariga oid leksemalarning funksional-semantik va etimologik xususiyatlari aniqlanib, ular dostonlarning badiiy-estetik mazmunidagi o'rniga ko'ra yoritilgan. Shuningdek, oila va qarindoshlik munosabatlariga doir birliklar semantik maydon sifatida o'rganilib, ularning etnolingvistik va etnomadaniy tabiati ochib berilgan. Taom, ichimlik, kiyim-kechak, libos va uy-ro'zg'or buyumlariga oid leksik birliklar o'zbek xalqining moddiy va ma'naviy hayoti bilan uzviy bog'liq lingvomadaniy ko'rsatkichlar sifatida dalillab berilgan¹².

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilshunoslari xalq dostonlari tiliga uzoq yillardan beri e'tibor qaratib kelmoqdalar. Ayniqsa, so'nggi yillarda xalq dostonlarining dialektal xususiyatlarini o'rganish, ular ustida tadqiqot olib borish yanada kuchayib ketdi. Shunday tadqiqotlardan biri X.Xaitovning "Alpomish" dostonining dialektal xususiyatlari" nomli doktorlik ishidir. Tadqiqot "Alpomish" dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li ijrosidagi variantida uchraydigan dialektal birliklarning lisoniy va nolisoniy omillar bilan bog'liq xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganishga bag'ishlangan. Doston matnidagi leksik, fonetik va morfologik dialektizmlar tizimli tahlil qilinib, ularning lug'aviy-ma'naviy, tarixiy-etimologik va uslubiy tabiati lingvistik mezonlar asosida yoritilgan. Dostonning Fozil Yo'ldosh o'g'li hamda Abdunazar Poyonov ijro etgan variantlari qiyosiy o'rganilishi natijasida baxshilarning sheva arealiga mansubligidan kelib chiqqan ko'plab leksik dialektizmlar aniqlanib, ular baxshi-jirovlar idiolektini shakllantiruvchi muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Shuningdek, izohli lug'atlarda qayd etilmagan morfologik dialektizmlarning derivatsion va semantik xususiyatlari ilk bor tavsiflanib, ularning qipchoq dialektidagi shakllar bilan mosligi asosida doston ijrochilarining hududiy lahjasi aniqlab berilgan. Fonetik dialektizmlar esa kombinator va pozitsion tovush o'zgarishlari natijasida yuzaga kelib, doston matnining soddah, ravon va mahalliy koloritga ega bo'lishida muhim rol o'ynashi aniqlangan. Bu birliklarning nazmiy bamlarda ritmik uyg'unlik va bo'g'inlar mutanosibligini ta'minlashdagi uslubiy vazifasi yoritilganligining guvohi bo'lamiz. Umuman olganda, tadqiqot "Alpomish" dostonining dialektal tabiatini ilmiy jihatdan chuqur o'rganib, folklor dialektologiyasi, lingvofolkloristika, leksikologiya va uslubiyat sohalari uchun bir qancha ilmiy g'oyalar va nazariy xulosalarni taqdim etgan¹³.

12 Narmatova M. Xalq Dostonlarida ijtimoiy-siyosiy va maishiy leksika: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Jizzax, 2025. 48-b.

13 Xaitov X. "Alpomish" dostonining dialektal xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Andijon, 2025. 160-b.

6 Rahimov A.S. O'zbek xalq dostonlari leksikasining qiyosiy-tarixiy tahlili (Ergash Jumanbulbul o'g'li ijodi misolida): Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – Samarqand, 2002. 26-b.

7 Xolmurotova J. Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2000. 27-b.

8 Xalikov A.A. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2009. 24-b.

9 Jumanazarova G. Fozil shoir dostonlari tilining leksik-stilistik qatlamlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2012. 10-b.

10 Mahmadiyev Sh. O'zbek xalq dostonlari tilida stilistik formulalar: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Toshkent, 2007. 26-b.

11 Qodirova G. Fozil Yo'ldosh o'g'li "Zevaxxon" dostonining lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Jizzax, 2024. 137-b.

O'zbek xalq dostonlari tili milliy til taraqqiyoti, xalq tafakkuri va madaniy xotirasini o'zida mujassam etgan noyob lingvistik manba hisoblanadi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilshunosligida xalq dostonlari tilini o'rganish izchil va bosqichma-bosqich rivojlanib, leksikologiya, dialektologiya, etnolingvistika, lingvokulturologiya hamda lingvofolkloristika kabi zamonaviy yo'nalishlar bilan boyib bormoqda. Tadqiqotchilar tomonidan dostonlar leksikasining genetik tarkibi, tematik-semantik qatlamlari, dialektal unsurlari, arxaik birliklari hamda ularning badiiy-uslubiy vazifalari ilmiy asosda yoritilgan. Ayniqsa, "Alpomish", "Zevaxon", "Malikai ayyor", "Bahrom va Gulandom" kabi yirik epik asarlar misolida olib borilgan tadqiqotlar doston tilining nafaqat adabiy til bilan, balki hududiy shevalar, baxshi-jirovlar idiolekti va xalq og'zaki nutqi bilan uzviy aloqador ekanligini ko'rsatib berdi. Dialektal birliklarning epik matnda mahalliy kolorit, ritmik uyg'unlik va obrazlilikni ta'minlashdagi roli aniq dalillar asosida ochib berildi. Bu esa xalq dostonlarini folklor dialektologiyasi nuqtayi nazaridan o'rganish istiqbollari keng ekanligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, o'zbek xalq dostonlari tilini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar milliy til tarixini chuqurroq anglash, xalqning moddiy va ma'naviy madaniyatini lingvistik jihatdan talqin etish hamda epik matnlar asosida izohli va tematik lug'atlar yaratish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada keltirilgan

tahlillar kelgusida xalq dostonlari tilini kompleks, qiyosiy va integrativ yondashuvlar asosida o'rganish zaruratini yana bir bor ko'rsatadi hamda ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar dolzarbligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda lingvofolkloristika yo'nalishida ayrim ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, bu sohada hali qilinishi kerak bo'lgan vazifalar ko'p. Xususan, barcha xalq dostonlarining til xususiyatlari to'liq va izchil o'rganilmagan. Ayrim mashhur dostonlarga tahlil qilingan bo'lib, ko'plab dostonlarning leksik boyligi, frazeologiyasi, badiiy tasvir vositalari va grammatik xususiyatlari e'tibordan chetda qolgan. Aksariyat tadqiqotlarda folklor asarlari mazmun jihatidan tahlil qilinadi, biroq ularning til xususiyatlari, so'z tanlovi va nutqiy shakllariga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Natijada folklor va til o'rtasidagi bog'liqlik to'liq ochib berilmay qolmoqda. Shuningdek, ko'plab ishlar faqat an'anaviy xalq og'zaki ijodi namunalari bag'ishlangan bo'lib, zamonaviy folklor, kundalik nutq va internet muhitidagi folklor namunalari o'rganish sust darajada qolmoqda. Folklor matnlarini jamlash, tartibga solish va zamonaviy usullar asosida tahlil qilish borasida ham kamchiliklar mavjud. Kelgusida bu yo'nalishda folklor matnlarini ko'proq til nuqtayi nazaridan o'rganish, yangi mavzularni qamrab olish va tadqiqotlarni amaliy jihatdan boyitish zarur. Bu esa lingvofolkloristikaning rivojiga, shuningdek, o'zbek tili va folklorini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar


1. Jumanazarova G. Fozil shoir dostonlari tilining leksik-stilistik qatlamlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2012. 10-b.
2. Шоабдурахмонов Ш. О художественных средствах языка поэмы «Равшан»: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1949. – 20 б.
3. Расулов Р. Синтаксические связи между словами в дастане «Алпамыш»: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. –Ташкент, 1981. – 23 б.
4. Турсунов С. Лексические особенности дастана «Алпамыш»: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. –Ташкент, 1990. – 26 б.
5. Xolmonova Z. "Shayboniyxon" dostoni leksikasi (Po'lkani shoir varianti asosida): Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1998. 27-b.
6. Rahimov A.S. O'zbek xalq dostonlari leksikasining qiyosiy-tarixiy tahlili (Ergash Jumanbulbul o'g'li ijodi misolida): Filol. fanlari nomz. ...diss. avtoref. – Samarqand, 2002. 26-b.
7. Xolmurotova J. Shimoliy Xorazm dostonlari leksikasining funksional-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2000. 27-b.
8. Xalikov A.A. "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostoni tilining leksik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ...diss. avtoref. – Toshkent, 2009. 24-b.
9. Mahmadiyev Sh. O'zbek xalq dostonlari tilida stilistik formulalar: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. –Toshkent, 2007. 26-b.
10. Qodirova G. Fozil Yo'ldosh o'g'li "Zevaxon" dostonining lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Jizzax, 2024. 137-b.
11. Narmatova M. Xalq Dostonlarida ijtimoiy-siyosiy va maishiy leksika: Filol. fan. nomz. ... diss. avtoref. – Jizzax, 2025. 48-b.
12. Xaitov X. "Alpomish" dostonining dialektal xususiyatlari: Filol. fan. nomz. ... diss. – Andijon, 2025. 160-b.



Tjad soati



O'qituvchi, muallim kasbiy faoliyati bevosita ijod bilan bog'liq jarayon. Shu bois aksariyat ustozlarimizning badiiy adabiyotga daxldor ijod namunalari bo'lishi tabiiy. Jurnalimiz mazmun-mundarijasidan kelib chiqqan holda, ijodkor muallimlar va o'quvchi yoshlarning ilhom namunalarini ijod soati ruknida berib borishni joiz topdik. Zero, muallimlarning tunlari uxlamasdan ilhom va tafakkur uyg'unligidagi zahmatli mehnatlari faqatgina o'zlarining daftarlari varaqlarida qolib ketmasin. Ne ajabki, muallim daftarlarida bitilgan samimiy satrlar yoshlar va hamkasblari qalbida ham ilhom cho'g'larini otashlantirsa.





Saidakbar SURXONDARYO

Olimqulov Saidakbar 2005-yil 22-oktabrda Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumani Sangardak MFY Bog'cha qishlog'ida tug'ilgan. Uning she'rlari "Adabiyot olami", "Janub posboni", "Bekajon Plus" gazetasi hamda "Davrimiz ijodkorlari dahosi" almanaxida bosilib chiqqan. Ko'plab she'rlar muallifi.

Navro'zim keldingmi meni so'roqlab

Tog'lardan qor ketib yerlar ochildi.
Boychechak ochilib nurini sochdi,
Mayin shabbodalar yuzga urildi,
Navro'zim keldingmi meni so'roqlab.

Navbahor o'lkalarda yerlarda bahor,
Ta'zimga bosh egib keldi navbahor.
Yasharish ayyomi kelganda bahor,
Navro'zim keldingmi meni so'roqlab.

Dunyo bittadir tanhosan, yurtim,
Seni almashmayman o'zga yurtlarga.
Bugun shodiyona kun yangi kun Navro'z,
Navro'zim keldingmi meni so'roqlab.

Samoda yangrar qushlar ovozi,
Yerlarda yangrar kuy qo'shiq sozi,
Orombaxsh etar yetar hamrozi,
Navro'zim keldingmi meni so'roqlab.

Dunyo tan oladi ona yurtimni,
Poyiga tiz cho'kib tuprog'in o'pib,
Orzu havas qilar seni yod etib,
Navro'zim keldingmi meni so'roqlab.



Ilmiy-metodik elektron jurnal

TAHRIR HAY'ATI:

Nizomiddin Mahmudov, Yorqinjon Odilov,
Jabbor Eshonqulov, Baxtiyor Daniyarov,
Abdurahim Nosirov, To'liq Saydaliyev,
Barno Buranova, Zulxumor Mirzayeva,
Qozoqboy Yo'ldoshev, Bahodir Jovliyev,
Salima Jumayeva, Qayum Baymirov,
Manzar Abdulxayrov, Alijon Safarov,
Husniddin Norqulov, Odiljon Boynazarov,
Madina Nuriddinova, Barno Kadirova,
Nargiza Mirzayeva, Guli Shukurova,
Yuldosh Raxmatov, Ramziddin Abdusatorov,
Feruz Manukyan, Gulchexra Keldiyorova,
Gulsanam Xolikulova, Svetlana Umirova,
Xolmo'min Fayzullayev, Nilufar Namazova,
Sayyora Halimova, Tadjixon Sabitova,
Mohigul Fozilova, Maxpuza Karaxodjayeva,
Dilfuza Toshniyozova, Gulboxor Ernazarova,
Komiljon Qarshiyev, Uyg'unjon Turdimurodov,
Diyora Yunusova, Ra'no Abdullayeva,
Sharif Yarashov, Shaxnoza Xudaykulova,
Mahliyo Elboyeva Sanobar Ulliyeva,
Surayyo Inomjonova, Nurali Hamidov,
Davronova Mahfuza, Dilafruz Jabborova,
Begali Mardiyev, Normuhammad Ubaydullayev,
Feruz Sharopova, Adiba Ma'diyeva,
Nilufarxon Mahmudova, Munisjon Hakimov,
Sharipboy Bobojonov, Madixabonu Pardayeva,
Xilola Ismailova, Kamola Jumayeva,
Marxabo Abdullayeva, Nigoraxon Ro'zibayeva,
Dildora Usarova, Mahkamoy Tursunova.

Bosh muharrir:

Nargiza Berdiyeva

Muharrirlar:

Bibimaryam Rahmonova,
Shabnam G'aniyeva, Bonu Do'smatova

Sahifalovchi:

Rustambek Yusupov

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi 30-uy.

Telefonlar:

(93) 759-43-66, (77) 003-34-33,
(94) 095-96-22, (90) 288-32-92.

E-mail: tilvaadabiyotuz@gmail.com

Axborot hamkorimiz:

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

ilmiy-metodik jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya, Pedagogika hamda Psixologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdir.
<https://oak.uz/pages/4802>



MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU

Mirfozil MIRZAAHMEDOV.

Sumbuloy SAIDOVA.

ABJAD HISOB — ADABIYOT VA TA'LIM
INTEGRATSIYASINING TARIXIY ILDIZLARI 3

O.S.ABDULLAYEVA.

M.T.NASRIDDINOVA.

OLYI TA'LIM MUASSASALARINI RIVOJLANTIRISH
SHAROITIDA TA'LIM JARAYONLARINI
BOSHQARISHNING INTELLEKTUAL TIZIMINI
YARATISH 6

TILSHUNOSLIK

Umida KABULOVA.

FRAZELOGIZMLARNING MAZMUNYI YAXLITLIGINI
TA'MINLOVCHI SEMANTIK ASOSLAR 9

Ma'rifat XUSANOVA.

IDIOSTILNING SHAKLLANISHIDA OKKAZIONAL
BIRLIKLARNING O'RNI 11

Munisa ISAQOVA.

XALQARO HUQUQIY TERMINLARNING QIYOSIY
TADQIQI 13

Guzal TURAYEVA.

TA'LIM TERMINOLOGIYASIDA INGLIZCHA
NEOLOGIZMLARNING O'ZBEK TILIGA
ADAPTATSIYASI 15

Tolkin MARDIYEV.

Olmos UMIRKULOV.

THE ROLE OF FOREIGN LANGUAGES IN THE
DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR 17

Mamura SAIDOVA.

THE ROLE OF CONTEXT IN ESTABLISHING
THE COMMUNICATIVE FUNCTIONS OF
INTERROGATIVE SENTENCES 20

ADABIYOTSHUNOSLIK

O'ktam MURODOV. AMIR TEMUR, ABDULQODIR MAROG'Y VA TEMURIYLAR DAVRI MUSIQA MAJLISLARI.....	23
Gulrux IMAMOVA. ERNEST XEMINGUEY IJODIDA ADABIY PORTRET VA INSON TASVIRIGA OID AYRIM MULOHAZALAR.	25
M.P. ТУРДЫЕВА. СПЕЦИФИКА ПОЗДНЕГО ТВОРЧЕСТВА В.С.ТОКАРЕВОЙ	27

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA

Sherzodbek ERMATOV. Akramjon MIRZAYEV. MEDIA SAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI FANI KONTEKSTIDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING SUN'YI INTELLEKT SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI.....	30
Lobar IBROXIMOVA. KEYS-METOD ORQALI CHET TILI DARSLARIDA KASBIY KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH	32
Maxmuda YULDASHEVA. ADABIYOT DARSLARIDA EVRISTIK XARAKTERDAGI TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH METODIKASI	34
Nafosat OROMOVA. ADABIYOTNI O'QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUV	38
Nargiza JUMAQULOVA. ADABIY TA'LIMDA DIDAKTIK MUVOZANATNI TA'MINLASH MEKANIZMLARI.....	40
Sarvinoz OMONOVA. BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINING YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISH USULLARI	42
Дильфуза ХУДАЙБЕРДИЕВА. СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В АСПЕКТЕ ЛИЧНОСТНО- ОРИЕНТИРОВАННОГО ПОДХОДА В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ	45
Sitora NORMURODOVA. "MICRO-TRANSLATION TASKS AS A METHOD OF DEVELOPING ACADEMIC WRITING SKILLS"	47
Madina BOZOROVA. "MICRO-TRANSLATION TASKS AS A METHOD OF DEVELOPING ACADEMIC WRITING SKILLS"	49

TADQIQOTLAR

Nilufar AVAZOVA. O'ZBEK SHE'RIYATIDA TO'RTLIK JANRINING MAVZU DOIRASI.....	52
Mohira NURMUXAMEDOVA. ALPOMISH, JUMONG VA ILYA MUROMETS OBRAZLARINING AFSONA VA TARIXDAGI O'RNI	55

Dildora RAXMANOVA. AKA-UKA GRIMM ERTAKLARIDAGI KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVISTIK TAHLILI	57
Roziya USMONOVA. TRANSFORMER MODELARINING TABIIY TILNI TUSHUNISHGA TA'SIRI.....	60
Gavharoy XOLISOVA. TIJORIY DISKURSNING LINGVOMADANIY VA KOGNITIV-SEMANTIK TADQIQI.....	63
Shaxzoda MUXAMMADALIYEVA. MAKONIY KODLARDA RAMZIY MA'NONING AKS ETISHI	65
Moxigul ALMARDONOVA. QASHQADARYO VILOYATI TOPONIMLARINING TARIXIY SHAKLLANISHI VA ULARNING HUDUD XOTIRASIDAGI O'RNI	67
Manzura NARZILLOYEVA. JONDOR MIKROTOPONIMLARINING ETIMOLOGIK TADQIQI.....	69
Iqbol RUSTAMOVA. KONSEPT VA UNING DUNYO TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	71
Saida ABRAMATOVA. QIYOSIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK NUQTAYI NAZARIDAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMA XUSUSIYATLARI	73
Otabek ISAKOV. Farxod FAYZULLAYEV. MEDITSINA TERMINLARINI TARJIMA QILISHDA EKVIVALENTLIK MASALASI	76
Madina ACHILOVA. LESIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA TIL MATERIALINI TANLASH VA SARALASH MUAMMOLARINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI.....	79
Madina XASANOVA. BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING TIL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA TA'LIM JARAYONINING PEDAGOGIK MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI	81
Munira UMAROVA. ESP KURSARI UCHUN O'QUV DASTURINI TANLASH MUAMMOSI.....	84
Shaxnoza MUXTAROVA. FANLARARO INTEGRATSIYA - ZAMONAVIY TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI.....	87
Shohsanam ODINAYEVA. TALABA YOSHLARDA IJTIMOYIY XAVOTIR DARAJASINING KASBIY O'Z-O'ZINI ANGLASH VA KASBIY IDENTIFIKATSIYAGA TA'SIRI.....	89
Nafisa TURSUNOVA. TALABALARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA IFODALI O'QISHNING O'RNI.....	92
Maxbuba SADIKOVA. TEXNIKA YO'NALISHIDAGI TALABALARGA XORIJIY TILNI O'QITISHDA KASBIY TERMINOLOGIYANING O'RNI	94

Nilufar SAIDOVA. ISPAN TILIDAGI REKLAMA MATNLARINI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDA LINGVOKULTUROLOGIK TRANSFORMATSIYALAR VA SEMANTIK ADAPTATSIYA MUAMMOLARI	97	Dilnoza TURG'UNBOYEVA. O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SONLARNING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI.....	132
Zamira XUDOYKULOVA. INGLIZ VA O'ZBEK NASRIDA AYOL ERKI MUAMMOLARI.....	100	Умида ХАМИДОВА. ОСНОВНЫЕ ТРУДНОСТИ ПЕРЕВОДА МЕЖДУ РУССКИМ И УЗБЕКИСТАНСКИМ ЯЗЫКАМИ.....	135
Shaxobiddin ABDULLAYEV. IJTIMOIY TARMOQLARDA PAYDO BO'LAYOTGAN YANGI SO'ZLAR VA ULARNING O'ZBEK HAMDA INGLIZ TILLARIGA KIRIB KELISHI	102	И.В. РОДИНА. АКТУАЛЬНОСТЬ ТВОРЧЕСТВА Ф.М.ДОСТОЕВСКОГО В ЭПОХУ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	138
Muborak SAGATOVA. INGLIZ VA O'ZBEK IJTIMOIY GAZETA MATNLARIDA KONSEPTUAL METAFORALARNING QIYOSIY TAHLILI	105	Муслима ЭРКАБОЕВА. КОМПЛИМЕНТ КАК РЕЧЕВОЙ АКТ И ЖАНР ЦИФРОВОЙ КОММУНИКАЦИИ	141
Orzubek ANARBOYEV. GAZETA DISKURSIDA INGLIZCHA QO'SHMA SO'ZLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	107	Malikakhon RAKHIMDJANOVA. DECENTERING AS A TOOL FOR CRITICAL THINKING IN THE DEVELOPMENT OF INTERCULTURAL SENSITIVITY	143
Zarnigor BEKNAZAROVA. INGILIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDAGI DETEKTIV ASARLARIDA INSON QISMATINING IJTIMOIY- PSIXOLOGIK TALQINI.....	109	Kizlarxan DJABBAROVA. COGNITIVE-PRAGMATIC ANALYSIS OF LITERARY TEXTS: CONCEPTUAL METAPHORS AND COMMUNICATIVE STRATEGIES.....	145
Malika YUNUSOVA. INGLIZ TILINI O'QITISH JARAYONIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KREATIV VA MANTIQIY FIKRLASHNI STEAM ASOSIDA SHAKLLANTIRISH	112	Gulyora SAIDOVA. THE ROLE OF WEB2 PLATFORMS IN FACILITATING ONLINE TRANSLATION SERVICES.....	148
Dilnoza XODJAYEVA. INGLIZCHA TARJIMADA NUTQIY JANRNI SAQLASH MASALASI (JANE EYRE ROMANI QIYOSIY TAHLILIDA)	114	Yunus MASHARIPOV. THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN EDUCATIONAL PSYCHOLOGY: UNDERSTANDING THE LEARNING PROCESS, MOTIVATION, AND COGNITIVE DEVELOPMENT	150
Shaxodat AXMEDOVA. INGLIZ TILIDAGI TIBBIY LEKSIK BIRLIKLARNING STRUKTURAVIY XUSUSIYATLARI	117	Dilnora BAXTIYOROVA. MEANING CONSTRUCTION IN SPOKEN AND WRITTEN LANGUAGE.....	152
Gulmiraxon ABDUJALILOVA. QISSA JANRINING GENEZISI VA TARAQQIYOTI.....	120	Shakhnoza KHASANOVA. PSYCHOLINGUISTIC MECHANISMS OF TERMINOLOGY ACQUISITION AND THEIR ROLE IN ORAL FLUENCY DEVELOPMENT	154
Nigora IBRAGIMOVA. AKSIOLOGIK MODUSNING TILSHUNOSLIKDA O'RGANILISH AHAMIYATI.....	122	Shakhnoza KHUSHMANOVA. THE MECHANISMS OF DIALOGUE AND COMMUNICATION OF THE CONCEPT OF GREETING IN ARTISTIC DISCOURSE	157
Muxayyo JUMAYEVA. LEKSIK KONNOTATSIYANING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASI SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI	124	Ezoza XALMURADOVA. IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH THROUGH DEVELOPING THE TEACHER'S ROLE IN CLASSROOM ACTIVITIES	159
Mumtozbegin NEGMATOVA. DIPLOMATIK DISKURS TUSHUNCHASINING SHAKLLANISHI.....	126	Muborak UROKOVA. THE ROLE OF DIFFERENTIATED INSTRUCTION IN ENHANCING STUDENT ENGAGEMENT AND ACADEMIC ACHIEVEMENT	161
Mohigul OMONOVA. LUG'ATLAR BILAN ISHLASHNING NAZARIY ASOSLARI	128	Dilfuza ALLAYAROVA. SMART PLATFORMS FOR ORGANIZING INDEPENDENT WORK OF HIGHER EDUCATION STUDENTS: PEDAGOGICAL FOUNDATIONS AND METHODOLOGY OF USE	163
Muhammadaziz OMONOV. XORIJIY TIL TA'LIMIDA LOYIHA TEXNOLOGIYASINING MOHIYATI VA QO'LLANISHI: MUVAFFAQIYATLI VA MUAMMOLI TAJRIBALAR TAHLILI.....	130	Oltinoy SULTANBAYEVA. DEVELOPING ACADEMIC WRITING SKILLS FOR UZBEK UNIVERSITY STUDENTS	165

Dilorom SOBIROVA. DEVELOPMENT OF EFL UNIVERSITY STUDENTS' PRODUCTIVE SKILLS THROUGH NEUROPEDAGOGICAL STRATEGIES.....	167
Umida PARPIYEVA. SPECIALIZED DICTIONARIES AND THEIR ROLE IN LANGUAGE DEVELOPMENT	169
Khurshida JURAYEVA. CHALLENGES IN TEACHING LANGUAGE SKILLS: THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS	172
Gulkhayo ABDULLAEVA. ENGLISH EPONYMS: FORMATION, CLASSIFICATION, AND THEIR ROLE IN MODERN VOCABULARY.....	174
Dilobar USNADDINOVA. FUNCTION OF DIALOGUE IN CHARACTER CONSTRUCTION IN ENGLISH VS. UZBEK DRAMATIC WORKS	176
Laylo ALLANOVA. A COMPARATIVE ANALYSIS OF THE STRUCTURE AND SEMANTICS OF MODAL VERBS IN ENGLISH AND UZBEK	179
Madina BEGIZOVA. HYPERONYMIC-HYPONYMIC RELATIONS IN ENGLISH TRAIT NOUNS	181
Nilufar MADAMINOVA. DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE THROUGH TEACHING ENGLISH TO NON-PHILOLOGICAL STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF AGRICULTURAL SPECIALTIES).....	183
Nargiza YULDASHOVA. USING GAMIFICATION IN DEVELOPING SOCIOCULTURAL COMPETENCE THROUGH TEACHING ENGLISH TO NON-PHILOLOGICAL STUDENTS	185

PEDAGOGIKA

Munavvar KURBONOVA. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KPI ASOSIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASI.....	185
Gayratjon TAJIBAYEV. TA'LIM O'ZBEK, RUS, QIRG'IZ VA TOJIK TILIDA OLIB BORILADIGAN BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILIDA GAP TUZILISHINI O'QITISHDA ONA TILINING IJOBIY VA SALBIY TA'SIRI	188
Gulnora RAXMATOVA. INTELLEKTUAL RIVOJLANISHIDA KAMCHILIGI BO'LGAN BOLALARDA NUTQNING RIVOJLANISHI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA	191
Дилафруз АЛИЕВА. ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ, ПРАКТИКА И ПЕРСПЕКТИВЫ	193
Dilbarxon ALIXANOVA. EFFECTIVE METHODS OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES TO SLOW-LEARNING UZBEK-SPEAKING LEARNERS AND THE ROLE OF RELIGION, GENDER, AND CULTURE.....	195

Shahlo MO'MINOVA. ALISHER NAVOIYNING "MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASIDA MIRZO ULUG'BEKKA OID LEKSIKA.....	199
Gullola OLIMOVA. NAVOIY NASRIDAGI NA'TLAR JILOSI	201
Nasiba JO'RAYEVA. BOBUR "DEVON"IDAGI ALISHER NAVOIYGA BAG'ISHLANGAN RUBOIYLAR LINGVOPOETIKASI	203
Sevinch TOJIYEVA. ADABIYOTSHUNOSLIKDA TAHLIL VA TALQIN TUSHUNCHALARI.....	205
Gulandon GULLIYEVA. QASHQADARYO XALQ BAXSHILARI - SHOMUROD VA QODIR BAXSHILAR IJODINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	208
E'zoxon ERQULOVA. HAJVIY ASARLARDA ANTROPONIMLARNING QO'LLANILISHI	210
Aziza NURMAMATOVA. ADOLATSIZ TIZIM VA KORRUPSIYA FOJIASI: "MENING O'G'RIGINA BOLAM" TALQINI.....	213
Anora FAYZIYEVA. SUN'IY INTELEKTGA OID MAXSUS LUG'ATLAR YARATISH ZARURATI	215
Ruxshona BAXTIYOROVA. RAQAMLI MEDIA DISKURSNI TAHLIL QILISHDA INTEGRATSIYALASHGAN MODELLAR ISHLAB CHIQUISH MASALASI	218
Nasibaxon XAYDAROVA. SHAHAR VA QISHLOQ O'RTASIDAGI MADANIY KODLAR ALMASHINUVI	222
Husniyabonu YODGOROVA. SHAXSIY YOZISHMA VA IZOH MATN TUSHUNCHASI.....	225
Xurshida DONIYEVA. BADIY MATNDA ANTROPONIMLARNING QO'LLANILISHI VA ULARNING BADIY-ESTETIK VAZIFASI.....	229
Nafisa NORJIGITOVA. BIR ASOSDAN YASALGAN FE'LLARNING SEMANTIK TAHLILI HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR	231
S.B.XURSANQULOV. O'ZBEK VA TURK TILLARIDAGI FRAZELOGIK BIRLIKLARNING OMONIMLIK XUSUSIYATLARI.....	234
Ulug'oy MAXAMADINOVA. BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING SHAXSIY KOMPETENTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH	236
Zulfizar NOSIROVA. O'ZBEK XALQ DOSTONLARI TIL XUSUSIYATLARINING O'RGANILISHI.....	238

IJOD SOATI

Saidakbar SURXONIY. NAVRO'ZIM KELDINGMI MENI SO'ROQLAB	240
---	-----